

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**R.S. Muratov,  
A.S. Kucharov, D.M. Rasulev**

# **INVESTITSION TAHLIL**

*Darslik*

**Toshkent – 2017**

**Muratov R.S., Kucharov A.S., Rasulev D.M. Investitsion tahlil. Darslik. – T.: TDIU, 2017. -524 b.**

Ushbu darslikda investitsiyalarning mazmuni va uslubiy asoslari, investitsiyalarni joriy etish dastaklaridan samarali foydalanish asoslari, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish omillari ochib berilgan. Asosiy e'tibor investitsiyalarning tahlil qilish usullariga va zarurligiga, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy investitsiya portfellarining boshqaruvida qo'llaniladigan investitsion loyihalarni samaradorligini baholash investitsion menejmenti masalalariga qaratilgan. O'z navbatida, tahdidlar va inflyatsiyalarning oldini olish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Davlat Investitsion dasturini tayyorlashda texnik-iqtisodiy asoslarni tuzish tartibi, shuningdek, sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, ularni tuzish jarayonlari ko'rsatib berilgan.

Darslik iqtisodiyot mutaxassisliklarining barcha yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar, tadbirkorlar hamda iqtisodiyot yo'nalishida mutaxassislar tayyorlaydigan Oliy o'quv yurti ta'lim tizimi talabalari, magistrari va ilmiy tadqiqotchilari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

**Mas'ul muharrir:** B.Yu. Xodiyev – i.f.d., professor

**Taqrizchilar:** R.E.Shokirov, "AI-RAMI" O'zbekiston-Angliya qo'shma korxonasi direktori,

Sh.J. Ergashxo'jayeva, TDIU, Marketing kafedrasini mudiri, i.f.d., professor.

**Муратов Р.С., Кучаров А.С., Расулев Д.М. Инвестиционный анализ. Учебник. – Т.: ТГЭУ, 2017. -524 с.**

В данном учебнике раскрыты методологические основы и содержание инвестиций, эффективного применения инструментов инвестирования, вопросы государственного регулирования инвестиционной деятельности. Основное внимание уделено особенностям и методам инвестиционного анализа, а также вопросам оценки эффективности инвестиционных проектов в контексте инвестиционного менеджмента применяемых в управлении портфелем финансовых инвестиций предприятий и организаций. В частности, изложены составление технико-экономического обоснования Государственной инвестиционной программы Республики Узбекистан, а также процесс формирования Программы локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации в условиях инфляции и риска.

Рекомендовано в качестве учебника соискателям, магистрам, специалистам и предпринимателям, а также студентам Высших учебных заведений по подготовке специалистов экономических специальностей всех форм обучения.

**Muratov R.S., Kucharov A.S., Rasulev D.M. The investment analysis. Textbook. – T.: TSUE, 2017. -524 r.**

Methodological bases and gist of investments, effective using the ways of investment, matters of state regulation of investment activity have been revealed in this textbook.

The care attention is paid to the peculiarities and methods of investment analysis also problems of evaluating the efficiency of investment projects in the context investment management which use in the management of portfolio of financial investments of enterprises and organizations.

In particular compiling technical and economical basis of the State investment programme of the Republic of Uzbekistan, also the process of forming of programme of localization production of prepared products, manufactured articles components and materials on basis of industrial-cooperation in the terms of inflation and risk have been stated.

The given text-book is recommended for researchers, students of Master's degree, specialists and entrepreneurs and also students of Higher educational institutions on preparation specialists of economic professions of all educational directions.

© - Тошкент давлат иқтисодий  
университети, 2017.

## KIRISH

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi.

Bu vazifa, avvalambor, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir, "... qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir<sup>1</sup>.

"Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir"<sup>2</sup>.

"Investitsion tahlil" fani bozor iqtisodiyotining nazariy va amaliy tomonlari asosida investitsiya muhitini o'rganish bilan birga, investitsiya holatlarini tadqiq qilish orqali amaliyotda vujudga keladigan iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda va ularning yechimini topishda, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan fundamental fanlardan hisoblanib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga investitsion faoliyatni tahlil qilishning murakkab bo'lgan usullari orqali turli investitsion faoliyatning tamoyillari va uslublarini, biznes va investitsion loyihalar tushunchasi, ularning maqsadi va klassifikatsiyalarini, korxonalar investitsion loyihalar vazifalari, investitsion loyiha tipologiyasini to'g'ri tanlash bo'yicha yo'nalish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifalari – talabalarga investitsiya muhitini shakllantirish omillarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, investitsion loyihalarini ishlab chiqish, amalga oshirish usullaridan foydalanish va ularni amaliyotda qo'llay olish bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Ushbu darslikda iqtisodiyotning rivojlanishida investitsiyalarning roli, ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni yoritilgan hamda investitsion qarorlarni qabul qilish usullarini to'g'ri tanlash, investitsion loyihalarning tahlili ko'rsatilgan. Bundan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari ko'rib chiqilgan hamda investitsiyalarni samaradorligini aniqlash usullari yoritilgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2010. 56-b.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. <http://kun.uz/news.2017.14.01>.

## **1-bob. “INVESTITSION TAHLIL” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI**

**1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidan kelib chiqqan holda fanning maqsadi va vazifasi.**

**1.2. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davlat investitsiya siyosati. Investitsion muhit va investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari.**

**1.3. Investitsiyalarning klassifikatsiyalari va mazmuni. Investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi.**

*Tayanch iboralar: investitsiya tushunchasi, mohiyati, ahamiyati, investitsiya siyosati, investitsiya bosqichlari, investitsiya klassifikatsiya turlari, obyektlari, subyektlari, investitsiya muhiti.*

.....

**1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi kelib chiqqan holda fanning maqsadi va vazifasi**

Har qanday jamiyatning yashashi uchun ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi shart. Unda uzilish yuz bersa, kishilarning hayotiy ehtiyojlari qondirilmaydi. Ishlab chiqarishning doimiy takrorlanib turishi va umuman iqtisodiyotning ahvoli investitsiyalarning holatidan kelib chiqadi.

Uzoq yillar mobaynida rejali iqtisodiyot davrining iqtisodiy adabiyotlarida “investitsiya” va “kapital qo‘yilmalar” tushunchalari tor ma’noda va bir xil mazmunda talqin qilinib kelingan. Aslida esa “investitsiya” tushunchasi o‘z mazmuni jihatidan ancha kengroqdir.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yuritishni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti yurtimizda bo‘lib o‘tgan Prezident saylovi va O‘zbekiston Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlari davlatimiz tizimi mustahkamligini, hokimiyatning barcha bo‘g‘inlari, jamiyatimiz va xalqimizning jipsligini butun dunyoga yana bir bor namoyon etdi.

“Barchamiz uchun aziz va qadrli bo‘lgan Islom Abdug‘aniyevich Karimov bugun oramizda yo‘q. Biroq Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan



taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz doimo suyanamiz.

Bu tamoyillar O‘zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ta‘minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi”<sup>3</sup>. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta‘minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotimizga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Shu bois, investitsiya faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval bu sohaga oid ba‘zi bir atamalar (investitsiya, kapital qo‘yilma, xorijiy investitsiya) mohiyatini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Misol uchun, sobiq Ittifoq yillarida “investitsiya” va “kapital qo‘yilmalar” tushunchalari bir xil mazmunda talqin qilinib kelingan. Bunday hollarda kapital qo‘yilmalar deganda, asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni ta‘mirlash va ularni kengaytirishga mablag‘lar solish deb tushunilgan. Bunday talqin, tabiiyki, to‘g‘ri emas, chunki mablag‘lar aylanma aktivlarga ham, nomoddiy aktivlarning ayrim turlariga ham, turli moliyaviy vositalarga ham solinadi.

Hozirga qadar “investitsiya” tushunchasi mohiyatini iqtisodchi olimlar turlicha talqin qilib keladilar. Ayrim iqtisodchilar uni “tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqsadida safarbar etilgan barcha turdagi boylik” deb tushunsalar, ayrimlari lotincha so‘zining aynan tarjimasi “solish” degan ma‘noni bildirishidan kelib chiqqan holda “kapital solish” bilan birday qilib ta‘riflaydilar.



Manba: <http://infofx.ru/wp-content/investitsion-analize.jpg>

Xususan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati bo‘lgan U.F.Sharpning eng ommabop hisoblangan “Investitsiya” darsligida: “Investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymat olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatdan voz kechishdir”, – deb ta‘kidlanadi. “Investitsiyalash” atamasining ma‘nosini bu qo‘llanma muallifi quyidagicha sharhlaydi: “Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir” va hisoblaydilarki, yo real, yoki moliyaviy aktivlarni investitsiyalash mumkin.

Shved iqtisodchi olimi Klas Eklund fikricha, “Investitsiya – kelajakda ko‘proq iste‘mol qilish sharoitiga ega bo‘lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste‘mol buyumlari bo‘lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan resurslardir”. Bu iqtisodchi olim investitsiyalarning mohiyatini soddaroq talqin qilgan bo‘lib, u “kapital qo‘yilmalarga” berilgan ta‘rifga ko‘proq mos tushadi.

Sobiq SSSR Oliy Soveti tomonidan 1990-yilda qabul qilingan “SSSRda investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari” da ham investitsiyaga ta‘rif berilgan.

Bu qonunda investitsiyaga berilgan ta‘rif aniqroq bo‘lsa-da, kamchiliklardan

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news.2017.14.01>.

xoli emas. Chunki har qanday investitsiya qo'yish natijasida ular (foydani shakllantirish yoki ijtimoiy samaraga erishish)ga erishib bo'lmaydi. Foydasiz harbiy sanoat majmualari, tugallanmagan qurilish, ijobiy natija olinmagan ayrim ilmiy izlanishlar va shunga o'xshash obyektlarga qo'yilgan mablag'lar samarasiz investitsiyalarga misol bo'la oladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.F.G'ozibekov va T.M.Koraliyevlar investitsiyani daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar deb ta'riflaydilar. Samara keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar);
- mualliflik, ixtirolardan foydalanish huquqlaridan (nou-xau) tashkil topgan mulkdorlik huquqlari, boshqa intellektual boyliklar;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.

Ayniqsa, D.F.G'ozibekovning "Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari" nomli ilmiy asarida investitsiyalarning makrodaraja va ishlab chiqarish nazariyasidagi, moliya nazariyasi va umuman, iqtisodiyotdagi mohiyatini ochib berishi alohida ahamiyatga ega. Muallifning fikricha, investitsiyalarning mohiyatini ta'riflayotganda ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq kerak. Pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nimalarga sarflanishiga, ya'ni pulning qayerdan kelishi va nimalarga investitsiyalanishiga bog'liq.

Binobarin, kapital manbalarining ishonchliligi bilan mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi o'rtasida uzviy bog'liqlik kuzatiladi. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag' solishlardan farqlanib turadi. Shuningdek, investitsiyalarning noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratligi, buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularni ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirib o'tadilar. Ta'kidlaydilarki, investitsiyalar qaratilgan soha va qo'yish obyektlari, investitsiyalash subyektlari, qayta ishlab chiqarish va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni ko'zlaydi va ular bilan bog'liq bo'lgan aniq va noaniq risklar bilan to'qnashadi.

Muallif investitsiyalarning mohiyatini ochishda ularning maqsadlari va ular bilan bog'liq bo'lgan risklar qayta ishlab chiqarish, qaratilgan soha va qo'yish obyektlaridan, investitsiyalar subyektlari va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ularni tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Shuningdek, investitsiya tushunchasining mazmuni O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida "Iqtisodiy va boshqa

faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar" sifatida ham ta'riflanadi.

**"Investitsiyalar"** aslida nemischa **"investment"**, lotincha **"investio"** so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan.

**"Investitsiya"** deganda kelgusi foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investorlar tomonidan uzoq muddatga qo'yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

**"Kapital qo'yilmalar"** deganda esa yangi obyektlarni qurish, amalda faoliyat yuritayotgan korxonalarni ta'mirlash, texnik qayta jihozlash va kengaytirish hamda mashina va uskunalarni, instrumentlar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi tushuniladi.

Kapital qo'yilmalar orqali asosiy fondlar yangilanishiga, korxonaning mehnat unumdorligi oshishiga erishish mumkin. Kapital qo'yilmalar tushunchasi investitsiya tushunchasiga nisbatan torroq tushuncha, kapital qurilish tushunchasiga nisbatan esa kengroqdir. Kapital qo'yilmalar faqat qurilishga sarflanmasdan, balki yangi texnologiyalar, ya'ni asosiy vositalar sotib olish uchun ham yo'naltiriladi. Kapital qo'yilmalar investitsiyaning tarkibiy qismi bo'lib, to'g'ridan to'g'ri asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan qismini tashkil etadi.

Kapital qo'yilmaning – tarmoq, hududiy, texnik va takror ishlab chiqarish tarkiblari mavjud.

Kapital qo'yilmaning tarmoq tarkibi – ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishini anglatadi. Hududiy tarkibi esa kapital qo'yilmani alohida hududlar bo'yicha taqsimotini belgilaydi. Texnik tarkibi – kapital qo'yilmani xarajat elementi bo'yicha taqsimotini anglatadi. Ular qurilish-montaj ishlari uchun yoki texnologiya sotib olishi uchun va boshqa xarajatlarga taqsimlanishi mumkin. Takror ishlab chiqarish tarkibi esa kapital qo'yilmani yangi obyektlarini qurishga, texnik qayta jihozlashga yoki ta'mirlashga yo'naltirilishini bildiradi.

**Investitsiya faoliyati deganda** – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari majmuasi tushuniladi.

**Investitsiyalar** – bu daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.

Modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million AQSh dollari qiymatidagi investitsiyalar yo'naltirish, ularning o'sish sur'atini 109,3 foizga yetkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard AQSh dollaridan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil

qiladi, bu 2015-yilga nisbatan 20,8 foiz ko'pdir.

Investitsion faoliyatni yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona bir maqsadga, ya'ni foyda olishga yoki ijtimoiy samara olishga intiladi.

**Chet ellik investorlar, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.**

Umuman aytganda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosida chuqur o'ylangan, O'zbekistonga xos xususiyatlar to'la hisobga olingan iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va o'zimizga mos modeli mujassam. Ushbu dasturning o'tgan 18 yil mobaynida izchil amalga oshirib kelinishi sobiq "Markaz"ga har tomonlama bog'lanib qolgan agrar, past texnologiyali va samarasiz iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashgan, jahon bozoriga raqobatbardosh, keng darajada xilma-xil tayyor mahsulotlar bilan chiqayotgan, uzluksiz yuqori sur'atlardagi iqtisodiy yuksalishga moyil, jiddiy rasmiy omillar va benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga aylanishini ta'minlaydi.

Bu, o'z navbatida, inqirozning nafaqat salbiy oqibatlarini yumshatishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotini yanada kuchli va bardoshli iqtisodiyotga aylantirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralarning keng miqyosli kompleks dasturini ishlab chiqish hamda uni tezroq amalga oshirish imkonini berdi.

Bunda hal qiluvchi vazifa – xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarni jalb etish evaziga iqtisodiyotning ishlab chiqarish asosini tubdan modernizatsiyalash, uni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

**Chet el investitsiyalari deb, chet ellik investorlar, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad e'tirof etiladi (O'zbekiston Respublikasi "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni, 3-modda).**

## **1.2. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davlat investitsiya siyosati.**

### **Investitsion muhit va investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari**

**Davlat investitsiya siyosati** – iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayondan nomarkazlashgan investitsiya jarayonga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari,



xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tuzishga qaratiladi. Davlat investitsiya siyosati mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish va shu asosda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

**O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini o'z ichiga oladi.**

Yangi qurilish loyihalari uchun 542,7 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan. Modernizatsiya va qayta ta'mirlash loyihalari uchun esa 223,3 million AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilinishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu raqam jami moliyalashtirish manbalari tarkibida 59,1 foizni tashkil qilgan. Boshqa yo'nalishlarda jami 252,3 million AQSh dollari qiymatidagi loyihalarning 104,8 million AQSh dollarlik qismi, ya'ni 41,5 foizi ushbu fond malag'lari hisobiga to'g'ri kelgan. Bu o'rinda ta'kidlash joizki: "Yaqin 3-5 yilda foydalanishga topshiriladigan barcha strategik muhim obyektlarni o'z vaqtida ishga tushirish darkor"<sup>4</sup>.

Iqtisodiyotning tayanch tarmoqlari hisoblangan geologiya, yoqilg'i energetikasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya, qurilish sanoati, infrastruktura obyektlari va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi yangi qurilish, modernizatsiya va qayta ta'mirlash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish g'oyat yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan davrda fond mablag'lari hisobidan 14 ta yirik investitsiya loyihasi moliyalashtirildi. O'zbekiston-Ummon qo'shma investitsiya kompaniyasi ishtirokida to'qimachilik, telekommunikatsiya tarmoqlari va moliya sektorida umumiy qiymati qariyb 80 million AQSh dollarlik 3 ta investitsiya loyihasini moliyalashtirish ishlari boshlanganligini Birinchi Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tgan edilar.

Ushbu istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish va tarkibiy o'zgarishlardagi Tiklanish va taraqqiyot fondinining ahamiyatini yanada oshirish maqsadida uning nizom jamg'armasini 2015-yilgacha ikki barobar oshirish, ya'ni 5 milliard AQSh dollaridan 10 milliard AQSh dollariga ko'paytirish bo'yicha qaror qabul qilindi.

**Davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar hisoblanadi:**

1. Investitsiyalar, ularning harakatlanishi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari munosabatlari, ularni tartibga solib turish bo'yicha qulay huquqiy bazani yaratish, amaldagi qonunchilik-huquqiy bazasini takomillashtirish.

2. Iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, maqsadli investitsion siyosatni yuritish.

3. Investitsion jarayonni yaxshilash va barcha investitsion jarayon

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news.2017.14.01>.



ishtirokchilarining faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

4. Davlat boshqaruv organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat etish funksiyalarini yanada takomillashtirish.

Hozirgi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsion faoliyatni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tatbiq etilmoqda.

O'tgan yillar mobaynida olib borilgan ijobiy investitsion o'zgarishlar natijasida mamlakatimizda qator investitsion obyektlar ishga tushirildi. Bularga misol sifatida, Asakadagi Uz-DaewooAuto, Navoiydagi Zarafshon Nyumont, Samarqandagi Samkochavto, Toshkent viloyatidagi O'zDongju, Buxorodagi neftni qayta ishlash korxonalarini keltirish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha ham qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotda yangi bir termin "investitsion loyiha" kiritildi va uning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi uchun ahamiyati belgilab berildi.

Investitsion loyihalar Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 9-apreldagi 165-sonli "Chet el investitsiyasi ishtirokidagi ustuvor investitsion loyihalarni amalga oshirish



chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tuziladi. Unga ko'ra investitsion loyiha – ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik-iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejaları kabi aspektlarga asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.

Manba: <http://bukvi.ru/ekonomika/investicii/ponyatie-i-tipy-innovacionnogo-povedeniya-organizacii.html>

**Investitsion loyihalar turli maqsadlarda tuziladi va amalga oshiriladi, ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:**

- yangi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishini kengaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- davlat tashkilotlari talabini qondirish, ularni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash.

**Investitsion loyihalarni 4 xil turdagi davr uchun tuzish va moliyalashtirish mumkin:**

- qisqa muddatli loyihalar, muddati 1 yilgacha;
- o'rta muddatli loyihalar, muddati 1-3 yilgacha;
- uzoq muddatli loyihalar, muddati 3-7 yilgacha;
- strategik loyihalar, muddati 7-12 va undan ko'p yillarni tashkil etadi.

Loyihalarda yuqoridagi hayotiylik davri muddatlari loyiha ishtirokchilarining optimal foyda olish bo'yicha maqsadlari va rejalaridan kelib chiqib belgilanadi.

**Loyihalarni 3 turdagi aktivlar (mulk) hisobiga moliyalashtiriladi:**

1) moliyaviy investitsiyalar va qarzlar. Bularga: qimmatbaho qog'ozlar, bankdagi depozitlar, kreditlar, pul mablag'lari, yuqori likvidli qimmatbaho predmetlar kiradi;

2) material (moddiy) aktivlar. Bularga: ko'chmas mulk, asosiy vositalar, yer, ishlab chiqarish texnikasi, liniyalari, xomashyo va materiallar kiradi;

3) nomoddiy aktivlar. Bularga: nou-xau, himoyalangan firma nomidan foydalanish huquqi, intellektual mulk, innovatsiyalar, ishchi kapitali aqliy mahsuli kiradi.

Investitsiya to'g'risidagi qonunga ko'ra loyiha xususiy kapitaliga badal sifatida ta'sischilar bilan kelishgan holda xohlagan turdagi predmet kiritilishi mumkin. Investitsion loyihani moliyalashtirarkan, tashabbuskorlar, avvalo, ushbu loyihadan ko'zlangan maqsadiga yeta olishi mumkinligi yoki yo'qligi haqida o'ylaydi, ularning realligiga ishongach, loyihada qatnashadi va uni moliyalashtiradi.

Investitsion loyihalar ikki xil usulda moliyalashtiriladi: bevosita va bilvosita usullar.

**Har bir loyiha, asosan, ikki turdagi kapital hisobiga moliyalashtiriladi:**

1) tashabbuskor o'z kapitali hisobiga;

2) jalb etilgan qarz kapital hisobiga.

Qarz kapitali o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu uning prinsiplari bilan ifodalanadi: qaytarishning zarurligi, muddatga berilgani, to'lovlilik, maqsadlilik va ta'minlanganlik.

Bundan tashqari uning ma'lum foizga berilishi va loyiha muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilishidan qat'i nazar, ularni qaytarish zarurligi bilan ham ifodalanadi. Bu turdagi kapitaldan foydalanish uchun tashabbuskor uchun puxta, mukammal tuzilgan biznes reja yoki TIA zarur bo'ladi, biznes rejaning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligi, risklardan himoyalanganligidan kelib chiqib, bu ikki turdagi mablag'lardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Qarz kapitali, kreditlarning yana bir xususiyati shundan iboratki, kredit to'lovlari belgilangan muddat va davrlar davomida undirib olinaveradi, tashabbuskor o'z kapitali esa aylanmadan chiqarilmay, kelgusi yillarda ham aylanmada ishlatilishi, reinvestitsiyalanishi mumkin.

Har qanday loyihaning amalga oshirilishi samaradorligiga yuqoridagi 5 ta omil va ularning o'zgarishi bevosita ta'sir etadi.

Investitsion loyihani moliyalashtirish to'g'risida qarorlar ma'lum noaniqliklar va risklar sharoitida qabul qilinadi, bunday noaniqliklarni kamaytirish uchun loyiha haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, ularni tahlil qilish, prognozlash talab etiladi.

**Investitsiya siyosati:**

1. Dasturiy yondashuv – asosiy baza sanoat tarmoqlarini (2016-2017-yillargacha bo'lgan davr) modernizatsiyalash va rivojlantirish, o'rta muddatli: (elektr energetikasi, neft-gaz, kimyo, rangli metallurgiya, qora metallurgiya, qurilish materiallari sanoati, elektrotexnika, avtomobilsozlik,

to'qimachilik, farmatsevtika, charm-poyabzal sanoatlarini).

2. Kompleksli yondashuv – qazib olish va qayta ishlash tarmoqlaridagi (geologiya-qidiruv) xomashyo bazasini kompleksli o'zlashtirish hamda hududlarni kompleksli rivojlantirishni ta'minlovchi loyihalarni rag'batlantirish.

3. Rag'batlantiruvchi yondashuv – mamlakat tarmoqlarining ishlab chiqarish infratuzilmasi, xomashyo resurslari bo'yicha o'rta muddatli rivojlanish strategiyasiga javob bera oladigan investitsiya loyihalariga turli imtiyozlar taqdim etish, shuningdek, keng soliq va bojxona imtiyozlari hisobiga ishlab chiqarishni texnik va texnologik rag'batlantirish.

4. Kam rivojlangan mintaqalar va ustuvor tarmoqlarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini "manzilli" rag'batlantirish.

5. O'zbekiston Respublikasi Rekonstruksiya va taraqqiyot fondi orqali, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilish, shuningdek, konyunktura daromadlarini jamg'arish hisobiga investitsiyalar moliyaviy bazasini kengaytirish.

6. Davlat organlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, ekspertiza qilish va tasdiqlashni tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish.

7. Markazlashgan mablag'lar hamda xususiy kapital hisobiga investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun sharoitlarni yaratish.

8. Davlat investitsiyalari samaradorligini oshirish. Investitsion faollikni rag'batlantirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish ustuvorligini hisobga olgan holda, davlat investitsiyalari xususiy investitsiyalarini o'sishida katalizatorga aylanishi, asosan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

9. Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni tezlashtirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish sur'atini kuchaytirishga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga, eng muhim sharoit – qulay tadbirkorlik muhitini ta'minlashdan tashqari bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi.

Investitsion muhit va uni tashkil etishning shartlari. Davlat investitsiya siyosati rivojlanish bosqichlari.

**Davlat investitsiya siyosatining bosh maqsadi** – iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, korxonalar va kompaniyalarning investitsion faolligini kuchaytirish, nomarkazlashgan investitsiyalashga konsentratsiyalashtirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish. Davlat investitsiya siyosatini yuritishdan ko'zlanadigan maqsadlar qatoriga shuni kiritish kerakki, davlat doimiy ravishda investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratishga harakat qilib kelmoqda. Investorlarning huquqlarini himoya etish va majburiyatlarini bajarishi ustidan nazorat olib bormoqda.

Investitsion muhit deganda, mamlakatning ma'lum bir regioniga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investitsion muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi.

O'zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsion muhit

yaratish, xorijiy investorlarni respublikaga ko'proq jalb etish maqsadida ular uchun qator soliq, bojxona imtiyozlari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1) tayyor kiyim-kechaklar (tikuvchilik, trikotaj, charm buyumlari), paypoqlar, poyabzal ishlab chiqaruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 2013-yil 1-iyuldan boshlab QQS dan tashqari barcha turdagi soliq va ajratmalar to'lashdan ozod qilinganlar, jami respublika bo'yicha bunday korxonalar soni 34 tadir;

2) soliq to'lashdan ozod qilingan mablag'lar korxonani qayta qurollantirish, modernizatsiyalash, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, aylanma mablag'larini to'ldirish va xodimlarni rag'batlantirish uchun ishlatilishi kerak;

3) ustav fondi 1 mln. AQSh dollari va undan yuqori bo'lgan, ustav fondida xorijiy kapital ulushi 50 % va undan ko'p bo'lgan korxonalar 16 % foyda solig'ini to'laydilar (amalda 20 %); iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar esa belgilangan stavkadan 20 % kam stavkada iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olgan foydasidan solig'ini to'laydilar; bolalar assortimenti tovarlari ishlab chiqarsalar, 7 % foyda solig'i to'laydilar;

4) o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun respublikaga xorijiy investor olib kirayotgan texnologik uskuna va xomashyo qiymatidan bojxona boji to'lashdan ozod qilingan (Xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunning 12-moddasi, 6-qismi);

5) xorijiy investor tomonidan respublikada tashkil etilayotgan korxonaga ustav fondiga badal (vznos) sifatida kiritayotgan texnologik uskuna QQS to'lashdan ozod etiladi (Prezidentning №UP-1919 1998-yil 19-yanvardagi farmonining 1-punkti, 5-abzasi);

6) kichik biznes subyektlari xorijiy kreditlar hisobiga respublikaga texnologik uskuna olib kirayotganda bojxona boji to'lashdan (1997-yil 1-fevraldan boshlab) ozod qilinadi (Prezidentning №UP-1702 sonli 1997-yil 31-yanvardagi farmoni);

7) kichik biznes subyektlari respublikada o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etish maqsadida olib kirayotgan texnologik uskuna uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilingan (Prezidentning №UP-1987 sonli 1998-yil 9-apreldagi farmoni).

“Xorijiy investitsiyalar to'g'risida”gi qonunning 22-moddasi, “Xorijiy investorlar huquqlari himoyasi kafolatlari va choralari to'g'risida”gi qonunning 12-moddasiga asosan qonunchilik hujjatlarida ayrim qoidalar bir-biriga mos kelmasa va ular konfliktli holatni yuzaga keltirsa, bunday holda xorijiy investor uchun eng qulay holatni yuzaga keltiruvchi hujjat ko'proq kuchga ega bo'ladi.

2003-yil may oyida VMning “To'g'ri (bevosita) xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. Unga ko'ra respublikamizda o'z faoliyatini yuritayotgan qo'shma korxonalar, xorijiy tashkilotlar yanada ko'proq davlat himoyasiga olindi. U yuzaga kelayotgan kamchiliklarni hal qilishda yordam berishi mumkin.

Masalan, “Konmit” qo'shma korxonasi 1997-yil 18-dekabrda Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan, uning asosiy faoliyati – konditer mahsulotlari ishlab chiqarish hisoblanadi. Uning ustav fondi – 2.137.042 AQSh doll., shundan 90,2 % ingliz kompaniyasi ulushiga to'g'ri keladi (1.927.612 AQSh doll.). Korxonaga ustav fondida xorijiy kapital summasi 500.000 AQSh doll. dan ko'p bo'lgani uchun u avvallari mulk solig'i to'lamagan. 2001-yil 7-dekabrda “O'zbekiston



Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan qo'shma korxonalar uchun belgilangan ba'zi imtiyozlar bekor qilindi (Soliq kodeksi 92-modda, 6-abzas).

2002-yil aprelida Bo'stonliq tumani DSI korxonaga soliqlarni to'lashni so'rab talabnoma jo'natdi, korxonaga esa Toshkent viloyat sudiga murojaat qildi. Sud arizani ko'rib chiqib, "Konmit" korxonasining ro'yxatdan o'tgan kunda amal qilayotgan qonunchilik bo'yicha, 10 yil davomida soliq to'lab borishga ruxsat berdi. Sud qarori "Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risidagi" qonunning 3-moddasi, 12-moddasiga asosan qabul qilindi.

Yana bir holat: yagona soliq to'lovchilar o'z asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarini ijaraga bersa, u ijaraga berilgan aktiv qiymatidan mulk solig'i to'lashi (3 %) talab etilmoqda (VMning 490-sonli 2001-yil 31-dekabrda qarori 5-punkti). Xuddi shunday holat "Liana trading" qo'shma korxonasida yuzaga kelgan va korxonaga Toshkent viloyati Qibray tumani sudiga murojaat qilgan. Sud bu arizani ko'rib chiqib, 490-qarorning 5-bandi qo'shma korxonaning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir etmoqda, deb topgan va "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 16-moddasiga ko'ra Qibray tuman DSI sanksiyalarini bekor qilgan. 16-moddada esa shunday deyiladi: "Agar soliq qonunchiligiga o'zgartirish kiritilsa va bu o'zgartirishlar tadbirkorlik subyektlari uchun noqulay iqtisodiy muhit yuzaga keltirsa, subyekt o'zgartirish kiritilishidan avval amal qilgan stavkalar va tartibda 2 yil soliq to'lash huquqiga ega".

Qo'shma korxonaga tuzishga misol. Buxoro viloyati Olot tumanida 2003-yil yozida "Olotteks" O'zbek-Shveysariya QK o'z mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi. Bu korxonaga 2 yil oldin davlat ro'yxatidan o'tgan edi. Uning ta'sischilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) AO "Buxoroteks" – 49 %; b) Kompaniya "Vimateks Inter SA" (Shveysariya) – 51 %. Korxonaga ustav fondi 9,402 mln. AQSh doll.. QK 2001-yilda ETTB kredit liniyasi orqali Asaka bankdan 4,5 mln. AQSh doll. miqdorida kredit olgan. Kredit pryaja (paxta tolasi) va mato (xlopkovaya tkan) ishlab chiqarish texnologik uskunasi sotib olishga yo'naltirildi. Korxonaga yiliga to'la quvvatda 3.000 tonna pryaja va 6 mln. pog. metr mato ishlab chiqarishi mumkin. 1 tonna pryaja (№20) 1,5 ming AQSh doll. turadi.

Qo'shma korxonaga tuzishga yana bir misol. VMning 2002-yil 26-noyabrda qarori 408-qaroriga asosan Toshkent shahrida "Chorsu Otel" MChJ shaklidagi qo'shma korxonaga tashkil etildi. Uning ustav fondi 10 mln. AQSh doll. qilib belgilandi, uning ta'sischilari bo'lib quyidagilar hisoblanadilar:

1. O'zbekturizm milliy kompaniyasi – 3 mln. AQSh doll. – Chorsu mehmonxonasi kompleksi.

2. Emsash firmasi (Turkiya) – 7 mln. AQSh doll. – uskuna va pul mablag'lar hisobiga kredit olgan. Kredit muddati 7 yil. Loyiha umumiy summasi 22.950.000 AQSh doll. bo'lgan, shuning 43,5 %i QK o'z mablag'lari, 56,5 %i bank krediti hisobiga moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. Kredit uchun garov ta'minoti sifatida "Buxoro Palas" mehmonxonasi rasmiylashtirilgan. Kredit – Chorsu mehmonxonasi rekonstruksiya qilish uchun jalb qilinishi rejalashtirilgan. Qurilish-



montaj ishlari summasi 18.590.000 AQSh doll. ga teng, rekonstruksiya muddati 12 oy.

Chorsu-otel mehmonxonasi foydalanishga topshirilganda, undagi nomerlar soni 320 taga yetadi, mehmonxonada 200 kishi mehnat qiladi.

O'zbekistonda faoliyat yuritgan ayrim korxonalar haqida. So'nggi vaqtda xususiy biznes subyektlari, xususan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun xorijiy valyutada kreditlar ajratilmoqda. Ular ETTB, OTB, MFK, OPEK fondi mablag'lari hisobiga ajratilmoqda. Ajratilgan qarzlarni qaytarish bo'yicha turlicha holatlar yuzaga kelmoqda. Masalan, Andijon viloyati Oltinko'l tumanida loyihalashtirilgan va yangi tashkil etilgan "Oltin Deri" o'zbek-turk qo'shma korxonasi teri-charm mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, yiliga korxonada 45 ming dona charm mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega.

1999-yilda qo'shma korxonada NBUDan 2,5 mln. AQSh doll. kredit olgan. Kredit mayda qoramol terisini qayta ishlash uskunasi va ximikatlar sotib olish uchun yo'naltirilgan, shuningdek, ushbu uskunada kurтка va palto tikish ham mumkin bo'lgan. Bu loyiha tashkilotchilari bo'lib – AK "Mahalliysanoat", MChJ "Hunarmand" va turk firmasi "I-Tako" hisoblanadi. AK "Mahalliysanoat" shartnoma asosida qo'shma korxonani sifatli xomashyo bilan ta'minlab turish majburiyatini olgan, MChJ "Hunarmand" esa loyihada bino, tozalash moslamalari, kommunikatsion vositalari bilan qatnashgan.


Turk investori esa pul mablag'lari kiritgan va kelgusida korxonaga ximikatlar, furnituralar kabi materiallarni yetkazib berishga va'da bergan, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotning 80 %ini eksport qilish majburiyatini ham olgan. 2014-yil avgustida uskuna ekspluatatsiyaga topshirilgan. Lekin ushbu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmayapti, tasdiqlangan ko'rsatkichlar bajarilmayapti.

2015-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, korxonada 65 % rejalashtirilgan ishlab chiqarish quvvatida ishlamoqda. Kreditning asosiy qismi (baza) va %lar bo'yicha qarzlarni ortib bormoqda. Ushbu qo'shma korxonada monitoring qilinganda quyidagilar aniqlangan:

- 1) qoniqarsiz menejment;
- 2) loyiha qatnashchilari o'z majburiyatlarini bajarmasliklari;
- 3) xomashyo sotib olish va tayyor mahsulot sotish marketingining ishlab chiqilmaganligi;
- 4) tayyor mahsulot sifati pastligi;
- 5) aylanma kapitalining samarasiz ishlatilishi;
- 6) xomashyo sotib olish va tayyor mahsulot sotish bo'yicha to'g'ri buxgalteriya hisobi yuritilmaganligi.

**Bu yerda yuqoridagi kamchiliklar va muammolar qanday yuzaga kelgan degan savol kelib chiqadi?**

**Birinchidan,** xomashyo holatidagi mol terisidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayon 20 kun davom etadi, buning uchun sifatli ximikatlar,



yumshoq suv, uzluksiz qayta ishlash jarayonni ta'minlash zarur bo'ladi. Elektr energiya, gaz, bug' ta'minotidagi uzilishlar tayyor mahsulot sifati va tovar ko'rinishida o'z aksini topadi. "Oltin Deri" qo'shma korxonasi esa Andijon viloyati markazidan ancha olisda bo'lgan Oltinko'l tumanida joylashgan, tumanda injener-kommunikatsion vositalarni uzib qo'yish oldindan rejalashtiriladi va faqat ma'lum vaqtlardagina ulanadi. Aynan shu faktor mahsulot sifati pasayishiga, iqtisodiy holat yomonlashuviga, tuman elektr ta'minoti bo'limi bilan mojarolar chiqishiga olib keldi, texnologik davr uzluksiz davom etmadi.

**Ikkinchidan**, ximikatlarni bilan terini qayta ishlash jarayon ekologik xavfli jarayon bo'lib hisoblanadi, obyekt yonida mahalliy aholi istiqomat qiladi. Bu esa tuman Tabiatni muhofaza qilishi qo'mitasi bo'limining qator jarimalariga sabab bo'ladi.

**Uchinchidan**, mahsulotning eksport qilinmasligi, xorijiy hamkorning o'z majburiyatlarini bajarmasligi. Mahsulot eksport qilishning iloji bo'lmagach, qo'shma korxonada xomashyo holatida mol terisini chetga eksport qilishga harakat qilib ko'rgan, biroq teri xomashyosini chetga olib chiqish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 25-avgustdagi №UP-2068 farmoni bilan taqiqlangan. Yana bir muhim holat: teri mahsulotlarini sotib olishda birinchi navbatda naqd pulsiz hisob-kitob qilish respublikamizda tavsiya qilinadi, biroq teri topshiruvchilar ularni naqd pulga sotishga harakat qilganlar va hisob-kitoblarda boshqacha usullardan foydalanganlar.

Yuqoridagi risklarni loyiha tashkilotchilari avvalroq sezmaganlar, bank xodimlari ekspertizada ularni aniqlamaganlar. Lekin ushbu korxonaning bugungi holatiga nazar tashlasak, endi tashkilotchilarning qo'shma korxonaga bilan mutlaqo qiziqishi yo'qligini bilish mumkin. 2002-yil oktabr oyida MChJ "Hunarmand" zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor korxonalar ro'yxatiga kiritildi, uning ustav fondidagi davlat ulushi erkin savdoga qo'yildi (VMning 2002-yil 8-oktabrdagi №347 qarori). AK "Mahalliy sanoat" tarkibidagi 2 korxonaga esa 2002-yil IV chorakiga kelib, bankrot deb e'lon qilindi, 8 korxonaga esa zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar tarkibiga kiritildi. Bu holat AK "Mahalliy sanoat" uchun iqtisodiy salbiy ta'sir bo'ldi.

Keyingi holat – konditer sanoatida faoliyat yuritayotgan "Obi-non" AJ ga tegishli. Korxonaga 1999-yilda bank krediti hisobiga 1,2 mln. AQSh doll. ga teng shokolad glazuriga o'ralgan vaffalar ishlab chiqarish uskunasini sotib oldi. Keyinchalik loyiha ekspluatatsiyaga topshirilgandan so'ng elektr energiyasi, tabiiy gaz, yog', un, shakar yetkazib berishdagi uzilishlar turli qiyinchiliklarga olib keldi. 2000-yilda kakao narxi qimmatlashdi, buning natijasida shokoladli glazurlashdan voz kechildi. Tayyor mahsulot sotish uchun real bozorning cheklanganligi, marketing asoslanmaganligi oqibatida 2001-yilga kelib, korxonada ishlab chiqarish quvvatlari atigi 17-20 % o'zlashtirilayotganini ko'rsatdi. Hozirda sotib olingan uskuna umuman ishlamaydi, bir necha oydan beri korxonaga faoliyati to'xtagan. Buning sababi – xomashyoning va tabiiy gazning taqchilligi.

Garchi gaz quvuri korxonadan 500 m uzoqlikda o'tsa-da, quvur korxonaga ulanmagan. Sababi quvur va korxonaga o'rtasida katta avtotrassa o'tgan bo'lib, "Avtomobil yo'llar to'g'risida"gi qonunning 16-moddasida yo'l fondi organlari ruxsatisiz avtomobil yo'llarini gaz quvurlari bilan kesib o'tish taqiqlangan. Biroq

korxonadagi iqtisodiy qiyinchiliklar uning muddati o'tgan qarzdorliklari ko'payishiga va bank oldidagi qarzlari ortishiga sabab bo'lmoqda.

Keyingi holat "Janes JV" qo'shma korxonasi tegishli. Ushbu korxonada o'zbek-ispan kapitali hisobiga tashkil etilgan, u 1996-yilda ETTB kredit liniyasidan 5 mln. AQSh doll.lik kredit olgan, kredit ko'piksimon va tinchlantirilgan sharob ishlab chiqaruvchi uskuna sotib olishga yo'naltirildi. Korxonada ustav fondini chet el tomonidan "Altieri Vinicola SL" Ispan firmasi, mahalliy tomondan mevalar va uzumni qayta ishlovchi Yangiqo'rg'on zavodi tashkil etdi. Loyihada yiliga 14 mln. shisha sharob ishlab chiqarish, uning 70 %ini eksport qilish, 30 %ini ichki bozorda sotish rejalashtirilgan.

1997-yil kuzga kelib, mahsulot eksporti umuman to'xtatilgan, ichki bozorda ham talabning pasayishi tufayli ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish darajasi 3-4 %ni tashkil etgan, xolos. Mavjud holatni o'rgangan korxonada rahbarlari, shuni aniqladilarki, korxonada ishlab chiqarilayotgan sharob Yevropa iste'mol kriteriyalari bo'yicha ishlab chiqarilayotgan ekan, lekin ular MDH davlatlari bozorlarida talabgor emas, chunki bu regionlarda yashovchi aholi asosan ko'pikli sharob emas, yarim shirish sharobni yoqtirar ekanlar. Yevropaga eksport qilishning esa iloji yo'q, chunki qadoqlanayotgan butilkalar va taralar jahon standartlariga mos kelmaydi. Bundan tashqari Yevropa bozorlarida sharob mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kuchli raqobat mavjud. Ushbu muammodan chiqish uchun uskuna qayta tog'irlangan va qayta tuzatilgan.

Endilikda qo'shma korxonada ishlar birmuncha yaxshilangan, mahsulot assortimenti kengaygan. Biroq bank oldidagi qarzni qaytarishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelgan, olingan kredit juda katta summani tashkil etadi, uning foizlari ham yiliga 11 % qilib belgilangan. Vazirlar Mahkamasi ushbu korxonaga yordam berish maqsadida 1 yil davomida budjetga to'lovlarni to'lamaqlikga ruxsat bergan, budjet to'lovlari muzlatilgan, bu bilan qisman bank kreditini korxonada qaytargan.

Yuqoridagi holatlarga ta'sir etuvchi 2 tomonni ajratib ko'rsatish mumkinki, biri kredit ajratgan bank bo'lsa, ikkinchisi mahalliy boshqaruv organlari – hokimliklar. Bank kredit ajratib, ularni qaytarib olishda foizlarni kamaytirish, komissiyalarni kechiktirish bilan turli imtiyozlar berishi mumkin va buning uchun doimiy kredit monitoringini yuritadi. Ikkinchi tomon, mahalliy hokimliklar esa moliyaviy tomondan ko'mak berishga imkoniyati bo'lmasligi mumkin, biroq regionda korxonani reklama qilish, injener-kommunikatsion vositalar bilan korxonani ta'minlashda yordam berishi mumkin. Banklarning kelgusida ajratayotgan kreditlarini to'g'ri, maqsadli restrukturizatsiya qilib borishi bunday muammoli loyihalar yuzaga kelishining oldini olishi mumkin.

#### **Davlat investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari.**

O'zbekistonda Davlat investitsiya siyosatining rivojlanishi quyidagi III bosqichni o'z ichiga oladi.

1-bosqich: 1991-1994-yillar, 2-bosqich: 1995-2003-yillar; 3-bosqich: 2003-yil-hozirgi davr. **1-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- turli mulkchilik shakllarini yaratish borasidagi investitsion jarayon nomarkazlashtirish tadbirlar amalga oshirila boshlandi;

- xususiy moliyalashtirish manbalariga ega bo'lmagan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi obyektlarni budjetdan moliyalashtirish saqlab qolindi;
- xususiy mulkchilikni joriy etish tadbirlari olib borildi.

**2-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qonunchilik bazasi yaratildi;
- konkurs asosida loyihalarni moliyalashtirishga o'tildi;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi;
- iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritilishi kuchaytirildi;
- investitsion loyihalarni amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalari qo'llanila boshlandi.

**3-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va rejalashtirilgan:


- valyuta munosabatlari va operatsiyalari liberalizatsiyalashtirilmoqda;
- xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va ular manfaatlarini himoyalash bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilinmoqda;
- korxonalarining texnik qurollantirilishi kuchaytirilmoqda;
- eksportga moljallangan va import o'rini qoplovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berilmoqda.

Umuman, O'zbekistonda 2003-yil 1-yanvarga kelib, 3.322 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ro'yxatga olingan, shundan 2.087 tasi faoliyat yuritmoqda (64 %). O'tgan 2002-yilda jami 21 ta korxonalar tuzilgan. Eng ko'p qo'shma korxonalar Toshkent shahrida tuzilgan – 2.418 ta, shundan faoliyat yuritayotganlari 1.375 taga teng (57 %), eng kam qo'shma korxonalar Sirdaryo viloyatida tuzilgan – 31 ta, faoliyat yuritayotganlari 29 ta (93 %).

Xorijiy investitsiyalar asosan yengil sanoat tarmog'iga (20,6 %) kiritilgan, keyingi o'rinda gaz sanoatiga (13 %), ximiya va neft sanoatiga (10,9 %), kommunal qurilishga (8,3 %) kiritilgan.

Hozirda respublikada xorijiy investitsiya asosida “Nestle” QK, “Kasansay konserva” QK, “Shirinlik” QK – Namangan viloyatida, “Karakulteks” QK, “Oloteks” QK – Buxoro viloyatida, “SamKochavto” QK – Samarqand viloyatida, “Darital” QK – Xorazm viloyatida, “Korfarmsanoat” QK, “Xobatsapo” QK, – Toshkent shahrida, “UzDaeewoAuto” QK – Andijon viloyatida ish yuritmoqdalar.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksiyadorlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi (1-rasm).



**1-rasm. Bir qator mamlakatlarda aksiyadorlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini beradigan hissasi**



Bu ko'rsatkich AQShda 10 foiz, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, Germaniyada 25 foizdan 50 foizgacha, O'zbekistonda esa 49 foiz darajasida belgilangan. Shuningdek, korxonalar boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekani ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun mas'uliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

### **1.3. Investitsiyalarning klassifikatsiyalari va mazmuni.**

#### **Investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi**

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlik, tadbirkorlikning mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko'p qirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tanlangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bilimlariga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya, kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin.

**Bozor munosabatlari rivojlangan yetuk jamiyatda investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:**

- fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan korxonalar, xo'jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o'rtoqlik xo'jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan diniy tashkilotlar, nodavlat korxonalar va muassasalari tomonidan;

- davlatni ma'muriy va boshqaruv bo'linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalar va muassasalari tomonidan;

- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa davlatlar tomonidan;


- qo'shma korxonalar ko'rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda.

Mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikning yo'lga qo'yilishi, jahon iqtisodiy aloqalarining taraqqiy etishi, qo'shma korxonalarining iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi roli ortishi investitsiya faoliyatini to'la tashkil etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi.

Mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi, o'z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ham aniqlab beradi.

Investitsiya faoliyati to'rt asosiy yo'nalishlarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda, turli xil mulkdorlar tomonidan olib boriladi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishning bu yo'nalishlari o'z navbatida bir necha tip va shakllarda amaliyotga tatbiq etiladi.





**2-rasm. Investitsiyalarning maqsadi, vazifasi, manbalari va yo'nalishlari bo'yicha turkumlashtirilishi**

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Ular O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:**

- respublika qishloq xo'jaligidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning Ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

- tarmoqda chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, bank, sug'urta va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan emissiya qilingan qarz mablag'larini sotib olish;

- intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, firma nomlari va nou-xaularga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish va boshqalar.

**Ularni chet davlatlar yoki bu davlatlarning quyidagi hududiy organlari amalga oshiradilar:**

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlar, uyushma va tashkilotlar;

- chet el fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

Chet el investorlari investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi (1998-yil) qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

**Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:**

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;

- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar hamda boshqa moddiy boyliklar);
- mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.


Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qo'yish, mablag'lar sarflash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiyashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalar tarkibida mablag'larning kamayib borishi kuzatilmoqda. Aksincha, turli mulk egalarining mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarning ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, milliy valyuta birligining konvertlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo'nalishida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatining sharoitlarini aniqlash yo'li bilan hamda davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator tadbir va choralarni qo'llash va hayotga tatbiq etish negizida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.



Manba: Muallif ishlanmasi.

**Hujjatda ko'rsatilgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:**

- soliqlar tizimini qulaylashtirish. Soliq subyektlari, obyektlarini hamda uning miqdorlarini tabaqalash va yengilliklar berish;
- amortizatsiya siyosatini tubdan o'zgartirish, shu jumladan asosiy fondlarni amortizatsiyasini tezlashtirish (iqtisodiyotning sohalari, ba'zi tarmoqlari, asosiy fondlarning qismlari, asbob-uskunalarining turlari bo'yicha tabaqalashgan holda amortizatsiya yangiliklari o'rnatiladi);
- ayrim mintaqalarni, tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar, budjet ssudalari orqali moliyaviy yordam ko'rsatish;
- kredit siyosatini, davlat me'yori va andozalarini, yakka hokimlikka qarshi tadbirlarini amalga oshirish. Davlat mulkini, shu jumladan tugatilmagan qurilishlarni xususiyashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish) hamda baholarni tashkil etish siyosati;
- yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash kabilardan iborat.

## **Mo'ljallangan obyektga ko'ra investitsiyalarning turlari**

Investitsiyalar mo'ljallangan obyektga ko'ra – kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo'linadi.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga** – inson salohiyati, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Asosiy fondlar va aylanma mablag'larga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi boyliklar real investitsiya deb tushuniladi.

**Real investitsiyalar** orqali ishlab chiqarish korxonalarini quriladi, harakatdagi korxonalar texnik qayta qurollantiriladi va umuman asosiy fondlar takror ishlab chiqariladi.

**Moliya investitsiyalar** deb, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya) sotib olishga va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo'yilmalar tushuniladi.

**Investor portfelli (moliyaviy)** investitsiyani amalga oshirish orqali qimmatli qog'ozlardan (aksiya, obligatsiyalar) daromad (dividend) olib, o'z moliyaviy kapitalining o'sishiga erishadi.

Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonining rivojlanib borishi bilan qimmatli qog'ozlar bozori taraqqiy etib, moliyaviy investitsiyalar qo'yish jarayoni faollashadi. Shuningdek, mulki xususiylashtirish va moliyaviy bozorning rivojlanishi respublikamizga chet el investitsiyalarning katta hajmda kirib kelishiga imkoniyat yaratadi.

Intellektual investitsiyalarga mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou-xou berish, avtorlik huquqi va boshqalar kiradi.

Shved iqtisodchi-olimi K.Eklund investitsiya tushunchasi tarkibiga ta'lim va ilmiy tekshirishdagi xarajatlarni ham qo'shish kerak, degan fikrni ilgari surib, u intellektual investitsiyalar ahamiyatini yuqori baholaydi. Umuman olganda, ishlab chiqarishda fan va texnikaning ta'siri kuchayib borishi bilan intellektual investitsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi.

**Investitsiyalar kim tomonidan kiritilishiga qarab 2 turga bo'linadi:**

**1. Ichki investitsiyalar.**

**2. Tashqi investitsiyalar.**

**Ichki investitsiyalar** – mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hisoblanadi.

**Tashqi investitsiyalar** – foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyotiga qo'yiladigan investitsiyalar hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi.**

O'zbekistonda bugungi kunda Davlat investitsiya siyosati o'ziga xos ikki yo'nalishga tayanadi:

1) soliq yukini yengillashtirish, mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratish;

2) mablag'larni davlat budjeti orqali to'plash va investitsiya dasturlarini amalga oshirish. Bu borada olib borilayotgan siyosatda davlat korxonalariga nisbatan amalda bo'lgan budjetdan molyalashtirish tizimi muayyan darajada boqimandalikni keltirib chiqarishi inobatga olinmoqda va investitsiya faoliyatida ularga nodavlat sektori subyektlariga nisbatan imtiyozli sharoit yaratishi mumkinligi e'tiborga olinmoqda.

O'zbekistonda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul davlat tashkiloti Moliya vazirligidir. Aynan, Moliya vazirligi boshqa davlat tashkilotlari, organlari, banklar va kompaniyalar bilan hamkorlikda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshiradi va boshqarib boradi.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi

Boshqaruv darajasi	Boshqaruvchi organ	Boshqaruv obyekti va subyekti	Boshqarish maqsadi	Boshqarish mexanizmi
Qonunchilik sohasi	Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Adliya Vazirligi	Iqtisodiyot – tadbirkorlik subyektlari va investitsion muhit	qulay, samarali investitsion muhit yaratish	qonunlar va me'yoriy hujjatlar
Moliyaviy-iqtisodiy soha	Moliya vazirligi	Investitsion-injiniring xizmatlari bozori	Investitsion faoliyatni nazorat etish	Himoyaviy va jazo choralari
Funksional sohalar	Markaziy bank, TIAE, DSK, DBK, O'zstandart, sug'urta tashkilotlari	Pul-kredit bozori, xorijiy va mahalliy investorlar, standartlash, sug'urtalash, soliq va bojxona qonunchiligi ijrosi	Investorlar iqtisodiy munosabatlarini nazorat etish	Tartiblar, yo'riqnomalar, standartlar, qarorlar

Manba: Muallif ishlanmasi.

#### 1.4. Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyaning makro va mikroiqtisodiyot darajasidagi funksiyalari

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida qator funksiyalarni bajaradi va ularsiz har qanday davlat iqtisodiyotini normal rivojlantirish mumkin emas.

##### Investitsiyalar makrodarajada:


- ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishda;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirishda;
- sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'limni yanada rivojlantirish va boshqa ijtimoiy muammolarni yechishda;
- ishsizlik muammosini yechish yoki yengillashtirishda;
- harbiy sanoat kompleksini konversiya qilishda;
- davlatning harbiy qudratini ta'minlashda va boshqa muammolarini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi.

##### Investitsiyalar mikrodarajada esa:

- ishlab-chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish;



- asosiy fondlarni jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- korxonalar mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirish;
- qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxonalar aktivlariga o'z mablag'ini sarflash maqsadlariga erishish uchun zarurdir.



**3-rasm. Investitsion muhitga ta'sir etuvchi salbiy va ijobiy omillar**

Manba: Bobomurodov Sh.F. Investitsiya muhiti. TMI nashri, 2007. 45-b.

**Mamlakatda investitsiya faoliyati ahvolini quyidagi ko'rsatkichlar dinamikasi xarakterlaydi:**

1. Investitsiyalarning umumiy hajmi.
2. Yalpi ichki mahsulotda (YaIM) investitsiyalarning ulushi.
3. Investitsiyalarning umumiy hajmida real investitsiyalarning ulushi.
4. Real investitsiyalarning umumiy o'sishi.
5. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan real investitsiyalarning ulushi va boshqalar.

**Bundan tashqari investitsiya faoliyatining qanday holatda ekanligi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish darajasi bilan ham xarakterlanadi:**

- milliy daromad;
- YaIMi va yalpi milliy mahsulot (YaMM);
- sanoat ishlab chiqarish hajmi;
- sanoat mahsulotlarining alohida turlarini ishlab chiqarish;

- ishlab chiqarish hajmi va boshqalar.

Ayrim ekspertlarning baholariga ko'ra, har 3 % investitsiya miqdorining tushishi 1 % YaIM kamayishini bildiradi.

**Investitsiya jarayoni ishtirokchilari.** Investitsiya jarayonining bosh ishtirokchilari – davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar bo'lib, ularni har biri investitsiya jarayonida talab tomonida yoki taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin.

**Davlat.** Ijroiya hokimiyatini har bir darajasiga o'z faoliyatini moliyalashtirishga katta miqdorda pul kerak bo'ladi. Ushbu faoliyat maktab, kasalxona, turar-joylar, katta yo'llar kabi ijtimoiy inshootlarni qurishga sarflanayotgan kapital qo'yilmalar bilan bog'liq. Yuqoridagi loyihalar turli ko'rinishdagi uzoq muddatli qarz majburiyatlar – obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan moliyalashtiriladi. Pulga bo'lgan talabni boshqa manbai bo'lib davlatni joriy ehtiyojlari hisoblanadi. Masalan, hukumat soliq ko'rinishida davlat budjeti daromadiga to'langaniga nisbatan ko'p xarajat qilish mumkin. Yoki shahar hokimiyati joriy faoliyati uchun pul kerak bo'lgan holda budjetga soliqlar to'lanmagan holatlar bo'lishi mumkin.

Ustun darajada hokimliklar o'z ehtiyojlarini qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish yordamida moliyalashtiradilar.

Ayrim vaqtda ijroiya hokimiyati idoralari pulni taklif qiluvchilar tomonida qatnashadilar. Masalan, shaharda ma'lum vaqtga kelib qandaydir pul summasi bo'shab qolsa, uni joriy hisob raqamida ushlab turmasdan, shahar hokimiyati mablag'ni qisqa muddatli moliyaviy bozorga qurollarga qo'yib daromad olishlari mumkin.

Ijroiya hokimiyati idoralarini moliyaviy mablag'larga ehtiyoj sezayotgan tomonda va taklif tomonida moliyaviy institutlar va moliyaviy bozorlar holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda davlat – pul mablag'larining iste'molchisidir, ya'ni u mablag' berishga nisbatan ko'p mablag'ni ishlatadi.

**Kompaniyalar.** Ko'pgina kompaniyalar shakllaridan qat'i nazar o'z faoliyatini yuritish uchun yirik moliya mablag'lariga muhtoj bo'ladi. Ijroiya hokimiyati idoralari singari, ularni moliyaviy ehtiyojlari uzoq va qisqa muddatliga bo'linadi. Uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish uchun kompaniyalarga zavodlar ko'rish, asbob-uskunalar va inshootlar olish, yangi mahsulotlarni ishlash uchun pul kerak bo'ladi. Qisqa muddatli ehtiyojlar tovar zaxiralarini ta'minlash, debitor qarzlari va boshqa joriy xarajat qoplash zaruratlaridan yuzaga keladi. Qisqa va uzoq muddatli ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun kompaniyalar muomalaga turli xil qarz qimmatli qog'ozlarni va aksiyalarni chiqaradilar. Ularda vaqtincha ortiqcha pul mablag'lari paydo bo'lsa, ular pullarni boshqalarga taklif qiladilar. Amalda ko'pgina yirik kompaniyalar naqd pullarini boshqarishni faol va murakkab strategiyasini amalga oshiradilar va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarning asosiy xaridorlari hisoblanadilar.

Davlatga o'xshab kompaniyalar, umuman, pul mablag'larining sof xaridorlari hisoblanadi.

**Xususiy shaxslar.** Xususiy shaxslar investitsiya jarayonga turli usullar bilan: masalan, omonat hisoblarga pul joylashtirish, obligatsiya va aksiyalar sotib olish, sug'urta polislari olish bilan pul yetkazib berishlari mumkin. Moliyaviy qurollarni tanlash oddiy vazifa emas, u yakka investor o'z oldiga qanday maqsad qo'yishiga bog'liq. Pul mablag'lariga xususiy shaxslarning talabi, asosan, mulkni, odatda uy, avtomobil xarid qilishni moliyalashtirish uchun zayom shakliga ega bo'ladi. Vaholanki, unday talabning miqdori juda katta, xususiy shaxslar – pulni sof yetkazib beruvchilardir, boshqacha qilib aytganda, ular investitsiya jarayonda olganiga nisbatan ko'p beradilar. Davlat va kompaniyalar pul mablag'larining sof xaridorlari hisoblanar ekan, xususiy investorlarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishni moliyalashtirish uchun pul yetkazib berishdagi roli juda salmoqlikdir.

**Investorlar tipi.** Ikki tipdagi investorlar bor: institutsional va yakka investorlar. **Institutsional investorlar** – mutaxassislar bo'lib, ularga begonalarning pulini boshqargani uchun haqd to'laydilar. Ularni moliyaviy muassasalar, masalan, banklar, sug'urta kompaniyalari, o'zaro va pensiya fondlari hamda yirik nomoliyaviy korporatsiyalar, ayrim hollarda xususiy shaxslar yollaydilar. Moliyaviy intstitutlar o'z omonatchilariga yaxshigina daromadni ta'minlashga harakat qilib katta summani investitsiyalaydilar. Masalan, bankning trast bo'limi unga ishonib topshirilgan mablag'ga yetarli daromad to'lashi lozim; hayotni sug'urtalash kompaniyasi mijozlarga, hamda mijoz vafot etgan holatlarda ular merosxo'rlariga va oluvchilariga sug'urta mukofoti to'laydigan daromadni to'lashga sug'urta badallarini investitsiyalash lozim. Sanoat yoki savdoga o'xshash nomoliyaviy kompaniyalar ham ko'pincha ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'ladilar, bo'sh pullar daromad keltirishi yoki joriy operatsiyalarga va istiqbolga kapital qo'yilmalari talabni qoplashga yordam berish uchun omonatga qo'yadilar.

Yakka investorlar o'z moliyaviy manfaatlari uchun shaxsiy mablag'larini tasarruf etadilar. Yakka investor ko'pincha pensiyaga ketganda yoki uning oilasini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromad manbai bo'lishligi uchun bo'sh turgan pullari foyda keltirishidan manfaatdordir. Yakka investorlarning ko'pchiligi faqat shaxsiy qimmatli qog'ozlar portfelini nima bilan to'ldirish yoki shaxsiy pensiya fondini qanday ta'minlashga izlanish bilan band bo'ladilar. Katta summadagi pullarni qo'yishi mumkin bo'lganlar investitsiya sohasida kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari tufayli o'z mablag'larini boshqarishni institutsional investorlarga, masalan, banklarni trast bo'limlariga yoki investitsiyalar bo'yicha malakali maslahatchilarga topshiradilar.

Institutsional va yakka investorlar uchun asosiy ish tamoyillari yagonadir: to'g'ri institutsional investorlar, odatda, pul egalari nomidan anchagina yirik summalar bilan ish qiladilar, shuning uchun ular yuqori malakaga ega bo'ladilar va murakkab, nozik usullarni qo'llaydilar.

### **Xulosa**

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yuritishni talab

qiladi. Bu, o'z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

**“Investitsiyalar”** aslida nemischa **“investitsion”**, lotincha **“investio”** so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan.

**“Investitsiya”** deganda kelgusi foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investorlar tomonidan uzoq muddatga qo'yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

**Investitsiyalar** – daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

**Davlat investitsiya siyosati** – iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayondan nomarkazlashgan investitsiya jarayonga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi.

Investitsion loyihani moliyalashtirish to'g'risida qarorlar ma'lum noaniqliklar va risklar sharoitida qabul qilinadi, bunday noaniqliklarni kamaytirish uchun loyiha haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, ularni tahlil qilish, prognoz qilish talab etiladi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarning o'rni va mohiyatini izohlab bering.
2. **“Investitsiya”**, **“kapital qo'yilma”** deganda nimani tushunasiz?
3. Davlat investitsiya siyosati deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini izohlab bering.
5. Davlat investitsiya siyosatining bosqichlarini izohlab bering.
5. Investitsiya loyihalari qanday muddatlarda tuziladi?
6. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini tushuntiring.
7. Investitsiyalarning asosiy klassifikatsiyalarini va ularning mazmunini izohlab bering.
8. Investitsiyalarning obyektlari va subyektlari, ularning mazmunini izohlang.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining **“Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”**gi qonuni (yangi tahrir). //Xalq so'zi, 2000-yil 9-iyun. 110-son.
2. O'zbekiston Respublikasining **“Investitsiya faoliyati to'g'risida”**gi qonuni, 1998-yil 24-dekabr. //Xalq so'zi, 1999-yil 12-yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining **“Chet el investitsiyalari to'g'risida”**gi qonuni, 1998-yil 30-aprel. //Xalq so'zi, 1999-yil 12-yanvar. 7-son.
4. O'zbekiston Respublikasining **“Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”**gi qonuni. 1998-yil 30-aprel. //Soliq va bojxona xabarlar, 1998. 22-son.



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

7. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

8. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11G‘6194).

9. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

10. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -275 с.

11. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibayeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2011. -124 b.

## 2-bob. INVESTITSION FAOLIYATNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

**2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlashning dasturiy chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4707-sonli farmoni asosida iqtisodiyotga ustuvor loyihalarni jalb etish omillari va yo‘llari.**

**2.2. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatining moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari.**

**2.3. Moliyaviy investitsiya va joriy holatlarni tahliliy asoslash.**

**2.4. Investitsiya faoliyati obyektlari va subyektlari.**

*Tayanch iboralar: kapital qo‘yilmalarning samaradorligi, investitsiyaning obyekti, subyekti, emitent, reinvestitsiyalar, investitsiya resurslari, kapital qo‘yilma obyektlaridan foydalanuvchilar, statistik va dinamik usullar, bozor narxlari, investitsiya loyihalarining mezonlari, texnik-iqtisodiy asoslash, bozor (aniq) yoki xufyona (noaniq) baholar, bozor baholari yoki aniq narxlar.*

.....

**2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlashning dasturiy chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4707-sonli farmoni asosida iqtisodiyotga ustuvor loyihalarni jalb etish omillari va yo‘llari**

Dunyoda iqtisodiyotning globallashuv jarayon kuchayib borayotgan, raqobat sezilarli darajada keskinlashgan davrda iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlantirish hayot-mamot masalasi ekanligini har birimiz yaxshi anglashimiz lozim. Shu sababdan ham O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barcha imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali rivojlantirish yo‘nalishlarini aniq ravshan belgilab olish zarurati mavjud. Shu maqsadda 2014-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi hukumati, mas’ul vazirliklar oldiga mamlakatda 2015-2019-yillarda **“Ishlab chiqarishni diversifikatsiya, modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlashning chora-tadbirlari”** bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi.

Agarda biz yuqoridagi uzoq yillarga mo‘ljallangan vazifalarni sifatli bajara olsak, dunyo mamlakatlari ichida raqobatbardosh, samarali ishlaydigan, o‘z aholisi uchun munosib turmush tarzi yaratgan eng yaxshi davlatlar qatoridan joy egallaymiz.

Bu masalalarni kelgusi avlod haqiga xiyonat qilmasdan, ekologik muhitni yomonlashuviga yo‘l qo‘ymasdan amalga oshirish har birimizdan juda katta bilim va iqtidorni, uyg‘oq vijdonni, chin insoniy mas’uliyatni talab qiladi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘z xalqi oldidagi mas’uliyatiga juda jiddiy qaraganligi uchun, doimiy ravishda shu mamlakat, unda yashayotgan insonlarning kelajagi taqdiri qanday bo‘ladi degan fikr bilan faoliyat olib borganliklari hammamizga ma’lum.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida" ПФ-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

"O'zbek modeli"ga asoslanib olib borilgan islohotlar natijasida mustaqillik yillarida mamlakat:

- yalpi ichki mahsuloti 5 martaga;
- aholining daromadlari 8,7 martaga oshdi;
- aholi soni salkam 11 millionga ko'paydi va 2015-yilning 1-yanvar holatiga 31,5 million kishini tashkil etdi;
- keyingi 10 yilda yalpi ichki mahsulotining yillik o'sish sur'atlari 8 foizdan yuqori bo'lmoqda;
- 2013-yilda JB va XVF ning ma'lumotlariga ko'ra xarid qilish pariteti bo'yicha 229 ta dunyo davlatlari ichida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 70 o'rinni egallab turibmiz.

Dasturda jami 876 ta investitsion loyiha amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, 41 milliard AQSh dollari ekvivalentligida mablag' sarflanishi belgilangan. Hozirgacha, 741 tasi bo'yicha investorlar va moliyalashtirish manbalari to'liq aniqlangan bo'lib, Dastur amal qiladigan davrda 710 tasi ishga tushiriladi. O'z navbatida, 135 ta loyiha istiqbolli bo'lib ularni amalga oshirish uchun investorlarni va moliyalash manbalarini aniqlash jarayon davom etmoqda.

Mazkur holatlarni quyidagi 1-jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin:

**2015-2019-yillar ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari dasturiga kiritilgan investitsion loyihalar bo'yicha yig'ma ma'lumot**  
(million AQSh dollari ekvivalenti hisobida)

Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari nomlari	Jami		Shu jumladan:			
			Takror boshlanadigan va ishlanadigan loyihalar		Xorijiy investorlar va kreditlarni jalb etiladigan istiqbolli loyihalar	
	Loyiha soni	Loyiha qiymati	Loyiha soni	Loyiha qiymati	Loyiha soni	Loyiha qiymati
Jami	876	41045,1	741	19876,2	135	21168,9
Geologiya, TEK, kimyo, neftkimyo va metallurgiya majmuasi (kompleksi)	175	37391,6	127	17066,5	48	20325,1
“O'zbekneftgaz” MXK	54	18650,9	39	7105,0	15	11545,9
“O'zbekenergo” DAK	33	8904,9	12	3265,7	21	5639,2
“O'zbekugol” AB	2	107,5	2	107,5	-	-
“O'ztkimyosanoat” DAK	26	4785,4	15	2245,4	11	2540,0
Navoiy GMK	25	1503,6	25	1508,6	-	-
Geologiya DK	1	149,5	1	149,5	-	-
Olmaliq TKMK	17	2456,8	17	2456,8	-	-
“O'zmetkombinat” AB	8	820,8	7	220,8	1	600,0
“O'zKTJM” AB	6	10,1	6	10,1	-	-
Toshkent LOTSM zavodi	3	2,1	3	2,1	-	-

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida” ПФ-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasining jahon mehnat taqsimotidagi roli va o'zni yuksalib borishini ta'minlaydigan energetika, neft-gaz-kimyo, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika kabi ustuvor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqsadlar uchun yangi obyektlarni qurilish uchun 354 ta qiymati 32457,8 mln. AQSh dollari ekvivalentidagi mablag'lar sarf etish ko'zda tutilmoqda. Mazkur ustuvor yo'nalishlarni quyidagi 2-jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin:

Bu yo'nalishda sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va ilg'or innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



**2015-2019-yillar ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari dasturiga kiritilgan investitsion loyihalar tarkibi bo'yicha yig'ma ma'lumot**  
(million AQSh dollari ekvivalenti hisobida)

Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari nomlari	Jami		Shu jumladan:			
			Takror boshlanadigan va ishlanadigan loyihalar		Xorijiy investorlar va kreditlarni jalb etiladigan istiqbolli loyihalar	
	Loyiha soni	Loyiha qiymati	Loyiha soni	Loyiha qiymati	Loyiha soni	Loyiha qiymati
Jami	876	41045,1	741	19876,2	135	21168,9
Shu jumladan:						
Yangi qurilish	354	32457,8	266	13746,9	88	18711,0
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	522	8587,3	475	6129,3	47	2458,0
Geologiya, TEK, kimyo, neftkimyo va metallurgiya majmuasi (kompleksi)	175	37391,6	127	17066,5	48	20325,1
Yangi qurilish	89	30418,2	55	12299,2	34	18119,1
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	86	6973,4	72	4767,4	14	2206,0
Mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati va mahsulotlarni standartlashtirish majmuasi	79	914,6	46	662,7	33	252,0
Yangi qurilish	2	51,1	2	51,1	-	-
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	77	863,5	44	611,6	33	252,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida" ПФ-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o'sib borishini, eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning real sektorlar tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 22 959,8 million AQSh dollari ekvivalentida mablag'larini jalb etish ko'zda tutilmoqda:

**2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish,  
tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari dasturiga kiritilgan  
investitsiya loyihalarini manbalari bo'yicha moliyalashtirish ma'lumotlari  
(million AQSh dollari ekvivalentida)**

Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari nomlari	Jami		Shu jumladan:			
	Loyihalar soni	Loyihalar qiymati	O'z mablag'lari	RRRQFon di mablag'lari	Tijorat banklari kreditlari	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar
Jami	876	41 045,1	7 692,3	7 095,5	3 297,5	22 959,8
Ulushi jami summada:		100	18,7	17,3	8,0	55,9
Geologiya, TEK, kimyo, neftkimyo va metallurgiya majmuasi (kompleksi)	175	37 391,6	6 229,4	7 095,5	2 081,6	21 985,2
"O'zbekneftgaz" MXK	54	18 650,9	2 512,9	1 636,2	448,1	14 053,6
"O'zbekenergo" DAK	33	8 904,9	1 291,9	2 607,0	-	5 006,0
"O'zbekugol" AB	2	107,5	-	-	107,5	-
"O'zkiyosanoat" DAK	26	4 785,4	615,4	1 506,2	187,8	2 476,0
Navoiy GMK	25	1 503,6	1 303,6	200,0	-	-
Geologiya DK	1	149,5	-	-	-	149,5
Olmaliq TKMK	17	2 456,8	372,6	880,0	1 204,2	-
"O'zmetkombinat" AB	8	820,8	126,9	266,0	127,9	300,0
"O'zKTJM" AB	6	10,1	4,1	-	6,0	-
Toshkent LITSM zavodi	3	2,1	2,1	-	-	-
Mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati va mahsulotlarni standartlashtirish majmuasi	79	914,6	309,2	-	392,0	213,4
"O'zavtosanoat" AK	15	381,5	135,9	-	245,3	0,3
"O'zeltexsanoat" AK	39	268,5	103,8	-	73,5	91,2
"O'zanroprommashxolding" XK	6	144,4	61,0	-	73,2	10,1
Toshkent mexanika zavodi" AB	19	120,2	8,5	-	-	11,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida" IIΦ-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

**Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining oldida turgan pirovard maqsadli vazifalar quyidagilardan iborat:**

- mamlakat iqtisodiyotini miqdor jihatdan keskin o'stirish, ishlab

chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmini oshirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning assortimenti va sifatini bozor talablariga moslashtirish;

- iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun mehnat unumdorligini oshirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning tannarxi past bo'lishini ta'minlash;

- ishlab chiqarishda samarali tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- mehnat, material va energiyani tejashni ta'minlaydigan, mavjud imkoniyatlarni maksimal (to'liq) ishga solish;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etgan va qo'shma korxonalarini tashkil etishga ustuvorlik berilgan holda dunyo bozorida barqaror va o'sib boruvchi talabga ega mahsulotlar (tovarlar) turlarini o'zlashtirish;

- ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash;

- mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, nobudgarchiliklar va unumsiz sarf-xarajatlarni bartaraf etish hisobiga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini muttasil oshirib borish;

- sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatdoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda tatbiq etishdan iborat.

## **2.2. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatining moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari**

Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil etish ularning samaradorligini ochib berishda markaziy o'rinni egallaydi. Moliyaviy tahlil loyihadan keladigan samara uning har bir ishtirokchilarining o'z maqsadlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirishdagi erishilishi lozim bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi. Buning asosida – kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash tamoyillari, samaradorlikning tarmoq me'yor koeffitsiyenti yordamida taqqoslama iqtisodiy samaradorligini tashqi hisoblash yo'li bilan absolyut va nisbiy ko'rinishlardagi ularning qoplanishini hisoblash usullari yotadi.

Investitsiya variantlarini tanlashda ham ushbu uslublarning o'ziga xos o'rni bor, lekin ular qattiq dogmatik andozalar tizimi bilan chegaralangan. Shuning uchun ushbu uslublarda zarur bo'lgan ko'rsatmalar yo'q, ya'ni bular: bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi noaniqlik va

risklar, inflyatsiya sharoitidagi real va nominal qiymatlarni baholash va shu kabilardir. Shuningdek, kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniqlashda, baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ayniqsa, marketing jihatlari hamda loyiha ishtirokchilarining manfaatlari yetarlicha hisobga olinmagan, pul oqimi, balans tahlili, amortizatsiya hisobi va boshqalarga bo'lgan e'tibor uning uchun xos emas.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan 2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining samarali ijrosini ta'minlashda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Jamg'armaning asosiy vazifalari:**

- davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tijorat banklari, xorijiy jamg'arma va investorlar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalarning moliyaviy mablag'larini jamlash;

- iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilish borasida ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

- strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar, avvalo, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari korxonalarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

- yoqilg'I energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnikaviy qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'ati va hajmini oshirishga yo'naltirilgan loyihalarning moliyalashtirilishini ta'minlash;

- birinchi navbatda yetarlicha rivojlanmagan mintaqalarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga molik, istiqbolli milliy davlat dasturlari va loyihalarini moliyalashtirish;

- mamlakatimizning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog'ida integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikatsiya infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirishni moliyalashtirish;

- xalqaro moliya institutlari, mamlakatimiz va xorijiy davlatlardagi kredit muassasalari bilan loyihalarning hamkorlikda moliyalashtirilishini tashkil etishni ta'minlash hisoblanadi.

*Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.*

*Sh.M.Mirziyoyev*


Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining tashkil qilinishi real sektorning tayanch tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, samarali tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiya siyosatini moliyaviy ta'minlashning mustahkam manbalari shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, ushbu



jamg'arma Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan chora-tadbirlarning samarali ijrosini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Ushbu fond mablag'lari hisobidan 2014-yilda jami 870,9 million AQSh dollari hajmidagi loyihalar moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, jami moliyalashtirish manbalari tarkibida ushbu fond mablag'larining ulushi 42,8 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagi holatlarni hisobga olmaslik ma'muriy boshqarish davriga mos keladi, chunki unda davlat mulki hukmron hisoblanar va bu borada undan boshqa manfaatdorlar yo'q edi. Bundan tashqari, har bir loyiha davlat tomonidan belgilangan dasturlar orqali moliyalashtiriladi, loyihaning samaradorligi, kreditning qaytarilishi unchalik ahamiyatga ega emas edi. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikning mavjud bo'lmaganligi insonlarni mustaqil bir ish qilishlariga va faoliyat olib borishlariga yo'l bermas edi.




Manba: Muallif ishlanmasi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihasi, eng avvalo, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda ko'pchilikning (loyiha ishtirokchilari va aholining) manfaatlarini e'tiborga olish bilan amalga oshirilishi lozim. Hozirgi iqtisodiy vaziyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalar, investitsiya loyihasini amalga oshirishda bir necha manfaatlarning o'zaro to'qnash kelishi jahon iqtisodiyotidagi eng yetuk tajribalarni O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish barcha sohalardagi kabi investitsiya loyihalari tahlilida ham uslubiy o'zgarishlarga erishishni taqozo etdi va uni muhim vazifa sifatida qo'ydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda ichki imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilinmoqda. Xususan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan yirik va strategik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat budjetining ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish


o‘rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilga investitsion dasturi haqida”gi PQ-1213-sonli qarori imzolandi. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan dastur asosidagi kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlarning ahamiyati yuqori bo‘lmoqda.



Manba: Muallif ishlanmasi.

Ushbu vazifani hal etishda mualliflar V.V.Berens, P.M.Xavraneklar ishlab chiqqan – “Руководство по оценке эффективности инвестиций” kitobida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda “YuNIDO” uslubiyoti keng tadqiq etilgan bo‘lib, bu uslubiyot loyihalarni tahlil etishda ahamiyatli o‘rin tutadi. Ushbu uslubda u yoki bu loyihani moliyalashtirishda qarorlar qabul qilish, shuningdek, investitsiya oldi tadqiqotlari uchun mo‘ljallangan kapital qo‘yilmalarning samaradorligini baholashning jahon tajribasi mufassal yozilgan.

Bularning barchasi bozor tahlilining jihatlariga, shuningdek, texnik-iqtisodiy asoslashdagi savollarga, ya‘ni xomashyo bazasini baholash, qurilish maydonini tanlash, loyihalashtirish va texnologiyalarni tanlash, investitsiya loyihalarini investorlarning o‘z mablag‘lari evaziga, shuningdek, tashqi moliyalash manbalari evaziga moliyalashtirishni ta‘minlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash (bular daromadlilikning ichki me‘yori, sof diskontlashtirilgan daromad va hokazo.) jarayonlariga tegishlidir.



Manba: Muallif ishlanmasi.

### 2.3. Moliyaviy investitsiya va joriy holatlarni tahliliy asoslash

Investitsiyalarni baholash uchun sharoitlar mavjud bo'lganda, loyihani tayyorlash moliyaviy va iqtisodiy tahlillar talablariga muvofiq holda o'tkazilishi kerak.

Agar moliyaviy tahlil bo'yicha mutaxassis texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichlarida ushbu jarayonga qo'yilgan bo'lsagina, tegishli mutaxassis orqali moliyaviy tahlil loyiha ishlab chiqilishining boshidan boshlab kuzatib borishi mumkin bo'ladi.

Investitsiyalash moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi nazardan kelgusida investitsiyalarning umumiy boshlang'ich qiymatini oshiruvchi sof foydani hosil qilish va olish maqsadida barcha turdagi moliyaviy, iqtisodiy resurslarning uzoq muddatga qo'yilishi sifatida aniqlanishi mumkin.

Ushbu qo'yilmaning asosiy jihati — moliyaviy resurslarni (ya'ni investorning o'z va qarz mablag'larini) investitsiyalar tomonidan ishlab chiqarish aktivlariga qo'yilgan asosiy va sof aylanma kapitalga aylantirish.

Kelgusidagi sof foydaga qiziqish loyihaga mablag' soluvchi har bir ishtirokchi tomon uchun umumiy bo'lsa-da, kutilayotgan foyda yoki daromad har xil baholanishi va farq qilishi mumkin.

**YuNIDO uslubi bo'yicha moliyaviy tahlilning muhim jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari;

- qo'yilmalarni baholash va loyiha qaytimi;
- loyiha davri va uni gorizontal rejalashtirish;
- risk, noaniqlik va boshqalar.

Moliyaviy tahlilning maqsadlari va andozasi "investitsiyalash" so'zining mazmuni bilan ma'lum bir ahamiyat darajasida aniqlanadi.

Investitsiyalash moliyaviy, iqtisodiy resurslarni kelgusida foyda olish, uni yaratish va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddatga iqtisodiy resurslarni qo'yishdir.

Ushbu qo'yilmaning asosiy jihati investoring o'z mablag'larini investitsiyalash asosida ishlab chiqarish aktivlariga, shuningdek, ushbu resurslarni ishlatish bilan yangi likvidlikni hosil qilishga o'zgartirishda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilarni hisobga olish bilan "investitsiyalash" tushunchasi o'ziga xos aniqlik kasb etadi, moliyaviy tahlil va loyihani so'nggi baholash esa loyiha bo'yicha talab qilinadigan qo'yilmalarni, kutilayotgan natijani, shuningdek, kelgusi sof foydani tahlil etish va baholashni (qiymatini) ko'zda tutadi.

**Ushbu maqsad uchun qo'llaniladigan usullar quyidagilardir:**

- loyiha bashorat qilinish xususiyatlari haqqoniyligining tahlili;
- investitsiyaning amalga oshuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy o'zgarishlarni aniqlash bilan loyihalashtirilayotgan xarajat va daromadlarning tarkibi va ahamiyatligini tahlil etish;

- investitsiyalardan keladigan daromad, ularning foydaliligi, samaradorligi orqali aks ettirilgan har yillik hosil qilingan va jang'arilgan sof moliyaviy foydani aniqlash va baholash;


- vaqt omilining kapital qiymati, baholar va noaniqlik sharoitida (aniq loyiha bilan bog'liq bo'lgan risklar) qabul qilinadigan qarorlar munosabatini hisobga olish.

Shunday qilib, moliyaviy tahlilning maqsadi va andozasi shundan iboratki, u investitsiyalash va moliyalashtirishdagi barcha savollarning yechimi bilan bog'liq omillarni, shuningdek, loyihadagi barcha moliyaviy oqibatlarni tahlil qiladi va aniqlaydi.

**Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari quyidagichadir:**

1. Sanoat investitsiya loyihalarining moliyaviy tahlili – salohiyatli investorlar va loyiha yaratuvchilariga loyihadagi moliyaviy oqibatlarni ko'rsatish uchun yoki asosiysi texnik xarajatlarni yoki loyiha takliflarini tugallash uchun loyihani ishlab chiqishning oxirgi bosqichlarida amalga oshiriladigan ajratiluvchi faoliyat emas.

Moliyaviy tahlil texnologiya va ishlab chiqarish quvvati, loyihalashtirilayotgan korxonaning joylashgan joyi, resurslar, loyiha andozasi, marketing strategiyalarining mohiyati jihatidan aniqlanuvchi loyiha strategiyalarini ishlab chiqish va turli xil muqobillarini ko'zda tutishi lozim.



Manba: [http://images.myshared.ru/19/1185660/slide\\_21.jpg](http://images.myshared.ru/19/1185660/slide_21.jpg)



2. Moliyaviy tahlilni o'tkazish jarayonida qaror qabul qiluvchi shaxs investitsiyalarni baholash uchun turli xil mezonlarni qo'llashini ham hisobga olishi zarur. Bu analitikni shunday mezonlarni aniqlashga majbur qiladi va u investorlar talab qiladigan axborotlarni tayyorlash uchun unga muvofiq keluvchi usullarni tanlaydi. Masalan, investorlar past rentabellikda tezlashtirilgan amortizatsiyani afzal ko'rishi mumkin yoki kichik daromadlar sharoitida bosh raqobatchiga nisbatan bozordagi o'z ulushini kengaytirishni xohlashi mumkin, bunda uning strategiyani mavjud firmaning yuqori rentabelligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunda nafaqat qatnashuvchi tomonlarning, balki jamiyatning ham qiziqishini hisobga olish kerak. Jamiyatning qiziqishi shundaki, bunda ular investitsiya jarayonda cheklangan resurslarning samarali ishlatilishi va mamlakatning rivojlanishiga intiladilar.

Qiziqishlarni nazorat qilish uchun turli xil ma'muriy va fiskal tadbirlar qo'llaniladi. Bu tadbirlar ham rag'batlantiruvchi, ham chegaralovchi bo'lib, loyihani baholash va moliyaviy tahlil jarayonlariga kiritilishi va aniqlanishi lozim.

#### **Qarorlar qabul qilishning 2 xil usuli mavjud: statistik va dinamik.**

**Statistik usul** – loyihaning ma'lum davr, odatda, bir yil, yarim yil, 3 oydagi ko'rsatkichlar tahlilini o'z ichiga oladi, ko'rsatkichlarning yil boshi va yil oxiridagi natijalari aniqlanadi, ularning o'zgarishi o'rganiladi.

**Dinamik usuldan** esa uzoq muddatli loyihalarni asoslash, tahlil qilishda foydalaniladi. Bunda ko'rsatkichlarning o'zgarishi dinamikasi yillar davomida o'rganiladi.

Moliyaviy tahlilda bozor narxlari ishlatiladi. Lekin xarajat va daromadlarni iqtisodiy tahlil etish bosqichida bozor narxlari ishlab chiqarilgan mahsulot va ishlatiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini aks ettira oladimi? Agar shunday bo'lmasa, ya'ni bozor narxlari buzib ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda iqtisodiy tahlil etish uchun xufyona (noaniq) narxlar ishlatiladi. Absolyut narxlar – bir mahsulot qiymatini absolyut pul miqdorida ko'rsatib beradi, bu vaqtda nisbiy narxlar uning qiymati orqali boshqa mahsulotning qiymatini ko'rsatib beradi. Masalan, bir tonna ko'mirning absolyut narxi 100 ming so'm deylik, neftning ekvivalent miqdori 300 ming so'm.

Bunda ko'mirning nisbiy narxi neftga qayta hisoblanganda 0,33 koeffitsiyentni hosil qiladi, bu degani neftning nisbiy narxi ko'mir narxidan 3 marta yuqoridir. Absolyut narx darajasi ishlab chiqarishning o'zgarishi yoki inflyatsiya natijasida loyihaning amal qilish muddati davomida o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarish nisbiy narxning o'zgarishiga olib kelmasligi ham mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, nisbiy narxlar ayrim hollarda absolyut narxlar o'zgarganda ham o'zgarishsiz qolishi mumkin. Moliyaviy tahlil uchun esa absolyut narxlar ham, nisbiy narxlar ham juda muhimdir.

Joriy va doimiy narxlar inflyatsiya natijasida vaqt mobaynida o'zgaradi, bu esa iqtisodiyotdagi narx darajasining umumiy o'sishi deb ham tushuniladi. Agar inflyatsiya resurslar qiymatiga bir qancha ahamiyatli ta'sir etsa va narxlar mahsulotga ta'sir ko'rsatsa, bunday ta'sirni texnik-iqtisodiy asoslashda ko'zda tutilgan moliyaviy tahlilda ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Agar absolyut narxlar keltirilayotgan resurslarga

va mahsulotga nisbatan barqarorligicha qolsa, bunda doimiy narxlarda investitsiyalardan keladigan daromad va foydani yetarlicha aniq hisoblash mumkin bo'ladi. Agarda nisbiy narxlar o'zgarib tursa va mahsulot narxlariga nisbatan ishlab chiqarishga kiritilayotgan resurslar bahosi oshsa yoki aksincha bo'lsa, u holda ularning sof real pul oqimiga va foydaga tegishli ta'sirlari moliyaviy tahlilga kiritilishi mumkin.

Inflyatsiya loyihani amalga oshirish fazasida, ayniqsa, yillik yirik miqdordagi inflyatsiya darajasini jilovlash maqsadida qo'shimcha aksiyadorlik yoki qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirish talab etilishi mumkin bo'lgan sabablarda, hatto nisbiy baholar o'zgarimas bo'lib qolganda ham moliyaviy rejalashtirishda hisobga olinishi lozim. Giperinflyatsiya yuz berganda esa asosiy va aylanma kapitalni har yili qayta baholash lozim bo'ladi.

Aylanma kapitalni loyihalashtirishda mahalliy va import materiallarga, kommunal xizmatlarga, mehnat resurslariga va hokazolarga nisbatan turli xil risk darajalarini qo'llash lozim. Sotish bashorati, istiqboli, sotish hajmining yetarlicha loyihalashtirilmaganligiga kelsak, bunga narxlarning o'zgarishini oldindan to'g'ri ko'ra olmaslik sabab bo'ladi.

Qaror qabul qiluvchi shaxs uchun loyihani gorizont rejalashtirishni o'zining loyiha bilan bog'liq xo'jalik faoliyati sohasini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha qarorlar qabul qilish yoki o'zining investitsiya yoki moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishga nisbatan vaqt oraligi sifatida aniqlash mumkin.

Qaror qabul qiluvchi shaxs tomonidan aniqlanadigan gorizont rejalashtirish loyiha hayotiyligini ham hisobga olishi lozim. Iqtisodiy hayot, ya'ni loyiha sof foydani yaratadigan davr, asosan, korxonaning asosiy texnik va texnologik hayot davriga, ushbu sanoat tarmog'i va mahsulotning hayot davriga, shuningdek, korxonaning o'z faoliyatida ishga aloqador muhitning o'zgarishi va moslashuvchanligiga bog'liqdir.

**Loyihaning iqtisodiy hayotiy davrini aniqlashda turli xil omillarni baholashga to'g'ri keladi, bular quyidagilardir:**

- talabning davomiyligi;
- xomashyoni saqlash va yetkazib berishning davomiyligi;
- texnik yuksalish darajalari;
- bino va uskunalardan foydalanishning davomiyligi;
- muqobil investitsiyalash imkoniyatlari;
- boshqaruvdagi chegaralanishlar.

Shu narsa ravshanki, loyihaning iqtisodiy hayoti hech qachon uning texnik yoki yuridik hayotidan ko'p bo'lmaydi, u bundan kam bo'lishi lozim yoki unga teng bo'lishi kerak.

Loyihani rejalashtirishda faqat iqtisodiy hayot ahamiyatli hisoblanadi. Investitsiya loyihalarni baholash jarayonda gorizont rejalashtirish bilan loyiha hayotiyligi o'rtasidagi aloqadorlik, albatta, hisobga olinishi lozim.

Xulosa tarzida shuni qayd etish joizki, investitsion qarorlar qabul qilishda investitsiya loyihalarini baholash, tahlil qilish, tanlash va amalga oshirishning ilmiy asoslangan uslubiyotidan foydalanish muhim sanaladi. Shuningdek, investitsiyalar

xususida qarorlar qabul qilinishida ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash jarayonlarini shunday tashkil qilish kerakki, bunda ularning qiymatini minimallashtirish va joylashtiriladigan kapitalning foydaliligini oshirishga qodir manbalardan foydalanish yo'llarini baholash kerak bo'ladi. Investitsion qarorlarning qabul qilinishi investitsiya kapitalining tuzilishi, uning muayyan vaqt davomida taqsimlanishi hamda pulning joriy qiymatini hisoblashga imkon beruvchi diskontlash koeffitsiyentlarini qo'llashni talab etadi.

### **Moliyaviy investitsiyalarni baholash va qayta baholash usullari**

Moliyaviy investitsiyalar har bir turini baholash va qayta baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida ushbu xususiyatlarning ayrimlariga to'xtalamiz.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar. Ushbu turdagi investitsiyalarni baholashda ikkita sana muhim rol o'ynaydi:

1. Sotib olish sanasi.
2. Keyingi sanalar.

Sotib olish sanasi deganda, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni sotib olish, ya'ni ularni qabul qilib olish sanasi tushuniladi.

"Moliyaviy investitsiyalarni xarid qilish chog'ida, ular xarid qiymati bo'yicha baholanadi va bu qiymatga brokerlik xizmati uchun to'langan haq, bank xizmati uchun to'lovlar, bojar va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Agar investitsiya, aksiyalarni emissiya qilish va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan to'laligicha yoki qisman olinayotgan bo'lsa, u holda xarid qiymati qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatiga emas, balki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning joriy qiymatiga teng bo'ladi. Investitsiya boshqa aktivga ayrboshlash yo'li bilan to'la yoki qisman olingan bo'lsa, u holda investitsiya qiymati, topshirilgan aktivning joriy qiymatiga qarab aniqlanadi"<sup>5</sup>.

Sotib olish sanasida sotib olish qiymatiga ma'lum sanagacha bo'lgan davr uchun hisoblangan dividendlar va foizlar xissasi kiritilgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyaning balans qiymati o'tkazib berilgan summadan sotuvchi tomonidan bo'nak sifatida to'langan foiz va dividendlar summasini chegirishdan keyin qolgan qiymatda aks ettirilishi lozim. Chunki sotib olish vaqtida olingan summa va sotib olish qiymati o'rtasidagi farq investorming investitsiya kiritgan mablag'lari uchun avans tariqasida olgan daromadi hisoblanadi. Bu avans summa investitsiyani sotib olishdan to qaytarilgunicha bo'lgan davrda investor tomonidan doimiy daromad sifatida bir maromda hisobdan chiqarib borilishi kerak.

Keyingi sanalar deganda, sotib olingandan keyin balans sanalari tushuniladi. Ushbu sanalarda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar balansda turli qiymatda baholanishi mumkin. Jumladan, uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilgan investitsiyalar buxgalteriya hisobida:

- xarid qiymati bo'yicha;
- qayta baholangan qiymati bo'yicha;
- xarid va bozor qiymatining umumiy investitsiyalar usuli bo'yicha aniqlangan eng kam bahosi bo'yicha hisobga olinadi.

<sup>5</sup> Manba: Рубин К.М. Основы Инвестиции. «Бизнес и экономика» изд. 2004. 354-б.

Qisqa muddatli aktivlar sifatida tasnif qilingan investitsiyalar buxgalteriya balansida:

- bozor qiymati bo'yicha;
- xarid qiymati va bozor qiymati kabi ikki qiymatning eng kami bo'yicha hisobga olinishi kerak.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning bozor qiymati deganda ularning moliya bozorida sotish vaqtida namoyon bo'lgan sotish qiymati tushuniladi. Bozor qiymatini, boshqachasiga, haqqoniy qiymat deb ham ataydilar. Bu qiymat ko'p omillarga bog'liq, jumladan, aksiyadorlik jamiyati yoki tijorat bankining foydalilik darajasiga, to'lanayotgan dividendlarning miqdoriga, ularning kelajakdagi obro'-e'tiboriga va boshqa omillarga.

Qiymat tamoyiliga muvofiq qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar boshqa aktivlar singari keyingi sanalarda yuqorida keltirilgan qiymatlarning eng kichik miqdorida balansda aks ettirilishi lozim. Ushbu qiymatda uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar balansda investitsiya portfeli metodiga asoslanib aks ettiriladi. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar ularning bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida hisobga olingan bo'lsa, balansda qimmatli qog'ozlar portfelining jami investitsiya qiymatiga, yoki qimmatli qog'ozlarning alohida nomlari bo'yicha topilgan qiymatiga asoslanib aks ettiriladi.

Keyingi sanalarda bozor qiymati sotib olish qiymatidan past bo'lsa, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning sotib olish qiymati bozor qiymati darajasigacha yetkazilishi va balansda shu qiymat bilan aks ettirilishi kerak. Agar sotib olish qiymati bozor qiymatidan past bo'lsa, u holda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning qiymati balansda o'zgarishsiz qoldirilishi lozim. Hozirgi vaqtda amaliyotda bu tamoyilga to'liq amal qilinmayapti. Korxonalar balansida sotib olingan qimmatli qog'ozlar, jumladan aksiyalar, asosan sotib olish qiymatida (nominal qiymatda) aks ettirilmoqda.

Bozor qiymatining o'zgarishi, ya'ni uni sotib olish qiymatidan past yoki yuqori bo'lishi, ularning ichidan eng quyi miqdorini ifodalovchi qiymati balansda aks ettirilmay qolmoqda. Bu holning mavjudligiga sabablardan biri bo'lib, korxonalarining hisob siyosatida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning keyingi sanalarda qiymatining ko'rib chiqilishi tartibini aniq belgilanmaganligi hisoblanadi.

**1-son BHMSga** (Buxgalteriya hisobotining moliyaviy siyosati) muvofiq korxonalar o'zlarining hisob siyosatlarida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalari bo'yicha quyidagilarni aniq belgilab olishlari lozim:<sup>6</sup>

1. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baholash turini.

2. Qayta baholashga asos bo'lgan hisob usulini.

3. Qayta baholashni qimmatli qog'ozlarning nomlari, guruhlari yoki investitsiya portfeli bo'yicha davriyligini.

---

<sup>6</sup> 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS. – T.: O'BAMA, 2003. 18-20-b.



Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baholash ular qiymatini haqqoniyligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi, shuning uchun ham ularning qiymatini qayta baholash zaruriyati tug'iladi.

**12-son BHMS** – qimmatli qog'ozlar qiymatini qayta baholashni quyidagi uchta usullardan biri bo'yicha amalga oshirishni taqozo etadi:

- qimmatli qog'ozlarning nomlari bo'yicha;
- qimmatli qog'ozlarning guruhlari bo'yicha;
- to'liq investitsiya portfeli bo'yicha.

**Birinchi usulda** qayta baholash har bir qimmatli qog'oz bo'yicha individual tarzda amalga oshiriladi, ya'ni uning sotib olish va bozor (haqqoniy) qiymatlaridan qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha qiymatda u qayta baholangan sanaga tuzilgan balansda aks ettiriladi. Qayta baholash natijasida har bir aksiya bo'yicha oshirilgan yoki kamaytirilgan qiymat summasi topiladi. O'rtadagi farq qimmatli qog'ozlarning balans qiymatining oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan qiymat qayta baholashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalning ko'payishiga olib boriladi. Pasaytirilgan qiymat esa korxonaning xarajati sifatida tan olinadi va u moliyaviy natijalar to'g'risida hisobga kiritiladi.

**Ikkinchi usulda** qayta baholash qimmatli qog'ozlarning guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi. Guruh sifatida, odatda, ma'lum bir korxonalar (masalan, aksiyadorlik jamiyati, aksiyadorlik tijorat banki) hisoblanadi. Ushbu usulda guruhga kirgan qimmatli qog'ozlarning sotib olish va bozor qiymatlari ichidan eng kichigi tanlab olinib, shu qiymatda guruhga kirgan barcha qimmatli qog'ozlarning qayta baholangan qiymatdagi summasi topiladi. Qayta baholash natijasida har bir guruh bo'yicha qimmatli qog'ozlarning oshirilgan va kamaytirilgan qiymat summalari topiladi. Barcha guruhlar bo'yicha birgalikda topilgan summalar o'rtasidagi farq jami qimmatli qog'ozlarning balans qiymatining oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan qiymat, xuddi birinchi usuldagidek, qayta baholashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalga kiritiladi, pasaytirilgan qiymat esa korxonalar xarajati sifatida tan olinadi va hisobotda aks ettiriladi.

**Uchinchi usulda** qayta baholash jami investitsiya portfeli bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu usulda guruhlar bo'yicha qayta baholash natijasida oshirilgan qiymat summasi xususiy kapital summasiga kiritiladi, pasaytirilgan qiymat summasi xarajatlarga olib boriladi, o'rtadagi farq agar ijobiy bo'lsa, investitsiyalarni ko'payishiga, agar salbiy bo'lsa, investitsiyalarni kamayishiga olib boriladi.

“Investor qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni, buxgalteriya hisobini” 21-sonli BHMSga asosan ifodalaydi va qimmatli qog'ozlar qiymatini, avvalambor, sotib olish qiymatida va sotish davrigacha ularning narxini nominal narxgacha yetkazadi. Shuningdek, schyotlardagi qimmatli qog'ozlar qiymatini o'zgarish mezonlarini aniqlab olish zarur bo'ladi.

Ammo 12-sonli “Moliyaviy investitsiyalarning hisobi” nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti va 39-sonli “Moliyaviy instrumentlar” nomli xalqaro moliyaviy hisobot standartida asosiy mezonlardan biri ehtiyotkorlik tamoyili bo'lib, u


qimmatli qog'ozlarni mavjud baholardan "eng kami"<sup>7</sup> va "haqiqiy bozor qiymati"<sup>8</sup> bo'yicha hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ushbu standartlardan kelib chiqqan masala qimmatli qog'ozlarni kamida ikkita bahoda hisobda aks ettirish zaruratidan iborat: aksiyalar uchun – bu xarid qilishning haqiqiy qiymati va joriy bozor bahosi. Aksiyalar uchun haqiqiy xarid bahosi nominal bahoga nisbatan muhimroq ko'rsatkich hisoblanadi, chunki aksiya, odatda, muddatsiz qimmatli qog'oz bo'ladi va uning nominal qiymati – faqat oldindan avanslangan kapital miqdoridir. Ta'kidlash joizki, aksiyalarning bozor qiymati ularning emissiyasidan keyingi emitentning nizom kapitali bilan juda ham bog'liq emas.

Obligatsiyalar uchun esa bu nominal qiymat va joriy bozor bahosi. Obligatsiyalarni muomalada bo'lishi ularning nominal qiymati bilan bog'liq, negaki ularning qoplanishi muddati yaqinlashgani sari (boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holda, masalan, emitentning barqarorligi va hokazo) uning bozor qiymati nominalga yaqinlashib boradi. Aksiya va obligatsiyalar uchun ikki baho bo'lishining muhimligi tahlil qilish va boshqarish masalalari bilan bog'liq, ular orasidagi farq ma'lum vaqt mobaynida amalga oshirilmagan daromad miqdorining mohiyatidan iborat<sup>9</sup>. Shunday qilib, tadqiqot natijasida qimmatli qog'ozlar qiymati uch xil bahoda ifodalashga asoslangan: haqiqiy, nominal va bozor qiymatlarida.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, 12-sonli "Moliyaviy investitsiyalar hisobi" va 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati" buxgalteriya hisobining milliy standartlari orasida qimmatli qog'ozlarni hisobga olish qiymati masalasida juda katta farqlar mavjud ekan.

Ushbu fikrlarni korrelyatsion va regression tahlillar orqali mustahkamlaymiz. Bizga ma'lumki, YaIMning shakllanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Shulardan biri investitsiyalardir. Investitsiya bilan YaIMning chiziqli bog'liqlik tenglamasini statistik raqamlarni kiritgan holda, EXCEL dasturi orqali hisoblaydigan bo'lsak, quyidagi rasmdagi korrelyatsion bog'lanish shaklida namoyon bo'ladi (1-rasm).



**1-rasm. YaIM bilan investitsiyalar, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bog'liqligi**

Manba: O'zR Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

<sup>7</sup> 12-son "Moliyaviy investitsiyalar" nomli BHMS. – T.: O'BAMA, 2003. 132-b.

<sup>8</sup> 12-son "Moliyaviy investitsiyalar" nomli BHMS. O'zR BHMS. O'BAMA, 2003. 117-118-b.

Mazkur chizmadan ko'rish mumkinki, boshqa omillar o'zgarmas bo'lgan sharoitda multiplikator samarasi 1,4 ga teng bo'lar ekan. Bundan investitsiya hajmining bir milliard so'mga oshishi YaIMni 1,4 milliard so'mga o'sishini ta'minlaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xuddi shu tahlillarni, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rsatkichi bilan YaIMning bog'liqligini alohida qarab chiqadigan bo'lsak, ushbu omillar bilan YaIMning chiziqli bog'liqlik grafigini 1-rasmda tasvirlanganidek, YaIM bilan yuqori chiziqli bog'liqlik sanoat ishlab chiqarish hajmi bilan teng ekan, ya'ni o'zgaruvchilarning korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,935 ga teng. Ushbu ko'rsatkich mos ravishda investitsiya bilan 0,535 ga, qishloq xo'jaligi bilan esa 0,391 ga teng.


2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasi loyihasini keng muhokama qilish davomida kelib tushgan takliflarni inobatga olgan holda, 2017-yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy dasturning o'n bitta eng muhim ustuvor vazifasini belgilashni taklif etaman.

Ushbu ustuvor vazifalar bugungi majlisimiz bayonnomasi loyihasida ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan Bosh vazir A.Aripovga ana shu yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro bog'liq chora-tadbirlar kompleksini bir oy muddatda taqdim etish topshiriladi. Shu bilan birga, bu borada xomashyo import qilish 1,3 barobar ko'paygan. Yirik va hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish muddatlari doimo barbod qilinmoqda. 40 ming kishi ishlaydigan "O'ztransgaz" kompaniyasi tizimida muddati o'tgan debitor qarzdorlik 14 foizga oshgan<sup>9</sup>.

#### 2.4. Investitsiya faoliyati obyektlari va subyektlari

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning obyekt va subyektlari ishtirok etadi. Investitsiya faoliyatida investitsiya subyekti, investitsiya obyekt, investor, emitent, investitsiya resurslari kabi tushunchalar mavjud.

Investitsiyaning obyekt bo'lib, mablag'lar, ya'ni boyliklarni safarbar etayotgan obyektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari bo'lishi mumkin.



Manba: Muallif ishlanmasi.

Investitsiya subyekti bo'lib, investitsiyani amalga oshiruvchi yuridik va

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bog'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

jismoniy shaxslar tushuniladi. Ular: xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, mulk egasi bo'lgan fuqarolar bo'lishi mumkin.

**Investorlar** – o'z kapitalini investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

**Emitent** – qimmatli qog'ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to'lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar.

**Reinvestitsiyalar** – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

**Investitsiya resurslari** – investitsion faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko'rinishdagi mablag'lardir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul va boshqa moliyaviy mablag'lar (kreditlar, paylar, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar);

- ko'char va ko'chmas mol-mulklar (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqalar) hamda ularga doir huquqlar;

- tajriba, ishlab chiqarish nou-xau.

- yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi.

Investitsiya subyektlari orasidagi munosabatlar ishlab chiqarish xususiyatiga egadir.

Kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish subyektlari quyidagilardir: investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo'yilma obyektlaridan foydalanuvchilar va boshqalar.

Investorlar o'z mablag'i yoki jalb qilingan mablag' yordamida kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo'lishlari mumkin.

**Investorlar quyidagilarni amalga oshirish teng huquqiga ega:**

- kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda;

- kapital qo'yilmalar hajmi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash hamda investitsiya faoliyatining boshqa subyektlari bilan shartnomalar tuzishda;

- kapital qo'yilmalar hisobiga yaratilgan, sotib olingan obyektlarga egalik qilish, foydalanish va tassaruf etish;

- shartnoma yoki davlat shartnomasi orqali kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va uning natijalariga bo'lgan huquqni yuridik va jismoniy shaxslarga, davlat va mahalliy hokimiyatga o'tkazish;

- imzolangan shartnomalar asosida birgalikda kapital qo'yilmalarni amalga oshirish uchun o'zining va jalb qilingan mablag'larni boshqa investorlarning mablag'lari bilan birlashtirish;

- kapital qo'yilmalarga yo'naltirilgan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish.

**Buyurtmachilar** – investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar. Shu bilan birga, ular




investitsiya faoliyati subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaydilar. Buyurtmachilar rolda investorlarning o'zlari ham namoyon bo'lishlari mumkin. Investorlar bo'lmagan buyurtmachilar esa shartnomada belgilangan tartibda va davrda kapital qo'yimalarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'ladilar.

**Pudratchilar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishlari kerak. Qurilish faoliyatini litsenziyalash qurilish mahsulotlari iste'molchilarini huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilma obyektlaridan foydalanuvchilar – yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu obyektlar ular uchun yaratiladi.

Investorlar kapital qo'yilma obyektlaridan foydalanuvchilar rolda namoyon bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati subyekti uning ikki va undan ortiq funksiyalarini bo'lib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati subyektlari davlat organlari tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishi hamda maqsadli ravishda kapital qo'yimalardan foydalanishi zarur.

Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar, hamda investitsiyalar sarflanishi lozim bo'lgan maqsadlar bilan, ya'ni investitsiya obyektlari bilan bog'liqdir.



2-rasm. Investitsiya faoliyatining obyekti va subyektlari


**Investitsiyalarni yo'naltirish sohalari, ishlab chiqarishda ishtiroki va sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi obyektlarini farqlash mumkin:**

- xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va modernizatsiyalashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag'lari;
- fan-texnika mahsulotlari, izlanishlar, ta'limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- intellektual g'oyaviy boyliklar, mualliflik, ixtiro, kashfiyot huquqlari, tajriba;
- qimmatbaho qog'ozlar, maqsadli pul jamg'armalari;
- boshqa mulkchilik obyektlari;
- mulkiy huquqlar.

Qonun va qonuniyatlarda ta'kidlangan ekologik va boshqa me'yorlarga, sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan, yaratilishi va ishlatilishi mumkin bo'lmagan vositalar uchun investitsiyalarni yo'naltirish man etiladi va bu ishlar investitsiyalarni sarflash obyekti bo'la olmaydi. Fuqarolar, huquqiy shaxslar va davlatni qonuniy manfaatlariga putur yetkazadigan ishlar uchun ham investitsiyalar sarflash man etiladi.

Investitsiyalarni jalb etish va sarflash sohalariga asoslanib investitsiya faoliyati obyektlarini turkumini tuzish mumkin.

Investitsiya faoliyati obyektlari turkumi investitsiyalarni sarflanish sohalariga binoan quyidagi 2-chizmada ko'rsatilgan.



**3-rasm. Investitsiya faoliyati obyektlarini turkumlash**

Manba: Muallif ishlanmasi.

Investitsiya faoliyatida sohalardan birini yoki bir nechtasini tanlab olish huquqiga investorlarning o'zlari ega bo'ladilar. Ularni hech kim soha yoki investitsiya obyektlarni tanlashga majbur eta olmaydi. U yoki bu sohani tanlashda va investitsiyalarni ma'lum bir sohaga sarflashdagi qarorlarni investorlarning o'zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati subyektlari bo'lib, bir investor, bir nechta tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishtirokchi investorlar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyatidagi subyektlar investorlar bo'lib, mahalliy va chet ellik fuqarolar, huquqiy shaxslar yoki davlat hisoblanadi. Investitsiyalarni amalga oshirishni esa qabul qilingan buyurtmalarni bajaruvchisi sifatida, investorning topshirig'i asosida investitsiya faoliyatining ishtirokchilari ta'minlaydilar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ular fuqarolarni va huquqiy shaxslarni o'z xohishlari bilan shartnomalar asosida jalb qiladilar.

Qonunlarga tayangan holda shartnomalar asosida investitsiyalarga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ushbu faoliyat natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishni investorlar, boshqa fuqaro va huquqiy shaxslar zimmasiga topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari ham mumkin. Bunday hollarda majburiyat garovi sifatida (investorning majburiyatini ta'minlash) investorning mulki qabul qilinadi. Garovga faqat qarzga oluvchining shaxsiy mulki yoki to'la xo'jalik olib borish huquqiga ega bo'lgan mulk qo'yiladi.

Investorlar investitsiya natijalariga, investitsiya obyektlariga ega bo'lish, foydalanish, farmoyish chiqarish va reinvestorlash huquqlariga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda subyektlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar shartnomalar asosida muvofiqlashtiriladi. Shartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo'jalik munosabatlarini o'rganish, ular qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmasa, faqat investitsiya faoliyati subyektlari zimmasida bo'ladi. Har ikki tomonning kelishuviga binoan shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddati asosida tuziladi.

Qabul qilingan qonunlarda investorning qator majburiyatlari bor. Bu majburiyatlar davlat idora-muassasalari oldida bajarilishi lozim bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- investorlar investitsiyalar hajmi va ularning manbalari to'g'risida moliya organlariga deklaratsiya topshirishlari lozim;
- kapital qo'yilishni amalga oshirish uchun tegishli rahbar va maxsus xizmat organlari tomonidan ruxsat olinishi kerak;
- investitsiya loyihasining sanitariya-gigiyena va ekologik talablarga javob berishi to'g'risida ekspertiza xulosasiga ega bo'lishi shart.

**Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari investitsiya subyektlarining majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:**

- vijdonan raqobat qilish va yakka hokimlikka qarshi muvofiqlashtirish talablarini bajarish;
- davlat, rahbar-xodim va organlar tomonidan yuklatilgan talablarni baholash va ularga bo'ysunish;
- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlar hamda hisobotlarni tegishli idoralarga o'z vaqtida yetkazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatining har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo'lgan ishlar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

**Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:**

1. Resurslarni kapital xarajatlarga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni aniq investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalash.

2. Qo'yilgan mablag'lar kapital qiymatining o'sishiga aylantirish, bu investitsiyalarni pirovard iste'moli va yangi iste'mol qiymatini olish bilan harakatlanadi.

3. Kapital qiymatini foyda ko'rinishida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, boshlang'ich va yakuniy bo'g'inlari birlashib, yangi o'zaro bog'liqlikni yaratadi; daromad-resurs-yakuniy natija (samara), ya'ni jamg'arish jarayon qayta takrorlanadi.

Kapitalning o'sish manbasi – investitsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalardan olinadigan daromaddir.

Amaliyotda investitsiyalarning samaradorligini (IS) aniqlash uchun foyda massasining (F) investitsiya xarajatlariga (IX) bo'lgan nisbati foiz ko'rinishida olinadi:

$$IS = F / IX \times 100^{10}$$

Investitsiya xarajatlarini foyda bilan solishtirish jarayon doimiy ravishda investitsiyalash amalga oshgunga qadar (investitsion loyihaning biznes-rejasi ishlab chiqarish davrida), investitsiyalash davrida (obyektni qurilishi davrida) va investitsiyalashdan so'ng (yangi obyektдан foydalanish davrida) davom etadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida investitsiya tahlilining roli va o'imi.

**Kapital qo'yishda foyda** – investitsiya qarorlarining bosh mezoni bo'lsa-da, u sanoat investitsiyalarining birdan bir yo'li hisoblanmaydi, chunki moliyaviy resurslarni turli xil qimmatli qog'ozlarga ham joylash (solish) mumkin.



ham joylash (solish) mumkin.

Biroq sanoat loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlaridagi maqsadlar yo'lidagi investitsiyalash, nafaqat resurslarning uzoq muddatga qo'yilishi foyda olishga yo'naltirilganligi sifatida, balki likvidlikning ishlab chiqarish aktivlarida o'zgartirilishi sifatida ham aniqlanadi.

Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

<sup>10</sup> Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. С. 123-125.



**Sanoat investitsiyalari bo'yicha qabul qilinadigan har qanday qarorlar investitsiya loyihalarining umumiy amalga oshishi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi mezonlarga asoslanadi:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy muhitga taalluqli loyihaning asosiy (korporativ) maqsadi bilan rivojlantirish maqsadlari o'rtasida hozirgi va keyingi davr mobaynida qandaydir bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik mavjudmi?

2. Loyihaning maqsadiga erishish uchun taklif qilingan loyiha va marketing strategiyalari qanchalik muhimligi, nima uchun taklif qilingan strategiya tanlandi, muqobil strategiyalar ham e'tiborga olinganmi?

3. Loyihaning tarkibi, ya'ni loyiha andozasi marketing konsessiyasi, shuningdek, korxonada tanlagan joylashish joyi qanchalik loyiha strategiyasiga va talab qilingan resurslarning mavjudligiga mos keladi?

4. Loyiha iqtisodiy resurslarni samarali ishlata oladimi, loyiha uchun talab qilinadigan asosiy resurslarni ishlatishning eng yaxshi variantlari bormi?

5. Loyihalashtirilayotgan barcha investitsion ishlab chiqarish va marketing xarajatlari ishonchlilik darajasidami va muvofiq keladigan chegaraga egami?

6. Loyiha hayotiyligining har qanday davrida to'lanadigan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun milliy va xorijiy valyuta bilan yetarlicha ta'minlangan barcha investitsiya xarajatlari kapitalning mavjudligi bilan aniqlanuvchi moliyaviy chegaralarda yotadimi?

7. Jamg'arilgan har yillik va diskontlashtirilgan foyda gorizont rejalashtirishga loyiha tarkibi va ma'lumotlarni baholashdagi xatolarga, inflyatsiyaga, narxlarning nisbiy o'zgarishiga, shuningdek, ishga aloqador muhitning o'zgarishiga (raqobatchilar, iste'molchilar, bozor, mol yetkazib beruvchilar va jamoat siyosatiga) qanchalik sezgir, real pul kirim-chiqimlari va tegishli sof foyda tarkibi investorlar va moliyachilarning ko'zlagan maqsadlari minimal talablariga mos keladimi?

8. Risklar mavjud sharoitda ularni nazorat qilish yoki boshqarish uchun qanday strategiya amal qiladi?

9. Risklarning moliyaviy natijalari qanday, ya'ni ular o'zi bilan birga investitsion, marketing, ishlab chiqarish va moliyaviy xarajatlarga qo'shimcha xarajatlar olib keladimi yoki yoqmi, yo bo'lmasa, kutilayotgan ishlab chiqarish, sotish hajmini, sotish narxlarini pasaytiradimi?

Shunday qilib, investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy mezonlari nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqdik.

Investitsiya faoliyati subyektlari investitsiyalash haqida qarorlar qabul qilayotganda loyihalarning riskliligini, manbalarning joriy qiymatini, muqobil imkoniyatlarga ko'ra loyihaning jozibadorligini e'tiborga olishi lozim. U bunday qarorga riskning maqbul darajasida kutilayotgan daromadlilikning tahlili asosida keladi. Shu narsa mudhishki, investitsiyalash haqida qaror qabul qilinar ekan, asosiy e'tibor risklarni va kelgusi investitsiya daromadlilikini hisobga olib bilishga qaratilishi zarur.

**Investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun o'rganilayotgan ma'lumotlar majmuasi quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi lozim:**

- loyiha maqsadlari, uning mo'ljali, iqtisodiy muhit;

- marketing ma'lumotlari (sotish, raqobat muhiti, sotish dasturi va narx siyosati);

- moddiy xarajatlar;

- mehnat, ob-havo, ijtimoiy va boshqa omillarni hisobga olgan holda korxonaning joylashuv joyi;

- qurilish ishlari to'g'risida ma'lumot;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish;

- kadrlar masalasi;

- loyihani tashkil qilish jadvali;

- loyihani amalga oshirish davri bo'yicha moliyalashtirish hajmi;

- loyiha samaradorligini baholash.

Moliyaviy tahlil xarajatlar va daromadlar, aktivlar va passivlar bo'yicha tegishli tijorat ma'lumotlarni (shuningdek, tegishli moliyaviy resurslar, xizmatlar va tovarlar oqimi haqidagi ma'lumotlarni) tizimli tasavvur etish va qayta ishlashga asoslanadi. Xo'jalik faoliyati tahlili tizimi har doim korxonaning moliyaviy holatini, ya'ni balans hisobotlaridagi aktiv va passivlari, xarajatlar, majburiyatlar (hisobot davridagi) va sof daromad bo'yicha hisobotda ko'rsatilgan daromadlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, bu hisob tizimi ishlab chiqarish va marketing xarajatlarini aniqlash uchun ham muhimdir, ya'ni sof daromad bo'yicha hisobot tuzishda, shuningdek, samarali moliyaviy rejalashtirish, mahsulotga bo'lgan narx kalkulyatsiyasi va xarajatlarni nazorat qilish uchun zarur.

Loyiha bo'yicha iste'mol etiladigan resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar fizik shaklga ega va bunda narxlar ularning qiymatlarini ko'rsatishda ishlatiladi.

Umuman olganda, texnik-iqtisodiy asoslashadigan maqsadlar uchun narxlar barcha gorizont rejalashtirishdagi ishlab chiqariladigan mahsulot va iste'mol etiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini ko'rsatib berishi lozim. Narxlar (baholar) turli xil yo'llar bilan aniqlanishi mumkin, bu quyidagilarga bog'liq holda yuz beradi:

- bozor (aniq) yoki xufiyona (noaniq) baholar bilan;

- absolyut yoki nisbiy baholar bilan;

- joriy va doimiy baholar bilan. Bu narxlar nimani anglatadi va ular moliyaviy tahlilda qanday ishlatiladi?

Bozor baholari yoki aniq narxlar – talab va taklif yoki davlat tomonidan aniqlanishidan qat'i nazar bozorda yuzaga chiqqan narxlar, boshqacha so'z bilan aytganda, bu shunday narxlarki, bunda korxonada ishlatiladigan resurslarni sotib oladi va mahsulotni sotadi.

## **Xulosa**

1. Moliyaviy tahlilning investitsiya loyihalarini samaradorligini aniqlashning muhim vositasi sifatida amal qilishi jihatidan uni sobiq Ittifoq davrida kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlashdagi chegaralangan vazifalarga ega tahlildan farqlash lozim. Bugungi tahlil investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda loyihaning qo'shimcha foyda hosil qilish imkoniyatini, uni amalga oshirishdagi risklar va noaniqliklar inflyatsiya ta'siri, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar,

soliq, foiz va amortizatsiya siyosati ta'siri, marketing izlanishlari va loyiha ishtirokchilari manfaatini hisobga olish kabi jihatlari bilan o'z afzalligini namoyon etadi. Ayniqsa, hozirgi zamonaviy baholash uslubiyotlari (masalan, YuNIDO uslubiyoti) loyihalarni ham moliyaviy, ham iqtisodiy baholashning qo'shimcha imkoniyatlarini ochib berish bilan baholash uslubiyotini takomillashtirishning naqadar muhimligini ko'rsatib bermoqdalar.

2. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishning asosiy maqsadi loyihani investitsiyalashning maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beruvchi savollarning yechimiga ega bo'lish uchun barcha moliyaviy holatlarni baholashdan iboratdir.

3. Investitsion qarorlar qabul qilish loyihani amalga oshirishning asosini tashkil etadi va u bir qancha mezonlarga asoslanadi. Investitsiyalash to'g'risidagi qaror loyihaning maqsadga muvofiqligini tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlarga asoslanib qabul qilinadi.

4. Investitsion qarorlar qabul qilishda asosiy ma'lumotlar moliyaviy tahlil natijalari hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning asosiy e'tibori qiymatga asoslangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashga asoslanganligi va ularga narxlarning jiddiy ta'sir ko'rsatishi bois loyiha bo'yicha narxlarni turli baholashning ahamiyati juda muhim hisoblanadi.

5. Loyihani aniq hisob-kitoblar asosida to'g'ri gorizont rejalashtirish uning hayotiyligi davrini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, loyihaning hayotiyligini aniqlashda yana bir qator omillar ta'sirini to'g'ri hisobga olish ham lozim. Loyihaning hayotiylik davri qanchalik uzoq bo'lsa, undan olinadigan samara ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishni zarurligi nimada va uning asosiy maqsadini tushuntirib bering.

2. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyotidagi qanday o'zgarishlarni bilasiz, uning sababi nimalardan iborat?

3. YuNIDO uslubiyoti bo'yicha investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishning muhim jihatlarni sanab bering.

4. Moliyaviy tahlilni o'tkazishning asosiy jihatlarni tushuntirib bering.

5. Loyihani moliyaviy baholash orqali qanday ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?

6. Loyihani amalga oshirishda investitsion qarorlar qanday o'rin tutadi?

7. Investitsion qarorlarni qabul qilish nimalarga asoslanib amalga oshiriladi?

8. Investitsion qarorlar qabul qilish uchun qanday ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi?

9. Narxlar turlarini aytib bering va ularning investitsion qarorlar qabul qilishga ta'sirini tushuntiring.

10. Loyihaning hayotiylik davri deganda nimani tushunasiz?

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. – T., 1998-yil 24-dekabr (yangi tahriri).

2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni.

– T., 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

3. “Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

7. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi , 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

8. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

9. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -275 с.



### **3-bob. IQTISODIYOTDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI VA O'RNI**

**3.1. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida investitsiya tahlilining roli va o'rni. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.**

**3.2. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning obyektiv zarurligi va roli. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar.**

**3.3. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakllari.**

**3.4. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishni tartibga solishning jahon tajribasi.**

*Tayanch iboralar: yalpi investitsiya, investitsiya muhiti, chet el investitsiyalari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalari, investitsion loyiha, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, konsessiya, kompensatsiya shartnomalari litsenziyalar importi, oddiy litsenziyalar, favqulodda litsenziyalar, to'liq litsenziyalar, lizing shartnomasi, erkin iqtisodiy hudud, moliyaviy aktivlar.*

.....

#### **3.1. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida investitsiya tahlilining roli va o'rni. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha erishilgan yutuq va natijalar haqida fikr yuritib, asosiy e'tiborni iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'iga qaratgan edilar. Ma'lumki, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalar hajmi va ularning arxitekturasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni inobatga olgan holda, Birinchi Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir<sup>11</sup>.

<sup>11</sup> Mahmudov N.M., Majidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. 86-b.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Buni birgina 2013-2014-yillarda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga nazar salsak, o'tgan 2014-yilda 14 milliard 600 million AQSh dollariga teng bo'lgan investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2009-yilga nisbatan 13,6 foizga ko'pdir. Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi.

*Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.*

*Islom Karimov*

Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2 milliard 400 million AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak (5-jadval), 2015-yilda yangi ishlab chiqarish barpo etishga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari 67,1 foiz; to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari –73 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari – 49,6 foizni tashkil etgan.

**1-jadval**

**Respublikada 2015-yilda Investitsiyalar holati:**

<b>Jalb qilingan jami investitsiyalar</b>	<b>15 mlrd. 800mln. AQSh dol.</b>	<b>9,5% o'sdi.</b>
<b>Xorijiy investitsiyalar hajmi</b>	<b>3 mlrd. 300 mln. AQSh dol.</b>	<b>21%</b>
shundan, to'g'ridan to'g'ri chet el investits.	73 %	
Yangi ishlab chiqar. barpo etishga yo'naltirilgan investitsiyalar	67,1 %	
Natijada yaratilgan ishlab chiqarish obyektlar	158 ta	
➤ qiymati	7 mlrd. 400 mln. AQSh doll.	
Investitsiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatda sotilgan obyektlar	506	
➤ investorlar mablag'lar	1 trln. 40 mln. AQSh doll.	
<b>Tashkil etilgan ish o'rinlari</b>	<b>22 mingta</b>	
Tugatilgan kam rentabelli obyektlar	245	
Inventarizatsiya qilingan va tugatilgan AJ	462 ta yoki 43 %i	

Manba: O'zR Vazirlar Mahkamaining 2015-yil 3-fevraldagi 18-sonli qaroriga asosan tayyorlangan.

Ko'rsatkichlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan bir sharoitda ham O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlardan joy olmoqda. Bunga, albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan va uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsion dasturlar hamda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lmoqda. 2012-2015-yillar davomida davlat investitsiya dasturlari doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalar

hajmi 2012-yilda 2015-yilga nisbatan 3,6 barobarga ko'paygan. 2014-yilda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning qariyb 84 foizini, hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar esa atigi 16 foizini tashkil etgan.

Vaholanki, 2015-yilda hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning 23,7 foizini tashkil qilgan. Bu Prezidentimiz tomonidan mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonning to'g'ri va aniq olib borilayotgani natijasidir.

Ushbu dasturni amalga oshirish davomida 2015-yilning o'zidayoq barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3 milliard 800 million dollardan oshgani yoki 2015-yildagi barcha kapital qo'yilmalarning 37,5 foizini tashkil etgani prinsipial ahamiyatga egadir. 2015-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million AQSh dollariga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

**Chet ellik investorlar, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan**

Ular qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida "Damas" va "Orlando" rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish, "Jizzax viloyatida 760 ming tonna portland sement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish", "80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish", "Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish", elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida "Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Mang'it" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish" va boshqa obyektlarni tilga olish mumkin<sup>12</sup>. Agar ushbu ko'rsatkich tahlilini 2005-yilga nisbatan oladigan bo'lsak, to'g'ridan to'g'ri jalb qilingan xorijiy sarmoyalar 2014-yilda qariyb besh barobarga ko'payganini qayd etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti 2015-yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan umumiy investitsiyalar YaIMning qariyb 25 foizini tashkil etgani to'g'risidagi tahlillarini davom ettirgan holda ta'kidlash mumkinki, to'g'ridan to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar YaIMning qariyb 6,8 foizini tashkil qilmoqda.

*Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish eng muhim ustuvor vazifamizdir.*

*Shavkat Mirziyoyev*

<sup>12</sup> Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. –T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

O'zbekistonning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy omillardan biri sifatida siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikni va investorlar huquqlarining ishonchli kafolati ta'minlanganini sanab o'tish lozim.

O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqar ekan, bir qator muayyan manfaatlarni ko'zlaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatga xorijdan yangi texnologiyalar, uskunalar, "nou-xau"ni olib kirishga, chet ellik mutaxassislar, ekspertlar va maslahatchilarni jalb qilish orqali mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishga erishish mumkin.

Shuningdek, xorij sarmoyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, qo'shimcha ish o'rinlariga ega qiladi, yangi texnika va texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga olib kiradi, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

**Investitsion loyiha** – barpo etilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan obyektlar, texnologik jarayonlar va ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni yaratish bilan bog'liq tadbirlar va boshqaruv qarorlari bajarilishini o'z ichiga oladigan maqsadlar tizimidir.

**Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.** Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan samolyotsozlik, elektronika va radioelektronika sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimovning g'oyalaridan kelib chiqib, boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, yangi yo'nalishga o'tish dasturlari, chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mo'ljallanmoqda.



**INVESTITSIYA MUHITIGA TA'SIR  
ETUVCHI IJOBIY OMILLAR**

Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik

Investorlar huquqlarining kafolatlari

Ishlab chiqarish uchun zarur infratuzilmalarning mavjudligi

Xomashyo bazasi va undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi

Bozorlarning nisbatan qulay geografik joylashuvi  
va optimal transport koridorlarining mavjudligi

Malakali ishchi kuchining mavjudligi (institut, kollej va b.)

Investorlarga beriladigan soliq va bojxona to'lovlari  
bo'yicha imtiyoz va afzalliklar

**1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi ijobiy omillar**

Manba: Muallif ishlanmasi.

- mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;
- iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- yengil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;
- yuqori texnologiyani va ilmtalab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish<sup>13</sup>.

Jami kapital qo'yilmalarning 21 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir<sup>14</sup>.

Umumiy investitsiyalarda markazlashgan investitsiyalarning ulushi tahlil qilinayotgan, ya'ni 2015-yilda 22 foizni tashkil etgan, uning qolgan 78 foizi esa markazlashmagan investitsiyalardan iborat bo'lgan. Vaholanki, ushbu ko'rsatkichlar 2010-yilda boshqacha nisbatni tashkil qilgan, ya'ni mos ravishda markazlashgan investitsiyalar umumiy investitsiyalarning 18,5 foizini, markazlashmagan investitsiyalar esa 81,5 foizini tashkil etgan. Bundan ko'rish mumkinki, o'sish sur'atida yalpi investitsiyalar bo'yicha markazlashgan investitsiyalarning ulushi kamayib borgan.

Ammo shuni ham qayd etish lozimki, bugungi kunda investitsiya muhitiga bir qancha salbiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bular sirasiga mavjud

<sup>13</sup> Abdulqosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar. – T.: Akademiya, 2008.

<sup>14</sup> O'zR Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-fevraldagi 18-sonli qarori.

infratuzilmalardan foydalanishdagi muammolarni keltirish mumkin. Shuningdek, soliq, bojxona, bank sohasida muammolar va investorlarga yer ajratish bilan bog'liq to'siqlar ham tez-tez uchrab turibdi (2-rasm).

Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrini esga olish joiz, ya'ni "Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilash ham bo'lmaydi"<sup>15</sup>.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: ichki, tashqi va strategik sabablardir.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- ❖ yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish;
- ❖ boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish;
- ❖ zamonaviy va eng qulay tartibga erishish;
- ❖ mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
- ❖ xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish;
- ❖ ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish;
- ❖ xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha:

- ❖ jahon bozoriga chiqish;
- ❖ sog'lom va samarali raqobat muhiti;
- ❖ siyosiy keskinlikning yumshashi;
- ❖ mahalliy hokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- ❖ mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati;
- ❖ mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish;
- ❖ texnologiyalar transferti;
- ❖ ishlab chiqarishni kengaytirish<sup>16</sup>.

Korxonalarining investitsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari investitsion dastur doirasida hamda alohida ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Investitsion loyihalar turli shakl va mazmunga ega bo'lib, ular korxonalarni barpo etish, turli obyektlarni qurish, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mustaqillik yillarida mamlakatimizga 33,6 milliard AQSh dollaridan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etilgan. Mazkur investitsiyalarning barchasi asosan yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni rivojlantirishga yo'naltirildi. Xususan, oxirgi yillarda amalga oshirilishi tugallangan yirik investitsion loyihalarni keltirib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilardir<sup>17</sup>:

<sup>15</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.

<sup>16</sup> Mahmudov N.M., Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. 89-90-b.

<sup>17</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

➤ yangi rusumdagi 480 dan ortiq MAN og'ir yuk avtomobillari hamda 7797 dona Spark M300 yengil avtomobillar ishlab chiqarildi (investitsiya hajmi – 31,3 million AQSh dollar va 3 million yevro);

➤ yiliga 30,0 milliard kub metr gazni tranzit qilish quvvatiga ega bo'lgan "O'zbekiston-Xitoy" gaz quvuri ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 3168,9 million AQSh dollari);

➤ Ko'kdumaloq konida yiliga 6 milliard kub metr yo'ldosh gazlarni utilizatsiya qilish stansiyasi qurildi (investitsiya hajmi – 373,0 million AQSh dollari);

➤ Xauzak konida (LUKOYL bilan hamkorlikda) yiliga 3 milliard metr kub gazni birlamchi tayyorlov moslamasi ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 302,8 million AQSh dollari);

➤ Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on yo'nalishidagi yangi temir yo'l (investitsiya hajmi – 34,4 milliard so'm);

➤ Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog' – Nukus temir yo'l liniyasining 6 ta yangi razezdi ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 6,8 milliard so'm);

➤ To'qimachi – Angren yo'nalishida yangi temir yo'llar (investitsiya hajmi – 85,4 million dollar).

Keltirilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 50 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 519 ta loyihani o'zlashtirish ko'zda tutilmoqda. Shundan moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan investitsion loyihalarning soni 260 tani tashkil etgani holda, o'zlashtiriladigan mablag'lar qiymati 30 074,2 million AQSh dollariga teng.

#### **Ishlab chiqilayotgan yangi investitsiya loyihalar ro'yxati bo'yicha:**

Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million AQSh dollarini yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi<sup>18</sup>.

**Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'rni.** O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning: "Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi",- degan ko'rsatmalari muhim amaliy ahamiyatga egadir.

<sup>18</sup> Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194)

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan siyosatlar oqilona bir tarzda yuritilmoqda, uning natijasi o'laroq respublikamiz iqtisodiy taraqqiyot yo'lini erkin bosib o'tish silsilasida harakat qilmoqda. Bunday oqilona yaratilayotgan siyosatlar safiga bugungi kunda davlatning bosh maqsadi va siyosatlaridan biriga aylangan investitsiya siyosatini kiritish mumkin.

**Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:**

- **birinchidan**, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- **ikkinchidan**, import o'rni bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohasiga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- **uchinchidan**, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni kengaytirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- **to'rtinchidan**, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Mamlakatimizda 2016-yilda 2009-yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizga 40 milliard AQSh dollaridan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etilgan.

O'zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonuniy hujjatlar uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o'zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashadi. Bu jarayonda "investitsiyalar" atamasiga to'g'ri ta'rif berish muhim ahamiyat kasb etadi.



Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Chunki chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarining o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

## 2-jadval

### Amaliyotga joriy etilgan chora-tadbirlar

	Amaliyotga joriy etilgan chora-tadbirlar	Soni
1.	"Nol" qiymatida yangi mulkdorlarga investitsiya kiritish sharti bilan sotilgan obyektlar	506
2.	To'liq tugatilgan obyektlar	245
3.	Buzilgan obyektlar	353
4.	Inventarizatsiya qilinib savdoga qo'yilgan obyektlar	319
5.	Davlat ulushi baholangan va chet ellik strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo'yilgan obyektlar	378
6.	Davlat ulushi xususiy mulkdorlarga sotilgan aksiyadorlik jamiyatlari	52

Manba: O'zR Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-fevraldagi 18-sonli qaroriga asosan tayyorlangan.

Chet el investitsiyalari kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlar iqtisodiy subyektlari hamda qo'shma korxonalar real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'laridir. Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet elikka – kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib ketish, qochish, ya'ni mamlakatlararo ko'chib yurish xos. Chet el investitsiyalari mohiyat jihatidan o'z milliy investitsiya muhitini o'zga muhitga almashtiradi.

Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari chet el investitsiyalarining o'ziga xos muhim belgisi – aniq maqsadlarni ko'zlashi hisoblanadi. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni o'stirish, bozorlarga kirib borish yoki noiqtisodiy mazmundagi vazifalar bo'lishi mumkin. Shu sababli o'zaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kiribi borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishining asosi

hisoblanadi. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli ravishda mamlakat, valyuta, milliylashtirish, rekvizitsiya kabi qo'shimcha risklarga to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Demak, ularning risklar doirasi ancha keng.

Xorijiy investitsiyalar kapitalni qulayroq qilib joylashtirish hamda u egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida undan foyda ko'rish maqsadida eksport qiluvchi mamlakatlarning kapital qabul qiluvchi mamlakatlar real va moliyaviy aktivlariga qo'yilishini bildirgani holda, bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tayotgan kapital oqimini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalarning keskin farqi ularning davlatlararo ko'chishi, faqat o'z maqsadlarini ko'zlashi, amal qilish shart-sharoitlarining o'zgarishi, ancha qulay shartlar bilan qo'yilishi hisoblanadi.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Bugungi kunda chet el kapitalini milliy iqtisodiyotga kiritishda bevosita xorijiy investitsiyalarning eksportni oshirish siyosati bo'lib, bu siyosat bizda, asosan, mamlakatdan tashqarida raqobatni kuchaytrishga olib keladi, bu esa o'z navbatida faol investitsiya faoliyatiga undaydi.

### **3.2. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning obyektiv zarurligi va roli. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar**

Jahon iqtisodiyoti globalashib, savdo yo'lidagi to'siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining dunyo bo'yicha umumiy hajmi 1980-yildagiga nisbatan 14 baravardan ziyod o'sib, 2003-yil holatiga, jami 7 trln. AQSh dollariga etdi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda 64 mingga yaqin mamlakatlararo kompaniyalar mavjud bo'lib, ular 870 mingta xorijiy shu'ba korxonalarini faoliyatini nazorat qilib turadi. Ushbu korxonalar sotilayotgan mahsulotlar hajmi taxminan 18 trln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida butun jahon eksporti hajmidan 2 baravaridan ziyoddir<sup>19</sup>.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”, “Chet ellik

<sup>19</sup> Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиция: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006. -425 с.

investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston hukumati mustaqillikning boshlaridanoq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ildam qadamlarni tashladi. Bu harakatlar vaqtinchalik yoki mavsumiy bo'lmasdan, doimiy e'tiborni talab qiluvchi dolzarb masala hisoblanadiki, Birinchi Prezident Islom Karimov bu sohaga jiddiy e'tibor qaratib: "Bizning doimiy e'tiborimizni, tinimsiz sa'y-harakatlarimizni talab qiluvchi masalalardan yana biri – iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasidir",- deb ta'kidlab o'tdilar. Albatta, bu masalalar bizning doimiy diqqat markazimizda turadi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, mamlakatimizda bu borada tegishli shart-sharoitlar yaratilgan.

Iqtisodiyot nazariyasidan bizga ma'lumki, iqtisodiyotning o'sishi jamg'arish darajasiga bog'liq bo'ladi. Jamg'arilgan mablag' esa bu investitsiya manbaidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy daromadning katta qismi mamlakat aholisining turmush sharoitini ma'lum darajada saqlab turishga va ularni ijtimoiy himoyalashga sarflanmoqda, bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning o'sishi uchun yo'naltiradigan mablag'larning hajmini kamaytiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bir yilda 6 foizdan ortiq iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun milliy jamg'armalar yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning kamida 25 foizini, investitsiyalar esa 30 foizni tashkil etishi kerak<sup>20</sup>.

Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun mavjud shart-sharoitlar yaratilishi zarurdir, xorijiy investitsiya, qachonki, qaysi davlatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga qo'yilishi mumkin. Respublikada siyosiy, iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investitsiya muhitining yaratilganligi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali ekanligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Qulay investitsiya muhiti xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosi sanaladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ayrim qonunlarning yoki me'yoriy hujjatlarning to'laqonli bo'lmasligi ham investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday kamchiliklarning bo'lishi investorming o'z istiqbolini belgilash, qo'yilmaning foydalilik darajasini aniqlash borasidagi qobiliyatini kamaytiradi.

Xorijiy investor uchun yuqorida qayd qilingan barcha omillar muhimdir. Shuning uchun ham rivojlangan ko'pgina davlatlarda maxsus investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar qo'yilishiga talab bo'lgan davlatlarning investitsiya muhitini o'rganadigan va aniq xulosalarni investorlar uchun beradigan firmalar, tashkilotlar mavjuddir. Masalan: Germaniyadagi "BERI" xizmati bu borada katta obro' qozongan tashkilotdir. Bu kabi xizmatlar faqatgina xususiy firmalar tomonidangina emas, balki davlat yoki davlat-xususiy firmalari tomonidan ham bajariladi. Bu kabi xizmatlarni tashkil etishda ko'proq investitsiyaga talabi bo'lgan davlatlarning taklifi bo'lishi zarur. Shuning uchun, bizningcha, bu tarzda

<sup>20</sup> O'sha joyda, -125 b.

tashkilotlarni O'zbekistonda ham tashkil qilish xorijiy investorlar uchun ham, ichki investorlar uchun ham muhim bo'lardi.

O'zbekistonda ham ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqalari qoidalariga asoslangan holda qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda, shuningdek, xorijiy investitsiyalarning infrastrukturallari yaratilmoqda.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarini qurish imkoniyatining mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi va kichik zamonaviy ixcham korxonalarini barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xomashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishligi bilan izohlanadi.

Agar respublikada xorijiy kapitalni qo'yishning ayrim sharoitlarini boshqa davlatlar sharoiti bilan taqqoslasak, quyidagi xulosaga ega bo'lamiz (3-jadval).

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi va ayrim davlatlar iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni qo'yish sharoitlarining qiyosiy tavsifi**

Davlatlar	Xorijiy investitsiya ishtirokida barpo etilgan korxonalar ustav fondida xorijiy investitsiya ishtirokining chegarasi	Soliqdan butunlay yoki qisman ozod qilish muddati (yil)	Ish haftasining davomiyligi (soatda)
1	2	3	5
O'zbekiston	30 %dan kam bo'lmagan	2-7	48
Rossiya	Chegaralanmagan	2	47-49
Xitoy	25 %dan kam bo'lmagan	2-5	4
Singapur	Chegaralanmagan	5-10	48
Janubiy Koreya	50 %dan kam bo'lmagan	5	47-49
Malayziya	70 %dan kam bo'lmagan	2-5	50-60
Tailand	49 %dan kam bo'lmagan	3-8	45-50
Indoneziya	Chegaralanmagan	2-6	47-51

Manba: Непитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К", 2006. -451 с.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiya ishtirokida barpo etilgan korxonalar ustav fondida xorijiy investitsiya ulushi bo'yicha eng kam miqdor Xitoy (25 %)da bo'lsa, eng yuqori miqdor Malayziya (70 %)da kuzatiladi. Hatto



ba'zi bir davlatlarda (Indoneziya, Rossiya, Singapur) bunday eng kam miqdor beliglanmagan ham. Albatta, bu narsa har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

Xorijiy investitsiyalar oqimini moddiylashtirishda, ayniqsa, banklar muhim rol o'ynaydi. Bu borada ta'kidlash joizki "... o'tgan yili jami 1 milliard 540 million AQSh dollarlik prognoz ko'rsatkichlari bajarilmay qoldi. Shundan 570 million AQSh dollari Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli korxonalariga to'g'ri keladi. 970 million AQSh dollari miqdoridagi ko'rsatkichlar esa hudullardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilmagan"<sup>21</sup>. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki iqtisodiyotni qayta qurishga qaratilgan loyihalarni, yirik investitsiya loyihalarini ham, respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni ham moliyalashni tashkil etayotgan yetakchi banklardan biridir. Loyihalarni moliyalash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik va o'zini oqlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, bankning o'z resurslari hisobidan ham, AQSh, Germaniya, Fransiya, Angliya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi yirik moliya institutlari va banklarning resurslarini jalb etish yo'li bilan ham amalga oshirmoqda.

**O'zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning barcha shakllarini faol jalb qilishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar quyidagilardan iborat:**

- mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtayi nazardan investitsiyalashga ta'sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirgan holda qulay investitsion muhitni yaratish;

- guruhlangan omillar natijasida nafaqat hududlarning, balki barcha mikro bosqichlarda chet el investitsiyasini jalb etish bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini hisobga olish;

- chet el investitsiyasini jalb etuvchi hamda shu asosda tovar eksport qilishni ko'paytiruvchi korxonalar uchun imtiyozlarni kengaytirish;

- investitsiya loyihalarini iqtisodiyotning makro va mikro darajasidagi ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olib, ishlab chiqish asosida xalqaro moliya institutlarining respublikamizda ochgan kredit liniyalaridan to'la-to'kis foydalanishni ta'minlash;

- chet el investitsiyalarini tez qaror qabul qilishlari uchun hisob va hisobot tizimi samaradorligini oshirish kabi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va ahamiyati birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, import o'rini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadalashtirish orqali o'sib

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va hokazo.

O'zbekistonda investitsiyalarning iqtisodiyot yuksalishidagi ahamiyatidan kelib chiqib, belgilangan vazifalarining amalga oshirilishini ta'minlashda chet el investitsiyalarining alohida o'rin tutishini inobatga olgan holda ularni barcha shakllari bo'yicha jalb etish chora-tadbirlarining bajarilish sifatini oshirish zarur.

Quyida berilgan jadvalda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri kiritilgan investitsiyalarni yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati keltirilgan (4-jadval).

**4-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan va to'g'ridan to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati**

<b>Yillar</b>	<b>Xorijiy investitsiyalar (million AQSh dollari)</b>	<b>To'g'ridan to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (million AQSh dollari)</b>
2001	823.9	96.5
2002	516.5	80.1
2003	602.1	166.7
2004	754.6	333.8
2005	746.6	545.5
2006	895.7	683.8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258
2009	2856	2264
2010	3635,2	3107,9
2013	4356,2	5042,9
2015	3300,0	2409,0
2016	5481,34	4001,4

Manba: O'zR Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2015-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3,3 milliard AQSh dollaridan ko'proqni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2001-yildagidan qariyb 2476 million AQSh dollariga ko'p ekanini kuzatish mumkin.

O'zbekistonda davlat mustaqilligining qaror topishidagi qisqa davr ichida investitsiya faoliyatining qonunchilik negizi yaratildi. Bu qonun hujjatlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning keng huquqiy kafolatlari va imtiyozlari tizimi o'z aksini topdi. Xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish maqsadlarida qo'shimcha imtiyozlar berilishi nazarda tutilgan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan. Respublikaning eksport potensialini kengaytirish va valyuta bilan o'z xarajatlarini o'zi qoplashi, mahsulotlar va eksport tovarlari raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti farmoni bilan bir qator qo'shimcha imtiyozlar va kafolatlar joriy etildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada rag'batlantirish, respublikaning har bir

mintaqasida eksportga mo'ljallangan qo'shma korxonalar tashkil qilish yo'lida Vazirlar Mahkamasida qarorlar qabul qilinmoqda va amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

a) O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 24.12.1998-y.;

b) O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni, 30.04.1998-y.;

c) O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to'g'risida"gi qonuni, 30.04.1998-y.;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 11.04.2005-y.;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 10.04.2012-y.

Yaratilgan qulay investitsiya muhiti, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Xorijiy investitsiyalar, bir tomondan, boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, foydalanish, uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, yuqoridagilar bilan birga juda ko'p qo'shimcha risklar bilan bog'liqligi aniqdir. Xalqaro investitsiya munosabatlari yo'lga qo'yilishi uchun o'z investitsiyalarini qo'yishi mumkin bo'lgan ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, moliya va kredit institutlari, yakka investorlarning manfaatlari bilan hisoblashish zarur. Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi – ularning maqbul nisbatlarini muvofiqlashtirish, hammasiga teng huquqiy shart-sharoitlar va hayotda amalga oshirish uchun kafolatlarni yaratib berishdan iborat. Bunda, bizning nazarimizda, har qanday holda xorijiy investitsiyalarni yakka tartibda qabul qilish, kafolatlarni va soliqqa tortish shartlarini kelishib olish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish sxemasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi 927-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi (3-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-fevraldagi 578-sonli qaroriga muvofiq xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish "O'zinfoinvest" agentligi xorijiy investorlarga axborot bilan qo'llab-quvvatlash hamda har taraflama ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Agentlik Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va Savdo vazirligi huzuridagi yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil muassasadir.

**"O'zinfoinvest" agentligi 3 ta yo'nalish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etadi:**

1) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar:


- davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati loyihalari;

- hududiy investitsiya dasturi loyihalari;
- davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish yig'ma ro'yxati;
- grant mablag'lari.

2) korxonalarining aksiyalar paketini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;

3) kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.

### Respublikaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish sxemasi:



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi 927-sonli qarori asosida tayyorlangan.

Shu bilan birga "O'zinfoinvest" agentligi mahalliy tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investorlarni topish, ularni O'zbekistonga taklif qilib muzokaralar tashkil etishga ko'maklashish, investorlarga respublika investitsion salohiyati, shuningdek, soliq va qonunchilikdagi boshqa imtiyozlar to'g'risida ma'lumot beradi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish, birinchi navbatda, barcha xo'jalik yuritish bosqichlarida jamg'armalar o'sishi sur'atlarini rag'batlantirish va iste'mol darajasini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunga, fikrimizcha, iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi subyektlardan, xorijiy investorlardan undiriladigan soliqlarning tartibga soluvchilikka amal qilishini kuchaytirish orqali ta'minlash mumkin. Investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi doirasida soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi.

Fikrimizcha, xorijiy investorlarni ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirgunlariga qadar barcha ko'rinishdagi bojxona to'lovlari, soliqlar, yig'imlardan ozod qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir aniq sharoitda imtiyozli soliqqa tortish rejimini ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish foydalidir. Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish, global ilmlarni egallash, soliqlarning tartiblovchi rolini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchilik rolini



kuchaytirishga qaratilishi lozim. Bunda asosiy vazifa – chet ellik hamkorlarga kapital qo'yishda eng samarali yo'nalishlarni taklif etishdan, o'zaro manfaatlar sohalarini belgilashdan, investorlarga kafolatlar va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Bevosita chet el investitsiyalari oqimini kengaytirishga qulay sharoitlar yaratishda, ularning faoliyatini davlatlararo ayirboshlanishidan, qo'shimcha aniq va noaniq risklarga duch kelish ehtimollaridan va kapital oqimining vaqtli konsessiyasidan kelib chiqqan holda ish yuritish kerak. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida jami qo'shimcha risklar orasida valyuta risklar ajralib turadi. Hukumat kafolati bilan olinadigan kreditlar va qarzar rolining oshib borayotganligi investitsiya muhitini va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida keskin chora-tadbirlar ko'rilishini taqozo etadiki, unga iqtisodiyotning ustuvor sektorlarida soliq kreditlaridan keng foydalanishga o'tish bilan erishish mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga kiritilishini amaldagi asosiy shartlarini xalqaro shartnomalar tamoyillariga muvofiq holda qayta ko'rib chiqish lozim, ayrim mamlakatlar va alohida investorlar uchun imtiyozlar va rag'batlarni ustuvorliklar va hal qilinadigan vazifalarga qarab belgilash talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, fikrimizcha, iqtisodiyotning katta mehnat talab etiladigan sektorlarida xorijiy investitsiyalarni joylashtirishni rag'batlantirish, soliq imtiyozlarini belgilash va savdo bojlarini pasaytirish zarur. Bu sektorlar investitsiyalarni joylashtirish ayni paytda aholini ish bilan ta'minlash muammolarini ham hal etishga ko'maklashadi. Bevosita chet el investitsiyalari hisobiga yangi loyihalarni investitsiyalashda ustuvorlik davlat sektoridagi ilmtalab va kapitaltalab tarmoqlarga berilishi kerak.

Mamlakatimizga chet el kapitalini keng miqyosda jalb qilishni ssuda kapital va qarzar shaklida emas, balki bevosita chet el investitsiyalari shaklida amalga oshirish lozim. Chet el investitsiyalari shaklida jalb qilish esa iqtisodiyotni qarzar va foiz to'lovlaridan ozod qiladi, shuningdek, ularni jalb qilish evaziga nou-xau, zamonaviy texnologiya, uskuna-jihozlar, qo'shimcha soliq, ijara va boshqa to'lovlarni ta'minlaydi.

Budjet hisobidan investitsiyalashni moliyalashtirishdan avval uning loyihalari tanloviga e'tibor berish va moliyalashtirilayotgan loyihalar hayotiy va eksportbop loyiha bo'lishi lozim. Albatta, eksportbop loyihalar esa ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga urg'u berishni ifodalaydi.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida investitsiya faoliyatini tartibga solish investitsiya kapitalini bizning mamlakatimizga eksport qiladigan mamlakatlarning amaldagi qonunlarini, investitsiya muhitini hisobga olgan holda takomillashtirish talab etiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, o'z kapitalini bizning iqtisodiyotimiz bilan bog'lashga qaror qilgan xorijiy investorlarning potentsial, qo'shimcha risklarini har tomonlama baholash talab etiladi.

Bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan turib, respublika iqtisodiyotini isloh qilish vazifalarini hal etish ancha mushkul. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda turli manbalarning o'zaro nisbatlari o'z mohiyatiga ko'ra

investitsiyalar qiymatini saqlash va kapitallashtirishdagi tegishli risklar mazmunini tavsiflaydi. Shu nuqtayi nazardan moliyalashtirish manbalarida xorijiy investitsiyalarning rolini oshirish – bog‘lanadigan resurslardan samarali foydalanishning o‘ziga xos kafolati hisoblanadi.

Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishda bevosita xorijiy investitsiyalarning ulushini oshirishga alohida e‘tiborni qaratish lozim. Tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy qayta qurish vazifasini hal etishda bevosita xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga, shuningdek, O‘zbekiston Davlat investitsiya dasturini amalga oshira borib erishish mumkin, chunki bunday bevosita investitsiyalarning aksariyat qismi faqat davlat kafolati ostida kirib kelayotganligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Shu sababli to‘g‘ri investitsiyalarni va umuman chet el investitsiyalarini O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- ayrim tarmoqlar va mintaqalarda (jumladan, erkin iqtisodiy zonalar) xorijiy investorlar uchun real amal qilishi uchun imtiyozlar tizimini yaratish;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar, yuqori turuvchi organlar va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida mulk va vakolatni aniq chegaralab qo‘yish;

- barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligini, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va konsessiyalar bo‘yicha me‘yoriy bazani yaratish;

- soliqlarni kamaytirish va soliq tuzilmasini soddalashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashning samarali mexanizmini yaratish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini individual loyihalar bo‘yicha xususiylashtirish;

- birja bozorlarida va boshqa bozorlarda aksionerlik jamiyatlari aksiyalari paketlarining bir qismini xorijiy investorlarga sotish;

- mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarini xorijiy investorlarga sotish.

Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotimizga yanada kengroq jalb etilishiga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar 3-jadvalda keltirilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo‘llanmoqda. Bu faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;

- texnikaviy qayta qurollanish;

- xalq iste‘moli va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarning davlat foydasiga musodara va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyati

doirasida ishlab topgan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tilishi davlat tomonidan kafolatlanadi.

5-jadval

**O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar**

<b>№</b>	<b>Rasmiy muassasa nomi</b>	<b>Muassasaning chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan bog'liq faoliyat doirasi</b>
1.	Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi jarayonlarni muvofiqlashtiradi: - investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda, chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; - davlat boshqaruv idoralari, vazirlik va idoralar ishini tashkil etish;
2.	Iqtisodiyot vazirligi	- investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish;
3.	Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	- mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to'g'risida ma'lumotlar bankini shakllantirish; - investitsiya muhitini o'rganish; - xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish; - investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko'rsatish; - chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); - korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro'yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash;
4.	Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi	- davlatga tegishli mulkni xususiyashtirish va tasarruf etish jarayonda chet el investitsiyalarini tartibga solish;
5.	Moliya vazirligi	- qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish;
6.	Adliya vazirligi	- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olish;
7.	Tashqi ishlar vazirligi	- xorijiy investorlarga va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish;
8.	Ichki ishlar vazirligi	- xorijiy investorlarni va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarni turar-joyi bo'yicha ro'yxatga olish;
9.	Davlat soliq qo'mitasi	- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish;
10.	Markaziy bank	- konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati;
11.	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	- tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish;
12.	"O'zbekinvest" davlat sug'urta kompaniyasi va "O'zbekinvest-interneshnl" qo'shma korxonasi	- chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan va xavf-xatarlardan sug'urtalash;

13.	“O‘zbekinvest loyiha” milliy injiniring kompaniyasi	- dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnomalarini tayyorlash;
14.	Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	- qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish; mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi 927-sonli qaroriga muvofiq tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xomashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig‘idan birinchi yilning 25 foizlik qismidan, ikkinchi yil 50 foizlik qismidan, uchinchi yil 100 foizlik ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan boshlab bunday soliقدan 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotning 30 foizdan ortig‘i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig‘idan (foyda solig‘i), 15-30 foizi eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig‘idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo‘lsa, yer solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra, neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek, zarur uskunalarni import qilishda bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi.

Mazkur sohadagi korxonalar chet ellik hamkorlar bilan birgalikda ochilsa:

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig‘idan;

- xorijiy hamkorlar ulushiga mansub kapitaldan olinadigan daromad va mulk solig‘idan ozod qilinadi.

Yengil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo‘shimcha qiymat solig‘idan tashqari barcha soliqlardan ozod qilinadi;

- o‘z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarni import qilishda korxonalar bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi.

Unga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda ozod qilinadi:



- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, Investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tuzilmalar qisqa muddatlarda xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan amaldagi sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga kirishgan. Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud normativ bazani, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarini ro'yxatga olishning tartib-qoidalarini, ularni himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **3.3. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari**

Ichki va tashqi investitsiyaga bo'lgan talab dunyoda juda yuqori bo'lganligi uchun investitsiyalashtirishni amalga oshirish shakllari va vositalarga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunda dastavval ichki imkoniyatlarni hisobga olib, ichki va tashqi investitsiyalarning optimal variantini vujudga keltirish kerak. Investitsiya natijasida vujudga kelgan mahsulot yoki xizmatlarni jahon bozorida sotish juda katta muammodir. Bu yerda raqobatga bardosh berish juda mushkul. Davlat tomonidan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni himoya qilish maqsadida, chet el mahsulotlarini mamlakatga kiritishni kamaytiradigan qonunlar qabul qilinishi kerak.


Chet el investitsiyalarini dunyoning hamma mamlakatlari jalb etadi. Bundan rivojlangan mamlakatlar ham xoli emas. Har yili dunyo xo'jaligiga 2.0-2.5 trln. AQSh dollari miqdorida investitsiya sarflanadi. Asosiy investorlar o'ta rivojlangan yettita davlat yoki Rambuys klubiga a'zo bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Bular: AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya, Yaponiya va Kanadadir.

Rambuys klubining asosiy maqsadi murakkab iqtisodiy masalalarni yechishda a'zo davlatlarning umumiy strategiyasini aniqlab olishdan iborat. Unda jahon iqtisodiyotining istiqbollari, moliyaviy, savdo va investitsiya muammolari chuqur o'rganiladi. AQSh – bir tomondan, eng nufuzli investor, ikkinchi tomondan esa investitsiya talab qiluvchi mamlakatdir. Masalan, AQSh chet davlatlarga 600 mlrd. dollar miqdorida investitsiya chiqarsa, 500 mlrd. dollar chetdan investitsiya kiritadi. Yaponiyada 18 mlrd. dollar investitsiya chiqarilsa, chetdan bor-yo'g'i 1 mlrd. dollar investitsiya kiritiladi. 1994-yil ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarga 150 mlrd. dollar investitsiya chiqarilgan. Shundan: Sharqiy Osiyoga – 40, Lotin Amerikasiga 37, Yevropa va Markaziy Osiyoga – 18, Janubiy Osiyoga – 3,5, Yaqin Sharq va Afrikaga – 1,0 %i to'g'ri keladi <sup>22</sup>.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud.

<sup>22</sup> Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006. -1028 с.

Ular quyidagi chizmada aks ettirilgan (8-rasm).



**2-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari**

Bu mablag'larning asosiy qismi iqtisodiyotni isloh qilish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish loyihalariga sarf etiladi.

Investitsiya jarayonida bir tomondan, investor (kredit beruvchi) ikkinchi tomondan qarz oluvchi (debitor) turadi. Har ikkala tomon ham o'z manfaatlarini o'ylab ish ko'radi. Masalan, investor bor mablag'ini katta foyda keltiradigan loyihaga sarflashni xohlaydi va shu sababli ham qarz oluvchiga shubha bilan qaraydi. Chunki qarz oluvchi investorning mablag'idan noto'g'ri foydalanib, uni behudaga sarf qilib yuborishi mumkin. Qarz oluvchi loyiha juda samarali ekanligi va ikki tomon uchun ham katta foydani keltirishga to'liq ishonishi kerak. Har qanday holda ham u marketing qonuniyatlari asosida, ya'ni: mahsulotni realizatsiya qilish bozorini, uning hajmini, sotib oluvchining talabi va xohishi, tavakkalchilik darajasini, raqobatchilarning kelgusidagi harakatlarini chuqur bilish asosida ish yuritishi kerak. Ikki tomon bir qarorga kelganidan keyingina loyiha amalga oshishi mumkin. Investitsiya bozorida mablag' yetarli bo'lmagani yoki yetishmaganligi uchun asosan kreditor har doim imtiyozli holatda bo'ladi.

Tashqi bozorga chiqishni amalga oshirish uzoq muddat talab etadigan jarayondir. Buning uchun tinimsiz ravishda mahsulot sifatini yaxshilash, marketing xizmatini yuqori pog'onaga olib chiqish hisobiga mahsulot chiqaruvchining imidjini oshirishga erishish zarur. Chet el investitsiyalarini har xil usullar bilan iqtisodiyotga kiritish mumkin. Bunga konsessiya usuli misol bo'la oladi.

Konsessiya ma'lum bir vaqtga chet el xususiy mulk egasiga yoki boshqa

yuridik shaxsga berilgan yer uchastkasidan qazilma boyliklarni qazib olish, har xil inshootlar qurish va tabiiy boyliklarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan shartnomadir. Bu shartnomada ijara haqi, kontsessior (kontsentsiya olgan shaxs)ning atrof-muhitning holatini yaxshilashi, ishchilar yollashi kabi shartlar va boshqalar belgilanib olinadi.

Investitsiyalarni jalb qilishning ikkinchi usuli kompensatsiya shartnomalari asosida bo'ladigan investitsiyalardir. Bunda chet ellik hamkor mamlakatga kredit beradi va shu kredit hisobiga quriladigan obyektlar uchun litsenziya, uskunalar va mashinalar sotib oladi. Buning evaziga u keyinchalik yetishtirilgan mahsulotning bir qismiga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi. Bu mahsulotning qiymati berilgan investitsiya summasi va uning foizlarini qoplashi kerak. Bunday shartnomalar sanoat kompensatsiyasi deyiladi. Obyekt egasi bo'lib buyurtmachi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bunday shartnomalar MDH davlatlarining hammasida mavjud. Investorlar bunday shartnomalar orqali juda katta buyurtmalarga, buyurtmachi esa o'z kapitalini ishga solmagan holda yangi ishlab chiqarish quvvatlariga va qisman yangi texnologiyalarga ega bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, juda katta qiymatlarni o'zlashtirish va vujudga kelgan obyektlarning to'liq ekspluatatsiyasini amalga oshirish katta muddatni talab etadi. Shu sababli bunday loyihalarni investitsiyalashtirishda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish kerak.

Investitsiya sharoitni yaxshilashning eng progressiv yo'li litsenziyalar importidir. Bu bilan patent orqali himoyalangan ilg'or texnologiyaga asoslangan litsenziyalar yordamida mahsulot ishlab chiqariladi va jahon bozoriga tayyor mahsulot bilan chiqish amalga oshiriladi. Litsenziya sotib oluvchiga litsenziyalarni import qilish o'zida shu ishlarni amalga oshirishga nisbatan arzonga tushadi. Litsenziyalarning quyidagi turlari mavjud:

- oddiy litsenziyalar – bunda litsenziya sotuvchi ishlab chiqarishni o'zi tashkil etadi;

- favqulodda litsenziyalar – bunda litsenziya sotuvchi o'z hududida monopol huquqqa ega bo'ladi;

- to'liq litsenziyalar – bunda litsenziya sotib oluvchiga mulk huquqi to'liq o'tadi va litsenziya sotuvchi ixtiro yoki kashfiyotdan umuman voz kechadi. Litsenziya bahosi shartnoma orqali vujudga keltirilgan foyda, mahsulotning qiymati yoki miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

**Hududiy investitsiya dasturlariga kirgan loyihalar va ularni moliyalashtirish manbalari.** Birinchi Prezidentimiz tomonidan 2011-yilda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi xorijiy kredit liniyalari faoliyat olib bormoqda (jami 200 million dollarlik):

• Islom taraqqiyot banki – 15 million AQSh dollari, LIBORQ 2,5 foiz yillik Q 3 foizgacha bank marjasi, 10 yilga;

- Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi – 18,2 million AQSh dollari, yillik 12 foizgacha, 5 yilga.

6-жадвал

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2016-yilda oliy ta'lim muassasalarini qurish, kapital ta'mirlash va jihozlashning manzilli dasturi**

	Limit, mln. so'm	2016 yilda ishga tushiriladigan quvvatlar		
		O'quv korpuslari (o'quv joylari)	Talabalar turar-joylari (o'rin)	Sport inshootlari, (birlik)
Jami	355 612,0	23 085	2 880	2
Shundan, kapital qo'yilmalar (41 ta obyekt)	311 612,0	23 085	2 880	2
Kapital ta'mir (11 ta obyekt)	44 000,0	x	x	x


Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Kichik biznes subyektlari va fermerlar o'z mahsulotlarini eksport qilishdan olgan valyuta tushumlarining 50 foizini banklarga sotish majburiyatidan ozod qilingan.

2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard AQSh dollaridan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish.

Modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million AQSh dollari qiymatidagi investitsiyalar yo'naltirish, ularning o'sish sur'atini 109,3 foizga yetkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard AQSh dollaridan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015-yilga nisbatan 20,8 foiz ko'pdir.

Xitoy Taraqqiyot banki – 75 million AQSh dollari, LIBORQ 4,5 foiz yillik Q 3 foizgacha bank marjasi, 7 yilga.



Koreya hukumati krediti – 58,6 million AQSh doll., CIRR yoki LIBOR + Uzbek bank marjasi, 5 yilgacha. Germaniya Federativ Respublikasi banklari – Euribor G'LIBOR Q xorijiy bank marjasi Q bank marjasi, 6 yilgacha: "Kommyertsbank" – 21,900 million AQSh dollari, "Xipo Fereyne Bank" – 6,4 million

yevro, "LandesBank Berlin AG" – limitsiz, KfV banki.

2015-yilda hududiy investitsiya dasturiga kirgan loyihalar parametrlari xususida fikrlarni davom ettiradigan bo'lsak, mamlakatimiz bo'yicha jami 13115,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan investitsion loyihalar amalga oshirildi. Mazkur loyihalar natijasida o'tgan yilda yiliga 25 milliard kub metr gazni uzatish imkonini beradigan Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchinchi tarmog'i ishga tushirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan "Angren"



maxsus industrial zonasi, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, "Jizzax" maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda<sup>23</sup>.

Shuningdek, loyiha doirasida prognoz qilinayotgan davrda jami 310068,0 ming dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilmoqda. 2014-yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan investitsion loyihalarning umumiy soni 889 tani tashkil etgani holda, shundan 146 tasi yengil sanoatni rivojlantirishga; 148 tasi qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishga; 102 tasi go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlashga; 43 tasi neft va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga va 450 tasi qolgan barcha sohalarga yo'naltiriladi.

Davlat investitsiya dasturiga loyihalarni kiritishning o'ziga xos talablari mavjud. Bular: investitsion loyihaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asosining mavjudligi; moliyalashtirish manbalarning aniqligi va shartnomada kelishilgan muddatda kreditlarning to'lanishi; loyiha tashabbuskori tomonidan loyiha pasporti, uning amalga oshirilish grafigi va loyiha holati haqida batafsil ma'lumotning tayyorligi. Ushbu talab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-sentabrdagi 395-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni, ko'proq iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya'ni:

- ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish;
- 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;
- yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish;
- konsessiya va lizing shartnomalari tuzish;
- tenderlar e'lon qilish;
- erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;
- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Mamlakatimizdagi mavjud ichki resurslarimiz ko'lamini kengaytirish borasida Tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag'ga ega bo'lgan ushbu fond

<sup>23</sup> Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda yetakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib bormoqda.

Xorijiy investitsiyalarni hamkorlikda qo'shma korxonalarini tashkil etish orqali jalb qilish keng tarqalgan shakllardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxonalar deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalariga aytiladi<sup>7</sup>. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar nizom jamg'armasining 150000 AQSh dollaridan kam bo'lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan. Hozirgi vaqtda respublikada jahondagi 90 mamlakatning investitsiyalari qo'shilgan qariyb 4500 dan ortiq korxonalar ishlab turibdi. Shulardan 20 %dan ko'prog'i batamom (100 %) chet el sarmoyasi evaziga ishlaymoqda.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

7-jadval

#### Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Jami korxonalar soni	4804 ta
shu jumladan:	
2014-yilda yangitdan tashkil etilgan korxonalar soni	536 ta
Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni	4804 ta
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar soni	1600 ta
Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar soni	362 ta
<b>Korxonalarining tashqi savdo aylanmasi (mlrd. AQSh doll.)</b>	24,6
Umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (tarkibi), %	
jumladan:	
-SNG davlatlari	38,9
-boshqa davlatlar	61,1

Manba: O'zR Davlat Statistika ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol-mulklari bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalariga ham qo'shma korxonalariga qo'yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Konsessiya shartnomalari – tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o‘zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarni, texnika-texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish.

Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud – ma’lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir.

**Moliyaviy aktivlar** – qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun nafaqat hududlar, balki tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir.

Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo‘yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya’ni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga bo‘lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo‘naltirib, so‘ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning eng samarali usuli qo‘shma korxonalar tashkil qilishdir. Xorijiy investorlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutulish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta’minlash, shu bilan birga, xorijning ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga qadri baland valyutalarning ko‘proq kirib kelishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiyot hududlar to‘g‘risida”gi qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta’rif berilgan: “Erkin iqtisodiy hududlar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir”<sup>24</sup>.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonda davlat qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo‘lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribada aniq namoyon

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida”gi qonuni, 1990-yil 25-aprel.

bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 AQSh dollari chet el investitsiyasini jalb etish uchun 4 AQSh dollari miqdorida mablag' sarf etgan.

Natijada milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga – Naxodka, Kaliningrad viloyatlari, Sankt-Peterburg shahri va boshqalar kiradi<sup>25</sup>. Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991-yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatdagi Jayren- Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahridagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

**Mollyaviy aktivlar** – qimmatli qog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

O'zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsion muhit yaratish, xorijiy investorlarni respublikaga ko'proq jalb etish maqsadida ular uchun qator soliq, bojxona imtiyozlari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1) tayyor kiyim kechaklar (tikuvchilik, trikotaj, charm buyumlari), paypoqlar, poyabzal ishlab chiqaruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 2003-yil 1-iyuldan boshlab QQS dan tashqari barcha turdagi soliq va ajratmalar to'lashdan ozod qilinganlar, jami respublika bo'yicha bunday korxonalar soni 34 tadir. Soliq to'lashdan ozod qilingan mablag'lar korxonani qayta qurollantirish, modernizatsiyalash, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, aylanma mablag'larini to'ldirish va xodimlarni rag'batlantirish uchun ishlatilishi kerak;

2) ustav fondi 1 mln. AQSh doll. va undan yuqori bo'lgan, ustav fondida xorijiy kapital ulushi 50 % va undan ko'p bo'lgan korxonalar 16 % foyda solig'ini to'laydilar (amalda 20 %); iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar esa belgilangan stavkadan 20 % kam stavkada iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olgan foydasidan solig'ini to'laydilar; bolalar assortimenti tovarlari ishlab chiqarsalar 7 % foyda solig'i to'laydilar;

3) O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun respublikaga xorijiy investor olib kirayotgan texnologik uskuna va xomashyo qiymatidan bojxona boji to'lashdan ozod qilingan (Xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunning 12-moddasi, 6-qismi);

4) xorijiy investor tomonidan respublikada tashkil etilayotgan korxonalar ustav fondiga badal (vznos) sifatida kiritayotgan texnologik uskuna QQS to'lashdan ozod etiladi (Prezidentning №UP-1919 19.01.1998-y.dagi farmonining 1-punkti, 5-abzasi);

5) kichik biznes subyektlari xorijiy kreditlar hisobiga respublikaga texnologik uskuna olib kirayotganda bojxona boji to'lashdan ozod qilinadi (Prezidentning №UP-1702 sonli 31.01.97-y.dagi farmoni), (01.02.1997-y.dan boshlab);

6) kichik biznes subyektlari respublikada o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etish maqsadida olib kirayotgan texnologik uskuna uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilingan (Prezidentning №UP-1987-sonli 09.04.1998-y.dagi farmoni).

"Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi qonunning 22-moddasi, "Xorijiy investorlar huquqlari himoyasi kafolatlari va choralari to'g'risida"gi qonunning

---

25 Сергеев Е.Ю. Свободная экономическая зона. // Международные экономические отношения. – М., 2000. -121 с.



12-moddasiga asosan qonunchilik hujjatlarida ayrim qoidalar bir-biriga mos kelmasa va ular konfliktli holatni yuzaga keltirsa, bunday holda xorijiy investor uchun eng qulay holatni yuzaga keltiruvchi hujjat ko'proq kuchga ega bo'ladi.

2015-yil may oyida VMning "To'g'ri (bevosita) xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Unga ko'ra respublikamizda o'z faoliyatini yuritayotgan qo'shma korxonalar, xorijiy tashkilotlar yanada ko'proq davlat himoyasiga olindi. U yuzaga kelayotgan kamchiliklarni hal qilishda yordam berishi mumkin.

Masalan, "Konmit" qo'shma korxonasi 2007-yil 18-dekabrda Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan, uning asosiy faoliyati – konditer mahsulotlari ishlab chiqarish hisoblanadi. Uning ustav fondi – 2.137.042 AQSh doll., shundan 90,2 %i ingliz kompaniyasi ulushiga to'g'ri keladi (1.927.612 AQSh doll.). Korxonada ustav fondida xorijiy kapital summasi 500.000 AQSh doll. dan ko'p bo'lgani uchun u avvallari mulk solig'i to'lamasdi. 2001-yil 7-dekabrda "O'zRning ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan qo'shma korxonalar uchun belgilangan ba'zi imtiyozlar bekor qilindi. (Soliq kodeksi 92-modda, 6-abzas) 2002-yil aprelida Bo'stonliq tuman DSI korxonaga soliqlarni to'lashni so'rab talabnoma jo'natdi, korxonada esa Toshkent viloyat sudiga murojaat qildi. Sud arizani ko'rib chiqib, "Konmit" korxonasining ro'yxatdan o'tgan kundan amal qilayotgan qonunchilik bo'yicha 10 yil davomida soliq to'lab borishga ruxsat berdi. Sud qarori "Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3 va 12-moddasiga asosan qabul qilindi.

Yana bir holat: yagona soliq to'lovchilar o'z asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarini ijaraga bersa, u ijaraga berilgan aktiv qiymatidan mulk solig'i to'lashi talab etilmoqda (3 %), (VMning 490-sonli 2001-yil 31-dekabrda qabul qilingan qarori 5-punkti). Xuddi shunday holat "Liana treyding" qo'shma korxonasida yuzaga kelgan va korxonada Toshkent viloyati Qibray tumanini sudiga murojaat qilgan. Sud bu arizani ko'rib chiqib, 490-qarorning 5-bandi qo'shma korxonaning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir etmoqda, deb topgan va "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 16-moddasiga ko'ra Qibray tuman DSI sanksiyalarini bekor qilgan. 16-moddada esa shunday deyiladi: "Agar soliq qonunchiligiga o'zgartirish kiritilsa va bu o'zgartirishlar tadbirkorlik subyektlari uchun noqulay iqtisodiy muhit yuzaga keltirsa, subyekt o'zgartirish kiritilishidan avval amal qilgan stavkalar va tartibda 2 yil soliq to'lash huquqiga ega".

Aytib o'tilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirib, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni qayd etish mumkin:

- tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolatgarov jamg'armalari tizimini shakllantirish;

- aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan

investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan, kichik biznes obyektlariga yo'naltirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning kreditdan tashqari usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabi turlaridan foydalanishni kengaytirish;

- investitsion loyihalarning sifatini oshirish, loyihalarning kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishini nazarda tutgan holda, tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish va hokazo.

### **3.4. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishni tartibga solishning jahon tajribasi**

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksport-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlari, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. BXIlarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq. Shunisi xarakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlari berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;

- 2) nomoliyaviy: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

Bu borada yirik kapital eksporter-importeri bo'lmish AQSh davlati tajribasi juda muhimdir. AQShning BXI larni tartibga solish siyosati ikki darajada amalga oshiriladi: federal, mahalliy (shtatlar, okruglar, shaharlar). Federal tartibga solish deganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan cheklashlar tushuniladi. Bunda milliy xavfsizlik masalasi birinchi o'ringa ko'tariladi. AQSh prezidenti Amerika firmalarining qo'shilishi, yutilib ketilishi va sotib olinishi jarayonlarini (agar bunda firma faoliyati ustidan nazorat xorijiy investor qo'lga o'tsa) to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Mahalliy darajada sug'urta biznesi va qishloq xo'jaligi yerlarini sotishni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Trestlarga qarshi qonunlarni davlat organlari tomonidan qo'llanilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda mahalliy ma'muriyatning xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solish imkoniyatlari katta emas. Investitsiyalarni rag'batlantirish tajribasi ko'proqdir.

AQShga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim mexanizmlaridan biri – xorijdagi vakolatxonalaridir. Ular investitsiyalarni u yoki bu shtatga jalb etilishiga ko'maklashadilar (Yaponiyaning o'zida shunday vakolatxonalaridan 40 tasi faoliyat ko'rsatmoqda).

AQShning alohida shtatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq imtiyozlari; korxonani qurayotgan yoki modernizatsiyalashtirayotgan xorijiy investor uchun bozordagi


stavkalaridan pastroq darajada qarzlar va subsidiyalar ajratish; kasbga o'qitish va bandlikka ko'maklashish; transport tarmog'ini takomillashtirish; yer uchastkasini qurilish uchun tayyorlash; tekinga foydalanish uchun yer uchastkasini ajratish va hokazo.

Xalqaro investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri – Osiyo-Tinch okeani hamkorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning "ko'ngilli kodeksi"dir.

Kelajakda Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu "kodeks"da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- transparentlik;
- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim; investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;
- savdoni va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga bo'lgan cheklovlarni minimallashtirish;
- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtimoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, nodiskriminatsiya asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda yetarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- retsident mamlakatning milliy qonunchiligiga, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorning amal qilishi;
- investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarni mamlakatdan chiqishiga va vaqtincha tashrif buyurishiga ruxsat berish;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan:



**3-rasm. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar**

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularni o'z mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asos va tartibini belgilab beradi.

### **Xulosa**

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit g'arb va sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda.

Bunday oqilona yaratilayotgan siyosatlari safiga bugungi kunda davlatning bosh maqsadi va siyosatlaridan biriga aylangan investitsiya siyosatini kiritish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Investitsiya muhiti tushunchasi, mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Investitsiyalar qanday manbalar asosida tarkib topadi? Izohlab bering.
3. Investitsiya loyiha tushunchalarini izohlab bering.
4. Investitsiya muhitiga asosiy ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.
5. Mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'ri va ahamiyati nimada?
6. Respublikaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish tartibi va tizimini ko'rsatib bering.
7. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan qaysi rasmiy muassasalar kiradi?

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun. – T., 1998-y. 24-dekabr (yangi tahriri).



2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'grisida"gi qonuni. –T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.
7. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015- yil 17-yanvar (№ 11/6194).
8. Ветров В.В. Инвестиционный анализ : Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2009. - 432 с.
9. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. 124-b.
10. Чиненова М.В. Инвестиции. – М.: КНОРУС, 2008. -365 с.
11. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ. 1999. -411 с.
12. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2006. -451 с.
13. Шарп У. Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006. -1028 с.

## **4-bob. RESPUBLIKA INVESTITSIYA DASTURINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI VA ASOSIY PRINSIPLARI**

**4.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bo‘yicha: “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” Harakat strategiyasining mazmuni va mohiyati.**

**4.2. Investitsiya dasturining mazmuni, mohiyati va ahamiyati, asosiy tamoyillari (prinsiplari).**

**4.3. Investitsiya loyihalarini aniq Davlat dasturiga kiritish shartlari va titul ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi. Investitsiya dasturini shakllantirish muddatlari.**

**4.4. Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari. Dasturning amalga oshirilishi monitoringi.**

*Tayanch iboralar: Investitsiya dasturi, davlat siyosati, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlar, markazlashtirilgan investitsiyalar, markazlashtirilmagan investitsiyalar, davlat korxonalarini mablag‘lari, kredit resurslari.*

.....

**4.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli farmoni bo‘yicha: “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” Harakat strategiyasining mazmuni va mohiyati**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘sishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Joriy o‘tgan yilda amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotning barcha sohalarida ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan:

## 2016-yilda erishilgan asosiy makroiqtisodiy korsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar %da	2016-yil
Yalpi ichki mahsulotlarning o'sishi	7,8
Sanoat mahsulotining o'sishi	6,6
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	6,6
Qurilish montaj ishlari	12,5
Davlat budjetining bajarilishi	0,1
Inflyatsiya darajasi	5,7
Chakana savdo aylanmasi	14,4

Manba: Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallasuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida har birimizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasi loyihasini keng muhokama qilish davomida kelib tushgan takliflarni inobatga olgan holda, 2017-yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy dasturning eng muhim ustuvor vazifasi belgilab berildi.


Eng muhim vazifalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy o'zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo'lishligi belgilandi.

Ana shu ishlarning bosh maqsadi – fuqarolarning qonuniy murojaatlarini qisqa muddatda sinchiklab ko'rib chiqishni va hal etishni ta'minlashdir. Bu borada raqamlar va silliq hisobotlarning orqasidan quvib, navbatdagi kampaniyabozlikni uyushtirish kerak emas.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamiz ekanligi aniqlab berildi.

Buning uchun joylarga chiqish, har bir xonadonning tadbirkorlik borasidagi imkoniyatini o'rganish, moliyalashtirishni kengaytirish bilan bog'liq muammolarni hal etish, tadbirkorlarni ishontirish va ularga amaliy yordam berish – butun Makroiqtisodiyot kompleksi faoliyatidagi kundalik qoidaga aylanishi zarurligi belgilab berildi.

Hayotning o'zi va xalqning talabi bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bu o'rinda asosiy muammo, quyidagilardan iborat.



Manba: Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirilishi belgilab berildi.

**Ko'pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho'zib yuborilmoqda. Ichki bozorimizning ko'plab tovarlarga bo'lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti. Eksport bo'yicha topshiriqlar barbod qilingan<sup>26</sup>.**

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq tasdiqlandi, amalga oshirish strategiyalari belgilab berildi. Bular quyidagilardan iboratdir:

<sup>26</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.



I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-hudud tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 2017-yil 7-fevral. <http://press-service.uz/uz/document/5482/>

Harakatlar strategiyasini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish – barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining birlamchi vazifasi va bosh ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

2010-2016-yillarda qariyb 20 milliard AQSh dollarlik katta kapital qo'yilmalar kiritilganiga qaramasdan, suyuq uglevodorod va tabiiy gaz qazib olish kamaygan.

Xomashyo import qilish 1,3 barobar ko'paygan. Yirik va hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish muddatlari doimo barbod qilinmoqda. 40 ming kishi ishlaydigan "O'ztransgaz" kompaniyasi tizimida muddati o'tgan debitor qarzdorlik 14 foizga oshgan.

**ikkinchi** – nafaqat joriy yilda, balki yaqin 3-5 yilda foydalanishga topshiriladigan barcha strategik muhim obyektlarni o'z vaqtida ishga tushirish darkor;

**uchinchi** – neft-gaz mahsulotlari eksportini ko'paytirish, importni keskin kamaytirish va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmini oshirish uchun qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar kompleksini taqdim etish zarur.

Avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar kamaygan<sup>27</sup>.

Sanoat sohasida import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo'lib, mahalliyashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan ham past bo'lib qolmoqda.

Ko'pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho'zib yuborilmoqda. Ichki bozorimizning ko'plab tovarlarga bo'lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti. Eksport bo'yicha topshiriqlar barbod qilingan.

O'tgan yili jami 1 milliard 540 million AQSh dollarilik prognoz ko'rsatkichlari bajarilmay qoldi. Shundan 570 million AQSh dollari Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli korxonalariga to'g'ri keladi. 970 million AQSh dollari miqdoridagi ko'rsatkichlar esa hududlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilmagan. Bizning mahsulotimiz eksport qilinadigan mamlakatlar soni 2010-yilga nisbatan 176 tadan 138 taga kamaygan<sup>28</sup>.

<sup>27</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.

**Eksport salohiyatini va mashinasozlik, avtomobil va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalaridagi mavjud muammo va kamchiliklar:**

**birinchi** – avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish, uning mahsulotlari raqobatbardoshligini, eng avvalo, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bozorlarida oshirish bo'yicha prinsipial jihatdan yangi tizim zarur

**ikkinchi** – aholi uchun maqbul narxda turli maishiy elektrotexnika buyumlari ishlab chiqarishni ta'minlashimiz kerak

**uchinchi** – "O'zagrotaxsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish va bu o'ta muhim tarmoqning barqaror ish yuritishni ta'minlash

**to'rtinchi** – mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar zamonaviy xalqaro standartlarga javob berishni ta'minlash uchun butun standartlashtirish tizimini tubdan qayta qurish

Manba: Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.

Tarmoqlar bo'yicha tannarx o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsa-da, kimyo va yengil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlaymoqda.

**Eksport salohiyatini va mashinasozlik, avtomobil va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalaridagi mavjud muammo va kamchiliklar:**

O'tgan yili jami 1 milliard 540 million AQSh dollarlik prognoz ko'rsatkichlari bajarilmay qoldi. Shundan 570 million AQSh dollari Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli korxonalariga to'g'ri keladi. 970 million AQSh dollari miqdoridagi ko'rsatkichlar esa hududlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilmagan. Bizning mahsulotimiz eksport qilinadigan mamlakatlar soni 2010-yilga nisbatan 176 tadan 138 taga kamaygan

Ayni vaqtda mashinasozlik kompleksi, "O'zfarmosanoat" konserni va "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda import hajmi eksport hajmidan o'nlab marta ko'p

"O'zqurilishmateriallari" aksiyadorlik jamiyati va "O'zbekneftgaz" kompaniyasi tizimida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi import miqdorida nisbatan 25-30 foizdan oshmaydi

Manba: Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. 34-b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha komissiyalar bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati muvofiqlashtirib borilishini, shuningdek, uning joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlaydi.

Avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar kamaygan. Bu nafaqat sanoat mahsuloti o'sish sur'atiga, balki mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o'sishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sohada import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo'lib, mahalliyashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan ham past bo'lib qolmoqda.

Butun qishloq xo'jaligi mashinasozligi tizimini tubdan qayta qurish ta'minlanmagan. Bu tizim o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va fermer xo'jaliklari mehnatini engillashtirishning mustahkam poydevori, ayni vaqtda mamlakatimiz valyuta balansini to'ldirish bo'yicha kafolatlangan manba bo'lishi kerak edi.


**Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:**

**1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:**

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;



Manba: «Figure 3.2 Why? Why? Diagram between start and yielding measurable results and carry fairly low risk and uncertainty.

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy

barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;


- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

**2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:**

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;



Manba: Muallif ishlanmasi.

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;



- ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rmini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

- faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;


- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish.

Manba: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi "Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikro kreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2844-sonli qarori.

### **3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:**

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;



Manba: file://Entrepreneurship%.page\_371.html [06.10.2009 1:05:30]

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyó, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

- kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

**4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:**


- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni

bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadi



Manba: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi "Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2844-sonli qarori.

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat,

jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

**5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:**

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

- yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

- sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Bandlik masalasi bo'yicha. Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, o'tgan yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog'liq.

**Birinchi vazifa** – maktabgacha ta'lim sohasida. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi. Yaqinda tasdiqlangan dasturga ko'ra, bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi.

**Ikkinchi vazifa** – umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq.

<p style="text-align: center;"><b>Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>■ yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;</li><li>■ mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish</li></ul>
---

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 2017-yil 7-fevral. <http://press.service.uz/uz/document/5482/>



Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q.


Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda, avvalo, ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxonalar foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejimli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning mazkur ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi:

- davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

- qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyasi yo'llarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi (1-rasm).



**1-rasm. Iqtisodiyotni modrnizatsiyalash va diversifiktsiyalash choralar dasturini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari**

Manba: Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashdagi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

- xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish.

#### 4.2. Investitsiya dasturining mazmuni, mohiyati va ahamiyati, asosiy tamoyillari (prinsiplari)

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar kompleksidir.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarorlari bu borada muhim ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib hisoblanadi.




Illustration 5.1

Manba: <https://www.google.com/imgres>

Natijada 2016-yildagi faol investitsion siyosatni amalga oshirish natijasida umumiy qiymati 5,2 mlrd. AQSh doll. bo‘lgan 164 ta loyihalarni amalga oshirish yakunlandi hamda 5329 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, jumladan neft-gaz sanoatida – 9 ta loyiha, rangli metallurgiya tarmog‘ida – 20, elektroenergetika sohasida – 5, mashinasozlik tarmog‘ida – 3, elektrotexnika sohasida – 16, yengil sanoatda – 17, boshqa tarmoqlarda – 94 ta loyihalar.

Xususan, “450 MVt quvvatli ikki bug‘ stansiyasi qurish orqali Tolimarjon IESni kengaytirish”, “Angren IESda tepofikatsion tanlov bilan yuqori kulli ko‘mirni yoqish uchun 130-150 MVt quvvatli energoblok qurish”, “Siquv kompressor stansiyasini qurish orqali Sharqiy Berdaq va Shimoliy Berdaq konlari qo‘shimcha infratuzilmasini rivojlantirish”, “Jizzax viloyatidagi sement zavodini kengaytirish”, “Mis eritish zavodida yangi erituv pechini qurish”, “Qalmoqqir konining balansdan tashqari rudalarini ishlab chiqarishga jalb qilish”, AJ “DjiEm O‘zbekiston”da “Yengil avtomobillarning “T-250” modelini ishlab chiqarishni tashkil etish”, “Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘lini qurish”, “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK havo kemalari parkini yangilash (2 ta yangi Boeing-787 Dreamliner samolyotlarini olib

kelish)”, “Indorama Qo‘qon tekstil” XK MCHJda ip yigiruv ishlab chiqarishni tashkil etish (IV bosqichi)” va “Andijon viloyatidagi “Fanteks” MCHJda ip yigiruv ishlab chiqarishni tashkil etish”, “Meylisoy” konini qurilishi” va “Sirdaryo viloyatidagi “Guliston Med Texnika” MCHJ QKda bir marta foydalanish uchun sterillangan shprislar ishlab chiqarishni tashkil etish”, “Jizzax plastmassa” AJda polietilen plyonkalarini va trubalarni ishlab chiqarishni tashkil etish”, “Jizzax” EIZsida shisha tolasidan issiqlik izolyatsiyasini ta‘minlaydigan mahsulotlarni va keng assortimentdagi elektrotexnik mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish” va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-fevraldagi 18-sonli qarorining Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga Investitsiya dasturi loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta‘minlash uchun obyektни foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili dasturning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro‘yxati yangilangan holda 3 yillik davrga shakllantiriladi.

**Investitsiya dasturining ahamiyati asosan quyidagi yo‘nalishlarda ifodalanadi:**

- respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi;

- loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta‘minlash uchun obyektни foydalanishga topshirishgacha bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili Dasturning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro‘yxati yangilangan holda uch yillik davrga shakllantiriladi.

**Yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilda kamida 2 barobar oshirish. Bu o‘rinda ta‘kidlash joizki: “... ko‘pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho‘zib yuborilmoqda. Ichki bozorimizning ko‘plab tovarlarga bo‘lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti”<sup>28</sup>.**

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo‘lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o‘tishimiz zarur.

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo‘lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o‘tishimiz zarur. Bu tizimning ma‘no-mohiyati shundan iboratki, u:

- birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya‘ni yarim fabrikatlar tayyorlash,

- ikkinchi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor

<sup>28</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shahsiy g‘avobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.




**materiallarga aylantirish,**

**- uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.**

**Inflyatsiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.**

**2016-yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi. 2016-yilda Oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashimiz dardkor.**

**Mamlakatimizda 2015-yil uchun amalga oshirish belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning sezilarli qismi korxonalar mablag'lari (36,4 foiz) hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (18,5 foiz) orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan (1-rasm).**




**2-rasm: Davlat investitsiya dasturi ustuvor investitsiya takliflari yig'ma ro'yxati**

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-fevraldagi 18-sonli qarori ma'lumotlari asosida tayyorlangan.**

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, aholi mablag'lari, Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari hisobiga 2016-yilda jami investitsion mablag'larning 29 foizi to'g'ri kelishi nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxonalar mablag'lari va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnik va texnologik quvvatlarini modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, shu asosda xalqimiz farovonligini oshirish maqsad etib qo'yilgan.

Muhim strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni monitoring qilish, samaradorligini oshirish hamda ularni muvaffaqiyatli va sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi

PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda PQ-2458-sonli "2016-yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martda PQ-2313-sonli "Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarorlariga kiritilgan investitsiya loyihalarning avtomatlashtirilgan nazorat va monitoring tizimi Iqtisodiyot vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ishlab chiqildi va joriy qilindi.



### 3-rasm. Davlat investitsiya dasturi aniq manzilli qismi bo'yicha

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-fevralda 18-sonli qarori ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqt va imkoniyatdan samarali foydalanishga, amaldagi shart-sharoitlardan kelib chiqib, boyliklarni samarali joylashtirish va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini yuksaltirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

#### Investitsiya dasturining asosiy tamoyillari (prinsiplari)

Investitsiya dasturini shakllantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan zarur hajmlarda, maqbul shartlarda xorijiy investitsiyalarni va

kreditlarni jalb etish, shuningdek, loyihalarni tanlab olishning amaliy mexanizmini shakllantirish va ularning amalga oshirilishi monitoringini olib borish asosida ulardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

- belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni va faoliyat sohaslarini qo'llab-quvvatlash;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, kommunal xo'jaligi) aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni, iste'mol talabini faollashtirishni ta'minlovchi hajmlarda birinchi navbatda investitsiyalash;


- mineral xomashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni, tayyor mahsulotni tashqi bozorda raqobatbardoshli darajaga yetkazishni ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

- transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish, shu jumladan transkontinental transport yo'laklariga integratsiyalash, logistika komplekslarini shakllantirish;

- tarkibiy o'zgartirishlar vazifalari va amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga muvofiq mablag' qo'yishning o'zaro manfaatligi asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tomonlarning investitsiya majburiyatlari asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

- investitsiya loyihalarini dasturning aniq ro'yxatiga oldindan belgilangan mezonlar asosida kiritish;

- ilgari boshlangan obyektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni birinchi navbatda ajratish.



Manba: <https://www.google.com/imgres>

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyoti ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko'rsatkichlari, shu jumladan eksportga yo'naltirilganlik, butlovchi buyumlar va komponentlar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirishda qatnashish va shu kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi

Investitsiya dasturida loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilishi va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Investitsiya dasturini ishlab chiqishda yirik va o'ta muhim loyihalar alohida, katta bo'lmagan bir tipdagi loyihalar yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, qishloq, vrachlik punktlari qurilishi va boshqalar).

Investitsiya dasturi yig'ma jadvallar bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Investitsiya dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtirib boradi.

Investitsiya dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Shu bilan birga, qabul qilingan dasturlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlik, idoralar, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan monitoring olib borish tartibi belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Hozirgi paytda ushbu yo'lga qo'yilgan tizim yordamida investitsion loyihalarning amalga oshirilishida har bir tarmoq jadvalini bajarilishi bo'yicha tizimli monitoring o'rnatilgan va buning natijasida muammoli masalalar va ularning yechimi bo'yicha takliflar kiritib borilmoqda.

#### **4.3. Investitsiya loyihalarini aniq Davlat dasturiga kiritish shartlari va titul ro'yxatlarini shakllantirish tartibi. Investitsiya dasturini shakllantirish muddatlari**

Investitsiya dasturining tahliliy qismi respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'langan holdagi kapital qo'yilmalar hajmlari va moliyalashtirish manbalarini asoslashdan, dastur samaradorligini baholash, loyihalarni tanlab olish mezonlaridan iborat bo'ladi.

Dasturning tahliliy qismi tarkibida investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini hisobga olgan holda umuman dastur, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va hududlar, amalga oshirish yo'llari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi belgilanadi.

Dasturning yalpi ichki mahsulot o'sishiga, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy o'zgarishiga va import tarkibiga, ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish hajmlariga ta'sirining prognozlashtirilgan natijalari hisob-kitob qilinadi.

Dasturning barcha hisob-kitoblari tadrijiy tarzda, respublikani uch yillik davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investitsiya loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Dasturning aniq ro'yxatiga markazlashtirilgan manbalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari kiritiladi.

#### **Investitsiya dasturining aniq ro'yxatiga kiritiladi:**

markazlashtirilgan manbalar	Investitsiya dasturining aniq ro'yxatiga kiritiladi: hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar	to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari
-----------------------------	--	--



**Aniq ro'yxat tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va mamlakat mudofaa qudratini tarkibiy o'zgartirishni ta'minlovchi, respublika iqtisodiyoti ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalar limitlaridan;

- xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostidagi kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

- ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy soha obyektlarining prognozlashtirilayotgan hajmlari dasturga yiriklashtirilgan, buyurtmachilar va obyektlar bo'yicha taqsimlamagan holda kiritiladi.

Loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlari, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi;

- moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada belgilangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Buyurtmachilar tasdiqlangan investitsiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan obyektlar bo'yicha loyihala-qidiruv ishlarining aniq ro'yxatini aniqlashtiradilar.

**Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalarini mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari** Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

**Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari** investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

**Kredit resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining aniq ro'yxatlari** tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.

**Quyidagilar loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi:**

- belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlari, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi;

- moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada belgilangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Aniq dasturni shakllantirish jarayon har bir loyiha bo'yicha mufassal axborot tayyorlash, loyihani ustuvorligi bo'yicha tanlab olish va ro'yxatni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

**Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha axborot buyurtmachi tomonidan tayyorlanad, yani ular quyidagilar:**

- belgilangan shakldagi loyiha pasporti;

- loyihani amalga oshirish reja-jadvali;

- aniq dasturni shakllantirish sanasida loyihani amalga oshirishning holati to'g'risidagi mufassal axborot.

**Loyihaning pasporti:**

- texnik tavsifnomani;
- atrof-muhitga ta'sirni baholashni;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazlarga ko'ra samaradorlikni va amalga oshirish imkoniyatlarini baholashni, tashkiliy tadbirlarning ko'lamini;
- mahsulotga talab hajmi va xususiyatini;
- yechimning muqobil variantlari mavjudligini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish yo'li bilan;
- asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslarining mavjudligini;
- investitsiya xarajatlari miqdorini o'z ichiga oladi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va investitsiya dasturi tasdiqlangandan keyin 2 oydan kechiktirilmasdan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

**Qurilishning titul ro'yxati** investor (buyurtmachi) tomonidan pudratchi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Qurilishning tasdiqlangan titul ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlar (pudratchi va buyurtmachi xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taqsimlangan holda ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi moliyaviy yilda qurilishning titul ro'yxatida loyiha-qidiruv, qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlari aniqlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Investitsiya dasturini shakllantirish muddatlari:**

Uch yillik dasturni shakllantirish jarayoni bir yillik siklga ega bo'ladi hamda yangilangan dasturni har yilning oxirigacha tayyorlashni ta'minlovchi ilovaga muvofiq qat'iy jadvalga tayanadi.

**Aniq loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbulligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi:**

- birinchi bosqichda – loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;
- ikkinchi bosqichda – loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

Aniq dasturga iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni, shuningdek, ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzi bo'lgan korxonalar loyihalarini kiritish taqiqlanadi.

**Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning**

**mezonlari hisoblanadi:**

- loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;
- moliliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;
- mahalliy xomashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi;
- tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi;
- loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;
- ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

**Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgartirishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:**

- tarmoq (mintaqa)ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;
- eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari;
- tarmoqning umuman respublika bo'yicha makroiqtisodiyot ko'rsatkichlariga ta'sirining o'zgarishi;
- tarkibiy omillar;
- ilgari qo'yilgan investitsiyalar samaradorligi;
- asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;
- loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikkinchi bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra dasturga kiritilgan obyektlarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarning bir qismi yangi loyihalarga almashtirilishi mumkin.

Dasturning yig'ma ro'yxatiga vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarning ustuvor investitsiya takliflari kiritiladi.

Dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha hujjatlari ikkinchi yilda tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan yangidan boshlanadigan obyektlar kiritiladi.

#### 4.4. Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari.

##### Dasturning amalga oshirilish monitoringi

Buyurtmachilar tasdiqlangan investitsiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylatirish uchun har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan obyektlar bo'yicha loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxatini aniqlashtiradilar.


**Quyidagilar dasturni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:**

**a) markazlashtirilgan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- davlat budjeti mablag'lari;
- davlat budjetidan tashqari fondlar, jamg'arma mablag'lari;
- hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar;
- hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar;

**b) markazlashtirilmagan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari;
- tijorat banklarining, shu jumladan xorijiy tijorat banklarning kreditlari;
- jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.



Manba: <http://forexaw.com/TERMs/Economic terms and concepts/Economic>

**Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat:**

- respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;
- aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga;
- suv xo'jaligi qurilishiga;
- aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;



- fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari obyektlari qurilishiga;
- davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga;
- umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

1-jadval

**2016- yilda respublikada investitsion loyihalar asosida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan mablag'lar**

t/r	Moliyalashtirish manbalari	2016-yil uchun prognoz, mrd. so'm	Tarkibi, %
	<b>Kapital qo'yilmalar - jami</b>	<b>49 938,5</b>	<b>100,0</b>
	Shu jumladan:		
<b>1.</b>	<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>11 575,7</b>	<b>23,2</b>
1.1.	Budjet mablag'lari	2 100,0	4,2
1.2.	Maqsadli davlat fondlari mablag'lari	2 989,5	6,0
1.3.	Bolalar sportini rivojlantirish fondi	264,5	0,6
1.4.	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	2 359,9	4,7
1.5.	Xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostidagi kreditlar	3 861,8	7,7
<b>2.</b>	<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>38 362,8</b>	<b>76,8</b>
2.1.	Korxonalar mablag'lari	14 239,9	28,5
2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	5 870,0	11,8
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	7 779,3	15,6
2.4.	Aholi mablag'lari	10 453,6	20,9

Manba: 2016-yilning hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

- Markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, amalga oshirish moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy muammolarni va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

- Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

- Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

- Kredit resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining aniq ro'yxatlari tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.


- Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

- Istisno hollarda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tanlov savdolari natijalariga ko'ra "boshqa xarajatlar" limiti hisobiga asbob-uskunalar xarid qilish limiti aniqlashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

- Mamlakatimizdagi mavjud ichki resurslarimiz ko'lamini kengaytirish borasida Tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag'ga ega bo'lgan ushbu fond strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda yyetakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib bormoqda.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrda qabul qilingan PQ-1446-sonli qarori doirasida, 2011-2015-yillarda transport va kommunikatsiya, infratuzilmani rivojlantirish uchun jami 6935,5 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan. Jumladan, moliyalashtirish manbaiga ko'ra:

- xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 3235,9 million AQSh dollari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi – 461,1 million AQSh dollari;
- Davlat budjeti va maqsadli davlat fondlari – 1934,5 million AQSh dollari;
- O'z mablag'lari – 1304 million AQSh dollarini tashkil qiladi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda PQ-2458-sonli qarori.

#### **Dasturning amalga oshirilish monitoringi:**

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag' berish bitimiga tegishli barcha hujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me'yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o'z ichiga oladi. Navbatdagi qadam qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo'lib, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini hamda

mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.


Monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai – uning qaytarilishining ta'minotini tekshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda har yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar davlat budjeti mablag'lari, xalqaro kredit liniyalari mablag'lari hisobiga, Biznes-fond va budjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilgan ekan, albatta, bu mablag'larning qaytarilishi va ma'lum miqdorda ularning foyda bilan ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek, mol yetkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan.

Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosda faoliyat yuritadilar.

**Monitoring so'zi "ko'zgu" degan ma'noni anglatadi.**



Manba: <https://www.dreamstime.com/stock-illustration-logistic-infographic-icons-freight-service-set-world-map-vector-illustration-image41887658>

**Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi:**

- amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi;
- ishlab chiqarish jarayonni bilishlik, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonni boshidan oxirigacha kuzatib borish;
- ishlab chiqarish korxonasi tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi;
- loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

**Monitoring olib borish bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish

va qayta ishlash;

- olingan ma'lumotlar asosida korxonalarining moliyaviy-xo'jalik holatini tahlil etish;

- tahlil natijalari bo'yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Dasturning amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 4-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

**Dasturning davlat monitoringi:**

- investitsiya loyihalarini birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan holda ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- loyihalarning belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlariga (texnik-iqtisodiy asoslashlar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;

- amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda paydo bo'ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;

- investitsiya iqlimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi.

### **O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga ilova**

#### **O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi**

<b>Bosqich</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Muddatlar</b>	<b>Mas'ullar</b>
<b>1-bosqich</b>	Iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid metodik ko'rsatmalarni tarmoq vazirliklari va idoralari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga (keyingi o'rinlarda buyurtmachilar deb ataladi) har yili yetkazadi.	aprel	Iqtisodiyot vazirligi
<b>2-bosqich</b>	Buyurtmachilar loyihalar bo'yicha dastlabki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladilar va takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadilar.	may-iyun	Buyurtmachilar
<b>3-bosqich</b>	Iqtisodiyot vazirligi takliflarni ko'rib chiqadi va o'rtacha muddatli davrda aniq tarmoqni rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiq loyihalarni tanlab oladi.	iyun-iyul	Iqtisodiyot vazirligining tarmoq bo'limlari
<b>4-bosqich</b>	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi,	avgust-sentabr	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya



	“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi va vakolatli banklar bilan birgalikda Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni uzil-kesil tanlab oladi		vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, vakolatli banklar
<b>5-bosqich</b>	Investitsiya dasturining loyihasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan hay‘at tomonidan ko‘rib chiqiladi va uning qaroriga ko‘ra ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasining komplekslari bilan kelishish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamentiga taqdim etiladi	sentabr	Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan hay‘at, Vazirlar Mahkamasining komplekslari
<b>6-bosqich</b>	Investitsiya dasturining loyihasiga Vazirlar Mahkamasi komplekslarining takliflari hisobga olingan holda tuzatish kiritiladi	sentabr-oktabr	Iqtisodiyot vazirligi
<b>7-bosqich</b>	Investitsiya dasturining loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi	oktabr	Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti
<b>8-bosqich</b>	Investitsiya dasturini amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yangidan boshlanadigan obyektlar bo‘yicha tanlov savdolari o‘tkaziladi	oktabr-noyabr	“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, buyurtmachilar
<b>9-bosqich</b>	Tasdiqlangan Investitsiya dasturiga va o‘tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro‘yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro‘yxatlari tasdiqlanadi	dekabr	Buyurtmachilar, pudratchilar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 4-yanvardagi 1-son qarori asosida tayyorlangan.

Monitoring har oyda statistika hisoboti va so‘rov yo‘li bilan Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalari dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga dasturni shakllantirishda foydalaniladi.

### Xulosa

Davlat investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini

amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksidir. Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Investitsiya dasturini shakllantirishning asosiy tamoyillari, eng avvalo, investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bilan birga belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmog'ini, ishlab chiqarishni va faoliyat sohaslarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni investitsiyalashdir.

Dasturga kiritilayotgan loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari bo'lib, moliliyaviy va iqtisodiy samaradorlik, mahalliy xomashyodan foydalanish darajasi kabilar hisoblanadi.

Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan investitsiyalardan iborat. Bunda markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, amalga oshirish moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarini yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

Dasturning davlat monitoringi investitsiya loyihalarini birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan holda ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda loyihalarni belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlarga (texnik-iqtisodiy asoslar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Davlat investitsiya dasturi nimani anglatadi? Uning mohiyati va ahamiyatini izohlab bering.
2. Investitsiya dasturining asosiy tamoyillari (prinsiplari) ini tavsiflab bering.
3. Investitsiya loyihalarini aniq davlat dasturga kiritish shartlari nimalardan iborat?
4. Investitsiya loyihalarining aniq davlat dasturini shakllantirish muddatlarini va ularning mazmunini izohlab bering.
5. Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalarini ifodalab bering.
6. Investitsiya dasturini moliyalashtirish amalga oshirilishi monitoringi deganda nimani tushunasiz?

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. – T., 1998-y. 24- dekabr (yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni. – T., 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T., 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

PF-4947-sonli farmoni bo'yicha: "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" Harakat strategiyasi.

5. "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058-sonli farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.

7. 2016-yilning hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.

8. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

10. Karimov. I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

11. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. 124-b.

12. Шарп У. Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006. -1028 с.

13.. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)

14. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **5-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQUISH, TAHLIL QILISH, EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH VA TASDIQLASH TARTIBI**

**5.1. Investitsiya loyihalari tushunchalari va mohiyati. Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash tartibi.**

**5.2. Investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi.**

**5.3. Investitsiya loyahasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi, asosiy bo‘limlarining tavsifi.**

**5.4. Texnik-iqtisodiy asoslar marketing kompleksi tahlili.**

***Tayanch iboralar:** kapital qo‘yilmalar, investitsiya muhiti, investitsiya resurslari, “Investitsiya loyihasi”, Loyiha oldi va Loyiha hujjatlari, Texnik- iqtisodiy asoslar (TIA), Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA), TIANing namunaviy tarkibiy tuzilishi, TIA amalga oshirish bosqichlari.*

.....

### **5.1. Investitsiya loyihalari tushunchalari va mohiyati. Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash tartibi**

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida qaror topishi o‘zining bozor munosabatlari sharoitiga mos erkin huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lini tanlash imkoniyatini yaratdi.

O‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida esa turli mulk shakllarining vujudga kelishi, tadbirkorlik erkinligining ta‘minlanishi mustaqil qarorlar qabul qilish va boshqaruv faoliyatining rivojlantirilishini taqozo etdi. Ayniqsa, bunday iqtisodiy vaziyat iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish sharoitida yangi investitsiya loyihalarini hayotga keng joriy etish va tatbiq qilish talablarini keltirib chiqardi.

Dunyo tajribasi ko‘rsatishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi investitsiya loyihalarini samarali amaliyotga tatbiq etish bilan ko‘proq ta‘minlanishi mumkin ekan. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarish va siljishlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Umuman, bugungi kunda investitsiya loyihalari to‘g‘risida ko‘plab gapirilmoqda. Investitsiya loyihasi tushunchasining tobora keng qo‘llanilishi, avvalambor, ushbu yangi atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruratini keltirib chiqaradi.

Odatda, har qanday investitsiya tadbirkorlik muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g‘oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g‘oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.



**“Investitsiya loyihasi” tushunchasining o‘zi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo‘llaniladi va u ikki xil ma‘noda talqin etiladi:**

1. Muayyan maqsadlarga erishishni (ko‘zlangan natijalarni hosil qilishni) ta‘minlovchi qandaydir faoliyatlar yig‘indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda “xo‘jalik tadbiri”, “ish (ishlar yig‘indisi)”, “loyiha” terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.

2. Qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda “investitsiya loyihasi” ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo‘llaniladi. “Loyiha” termini birinchi mazmun bo‘yicha tushuniladi.

Investitsiya loyihasi tushunchasi uning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin.

**To‘liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:**



- investitsiya g‘oyasini shakllantirish;
- investitsiya imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- obyektни ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy

ko‘rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o‘z maqsadi, yo‘nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo‘lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to‘liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va “loyiha”lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shuningdek, uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag‘larni safarbar etishga asoslanadi.

**Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish hujjatlarining maqsadi va mazmuni quyidagilardan iborat:**

Investitsiya loyihasi (loyiha) – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar kompleksi.

**Loyihaoldi hujjatlari** – qabul qilingan parametrlarga ko‘ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek, uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig‘indisi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar yetkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o‘tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek, moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag‘lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

#### **Investitsiya loyihasi mohiyati va ahamiyati:**

- xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- import o‘mini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me‘yordagi turmush darajasini ta‘minlash imkonini yaratadi;
- kichik va xususiy biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta‘minlaydi;
- korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;
- tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko‘maklashadi va hokazo.

**Loyiha hujjatlari** – ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiymatini o‘z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi.

**Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash** yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (keyingi o‘rinlarda DTIA yoki DTIH deb ataladi) – variantlarni ko‘rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlashni, umuman, loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan manbalari bo‘yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat.

**Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash** yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (keyingi o‘rinlarda TIA (TIH) deb ataladi) – investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjati.

**Texnik iqtisodiy hisoblash (TIH)** – faoliyat ko‘rsatayotgan korxonani xo‘jalik yuritish ehtiyoji zaruratidan va iqtisodiy holatidan kelib chiqib, bino va inshootni rekonstruksiya va modernizatsiyalashtirish, kichik hajmda texnik jihozlash, almashtirish, tashqi kommunikatsiyalarni o‘zgartirish (asosiy fondlarni yangilash, kapital qo‘yilmalarni kiritish) bilan bog‘liq hujjatlar.

**Biznes-reja** – korxonada faoliyatida joriy va kelgusi davr davomida moliyaviy

faoliyatning salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash, bozorni tahlil qilish, raqobatchi va mijozlarni tahlil qilish, marketing strategiyasini amalga oshirishga imkon beruvchi hujjat.

**Ishchi loyiha** – cheklangan qiymat va ish hujjatlariga ega bo‘lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismdan iborat hujjat.

	Lift in Transactions due to the Web Portal Initiative						
	4,000	6,750	9,500	12,250	15,000	17,750	20,500
25%	17.0%	15.5%	16.1%	8.8%	23.7%	6.8%	2.4%
29%	15.5%	16.1%	8.7%	9.8%	6.2%	2.2%	5.8%
33%	16.1%	8.7%	9.8%	8.2%	8.0%	8.0%	9.1%
37%	8.8%	8.8%	8.2%	8.0%	8.2%	9.3%	12.3%
41%	8.8%	8.8%	8.0%	8.1%	9.2%	12.4%	15.4%
45%	8.8%	8.8%	8.1%	9.3%	12.4%	15.5%	18.6%
49%	8.8%	8.8%	9.2%	12.4%	15.5%	18.6%	21.6%
53%	8.8%	8.8%	12.2%	15.4%	18.5%	21.6%	24.7%
57%	8.8%	11.9%	15.1%	18.4%	21.5%	24.6%	27.7%
61%	11.9%	14.8%	18.1%	21.3%	24.4%	27.6%	30.8%
65%	14.4%	17.7%	21.0%	24.2%	27.3%	30.5%	33.6%
69%	17.2%	20.5%	23.8%	27.0%	30.2%	33.4%	36.5%
73%	20.0%	23.3%	26.6%	29.9%	33.1%	36.2%	39.4%
77%	22.7%	26.1%	29.4%	32.7%	35.9%	39.1%	42.2%

Figure 6: Case example of sensitivity analysis of the ROI model: (a) Cost savings versus revenues, and (b) percentage of customers shifting to the new Internet channel versus Year 1 transaction lift due to the Web-portal initiative. Grey cells have IRR less than the 12% hurdle rate for the firm.

Manba: [https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%](https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%2F)

**Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (keyingi o‘rinlarda XMII deb ataladi)** – davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi institutlar.

**Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda XHMT deb ataladi)** – O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlari.

**Boshqa tarmoqlar** – O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyati turlari klassifikatoriga muvofiq davlat boshqaruvi toifasiga kiritilgan tarmoqlar.

**Strategik foydali qazilmalar** – qimmatbaho, rangli va nodir yer metallari, uglevodorodlar, ko‘mir, uran.

Investitsiya loyihasi investitsiya g‘oyasining shakllanishidan vujudga kelar ekan, uning murakkab jarayon asosida yaratilishida turli takliflar va tahlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarning asosiy o‘rin egallashlarini alohida e‘tiborga olish zarur. Investitsiya loyihasining o‘ziga xos xususiyati, uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izohlanadi. Bunda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun turli manbalardan mablag‘larni jalb etish mumkinligi uning qulayligi, foydaliligi, samaradorligi va afzalligini oshiradi.

Investitsiya loyihasi amal qilish sohasi va darajasiga ko‘ra 40-50 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin. Undagi hisob-kitoblar esa shu davrga mo‘ljallangan bashoratlar asosida tizimli amalga oshiriladi. Bunday loyihalar ko‘proq davlat ahamiyatiga molik va hukumat mablag‘lari evaziga moliyalashtiriladigan obyektlarni ishga tushirish yoki muayyan sohaning tizimli o‘zgartirilishini

bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida keng qamrovli va uzoq yillarga mo'ljallangan bashoratlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bunga mamlakat bo'yicha kommunikatsiya tarmog'ini tizimli zamonaviylashtirishsa, aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashga mo'ljallangan, makrodarajadagi ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalari (ko'proq, davlat investitsiya loyihalari) misol bo'la oladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishda uning monitoringini olib borish tizimining amal qilishi loyihaning iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy samaradorligini va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning natijasi sifatida yaratilgan investitsiya hujjati bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir.

**Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:**

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'rini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko'maklashadi va hokazo.

**Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash tartibi:**

Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-son qaroriga, tartib nizomiga (mazkur nizomga O'zR VM 2008-yil 21-maydagi 101-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan yangi tahririga) asosan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan ko'rsatmalarga binoan amalga oshiriladi.

**Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish tartibi quyidagi holatlarda ko'rib chiqiladi:**

a) markazlashtirilgan manbalar resurslari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

b) ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining ayrim qarorlari asosida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish nazarda tutilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;



v) mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

g) ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalar tomonidan markazlashtirilmagan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;


d) moliyalashtirish manbalari va loyiha qiymatidan qat'i nazar, yengil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalari hujjatlarini;

e) moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, strategik foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashni nazarda tutuvchi, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini belgilaydi.

DTIA (DTIH) loyiha tashabbuskori yoki uning buyurtmasi bo'yicha loyihalash tashkiloti yoki injiniring kompaniyasi tomonidan ishlanma yuzasidan topshiriq asosida ishlab chiqiladi.

### Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish quyidagi sxemada ifodalanadi:

#### Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish sxemasi



Loyihaning DTIA (DTIH)ni ishlab chiquvchi, agar faoliyatning ushbu turini amalga oshirish uchun litsenziya olish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, tegishli sohada obyektlarni loyihalashtirish uchun litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Loyihalashtirishning sifati uchun javobgarlik ishlab chiquvchiga yuklanadi.

Tasdiqlangan DTIA (DTIH) moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni, loyihaning

cheklangan qiymatini belgilash, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, tanlov savdolari o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TIAG'TIH tasdiqlangan DTIA (DTIH), olingan moliyaviy takliflar yoki tuzilgan kredit va investitsiya shartnomalari, shuningdek, o'tkazilgan tanlov savdolari natijalari asosida ishlab chiqiladi.

Ishchi hujjatlar tasdiqlangan TIA(TIH)ning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqiladi.

### **Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA)ning namunaviy tarkibi**

#### **1. Loyihaning maqsadi.**

**2. Obyektning tavsifi** – ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ishchi kuchlari mavjudligi, ijara qiymati, ishlab chiqarish binolari va yordamchi binolarni sotib olish yoki ularni yangidan qurish imkoniyati va boshqalar.

**3. Shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda, korxonalar (inshoot)ni joylashtirish tumani va punktini tanlashning asoslanishi.**

**4. Arxitektura-qurilish va hajmiy-rejalashtirishning prinsipial yechimlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.**

**5. Qurilish va ishlatishda zararli tashlanmalar va oqova suvlarning tavsifi va hajmi, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish tadbirlari.**

**6. Obyektni muhandislik jihatidan ta'minlash va jihozlash (suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, isitish, shamollatish va havo haroratini maqbullashtirish) bo'yicha prinsipial yechimlar.**

**7. Texnologiyaning tavsifi va texnologiya asbob-uskunalari variantlarining asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, energetika va moddiy resurslar iste'moli va boshqalar).**

#### **8. Marketing tadqiqotlari natijalari, ular:**

- tashqi va ichki bozorlar konyunkturasi o'rganishga asoslangan tayyor mahsulotni ichki bozorda sotish, shuningdek, eksport qilish imkoniyatlarini;

- potensial iste'molchilar tomonidan to'lashga qodir talab va raqobatchilar tomonidan taklif o'rganilganligini;

- mahsulotning sifat va narx ko'rsatkichlari bo'yicha raqobatbardoshligini ta'minlash chora-tadbirlarining mavjudligini;

- loyihaning, eng avvalo, arzon narxdagi, talab qilinadigan miqdor va sifatdagi mahalliy xomashyo va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini;

- asbob-uskunalarga qo'yiladigan asosiy talablarni, tabiiy iqlim, ishlab chiqarish omillari va boshqa omillarni hisobga olgan holda vatanimiz texnologiyalarini va xorijiy texnologiyalarni qiyoslash tahliliga asoslangan samarali ishlab chiqarish texnologiyasi, prinsipial texnik yechimlar tanlanganligini;

- taklif etilayotgan ishlab chiqarishning maqbul hajmini;

- loyihani amalga oshirish, shu jumladan uning investitsiya fazasi muddatlarini tasdiqlashi kerak.

**9. Loyiha tashabbuskorining moliyaviy ahvoli va uning loyihani amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlari tahlili.**

10. Loyiha tashabbuskorining texnik va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan loyihani amalga oshirishning dastlabki sxemasi, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan resurslarning mavjudligi va qiymati (shu jumladan, EMVda).

11. Tanlangan variant asosida qurilishning cheklangan qiymati, shu jumladan injiniring kuzatuviga, DTIAni va loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, texnologiya asbob-uskunalariga, yer uchastkasi ajratishga, binolar va inshootlar qurilishiga xarajatlar, shuningdek, aylanma kapitalning, jalb etiladigan kreditlar bo'yicha moliyaviy chiqimlar va boshqalarning EMV va milliy valyutadagi qiymati.

12. Xarajatlar bo'yicha moliyaviy resurslarga ehtiyojning hisob-kitoblar variantlari asosida, shu jumladan jalb qilinayotgan mablag'lar va ularning loyihani samarali amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradigan jalb qilish shartlarini aniqlash.

13. Loyiha tavakkalchiliklarining tahlili.

14. Naqd pul oqimlari diskontini hisobga olgan holda, barcha investitsiyalar bazasida hisoblab chiqilgan loyihaning EMVdagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligining, o'zini o'zi qoplashi muddatining, nazarda tutilgan kreditlarni qaytarishning hisob-kitoblari.

### Dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH)ning namunaviy tarkibi

1. Loyihaning maqsadi.

2. Obyektning tavsifi – ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ishchi kuchlari mavjudligi, ijara qiymati, ishlab chiqarish binolari va yordamchi binolarni sotib olish yoki ularni yangidan qurish imkoniyati va boshqalar.

3. Shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda, korxonalar (inshoot)ni joylashtirish tumani va punktini tanlashning asoslanishi.


4. Arxitektura-qurilish va hajmiy-rejalashtirishning prinsipial yechimlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.

5. Qurilish va ishlatishda zararli tashlanmalar va oqova suvlarning tavsifi va hajmi, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish tadbirlari.

6. Obyektning muhandislik jihatidan ta'minlash va jihozlash (suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, isitish, shamollatish va havo haroratini maqbullashtirish) bo'yicha prinsipial yechimlar.

7. Texnologiyaning tavsifi va texnologiya asbob-uskunalarining variantlarining asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, energetika va moddiy resurslar iste'moli va boshqalar).

8. Loyiha tashabbuskorining texnik va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan



Manba: <https://encrypted-tbn3.gstatic.com/i>

loyihani amalga oshirishning dastlabki sxemasi, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan resurslarning mavjudligi va qiymati (shu jumladan EMVda).

9. Tanlangan variant asosida qurilishning cheklangan qiymati, shu jumladan injiniring kuzatuviga, DTIHni va loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish, texnologiya asbob-uskunalari, yer uchastkasi ajratish, binolar va inshootlar qurilishiga xarajatlar, shuningdek, aylanma kapitalning, mo'ljallanadigan jalb etiladigan kreditlar bo'yicha moliyaviy chiqimlar va boshqalarning EMV va milliy valyutadagi qiymati.

10. Xarajatlar bo'yicha moliyaviy resurslarga ehtiyojning hisob-kitoblar variantlari asosida, shu jumladan, jalb qilinayotgan mablag'lar va ularning loyihani samarali amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradigan jalb qilish shartlarini aniqlash.

## **5.2. Investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi**

Investitsiya loyahasini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish, birinchi navbatda, uning ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi va uzoq muddat mobaynida amalga oshirilishi bilan, ya'ni g'oyadan boshlab uning moddiylikka aylanishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish turli tarmoqlarda turlicha olib boriladi. Investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida ustuvor yo'nalishga ega bo'lgan loyihalar qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy sohalarda (fan, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif va hokazo.) ishlab chiqilishi lozim.

Investitsiya loyahasining DTIA (DTIH) zarurat bo'lganda, asosiy texnik va texnologik yechimlarni ishlab chiqishga loyihalash tashkilotlari va injiniring kompaniyalarini jalb etgan holda ishlab chiqiladi.

**Investitsiya loyahasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan – DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning – Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor konyunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:


**Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) bo'yicha** – iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek, xomashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori konyunkturasini ta'minlash nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;



**Dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH) bo'yicha** – ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va “boshqa tarmoqlar”ni rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) hamda “Davarxitektqurilish” qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing konsessiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori konyunkturasi, shuningdek, tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalar narxlarining cheklangan parametrlari nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan, yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal spetsifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalarining narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA (TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonda baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uchta besh yillik



davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar;

Sanoatning bazaviy tarmoqlarida (elektr energetikasi, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va og'ir sanoatda) investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA (TIH) faqat “O'zog'irneftgazkimyoloyiha” instituti Ilmiy-texnik kengashining ijobiy xulosasidan keyin ushbu bandeda ko'rsatilgan vakolatli organlarga ekspertiza qilish uchun kiritiladi;

Manba: <https://www.accenture.com/au-en/insight-transforming-australian-defence-innovation-infographic>

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va “Davarxitektqurilish” qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha – loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek, loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha – loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini

tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan – DTIA (DTIH) va “Davarxitektqurilish” qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Moliyalashtirishni budjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan obyektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga DTIA (DTIH)ni tegishli tushuntirish xatini, ko'rib chiqiladigan materiallarni, shuningdek, ushbu nizomning 12-bandida ko'rsatilgan vakolatli ekspertiza organlarining xulosalarini ilova qilgan holda ikki nusxada kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamenti uch kun muddatda loyihaning DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjatni tayyorlaydi va ikki kun muddatda Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari kompleksi rahbari bilan kelishish uchun yig'ma axborot-tahlil departamentiga taqdim etadi.

**DTIAning asosiy maqsadi quyidaga holatlar bajarilish mumkinligini aniqlashga asoslanadi:**

- loyihaning barcha mumkin bo'lgan muqobillari ko'rib chiqilgan;
- loyiha konsessiyasi TIA yordamida puxta tahlil o'tkazishni oqlaydi;
- loyihaning barcha jihatlari uning amalga oshishligi, funksional tadqiqotlar yo'li bilan chuqur o'rganishning zarurligini tan olish yoki bozorni tahlil etishni, laboratoriya yoki ishlab chiqarish tajriba sinovlari kabi tadqiqotlarni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi;

- loyiha g'oyasi loyihaning mavjud ma'lumotlar asosida hayotiyligini alohida investor yoki investorlar guruhi uchun jozibador ekanligini aniqlashi kerak bo'ladi;

- rejalashtirilayotgan qurilish maydonidagi ekologik muhit va ko'zda tutilayotgan ishlab chiqarish jarayonga kuchli ta'sir ko'rsatish milliy andozalarga mos keladi. DTIAni loyiha imkoniyatlarini tadqiq etish va puxta TIA o'rtasidagi oraliq bosqich sifatida ko'rib chiqish lozim. Ularning farqi esa olinadigan ma'lumotni detallashtirish darajasi va loyiha variantlarini chuqur ko'rib chiqishga asoslanadi. DTIAning tuzilishi murakkab tarzda TIAning tuzilishi kabi bo'lishi lozim. Mumkin bo'lgan muqobillarni, puxta tahlil etish DTIA bosqichida alohida o'rin egallashi lozim.

**Xususan, tahlil tadqiqotning quyidagi sohalarida aniqlanuvchi turli xil muqobillarni qamrab olishi lozim:**

- loyiha strategiyasi yoki loyihaning korporativ strategiyasi va andozasi;
- bozor va marketing konsessiyasi;

- xomashyo, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish materiallari;
- loyihaning joylashish o‘rni, maydoni va atrof-muhit;
- tashkil etish va o‘zgaras (ustama) xarajatlar;
- mehnat resurslari, xususan, boshqaruv xodimlari, ishchilar uchun ish haqi sarflari, shuningdek, professional o‘qitishga talablar va unga doir xarajatlar;
- loyihani amalga oshirish ro‘yxati va budjetini tuzib chiqish va hokazo.

Yuqorida keltirilgan omillar ta’siri moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi nazardan baholangan bo‘lishi lozim. Biroq loyiha iqtisodiy jihatdan shubha tug‘diradigan bo‘lsa, u holda DTIA qat’iy tartibda o‘tkaziladi. Agar investorlar loyiha shartlari va shart-sharoitlari bo‘yicha to‘liq tushuncha va bilimga ega bo‘lsalar, bunday holatda DTIA siz ixchamlashtirilgan izlanishlar olib boriladi. Shuningdek, qisqartirilgan izlanishlar investitsiya va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy moddalarinigina emas, balki ikkinchi darajali moddalarini aniqlash uchun ham ishlatiladi. Asosiy kiritiladigan resurslar loyiha hayotiyiligini aniqlashda hal qiluvchi omilga aylangandagina tadqiqot ta’minoti DTIA va TIA bosqichlarigacha olib boriladi. Agar muayyan aniq mahsulot ishlab chiqarilishini aniqlash uchun zarur bo‘lgan puxta o‘rganishlar ham TIAGA xos bo‘lsa, tadqiqot ta’minoti alohida, biroq DTIA va TIA bajarilish bilan bir paytda olib boriladi. Tadqiqot ta’minoti TIA tugallanishidan keyin ham olib borilishi mumkin.

1-ilova

“ \_\_\_\_\_ ” loyihasi  
loyihaning nomi

Investitsiya loyihasining DTIASi	
	(loyihaning nomi)

**1. Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tdi:**

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildi / rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

## loyihaning nomi

## Loyihasining DTIAdagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Ham masi	Moliyalashtirishning nazarda tutilgan manbalari	
				o'z mablag'lari	jalb qilingan mablag'lar
1.	Loyihasining cheklangan qiymati*	ming AQSh doll., mln. so'm			
2.	Kapital qo'yilmalarning cheklangan summasi, jami				
	Shu jumladan: mashina va asbob-uskunalar EMVda milliy valyutada	ming AQSh dollari ming AQSh dollariga ekvivalent			
	qurilish-montaj ishlari	ming AQSh dollariga ekvivalent			
	investitsiya davridagi moliyaviy xarajatlar	ming AQSh dollariga ekvivalent			
	dastlabki aylanma kapital EMVda	ming AQSh dollari			
	milliy valyutada	ming AQSh dollariga ekvivalent			
	boshqa xarajatlar EMVda milliy valyutada	ming AQSh dollari ming AQSh dollariga ekvivalent			
3.	Mavjud asosiy fondlar qiymati	ming AQSh dollariga ekvivalent			
4.	Korxonaning quvvati, shu jumladan: - ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi - mo'ljallanayotgan eksport hajmi	Tegishli birliklarda			
5.	Ish bilan ta'minlanadiganlarning mo'ljallanayotgan soni	kishi			
6.	Loyihasining hisoblangan o'zini qoplash muddati**	yil			
7.	Investitsiya davrining davomiyligi	oy			



- |     |  |
|-----|--|
| 1.  | Lack of top management commitment to the project           |
| 2.  | Failure to gain user commitment                            |
| 3.  | Misunderstanding the requirements                          |
| 4.  | Lack of adequate user involvement                          |
| 5.  | Failure to manage user expectations                        |
| 6.  | Changing scope/objectives                                  |
| 7.  | Lack of required knowledge/skills in the project personnel |
| 8.  | Lack of frozen requirements                                |
| 9.  | Introduction of new technology                             |
| 10. | Insufficient/inappropriate staffing                        |
| 11. | Conflict between user departments                          |

Figure 7: Risk factors identified by three independent panels of technology project managers listed in order of importance. Adapted from Keil et al. (1998).

Manba: [https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%](https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%2F)



### 5.3. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi, asosiy bo‘limlarining tavsifi

Investitsiya loyihasi – ishlab chiqishning asosiy bosqichi bo‘lib, investitsiya oldi fazasi hisoblanadi. Bu investitsiya loyihasi bo‘yicha dastlabki izlanishlardan to uni amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilinishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Investitsiya oldi fazasi, asosan, investitsiyalarni loyihalashtirishga taalluqlidir.

**Yakuniy qaror sifatida loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiqlash (ishchi hujjatlar) uchun loyihaning investitsiya oldi fazasida bo‘lg‘usi loyihalashtirish obyektining imkoniyatlari o‘rganiladi.** Korxonani (investor, loyiha tashkilotchisi) loyihaga investitsiya qilish to‘g‘risida dastlabki qarorni qabul qiladi va qurilishi kerak bo‘lgan obyektga rahbarini (boshqaruvchi, direktorni) tanlaydi. Loyihani amalga oshirishning turli xil variantlarini o‘rganish, loyihani texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) va uning samaradorligini baholashni korxonani o‘z kuchi bilan yoki maxsus tashkilotlar, masalan, loyihachi, arxitektor, qurilish tashkiloti, maslahatchi firmalarning ko‘magida amalga oshirishi mumkin.

**Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) termini ko‘p hollarda qisman noto‘g‘ri tushuniladi, uning ahamiyati esa uskuna yoki texnologiyalarni yetkazib beruvchilar tomonidan aqlan ishonchsiz ochib beriladi.** Ko‘p hollarda uskunani yetkazib berish yoki texnologiyalarni tanlashga boshlang‘ich mo‘ljallangan loyiha eskizini TIA deb atashadi (garchi, bu narsa loyihaning barcha jihatlarini qamrab ololmaydigan injener-tadqiqot yoki tadqiqotni ta‘minlashgacha hisoblansa ham). Ayrim hollarda ishlab chiqarish yoki sotish hajmini baholash rivojlangan mamlakatlarda kuzatiladigan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar shart-sharoitlariga nisbatan zaif, kuchsiz munosabatlarga ega davlatlarning sharoitlarini hisobga olishga asoslanadi.

Korxonani (firma) dastlabki ish faoliyatini boshlash uchun, albatta, dastlabki xomaki hisob-kitoblar amalga oshirilishi darkor. Buni AQSh xizmat ko‘rsatish “ABC” firmasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin:



Manba: <http://www.softportal.com/software-3025-investitsionnij-analiz.html>

Bunday tadqiqotlar mahalliy shart-sharoitlarga to'g'ri kelmagan yoki ularga yomon bog'langan bo'ladi, ular ishonchsiz yo'ldan borishi mumkin va rivojlanayotgan mamlakatlarda u resurslarning tez-tez noto'g'ri joylashtirilishiga olib kelishi mumkin. TIA mavjud ishlab chiqarish omillariga, mahalliy bozor va ishlab chiqarish shart-sharoitlariga bog'langan bo'lishi lozim. Tahlil natijalari xarajatlar, daromadlar va sof foyda qismini yaqqol ko'rsatib berishi lozim. TIANi ishlab chiqish tadqiqot natijasida aniqlangan kerakli moliyaviy mablag'lar yetarli darajadaliigi ma'lum bo'lgandagina amalga oshirilishi lozim.

TIANi ishlab chiqish tugallangandan so'ng, barcha aniq bo'lgan mahsulotlari va taxmin qilingan risklar, xarajatlar va foyda bilan bog'liq holda turli xil ishtirokchilar investitsiya loyihasini baholashda o'zlarining shaxsiy tahliliy xulosasini beradilar. Yirik investitsiya va moliyaviy tashkilotlar yaratilgan va shakllantirilgan usullar yordamida loyihani baholashni olib boradilar va tegishli xulosalarni tayyorlaydilar. TIA sifati qanchalik yuqori bo'lsa, loyihani baholash ishi shunchalik yengil kechadi. Loyiha g'oyasi tug'ilgan vaqtdan boshlab so'nggi davrgacha ko'p vaqt va mablag'lar sarfi kuzatiladi. So'nggi baholash xulosalari esa ushbu ishlab chiqarishdan oldingi qilingan xarajatlar o'zini oqlashi mumkinligini ko'rsatadi va shu jihatdan yuqori ahamiyatli hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining dastlabki tahlili va samaradorligini baholash natijalari dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) va texnik-iqtisodiy asoslashni (TIA)ni tayyorlashda qo'llaniladi.

**Texnik-iqtisodiy asoslash** – loyihaning samaradorligi va maqsadga

muvofigligini ko'rishga imkon beruvchi boshlang'ich ma'lumotlar, shuningdek, asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiruvchi hisob-analitik hujjatlar to'plami.

Texnik-iqtisodiy asoslashni loyihaning maqsadliliigi yuzasidan olib boriladigan texnik-iqtisodiy tadqiqotlar sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyhasining TIAsini bajarish uchun qarz oluvchi loyihaning amalga oshirilishining yuridik, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan hujjatlar to'plamini tayyorlashi lozim.

**Bu hujjatlar to'plami quyidagilardan iborat:**

1. Qarz oluvchining moliyaviy holati va uning kreditga layoqatliligi.
2. Xorijlik hamkorning ish faolligi, moliyaviy ahvoli, tashabbuskorligi.
3. Qarz oluvchi korxonada qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi yoki ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda, mazkur mahsulotlarning asosiy xaridorlari kimlar hisoblanadi?

4. Ichki bozorda qarz oluvchi korxonaning mahsulot ulushi qanday va u jahon bozorida qanday ulushga ega? Bozorning qanday sektorlarida o'sish yoki o'zgarishlar kutilmoqda?

5. Raqobatchilar tomonidan qanday risklar mavjud va mahsulot sotilishi uchun kim asosiy javobgar hisoblanadi?

6. Qarz oluvchi korxonaning va kafolat beruvchi tashkilotning yuridik maqomi va tashkiliy tuzilishi qanday?

7. Qarz oluvchi korxonada malakali, yuqori tajribali, yetuk mutaxassis va ishchilarga egami, agar ular yo'q bo'lsa, xodimlarni o'qitish kim tomonidan tashkil etilgan?

8. Xorijlik hamkorlar va mutaxassislar tomonidan qanday yordamlar qancha vaqt mobaynida ko'rsatilishi lozim bo'ladi, xorijiy mutaxassislarning soni va malakaviy darajasi, ular tomonidan ko'rsatiladigan yordam xarajatlari qanday?

TIA investorga kelgusi korxonaning moliyaviy barqarorligini va to'lovga layoqatliligini tasdiqlash uchun qo'llaniladi. TIA loyihachi va buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan loyihachilar tomonidan ishlab chiqiladi.

**TIAni ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichida investor (buyurtmachi) maqsadlar to'g'risidagi deklaratsiyani tayyorlaydi. U quyidagi ma'lumotlardan iborat:**

- investor va uning manzilgohi;
- obyektga tavsif (nomlanishi, texnik va texnologik ma'lumotlar, belgilangan faoliyatning asoslanishi);
- obyektning ko'rishda mehnat va boshqa resurslarga bo'lgan ehtiyoj (kadrlar soni va ularni ta'minlash manbalarini, moddiy va xomashyo, suv va energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj);


- asosiy uskunalar ro'yxati va ularning qurilish tavsifi;
- transport ta'minoti;
- ishchilar va ularning oilalarini uy-joy va ijtimoiy-maishiy tomondan ta'minlash;
- atrof-muhitga bo'lgan ta'siri;
- loyihani moliyalashtirish manbalari;
- qurilish muddati;
- tayyor mahsulotdan foydalanish va boshqalardir.

Deklaratsiya tegishli davlat boshqaruv organlariga yuboriladi va ulardan ijobiy xulosani olgandan so'ng, TIA ni ishlab chiqishga kirishiladi.

TIA ning tarkibi va mazmuni buyurtmachi bilan loyihachi tashkilot o'rtasida o'zaro kelishilgan holda qabul qilinadi va shartnomada ham o'z aksini topadi. TIA da katta va murakkab obyektlarning muqobil variantlarini va investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini alohida nazarda tutish kerak hamda soliq amortizatsiyasi va kredit siyosatini hisobga olish, iqtisodiy hisob-kitoblar (qurilish davri, loyiha quvvati va ekspluatatsiya obyektini o'zlashtirish) bajarilishi uchun aniq davrni belgilash lozim.

TIA investitsiya loyihasi to'g'risida yetarli ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim. Chunki shu asosda investitsiyalashning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin yoki aksincha, maqsadga muvofiq bo'lmasa, ushbu masala oldindan bartaraf qilinadi. Investitsiyalash va ishlab chiqarish xarajatlari, moliyaviy va iqtisodiy daromadlarning qat'iy hisobi faqat dastlabki TIA da loyiha andozasi aniq bo'lgan holdagina bajariladi. Loyiha andozasi barcha mumkin bo'lgan jihatlar va ular bilan bog'liq masalalarni hisobga olishi kerak. Sanoat korxonalarining istalgan turi, hajmi va kategoriyasini qamrab oluvchi TIA ning yagona bir yondashuvi yoki universal modeli amaliyotda mavjud emas. Ko'pincha investitsiya loyihalariga keng ko'lamdagi tavsiyalar qo'l keladi.

Mazkur vaziyatni biz yuqorida keltirgan "ABC" firmasining yakuni hisob-kitoblaridan ham ko'rishimiz mumkin va unga ko'ra o'z firmamiz bo'yicha xulosa qilishimiz mumkin:



Manba: <http://www.softportal.com/software-3025-investitsionnij-analiz.html>

TIA mazmuniga ko'ra dastlabki TIA ga o'xshash bo'lsa ham, optimal tavsiflarga tijorat, texnik, tadbirkorlik risklarini qo'shgan holda investitsiya loyihasi takrorlanadigan jarayon yo'li bilan puxta ishlab chiqilishi kerak. Agar loyihaning puxtaligi yoki uning foydaliligini asoslash ishonchli bo'lmasa, ko'rsatkichlar



chuqurroq tahlil qilinishi lozim, kerak bo'lsa, loyiha maqsadga muvofiq bo'lishi uchun o'zgartirilishi ham mumkin.

Shunday qilib, har bir investitsiya loyihasi TIA bosqichida mumkin bo'lgan tijorat, texnik, tadbirkorlik va boshqa risklar nuqtayi nazaridan batafsil ishlab chiqilishi va takomillashtirilishi kerak. Bundan tashqari kelgusida korxonaning zararlarini yo'qotish yoki hech bo'lmaganda qisqartirish (kamaytirish) uchun investitsiya loyihasi chuqur tahlil qilinishi zarur.

**Chet el mamlakatlarining tajribasini, xususan, YuNIDO tajribasini hisobga olgan holda investitsiya loyihalari TIAsining taxminiy tarkibiy tuzilishini keltiramiz:**

- loyihaning asosiy g'oyasi va shart-sharoitlari;
- bozor tahlili va marketing strategiyasi;
- resurslar bilan ta'minlanganlik;
- investitsiya obyektining joylashish joyi, qurilish maydoni va atrof-muhit;
- loyihalashtirish va texnologiya;
- korxonani tashkil qilish va ustama xarajatlar;
- mehnat resurslari;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonni rejalashtirish;
- moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash;
- rezyume, TIAning qisqacha mazmuni.

Ammo hozirgi zamon amaliyotida tijorat banklari (kreditorlar) tadbirkorlardan investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chiqishni biroz o'zgacha tartibda, keng mazmunda va yuqori sifat bilan tayyorlangan bo'lishi lozimligini talab qilmoqdalar.

**Mazkur talablar asosida ishlab chiqiladigan Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi quyidagi murakkab tartib va mazmunda, lekin tushunarli, o'zaro bog'liqlikda (bo'limlardan iborat) bo'lishi lozim:**

1. Loyihaning maqsadi (rezyume).
2. Loyihaning buyurtmachisi.
3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).
4. Marketing bozori va konsessiyasi.
5. Moddiy resurslar.
6. Obyektning joylashgan joyi.
7. Loyihalashtirish va texnologiya.
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar.
9. Mehnat resurslari.
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari.
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash.
12. Xulosalar.
13. "A" ilova.
14. "B" ilova.

**Bo'limlarning qisqacha tavsifi:**

1. Loyihaning maqsadi (rezyume).

## **2. Loyihaning buyurtmachisi:**

2.1. Rekvizitlar, maqomi, tarkibi.

2.2. Bozordagi ahvol, mavjud amaliy aloqalar va amaliy nufuz.

2.3. Mavjud va prognoz qilinayotgan salohiyat.

2.4. Iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar.

## **3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).**

## **4. Marketing bozori va konsessiyasi:**

4.1. Talab va taklif.

4.1.1. Bozor tuzilmasi va tavsifi. Mahsulot tavsifi, uning bozorda raqobatga bardoshlilik.

4.1.2. Tarmoqning mavjud salohiyati, raqobatchi korxonalar, tarmoqni rivojlantirish istiqbollari va muammolarini baholash, hududiy joylashtirish, mahsulot sifati.

4.1.3. Tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi roli, uning ustuvorliklari va maqsadlari.

4.1.4. Mavjud talab, uning o'sishini prognoz qiluvchi asosiy omillar va ko'rsatkichlar.

4.1.5. Import va uning kelgusidagi tendensiyalari, hajmi va narxlari.

4.2. Marketing konsessiyasi, sotish prognozi.

4.2.1. Bozorlarning joylashgan joyi, bozor segmentatsiyasi.

4.2.2. Mavjud potensial mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kutilayotgan raqobat.

4.2.3. Sotish dasturi, sotishni tashkil etish.

4.3. Foydalaniladigan savdo markalari va mahsulotning patent tozaligi.

4.4. Marketing xarajatlarini baholash.

## **5. Moddiy resurslar:**

5.1. Xomashyo, materiallar, komponentlar tasnifi.

5.1.1. Xomashyo bazasining mavjudligi, xomashyoning qidirib topilgan zaxiralari.

5.1.2. Xomashyo sifatiga va uni tayyorlash usullariga qo'yiladigan talablar, mahalliy xomashyoning texnologiyalar talablariga muvofiqligi.

5.2. Loyiha bo'yicha ehtiyoj, materiallar va komponentlarning mavjudligi va ular bilan ta'minlash, ularning tasnifi, yetkazib berish dasturi.

5.3. Energiya resurslari bilan ta'minlash.

5.4. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.

## **6. Obyektning joylashgan joyi:**

6.1. Tanlangan uchastkaning tavsifi.

6.1.1. Xomashyo va tayyor mahsulotni sotish bozorlari, transport kommunikatsiyalaridan uzoq masofada joylashish.

6.1.2. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani baholash.

6.1.3. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish, afzallik va cheklashlar.

6.1.4. Ekologiya, atrof-muhitga ta'sir (umumiy axborot).

6.2. Asosiy pozitsiyalar bo'yicha uchastkani tanlashni asoslash.

6.3. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.

**7. Loyihalashtirish va texnologiya:**

7.1. Yillar bo'yicha o'zlashtirgan holda ishlab chiqarish quvvati.

7.2. Texnologiya va asbob-uskunalar.

7.2.1. Texnologiya va asbob-uskunalarini, texnologik jarayon sxemalarini tanlashni asoslash, afzalliklar va kamchiliklar, asbob-uskunalarining ishonchliligi va yetkazib beruvchining kafolati.

7.2.2. Texnologiyaning atrof-muhitga ta'siri.

7.2.3. Asbob-uskunalarini joylashtirish sxemasi:

- ishlab chiqarish asbob-uskunalarini;

- yordamchi asbob-uskunalar;

- servis asbob-uskunalarini;

- ehtiyot qismlar, anjomlar.

7.2.4. "Nou-xau"ni berish shartlari, xodimlarni o'qitish.

7.2.5. Mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 9000 ISO seriyasi talablariga muvofiqligini ta'minlash tadbirlari hamda ularni amalga oshirish xarajatlari.

7.2.6. Mahalliyashtirish istiqbollari (respublika hududida butlovchi buyumlar va komponentlarni ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatlari).

7.3. Qurilish.

7.3.1. Vaziyatli reja.

7.3.2. Bosh reja sxemasi, binolar va korpuslarning joylashishi.

7.3.3. Prinsipial hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, ularning parametrlari, alohida talablar.

7.3.4. Uchastkani tayyorlash va o'zlashtirish.

7.3.5. Muhandislik kommunikatsiyalari.

7.3.6. Qurilish-montaj ishlarining pul ifodasidagi hajmi.

7.4. Tugallanmagan qurilishni hisobga olgan holda xarajatlarni baholash.

**8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar:**

8.1. Korxonaning tashkiliy tuzilmasi.

8.2. Qo'shimcha xarajatlar (umumzavod, ma'muriy xarajatlar).

8.3. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.

**9. Mehnat resurslari:**

9.1. Mehnat resurslariga ehtiyoj va ularning mavjudligi.

9.2. Kadrlarga qo'yiladigan talablar, ularni o'qitish zaruriyati va o'qitishni tashkil etish.

9.3. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.

**10. Loyihani amalga oshirish sxemalari:**

10.1. Loyihani amalga oshirish bosqichlari.

10.2. Loyihani amalga oshirish jadvali.

10.3. Loyihani amalga oshirish budjeti.

**11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash:**

11.1. To'liq investitsiya xarajatlari.

11.2. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari.

11.3. Sotilgan mahsulotlarga to'liq chiqimlar.

11.4. Iqtisodiy samaradorlikni baholash.

11.5. Qarzga olingan mablag'larning (ulardan foydalanilgan taqdirda) qoplanishini va o'z vaqtida qaytarilishini hisobga olgan holda moliyaviy samaradorlikni baholash, valyutaning qoplanishi.

11.6. Loyihaning asosiy tavakkalchiliklarga sezgirligi.

11.7. Sof joriy qiymat ko'rsatkichlari va kapital qo'yilmalar ichki qaytariluvchanligining iqtisodiy normasi.

11.8. Moliyaviy natijalarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini baholash.


## 12. Xulosa:

12.1. Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari.

12.2. Qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari.

12.3. Noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari.

12.4. Loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash.



Manba: <http://www.eft.com/supply-chain/new-report-explores-next-generation-supply-chain-innovation-global-supply-chain-leaders>

## 13. "A" ilova:

"A" ilovada milliy va xorijiy valyuta xarajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar sxemalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

13.1. Asosiy kapitalga investitsiyalar.

13.2. Ishlab chiqarishdan oldingi xarajatlar.

13.3. Sotilgan mahsulotlarga chiqimlar.

13.4. Sof aylanma kapitalga ehtiyoj.

13.5. Moliyalashtirish manbalari va rejasi.

13.6. Qarzga olingan mablag'lardan foydalanish va ularni qaytarish.

13.7. Soliq solishning amaldagi tizimini va majburiy to'lovlarni hisobga olgan holda mavjud mablag'lar (aniq pullar) oqimi.

13.8. Mavjud mablag'larning diskontlangan oqimi.

13.9. Diskont foyda.

13.10. Foyda va zararlar prognozi.

13.11. Prognoz qilinayotgan balans.

## 14. "B" ilova:

"B" ilovada tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud



**bo'lishi kerak:**

**14.1. Yuridik hujjatlar:**

- korxonaviy ustavi va ta'sis shartnomasi;
- ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi litsenziya, agar faoliyat turi maxsus litsenziyalar talab qilinadigan faoliyatning alohida turlari ro'yxatiga kirsa;

- rahbarlar, asosiy menejerlar, direktorlar kengashi, korxonaviy aniq mulkdorlarining qisqacha biografik ma'lumotlari;

**14.2. Kontrakt hujjatlari:**

- asbob-uskunalar yetkazib berish yoki obyektни foydalanishga tayyor holda topshirish yuzasidan kontrakt;

- qurilish pudrati va qurilishni moddiy ta'minlash shartnomasi;

- xomashyo, butlovchi buyumlar yetkazib berish va tayyor mahsulotlarni xarid qilish shartnomasi (mo'ljallar bayonnomasi);

- loyihani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar.

**14.3. Smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar:**

- qurilishning smeta hujjatlari;

- korxonaviy (qarz oluvchi, investorlar, kafillar, loyiha bo'yicha garantlar)ning oxirgi uch yil uchun soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan to'liq buxgalteriya (har choraklik) hisobotlari;

- boshqa banklardagi hisob raqamlari, qarz mablag'lari va ularni qaytarish shartlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- xorijiy sheriklar (muassislar) to'g'risidagi ma'lumotlar - oxirgi ikki yil uchun xalqaro standartlar bo'yicha (taniqli auditorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlangan) yillik hisobot;

**14.4. Ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar:**

- tanlangan texnologiya va texnologiya asbob-uskunalarini bo'yicha idoradan tashqari ekspertiza ("Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi), mustaqil konsalting tashkilotining xulosalari;

- sotib olinadigan asbob-uskunalarining texnik pasportlari va ularning tanlov asosida tanlanishini tasdiqlovchi hujjatlar;

- kadastr (garovga beriladigan yer hamda bino va inshootlar kadastrini) va mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

- asosiy ishlab chiqarish binolarining texnologiya asbob-uskunalarini joylashtirilgan holdagi sxemasi;

**14.5. Tayyor mahsulotni sotish va xomashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar.**

**15. Texnik-iqtisodiy hisoblashni ishlab chiqishda texnik-iqtisodiy asoslashlar tarkibidan quyidagi bandlar va kichik bandlar chiqarib tashlanishi kerak:**

- 2.2, 2.3, 2.4, 4 (kichik bandlar bilan), 5.1 (kichik bandlar bilan), 5.2, 6.1.1, 6.1.2, 7.1, 7.2 (kichik bandlar bilan), 8 (kichik bandlar bilan), 11.3, 11.5, 11.8, 12.3, 13.2, 13.3, 13.4, 13.9, 13.10, 13.11, 14 ("B" ilova), (O'zR VM 21.05.2008-y. 101-son qarori tahriridagi band).

## Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Hammasi	Shu jumladan:		
				Budjet	kreditlar, shu jumladan xorijiy qarzlari, XMII qarzlari ham shu jumlagacha kiradi	Markazlashtirilmagan mablag'lar (o'z mablag'lari)
1.	Loyihaning umumiy qiymati	ming AQSh dollari				
2.	Kapital qo'yilmalar summasi, hammasi	ming AQSh dollari				
	Shu jumladan: mashinalar va asbob-uskunalar EMVda milliy valyutada	ming AQSh dollari ming AQSh dollari ekvivalenti				
	qurilish-montaj ishlari	ming AQSh dollari ekvivalenti				
	investitsiya davridagi moliyaviy chiqimlar	ming AQSh dollari ekvivalenti				
	dastlabki aylanma kapital EMVda milliy valyutada	ming AQSh dollari ming AQSh dollari ekvivalenti				
	boshqa xarajatlar EMVda milliy valyutada	ming AQSh dollari ming AQSh dollari ekvivalenti				
3.	Mavjud asosiy fondlar qiymati	ming AQSh dollari ekvivalenti				
4.	Korxonaning quvvati, shu jumladan: yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi mo'ljallanayotgan yillik eksport hajmi	Tegishli birliklarda				
5.	Ish bilan ta'minlanayotganlarning mo'ljallanayotgan soni	kishi				
6.	Loyihaning hisoblangan o'zini qoplashi muddati*	yil				
7.	Investitsiya davri muddati	oy				

8.	Yaratilayotgan ishlab chiqarish fondlari qiymati	ming dollar (ekvivalentda)
9.	Kreditni va boshqa qarzga olingan mablag'larni taqdim etish muddati	yil
	shu jumladan valyuta mablag'larini qaytarish muddati	yil

**Izoh.**

\*) TIHni tasdiqlashda to'ldirilmaydi.

**Investitsiya loyihalar hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish tartibi:**

a) markazlashtirilgan manbalar resurslari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari hujjatlarini;
b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari asosida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish nazarda tutilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;
v) mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;
g) ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalar tomonidan markazlashtirilmagan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;
d) moliyalashtirish manbalari va loyiha qiymatidan qat'i nazar, yengil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalari hujjatlarini;
e) moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, strategik foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashni nazarda tutuvchi, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini belgilaydi.

**Texnik iqtisodiy asoslar asosiy bo'limlarining tavsifi:**

Ko'pgina investorlar mazmuni bir yoki ikki betda bayon etilgan loyihaning muhim xususiyatlarini va afzalliklarini bilib olishga imkon beradigan biznes-rejani o'qib chiqishni yoqtiradilar. Lekin biznes-rejaning mazmunini qisqa va lo'nda qilib bayon etish juda qiyin. Bu ishni rejada alohida urg'u beriladigan va qisqacha mazmun bayoniga kiritiladigan asosiy tadbirlar (bir yoki ikkita taklif) ravshan bo'lib qolgan holdagina mohirona uddalash mumkin. Qisqacha bayon etilgan mazmun dastlabki xomaki material bo'lib, bo'lg'usi investorning shunga qarab fikr yuritishini nazarda tutish kerak.

TIAning biron bir qat'iy shakldagi tarkibiy tuzilishi talab etilmaydi, u har xil shaklda hamda tarkibiy tuzilishda bo'lishi mumkin. Ammo unda quyidagi masalalar, albatta, yoritilgan bo'lishi shart. Xususan:

- investitsiya loyihasining maqsadi va asosiy g'oyasi;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning o'ziga xos xususiyati va ular bilan bozor ehtiyojini qondirish;
- ayrim bozor o'zgarishlarida firmaning xulq-atvori strategiyasi;
- ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi;

- ishning moliyaviy loyihasi (shu jumladan moliyalashtirish strategiyasi va investitsiyalash bo'yicha takliflar);

- firmani rivojlantirish istiqbollari.

Taklif etilayotgan loyiha (qanday mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turi)ga qarab investitsiya loyihasining bo'limlari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo uning tarkibiy tuzilishi ozmi-ko'pmi muayyan andozaga tushishi kerak. Xususan, quyidagi bo'limlarsiz biznes-reja oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi:

1. Rezyume (Kirish). Bu investitsiya loyihasining boshlanuvchi va eng qisqa bo'limi bo'lib, u o'zidan keyin keladigan barcha bo'limlarning umumiy xulosasini mujassamlashtiradi. Sarmoyadorlar (ularning aksariyati tadbirkorlardir) biznes rejaning qisqacha mazmunini aks ettiruvchi 1-2 varaqli ushbu bo'limni o'qishni ma'qul ko'radilar. Chunki ular bu orqali loyihaning eng kerakli xususiyatlarini va afzal tomonlarini ko'radilar. Qisqa mazmunli bu bo'limni tayyorlash juda mushkul ishdir va u investitsiya loyihasini tayyorlovchi xodimlardan katta mahorat hamda bilimlarni talab qiladi.

Bu bo'lim investitsiya loyihasining barcha bo'limlari ishlab chiqilgandan so'ng, ulardan olingan xulosalarga tayanib, tayyorlanadi.

Tadbirkor shu narsani yodda tutishi lozimki, mazkur bo'limning mazmuni va yozilish sifatiga qarab sarmoyador (investor) loyiha haqida hukm chiqaradi.

**Xulosada juda qisqa tarzda quyidagilar yoritiladi:**

**1. Loyihaning mazmuni, uning maqsadi va samaradorligi:**

- muayyan bozor sharoitlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirish mumkinligi;

- loyihani kim va qanday amalga oshirishi;

- loyihani moliyalashtirish manbalari;

- loyihani investitsiyalash (mablag' sarf qilish)dan keladigan potensial foydalar: sotuv hajmi, ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, foyda normasi, investitsiya mablag'larini qaytarish va xarajatlarni qoplash muddatlari.

**2. Korxonada haqida ma'lumot. Bu bo'lim doimo biznes rejaning rezyume (xulosa) qismidan so'ng keltiriladi va unda quyidagilar yoritiladi:**

- korxonada (firma)ning tashkil etilgan vaqti;

- ro'yxatdan o'tganligi;

- firma kapitalining strukturasi;

- firmaga xizmat ko'rsatadigan bank;

- firma rahbariyati haqida ma'lumot;

- firmaning tashkiliy-boshqaruv tuzilishi;

- xaridorlarning firma haqidagi fikri, firmaning boshqa xuddi shunday firmalardan afzallik tomonlari, kimlar uning tovaridan yoki xizmatidan foydalanishi, firmaning savdo belgisi, asosiy xaridorlari va hokazo.



**Korxonaning tashkiliy tuzilishi.  
Korxonra rahbariyati va bo'lim boshliqlari**


T.r.	Ismi sharifi	Lavozimi	Ma'lumoti	Ish staji	Maoshi
1	2	3	4	5	6

**Korxonra mutaxassisleri haqida ma'lumot**

T.r	Qanday yangi mutaxassislar kerak	T.r	Qanday mutaxassisliklarni o'zgartirish kerak
1	2	3	4

**3. Tovar, mahsulot (yoki xizmat) turlari.** Bu bo'limda quyidagilarga to'xtalib o'tiladi:

- taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday ehtiyojlarni qondiradi;
- bozorda hozirgi kunda mavjud bo'lgan xuddi shunday mahsulot yoki xizmatdan mazkur mahsulot (yoki xizmat)ning afzalliklari;
- taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday mualliflik huquqlari bilan himoya qilinadi. Taklif etilayotgan mahsulot va xizmatning narxlari qanday bo'lishi mumkin va raqobatga qanchalik bardosh beradi.
- mahsulot va xizmatni sotish natijasida qanchalik foyda normasiga erishish mumkin.



Manba: <http://www.softportal.com/software-3025-investitsionnij-analiz.html>

**4. Sotuv bozori.** Bunda quyidagilar yoritiladi:

- mahsulotlar yoki xizmatlarning xaridorlari kimlar;
- hozirgi paytda hamda kelajakda sotuv hajmi qanday bo'lishi mumkin;
- asosiy raqobatchilar kimlar, ularning sotuv hajmi qancha, marketing strategiyasi va daromadlari qanday;
- raqobatchilar mahsulotining asosiy tavsifnomasi hamda sifat darajasi qanday;
- raqobatchilar mahsulotlari yoki xizmatlarini qaysi narxlarda sotmoqdalar, ularning narx siyosatlarini qanday.

**5. Marketing strategiyasi. Bunda quyidagilarga to'xtalib o'tiladi:**

- ichki va tashqi bozorlarda xuddi shunday mahsulot yoki xizmatni taklif etayotgan korxonalar (firma)lar;
- sotuv narxi va narxni tashkil etish tizimi;
- reklama bo'yicha kerakli chora-tadbirlar, taklif etilayotgan reklama vositalari hamda ularga ketadigan xarajatlarning tuzilishi;
- sotishga ko'maklashadigan chora-tadbirlar, xaridorlar uchun qo'shimcha imtiyozlar, sotuvdan so'ngi xizmat ko'rsatish va hokazo.

**6. Ishlab chiqarish dasturi. Bu bo'limda quyidagilar yoritiladi:**

- mahsulot (yoki xizmat)ning ishlab chiqarishni qayerda tashkil etilishi;
- yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish lozimmi yoki korxonaning ishlab turgan quvvatlaridan (qayta qurollantirib) foydalanish mumkinmi;
- rejalashtirilayotgan korxonada ishlab chiqarishni eng maqbul hajmi qanday bo'lishi kerak;
- optimal quvvatlarga erishish uchun qanday investitsiyalar zarur;
- korxonalar xomashyo, butlovchi mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish resurslari bilan qanday ta'minlanadi;
- qanday texnologiya va vositalardan foydalaniladi;
- korxonalar boshqa korxonalar bilan kooperatsiya usulida ishlaydimi yoki hamma narsani o'zi ishlab chiqaradimi va hokazo.

**7. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Bu bo'limda quyidagilar yoritilishi kerak:**

- rejalashtirilayotgan korxonaning tashkiliy tuzilishi;
- korxonani kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi, zarur mutaxassislar ro'yxati, ularning malakasi, ish tajribasi;
- turli kategoriyada ishlovchilarning ijtimoiy imtiyozlarini qo'shgan holda ish haqi shakllari va darajasi qanday bo'ladi;
- korxonaning texnologik chizmasi.

**8. Korxonaning tashkiliy reja shakli.**

- rejalashtirilayotgan korxonaning mulk shakli hamda huquqiy maqomi (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyati, ijara korxonasi, qo'shma korxonalar va hokazo.);
- korxonada potentsial investor qanday huquqlarga ega bo'ladi (boshqarishda qatnashishi, aksiyalar paketidagi hissasi va hokazo.);
- rejalashtirilayotgan korxonaning xomiylari (sponsorlari) yoki investorlari kimlar (davlat tashkiloti, bank, xususiy korxonalar va boshqalar);
- mavjud homiylar yoki investorlar uchun qanday huquqlar berilgan (boshqarish, moliyaviy nazorat va boshqa masalalar bo'yicha);
- ushbu mulk shaklidagi korxonalar qanday yuridik huquqlarga ega (korxonaning huquqiy statusini tartibga soladigan normalar qisqacha yoritiladi), potentsial investor, unga beriladigan huquqlarga ega bo'lishi uchun qanday yuridik holatlarni amalga oshirish kerak (birgalikda egalik qilish, homiylik, aksioner) va bu joydagi milliy qonunlar bo'yicha qanday huquqiy javobgarlikka ega va hokazo.

Степень иерархии	Конкретные цели управления	Структуры, реализация, продвижение
Осознание Знание	Предоставление информации	Реклама, создание благоприятного общественного мнения, витрины
Благожелательное отношение Предпочтение	Создание положительных откликов и чувств	Реклама в различных средствах информации, использование торгового персонала, демонстрации
Убеждение Покупка	Стимулирование и сохранение намерений	Витрины, общение по почте, демонстрации, использование торгового персонала, устное информирование

<1> Гольдштейн Г.Я. Стратегический менеджмент. Конспект лекций / Таганрог: ТРГУ, 1995. С. 93.

### 9. Moliyaviy reja bo'limida quyidagilar yoritilishi kerak:

- korxonani tashkil qilish uchun qancha miqdorda umumiy investitsiya (sarmoya) kerak;
- moliyalashtirish manbalari qanday (aksiyalar sotish, qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, bank kreditini olish, korxonani tashkil etayotganlarning o'z mablag'i va hokazo);
- uzoq muddatli investitsiyalarga va aylanma kapitalga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun qanday shartlar asosida moliya mablag'lari jalb etiladi.

### 10. Loyihaning rentabelligi (foydaliligi). Bu bo'limda quyidagilar yoritiladi:

- korxonani tashkil etish bo'yicha investitsiya xarajatlarning umumiy hajmi (asosiy va aylanma kapitallar, infratuzilmalar va boshqalar uchun investitsiyalar) hamda ularning mahsulot birligiga to'g'ri kelishi;
- rejalashtirilayotgan korxonani ishlatish, mahsulotini sotish yoki xizmatni tashkil etish qanchaga tushadi;
- mahsulotni sotishdan yoki xizmatdan keladigan umumiy daromadlar hajmi qancha bo'ladi;
- rejalashtirilayotgan korxonona (firma) qanday turdagi soliqlarni to'laydi;
- qarzga olingan mablag'larni qaysi muddatlarda va qanday hajmda qaytariladi;
- rejalashtirilayotgan korxonona (firma)ning umumiy foyda hajmi va normasi.

### 11. Iqtisodiy tahdidlar (risk):

#### Loyihani bajarish davomidagi kutilmagan tabiiy sharoitlar:

- ishlab chiqarish jarayon va i/ch quvvatlarini chegaralanganganligi (kutilmagan holatlarda joriy remont ishlari va ish jarayon davomida i/ch quvvatlarini pasayish holatlari);
- tahdidlarini yuzaga kelish holatlarini to'liq hisobga olishlik darajasi va ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqilganligi.

Investitsiya loyihasining yuqoridagi bo'limlaridan tashqari yana qo'shimcha ravishda quyidagi axborotlarni keltirish mumkin, ya'ni moliyaviy mablag'lar va majburiyatlar, foyda va zararlar hisoboti, moddalar bo'yicha xarajatlar va hokazo.

### 5.4. Texnik-iqtisodiy asoslar marketing kompleksi tahlili

Texnik iqtisodiy asoslashning yana bir muhim belgisi korxonona strategiyasi va marketing tahlilidir. Biznes reja bu bo'limda juda katta e'tibor berilgan holda chuqur

tahlil va o'ta aniq ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Sababi bozor imkoniyati investor bilan tadbirkor orasidagi fikrni aniqlaydi. Ayrim hollarda juda yaxshi mahsulot tijorat muvaffaqiyatiga ega bo'lmaydi. Chunki investor uni kerakli deb hisoblamaydi. Ya'ni bozor imkoniyatlarini to'la tahlil eta olmaydi yoki bir so'z bilan aytganda mahsulotni to'la baholay olmaydi.

Bu bo'limning bosh vazifasi bozor imkoniyatlaridan kelib chiqib, korxonaga ko'zlangan maqsadga erishganligini ko'rsata bilishdir. Mahsulotning bozorda muvaffaqiyatli sotilishi, mahsulotni ishlab chiqarishdagi berilgan e'tiborga ham bog'liqdir.

**Texnik iqtisodiy asoslashda marketing strategiyasini shakllantirish maqsadida quyidagi savollar yoritilishi shartdir:**

- tanlangan bozor haqida ma'lumotlar;
- tanlangan bozor sigmentlari;
- tanlangan bozor hajmi va o'sish sur'atlari;
- tanlangan bozorning rivojlanish tendensiyasi;
- raqiblar: nomi, mahsulotining hajmi, bozordagi hissasi, afzalligi va kamchiliklari.

**Bular korxonaning qay darajada raqobatbardoshligini bildiradi:**

- xaridorlar, ularning mahsulot to'g'risidagi fikrlari, sotib olishning asosiy sabablari;
- xaridorlar, bozor segmenti bo'yicha mahsulot realizatsiyasi hajmi va foyda tahlili;
- korxonaning hozirgi kundagi va kelgusida ko'zlangan bozordagi hissasi;
- kafolat va sotishdan keyingi xizmatlar sohasidagi siyosati;
- baho va kredit siyosati;
- reklama strategiyasi va uni bozorda harakat qilish usuli;
- mahsulot (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun marketing sarflari;
- joylarni tanlash tahlili;
- marketing tadqiqotlari o'tkazishning aniq usullari;
- bahoni shakllanishi, bozor tahlilidan kelib chiqib uni belgilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmat xarajatlarini asoslash;
- tovarlarning tashqi ko'rinishi, mahsulotlar sifatiga tavsifnoma;
- mahsulotni taqsimlash usuli va yo'llari;
- sotish strategiyasi;
- imkoniyatli xaridorlar soni va ularning qayerda joylashganligi;
- qay tartibda tanlangan reklamani bozorga moslashtirilganligi.


Yuqoridagi ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi foydadan xoli emas. Marketing rejasi biznes rejaning muhim qismidir. Unda mahsulotlarni qay tartibda taqsimlanishi, bahoni o'rganish, bozorlarda mahsulot harakati haqida ma'lumotlar doimo berib turiladi. Bundan tashqari ayrim mahsulot turlari bo'yicha foyda haqida oldindan ma'lumotlar berilishi mumkin. Potensial investorlar marketing rejasini korxonaga ish faoliyati muvaffaqiyatining kritik shartlari deb qaraydilar.

Marketingni rejalashtirishni har yili o'tkazish kerak. Imkoniyatli bozorlar, ularda mahsulotlarni sotish hajmi, ularni o'zgarish tendensiyalari, bundan tashqari



bozorni ayrim segmentlari haqida ma'lumotlarni shu bo'lim materiallaridan olishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda haqiqiy sotish hajmi, bozor holati haqidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Undan mahsulotlarning bozordagi hissasini, xaridorlarni mahsulotni sotib olish qobiliyati tahlilini, baho siyosatini tanlash va zaruriy servis darajasini baholashda foydalaniladi. Olingan ma'lumotlardan korxonada biznes rejasida marketing qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Biznes reja ishlab chiqishda ekspertlar xulosalaridan ham foydalanish mumkin. Bo'ysunuvchi eksportlar orqali har xil bozorlar imkoniyatlarini va bozor imkoniyatlarini tahlil etishimiz mumkin. Bu tekshirish natijalari ishonchli bo'lib, korxonada uchun juda foydalidir. Shu jumladan, potensial investorlarga ochilayotgan yangi imkoniyatlarni baholash maqsadida yana bir kerakli tomoni, bu bo'limda keltirilgan ma'lumotlarni oldingi bo'limdagi ma'lumotlarga to'la mos kelishidir. Marketing strategiyasini tanlashda tarmoqdagi mavjud holatga e'tibor berishimiz kerak. Ya'ni marketing reja strategiyaning ajralmas qismi bo'lishi shart.

**Sotuv bozorini baholash.** Marketing reja korxonada (firma) faoliyatini ichki tashkil qilish uchun zarur, shuningdek, hamkorlar va investorlar bilan muloqotda u asos bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun har bir tadbirkor, korxonada rahbari korxonada (firma) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni tarqatish yo'llari, narxlarni belgilash usullari, qo'yilgan kapitalga rentabellik darajasi kabi masalalarni to'g'risida tushunchaga va tasavvurga ega bo'lishi lozim.



Turli marketing qurollarini samarali ravishda uyg'unlashtirish tovarning hayot davrinining xususiyatlariga, ya'ni quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- ishlab chiqarish;
- bozorga kirish;
- to'ldirish;

- tushish.

**Marketing tadqiqotlari bozorni baholashdan boshlanadi.** Sotuv hajmini muntazam ravishda oshirishni ta'minlashga erishish uchun bozorni, ya'ni tovaringizni sotib oladigan insonlarni chuqur o'rganish lozim. Iste'molchilarni doimiy ravishda kuzatib, nazorat qilib borish kerak. Shundagina siz bozorda qolish yoki qolmaslik masalasini hal eta olasiz. Lekin bu holatda juda ehtiyot bo'lib harakat qilish lozim, chunki bozorda paydo bo'lish va undan chiqish muhim strategik qaror hisoblanadi va chuqur mulohazani talab qiladi.

Siz uchun muhimi tovaringizni sizga foyda keltiruvchi bahoda, zaruriy hajmda va uzoq muddat davomida sotib oladigan xaridorga ega bo'lishidir.

"Maqsadli bozorni izlash", tovar va xizmatlardan kim manfaatdor mavzusida mantiqiy fikrlar yo'li bilan amalga oshiriladi. Izlashni o'zingizning mavjud xaridorlaringizdan boshlaganingiz ma'qul.

**Bunda quyidagi savollarga javob topish lozim:**

1. Bozoringizni qanday bo'lishini xohlaysiz?

2. Ulardan qaysi birida korxonangiz (firmangiz) faoliyat ko'rsatgan?
3. Qanday tovarlar yuqori talabga ega?
4. Sizing hozirgi kundagi xaridorlaringiz kimlar?

Ayniqsa, to'rtinchi savolga alohida e'tibor berish lozim. Chunki tovarlarni firma yoki tashkilotlar emas, balki insonlar sotib olishadi. Sotib olish haqidagi qarorni ham insonlar qabul qiladi.

Demografik tadqiqotlar natijalari bozorda o'z o'mini qanday topish va savdoni yaxshiroq tashkil etish imkoniyatini beradi.

Agar siz o'z korxonangiz(firmangiz) mahsulotini ko'pchilik qismini firmalar orqali sotsangiz, izlash chegarasi yanada kengayadi. Shuning uchun siz eng avval mahsulotingizni qaysi firmaga sotish ma'qul bo'lishini aniqlang. So'ngra ushbu firma personalni ichida muloqotga erishsa bo'ladigan kishilarni aniqlab, ular haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish lozim.

**Bozorni qanday xarakterlash mumkin?**

**4-jadval**

**Quyida bozorni aniqlashtirish chegarasi berilgan:**

N <sup>o</sup>	Jismoniy shaxslar uchun	N <sup>o</sup>	Yuridik shaxslar uchun
1.	Yoshi	1.	Faoliyat doirasi
2.	Jinsi	2.	Joylashgan o'mi
3.	Millati yoki etnik guruhi	3.	Tarkibi
4.	Sevimli mashg'uloti	4.	Sotuv hajmi
5.	Ma'lumoti	5.	Taqsimlash kanallari
6.	Yashash (hayot) tarzi	6.	Yollangan xodimlar soni
7.	Ijtimoiy kelib chiqishi		
8.	Daromadi		

Bozorda o'z ulushingizni belgilagandan so'ng bozor sig'imini aniqlashingiz lozim. Chunki, agar mijozlaringiz oz bo'lsa, bu, albatta, halokatga olib keladi.

So'ngra, raqobatchilarning moliyaviy holatini, ularning resurslari, tannarx, foydalilik darajasi va bu ko'rsatkichlarning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinishi lozim. Ularning ichidagi yetakchilarini aniqlash lozim.

Jadvallarni tahlil qilishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim: agar sizning ustunligingiz 30 %ni tashkil etsa, tovaringizning raqobatbardoshligi pastdir; agar 30-50 % chegarasida bo'lsa, u holda bozorda nisbatan mustahkam o'ringa ega bo'lasiz, 50-70 % chegarasida bo'lsa raqobatchilaringizdan ustun bo'lasiz, 70 % va undan ortiq bo'lsa, ushbu mahsulot bozorida siz yetakchi bo'lasiz.

**5-jadval**

**Raqobat kurashida o'z ustunlikka ega ekanligini ko'rish maqsadida quyidagi jadvaldan foydalanamiz:**

Solishtirish mezonlari	"A" bozor		"B" bozor		"V" bozor	
	siz	raqobatchingiz	siz	raqobatchingiz	siz	raqobatchingiz
Reklama						
Joylashtirish						
Mahsulotlar						
Xizmatlar						
Baholar						
Imij						

**Raqobat va raqobatda ustunlik.** Bu bo'limda raqobatchilarga baho beriladi. Buning uchun ularning ichidan siz ishlab chiqarayotgan mahsulotga o'xshash mahsulot chiqaruvchi eng yirik korxonaga ajratib olinadi va ularning faoliyat natijalari, ya'ni quyidagilar o'rganiladi: sotuv hajmi, daromadlari, yangi modellar, jihozlarni joriy etish, reklama bo'yicha olib borilayotgan ishlari, mahsulotlarning asosiy tavsifnomasi, sifat darajasi, xaridorlar fikri, baho darajasi, baho siyosati haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Ushbu bo'limni ishlab chiqishda raqobatchilar faoliyati to'g'risida yolg'on axborot berishdan ehtiyot bo'lish lozim. Chunki bunday sharoit siz haqingizda yomon fikr paydo bo'lishiga olib keladi.

6-jadval

**Raqobatchilarni tahlil qilish qulay bo'lishi uchun quyidagi jadvalni tavsiya qilamiz.**

Firma nomi	Joylashgan o'rni	Bozor ulushi	Sotish hajmini baholash	Sizning bozorga kirishingiz oqibatida ko'riladigan yo'qotishlarni baholash

So'ngra raqobatdagi mahsulot va xizmatlarni bozor ulushi sifatida, qiymati, ishonchlilik belgilari, ta'minot muddatlari, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish va boshqa xususiyatlar nuqtai nazaridan solishtirish lozim.

7-jadval

**Buning uchun quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin:**

№	Ko'rsatkichlar	Raqobatchilar	Raqobatchilardan farqli tomonlaringiz
1.	Miqdori		
2.	Xizmat ko'rsatish		
3.	Nisbatan past narxlar		
4.	Mahsulot turi		
5.	Ta'minotning vaqtida bo'lishi		
6.	Sotuvchilarga qulayligi		
7.	Mahsulotning ishonchliligi		
8.	Mahsulotga erishish imkoniyatlari		
9.	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish		
10.	Mahsulotdan foydalanishda yordam ko'rsatish		
11.	Mahsulotning to'laligi		
12.	Muloyim munosabat		

**Raqobatbardoshlikni baholash.** Hozirgi kunda raqobatbardoshlikni baholashni alohida bo'lim sifatida ko'rish biznesni muvaffaqiyatli amalga oshirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki har qanday investorlar, ishbilarmon sheriklar ishlab chiqarayotgan mahsulot (ko'rsatilayotgan xizmat)larga mavjud bozordagi raqobat holatini bilishga qiziqadi. Shunday ekan ushbu savolga ham biznes rejada yetarli javob berib ketishimiz shart.

Barcha turdagi biznes rejalarda raqobatbardoshlik yuzasidan quyidagi savollar to'liq yoritilishi lozim:

1. Sizning biznesingiz hisoblangan mahsulotlarning asosiy qismini qaysi ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladi?

2. Siz harakat qilayotgan bozorda raqobat darajasi qanday?

- sotish hajmi bo'yicha;
- daromad bo'yicha;
- texnologiya darajasi bo'yicha;
- tovarlarni yangilashi bo'yicha;
- servis xizmati bo'yicha;
- mahsulot reklamasi bo'yicha.

3. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligi sirlari nimada?

- asosiy tavsifnoma (xarakteristika)da;
- sifat darajasi;
- dizayn;
- iste'molchi ehtiyojiga mos kelishi.

Biznesmen (tadbirkor)larga raqobatbardoshlikni baholash o'z biznesi (tadbirkorlik faoliyatini) kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash imkonini beradi. Ushbu tahlil kelajakda sizning strategiyangiz va biznesingizning muvaffaqiyatli amalga oshirishni kafolati ham hisoblanadi.

**Raqobatbardoshlikni iqtisodiy mazmuni quyidagi holatlarda aniqlanadi:**

- mavjud manbalar hajmi va sifati (ishchilar soni, asosiy ishlab chiqarish fondlari, material zaxiralari, moliyaviy va nomaterial manbalar), patent, litsenziya (ruxsatnoma), axborot, texnologiya va hokazo.

- rahbarning korxonani imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati;

- innovatsiya qobiliyatlari ya'ni firmaning ishlab chiqarishini yangilash qobiliyati, texnologiya va mahsulot tarkibini almashtirish va hokazo.;

- axborot (informatsiya) qobiliyatlari, ya'ni ishlab chiqarish maqsadlarida axborotlarni to'plash va qayta ishlash qobiliyatlari;

- moliyaviy qobiliyatlar, ya'ni moliyaviy turg'unlik, kredit berish imkoniyati mavjudligi va hokazo.


Yuqoridagilarning yig'indisi – korxonani boshqa bir korxonaga bilan taqqoslaganda uning raqobatbardoshligini tavsiflaydi.

Korxonaning raqobatbardoshligi imkoniyatlariga qiyosiy tavsifnoma deyilganda, boshqa korxonalar, davlat andozalariga nisbatan o'zining asosiy o'lchamlari (ko'rsatkichlari)ga baho berish tushuniladi. Shu jumladan, milliy va jahon andozalari raqobatbardoshlikni baholashning bir qator usullari bo'lib, ulardan asosiysi ko'p qirrali usuldir.

Bu usulning imkoniyati raqobatbardoshlikni baholashda korxonaga o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini raqibga nisbatan taqqoslaydi.

Bu yerda savol tug'iladi, qaysi imkoniyatlarni tan olish va ulardan hozirda foydalanish kerak? Ushbu yondashuvning asosi ko'p qirrali hisoblanib, korxonalarining imkoniyatlar darajasi asosiy sakkizta qirra (yo'nalish) bo'yicha baholanadi.





**2-rasm. Raqobatbardoshlik qirralari**

Yondashuvning asosiysi – ko‘p burchakli raqobatbardoshlik hisoblanadi, korxonaning imkoniyatlar darajasi sakkizta yo‘nalish bo‘yicha baholanadi:

- ko‘rsatilgan xizmat va tovarlar konsessiyasi;
- sifat, bozorda mahsulotning yuqori darajada ekanligini baholovchi;
- mahsulot va xizmat bahosi;
- moliya va tez jalb etuvchi moliyaviy mablag‘lar;
- tijorat usullari va savdo vositalari;
- sotish va sotishdan keyingi xizmatlar;
- ijtimoiy aloqalar;
- investitsiya va ishchi kuchi sohasidagi siyosat;
- ichki bozor tuzilishi;
- valyuta kursi;
- bank foizi darajasi;
- savdo uyushmalari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar.

Raqobatbardoshlikni baholashda barcha raqiblar haqidagi ma‘lumotlar to‘planadi. To‘plangan ma‘lumotlarni biznes rejalarda quyidagi jadval ko‘rinishida ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**8-jadval**

**Quyida keltirilgan jadvalda raqiblar haqidagi ma‘lumotlar beriladi:**

<b>№</b>	<b>Firma nomi</b>	<b>Manzilgohi</b>	<b>Bozordagi hissasi</b>	<b>Real baholash</b>	<b>Sizning bozorga chiqishingiz hisobiga sotish hajmini yo‘qotish</b>
1					
2					
3					

Navbatdagi qadam korxonaning raqib korxonalarga nisbatan kuchli va kuchsiz tomonlarni baholash hisoblanadi. Baholash besh balli tizimda o‘tkazilib, unda raqibning kuchli tomonlari 5 ball bilan, kuchsiz tomonlar 1 ball bilan baholanadi. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

## Raqobatbardoshlikni baholash mezonlari:

	Korxonalar	Raqiblar:		
		A	V	S
Ishlab chiqarish				
Joylashgan o'rni				
Korxonalar hajmi				
Qurilmalar yoshi va hajmi				
Unumdorligi				
Ishchi kuchi sifati				
Materiallar bilan ta'minlash				
Mahalliy				
Import (chetdan keltirilgan)				
Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish				
Marketing				
Taqsimlash yo'llari				
Tashkil etish sifati				
Bozor tadqiqoti				
Chetga sotish imkoniyati				
Mahsulot turlari				
Raqobatbardosh baho				
Mahsulotning yangiligi				
Reklama				
Inson omili				
Xodimlar kvalifikatsiyasi				
Raqobatlantirish tizimi				
Boshqaruvchilar malakasi				
Moliya				
Qat'iylik				
Foydalilik				
Qo'llab-quvvatlash manbai				
Kreditga ruxsat				
Istiqboli				
<b>Jami</b>				

Yuqoridagi jadval asosida korxonalar natijalari raqib korxonalar natijalari bilan taqqoslanib, so'ng raqobatbardoshlik yuzasidan xulosa chiqariladi. Bundan tashqari alohida ko'rsatkichlar bo'yicha raqiblarimizni kuchli va kuchsiz tomonlarini bilib olishimiz mumkin.

Raqobatchilarimizni mahsulotlarini raqobatbardoshlik qobiliyatini quyidagi jadval bo'yicha baholashimiz mumkin.

**Raqobatbardosh korxonalar mahsulotlarini baholash omillari**

Baholovchi omillar	Raqiblar			Sizning afzalligingiz
	A	V	S	
Sifat				
Xizmat xususiyati				
Baho darajasi				
Mahsulot samaradorligi				
Assortiment				
Mahsulot ishonchliligi				
Savdo ta'minot ishlari				
Mahsulot qulayligi				
Iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlar				

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida o'zingizning mahsulotlaringizni raqib mahsulotlariga nisbatan afzallik tomonlarini bilib olasiz, shu jumladan, kamchiliklarni ham. Kuchsiz tomonlar aniqlangandan so'ng raqobatbardoshlikni o'rttirish maqsadida korxonalar tomonidan aniq tadbirlar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan tadbirlar quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

**Raqobatbardoshlikni o'rttirish tadbirlari**

Tadbirlar	Muddat	Manba	Samara (natija)
1. ....			
2. ....			
3. ....			
4. ....			
5. ....			

**Raqobatbardoshlikni o'rttirish manbalari:**

Ko'p qirrali raqobatbardoshlikning xususiyatlari shundan iboratki, u raqibning real(aniq) imkoniyatlariga ko'proq to'g'ri baho beradi. Ammo korxonaning imkoniyatli tomonlari borki, bozorda raqobat qilishning asosiy tomonlarini belgilaydi. Mana shu imkoniyatli tomonlar "raqobatbardoshlikning oshirish manbalari"ni anglatadi. "Raqobatbardoshlikni oshirish manbalari"ni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin:

**I. Korxonalar doirasidagi manbalar:**

- ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik ishlari;
- muomala xarajatlarining tuzilishi;
- samaradorlik;
- sotish xarakteri;
- realizatsiya siyosati;
- tashqi aloqalar.

**II. Korxonalar yuzaga kelish darajasidagi imkoniyatlar:**

- iqtisodiy va madaniy siyosat;
- texnologik imkoniyat.

## Xulosa

Investitsiya loyihasi tushunchasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjatlar majmui bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi sifatida anglanadi.

Investitsiya loyihasining amalga oshirilish hajmi, miqdori va dinamikasiga qarab mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi hamda holatini baholash mumkin va o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning bajarilish holati belgilangan maqsadlarni ta'minlanishiga qanchalik mos kelayotganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Yangi loyiha yuzasidan biznes reja ishlab chiqishdan avval birinchi navbatda ularni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash, ya'ni qo'yilgan maqsad bo'yicha loyihaning muvofiqligini aniqlash lozimdir. Agar loyiha maqsadga muvofiq bo'lsa, uni yana qo'shimcha ravishda o'rganish va to'laqonli darajada loyihani asoslash kerak. Uning keyingi bosqichida ko'zlangan maqsadni hal etish yo'lida strategik reja ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Bu rejaga barcha bo'g'in va bo'limlarning strategiyasi kiritilishi shart. Bu yerda eng kerakligi bo'limdir.

Bo'g'in rejalarini koordinatsiya qilinishi, muddatlari bilan bir-biriga bog'langanligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

1. Loyihada texnik-iqtisodiy asoslash – uning samaradorligi va afzalligini ta'minlash uchun olib borilgan izlanishlar natijasida olingan tahliliy ma'lumotlarni, baholash va hisob-smeta ko'rsatkichlarini, texnik va tashkiliy qarorlarni o'zida mujassam etuvchi hisob-analitik hujjatlar to'plami hisoblanadi. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning maqsadi investitsiya loyihasining samaradorligini, hayotiylikini va yuqori daromad bilan ta'minlanganligini aniqlashdan iborat.

2. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning unga qo'yilgan talablar asosida yuqori sifat bilan amalga oshirilishi loyihaning samaradorligini ta'minlash bilan birga uni amalga oshiruvchilar manfaatlarining to'g'ri hisobga olinishini ta'minlaydi. Lekin ayrim hollarda qarz oluvchilarning loyihani texnik-iqtisodiy asoslashdagi bilim va tajribalarining yetarli emasligi va tatbiq etish uchun lozim bo'lgan ma'lumotlarning to'liq topish imkoniyating yo'qligi, loyihani ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlarning bajargan ishlari uchun katta haq to'lashga imkoni bo'lmaganligidan qarz oluvchining loyihani mustaqil ishlab chiqishi va shu kabilar sababli texnik-iqtisodiy asoslash bo'yicha hisob-kitoblar bir tomonlama ishlab chiqilishi, bu esa uni amalga oshirish imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin.

### Nazorat uchun savollar

1. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning mazmuni va maqsadini tushuntirib bering.

2. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash o'zida qanday ma'lumotlarni mujassamlashtiradi?

3. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash tarkibi necha bo'limdan iborat va bu bo'limlarda nimalar aks ettirilgan bo'lishi lozim?

4. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning biznes-rejadan qanday farqlari mavjud?

5. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash puxta ishlab chiqilganligini qanday aniqlash mumkin?



6. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash uchun qanday ishlar va ular bilan bog‘liq xarajatlar amalga oshiriladi?

13. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?

14. Investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?

15. Investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni sanab bering.

16. O‘zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish zaruriyati va ahamiyati nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. – T.: 1998-y. 24-dekabr (yangi tahriri).

2. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).

3. “Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

8. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

9. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T: Shaq, 2011. 124-b.

10. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К?», -451 с. 2006.

11. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М., 2006. -1028 с.



## 6-bob. KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

6.1. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihalarni moliyalashtirish manbalarining mohiyati va turkumlanishi.

6.2. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni safarbar etish tartibi.

6.3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, bosqichlari va turlari.

6.4. Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) qarz mablag'lari, O'z.R Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ishtirokida hamda kichik biznes (tadbirkorlik)ni rivojlantirish uchun loyihalarni tanlab olish va xorijiy kreditlarni berish tartibi.

*Tayanch iboralar: Real investitsiyalar, o'z-o'zini moliyalash koeffitsiyenti, kreditlar, moliyaviy bozorlar, kreditlash obyekti, moliyaviy institutlar, kredit bo'yicha foiz stavkasi, vakolatli bank, garov ta'minoti, kredit olishga buyurtmalarni ko'rib chiqish, tender savdolari.*

---

### 6.1. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihalarni moliyalashtirish manbalarining mohiyati va turkumlanishi

Xorijiy investorlarning mablag'larini mulkka egalik qilish munosabatlariga qarab guruhlash lozim. Agar chet el investorlari o'z resurslarini qo'yishlari bilan korxonalariga butunlay egalik qilsalar yoki qo'shma korxonalar tuzib, ularga qo'ygan resurslari doirasida egalik qilsalar, ularning mablag'larini investorlarning o'z moliyaviy resurslari guruhiga qo'shish kerak. Biroq ularning investitsiyalari qarz tariqasida bo'lsa, qo'ygan resurslarini investorlarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari tarkibiga kiritish lozim.

Iqtisodiyotda investitsiya mablag'larining maqsadi yo'naltirilganligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

**Real investitsiyalar** – faoliyat yuritayotgan korxonalarni texnik qayta qurollantirish, ta'mirlash va yangi korxonalarni barpo etishga yo'naltirilgan qo'yilmalardir. Bu holatda korxonalar-investor mablag' qo'yayotganda o'zining ishlab chiqarish kapitalini ko'paytiradi, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlarini va uning amal qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larini oshirib boradi.

**Portfel-investitsiyalarda** esa investor o'zining moliyaviy kapitalini ko'paytiradi, ya'ni devidend tarzida qimmatli qog'ozlardan daromad oladi.

Bugungi kunda O'zbekistonning investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi eng asosiy masala – investitsiya loyihalarini moliyaviy mablag' bilan ta'minlash masalasidir. Hozirgi zamon ilmiy qarashlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra ikki muhim jihati bilan ajralib turadi.



**Birinchidan**, mikrodarajada moliyalashning bozor mexanizmi amal qiladi;

**Ikkinchidan**, makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmi ham mavjud bo'ladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini moliyalash faqat olinadigan foyda motivlaridan (sabablaridan) tashqari milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadiga muvofiq keladigan mezonlar bo'yicha ham baholanadi, lekin bularning iqtisodiyotdagi roliga har xil qaraladi. Biroq bozor mexanizmi eng muhim umuminsoniy iqtisodiy qadriyat tarzida e'tirof etiladi. O'zbekistonda yuz berayotgan investitsiya jarayonlarini asosli holda baholash uchun aytilgan har ikkala mexanizmni inobatga olish kerak bo'ladi.



**Investitsiya loyihalarini moliyalash manbalari turlichadir. Masalan, Rossiya davlatida investitsiyalarni moliyalashtirish quyidagi mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi:**

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik rezervlari (sof foyda, amortizatsiya ajratmalari, fuqaro va yuridik shaxslarning jamg'armalari va boshqalar);
- investorlarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari (bank kreditlari, budjet ssudalari va boshqalar);
- investorlarning jalb qilgan moliyaviy mablag'lari (aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishdan olingan mablag'lar);
- qaytarishlik va qaytarmaslik asosida taqdim qilinadigan federal budjet mablag'lari;
- budjetdan tashqari fondlar mablag'lari (masalan, yo'l fondi);
- xorijiy investorlar mablag'lari.

Bundan ko'rinadiki, investitsiyalarni moliyalash manbalari aralashtirib yuborilgan, lekin ularni bir tizimga solsa bo'ladi. Fikrimizcha, investorlarning jalb qilgan moliyaviy mablag'larini emissiya qilgan korxonalarining o'z mablag'lari tarkibiga kiritish lozim. Chunki aksiyani sotib olgan subyekt emissiya qilgan korxonaga investitsiya qo'yishi bilan birga shu korxonaning ma'lum bir qismiga egalik qiladi. Bizga ma'lumki, aksiya uni sotib olgan subyektga o'zining qiymati darajasida mulkka egalik qilish huquqini beradi. Demak, bu holatda aksiya sotib olgan subyekt o'z korxonasiga investitsiya qilayotganligi kuzatiladi. Budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larini qarz mablag'lari tarkibiga kiritish lozim. Chunki budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari tijorat banklari orqali o'zaro qarz asosida amalga oshiriladi.

**Yuqoridagi qayd etilgan fikrlar asosida biz investitsiya loyihalarini moliyalash manbalarini quyidagi guruhlariga ajratdik:**

- jismoniy va yuridik shaxslarning o'z moliyaviy mablag'lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari;
- budjetning moliyaviy mablag'lari.



**Birinchi guruh** moliyaviy mablag'lari tarkibiga foyda, amortizatsiya ajratmalari, huquqiy shaxslar va fuqarolarning pul jamg'armalari va badallari, aksiyalardan tushgan mablag'lar va boshqalar kiradi.

**Ikkinchi guruh** moliyaviy mablag'lar tarkibiga bank kreditlari va budjet ssudalari, obligatsiyali, sertifikatli, vekseli va boshqa xil qarzlari, xalqaro kreditlar, budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari kiradi.

**Uchinchi guruh** moliyaviy mablag'lari tarkibiga respublika va mahalliy budjet mablag'lari kiradi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda jismoniy va yuridik shaxslarning o'z moliyaviy mablag'lari ahamiyati kattadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda investitsion xarajatlarni moliyalash umumiy hajmida korxonalar o'z mablag'lari hissasi 60 foiz va undan yuqori darajaga erishsa, bunday xo'jaliklarda o'z-o'zini moliyalash darajasi yuqori bo'ladi.

Korxonalarining jami investitsiyadagi (bir yil ichida barcha investorlar tomonidan qo'yilgan hamma shakl va turdagi investitsiyalar) o'z mablag'larining ulushini o'z-o'zini moliyalash koeffitsiyentini qo'llash orqali aniqlash mumkin. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K_u = \frac{UM}{J I},^{29}$$

bu yerda;

$K_u$  – o'z-o'zini moliyalash koeffitsiyenti;

$UM$  – korxonaning o'z mablag'lari;

$J I$  – jami investitsiya.

O'z-o'zini moliyalash koeffitsiyenti 51 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Agar undan kam bo'lsa, u holda korxonalar o'z moliyaviy mustaqilligini yo'qotadi. O'z-o'zini moliyalash tor ma'noda korxonalarining ichki pul manbalari hisobidan amalga oshsa, keng ma'noda korxonalar qarz ko'tarish hisobidan ham o'z moliya resurslarini ko'paytirishini bildiradi. Bu tamoyilga amal qilganda korxonalar investitsiyalarni moliyalashtirganda uni taqsimlanmay qolgan foyda va amortizatsiya ajratmalari hisobidan amalga oshirishi mumkin. O'z-o'zini moliyalash korxonalarining sof foydasi va amortizatsiya ajratmasi hisobiga takror ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni qoplashligini va jamoaning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday korxonalarda o'z-o'zini moliyalash darajasi yuqori bo'lishi uchun davlat qulay shart-sharoitlar yaratib berishi lozim.

**Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qarz mablag'lari** (kreditlar) muhim strategik ahamiyatga egadir. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'z mablag' manbalari cheklangan bo'lib, ular asosan joriy xarajatlarni qoplash uchun sarflanadi, qolgan qismi esa cheklangan mablag' sifatida investitsion faoliyatni chegaralab qo'yadi. Shu bois, hozirda investitsiya resurslari bozorida taklifning nafaqat barqarorlashtirish, balki qancha miqdorda oshirish uchun uning manbalari tarkibida davlat ulushini kamaytirgan holda chet el kreditlari va mahalliy banklar kreditlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

<sup>29</sup> Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К?», 2006. С. 152-164.



**Kredit – qarz beruvchi hisobidagi pul mablag‘ini daromad olish maqsadida foiz bilan ma’lum muddatga berilgan yoki qarz oluvchilarning o‘z yoki ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma’lum foiz bilan qaytarish sharti asosida olingan qarz mablag‘idir.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi ishtirokini to‘la ta‘minlash maqsadida quyidagilarga e‘tibor berish lozim, ya‘ni depozit va kredit uchun to‘lanadigan foizlarni muvofiqlashtirish, majburiy zaxiralar me‘yorini belgilashni tijorat banklari zimmasiga yuklash, banklarda xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘paytirish va takomillashtirish.

**Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning rolini oshirishni ta‘minlash masalasini hal etishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:**

- investitsiya loyihalarini kreditlovchi subyektlar faolligini oshirishda ma’lum imtiyozlar berish va tegishli me‘yoriy hujjatlarni mavjudligini ta‘minlash;
- investitsiya loyihalarini tayyorlash bosqichlarini imkon qadar yuksaltirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;
- iqtisodiyotda kredit turlarini ko‘paytirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, kredit ta‘minotini nodavlat korxonalar va banklar zimmasiga o‘tkazish;
- investitsiya loyihalarini chet el kreditlari bilan ta‘minlashda mamlakat, tadbirkor, chet el investorlari bilan bog‘liq omillarning har birining manfaatini hisobga olish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning faolligini oshirish uchun banklarda kredit turlari (lizing, sinditsit va boshqalar)ni ko‘paytirish;
- banklarning to‘lovga qobiliyatligi va ishonchliligini oshirish;
- bank depozitlari uchun majburiy zaxiralar me‘yorini pasaytirish;
- hukumat qarorlari asosida amalga oshiriladigan dasturlar natijasida bank tomonidan ko‘rilgan zararlarni budjet hisobidan qoplash;
- omonatlar va investitsiya kreditlaridagi foiz stavkalari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

**1-jadval**

**Investitsiya loyihalarini moliyalash manbalarini quyidagi turkumlarga ajratiladi:**

<b>jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z moliyaviy mablag‘lari</b>	<b>jismoniy va yuridik shaxslarning qarzga olgan moliyaviy mablag‘lari</b>	<b>budjetning moliyaviy mablag‘lari.</b>
- moliyaviy mablag‘lari tarkibiga foyda, amortizatsiya ajratmalari, huquqiy shaxslar va fuqarolarning pul jamg‘armalari va badallari, aksiyalardan tushgan mablag‘lar va boshqalar kiradi.	- moliyaviy mablag‘lar tarkibiga bank kreditlari va budjet ssudalri, obligatsiyali, sertifikatli, vekselli va boshqa xil qarzlari, xalkaro kreditlar, budjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari.	-moliyaviy mablag‘lari tarkibiga respublika va mahalliy budjet mablag‘lari kiradi.

Shunday qilinganda, kreditlar tadbirkorni real oladigan daromadini ko‘paytirishga undaydi, pirovordida, jamiyat a‘zolaridan boqimandalik kayfiyatini

yo'qotadi, korxonada texnika taraqqiyoti bilan bog'liq yangi yo'nalishni ochib beradi va bu sohada yangiliklar, kashfiyotlar qilishga undaydi.

Iqtisodiy o'sish uchun investitsiya loyihalarini budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirish zarurligini hech kim inkor etmaydi. Davlatning investor bo'lishi tabiiy, chunki busiz iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlab bo'lmaydi. Davlat bu vazifani investitsiyalash uchun zarur moliyaviy mablag'larni budget vositasida qayta taqsimlash orqali bajaradi. Shu sababli o'tish davrida davlatning investitsiya resurslaridagi hissasi katta bo'lishi turgan gap.

## **6.2. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni safarbar etish tartibi**

Moliyaviy bozorlarning asosiy roli – jamg'armalar hosil qilib, investitsiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirishdir. Moliyaviy bozorsiz korxonalar o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tishi zarur bo'ladi va bu holat ularning rivojlanish imkoniyatlarni chegaralab qo'yadi.

Moliyaviy bozorda muhim resurslardan biri bank kreditidir. Bunda qarz oluvchi uchun ssuda kapitaliga bo'lgan talab va taklifga qarab aniqlanuvchi foiz stavkasining darajasi, depozit bo'yicha foiz stavkalari miqdori, mamlakatdagi inflyatsiya darajasi kabilar muhim sanaladi.

Kreditlar kreditlash muddatiga qarab qisqa muddatli (1 yilgacha), o'rta muddatli (1-5 yilgacha) va uzoq muddatli (5 yildan ortiq) kreditlarga tasniflanadi. Korxonalarining asosiy fondiga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar investitsion kreditlar deb ham ataladi. Uzoq muddatli kreditlarning zarurligi korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga mablag'i yyetarli emasligidan kelib chiqadi.

Aynan shu jarayonda uzoq muddatli tavsifga ega bo'lgan kredit munosabatlari yuzaga keladi.

### **Kapital qo'yilmalarni kreditlash obyekti bo'lib:**

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarni ta'mirlash, kengaytirish va qurilishi;

- ko'char va ko'chmas mulklarni sotib olish;

- xorijiy investitsiya ishtirokidagi yangi korxonalarni shakllantirish va hokazo.

Uzoq muddatli kreditlarni taqdim qilish, rasmiylashtirish va qaytarish bank qoidalari va qarz oluvchi bilan tuzilgan kredit shartnomalari asosida tartibga solib boriladi.

Kredit shartnomasida quyidagi shartlar ko'zda tutiladi:

- berilayotgan kreditning summasi;

- muddati va uni ishlatish tartibi;

- foiz stavkalari va kredit bo'yicha boshqa to'lovlar;

- tomonlarning majburiyatlari va iqtisodiy javobgarligi;

- kredit ta'minotining shakllari;

- kreditni rasmiylashtirish uchun bankka taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati.

Bank uzoq muddatli kreditni qaytarishning davriyligi va muddatlarini belgilashda quyidagilarga e'tibor beradi:

- qilingan xarajatlar qarz oluvchining sof foydasi hisobiga qoplanishi;

- korxonaning to'lovga layoqatliligi;
- kredit riski darajasi va boshqalar.

Uzoq muddatli kreditni olish uchun qarz oluvchi bankka o'zining to'lovga layoqatliligini tavsiflovchi quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- buxgalteriya balansi;
- foyda va zararlar to'g'risida hisobot;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi.


Uzoq muddatli ssudalar deb, respublikadagi qonunchilik asosida tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga, xususiy tadbirkorlarga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklariga besh va undan ortiq muddatga beriladigan ssudalar (kreditlar) tushuniladi. Ular qurilish, rekonstruksiya, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi obyektlarni texnik qayta qurollantirish xarajatlari va ularga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangandir. Qarz mablag'lar texnika, texnologiya va asbob-uskunalarini sotib olish, qishloq xo'jalik mollari asosiy to'dasini shakllantirish, ko'p yillik bog'larni yaratish va boshqa investitsion maqsadlarni moliyalashtirish uchun ham ajratiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda mablag'larni jalb etish uchun Davlat Arxitektura-qurilish nazorati qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan bino-imorat qurilishi loyiha-smetaviy hujjatlari, qurilishni amalga oshirish uchun ushbu tashkilot tomonidan berilgan yozma ruxsatnoma, yangi o'rnatiladigan asbob-uskuna va ishlatiladigan xomashyoni yetkazib berish shartnomalari, loyihaning iqtisodiy qoplanish hisob-kitoblari ekspertizasining mavjudligi talab etiladi. Bunda kreditni ajratish bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni olib borishda sof pul oqimi muhim sanaladi.

Moliyaviy institutlar tomonidan qurilish obyektlarini moliyalashtirishda qarz mablag'larning 25-30 %i va undan ortiq summada o'z mablag'larining mavjud bo'lishi loyiha hisob-kitoblariga ijobiy ta'sir etadi, xususan, loyiha investitsion va imtiyoz davrida mablag'lar taqchilligiga barham beriladi.

Ajratiladigan uzoq muddatli qarz mablag'larini qaytarish uchun hukumat kafolatlari, mol-mulk garovi, birinchi sinf tijorat banklari, kreditlash muassasalari va sug'urta tashkilotlari kafolatlari, uchinchi shaxs ishonch xati (poruchitelstvo), qarz oluvchi tomonidan mablag'larni qaytara olmaslik riskidan sug'urtalanish (faqatgina respublikadagi "Kafolat", "Agrosug'urta", "Madad", "O'zbekinvest" sug'urta tashkilotlari tomonidan berilgan sug'urta polislari) polisi – ta'minlanganlik bo'lib hisoblanadi.

Uzoq muddatli qarz mablag'larni jalb etish uchun taqdim etilgan ariza hujjatlarida qarz oluvchi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, jumladan tashkiliy-huquqiy shakli, ta'sischilari, asosiy faoliyat yo'nalishlari, so'ralayotgan qarz summasi, foydalanish muddati, investitsion loyiha maqsadi, korxonalar aktivlari va so'ralayotgan qarz o'rtasidagi nisbat, qarz mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyekt qoplanish muddati, qarz mablag'larni olish va ularni foizlari bilan qaytarish muddatlari, qarz mablag'larni jalb etish uchun ta'minlanganlik sifatida taqdim etiladigan garov to'g'risida ma'lumot, korxonalar qarzdorligi to'g'risida, uning boshqa

banklarda ochilgan hisob-raqami bo'yicha hamda qarz oluvchining boshqa korxonalar ustav kapitalida ishtirok etishi bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi.



Manba: <https://www.accenture.com/au-en/insight-transforming-australian-defence-innovation-infographic>

**Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish obyekti sifatida ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlarni qurish, qayta tiklash va texnik qayta qurollantirish hisoblangan hollarda qarz oluvchi quyidagi hujjatlarni topshiradi:**

- a) tegishli tartibda tasdiqlangan investitsion loyiha texnik-iqtisodiy asosi va loyiha-smetaviy hujjatlari;
- b) qurilish qiymatining yig'ma smetaviy-moliyaviy hisob-kitoblari;
- v) yillar bo'yicha taqsimlangan qurilishning adresli dasturi;
- g) qurilishning butun davri uchun bajariladigan ishlarga haq to'lash shakllarini ko'rsatib o'tgan holda tuzilgan pudrat shartnomlari;
- d) texnologik asbob-uskunani yetkazib berish shartnomasi, Davlat Arxitektura qurilish nazorati qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan bino-imorat qurilishi loyiha-smeta hujjatlari, qurilishni amalga oshirish uchun ushbu tashkilot tomonidan berilgan yozma ruxsatnoma, yangi o'rnatiladigan asbob-uskuna va ishlatiladigan xomashyoni yetkazib berish shartnomalari;
- e) davlat ekologik ekspertizasi xulosasi;
- j) qarz oluvchi korxonaning kreditga layoqatliligini aniqlash maqsadida uning so'nggi uch yildagi moliyaviy hisobot shakllari;
- z) qarz mablag'larning yetarli darajada ta'minlanganligini hamda obyekt joylashadigan yer maydonidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, mahalliy hokimliklar tomonidan yangi boshlanayotgan qurilish uchun bergan ruxsatnomalari.



### **Kredit olish tartibi quyidagi hujjatlarni topshiradi:**

1. Tegishli tartibda tasdiqlangan investitsion loyiha texnik-iqtisodiy asosi va loyiha-smetaviy hujjatlari
2. Qurilish qiymatining yig'ma smetaviy-moliyaviy hisob-kitoblari
3. Yillar bo'yicha taqsimlangan qurilishning adresli dasturi
4. Qurilishning butun davri uchun bajariladigan ishlarga haq to'lash shakllarini ko'rsatib o'tgan holda tuzilgan pudrat shartnomlari
5. Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi
6. Qarz oluvchi korxonaning kreditga layoqatligini aniqlash maqsadida uning so'nggi uch yildagi moliyaviy hisobot shakllari

Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsion loyihaning kompleks ekspertizasi loyihaning texnik ekspertizasi, o'rnatiladigan asbob-uskuna texnik tavsiflari va texnologiyasini o'rganish, loyiha bo'yicha marketing va informatsion izlanishlarni olib borish, ishlab chiqariladigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish va raqobatchilar muhitini tahlil qilishdan boshlanadi. Investitsion loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasida loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi, pul mablag'lari oqimi kuzatiladi va ma'qul bo'lgan moliyalashtirish sxemasini tanlash bo'yicha maslahatlar beriladi.

Kompleks ekspertizaning navbatdagi bosqichida investitsion loyihadagi risklar darajasi aniqlanadi va ularni kamaytirish chora-tadbirlari belgilanadi, shuningdek, qarz oluvchi shaxsga tegishli asosiy vositalarni, bino-inshootlarni baholash ishlari amalga oshiriladi. Kompleks ekspertizadagi tahlil ishlarining so'nggisi esa asbob-uskuna yetkazib beruvchilar bilan imzolangan shartnomalarning mavjudligi, kelishuvlar asosida erkin ayirboshlanadigan valyuta evaziga tashqi davlatlardan asbob-uskuna va materiallarni sotib olish masalalari holati tekshiriladi, asbob-uskuna yetkazib berish va o'rnatish muddatlarining ishlab chiqish grafigi bilan mutanosibliigi o'rganiladi.

Investitsion loyiha kompleks ekspertizasi yakunida loyihani moliyalashtirish uchun qarz mablag'larni ajratish bo'yicha xulosa tayyorlanadi va u ijobiy deb hisoblansa, uzoq muddatga korxonaga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorga asosan qarz oluvchi va loyihani moliyalashtiruvchi institut o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi.

Qarz shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab, jalb qilingan qarz mablag'lar, foizlar, jarimalar to'liq qaytarilishigacha amal qiladi. Moliyaviy institutlar qarz shartnomasiga ko'ra qarz mablag'larni ajratishda loyiha qoplanish muddatlarini, pul oqimlari prognozini inobatga olgan holda imtiyozli davr o'rnatadi. Bu imtiyozli davr mobaynida qarz oluvchi shaxs qarz mablag'larning asosiy qismini qaytarmay, qarz bo'yicha faqatgina foizlarni to'laydi, odatda imtiyozli davr bir yildan oshmaydi.

Qarz mablag'lar bo'yicha foizlar qarz shartnomasidan kelib chiqib belgilanadi, ular mamlakatdagi pul bozori va inflyatsiya holatiga bog'liq ravishda hamda tomonlarning o'zaro kelishuvlariga asosan o'zgartirilishi mumkin. Foiz miqdori qarz mablag'lardan foydalanish muddati, qarz oluvchi tomonidan mablag'larning o'z vaqtida qaytarish kafolatlari, qarz mablag'lar resurslariga bo'lgan talab va taklif va ularning bahosi, shuningdek, mavjud investitsion loyihadagi risklarga bog'liq

ravishda aniqlanadi. Uzoq muddatli qarz mablag'lardan foydalanganlik uchun foizlar, odatda, har choraklarda hisoblanadi va to'lanadi.

**Moliyaviy institutlar tomonidan berilgan qarz mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boriladi. Monitoring ishlari quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:**

a) qarzni haqiqatda o'zlashtirish muddatlarini investitsion loyiha texnik-iqtisodiy asosi, biznes rejasidagi qarzni o'zlashtirish grafigi bilan solishtirish;


b) qarz oluvchining moliyaviy, statistik hisobotlari va operativ ma'lumotlari asosida uning choraklik (zarur hollarda yillik) xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish;

v) qarz mablag'lari bo'yicha ta'minlanganlik vositasi holatini choraklik tekshirish, ishonch xati (poruchitelstvo) taqdim etgan shaxs moliyaviy holatini tahlil qilish;

g) investitsion loyiha bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirishni tahlil qilish;

d) mumkin bo'lgan rezervlarni tashkil etish uchun qarz oluvchi klassifikatsiyasi;

e) qurilayotgan obyektlar bo'yicha bajariladigan ishlarni tekshirish va boshqalar.



Uzoq muddatli kreditlar risklilik darajasi eng yuqori bo'lgan kreditdir, uning boshqacha nomi loyihaviy kreditdir. Bu kreditlar korxonaga kelgusidagi naqd pul tushumini ta'minlovchi – asosiy kapitalning to'ldirilishini moliyalashtirish uchun zarur. Bunga misol sifatida neftni qayta ishlash, shaxta, elektrostantsiyalar kabi

yirik inshootlarning qurilishini kreditlashni keltirish mumkin.

**Loyihalar bo'yicha kredit risklari quyidagilardan iborat:**

- korxonaga qurilishi uchun talab etiladigan materiallar shartlarining nomutanosibligi, kamomadi;

- loyiha amalga oshirilayotgan joydagi hukumat qonunlari, farmonlarining loyihaga to'sqinlik qilishi;

- kredit uchun belgilanadigan foiz stavkasining keskin o'zgarishi.

Uzoq muddatli loyihaviy kreditlarning birgalikda bir necha kompaniyalarning bir loyihani amalga oshirayotganda berilishi qiyin kechadi. Uzoq muddatli kreditlar regress huquqidan foydalangan holda ham beriladi, bunga ko'ra kreditor homiy tashkilotlardan olingan mablag'larni loyiha muvaffaqiyatsiz amalga oshganda qaytarishi mumkin. Regress huquqsiz kredit ajratilganda loyiha holatiga qaramay, loyiha homiylari tomonidan beriladigan kafolat talab etiladi.

Uzoq muddatli kreditlar uchun foiz stavkasini o'rnatishda jalb qilinayotgan mablag'lar chegaraviy qiymati, bankning operatsion xarajatlari hisobga olinadi. Tijorat banklari foydali uzoq muddatli kreditlarni ajratish uchun o'z xarajatlarini

puxta hisoblashi zarur, foiz stavka o'ratishda banklarda samarali boshqaruv ma'lumot tizimining mavjudligi muhim.

Moliyaviy institut tomonidan qarz oluvchiga investitsion loyihani moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratilishidan avval qarzdan foydalanish muddati, asosiy to'lov va foizlar summasi, ularni qaytarish davri kelishib olinadi.

Banklarda uzoq muddatli kreditlar uchun foiz stavkasi quyidagi umumiy formula bo'yicha belgilanadi:

Kredit bo'yicha foiz stavkasi	=	Qarz oluvchini kreditlash uchun jalb qilingan mablag'lar chegaraviy qiymati	+	Bank operatsion xarajatlari	+	Majburiyat larni bajarmaslik riskidan bankni himoya qilish uchun marja	+	Bankning rejalashtirayotgan foyda normasi
-------------------------------	---	---	---	-----------------------------	---	--	---	---

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Misol: so'ralgan kredit qarz oluvchiga yiliga 15 %lik ustama to'lov to'lash sharti bilan ajratilishi mumkin, ya'ni:**

Tijorat bankiga o'z korporativ mijozidan 5 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratish iltimosi bilan ariza kelib tushdi, bunda tijorat banki kredit berish uchun o'z depozit sertifikatlarini moliya bozorida 10 %lik stavka bo'yicha sotsa, ajratiladigan kredit bo'yicha mablag'lar chegaraviy qiymati kredit summasining 10 %ini tashkil etadi. Kredit berish bo'yicha bankning operatsion xarajatlari esa kredit summasining 2 % miqdorida belgilandi.

Bankning Kreditlash boshqarmasi kredit riskini kompensatsiya qilish uchun ushbu kredit bo'yicha yana 2 %lik qiymatni kiritishi mumkin, bu mablag' kreditning qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida va to'liq qaytarilmaslik zararini qoplash uchun talab etiladi. Bank kredit bo'yicha foyda marjasini kredit summasiga nisbatan 1 % etib belgilashi mumkin.

Shunday qilib, **so'ralgan kredit qarz oluvchiga yiliga 15 %lik ustama to'lov (10 %+2 %+2 %+1 %) to'lash sharti bilan ajratilishi mumkin.**

### 6.3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, bosqichlari va turlari

Investitsiyalar iqtisodiyotning o'sishini, ishlab chiqarishning rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir. Iqtisodiy islohotlarning samarasi ham oqilona va baqquvat investitsiya siyosatini o'tkazishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Buning uchun ichki sarmoyalarni ham tashqi kreditlarni ham, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarurdir".

O'zbekiston hukumati mamlakatda qulay investitsion muhit yaratish uchun ancha ishlarni amalga oshirdi, mamlakatda siyosiy barqarorlik saqlab turildi, investorlar mablag'lari va huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik bazasi yaratildi, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar qator imtiyoz va huquqlar berildi. Buning natijasida esa so'nggi yillarda respublikamizda xorijiy investorlar ishtirokidagi investitsion loyihalar soni keskin ravishda oshdi. Bunday ijobiy holat

iqtisodiyotga sarmoya sifatida kiritilgan har bir dollardan eksport tushumi ko'inishida aniq natija olingandagina real iqtisodiy samara beradi. Boshqacha aytganda, yirik kapital qo'yilmalar mahsulot yoki xizmatlar eksportining o'sishi orqali o'zini oqlashi mumkin.

Keyingi paytda respublikamizda investitsiya faoliyatini faollashtirish va bank kreditlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti huzuridagi Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashning 2014-yil 1-fevralda bo'lib o'tgan majlisida bu faoliyatga yangi turtki berildi.

Hukumatning investitsiya siyosatida investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi, investitsion resurslarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, jumladan, Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov yangi mingyillik bo'sag'asida davlatni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini belgilar ekan, yaqin ikki-uch yil ichida kichik va o'rta biznes subyektlari sonini ikki hissa oshirish va ularning yalpi milliy mahsulotdagi ulushini 53 %ga yetkazish vazifasini qo'ydi. Kichik biznes iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, aholini ish bilan band etishni kafolatlaydi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishda investitsiya obyekti to'g'risida to'liq ma'lumot beradigan loyiha hujjatining bo'lishi muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish – moliyalashtirishning eng taraqqiy etgan zamonaviy shakllaridandir.

Shunday ekan, loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni nimadan iborat, unga qanday ta'rif berish mumkin? Turlicha fikrlar mavjud. Masalan, Doyche bank (Germaniya)ning tarkibiy moliyalashtirish boshqarmasi xodimlarining fikricha, loyihaviy moliyalashtirish, bu: **“Loyiha bo'yicha asosiy vositalarni sotib olishni, tashkil etishni yoki qurilishni moliyalashtirish bo'lib, unda kreditor, asosan, quyidagilarga e'tibor beradi:**

a) kreditni qaytarish manbasi sifatida, loyihani tatbiq etish natijasi bo'yicha olinadigan sof pul oqimiga ( mablag'larning qaytish darajasiga);

b) loyihaning aktivlariga, berilgan kreditning xavfsiz manbasi sifatida (to'lovlilik va garov)”.

Bizning fikrimizcha, loyihaviy moliyalashtirish bu investitsiya loyihalarini kreditlashtirishning bir turi bo'lib, kreditor bu loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni qisman yoki to'liq o'z zimmasiga oladi.

Agar banklarning oddiy kredit operatsiyalarida, eng avvalo, qarzdoming kreditga qobiliyatligini o'rganishga, uning moliyaviy va iqtisodiy holatini, shuningdek, garov sifatida foydalanadigan mol-mulklarni baholashga asosiy ahamiyat berilsa, loyihaviy moliyalashtirishda esa loyihaviy tahlilga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bu borada ta'kidlash joizki, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida hanuz **“... ruxsatnoma va sertifikatlar, kredit olishda necha kunlar navbatda turish, noqonuniy tekshiruvlar, boy berilgan iqtisodiy va moliyaviy foyda hisobidan qo'lga kiritgan.**



**Shu bilan birga, tadbirkorlarning ko'pchiligi haqiqiy fuqarolik pozitsiyasida turib, yetim bolalar va nochor oilalarga, mahallalar va ijtimoiy soha muassasalariga beg'araz yordam bermoqda»<sup>30</sup>.**

Loyihaviy tahlilning obykti bo'lib loyihaviy hujjatlar (loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi) hisoblanadi va u loyihaning iqtisodiy, moliyaviy samaradorligini va loyiha bo'yicha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari va risklarni baholashdek o'z maqsadiga ega bo'ladi.

**Qanday turdagi loyihalar loyihaviy moliyalashtirishga mos kelishi mumkin?**

Avvalambor, loyihaviy moliyalashtirishning asosi bo'lib mustaqil va maqsadlari aniq belgilangan loyihalar hisoblanadi.

Loyiha natijasi bo'yicha olingan sof pul oqimining miqdori shunday belgilanishi lozimki, kelgusida ko'zda tutilmagan xarajatlarni ham hisobga olish imkoniyati bo'lsin.

Loyiha ko'p sonli loyiha ishtirokchilarining talabi va manfaatlarini qondirishi zarur.

Loyiha risklarni uning ishtirokchilari o'rtasida teng taqsimlash imkoniyati mavjud bo'lishini ko'zda tutishi zarur.

Loyihaviy moliyalashtirishda yuqori darajali risklarning bo'lishini hisobga olgan holda kreditorlar risklarni samarali boshqarishni ta'minlashga harakat qiladi.

**Loyihaviy moliyalashtirish orqali moliyalashtirilgan loyihalar, asosan, iqtisodiyotning quyidagi tarmoq va sektorlarida ishtirok etishi mumkin:**

- telekommunikatsiya;
- transport;
- foydali qazilmalarni qazish;
- energetika;
- qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda.

**A. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy bosqichlari.**

Loyihaviy moliyalashtirishda quyidagi ishlarni bajarish o'ta muhimdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, loyihaviy moliyalashtirishning bosqichlari quyidagicha:

**Birinchi bosqich** – loyihaning texnik tahlili. Bu bosqichda quyidagi savolga javob berish zarur: loyiha o'zining boshlang'ich smeta xarajatlariga mos holda amalga oshirilmoqdam?

Loyihaviy moliyalashtirishda qarzdorlar tajribali ekspert-injenerlarning (bu ko'p hollarda maxsus savollarga tavsiyalar beruvchi mustaqil maslahatchilar) tavsiyasiga amal qiladi. Bunday ekspertlarning xulosasi texnik hisobot shaklida tavsiya etilishi va quyidagi holatlarni o'zida qamrab olishi mumkin:

- zarur investitsiya miqdorini;
- kelgusidagi zarur investitsiyalarni (ko'zda tutilmagan xarajatlarni va favquloddagi zararlarni qo'shgan holda);
- loyihaning qaytimi uchun zarur vaqt zarar ko'rmaslik nuqtasi;

<sup>30</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". [http://kun.uz/news/2017/14/01/..](http://kun.uz/news/2017/14/01/)

- elektr energiya, suv va boshqa xarajatlar qiymati;
- loyihada ishlash uchun xodimlarni o'qitish imkoniyati;
- loyiha mahsulotini sotish bozorining mavjudligi.

**Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy bosqichlari**  
**Birinchi bosqich – loyihaning texnik tahlili:**

zarur investitsiya miqdorini;	kelgusidagi zarur investitsiyalarni (ko'zda tutilmagan xarajatlarni va favqulotdagi zararlarni);	loyihaning qaytimi uchun zarur vaqt. Zarar ko'rmaslik nuqtasi;	elektr energiya, suv va boshqa xarajatlar qiymati.
-------------------------------	--	--	--

**Ikkinchi bosqich – iqtisodiy va moliyaviy tahlil.**

Loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy tahlili jarayonida loyiha barcha olingan kreditlar bo'yicha o'z vaqtida hisob kitoblar uchun yetarlicha foydaga ega bo'ladimi?- degan savolga javob olish zarurdir.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning asosi bo'lib sof pul oqimining tahlili hisoblanadi. Sof pul oqimi o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- loyiha egalarining aksioner kapitaliga dastlabki investitsiya qo'yilmalarini va kreditorlarning qarz mablag'larini;
- olingan foydani;
- sarf-xarajatlarni.

**Ikkinchi bosqich – iqtisodiy va moliyaviy tahlil:**

Loyiha egalarining aksioner kapitaliga dastlabki investitsiya qo'yilmalarini va kreditorlarning qarz mablag'lari	Olingan foyda	Sarf-xarajatlar
--	---------------	-----------------

Kreditorlar loyihaning iqtisodiy sezgirligini jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan sof qoplash koeffitsiyenti (NPV Coverage Ratio) va umumiy qoplash koeffitsiyenti (Annual Coverage Ratio) kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlashlari mumkin.

Loyihalarni moliyalashtirishning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida homiylar faoliyatini, risklarni va ularning taqsimlanishini tahlil etadi. Bu bosqichda kreditorlar rahbarlarning faoliyatini va ularning imidjini, loyiha ishtirokchilari uchun qaltislik (risk)ning to'g'ri taqsimotini o'rganadi.

**B. Loyihaviy moliyalashtirish turlari.**

**Loyihaviy moliyalashtirishni jahon amaliyoti tajribasidan kelib chiqqan holda moliyalashtirish tartibiga qarab ikki turga bo'lish mumkin:**

- parallel moliyalashtirish;
- bosqichma-bosqich moliyalashtirish.

Birinchi tur moliyalashtirish, odatda, hamkorlikdagi moliyalashtirish deb ham ataladi, ya'ni bir necha kredit muassasalari investitsiya loyihasining amaliyotga tatbiqi uchun qarz mablag'larini ajratadi. Bu bir tomondan banklarga beradigan kredit summalarining me'yoriy chegarasiga rioya qilishiga imkoniyat bersa, ikkinchi tomondan o'z kredit risklarini kamaytiradi.

### Loyihaviy moliyalashtirish turlari:

Parallel moliyalashtirish – bir nechta kredit muassasalari investitsiya loyihasining amaliyotga tatbiqi uchun qarz mablag'larini ajratadi.	Bosqichma-bosqich moliyalashtirish – birinchi toifali tijorat banklari investitsiya loyihalarini ekspertizasi bo'yicha kreditlash imkoniyatining yuqoriligi sababli loyihalarni kreditlash uchun katta miqdorda arizalar olishadi.
--	--

#### **Amaliyotda hamkorlikdagi moliyalashtirishning ikki shakli qo'llaniladi:**

- mustaqil parallel moliyalashtirish, ya'ni har bir bank qarzdor bilan kredit shartnomasini tuzadi va investitsiya loyihasining o'ziga tegishli qismini moliyalashtiradi;

- hamkorlikdagi moliyalashtirish, ya'ni kreditorlar yagona sindikat (kontsortsium)ga birlashadi va yagona kredit shartnomasi tuziladi.

Sindikat (kontsortsium)ni shakllantirishni, kredit shartnomasini imzolashni menejer-bank amalga oshiradi; kelgusida kredit shartnomasining amalga oshirilishi ustidan nazorat va zarur hisob-kitob operatsiyalarini sindikat (kontsortsium) tarkibiga kiruvchi maxsus agent-bank amalga oshiradi va buning evaziga komission haq oladi.

Bugungi kunda loyihaviy moliyalashtirishning ikkinchi turi keng tarqalgandir. Loyihaviy moliyalashtirishning bosqichma-bosqich moliyalashtirish turi yirik nufuzli bankning ishtirokida amalga oshiriladi. Bunday nufuzli birinchi toifali tijorat banklari investitsiya loyihalarini ekspertizasi bo'yicha tajribali mutaxasislarning mavjudligi, kreditlash imkoniyatining yuqoriligi sababli loyihalarni kreditlash uchun katta miqdorda arizalar oladilar. Lekin bu yirik tijorat banklari har doim ham barcha loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Bu holat ularning balansiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shuning uchun ham ko'p hollarda bunday banklar loyihalarni kreditlash jarayonning tashabbuskori vazifasini bajaradi. Korxonaga qarz berilgandan so'ng tashabbuskor-bank tsessi shartnomasi bo'yicha qarzdorga nisbatan o'z talablarini boshqa kreditorga uzatadi. Investitsiya loyihasining baholanishi, kredit shartnomasining ishlab chiqilishi, qarz berganligi uchun tashabbuskor-bank kommission haq oladi.

Bu qayd qilingan loyihaviy moliyalashtirish turlarida asosiy rol tashabbuskor-bank sifatida ishtirok etuvchi yirik tijorat banki va xalqaro moliyaviy institutlar zimmasiga to'g'ri keladi.

So'nggi davrlarda "loyiha obligatsiyalari" deb nomlanuvchi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi va joylashtiruvchi moliyaviy kompaniya va banklar ham loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilariga aylangan. Dastlabki vaqtlarda bunday obligatsiyalarni muomalaga chiqarish investitsiya loyihalarini boshlang'ich davridan moliyalashtirish uchun emas, balki bankdan olingan loyihaviy kreditni qayta moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilar edi. 1990-yillarning o'rtalaridan bu obligatsiyalar investitsiya loyihalarini boshlang'ich davridan moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda loyihaviy moliyalashtirish o'z xususiyatiga ega, ya'ni ko'p hollarda ular konsessiya shartnomasiga asoslanadi. Bu shartnomaning mazmuni shundan iboratki, konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr

mobaynida (20, 30 va undan ortiq yillarga) investitsiya faoliyatining obyektini qurish, moliyalashtirish, boshqarish va xizmatini tashkil etish bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. So'ng esa obyekt davlat (davlat korxonasi)ga topshiriladi. Konsessiya davrida konsessioner obyektidan foydalanib daromad oladi, investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha xarajatlarini qoplaydi. Loyihalarni moliyalashtirishning bunday usuli so'ngi vaqtlarda sanoati rivojlangan davlatlarda ham ko'p infrastrukturali loyihalarni moliyalashtirish sxemasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Demak, loyihaviy moliyalashtirishda turli investor va kreditorlarning mablag'lari ishtirok etishi mumkin, ya'ni mablag'larning sindikatlashuvi ro'y beradi. Shu jihatdan ham loyihaviy moliyalashtirishni sindikatlashgan kreditlashtirish deb atashimiz ham mumkin. Hozirda yevrokredit bozorida harakat qiluvchi bank sindikat va kontsorsiumlarining loyihalarni moliyalashtirishdagi roli kundan kunga o'sib bormoqda. Respublikamizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ham yevrokreditlar va boshqa rivojlangan chet davlat banklarining kreditlari, xorijiy investorlarning mablag'lari, Respublika aksioner-tijorat va xususiy banklarining kreditlari ishtirok etmoqda.

#### **Loyihalarni ekspertizada ko'rib chiqish tartibi:**

TIA(TIH) tasdiqlangandan keyin O'zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o'rtasida qarz bitimi imzolanadi.	Qarz bitimi imzolanganidan keyin uning doirasida tanlov (tender) savdolari o'tkazilishi nazarda tutiladigan loyiha tashabbuskori tender hujjatlarini ishlab chiqadi va tanlov (tender) savdolari budjetini belgilaydi.
---	--

**Loyihaviy moliyalashtirish to'g'risida fikrimizga yakun yasab quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:**

- loyihaviy moliyalashtirishning asosiy turi bu sindikatlashgan kreditlashtirish bo'lib, unda turli investor va kreditorlar o'z riski va mablag'lari bilan ishtirok etadi;
- loyihaviy moliyalashtirishning jahon amaliyotida turlicha usullari va manbalari mavjud bo'lib, har bir davlat o'z iqtisodiy va investitsion siyosati, bozor mexanizmining amal qilish darajasiga qarab bu usullardan foydalanishi mumkin;
- loyihaviy moliyalashtirish objekti bo'lib aniq maqsadni ko'zlagan, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan samarali bo'lishi rejalashtirilgan loyihalar hisoblanadi.
- loyihaviy moliyalashtirishda eng asosiy jarayon bu loyiha hujjatlarining texnik, iqtisodiy, moliyaviy, ekologik tahlili hisoblanib, bu jarayonning qanchalik chuqur va saviyali o'tkazilishi loyihaning kelgusi taqdirini belgilab beradi.


#### **6.4. Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) qarz mablag'lari, O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ishtirokida hamda kichik biznes (tadbirkorlik)ni rivojlantirish uchun loyihalarni tanlab olish va xorijiy kreditlarni berish tartibi**

1. Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) qarz mablag'lari oshiriladigan loyihalarni tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi:

XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.



**Birinchi bosqichda** loyiha tashabbuskorlari “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII/XHMTning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz



mablag‘lari miqdorini o‘z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to‘g‘risida takliflar kiritadilar.

Takliflarni ekspertizadan o‘tkazish yuqorida qayd etilgan nizom talablariga muvofiq har qaysi vakolatli ekspertiza organining o‘z vakolatlari doirasida ayni bir vaqtda u taqdim qilingan vaqtdan

boshlab ikki hafta muddatda amalga oshiriladi.

Ekspertiza organlari xulosalari olingandan keyin, loyiha tashabbuskorlari iltimosiga binoan, Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig‘ma axborot-tahlil departamenti bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi hukumati nomidan so‘rovnoma tayyorlaydi va uni XMII/XHMTga yuboradi.

XMII/XHMTning loyihani moliyalashtirish/birgalikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o‘rtasida o‘zaro anglashuv to‘g‘risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi.

**Ikkinchi bosqichda** loyiha tashabbuskori XMII/XHMTning baholash missiyasi hisoboti asosida TIA ni ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko‘rib chiqish uchun uni belgilangan tartibda vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

Ekspertiza organlari xulosasi olingandan keyin TIA belgilangan tartibga muvofiq tasdiqlanadi. TIA (TIH) tasdiqlangandan keyin O‘zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o‘rtasida qarz bitimi imzolanadi.

Qarz bitimi imzolanganidan keyin uning doirasida tanlov (tender) savdolari o‘tkazilishi nazarda tutiladigan loyiha tashabbuskori tender hujjatlarini ishlab chiqadi va tanlov (tender) savdolari budjetini belgilaydi hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi bilan kelishib oladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi:

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) mablag‘lari hisobiga moliyalashtirishga/birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA (TIH) belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga moliyalashtirishga/birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) “O‘zog‘irneftgazkimyoloyiha” instituti tomonidan ishlab chiqiladi va kelishiladi hamda “O‘zog‘irneftgazkimyoloyiha” instituti fan-texnika kengashining tegishli xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda loyiha tashabbuskori tomonidan belgilangan

tartibda vakolatli ekspertiza organlariga kiritiladi.

DTIA (DTIH) tasdiqlangandan keyin loyiha tashabbuskori moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun DTIA (DTIH)ni Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga va qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga kiritadi.

Qayta moliyalashtiruvchi bank tasdiqlangan DTIA (DTIH) taqdim etilgan vaqtdan boshlab bir hafta muddatda iqtisodiy samaradorlik, pul oqimlari tahlili, loyihani amalga oshirish uchun tashabbuskorning moliyaviy jihatdan qodirligi, loyihaning tavakkalchiliklarini va hayotiyligini baholash, taklif etilayotgan moliyalashtirish sxemasining maqbulligi va kredit berish imkoniyati yuzasidan xulosa taqdim etadi.

Qayta moliyalashtiruvchi bankning xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda DTIA (DTIH) taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda, Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi tashabbuskorga loyihani va Iqtisodiyot vazirligiga uni ekspertizadan o'tkazish uchun, xulosa berish uchun taqdim etadi.

Loyihani moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) to'g'risidagi jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning qarori, loyihaning tasdiqlangan DTIA(DTIH) asosida investitsiya loyihasining TIA (TIH) ishlab chiqiladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) tavsiya qilinayotgan investitsiya loyihasining TIA (TIH) sanoatning bazaviy tarmoqlarida (elektr energetikasi, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va og'ir sanoatda)gi loyihalar bo'yicha "O'zog'irneftgazkimyoloyiha" instituti bilan kelishilishi kerak (investitsiya loyihasining TIA (TIH) ishlab chiquvchisi "O'zog'irneftgazkimyoloyiha" instituti hisoblangan holatlar bundan mustasno).

#### **TTJ boshqaruv kengashining loyihani ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etadi:**


<b>TIA(TIH)ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.</b>	<b>Vazirlar Mahkamasi loyihaning TIA (TIH)ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli masalalar bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati bilan kelishish uchun belgilangan tartibda kiritadi.</b>
---	--

Loyihaning TIA (TIH) qayta moliyalashtiruvchi bank tomonidan TIA (TIH) bo'yicha xulosalar berish bilan ayni bir vaqtda ma'qullangan taqdirda qayta moliyalashtiruvchi bank Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga kredit olish yuzasidan belgilangan shakl bo'yicha buyurtma kiritadi.

TIA (TIH) kiritilgan vaqtdan boshlab Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi loyiha tashabbuskoriga ikki hafta muddatda va Iqtisodiyot vazirligiga uning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha ekspert xulosasini taqdim etadi.

Jamg'arma boshqaruv kengashining loyihani Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirgan (birgalikda moliyalashtirgan) holda amalga oshirish to'g'risidagi qarori asosida loyiha tashabbuskori loyihaning TIA (TIH)ni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Vazirlar Mahkamasi loyihaning TIA (TIH) bo'yicha tasdiqlashga tayyorlangan materiallarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli masalalar bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati bilan kelishish uchun belgilangan tartibda kiritadi.



Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

**3. Kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish uchun loyihalarni tanlab olish va xorijiy kreditlarni berish tartibi (O‘zR Birinchi Prezidentining 27.05.1998-y. 232-farmoni, 2001-2015.06.07-yy. tahririda):**

Kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish uchun loyihalarni tanlab olish va xorijiy kreditlarni berish O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-son farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan hamda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish uchun berilgan xorijiy banklar kredit liniyalari doirasida loyihalarni tanlab olish va mablag‘ bilan ta‘minlashni boshlash mexanizmini belgilab beradi.

**Xorijiy kredit liniyalari hisobiga mablag‘ bilan ta‘minlashning ustuvor huquqiga:**

- eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va boshqa mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash bo‘yicha;
- mashinasozlik va elektron sanoati uchun detallar va uzellar;
- kundalik ehtiyojdagi xalq iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsiya loyihalariga ega bo‘ladi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini mablag‘ bilan ta‘minlash tadbirkorlik subyekti tanloviga ko‘ra namunaviy yoki yakka tartibdagi loyihalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

**Xorijiy kredit liniyalari hisobiga mablag‘ bilan ta‘minlashning ustuvor huquqiga:**

- eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar;	- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va boshqa mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash bo‘yicha;	- mashinasozlik va elektron sanoati uchun detallar va uzellar;	- kundalik ehtiyojdagi xalq iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsiya loyihalari ega bo‘ladi.
--	---	--	--

**Kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit olish uchun zarur bo‘lgan texnik-iqtisodiy va yuridik hujjatlarning to‘liq paketini ishlab chiqish va tanlab olish bo‘yicha xizmatlarning to‘liq kompleksini taqdim etish:**

- namunaviy loyihalar bo‘yicha – “O‘zinvestloyiha” respublika injiniring

kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va tijorat banklari tomonidan;

- yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha – "O'zinvestloyiha" kompaniyasi va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.

Loyihani ekspertiza qilish, tanlov o'tkazish va loyihani tegishli kredit liniyasiga kiritish ushbu kredit liniyasi berilgan vakolatli bank tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar kichik biznes subyektlari: mikro firmalar va kichik korxonalariga beriladi.

Respublika kichik tadbirkorlik subyektlari buyurtmalarini shakllantirish hamda xorijiy kredit liniyalariga tanlov asosida kiritish uchun respublika mintaqalarida chet el kichik texnologiyalari va ixcham asbob-uskunalari, ularni yetkazib bergan va namoyish etgan holda ko'rgazma-taqdimotlarini o'tkazadi.

Kichik texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalaridan foydalangan holda xorijiy kredit liniyalari bo'yicha namunaviy investitsiya loyihalarini ishlab chiqishni xorijiy kredit liniyalarining vakolatli ijrochi banklarining kredit berish shartlaridan kelib chiqqan holda "O'zinvestloyiha" kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan birgalikda amalga oshiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka" banki, boshqa tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalari ochilishiga qarab kichik biznes subyektlari o'rtasida ularning namunaviy loyihalar uchun tegishli kreditlar olishi bo'yicha tanlovlar o'tkazish tartibi ishlab chiqilgan hamda ular O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi a'zolariga yetkazib berilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan xorijiy kreditlardan o'z vaqtida va maqsadli foydalanishini nazorat qilish tijorat banklariga yuklanadi.

Fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan xorijiy kredit liniyasi bo'yicha garovni sug'urtalash yuzasidan sug'urta mukofotining 50 foizi sug'urta kompaniyalariga fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Xorijiy kredit liniyalarining vakolatli ijrochi banklariga kichik biznes subyektida garov ta'minoti yetarli bo'lmagan taqdirda:

- kelgusi hosil uchun fyuchers kontraktlari yoki kredit hisobiga sotib olingan asbob-uskunalar bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlari;

- kredit hisobiga sotib olinadigan, keyinchalik kimoshdi savdosida sotiladigan yoki o'zining garov egasi huquqini sotish chog'ida lizingga beriladigan xorijiy ixcham asbob-uskunalarini garov sifatida olib qo'yish tavsiya etilgan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit olish uchun zarur bo'lgan texnik-iqtisodiy va yuridik hujjatlarning to'liq paketini ishlab chiqish va tanlab olish bo'yicha xizmatlarning to'liq kompleksini taqdim etish:**

- namunaviy loyihalar bo'yicha – "O'zinvestloyiha" respublika injiniring kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va tijorat banklari tomonidan;

- yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha – "O'zinvestloyiha" kompaniyasi va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va O‘zbekiston banklar uyushmasi tomonidan:**

- ularning “Madad” sug‘urta agentligining ustav jamg‘armasiga har biri 25,0 million so‘mdan va “Biznes-fond” ustav jamg‘armasiga 75,0 million so‘mdan ulush qo‘shishlari;

- tijorat banklari tomonidan kichik korxonalariga xorijiy kredit liniyalariga kiritish uchun investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va tanlab olish bo‘yicha bepul xizmatlar ko‘rsatilish vazifalari yuklatilgan.

Kredit olishga buyurtmanomalarni ko‘rib chiqish va tender g‘olibini aniqlash uchun vakolatli bank muassasasida Savdo-sanoat palatasi rahbari boshchiligida doimiy ishlovchi tanlov komissiyasi tuziladi, uning tarkibiga quyidagilarning hujjatlarni imzolash vakolatiga ega bo‘lgan vakillari kiradi:

- vakolatli bank (ikki ovozga ega);

- Savdo-sanoat palatasi, Dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi;

- kichik tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qo‘llab-quvvatlash hududiy markazlari;

- sug‘urta agentliklari (“O‘zbekinvest”, “Madad”, “O‘zinvestAIG”, “O‘zAIG”, “O‘zagrosug‘urta”);

- boshqa manfaatdor tashkilotlar.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va O‘zbekiston banklar uyushmasi tomonidan:**

- ularning “Madad” sug‘urta agentligining ustav jamg‘armasiga har biri 25,0 million so‘mdan va “Biznes-fond” ustav jamg‘armasiga 75,0 million so‘mdan ulush qo‘shishlari;	- tijorat banklari tomonidan kichik korxonalariga xorijiy kredit liniyalariga kiritish uchun investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va tanlab olish bo‘yicha bepul xizmatlar ko‘rsatilish vazifalari yuklatilgan.
---	--

**Vakolatli bank manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda:**

a) tadbirkor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi, undagi mavjud ishlab chiqarish bazasining aytilgan maqsadlarga va belgilangan ustuvorliklarga muvofiqligini tekshiradi;

b) kreditni berish, undan maqsadli foydalanishni nazorat qilish va uni o‘z vaqtida qaytarishni ta‘minlashning texnik va tashkiliy tartibini ishlab chiqadi;

v) eksport xulosalari bilan birga, kreditlar olishga buyurtmalarni tanlov komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

Tanlov komissiyasi tanlovni yakunlaydi va uning g‘olibini e‘lon qiladi, unga loyihaning qisqacha tavsifnomasi, kreditorlarning barcha talablarini ta‘minlash bo‘yicha o‘tkazilgan ishlar qayd etilgan tegishli xulosani beradi.

Tanlov komissiyasining barcha a‘zolari tomonidan imzolangan va uning raisi tomonidan tasdiqlangan xulosa bankning kredit qo‘mitasi ko‘rib chiqishi va kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.

Imkoniyatga ega bo‘lgan qarz oluvchi tomonidan vakolatli bankka hujjatlar to‘liq paketi bilan buyurtma berilgan sanadan to tegishli kredit shartnomasini imzolashgacha bo‘lgan eng ko‘p muddat ikki oydan oshmasligi kerak.

O‘zR Birinchi Prezidentining 2007-yil 5-iyun 3883-sonli qaroriga asosan

1997-yildan boshlab kichik ishlab chiqarish korxonalarini va lizing kompaniyalarini jalb etiladigan xorijiy kreditlar hisobiga belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq olib kelinadigan texnologik uskunalari, shuningdek, texnologik uskunalari yetkazib berish kontrakti shartlarida butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlari yetkazib berish nazarda tutilgan taqdirda, ular uchun bojxona boji to'lovlaridan ozod qilingan.

Shuningdek, yangi korxonalarini tashkil etish, ishlab turganlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq respublika hududiga olib kelinadigan texnologik uskunalari, texnologik uskunalari yetkazib berish kontrakti shartlarida butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlari yetkazib berish nazarda tutilgan taqdirda, ular qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi. Hamda lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq olib kelinadigan texnologik uskunalari, shuningdek, texnologik uskunalari yetkazib berish kontrakti shartlarida butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlari yetkazib berish nazarda tutilgan taqdirda, bojxona to'lovi va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

**Kredit olishga buyurtmanomalarni ko'rib chiqish va tender g'olibini aniqlash uchun vakolatli bank muassasasida Savdo-sanoat palatasi rahbari boshchiligida doimiy ishlovchi tanlov komissiyasi tuziladi, uning tarkibiga quyidagi hujjatlarni imzolash vakolatiga ega bo'lgan vakillari kiradi:**

Vakolatli bank (ikki ovozga ega);	Savdo-sanoat palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi;	Kichik tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qo'llab-quvvatlash hududiy markazlari;	Sug'urta agentliklari ("O'zbekinvest", "Madad", "O'zinvestAIG", "O'zAIG", "O'zagrosug'urta"); boshqa manfaatdor tashkilotlar.
-----------------------------------	---	---	---

O'zR Birinchi Prezidentining 2000-yil 5-iyun 2613-sonli qaroriga asosan, eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida, eksport qiluvchi korxonalar uchun umumiy savdo-sotiq hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti ulushiga qarab daromad (foyda) hamda mulk solig'i to'lashi tartibi belgilab berildi.

Bunga asosan:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida – belgilangan daromad (foyda) va mulk solig'i stavkalari 30 foizga kamaytiriladi;

- eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida – belgilangan daromad (foyda) va mulk solig'i stavkalari 2 baravar kamaytiriladi.

Mazkur soliq imtiyozini yagona soliqni hisoblab chiqish chog'ida mikrofirmalar va kichik korxonalariga ham joriy etilgan.

### **Xulosa**

Hozirgi zamon ilmiy qarashlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra ikki muhim jihati bilan ajralib turadi. Birinchidan, mikrodarajada moliyalashtirishning bozor mexanizmi amal qiladi; ikkinchidan, makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmi ham mavjud bo'ladi. Shu sababli, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish faqat olinadigan foyda motivlaridan (sabablaridan) tashqari milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadiga muvofiq keladigan

mezonlar bo'yicha ham baholanadi, lekin bularning iqtisodiyotdagi roliga har xil qaraladi. Biroq bozor mexanizmi eng muhim umuminsoniy iqtisodiy qadriyat tarzida e'tirof etiladi. O'zbekistonda yuz berayotgan investitsiya jarayonlarini asosli holda baholash uchun aytilgan har ikkala mexanizmni inobatga olish kerak bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning rolini oshirishni ta'minlash masalasini hal etishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya loyihalarini kreditlovchi subyektlar faolligini oshirishda ma'lum imtiyozlar berish va tegishli me'yoriy hujjatlarning mavjudligini ta'minlash;
- investitsiya loyihalarini tayyorlash bosqichlarini imkon qadar yuksaltirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;
- iqtisodiyotda kredit turlarini ko'paytirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, kredit ta'minotini nodavlat korxonalarini va banklar zimmasiga o'tkazish;
- investitsiya loyihalarini chet el kreditlari bilan ta'minlashda mamlakat, tadbirkor va chet el investorlari bilan bog'liq omillarning har biri manfaatini hisobga olish.

Kapital qo'yilmalar kapital qurilishni amalga oshirishning asosidir. Ular quyidagilarga yo'naltiriladi: yangi qurilishga; amaldagi korxonani ta'mirlashga; ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga; amaldagi korxonaning kengaytirilishiga va boshqa maqsadlarga.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va turkumlanishini tushuntirib bering.
2. Korxonani moliyalashtirish manbalarini aniqlashning o'z-o'zini moliyalash koeffitsiyentini aniqlang va izohlab bering.
3. Kapital qo'yilmalarni kreditlash obyekti bo'lib nimalar hisoblanadi?
4. Kredit mablag'lari kreditlash muddatiga ko'ra qanday davrlarni o'z ichiga oladi?
5. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uning uchun zarur bo'ladigan rasmiy hujjatlar ro'yxatini tushuntirib bering.
6. Investitsiya loyihaviy moliyalashtirishning asosiy bosqichlarini izohlab bering.
7. Kichik biznes subyektlarini moliyash tartibini tushuntirib bering.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni. "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida". 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.

7. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

8. Karimov. I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

9. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

10. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibayeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. 124-b.

11. Богатия Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ, 1999. -411 с.



## **7-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINI LIZING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA USULLARI**

**7.1. Lizing munosabatlarining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va lizing xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslari.**

**7.2. Lizing turlari va lizing bitimlari mexanizmi.**

**7.3. Lizing loyihasining iqtisodiy samaradorligini moliyaviy baholash usullari.**

**7.4. Lizing to'lovlari hajmini aniqlash usullari. Forfeyting – uning mazmuni va amalga oshirilish tartibi.**

*Tayanch iboralar: "lizing" va "ijara" tushunchalari, lizing obyektlari va subyektlari, moliyaviy lizing, ko'chmas mulk lizingi, qaytuvchi lizing, bo'linma lizing va guruhli (aksionerlik) lizing, kompensatsion lizing, aralash lizing, pulli lizing, amortizatsiya chegirmalari hajmi, lizing kompaniyasi marjasi*

.....

### **7.1. Lizing munosabatlarining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va lizing xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslari**


Hozirgi paytda xorijiy mamlakatlarda "lizing" tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Kimdir lizingni kreditlashning o'ziga xos shakli deb tasavvur qilsa, boshqalar uni uzoq muddatli ijaraga o'xshatadilar. Ba'zilar lizingni ishlab chiqarish vositalari oldi-sotdisining yashirin usuli deb qarasa, boshqa birov lizingni o'zgarar mulkini ishonch qog'ozi beruvchining topshirig'i bo'yicha boshqarish bilan bog'laydilar.

Lizing muomalalari yuzaga kelishining uzoq tarixiy bosqichlarini tavsiflash mumkin. Ilk bor "lizing" atamasi 1877-yilda qo'llanilgan, o'sha davrda "Bell" telefon kompaniyasi o'zining telefon apparatlarini mijozlarga sotmasdan, balki ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qilish bilan uning dastlabki qadamlarini boshlagan edi. Bunga ko'ra, o'rnatiladigan asbob-uskunalar mijozning uyi yoki ofisiga faqat ijara to'lovlari bo'yicha o'rnatiladigan bo'ldi.

Lizing jarayonlari bo'yicha asosiy ish faoliyati yuritadigan dastlabki aksionerlik jamiyati – 1952-yilda San-Fransiskoda tashkil etilgan "United States Leasing Corporation" Amerika kompaniyasidir. Fransiyada birinchi lizing kompaniyas 1957-yil, Angliyada 1960-yil, Germaniyada 1962-yil, Italiyada 1963-yil, Yaponiyada 1969-yilda tashkil etilgan. Bunday kompaniyalar vatanimizda 1990-yillarning o'rtalariga kelib tashkil etila boshlandi.

Lizing ayrim mamlakatlarda shakllanib, jahon miqyosida juda keng rivoj topdi. Lekin davrlar o'tishi bilan bu soha bo'yicha xalqaro hamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga solishda muammolar paydo bo'la boshladi. Unga ko'ra lizing tushunchasini aniq tasniflash lozimligi talab qilindi. Inglizcha "Leasing", "Lesson" va "Lessee" atamalari o'zbek tilida to'liq o'z ifodasini topmagan. "Leasing" so'zi "ijara" ma'nosida qo'llanib kelinmoqda. Biroq lizing shartnomasi mazmuniga ko'ra,

uskunalarni vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha tomonlarning kelishuvi kelib chiqiladigan va uning kelishuv muddatini tugashi bilan o'z mulkiga o'tishi uni aynan ijara tushunchasi bilan bir xil mazmunda qarashga olib kelmaydi.



**1-rasm. O'rta Osiyoda lizing bozori o'sish dinamikasi mln. AQSh doll.**


Manba: O'zR Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi vaqtda ham "lizing" va "ijara" tushunchalarini ta'riflashda har xil fikrlar mavjud. Buning mohiyati shundaki, mamlakatimiz amaliyotida bu ikki termin turlicha tushunchalardir. To'g'ri, "ijara", "moliyaviy ijara (lizing)", "moliyaviy lizing" va boshqa tushunchalar alohida me'yoriy hujjatlar bilan amaliyotga kiritilgan. Boshqacha qilib aytganda, ijara jarayonlarining ma'lum bir qismi xorijiy "lizing" so'zi bilan nomlanadi. Lekin ularning farqlanish belgilari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunida lizing shartnomasi sodda mazmunda quyidagicha ta'riflanadi: "Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi. Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim". Bu ta'riflash umumiy shartnomalarga xos deyish mumkin. Negaki, shartnomalarning barcha turlari ham qonunda belgilangan tartiblarda tuziladi.

Lizing atamasining hozirgi talqini Aristotelning ("Ritorika" asaridagi) so'zlariga borib taqaladi. Unda aytilishicha, boylik bu mulkka xususiy mulk sifatida egalik qilish emas, balki undan (mulkdan) oqilona foydalanishdir. Bu fikr lizingning mohiyatini juda aniq izohlaydi: foyda olish uchun ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa turdagi mulkka ega bo'lish shart emas, undan foydalanish va daromad olishning o'zigina yetarlidir. "Lizing" tushunchasi "mulk"ni egalik qilish huquqi va foydalanish huquqiga taqsimlashga asoslanadi.

Lizingga xos xususiyatlardan biri – shartnomalarning murakkab tarzda birlashuvi va bunda yuzaga keluvchi munosabatlarning o'zaro chambarchas bog'lanishidir. Bunda mulkni vaqtinchalik foydalanishga berishdagi munosabatlar asosiy hisoblanadi. Lizing bitimi va moliyaviy oqimlar sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Lizing bitimi va moliyaviy oqimlarning umumiy sxemasi**

Mulkiy munosabatlar nuqtayi nazaridan lizing bitimi o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita tarkibiy qismdan – oldi-sotdi munosabatlari va mulkdan vaqtinchalik foydalanish bilan bog'liq munosabatlardan iboratdir.

Demak, lizing murakkab, dinamik tizim bo'lib, o'z ichiga investitsiya, kredit va keyinchalik mulkchilik huquqini o'zgartirish mumkin bo'lgan ijara bitimlari elementlarini kiritadi. Natijada ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va keyinchalik ijaraga berish yo'li bilan vaqtinchalik foydalanishga berish bilan bog'liq mulkchilik munosabatlari majmuasi amalga oshiriladi.

**Lizing bozori ishtirokchilari:**

Ko'rsatkichlar	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	I/2 2015-y.
Lizing beruvchilar soni	49	64	86	83	84	99	99	83
<b>I/2014</b>		<b>Umumiy</b>						
<b>Banklar</b>		<b>24</b>						
<b>Lizing kompaniyalari</b>		<b>59</b>						

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

**Endi lizingga xos bo'lgan asosiy xususiyat va xislatlarni sanab o'tamiz.**

**Ular quyidagilardan iborat:**

1. Mulkdan foydalanuvchi mulk va mulk ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ni tanlash huquqiga ega.
2. Mulq sotuvchisi mulk lizingga berish uchun sotib olinayotganligini biladi.
3. Mulq mulk egasiga berilmasdan bevosita foydalanuvchiga beriladi va foydalanuvchi tomonidan ekspluatatsiya qilishga qabul qilinadi.
4. Mulkdan foydalanuvchi kamchilik va nuqsonlar aniqlangan holda o'z e'tirozlarini mulk egasiga emas, balki hech qanday shartnoma munosabatlari bilan bog'liq bo'lmagan sotuvchiga bevosita bildiradi.
5. Lizingga beruvchi mulkni o'zi foydalanishi uchun emas, balki uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun atayin xarid qiladi.

6. Lizing shartnomasi amal qilayotgan davr mobaynida mulk lizingga beruvchining mulki hisoblanadi.


7. Mulki egasiga uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun haq to'lanadi.

8. Mulkdan foydalanuvchi muddatidan oldin yoki shartnoma muddati tugagach, uni sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

### Lizing obyektlari va subyektlari.

Lizing bitimlarini imzolashda lizing obyektlarini ta'riflash muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi "Lizing to'g'risidagi" qonuniga asosan bozorda erkin muomala qilish taqiqlangan obyektlardan tashqari amal qiluvchi asosiy vositalarga mansub bo'lgan boshqa barcha harakatlanuvchan va ko'chmas mulk lizing obyekti bo'lishi mumkin.

Ijaradan farqli ravishda barcha ko'chmas mulklarning asosi hisoblanuvchi yer maydonlari va tabiiy komplekslar lizingga berilishi mumkin emas. Lizingning asosiy shartiga ko'ra lizing obyektlaridan faqat tadbirkorlik maqsadlaridagina foydalanish mumkin. Lizing obyektlari 1-chizmada aks ettirilgan.



3-rasm. Lizing obyektlari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Bundan tashqari lizing obyektlari individual va turdosh belgilariga ko'ra ham taqsimlanadi. Turdosh belgilarga ega bo'lgan mulkni almashtirish mumkin bo'ladi va shu sababli ular yo'qotilgan taqdirda, qarzdor uni kreditorga qaytarib berishi mumkin bo'ladi. Individual belgilarga ega bo'lgan mulk esa o'ziga xos va muayyan bo'ladi, ya'ni ko'pincha faqat ularga xos bo'lgan xislatlarga ega bo'ladi. Barcha hollarda lizing obyekti aniq belgilanishi va identifikatsiya qilinishi lozim.

**Klassik lizing subyektlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (2- chizma):**

- lizing beruvchi (lizing predmeti egasi) – huquqiy shaxs bo'lib, mulkni ishlab chiqaruvchidan (sotuvchidan) sotib oladi va uni lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga beradi;

- lizing oluvchi (lizing predmetidan foydalanuvchi) – huquqiy shaxs yoki huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqaro bo'lib, lizing shartnomasi bo'yicha lizing mulkini vaqtincha foydalanishga oladi;

- yetkazib beruvchi (ta'minlovchi) – lizing predmetini sotuvchi – huquqiy yoki jismoniy shaxs bo'lib, lizing oluvchi tanlagan mulkning egasi hisoblanadi va lizing beruvchi bilan ushbu mulk bo'yicha oldi-sotdi shartnomasini imzolaydi.




Bozorda lizing beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar	Bozorda mulkni yetkazib beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar	Bozorda lizing oluvchi sifatida ishtirok etuvchilar
Moliya kredit muassasalari	Mulk egalari	Mahsulot ishlab chiqaruvchi huquqiy shaxslar
Moliya lizing kompaniyasi	Mulkni ishlab chiqaruvchilar	Tadbirkorlar
Ixtisoslashgan lizing kompaniyasi	Savdo firmalari	
Korxonaning shuba bo'limlari va bo'linmalari	Savdo-ta'minot tashkilotlari	
Tijorat banklari		
Davlat organlari va mahalliy organlar		

#### 4-rasm. Lizing subyektlari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Bir qator hollarda yirik bitimlar imzolashda ishtirokchilar soni 6-7 taga yetishi mumkin, chunki bitimda turli xil vositachilar ham ishtirok etadi. Lizing bitimlarida bitimni moliyalashtiruvchi brokerlik lizing firmalari, trust kompaniyalari, moliya kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari hamda xizmat ko'rsatuvchi boshqa shaxslar (diler, makler, broker, distribyuter va agentlar) vositachi sifatida ishtirok etishi mumkin. Agar lizing beruvchi va mulkni yetkazib beruvchi sifatida bitta shaxs ishtirok etadigan bo'lsa, u holda lizing bitimi ishtirokchilari soni ikkitani tashkil etadi, xolos. Bunday hollarda lizing bilan mulkni ishlab chiqaruvchi korxonaning maxsus bo'limlari yoki unga tegishli bo'lgan firmalar o'z mahsulotlarini bozorga olib kirish maqsadida shug'ullanadilar.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan lizingning uchta muhim funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin (3-**чизма**).



#### 5-rasm. Lizingning asosiy funksiyalari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy funktsiya tovar ishlab chiqaruvchini zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining to'liq qiymatini bir vaqtning o'zida to'lashdan ozod qilish va unga uzoq muddatli kredit berishda namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarishdagi muammolarni mulkdan vaqtinchalik foydalanish hisobiga hal qilishdan iborat bo'lib, u yangi texnika ishlab chiqarish va moddiy-texnika ta'minotining samarali usuli hisoblanadi hamda texnik xizmat ko'rsatish, xomashyo va ishchi kuchi bilan ta'minlash kabi turli xil servis xizmatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Sotish funktsiyasi o'z ichiga iste'molchilar doirasi, ya'ni sotuv bozorlarini egallash, shuningdek, lizing sohasiga u yoki bu mulkni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarni jalb qilishni kiritadi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi lizing kompaniyalari tavsifnomasi**

Kompaniya nomi	Kompaniyaning mulkchilik shakli	Kompaniyaning faoliyat turi	Manzilgohi	Lizing turi
1. "O'zavializing"	ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati	samolyotlar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy, operativ
2. "O'zlizinginter neyshnl"	yopiq tudagi aksiyadorlik jamiyati	asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
3. "Baraka"	davlat	harakatlanuvchan va ko'chmas mulk lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy, qaytuvchi, bo'linma
4. "O'zkeysagro lizing"	qo'shma korxonalar	qishloq xo'jaligi texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
5. "OETK"	shu'ba korxonalar	asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
6. "O'zqishloqxo'jalik mash-lizing"	aksiyadorlik	qishloq xo'jaligi texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
7. Biznes lizing	xususiy	asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
8. Qurilish lizing	xususiy	qurilish texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
9. "Ischan"	xususiy	asbob-uskunalar lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
10. "Samarqand" xo'jalik hisobidagi lizing markazi	MCHJ	asbob-uskunalar lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
11. "Samriza"	xususiy	harakatlanuvchan mulk lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
12. KPF lizing	jamoaviy	harakatlanuvchan mulk lizingi	Xorazm sh.	moliyaviy
13. "Progress"	xususiy	ko'char mulk lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz). Lizing kompaniyalarining hisobot ma'lumotlari.

**Lizing xizmatlarini amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar.**

Lizing faoliyatini samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ishtirok etuvchi barcha xo'jalik subyektlarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash zarur.

O'zbekistonda lizing bo'yicha huquqiy muhitning shakllanishini shartli ravishda ikki guruhga taqsimlash mumkin.

**Birinchi davrda**, lizing bo'yicha maxsus normativ va qonunchilik hujjatlari bo'lmagan sharoitlarda lizing faoliyati ijara qoidalariga o'xshash tarzda amalga oshirilgan. Bunday noaniqliklar lizing jarayon ishtirokchilarining tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lishiga olib keldi va shu sababli tadbirkorlik tashabbuslarini to'xtatib turdi.

**Ikkinchi davrni** lizing bitimlari bo'yicha maxsus normativ asoslarning faol shakllanishi bilan tavsiflash mumkin.

**Hozirgi bosqichda respublikamizda lizing faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonun hujjatlari amal qilmoqda:**

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, ikkinchi qism, 587-599-moddalar "Lizing (moliyaviy ijara)". Ushbu moddalarda lizing bitimida ishtirok etuvchi tomonlarning asosiy huquq va majburiyatlari belgilangan;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank Boshqaruvi tomonidan 1997-yil 5-martda tasdiqlangan "Respublika banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi qoidalar. Bu qoidalarda lizing to'lovlarini hisoblash uslubiyati aks ettirilgan;

- Mamlakatimizda lizing munosabatlarini shakllantirish va lizingni amalga oshirish paytida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish maqsadida (O'zR 28.12.2007- y. O'RQ-138-son qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan) qabul qilingan.

**Mazkur qonunga binoan lizing** – moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga berishligi 2-moddada belgilab berilgan.

**Buning uchun, agar:**


- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

- lizing shartnomasining muddati lizing obyektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyektini qiymati asos bo'ladi;

- lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy

qiymatining to‘qson foizidan ortiq bo‘lsa, joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.



6-rasm. Lizing loyihalari hajmining o‘shish dinamikasi, mlrd. so‘m

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

**Lizing uch taraflama** (sotuvchi-lizing, beruvchi-lizing, oluvchi-lizing) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi-lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.


Lizing beruvchi va sotuvchi o‘rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo‘shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

#### Lizing obyektlari

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste‘mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin.

Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin emas (O‘zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (Oldingi tahririga qarang. 3-modda).





### Lizing subyektlari

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb e'tirof etiladi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing obyektini lizing oluvchining krediti (qarzi) hisobidan olingan taqdirda, aniq lizing obyektiga nisbatan lizing beruvchining kreditori va lizing oluvchi bir shaxs timsolida ish ko'rishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (Oldingi tahririga qarang. 4-modda).

### 2-jadval

#### Lizing bozori ishtirokchilari

Bozorda lizing beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar	Bozorda mulkni yetkazib beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar	Bozorda lizing oluvchi sifatida ishtirok etuvchilar
Moliya kredit muassasalari	Mulk egalari	Mahsulot ishlab chiqaruvchi huquqiy shaxslar
Moliya lizing kompaniyasi	Mulkni ishlab chiqaruvchilar	Tadbirkorlar
Ixtisoslashgan lizing kompaniyasi	Savdo firmalari	
Korxonaning sho'ba bo'limlari va bo'linmalari	Savdo-ta'minot tashkilotlari	
Tijorat banklari		
Davlat organlari va mahalliy organlar		

### Lizing obyektini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish

Lizing obyektini lizing oluvchi balansida hisobga olinadi (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (oldingi tahririga qarang).

Operativ lizing obyektini lizing beruvchi balansida hisobga olinadi.

Davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladigan lizing obyektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing beruvchining yoki lizing oluvchining nomiga rasmiylashtiriladi (7-modda).

## **Lizing faoliyati**

Lizing faoliyati lizing beruvchi tomonidan o'z mablag'lari va (yoki) jalb etilgan mablag'lar hisobidan lizing obyektining sotib olinishi va uni lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga berilishi borasidagi investitsiya faoliyati turidir (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi modda matni), **(8-modda)**.

### **Lizing shartnomasi**

Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi.

#### **Lizing shartnomasi:**

- shartnoma taraflaridan birining talabiga ko'ra;
- mol-mulk lizing objekti hisoblanib, u haqda tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq notarial tasdiqlanishi lozim (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism).

Quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi:

- lizing obyektining tavsiflanishi (lizing obyektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlari) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;
- taraflarning lizing obyektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari;
- lizing obyektini berish tartibi, shu jumladan lizing obyektini yetkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;
- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;
- lizing obyektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- sotuvchi va lizing obyektini tanlash uchun mas'ul tarafning ko'rsatilishi (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi xatboshi).

**Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:**

- lizing obyektini sotib olish tartibi va muddatlari (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi xatboshi), (oldingi tahririga qarang);
- lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;
- lizing obyektini sug'urta qilish;
- fors-major holatlar;
- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing obyektidan foydalanib bo'lmasa;
- lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi.

Lizing shartnomasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin **(9-modda)**.

#### **Lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish**

Lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, agar qonun hujjatlarida va shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflar kelishuviga binoan amalga oshirilishi mumkin.

## **Lizing beruvchining huquq va majburiyatlari**

### **Lizing beruvchi quyidagi huquqlarga egadir:**

- lizing oluvchining lizing obyektidan qanday sharoitlarda foydalanayotganligini va uni belgilangan maqsadiga muvofiq ishlatayotganligini lizing shartnomasi shartlariga hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilish;

- lizing oluvchining roziligi bilan lizing obyektini va uning sotuvchisini tanlash;

- qonun hujjatlarida yoki lizing shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda lizing oluvchidan lizing obyektini talab qila olish (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi xatboshi), (oldingi tahririga qarang);

- lizing oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda buzgan taqdirda barcha lizing to'lovlarini muddatidan ilgari to'lashni yoxud yetkazilgan zararni undirib va (yoki) lizing obyektini qaytib olgan tarzda shartnomani bekor qilishni talab etish.

Agar lizing obyektini lizing beruvchining aybi bilan yetkazib berilmagan bo'lsa yoki lizing shartnomasi shartlariga nomuvofiq bo'lsa, lizing beruvchi lizing oluvchining roziligi bilan o'zi lozim darajada bajarmagan lizing shartnomasi shartlarini tuzatib bajarishga yoki lizing oluvchiga boshqa lizing obyektini taklif etishga haqli.

### **Lizing beruvchi:**

- lizing shartnomasi bo'yicha mol-mulkni olishi va uni lizing oluvchiga egalik qilish hamda foydalanish uchun berishi;

- lizing oluvchi uchun mol-mulk olayotganda mol-mulk muayyan shaxsga lizingga berishga mo'ljallanganligini sotuvchiga ma'lum qilishi;

- lizing obyektini, agar shartnomada shunday shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, saqlab turish, ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha lizing oluvchi oldida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi shart.

Lizing beruvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin (10-11-moddalar).

## **Lizing oluvchining huquq va majburiyatlari**

### **Lizing oluvchi quyidagi huquqlarga ega:**

- lizing obyektini mustaqil aniqlash va sotuvchini tanlash;

- lizing beruvchidan lizing shartnomasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;

- sotuvchiga lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi talablarni, jumladan, uning sifati va butligi, topshirish muddati, kafolatli ta'mirlashi va hokazolar xususida talablar qo'yish;

- lizing obyektini yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing obyektini yetkazib berilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing to'lovlari to'lashni kechiktirish, yetkazib beriladigan lizing obyektidan voz kechish va lizing shartnomasining bekor qilinishini talab etish (O'zR 13.12.2002- y. 447-II-son qonuni tahriridagi xatboshi);

- lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, o'zi ilgari avans

sifatida to'lagan to'lovlarni lizing obyektidan foydalanishdan olingan foydaning qiymatini chegirib tashlagan holda, qaytarib berishni talab qilish (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi xatboshi).

Uchinchi shaxs undiruvni lizing obyektiga qaratganda lizing oluvchi lizing shartnomasini bekor qilish va lizing obyektini mulk qilib olish bilan bir paytda lizing shartnomasi bo'yicha tegishli lizing to'lovlari qoldig'ini lizing beruvchining qolgan davrda oladigan daromadini chegirib tashlagan holda bir yo'la to'lashga haqli (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (oldingi tahririga qarang).

#### **Lizing oluvchi:**

- lizing obyektini qabul qilib olishi va undan lozim darajada foydalanishi, uni shartnoma shartlariga muvofiq saqlab turishi;

- lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lab turishi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, lizing obyektini o'z hisobidan joriy ta'mirlashi, uni saqlab turishga doir boshqa xarajatlar qilishi shart.

Lizing shartnomasi bekor qilinganda lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchidan qanday holatda olgan bo'lsa, shunday holatda, normal eskirish va taraflarning kelishuvida shartlashilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytarishi shart, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Lizing oluvchining lizing obyektini ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatishga doir huquqi va majburiyati sotuvchi bilan alohida tuzilgan shartnomada belgilanishi mumkin.

Lizing oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin (12-modda).

#### **Sotuvchining huquq va majburiyatlari**

Sotuvchi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni bajaradi.

Agar lizing shartnomasida yoki oldi-sotdi (mahsulot yetkazib berish) shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchining lizing oluvchiga nisbatan huquq va majburiyatlari lizing beruvchiga nisbatan huquq va majburiyatlaridek bo'ladi. Bunda lizing oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini bekor qilishga yoki uni haqiqiy emas deb topishga haqli emas (13-modda).

#### **Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi xususiyatlari**

Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib oladi.

Taraflarning xohishiga ko'ra lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin.

Lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini tuzish paytida lizing beruvchi lizing obyektini qaysi maqsadda olinayotganligidan sotuvchini oldindan xabardor qilishi, buni oldi-sotdi shartnomasida qayd etishi shart (14-modda).

#### **Lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi**

Lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishlidir.



Lizing shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar barcha lizing to'lovlari lizing beruvchining lizing shartnomasi muddati tugagunga qadar qolgan davrda oladigan daromadi chegirib tashlangan holda to'langan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (oldingi tahririga qarang).

**Operativ lizingni amalga oshirishda lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi asosida lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin.**

Lizing oluvchi bankrot bo'lgan, uning mol-mulki xatga olingan yoki musodara qilingan taqdirda, lizing obyektini lizing oluvchining umumiy mol-mulkidan ajratiladi va lizing beruvchiga qaytarilishi lozim, u mol-mulknini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishi mumkin. Lizing beruvchiga zararni qoplash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi (15-modda).

#### **Lizing beruvchi va lizing oluvchining o'z huquqlaridan uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi**

Lizing beruvchi lizing oluvchini xabardor qilgan holda lizing shartnomasi bo'yicha o'z huquqlaridan to'liq yoki qisman uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi mumkin.

Lizing oluvchi lizing beruvchining ruxsati bilan lizing shartnomasi bo'yicha o'z huquqlaridan to'liq yoki qisman uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi mumkin (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism), (oldingi tahririga qarang).

Lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing beruvchidan uchinchi shaxsga o'tganda, lizing oluvchi bilan tuzilgan lizing shartnomasi yangi mulkdor uchun o'z kuchini saqlab qoladi (16-modda).

#### **Lizing obyektini jadal amortizatsiya qilishni qo'llash**

Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'zaro kelishgan holda qonun hujjatlariga muvofiq lizing obyektini jadal amortizatsiya qilishni qo'llash huquqiga ega.

#### **Lizing obyektini sug'urtalash**

Nobud bo'lish, yo'qolish, o'g'irlash, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qanday yetkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing obyektini sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing obyektini sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi (17-18-modda).

#### **Lizing obyektini bilan bog'liq xavflar**

Lizing obyektini bilan bog'liq barcha xavflar, shu jumladan, uning tasodifan yo'qolishi (nobud bo'lishi) yoki tasodifan buzilishi, shuningdek, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanish xavflari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi. Xavflar lizing oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran lizing oluvchi lizing obyektini har qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi.

Agar xavflar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shartnomasida belgilangan bo'lmasa, xavflar lizing oluvchiga u lizing obyektini

olgan daqiqadan e'tiboran o'tadi.

Taklif etilgan lizing obyektini lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu lizing oluvchiga lizing obyektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizing oluvchi lizing obyektini olgunga qadar barcha xavflar lizing beruvchi zimmasida bo'ladi.

Sotuvchining nochorligi yoki lizing obyektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqlik xavflari lizing oluvchining zimmasida bo'ladi, lizing beruvchining sotuvchi yoki lizing obyektini tanlash yoki lizing beruvchi lizing oluvchining muayyan sotuvchini yoki lizing obyektini tanlashga g'ayriqonuniy tarzda majburlash hollari bundan mustasno (19-modda).

#### **Lizing shartnomasi bo'yicha ta'minlash**

Lizing shartnomasiga bog'liq ravishda sarflangan mablag'lar qaytarilishining kafolati sifatida lizing beruvchi lizing oluvchidan ta'minlash berilishini, shu jumladan garov, bank kafolati yoki uchinchi shaxsning kafilligi ko'rinishidagi ta'minlash berilishini talab qilishi mumkin.

#### **Lizing obyektidan garov sifatida foydalanish**

Lizing beruvchi lizing oluvchining oldindan roziligini olmay turib, lizing obyektidan garov sifatida foydalanish huquqiga ega emas (O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son qonuni tahriridagi qism).

Lizing oluvchi lizing obyektini garov sifatida ishlatishga haqli emas (20-21-moddalar).

#### **Lizing to'lovlari**

Lizing to'lovlari lizing beruvchiga lizing obyektini qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek, lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo'ladi.

Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

#### **Lizing oluvchidan pul summalarini talab qilib olish va lizing obyektini olib qo'yish**

Lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchidan pul summasini talab qilib olish va lizing obyektini olib qo'yish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonuni tahriridagi modda nomi), (22-23-moddalar).

#### **Lizing subyektlarining javobgarligi**

Lizing beruvchi mol-mulkni yetkazib bermaganlik, to'liq yetkazib bermaganlik, yetkazib berish muddatini o'tkazib yuborganlik va tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni yetkazib berganlik uchun, agar bu uning aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli bo'lsa, lizing oluvchining oldida javobgar bo'ladi.

Lizing beruvchi lizing oluvchi oldida lizing obyektini yuzasidan javobgar bo'lmaydi, lizing obyektini sotuvchisi va lizing obyektining o'zi lizing beruvchi tomonidan tanlangan va lizing oluvchi shu tufayli zarar ko'rganligi isbotlangan hollar bundan mustasno.

Lizing beruvchi va lizing oluvchi sotuvchiga nisbatan lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha solidar kreditorlar sifatida ish ko'radilar. Sotuvchi ular

oldida lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarish (lizing obyektining sifati, butligi, lozim darajada yetkazib berilishi va boshqalar) yuzasidan javobgar bo'ladi. Bunda sotuvchi lizing obyektini bilan bog'liq aynan bitta zarar uchun bir paytning o'zida lizing oluvchi va lizing beruvchi oldida javobgar bo'lishi mumkin emas (24-modda).

Operativ lizingni amalga oshirishda lizingga berilgan lizing obyektidan foydalanishga to'liq yoki qisman to'sqinlik qiluvchi kamchiliklar uchun lizing beruvchi javobgar bo'ladi. Bunday kamchiliklar aniqlangan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchidan ularning tekin bartaraf etilishini va lizing to'lovlari mutanosib ravishda kamaytirilishini yoki mazkur lizing obyektining kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog'liq o'z xarajatlarning qoplanishini talab qilishga haqli.

Lizing beruvchi lizing obyektining lizing shartnomasini tuzishda qayd etib o'tilgan kamchiliklari uchun javob bermaydi.

Lizing oluvchining aybi bilan lizing obyektining yo'qolishi yoki lizing obyektining o'z vazifasiga doir ahamiyatini yo'qotishi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, lizing oluvchini lizing beruvchi oldidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan, kichik biznesni zamonaviy texnologiya uskunalari bilan jihozlashda, shuningdek, mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlab chiqarilgan asbob-uskuna va texnikani sotishda lizing faoliyati rolini oshirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustda "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3122-sonli farmoni chop etildi** (Mazkur farmonga O'zR Prezidentining 08.01.2004-2014-y. PF-3376-son farmonlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).

**Mazkur farmonga binoan 2002-yilning 1-sentabridan boshlab:**

- lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan;
- lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

**Shuningdek:**

- lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadilar;
- lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, agar lizing oluvchi lizing shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, lizing beruvchining lizing oluvchidan lizing obyektini olib qo'yish tartibiga oid takliflarni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritilishi belgilab berilgan.

### **Lizingga xos bo'lgan asosiy xususiyat va xislatlari:**

1. Mulk va mulk ishlab chiqaruvchi(sotuvchi)ni tanlash huquqiga mulkdan foydalanuvchi ega.
2. Mulk sotuvchisi mulk lizingga berish uchun sotib olinayotganligini biladi.
3. Mulk mulk egasiga berilmasdan bevosita foydalanuvchiga beriladi va foydalanuvchi tomonidan ekspluatatsiya qilishga qabul qilinadi.
4. Mulkdan foydalanuvchi kamchilik va nuqsonlar aniqlangan holda o'z e'tirozlarini mulk egasiga emas, balki hech qanday shartnoma munosabatlari bilan bog'liq bo'lmagan sotuvchiga bevosita bildiradi.
5. Lizingga beruvchi mulkni o'zi foydalanish uchun emas, balki uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun atayin xarid qiladi.
6. Lizing shartnomasi amal qilayotgan davr mobaynida mulk lizingga beruvchining mulki hisoblanadi.
7. Mulk egasiga uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun haq to'lanadi.
8. Mulkdan foydalanuvchi muddatidan oldin yoki shartnoma muddati tugagach uni sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

### **Lizing xizmati bo'yicha belgilangan imtiyozlar:**

- lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan;
- soliq solinadigan daromadlar (foyda)ni aniqlashda lizingga oluvchilarning 2015-yil 1-yanvargacha lizingga olingan asosiy vositalar bo'yicha jami daromadidan amortizatsiya ajratmalari jami summasini, shu jumladan qonun hujjatlariga muvofiq tezlashtirilgan usul bilan hisoblangan summani chegirib tashlash huquqiga ega;
- lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan;
- lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadilar;
- lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

### **Lizingning qulayliklari:**

**Moliyalashtirishning uzoq muddatliliigi.** Lizing beruvchi lizing oluvchining resurslari va imkoniyatlarini unga o'z mablag'larini qo'shgan holda birlashtiradi. Bu esa lizingni bank kreditiga nisbatan uzoqroq muddatga berish imkonini yaratadi.

**Soliq bo'yicha imtiyozlar.** Lizing shartnomasi bo'yicha berilgan texnologik jihozlar QQS, bojxona to'lovlari va mulk solig'idan ozod qilinadi.

**Garovdan xalos bo'lish.** Lizingga mulk olib, Siz garov haqida qayg'urmasangiz bo'ladi.

**Yetkazib beruvchilarni tanlash.** Biz Sizning mulkingizni sotib olish, xalqaro kreditlash va yetkazib berishning eng qulay xalqaro yo'llarini ishlab chiqib ta'minlay olamiz.



## Lizing shartlari

Olish shartlari	Milliy valyutada	Xorijiy valyutada
Lizingga beriladigan asosiy vosita turlari	Chegaralanmagan	Importga keladigan jihozlar
Lizin oluvchiga talablar (mulk shakli, korxonahajmi va bosh.)	Chegaralanmagan	Chegaralanmagan
Lizing muddatlari		
Minimum	13 oy	13 oy
Maksimum	8 yil	8 yil
Lizing obyektining qiymati		
Minimum	Chegaralanmagan	10 000 AQSh doll.
Maksimum	1.3 mlrd. so'm	1 mln. AQSh doll.
Lizing ta'minoti (lizing obyektining qiymatiga nisbatan), %	minimum – 40%	minimum – 40%.
Yillik foizi	18 % dan boshlab	16 % dan boshlab
Komission yig'img'lar (lizing obyektining qiymatiga nisbatan), %	1 % gacha	1 % gacha
Boshqa shartlar	Lizing oluvchining loyihadagi ulushi 25 % kam bo'lmasligi kerak.	

## 7.2. Lizing turlari va lizing bitimlari mexanizmi

Respublikamizda lizingdan maqsadli foydalanishni amaliyotga kiritishni tashkil etishda uning turlari, shakllari va amalga oshirish usullarini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy lizing xizmatlari bozori bu turdagi xizmatlarning turli-tumanligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunining 5-moddasiga binoan (O'zR 13.12.2002-y. 447-II-son qonunidagi tahriri) lizing turlari bo'yicha moliyaviy va operativ lizinglarga bo'linadi.

**Moliyaviy lizingda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:**

- lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining lizing oluvchining mulkiga o'tadi;

- lizing shartnomasi muddati lizing obyektining xizmat muddatidan 80 foizdan ortiq bo'ladi yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etadi;

- lizing oluvchi lizing obyektini qat'iy belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega;

- lizing shartnomasi davridagi to'lovlarning umumiy summasi lizing obyektining qiymatining 90 foizidan ortiq.

Agar lizing shartnomasida ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan talablardan birortasi nazarda tutilmagan bo'lsa, lizingning bunday turi operativ lizing hisoblanadi. Operativ lizingni (ijarani) amalga oshirish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Lizingning uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan-to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib, bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan, qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, qonunning 6-moddasiga binoan qo'shimcha lizing turi ham kiritilgan.

Ushbu moddaga binoan lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan lizing obyektini lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo'shimcha lizingga topshirishga haqli. Bunda ushbu qonunning qoidalari qo'shimcha lizing shartnomasida qo'shimcha lizing beruvchiga, qo'shimcha lizing oluvchiga va sotuvchiga nisbatan muvofiq ravishda lizing beruvchiga, lizing oluvchiga va sotuvchiga bo'lganidek qo'llaniladi.

Qo'shimcha lizing shartnomasining amal qilish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Lizing turlari bitimda ishtirok etuvchilarning tarkibi, lizing obyektining xususiyatlari va ularning amortizatsiya shartlari, tomonlar majburiyatlari hajmi, mulkdan foydalanish muddati, bozor sektori, soliq imtiyozlari va lizing to'lovlari turlariga bog'liq ravishda turlarga ajratiladi (5-jadval).

#### 4-jadval


##### Asosiy lizing turlarining tasniflanishi

Belgilar	Tashkil etish shakli
Ishtirokchilar tarkibi	Bevosita, bilvosita, qaytib beriladigan, lizing ta'minotchi lizingi
Lizing obyekti	Harakatlanuvchan va ko'chmas mulk
Amortizatsiya shartlari	To'liq amortizatsiya, qisman amortizatsiya, jadal amortizatsiya
Majburiyatlar hajmi	Sof, to'liq va qisman, asosiy xizmatlar to'plami
Bozor sektori	Ichki, xalqaro-eksport, import, tranzit bozori
Soliq imtiyozlari	Haqiqiy, fiktiv
Bitim muddati	Moliyaviy-taqsimlash, guruhli, tezkor
Lizing to'lovi turlari	Pulli, kompensatsion, aralash

Lizing bitimlari muddati, lizing beruvchining majburiyatlari hajmi va lizing obyektlarining o'zini qoplash darajasiga ko'ra lizingning ikkita asosiy turi – **moliyaviy va tezkor lizingni** ajratib ko'rsatish mumkin.

Lizing rivojlanishning boshlang'ich bosqichida turgan O'zbekiston uchun ko'proq moliyaviy lizing xarakterlidir. U mulkni uning to'liq amortizatsiya muddatiga to'g'ri keluvchi uzoq muddatga ijaraga berishni ko'zda tutadi, ya'ni lizing muddati davomida mulkning to'liq qiymati to'lanadi.

**Moliyaviy lizing** boshqa lizing turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Moliyaviy lizingda mulkka xizmat ko'rsatish va sug'urtalash lizing oluvchi tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi hamda shartnomani muddatidan avval bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma muddati tugagach, foydalanuvchi mulkni sotib olishi, kelishuvni imtiyozli shartlarda yangilashi yoki munosabatlarni to'xtatishi mumkin (4- chizma).



**7-rasm. Moliyaviy lizing sxemasi**

Manba: Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy lizing quyidagi turlarga bo'linadi: **ko'chmas mulk lizingi, qaytuvchi lizing, bo'linma lizing va guruhli (aksionerlik) lizing.**

**Bo'linma lizing** yoki boshqacha qilib aytganda, qo'shimcha mablag'larni jalb qiluvchi lizing xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan. Uning asosiy maqsadi bir nechta kredit tashkilotlarini yirik lizing loyihalarini moliyalashtirish uchun birlashtirish hisoblanadi. U lizing beruvchining bitta (oddiy bo'linma lizing) yoki bir nechta (murakkab) kreditordan lizing mulkining 80 % qiymati miqdorida uzoq muddatli qarz olishini ko'zda tutadi. Bunda lizing beruvchi-qarzdor ssudaning to'liq va bir vaqtning o'zida qaytarilishi uchun javobgar bo'lmaydi, chunki ssuda bevosita qarz beruvchi tomonidan lizing to'lovlari hisobiga to'lanadi.


**Guruhli (aksiyadorlik) lizing** ham alohida ajralib turadi. Bu yerda lizing kompaniyasi rolini mulkni ishlab chiqaruvchi firmalarning lizing kompaniyalari yoki banklar bilan kooperatsiyasi bajaradi. Bu model asosan juda qimmat asbob-uskunalarini bozorga chiqarishda qo'llanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar hamkorlarni izlab topish va lizing obyektiga texnik xizmat ko'rsatishni, lizing kompaniyasi esa loyihalarning tashkiliy qismini ishlab chiqishni, ma'muriy masalalarni hal qilishni, maslahat xizmatlari ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

**Tezkor lizing** shartnoma muddati mulkning xizmat qilish muddatidan kam ekanligi bilan ajralib turadi. Shartnoma amal qilish muddati davomida lizing beruvchi faqat mulk qiymatining bir qisminigina to'laydi. Bu holda mulkning qoldiq qiymati yuqori bo'ladi va lizing beruvchi ushbu qiymatni qoplash uchun (ayniqsa talab bo'lmagan paytda) katta tavakkalchilikka uchraydi, chunki u mulkni bir necha bor foydalanishga topshirishi lozim bo'ladi.

Lizing ishtirokchilari tarkibi va lizing operatsiyalarini o'tkazishni tashkil etishga ko'ra **lizing bevosita, bilvosita, qaytma va ta'minotchi lizingi** kabi turlarga taqsimlanadi.

**Bevosita lizing** ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni lizing beruvchi sifatida


o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi mulkni ishlab chiqaruvchi korxonaga ishtirok etadi (5- chizma).



8-rasm . Bevosita lizing sxemasi

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Bilvosita lizing** mulkni vositachi orqali lizingga berishni ko'zda tutadi, ya'ni uch tomonlama klassik bitim imzolanadi yoki ishtirokchilar soni 4-7 kishi bo'lgan ko'p tomonlama bitim tuziladi(6- chizma).



9-rasm. Bilvosita lizing sxemasi

Manba: Muallif ishlanmasi.

Bevosita lizingning bir shakli sifatida **qaytmas lizingni** ko'rsatish mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqaruvchi mulkni lizing kompaniyasiga sotadi, kompaniya esa o'z navbatida mulkni xuddi shu korxonaning o'ziga ijaraga beradi, ya'ni mulk ishlab chiqaruvchi va lizing oluvchi bitta huquqiy shaxs hisoblanadi. Mazkur lizing turi moliyaviy ahvoli qiyin bo'lgan korxonalar uchun qiziqish uyg'otadi. Bitimni tuzar ekan, korxonaga band bo'lgan kapitalni mulkni sotish hisobiga vaqtincha ozod qiladi va mulkdan foydalanishni to'xtatmaydi. Shartnoma muddati tugagach, mazkur korxonaning mulkni qayta sotib olish imkoniyati ham nazardan chiqarilmaydi.

Lizingni mulkka xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha taqsimlash ham qiziqish uyg'otadi. Lizing "sof" (hech qanday qo'shimcha xizmat-siz), to'liq yoki noto'liq xizmatlar to'plamiga ega hamda bosh bo'lishi mumkin.

"Sof" lizingni amalga oshirishda lizingga olinuvchi mulkka xizmat



ko'rsatishni lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi, bunda mulkka xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar lizing to'lovlariga kiritilmaydi.

**To'liq xizmatlar to'plamiga** ega bo'lgan lizingning xususiyati shundaki, bunda lizing beruvchi tomonidan mulkka qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish – mulkka qarash, uni sug'urtalash, ba'zida esa zarur xomashyoni yetkazib berish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, marketing xizmati ko'rsatish va tayyor mahsulot reklamasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

**Xalqaro lizing** o'z navbatida quyidagicha tasniflanadi:

- import lizingi – lizing beruvchi xorijiy mamlakat hisoblanadi;
- eksport lizingi – lizing oluvchi xorijlik bo'ladi;
- tranzit lizing – bitimning uchala ishtirokchisi ham turli xil mamlakatlarda bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Lizing to'g'risida"gi qonuni va Soliq kodeksiga asosan quyidagi belgilarga amal qilinganda shartnoma lizing shartnomasi hisoblanadi:

- bitim amal qilish muddati davomida lizing obyektining huquqiy egasi lizing beruvchi, iqtisodiy egasi esa foydalanuvchi hisoblanadi;
- mulk egasi tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi, belgilangan imtiyozlarga ega bo'ladi hamda obyekt qiymatini to'liq yoki qisman moliyalashtiradi. Qo'shimcha xizmatlar lizing to'lovlari qatoriga kiritiladi;
- ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatidan 80 %dan ortiq bo'ladi;
- ijarachi asosiy vositalarni ijara muddati tugagach, qat'iy belgilab qo'yilgan narxda yoki ijara tugagach, belgilanuvchi narxda sotib olish huquqiga ega;
- ijara muddati tugagach, ijaraga olinuvchi vositalarning qoldiq qiymati ularning dastlabki qiymatining kamida 20 foizini tashkil etadi;
- butun ijara davri bo'yicha joriy to'lovlar miqdori ijaraga olinuvchi vositalarning 90 %idan ortiq bo'ladi.

**Pulli lizing** – bunda to'lovlar pul shaklida amalga oshiriladi.

**Kompensatsion lizing** foydalanilayotgan asbob-uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yetkazib berish yoki boshqa turda xizmat ko'rsatishni ko'zda tutadi. Respublikamiz qishloq xo'jaligida bu lizingning eng maqbul shakli hisoblanadi, chunki ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari uchun lizing obyektlari yordamida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan haq to'lash fermerlar manfaatlariga ham javob beradi.


**Aralash lizing** pulli va kompensatsion to'lovlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Lizing bitimlari hajmiga ko'ra **kichik, standart (o'rtacha)** va **yirik** lizing turlariga taqsimlanadi.

Mayda lizing predmeti asosan noishlab chiqarish mulki – kompyuterlar, idora texnikasi, telefon stansiyalari, xavfsizlik tizimi va shu kabilardan iborat bo'ladi.

O'rtacha lizing qiymati 200 ming so'mdan 2,5 million so'mgacha bo'lib, narx bo'yicha eng ommaviy mulk turlari – turli xil mini-zavodlar, texnologik asbob-uskunalariga mos keladi.

## Yangi lizing loyihalarining viloyatlar kesimidagi ulushi, %



Manba: [www.ula.uz.fppt.com](http://www.ula.uz.fppt.com)

### 7.3. Lizing loyihasining iqtisodiy samaradorligini moliyaviy baholash usullari

Lizing to'lovlari o'z tarkibiga shartnomada ta'kidlangan mulkning to'la yoki qisman holdagi qiymatini hamda ko'rsatilgan lizing xizmati va qo'shimcha servis xizmatlari to'lovini oladi.

Natijada lizing beruvchida tijorat nuqtayi nazaridan lizing bitimi quyidagicha bo'ladi:

Lizing beruvchining kelishuv asosidagi umumiy xarajatlari quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

$$L_T = B_q + K_T + K_T \quad (1)$$

$K_T$  – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

$q_T$  – qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov, so'mda;

$B_q$  – lizing shartnomasi predmeti hisoblangan mulkning balans qiymati, so'mda.

Lizing bitimi asosida lizing oluvchining lizing to'lovlari xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$L_T = A + K_T + K_{oT} + q_T + QQS + B_B \quad (2)$$

Bunda,

$A$  – lizing beruvchida joriy yilda hisobga olinadigan amortizatsiya ajratmalari miqdor o'lchovi, so'mda;

$K_{oT}$  – lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli, so'mda;

**QQS** – lizing beruvchi xizmatlari bo'yicha lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, so'mda;

**B<sub>B</sub>** – bojxona boji, so'mda;

**K<sub>T</sub>** – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

**q<sub>T</sub>** – qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov, so'mda.

Ma'lumki, lizing beruvchining mulkdan foydalanish xarajatlari lizing to'lovlari asosida to'liq kompensatsiyalanmaydi, ya'ni qoplanmaydi. Kompensatsiya summasi shartnoma muddati va mulk amortizatsiyasi muddatiga bog'liq holda shartnomada oldindan belgilangan bo'ladi. Agar amortizatsiya muddati shartnoma muddatidan oshib ketsa, bunda mulkning amortizatsiya muddati tugashiga qadar lizing beruvchida qoldiq qiymatida o'z mulki bo'lib qolaveradi. Komission mukofot to'lovi lizing beruvchi xarajatlarini qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi. Lekin bu aniq bitim bilan bog'liq emas va foyda manbaini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 28-avgust 2002-yil №PF-3122-sonli "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan, kichik va o'rta biznesni zamonaviy texnologiya uskunalari bilan jihozlashda, shuningdek, mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlab chiqarilgan asbob-uskuna va texnikani sotishda lizing faoliyati rolini oshirish maqsadida chiqarilgan zaruriy me'yoriy hujjati mamalakatimiz lizing munosabatlarini rivojlantirishda yangicha bosqichni boshlab berdi.

5-jadval

**O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi  
bo'yicha ma'lumot**

Yillar	Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarda lizing ulushi, %	YAIM da lizing ulushi, %	Lizing portfelining YAIM dagi ulushi, %
2005-y.	3,7	0,6	0,9
2006-y.	4,2	0,6	1,2
2007-y.	3,9	0,8	1,2
2008-y.	4,2	1,0	2,2
2009-y.	3,2	0,8	2,3
2010-y.	2,7	0,7	1,8
2011-y.	2,7	0,6	1,6
2012-y.	2,7	0,6	1,3
2013-y.	2,8	0,7	1,3
I/2015-y.	2,5	0,6	3,2

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

Ushbu farmonga ko'ra 2004-yilning 1-sentabridan boshlab lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan, lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi

hududiga olib kelinadigan texnologiya va uskunalari vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda boj to'lovlari va sotishga soliqlardan ozod qilindi.

Belgilab qo'yildiki, 2002-yilning 1-sentabridan boshlab lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadilar; lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

### **Lizingning iqtisodiy samaradorligini baholash**

Muayyan lizing operatsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun iqtisodiy adabiyotlarda hisob-kitoblarning bir necha xil variantlari tavsiya qilinadi. V.Maslennikovning fikricha, zarur hisob-kitoblarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirish zarur:

1. Kredit shartlarida lizing xaridining moliyaviy samaradorligini taqqoslash uchun **lizingni moliyalashtirish stavkalari hisob-kitobi**, quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$C = \frac{(LP - A)}{[0,5 \times (SP - Co)] \times 100},$$

bu yerda:

S – lizingni moliyalashtirish stavkalari (soliq to'lanmasdan avval foizlarda);

LP – lizing to'lovi;

A – lizing obyektining yillik amortizatsiyasi;

SP – lizing obyektining boshlang'ich qiymati;

So – lizing muddati tugaganda lizing oluvchining lizing obyekti sotib olinuvchi qoldiq qiymati.

2. **Lizingdan olinuvchi o'rtacha foyda normasi hisob-kitoblari** quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$H_{pl} = \frac{[D - (LP - P)]}{[0,5 \times (Sp + So)],}$$

bu yerda:

Npl – lizingda foyda normasi;

D – yillik yalpi daromad;


P – lizing beruvchiga to'lanuvchi foizlar miqdori.

A.Smironov lizing samaradorligini baholashning amerikacha uslubiyatidan foydalanishni taklif qiladi. Hisob-kitoblar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- mulkni kredit shartlarida va lizingga sotishda mulk qiymatini solishtirish;
- bitimni moliyalashtirish stavkalari variantlarini hisoblash;
- ushbu mulk egasining uni ekspluatatsiya qilishdan kelib tushuvchi tushumni bu mulkdan lizing shartlarida foydalanishdan olinuvchi foyda miqdori bilan solishtirish.

Birinchi holatda lizingga beriluvchi mulk qiymatini uni kredit asosida sotib olishdagi qiymati bilan solishtirish quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:





$C_{LI} = \frac{P_1 - (Cr_2 + D) : t}{T_3} + Sqold.$ <p><b>bu yerda:</b>  <b>C<sub>1</sub></b> – lizing bo'yicha qiymati  <b>Sr<sub>2</sub></b> – investitsiyalarga soliq krediti  <b>P<sub>1</sub></b> – lizing bo'yicha har yillik to'lovlar  <b>D</b> – lizing oluvchining chegirmalari  <b>t</b> – lizing shartnomasi amal qilish muddati  <b>T<sub>3</sub></b> – daromad solig'i  <b>Sqold.</b> – lizing obyektining qoldiq qiymati</p>	$C_{K} = C_0 + \frac{P_1}{T_1} - T_2$ <p><b>bu yerda:</b>  <b>S<sub>k</sub></b> – kredit asosida xarid qiymati  <b>P<sub>1</sub></b> – foizlar bo'yicha to'lovlar  <b>S<sub>0</sub></b> – tovar qiymati  <b>T<sub>1</sub></b> – daromad solig'i  <b>T<sub>2</sub></b> – jadal amortizatsiya bo'yicha soliq krediti</p>
--	--

Manba: Muallif ishlanmasi.

Ikkinchi holatda moliyaviy lizing stavkalarini hisoblash eng qulay variantni aniqlash maqsadida kreditorlar taklif qilayotgan sharoitlarni lizing taklifi sharoitlari bilan solishtirish uchun amalga oshiriladi.

#### 7.4. Lizing to'lovlari hajmini aniqlash usullari.

##### Forfeyting – uning mazmuni va amalga oshirilish tartibi

Lizing to'lovlari hajmini hisoblash lizing turi, to'lovlar shakli va usuli, shuningdek, iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, ya'ni barqaror rivojlanish va inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Odatda, lizing to'lovlari hisob-kitob qilinganda, qat'iy belgilangan umumiy to'lov summasi bo'yicha to'lovlardan foydalaniladi. Bu holda, lizing to'lovi o'z ichiga – amortizatsiya chegirmalari, qarzga olingan vositalar uchun to'lovlar, lizing kompaniyasi marjasi, bitim bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar va lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarini kiritadi.

Hozirgi kunda lizing kompaniyalari amaliyotida amortizatsiya chegirmalari o'miga lizing kompaniyalari vositalarini qaytarish summasi (lizing obyekt qiymati) foydalaniladi. Avans to'lovli lizingni hisoblashda lizing kompaniyasi marjasi lizing obyektining qoldiq qiymatidan hisoblanadi. Lizing to'lovi (plata) bu lizing muddati davomida to'lanuvchi barcha lizing to'lovlari va lizing oluvchi mulkni sotib olganda to'lashi lozim bo'lgan summa yig'indisidir. Qoidaga ko'ra moliyaviy, qaytuvchi lizing – umumiy lizing to'lovlari tarkibiga kiritiladi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan (1997-yil 29-martdagi 11-sonli bayonnoma (2005-2012-y. yangi tahrirda) "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi" da o'z aksini topgan lizing to'lovlarini hisoblash ko'rsatilgan.

**Lizing to'lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:**<sup>31</sup>

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan (1997-yil 29-martdagi 11-sonli bayonnoma), (2005-2012-y. yangi tahrirda).

$$A = S \times N / 100\% \times T$$

S – lizing obyektining balans qiymati;

N – to‘liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya chegirmalari normasi;

T – lizing muddati (yillarda).

**Lizing kompaniyaning vositalarni (mablag‘) jalb qilganlik uchun haq to‘lash:**

$$Pkr = Kr \times Skr / 100\%$$

**bu yerda:**

Pkr – jalb etilgan mablag‘lar uchun haq to‘lash;

Kr – kredit summasi;

Skr – kreditdan foydalanish stavkasi.

**Lizing kompaniyasi marjasi:**

$$Pkom = Kr \times Skom / 100\%$$

**bu yerda:**

Pkom – lizing kompaniyasi marjasi;

Skom – lizing kompaniyasi stavkasi.

**Lizing beruvchining qo‘shimcha xizmatlari Pu o‘z ichiga lizing beruvchining bitim bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish hamda lizing obyektini sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni kiritadi.**

**Lizing shartnomasi bo‘yicha jami lizing to‘lovlari summasi (LP):**

$$LP = A + Pkr + Pkom + Pu$$

Qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi “Lizing tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoniga asosan (lizing kompaniyalari lizing muddati davomida QQSdan ozod qilinadi) jami lizing to‘lovlari summasiga kiritilmaydi.

Har choraklik –  $LV = LP / 4$

Har oylik –  $LV = LP / 12$

Bu yerda: LV – davriy lizing to‘lovi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hisob-kitob uslubiyati bilan bir qatorda respublikamiz lizing kompaniyalari mutaxassislari o‘z faoliyatida oddiy bank kreditlari bo‘yicha hisob-kitoblarga o‘xshash bo‘lgan boshqacha yondashuvdan ham foydalanadilar. Lizing to‘lovlari to‘lov vaqti bo‘yicha hisoblanadi hamda o‘z ichiga lizing kompaniyasi marjasi, marjaga hisoblanuvchi ++S va lizing obyektini qiymatining qaytimini kiritadi.

Lizing obyektini qiymatining qaytimi uning qoldiq qiymati qaytuvini va unga nisbatan hisoblangan amortizatsiyani o‘z ichiga oladi.

**Lizing to‘lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:**

$$A = (S \times N \times D) / 12$$

**bu yerda:**

A – lizing obyektiga hisoblangan amortizatsiya;

S – lizing obyektining balans qiymati;

N – lizing obyektini to‘liq qayta tiklash uchun amortizatsiya chegirmalari normasi;

D – ketma-ket lizing to‘lovlari o‘rtasidagi davr, oylarda.

Lizing obyektining qoldiq qiymati ( $V$ ), lizing obyektining balans qiymati ( $S$ ), va to'plangan amortizatsiya summasi ( $A \times N$ ) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Lizing obyektining qoldiq qiymatini taqsimlash lizing operatsiyasi ishtirokchilari – lizing beruvchi va lizing oluvchining kelishuvchi asosida amalga oshiriladi.

$$V_n = V, \text{ bunda } N = T / D \text{ va } B = C - A \times N$$

Bu yerda:

$V$  – lizing obyektining qoldiq qiymati;

$B_n$  – lizing to'lovlarining  $n$ -yilida lizing obyektini qoldiq qiymatining bir qismi;

$T$  – lizing muddati (yillarda);

$N$  – jami lizing to'lovlari soni.

**Lizing kompaniyasi marjasi:**

$$M_n = S_{kom} \times (S - A \times (n - 1) - V)$$

bu yerda:

$M_n$  –  $n$ -lizing to'lovida lizing kompaniyasi marjasi;

$S_{kom}$  – lizing kompaniyasi marjasi.

**Lizing kompaniyasi marjasiga hisoblanuvchi qo'shilgan qiymat solig'i (agar kompaniya KKSdan ozod qilinmagan bo'lsa):**

$$N_n = S_n \times M_n$$

bu yerda:

$N_n$  –  $n$ -lizing to'lovidagi marjaga QQS;

$S_n$  – QQS stavkasi.

**Jami  $n$ -lizing to'lovi:**

$$LP_n = A + M_n + N_n + V_n$$

bu yerda:  $LP_n$  –  $n$ -lizing to'lovi.

Shu tariqa lizing shartnomasi bo'yicha jami lizing to'lovlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$LP = LP_n.$$

Lizing to'lovlari summasini hisoblashda boshqa usullari ham qo'llaniladi. Masalan, lizing to'lovining miqdorini mulk qiymati va koeffitsiyentlar orqali aniqlasa bo'ladi.

$$L_p = B, \times a_1 \times a_2 \times \dots \times a_n$$

Bu yerda:  $a_1, 2...n$  – lizing bitimi shartlarini bog'liqligini ta'minlaydigan koeffitsiyenti.

To'lovlarni chiziqli grafik bo'yicha amalga oshirilsa, asosiy koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:<sup>32</sup>

$$a = \frac{S_{kom}/m}{1 - 1/(1 + S_{kom}/m)^N}$$

bu yerda:

$S_{kom}$  – moliyalashtirish stavkasi, %;

$m$  – yildagi to'lovlarni soni;

$N$  – lizing muddati davomida to'lovlarni umumiy soni:  $N = m \times T$ .

Mulknin qoldiq qiymatini hisobga olgan holda lizing to'lovlarni koeffitsiyenti quyidagi tenglama asosida aniqlanadi:

<sup>32</sup> Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. С. 263-267.

$$a_1 = \frac{1}{1 + \text{Bos} \times 1(1 + \text{Skom}/m)^N}$$

bu yerda:

**Bos** – mulkni balans qiymatidan qoldiq qiymati, %.

Agar, avans to‘lansa, bunda lizing to‘lovlari miqdorini koeffitsiyenti

$$a_2 = 1/(1 + \text{Skom}/m) \text{ aniqlanadi.}$$

Birinchi to‘lovini lizing oluvchi keyinroq to‘lanadigan bo‘lsa, lizing to‘lovlari miqdori quyidagi koeffitsiyent orqali hisoblanadi.

$$a_3 = 1/(1 - \text{Skom}/m)^{N-t}$$

Bu yerda: **t** – yillar muddati.

Shu tariqa, lizing to‘lovlarni tenglamasi quyidagicha:

$$LP = B_s \times (\text{Skom}/m) / [1 - 1/(1 + \text{Skom}/m)^N] \times 1 [(1 + \text{Bos} \times 1/(1 + \text{Skom}/m)^N) / (1 + \text{Ckom}/1)]$$

Yuqorida ko‘rsatilgan usulni misolda ko‘rib chiqamiz. Masalan, lizing mulkining qiymati (**B<sub>s</sub>**) 1000 ming so‘m, shartnoma muddati (**T**) 5 yil, foizli stavkasi (**S<sub>kom</sub>**) 15 %, lizing to‘lovlari har chorakda amalga oshiriladi va 71.96 ming so‘mga teng.

$$L_p = (1000 \times 0,5/4) [1 - 1/(1 + 0,15/4)^{20}] = 71,96 \text{ ming so‘m}$$

Lizing oluvchi tanlagan qoldiq qiymati 3% tashkil etib, 70,94 ming so‘mga teng.

$$L_p = 71,96 [1/(1 + 0,03)] \times [1(1 + 0,15/4)^{20}] = 71,96 \times 0,98584 = 70,94 \text{ ming so‘m}$$

Agar lizing shartnomasida avans ko‘rsatilgan bo‘lsa, to‘lovga quyidagi koeffitsiyent kiritiladi:  $a_2 = 1/(1 + 0,15/4) = 0,9639$ .

Umuman olganda, lizing to‘lovi 68,38 ming so‘mni (70,94 x 0,9639) tashkil etadi (2 va 3-jadvallar).

6-jadval

Lizing to‘lovlarni o‘zgarilmaydigan varianti

Yillar	Mulkning qoldiq qiymati (Bos – gr.5)	Lizing to‘lovlari (LP)	Foizlar (gr.2 x 0,15/4)	Mulkni qoplash qiymati (gr.3-4)
1-yil	2	3	4	5
1 chorak	1000,0	68,38	-	68,38
2 chorak	931,62	68,38	34,94	33,44
3 chorak	898,18	68,38	33,66	34,72
4 chorak	863,46	68,38	32,16	36,22
Jami: 1-yil		273,52	100,76	172,76
2-yil		273,52	115,50	158,02
3-yil		273,52	90,43	183,09
4-yil		273,52	61,38	212,14
5-yil		273,52	27,73	245,79
Qoldiq qiymati	28,46	29,53	1,07	28,20
5 yildagi jami		1397,13	397,13	1000,00

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)



## Boshlang'ich davrida lizing to'lovlari oshirilgan varianti

Yillar	Mulkning qoldiq qiymati (Bos – gr.5)	Lizing to'lovlari (LP)	Shu jumladan	
			Foizlar (gr.2 x 0,15/4)	Mulkni qoplash qiymati (gr.3-4)
1	2	3	4	5
I chorak	1000,0	127,80	—	127,87
II chorak	872,13	63,90	32,20	31,70
III chorak	840,06	63,90	31,53	32,37
IV chorak	808,06	63,90	30,32	33,58
Jami:				
1-yil		319,51	94,56	225,92
2-yil		255,61	108,22	147,39
3-yil		255,61	83,71	171,62
4-yil		255,61		197,87
5-yil		255,61	26,36	228,26
Qoldiq qiymati	29,74	30,85	1,11	29,34
5 yildagi jami		1372,80	372,80	1000,00

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

Lizing to'lovlarni hisoblashda boshqa variantini ham qo'llash mumkin:

$$a_1 = (0,15/4) / [1 - 1(1 + 0,15/4)^{20+1}] = 0,0696448;$$

$$a_2 = 1/[1 + 0,03 \times 1(1 + 0,15/4)^{20+1}] = 0,986342;$$

$$a_3 = 1/[1 + (2 \times 0,15/4)] = 0,930232.$$

$$Lp = 1000 - 0,986342 \times 0,930232 \times 0,0696448 = 63,90 \text{ ming so'm}$$

Agar lizing shartnomasi asosida lizing oluvchining birinchi yarim yildagi to'lovi ko'chirtirilsa, bunda lizing beruvchining foizi ko'tariladi va to'lovlari 86.8 ming so'mga oshadi (4-jadval).

## Lizing to'lovlari ko'chirtirilgan varianti

Yillar	Mulkning qoldiq qiymati (Bos – gr.5)	Lizing to'lovlari (LP)	Shu jumladan	
			Foizlar (gr.2 x 0,15/4)	Mulkni qoplash qiymati (gr.3-4)
1	2	3	4	5
I chorak	1000,0	-	-	-
II chorak	1037,50	-	-	-
III chorak	1076,40	76,36	40,36	36,00
IV chorak	1040,40	76,36	39,01	37,35
chorak	1003,05	76,36	37,61	38,75
chorak	964,30	76,36	36,16	40,20
Jami:				
1-yil		305,44	153,15	152,30
2-yil		305,44	128,99	176,45
3-yil		305,44	101,00	204,44
4-yil		305,44	68,56	236,88
5-yil		305,44	30,44	274,46
Qoldiq qiymati	31,89	33,08	1,19	31,89
5 yildagi jami		1560,28	483,88	1076,40

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

Lizing to'lovlari diskont ko'paytmasi (mnojitel) orqali aniqlanadi:  $a = (1 + 0,15/4)^{20} = 1,0764$ . Umumiy lizing to'lovi:  $LP = 1000 \times 1,0764 = 1976,40$  ming so'mga teng bo'lib, lizing to'lovi  $LP = 1000 \times 0,07196 \times 0,98584 \times 1,0764 = 76,36$  ming so'mni tashkil etadi.

Lizing mulk qiymatining teng qismida qoplansa, korxonada 5 yil muddatda 1000 ming so'mni, amortizatsiya normasi 20 %, avans to'lovi 100 ming so'm, foizli kredit stavkasi 20 %, lizing beruvchining foizi – 5 % hisobga olgan holda, lizing to'lovlari 1542 ming so'mga teng bo'ladi (5 va 6-jadvallar).

9-jadval

Lizing muddati davomida mulkning qiymati

Mulk qiymati (ming so'm)	Yillar				
	1	2	3	4	5
Yil boshiga ( $O_{sp}$ )	1000	800	600	400	200
Yil oxiriga ( $O_{sk}$ )	800	600	400	200	100
o'rta yillik ( $B_s$ )	900	700	500	300	

10-jadval

Lizing to'lovlarning aniqlanishi

Yillar	Amortizatsiya (AO)	Kredit to'lovlari ( $P_k$ ) ( $B_s \times 2\%$ )	Komission to'lovlari ( $Skom$ ) ( $B_{ss} \times 5\%$ )	Tushum (V) (gr. 3 + gr. 4)	Lizing to'lovlari (LP) (gr.2+gr.3+gr.4+gr.5+gr.6)
1	2	3	4	5	6
1-yil	200	$180=900-0,2$	$45=900 \times 0,05$	$225=180+25$	$470=200+180+45+45$
2-yil	200	$140=700-0,2$	$35=700 \times 0,05$	$175=40+35$	$410=200+140+35+35$
3-yil	200	$100=500-0,2$	$25=500 \times 0,05$	$125=100+25$	$340=200+100+25+15$
4-yil	200	$60=300-0,2$	$15=300 \times 0,05$	$75=60+15$	$284=200+60+15+9$
5-yil	200	$20=100-0,2$	$5=100 \times 0,05$	$25=20+5$	$230=200+20+5+5$
Jami	1000	500		625	1734

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

### 3. Lizing bitimini tugatish tartibi va shartlari

Agar lizing kelishuvi lizing beruvchining tashabbusi bilan to'xtatiladigan bo'lsa, bu holda lizing kelishuvida ko'zda tutilgan qoidalar asosida lizing oluvchi lizing beruvchiga bitimni yopish qiymatini to'lashi zarur. Bitimni yopish summasi kelishuvda ko'rsatilgan vaqt ichida to'lanishi lozim. Lizing oluvchining lizing to'lovlari summasini kiritish majburiyati lizing beruvchi bitimni yopish summasini olgandan so'ng bajarilgan hisoblanadi. Bitimni yopish summasiga quyidagilar kiradi:

1. Lizing beruvchiga lizing kelishuvi bo'yicha to'lanmagan barcha lizing to'lovlari summasi ( $P_n$ ), quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$P_n = P_n - P_f,$$

bu yerda:  $P_f$  – amalda kiritilgan lizing badallari.

2. Lizing kelishuvida ko'zda tutilgan lizing muddati tugash davrida lizing obyektining qoldiq qiymati:

$$S_o = S - A,$$

bu yerda:  $S_o$  – lizing obyektining qoldiq qiymati;  $S$  – lizing obyektining balans qiymati;  $A$  – amortizatsiya chegirmalari.

3. Jarima (neustoyka), quyidagicha aniqlanadi:

$$N = S_s \times (Stk/100 + Skom/100)$$

Bu yerda:  $S_s$  – lizing shartnomani to'xtatish vaqtidan lizing obyektining o'rta qiymati;  $Stk$  – kredit bo'yicha foizli stavkasi; lizing beruvchining foizli stavkasi.

Lizing bitimining yopilish summasi hisobini misolda ko'rib chiqamiz. Lizing shartnomasining shartlari: mulk qiymati 160,0 mln.so'm; muddati 6 yil; amortizatsiya ajratmalarining normasi – 10 %; kredit bo'yicha foizli stavkasi – 20 % yiliga; komission stavkasi – 12 % yiliga; lizing beruvchining qo'shimcha xizmatlar summasi 4,2 mln. so'm; QQS stavkasi 20 %. Lizing oluvchi muddat tugagach, mulkni qoldiq qiymati bo'yicha sotib oladi. Lizing to'lovlari teng qismda har yili to'lanadi. Umumiy lizing to'lovi – 231,8 ming so'mga teng bo'lib, yildagi to'lov – 40,36 ming so'mni tashkil etadi.

Oldin lizing shartnomasi tugagan vaqtdan mulkning o'rta yillik qiymatini hisoblaymiz (7-jadval).

11-jadval

Lizing obyektini o'rta yillik qiymati

Yillar	Mulk qiymati yil boshiga ( $S_n$ )	Amortizatsiya ajratmalari	Mulk qiymati yilning oxirida ( $S_k$ )	O'rta yillik qiymati ( $S_s$ )
1-yil	160,0	16,0	144,0	152,0
2-yil	144,0	16,0	128,0	136,0
3-yil	128,0	16,0	112,0	120,0
4-yil	112,0	16,0	96,0	104,0
5-yil	96,0	16,0	80,0	88,0
6-yil	80,0	16,0	64,0	72,0
Oxirgi 3 yildagi jami	-	-	-	264,0

Manba: [www.ula.uz](http://www.ula.uz)

Jarima ( $N$ )  $N = 264 \times (20\%/100 + 12\%/100) = 84,48$  ming so'mni tashkil etadi. To'lanmagan lizing to'lovlari summasi:

$$P_n = 231,8 - 40,36 \times 3 = 110,82 \text{ ming so'm}$$

Uskunani qoldiq qiymati  $S_o = 160 - 16 \times 6 = 160 - 96 = 74$  ming so'mga teng. Bitimni yopilish summasini hisoblashda keltirilgan ko'rsatkichlarni qo'shib chiqamiz.

$$Z = P_n + S_o + N$$

$$Z = 84,48 + 110,8 + 74,0 = 269 \text{ ming so'm.}$$

Lizing kelishuvi shartlari bo'yicha lizing muddati tugagach, asbob-uskunalar lizing oluvchi tomonidan sotib olinmaydi, shu sababli lizing obyektining qoldiq qiymati mavjud emas.

**Forfeyting** – uning mazmuni va amalga oshirilish tartibi:

**Forfeyting** (fransuzchadan tarjima qilinganda – jami, umumiy summasi bilan degan ma'noni anglatadi) tijorat kreditini bank kreditiga aylantirishning formasi

hisoblanadi va sotib oluvchida qandaydir bir mahsulotni sotib olish uchun kerakli mablag'lar yo'q bo'lgan sharoitda qo'llaniladi.

**Forfeyting** – o'rtacha muddatli veksellar, tovar yetkazib berishda vujudga keladigan boshqa qarz va to'lov hujjatlarini maxsus kredit instituti (forfeytor) tomonidan eksportchiga regress huquqisiz unga yetarli darajada ta'minot taqdim etgan holda naqd pulga xarid qilinishidir.

Uzoq muddatli majburiyatlar uchun faktoring operatsiyasiga o'xshash operatsiyalarni o'tkazish zarurati forfeyting paydo bo'lishiga olib keldi. Dastlabki ixtisoslashgan forfeyting kompaniyasi — FinanzAG (STyurix) — 1965-yil paydo bo'ldi.

Eksportchiga regressiz qarz majburiyatlarini sotib oladigan kompaniya forfeyting kompaniyasi yoki forfeyter deb nomlanadi. Forfeyter riskning barcha turlarini o'z zimmasiga oladi. Eksportchi talablarning huquqiy jihatlarini ta'minlash uchun, masalan, talablarni forfeyterga berishni to'g'ri amalga oshirish uchun javob beradi. Odatda, forfeyting mashina va asbob-uskunalar sotishda qo'llanadi. Bu shartnomalar o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lib, yirik mablag'lar hisobiga tuziladi. Shu sababli forfeytingda qo'llanadigan minimal summa 250 ming AQSh dollaridan kam bo'lmaydi; o'rtacha shartnoma summasi 1-2 million AQSh dollari tashkil qiladi. Shu tariqa eksportchi olgan mablag'lar hajmi oddiy tijorat krediti hajmidan katta bo'ladi, lekin shu bilan bir paytda, mashina va asbob-uskunalar yirik partiyasi yetkazib berishini ta'minlovchi xaridorga kredit miqyosiga yetmaydi. Forfeyting ular o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Kattaroq mablag'larga talablarni sotib olish faqat forfeytorlar konsorstiumi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Siyosiy risklar mavjud bo'lishi tufayli hamma mamlakatlarning importchilari ham forfeytingda qatnasha olmaydi.

**Forfeytinglash eksportchiga qator sezilarli afzalliklar beradi:**

- eksportchining likvidlik bo'yicha pozitsiyasi yaxshilanadi, chunki firma darhol naqd pul oladi;
- eksportchi valyuta, kredit, foiz risklaridan ozod bo'ladi;
- firma balansida uzoq muddatli talablar kamayadi, bu uning raqobatbardoshligi o'sishiga olib keladi;
- kreditni to'lash va to'lovlar inkassastiyasi bo'yicha ishlarni nazorat qilish zarurati yo'qoladi;
- forfeyting eksportchining overdraft bo'yicha yoki bank taqdim etadigan boshqa kreditlar bo'yicha limitiga ta'sir etmaydi.

**Forfeytingning kamchiliklari quyidagilar:**

1) qiymatning yuqoriligi: forfeytinglash bo'yicha kreditlar stavkalari bo'yicha oddiy stavkalardan ancha katta, chunki forfeyter barcha risklarni o'ziga oladi. Forfeytinglash bo'yicha xarajatlar quyidagilardan tashkil topadi:

- bank kafolatlari yoki veksell bo'yicha aval olish xarajatlari;
- siyosiy tahdid uchun tahdid mukofoti;
- Yevrobozorda foiz stavkalariga bog'liq bo'lgan pul mablag'larini mobilizastiyalash xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;



- bitim tuzish va hujjatlarni taqdim etish o'rtasidagi vaqt farqini tashkil qiluvchi forfeyter komissiyasi.

Shunday qilib, hisob stavkasi mamlakat riskiga qarab yillik 10 %ga yetishi va undan ortishi mumkin. Biroq kreditlashning bu shakli qiymatini davlat sug'urta muassasalari kafolati ostida berilgan oddiy eksport kreditlari qiymati bilan taqqoslashda sug'urta mukofotlari, shuningdek, kreditni tashkil qilish va boshqarish uchun bank yig'implarining yo'qligini hisobga olish zarur.

2) eksportchi uchun forfeyter sifatida harakat qilish istagida bo'lgan bankni topish qiyinligi.

Eksportchi uchun forfeyting jarayoni juda oddiy. Veksellarni sotish – ularga o'tkazma qaydi va rekvizitlar ko'rsatilgan, yetkazib berish muddati va hisob stavkasi qayd etilgan oddiy hujjat bilan rasmiylashtiriladi. Veksellar – xaridor mamlakati bankining avali bilan, boshqa talablar esa bank kafolati bilan bo'lishi lozim.

Forfeyting tezkorligi uni xuddi shunday muddat va hajm bilan tavsiflanadigan, lekin kreditni sug'urtalash va operatsiya qatnashchilari o'tasida qator maxsus bitimlar tayyorlashni nazarda tutadigan eksport kreditining boshqa shakllaridan foydani ajratib turadi.

Eksport talablarini forfeytinglash uchun quyidagi shartlarga amal qilish zarur:

- 1) eksport talabi qaytimli va inkor eta olmaydigan bo'lishi lozim;
- 2) veksellar importchiga oddiy, tratta kam foydalaniladigan bo'lishi lozim;
- 3) vekselda xaridor mamlakati bankining avali bo'lishi, boshqa talablar bank kafolati bilan bo'lishi lozim;
- 4) agar importchining to'lov layoqati shubha ostida bo'lsa, forfeyter uchinchi mamlakat bankining kafolati yoki avalini talab qilishi mumkin;

5) eksportchi veksellarni bo'yicha javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Bu holatda oddiy vekselda "Regressiz" yoki "Majburiyatsiz" yozuvi kiritiladi, o'tkazma veksellarga eksportchining javobgarlikdan ozod etilgani haqida maxsus hujjat ilova qilinishi mumkin.

### Xulosa

Lizing – ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va keyinchalik ijaraga berish yo'li bilan, vaqtinchalik foydalanishga berish bilan bog'liq bo'lgan mulkchilik munosabatlari majmuasidir, ya'ni lizing mablag'larni qaytarish asosida kiritishni aks ettiradi.

Lizing faoliyatida boshqa barcha iqtisodiy jarayonlardagi kabi uning mohiyati va turli xil xo'jalik tuzilmalarida amalda qo'llashning tashkiliy shakllari ajralib turadi.

Lizing mexanizmi ijara mexanizmi bilan uzviy bog'liq, biroq u murakkabroq tuzilishga, uch tomonlama asosga ega bo'lib, kredit va investitsiya bitimlari, shuningdek, ijara faoliyati xususiyatlariga egalik qiladi hamda tadbirkorlikning yangi tashkiliy-huquqiy shaklini yaratadi.

Lizing iqtisodiyotning moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish, soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish kabi eng muhim funksiyalarini qamrab oladi.

Lizing turlari bitimlarni tuzish shakli, ularning muddati, tomonlar majburiyatlari hajmi, lizing obyektlari xususiyatlari va ularning amortizatsiya shartlari, lizing to'lovi turlari, soliq imtiyozlariga munosabati va bozor sektorlariga ko'ra taqsimlanadi.

Lizing xo'jalik yuritishning o'ziga xos shakli sifatida jamiyat va ishlab chiqarishning barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Lizingning iqtisodiy mohiyati lizing bitimlarida yuzaga keluvchi munosabatlar xarakteri bilan izohlanadi. Lizing bitimi summasi lizing beruvchi uchun tijoratga oid qiziqish uyg'otadi, chunki u iqtisodiy foydaga ega.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Lizingning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Lizing bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar qanday amalga oshiriladi?
3. Lizing faoliyatining mohiyati va muayyan tashkiliy shakllarini ochib bering.
4. Lizingni mulkchilik munosabatlari majmuasi sifatida talqin qilib bering.
5. Lizingning kredit, ijara va investitsiyalash bilan o'zaro aloqalari nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Lizingning iqtisodiyotning muhim funksiyalariga ta'sir ko'rsatishi nimalardan iborat?
7. Lizing obyektlari va subyektlarini sanab bering.
8. Lizing munosabatlarining qanday turlarini bilasiz?
9. Nima sababdan lizing uch tomonlama bitim sifatida tavsiflanadi?
10. Xalqaro lizing nima?
11. Lizing bitimlarining miqyosi qanday?
12. Lizing rivojlanishining xo'jalik samarasi nimalarda aks etadi?
13. Lizing bitimlarining iqtisodiy asosini nimalar tashkil etadi?
14. Lizing to'lovlarining obyektivligini tavsiflab bering.
15. Lizing hisob-kitoblarining turlarini sanab bering.
16. Lizing to'lovlarining turlari va ularning davriyligini aytib bering.
17. Lizing to'lovlarining qanday sxemalari mavjud?
18. Respublikamizda faoliyat ko'rsatuvchi lizing kompaniyalari tomonidan lizing to'lovlarini hisoblashning qaysi uslubiyati qabul qilingan?
19. Lizing to'lovi tarkibiga kiruvchi elementlarni sanab bering.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'grisida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

7. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

8. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

9. Ветров В.В. **ИНВЕСТИЦИОННЫЙ: Учебное пособие.** – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

10. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T: Sharq, 2011. -124-b.

11. Богатин Ю.В., Швандар В.А. **ИНВЕСТИЦИОННЫЙ анализ. Учебное пособие.** – М.: ЮНИТИ. 1999. -411 с.

## 8-bob. INVESTITSIYA KAPITAL QO'YILMALARINI KREDITLASH VA MOLIYAVIY TAHLIL

**8.1. Loyihalarni uzoq muddatli qarzlarni evaziga moliyalashtirish tartibi. Uzoq muddatli kreditlashtirish monitoringi.**

**8.2. Ipoteka kreditining mohiyati va mazmuni. Jahon bank xo'jaligida ipoteka kreditining bozor iqtisodiyotidagi xususiyatlari.**

**8.3. Xorijiy banklar kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish.**

**8.4. Korxonaning moliyaviy rejasining mohiyati va ahamiyati. Zararsizlik tahlili. Korxonaning kapitalga bo'lgan ehtiyoji, uning manbalari va moliyaviy tahlili.**

*Tayanch iboralar: kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli kreditlar, moliyaviy institutlar, qarz mablag'lar shartnomasi, loyihalar kompleks ekspertizasi, ipoteka krediti, ipoteka ssudalari, zararsizlik tahlili, zararsizlik nuqtasi, tezkor ssuda, kreditli liniya, korxonaning moliyaviy hisob tizimi, kreditni qaytarish koeffitsiyenti.*

---

### 8.1. Loyihalarni uzoq muddatli qarzlarni evaziga moliyalashtirish tartibi.

#### Uzoq muddatli kreditlashtirish monitoringi

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini undagi kapital qo'yilmalarning miqdori va o'sishi darajasiga bevosita bog'liq holda tasavvur qilish mumkin. Odatda, kapital qo'yilmalar mamlakatda yaratilgan moddiy boyliklar miqdorining o'sishiga xizmat qilsa-da, lekin bu jarayon qisqa davrga ega bo'lmaganligi bois ularni moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlarning alohida o'rin tutishini yodda tutish muhimdir. Chunki aynan uzoq muddatli kreditlar kapital qo'yilmalarni hosil qilishda muhim manba hisoblanadi. Kapital qo'yilmalarga ta'rif beradigan bo'lsak:

**kapital qo'yilmalar** – yangi obyektlarni qurish, amalda faoliyat yuritayotgan



korxonalarni ta'mirlash, texnik qayta jihozlash va kengaytirish hamda mashina, asbob-uskuna, instrumentlar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidir.

Kapital qo'yilmalar orqali asosiy fondlarni yangilanishiga: korxonaning mehnat unumdorligini oshishiga erishishi mumkin. Kapital qo'yilmalar tushunchasi investitsiya tushunchasiga nisbatan torroq tushuncha, kapital qurilish tushunchasiga nisbatan esa kengroqdir.

Kapital qo'yilmalar faqat qurilishga sarflanmasdan, balki yangi texnologiyalar, transport vositalari sotib olish uchun ham yo'naltiriladi. Kapital qo'yilmalar investitsiyaning tarkibiy qismi bo'lib, to'g'ridan to'g'ri asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan qismini tashkil etadi. Kapital qo'yilmalarning asosiy manbasi bu uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.



Bu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, "... ko'pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho'zib yuborilmoqda. Ichki bozorimizning ko'plab tovarlarga bo'lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti"<sup>33</sup>.

Uzoq muddatli kreditlar deb, respublikadagi qonunchilikka asosan tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga, shaxsiy tadbirkorlarga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklariga besh yil va undan ortiq muddatga beriladigan kreditlarga aytiladi. Ular – qurilish, rekonstruksiya, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi obyektlarni texnik qayta qurollantirish xarajatlari va ularga yo'naltirilgan kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangandir. Uzoq muddatli qarz mablag'lari texnika, texnologiya va asbob-uskunalarini sotib olish, qishloq xo'jaligi mollari asosiy tarkibini (podasini) shakllantirish, ko'p yillik bog'larni yaratish va boshqa investitsion maqsadlarni moliyalashtirish uchun ham ajratiladi.

### Kapital qo'yimlarning maqsadi:

yangi obyektlarni qurish, amalda faoliyat yuritayotgan korxonalarini ta'mirlash	texnik qayta jihozlash va kengaytirish hamda mashina, asbob-uskuna, instrumentlar sotib olish	loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi tushuniladi
---	---	--

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda mablag'larni jalb etish uchun Davlat Arxitektura-qurilish nazorati qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan bino-imorat qurilishi loyiha-smetaviy hujjatlari, qurilishni amalga oshirish uchun ushbu tashkilot tomonidan berilgan yozma ruxsat, yangi o'rnatiladigan asbob-uskuna va ishlatiladigan xomashyoni yetkazib berish shartnomalari, qarz oluvchining Iqtisodiyot vazirligi tovarlar importi prognoziga kiritilganligi to'g'risidagi vazirlik xati, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda pudrat ishlarini amalga oshirish shartnomalari va eng muhimi – moliyaviy institut tomonidan loyihaning iqtisodiy qoplanish hisob-kitoblari ekspertizasining mavjudligi talab etiladi. Bunda kreditni ajratish bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni olib borishda sof pul oqimi kreditning asosiy qismini qaytarish bo'yicha hamda kreditdan foydalanganlik uchun foiz to'lash joriy to'lovlarga bo'lgan nisbati 1,3 dan kam bo'lmasligi kerak.

Moliyaviy institutlar tomonidan qurilish obyektlarini moliyalashtirishda qarz mablag'larning 30 %i va undan ortiq summada o'z mablag'larining mavjud bo'lishi loyiha hisob-kitoblariga ijobiy ta'sir etadi, xususan, loyiha investitsion va imtiyoz davrida mablag'lar taqchilligiga barham beriladi. Obyektlar qurilishi uchun qarz oluvchida o'xshash, tugallanmagan ko'rinishdagi, ishga tushirish muddati o'tib ketgan qurilish obyektlari hamda avval berilgan ssudalar bo'yicha muddati o'tgan, qarzdorlik bo'lmagan holatda mablag'lar ajratiladi. Institutlar, jumladan, tijorat banklari yuqoridagi qoidalarga asosan qarz oluvchi bilan o'zaro huquqiy munosabatlarni o'rnatadi, o'zaro munosabatlardagi maqsad – ajratiladigan qarz mablag'larini samarali va o'z o'mida ishlatishdan iborat.

<sup>33</sup>Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

### Jahon tajribasi xususiyatlari:

- qatnashchilar tarkibi va ularniig o'zaro munosabatlar shakli; huquqiy ta'minlanish darajasi	- ssuda berish, xizmat ko'rsatish va qaytarish tartibi:	- ipoteka operatsiyalarini moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish:	- davlat ishtirokining darajasi va shakli.
---	---	--	--

#### **A) Loyihalarni uzoq muddatli qarzlarni evaziga moliyalashtirish tartibi.**

Loyihalarni uzoq muddatli qarzlarni evaziga moliyalashtirish tartibini quyidagi ko'rinishda aks ettirish mumkin:

- qarz mablag'larni jalb qilish uchun taqdim etilgan arizani ko'rib chiqish va huquqiy maqomini aniqlash maqsadida qarz oluvchining holatini o'rganish;
- qarz oluvchining moliyaviy holatini tahlil qilish va uning kreditga layoqatliligini baholash maqsadida qarz oluvchining holatini o'rganish;
- qarz mablag'lar shartnomasini rasmiylashtirish va imzolash;
- qarz muddatli qarz mablag'lar evaziga moliyalashtiriladigan loyihalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish.

Uzoq muddatli qarz mablag'larini jalb etish uchun taqdim etilgan ariza hujjatlarida qarz oluvchi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, jumladan, tashkiliy-huquqiy shakli, ta'sischi, asosiy faoliyat yo'nalishlari, so'ralayotgan qarz summasi, foydalanish muddati, loyihalar maqsadi, korxonalar aktivlari va so'ralayotgan qarz o'rtasidagi nisbat, qarz mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyekt qoplanish muddati, qarz mablag'larni olish va ularni foizlari bilan qaytarish muddatlari, qarz mablag'larni jalb etish uchun ta'minlanganlik sifatida taqdim etiladigan garov to'g'risida ma'lumot, korxonalar qarzdorligi to'g'risida, uning boshqa banklarda ochilgan hisob-kitob raqamlari bo'yicha hamda qarz oluvchining boshqa korxonalar ustav kapitalida ishtirok etishi bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

#### Loyihalarni uzoq muddatli qarzlarni evaziga moliyalashtirish tartibi

Qarz mablag'larni jalb qilish uchun taqdim etilgan arizani ko'rib chiqish va huquqiy maqomini aniqlash maqsadida qarz oluvchining holatini o'rganish	Qarz oluvchining moliyaviy holatini tahlil qilish va uning kreditga layoqatliligini baholash maqsadida qarz oluvchining holatini o'rganish	Qarz mablag'lar shartnomasini rasmiylashtirish va imzolash	Qarz muddatli qarz mablag'lar evaziga moliyalashtiriladigan loyihalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish
--	--	--	--

Qarz mablag'lar hisobiga moliyalashtirish obyekti sifatida ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlarni ko'rish, qayta tiklash va texnik qayta qurollantirish hisoblangan hollarda qarz oluvchi quyidagi hujjatlarni moliyalashtirish institutiga topshiradi:

- a) tegishli tartibda tasdiqlangan loyihalar texnik-iqtisodiy asosi va loyiha-smetaviy hujjatlari;
- b) qurilish qiymatining yig'ma smetaviy-moliyaviy hisob-kitoblari;
- v) yillar bo'yicha taqsimlangan qurilishning adresli dasturi;
- g) qurilishning butun davri uchun bajariladigan ishlarga haq to'lash shakllarini ko'rsatib o'tgan holda tuzilgan pudrat shartnomlari;

d) texnologik asbob-uskunani yetkazib berish shartnomasi loyihasi, Davlat Arxitektura-qurilish nazorati qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan bino-imorat qurilishi loyiha-smetaviy hujjatlari, qurilishni amalga oshirish uchun ushbu tashkilot tomonidan berilgan yozma ruxsat, yangi o'rnatiladigan asbob-uskuna va ishlatiladigan xomashyoni yetkazib berish shartnomalari, qarz oluvchining Iqtisodiyot vazirligida tovarlar importi prognoziga kiritilganligi to'g'risidagi vazirlik xati;

e) Davlat Arxitektura-qurilish qo'mitasi idoradan tashqari ekspertiza xulosasi va Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi;


j) qarz oluvchi korxonaning kreditga layoqatliligini aniqlash maqsadida uning so'nggi uch yildagi moliyaviy hisobot shakllari;

z) qarz mablag'larning yetarli darajada ta'minlanganligini hamda obyekt joylashadigan yer maydonidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, mahalliy hokimliklar tomonidan yangi boshlanayotgan qurilish uchun bergan ruxsatnomalari.

Qarz mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalarning kompleks ekspertizasi loyihaning texnik ekspertizasidan, o'rnatiladigan asbob-uskuna texnik tavsiflari va texnologiyasini o'rganishdan, loyiha bo'yicha marketing va informatsion izlanishlarni olib borishdan, ishlab chiqariladigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganishdan, raqobatchilar muhitini tahlil qilishdan boshlanadi. Loyihalar moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasida loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi, pul mablag'lari oqimi kuzatiladi, kapital xarajatlar qiymati o'zgarishining real indeksleri bazasida shartnomaviy baholarni o'rnatishning to'g'riligi aniqlanadi va ma'qul moliyalashtirish sxemasini tanlash bo'yicha maslahatlar beriladi. Kompleks ekspertizaning navbatdagi bosqichida loyihalardagi risklar darajasi aniqlanadi va ularni kamaytirish chora-tadbirlari belgilanadi, shuningdek, qarz oluvchi shaxsga tegishli asosiy vositalarni, bino-inshootlarni, qurilmalarni hamda ta'minlanganlik sifatida taqdim etiladigan vositalarini baholash ishlari amalga oshiriladi. Kompleks ekspertizadagi tahlil ishlarining so'nggisi esa asbob-uskuna yetkazib beruvchilar bilan imzolangan shartnomalarning mavjudligi, kelishuvlar asosida erkin ayirboshlanadigan valyuta evaziga tashqi davlatlardan asbob-uskuna va materiallarni sotib olish masalalari holati tekshiriladi, asbob-uskuna yetkazib berish va o'rnatish muddatlarining ishlab chiqarish grafigi bilan mutanosibliigi o'rganiladi.

Loyihalar kompleks ekspertizasi yakunida loyihani moliyalashtirish uchun qarz mablag'larni ajratish bo'yicha xulosa tayyorlanadi va xulosa ijobiy deb hisoblansa, uzoq muddatga korxonaga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorga asosan qarz oluvchi shaxs va loyihani moliyalashtiruvchi institut o'rtasida shartnoma imzolanadi.

Qarz shartnomasi qarz oluvchi va moliyaviy institut o'rtasidagi asosiy munosabat vositasi bo'lib hisoblanadi va u imzolangan vaqtdan boshlab, jalb qilingan qarz mablag'lar, foizlar, jarimalarni to'liq qaytarilguncha amal qiladi.



www.shutterstock.com 262538525

Moliyaviy institutlar qarz shartnomasiga ko'ra, qarz mablag'lami ajratishda loyiha qoplanish muddatlarini, pul oqimlari prognozini inobatga olgan holda imtiyozli davr o'rnatadi. Bu imtiyozli davr mobaynida qarz oluvchi shaxs qarz mablag'larning asosiy qismini qaytarmay, qarz bo'yicha faqatgina foizlarni to'laydi, odatda, imtiyozli davr bir yildan oshmaydi.

Qarz mablag'lar bo'yicha foizlar qarz shartnomasidan kelib chiqib belgilanadi, ular mamlakatdagi pul bozori va inflyatsiya holatiga bog'liq ravishda hamda tomonlarning o'zaro kelishuvlariga asosan o'zgartirilishi mumkin. Foiz miqdori qarz mablag'lardan foydalanish muddati, qarz oluvchi tomonidan mablag'larning o'z vaqtida qaytarish kafolatlari, qarz mablag'lar resurslariga bo'lgan talab va taklif hamda ularning bahosi, shuningdek, mavjud loyihalardagi risklarga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Uzoq muddatli qarz mablag'lardan foydalanganlik uchun foizlar, odatda, har chorakda hisoblanadi va to'lanadi. Agar uzoq muddatli qarzlarni boshqa korxonalar mablag'lari hisobiga jalb etilgan bo'lsa, qarz mablag'lari bo'yicha foizlar imzolangan shartnomaga ko'ra qarzдор shaxs tomonidan mustaqil ravishda to'lanadi yoki qarz bergan korxonaga tomonining to'lov talabnomasiga asosan to'lanadi.

Qarz oluvchi shaxs o'z vaqtida foizlarni qaytara olmasa, qarz oluvchi shaxs muddati o'tgan kreditor qarzdorligiga ega bo'lib qoladi, bu qarzdorlik summasiga nisbatan jarima hisoblab boriladi. Agar uzoq muddatli qarzlarni tijorat banklari mablag'lari hisobidan berilgan bo'lsa, foizlar qarz oluvchi asosiy talab qilib olguncha depozit hisob-kitob raqamidan memorial orderlarni rasmiylashtirish orqali qarz shartnomasida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda va grafiklarda qaytariladi. Bunda qarz oluvchi foizlarni o'z vaqtida qaytara olmasa, qarz oluvchi bank oldida muddati uzaytirilgan qarzdorlikka ega bo'lib qoladi va ular bo'yicha jarima hisoblanib boriladi. Qarzdorlik davomida tomonlarning o'zaro kelishuvlari asosida qarzni qaytarish grafigiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Qarz oluvchi va tijorat banki o'rtasida qarz shartnomasi imzolanganach, qarz oluvchi uchun ssuda hisob-kitob raqami ochiladi, bu hisob-kitob raqami orqali o'tadigan barcha operatsiyalar qarz shartnomasidan kelib chiqib olib boriladi. Agar uzoq muddatli qarz mablag'lari yetkazib beriladigan va o'rnatiladigan asbob-uskuna xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflansa, ssuda hisob-kitob raqamida ushbu



summada kredit qoldig'i mavjud bo'lib, u qarz oluvchi hisob raqamiga kelib tushadigan mablag'lar hisobga kamayib boradi, ya'ni bank oldidagi qarzdorlik to'lab boriladi.

Uzoq muddatli qarz mablag'lari ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyekt qurilishi, yetkazib beriladigan va o'rnatiladigan asbob-uskuna xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflansa, ssuda hisob-kitob raqamida ushbu summada kredit qoldig'i mavjud bo'lib, u qarz oluvchi hisob raqamiga kelib tushadigan mablag'lar hisobga kamayib boradi, ya'ni bank oldidagi qarzdorlik to'lab boriladi.

Agar, uzoq muddatli qarz mablag'lari bajariladigan qurilish, texnik qayta qurollantirish va qayta tiklash ishlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi zarur bo'lsa, ssuda hisob-kitob raqami orqali bajariladigan ishlar uchun pul hujjatlari to'lanadi, jumladan, qurilish smetasiga kiritilgan pudrat tashkilotlariga yillik ish hajmining 15 %lik dastlabki avans to'lovlari uchun mablag' o'tkaziladi. Qurilishni moliyalashtirishda buyurtmachining o'z mablag'lari ham qatnashishi ko'zda tutilishi mumkin, bunday holatda loyihalarda ko'rilayotgan korxonalar boshqaruvini ta'minlash, kadrlar tayyorlash, binoni ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlarni uzoq muddatli qarzlarga evaziga moliyalashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qarz shartnomasida qarz oluvchi qarz va qarzdandan haqiqatda foydalanilgan vaqt uchun foizlar miqdorining barcha summasini muddatidan avval qaytarishi ham ko'zda tutiladi. Qarz uchun foiz mablag'lari o'z vaqtida to'lanmasa, tegishli tartibda jarima hisoblab boriladi. Bu holatda, qarz oluvchi ssuda hisob-kitob raqamiga mablag' tushmasa, jarima hisoblash qarz miqdorining 5 %iga yetgunicha hisoblab boriladi. Jarima miqdori chegaradan ortib ketsa, qarz beruvchi qarzdor shaxs ustidan xo'jalik sudiga tegishli qaror chiqarishni so'rab ariza beradi.

#### **B) Uzoq muddatli kreditlashtirish monitoringi**

Moliyaviy institutlar tomonidan berilgan qarz mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boriladi. Qarz mablag'lar monitoringida ssuda hisob-kitob raqami orqali to'lanadigan pul hujjatlari, qarz shartnomasida ko'rsatib o'tilgan shartlarda qarz mablag'laridan maqsadli foydalanish, xarid qilingan asbob-uskuna inventarizatsiyasi tekshiruvlari olib boriladi, tekshiruvlar qarz mablag'lar ajratilgan kundan 30 kundan kechiktirilmay amalga oshiriladi, tekshiruvlar qarzdandan to'liq foydalanilguncha olib boriladi. Monitoring ishlari quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

a) qarzni haqiqatda o'zlashtirish muddatlarini loyihalar texnik iqtisodiy asosi, biznes rejasidagi qarzni o'zlashtirish grafigi bilan solishtirish;

b) qarz oluvchining moliyaviy, statistik hisobotlari va operativ ma'lumotlari asosida uning choraklik, (zarur hollarda yillik) xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish;

v) qarz mablag'lari bo'yicha ta'minlanganlik vositasi holatini choraklik tekshirish, ishonch xati (poruchitelstvo) taqdim etgan shaxs moliyaviy holatini tahlil qilish;

g) loyihalar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirishni tahlil qilish;

d) mumkin bo'lgan zaxiralarni tashkil etish uchun qarz oluvchilarni tasniflash;

e) ko‘rilayotgan obyektlar bo‘yicha bajariladigan ishlarni tekshirish va boshqalar.

<b>Uzoq muddatli qarz mablag‘larini jalb etish uchun taqdim etilgan ariza hujjatlarida</b>	tashkiliy-huquqiy shakli
	ta‘sischilari
	asosiy faoliyat yo‘nalishlari
	so‘ralayotgan qarz summasi
	foydalanish muddati
	loyihalar maqsadi
	korxonalar aktivlari va so‘ralayotgan qarz o‘rtasidagi nisbat
	qarz mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyekt qoplanish muddati
	qarz mablag‘larni olish va ularni foizlari bilan qaytarish muddatlari va boshqalar

Monitoring ishlarining tashkil etilishi berilgan qarzlarning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini ta‘minlashga qaratilgan bo‘ladi. Monitoring jarayoni qarz berilgan davrdan boshlab, to qarzlarning foizlari bilan to‘liq qaytirilishiga qadar davom etadi. Umuman, berilgan qarzlarning qaytarilishida, avvalambor, loyihaning to‘liq va mukammal tahlil qilib chiqilganligi, qolaversa, monitoringning samarali olib borilishi katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda moliya muassasalari mutaxassis xodimlarining loyihalarni baholash va qarz kapitali bo‘yicha monitoring olib borish malakasini va saviyasini ko‘tarish ular tomonidan berilgan qarz mablag‘larining to‘liq va o‘z vaqtida qaytarilishiga xizmat qiladi.

Kreditor uchun eng muhim narsa – berilgan kreditning vaqtida qaytarilishi hisoblanadi. Kredit oluvchi esa hamma vaqt ham kredit va kredit uchun to‘lanadigan foizlarni vaqtida to‘lay olmasligi mumkin. Bunga sabab esa biznes rejada ko‘rsatilgan ishlarning o‘z vaqtida bajarilmaganligi va buning oqibatida ko‘zda tutilgan maqsadlar to‘la amalga oshmay qolishi mumkin. Bundan tashqari kreditning vaqtida qaytarilmasligi boshqa omillarga ham ta‘sir qilishi mumkin. Bank kreditlar qaytarilishi dargumon bo‘lgan vaziyatlarning oldini olish maqsadida kredit biznes rejada ko‘rsatilgan maqsadlarda ishlatilyayotganligini yoki aksi bo‘lgan holda, buni bilish uchun qarz oluvchi kreditning ishlatilishi yuzasidan monitoring izlanishlarini olib boradi. Loyihalarni kredit hisobiga uzoq muddatga moliyalashtirish, monitoring moliyalashtirishga ajratilgan qay yo‘sinda ishlatilayotganini nazorat qilish, uning maqomidagi o‘zgarishlarni aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish tizimini ko‘zda tutadi. Uning asosiy maqsadi – qarz va u bo‘yicha hisoblangan foizlarning o‘z muddatida qoplanishini ta‘minlashdan iboratdir.

Ajratiladigan uzoq muddatli qarz mablag‘larini qaytarish uchun hukumat kafolatlari, mol-mulk garovi, birinchi sinf tijorat banklari, kreditlash muassasalari va sug‘urta tashkilotlari kafolatlari, uchinchi shaxs ishonch xati, qarz oluvchi tomonidan mablag‘larni qaytara olmaslik riskidan sug‘urtalanish (faqatgina respublikadagi “Kafolat”, “Agrosug‘urta”, “Madad”, “O‘zbekinvest” sug‘urta tashkilotlari tomonidan berilgan sug‘urta polislari) polisi ta‘minlanganlik vositasi hisoblanadi.

Ushbu jarayonlarning samarali tashkil etilishi berilgan kreditlarning oxir-oqibatda muammoli ko‘rinish kasb etishining oldini olish bilan birga, zarur hollarda vujudga kelgan muammoli kreditlarni bartaraf etishga ham imkon beradi.

## 8.2. Ipoteka kreditining mohiyati va mazmuni. Jahon bank xo‘jaligida ipoteka kreditining bozor iqtisodiyotidagi xususiyatlari

Uzoq muddatli kreditlashtirishning bir turi – ipoteka krediti hisoblanadi. **Ipoteka krediti** – vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma‘lum muddatga haq to‘lash sharti hamda ko‘chmas mulk garovi asosida qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Ipoteka krediti yordamida tovar moddiy boyliklari, turli mashinalar va mexanizmlar sotib olinadi, lekin asosan uy-joy qurish, bino va ofislar sotib olish imkoniyatida bo‘ladilar. Ipoteka krediti iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko‘rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Ipoteka krediti hamma kredit kabi har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Jahon bank xo‘jaligida ipoteka krediti bozor iqtisodiyotini ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur sohaning boshqa bank xizmatlaridan farq qiluvchi ikki xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ipoteka krediti – qat‘iy belgilangan garov evaziga beriladigan ssuda;
- ipoteka ssudalarining katta qismi ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**Ipoteka** – ko‘chmas mulk garovi: yer maydonlari, yer bilan bog‘liq obyektlar, obyektlar joylashgan yer uchastkalari bilan har qanday pul majburiyatini, jumladan, qarzga olish, savdo-xarid, ijaraga olish, pudrat usuli, yetkazilgan zararni qoplash yoki boshqa biror shartnomalarni ta‘minlashda foydalanish mumkin.

### Ipoteka krediti turlari:

ko‘chmas mulk garovi: yer maydonlari, yer bilan bog‘liq obyektlar.	obyektlar joylashgan yer uchastkalar bilan har qanday pul majburiyati.	qarzga olish, savdo-xarid, ijaraga olish, pudrat usuli.	yetkazilgan zararni qoplash yoki boshqa biror shartnomalarni ta‘minlashda foydalanish
--	--	---	---

Ipoteka kreditlari, odatda, pul ko‘chirish shaklida beriladi. Kreditlash uchun mablag‘lar turli manbalardan, jumladan, kapital bozorida ipoteka obligatsiyalarini sotish hisobidan olinadi. Mazkur kreditlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ssuda foizlarining bozordagi obligatsiyalar qiymatiga muvofiqligidir. Shunday qilib, qarz oluvchi ham bunday holatda o‘z mulki uchun kerakli mablag‘ni olishi mumkin. Foiz hajmi, shuningdek, schyotlarni qoplash summasi obligatsiyalar sotilgandan so‘ng ma‘lum bo‘ladi. Qarz oluvchi ustama foizlari aniq bo‘lgan obligatsiyalar bo‘yicha kredit turini tanlashi mumkin.

**Ipoteka kreditlari mulk turi, kredit qiymatlariga qarab, quyidagi shakllarga ajratilishi mumkin:**

- muntazam, barqaror foizlar bo‘yicha ssudalar;
- o‘rta muddatli asosdagi ssudalar;

- to'liq sikl bo'yicha ssudalar.

Ipoteka kreditini tashkil qilishda chet el tajribasi va xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, jahon tajribasi ko'rsatishicha, hozirgi davrdagi ipoteka kreditini tashkil etish har bir mamlakatda quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

- qatnashchilar tarkibi va ularniig o'zaro munosabatlar shakli; huquqiy ta'minlanish darajasi;

- ssuda berish, xizmat ko'rsatish va qaytarish tartibi;

- ipoteka operatsiyalarini moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish;

- davlat ishtirokining darajasi va shakli.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'limizni Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan belgilab berilishi, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishimiz bilan banklar faoliyatida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar, ayni vaqtda jahon amaliyotida qo'llanib kelinayotgan ipoteka kreditini tashkil qilish bizning tijorat banklarimiz faoliyatiga ham kirib kelmoqda. Xo'sh, O'zbekiston tijorat banklari qay yo'sinda ipoteka kreditini tashkil qilmoqdalar?

2013-2015-yillar yanvar holatiga tijorat banklari bo'yicha jami berilgan kreditlar tarkibida ko'chmas mulk garovi asosida berilgan kreditlar quyidagicha taqsimlangan: UT bank – 55.5, Ipak yo'li bank – 52.9, Zamin bank – 46.6, Tadbirkorbank – 42.7, Savdogarbank – 41.74, Hamkorbank – 38.3, XIF banki 29.4, Paxta bank – 27.3, Avia bank – 25.5, Asaka bank – 15.5, Trast bank – 12.5, Turon bank – 11.46 foiz<sup>34</sup>.

Uy-joy barpo etish katta mablag' talab etadigan loyihadir. Shu tufayli qishloq aholisining hammasi ham bu uy-joylarni xarid etishga qurbi yetmasligi mumkin. Shuni e'tiborga olgan holda, muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan qurilayotgan uy-joylarni imtiyozli foiz stavkalari bilan uzoq muddatli ipoteka kreditlari orqali aholiga topshirish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

**Ipoteka** – ko'chmas mulkni garovga qo'yish asosida beriladigan uzoq muddatli qarz; ushbu qarzni ta'minlashga xizmat qiluvchi garov.

**Ipoteka krediti** – ko'chmas mulk garovi ostida bank tomonidan beriladigan kredit. Aksariyat, AQSh dollarida ko'chmas mulkni sotib olish uchun kredit olishda shu ko'chmas mulkning o'zi bankka kreditni qaytarish kafolati sifatida ipoteka (garov) bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 25- mayda qabul qilingan 148-sonli qaroriga binoan **yakka tartibda uy-joy qurishga uzoq muddatli ipoteka krediti** berishning asosiy shartlari quyidagicha belgilangan:

- kredit 6 oylik imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga beriladi;

- kredit miqdori eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha beriladi (hozirgi kunda eng kam ish haqi miqdori 149775 so'mni tashkil qiladi);

<sup>34</sup> O'zR Banklar Assotsiatsiyasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



- kredit uchun foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (12 foiz) 50 foizi miqdorida belgilangan (hozirgi kunda 6 foiz atrofida);

- barpo etiladigan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal kiritiladi.

Uy-joy qurilishi uchun kredit:

- qishloq joylarida doimiy yashaydigan, ya'ni qishloq joyida doimiy ro'yxatdan o'tgan;

- ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunda 18 yoshga to'lgan, ya'ni 18 yoshdan oshgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga;

- oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyiga, doimiy daromadiga, shuningdek, kredit bo'yicha to'lovlarni har oyda to'lashga qodir bo'lgan;

- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan;

- kredit tashkilotlaridan muddati o'tgan qarzi bo'lmagan shaxslarga beriladi (1-jadval).

1-jadval

**Kredit ajratish tartibi (misol tariqasida), ming so'mda**

Uy-joyning yaku-niy qurilish narxi	Qurilayotgan uy-joyning 25 foiz doirasidagi boshlang'ich badal summasi	Ko'pi bilan ajratiladigan kredit summasi	Uy-joy egasi tomonidan uyni qabul qilgunga qadar to'lanadigan qoldiq summasi	Kreditga layoqati (qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchilar bilan birga oylik daromadlari) oddiy usulda	Kreditga layoqati (qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchilar bilan birga oylik daromadlari) annuitet usulda
78 000	19 500,0	49 735,0	8 765,0	719,9	558,8


Yakka tartibda uy-joy qurish uchun fuqaro, eng avvalo, o'zi istiqomat qiladigan viloyatdagi "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasining filialiga ariza bilan murojaat qilishi lozim. Fuqaro o'z arizasida uy-joylarning namunaviy loyihasini va uy-joy qurilishi uchun to'lov turini ko'rsatib o'tishi lozim. "Qishloq qurilish invest" IK arizani o'rganib chiqadi va fuqaro bilan dastlabki shartnoma tuzish uchun taklif etadi. Fuqaro "Qishloq qurilish invest" IK bilan shartnoma tuzganidan so'ng ipoteka kreditini rasmiylashtirish uchun yashash joyiga yaqin bo'lgan "Qishloq qurilish bank"ning filialiga murojaat qiladi.

Qarz oluvchi fuqaro "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasi bilan "kaliti bilan topshirish" sharti asosida tuzilgan shartnomada qurilish tashkilotini tanlash va texnik nazorat qilish vazifasini kompaniyaga yuklaydi. Bunda qarz oluvchi shartnomaga muvofiq qurilishning butun davri mobaynida qurilish jarayoniga xalaqit bermagan holda, qurilishning borishini kuzatib borish hamda zarurat bo'lganda namunaviy loyiha doirasida yozma shaklda takliflar kiritish va injiniring kompaniyasi va pudratchiga e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Hukumatimiz tomonidan qishloq aholisini zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlashda aholining to'lov qobiliyatini oshirish maqsadida ipoteka kreditini qaytarish muddatining 15 yil etib belgilanishi va Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi darajasida imtiyozli foiz stavkasi joriy

etilishiga qo‘shimcha ravishda yana bir qator qulayliklar yaratilgan. Jumladan:

- kreditdan foydalanganlik uchun Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foiz belgilanadi;
- jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan ish haqi va boshqa daromadlarning imtiyozli kredit mablag‘lar va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilgan miqdori daromad solig‘i to‘lovidan ozod qilinadi;
- ish beruvchi tomonidan xodimiga uy-joy sotib olish uchun berilgan mablag‘lar ushbu xodimning soliqqa tortiladigan daromadlariga kirmaydi;
- kreditning boshlang‘ich 25 foiz to‘lovi fuqaroning ishxonasi tomonidan ham to‘lab berilishi mumkin. Bunda korxonaga tomonidan to‘lab berilgan ushbu summa ham daromad solig‘idan ozod qilinadi;
- boshlang‘ich badal sifatida jang‘ariladigan (namunaviy loyihaning 25 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda) omonat bir yildan kam bo‘lmagan muddatda to‘plansa, Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 150 foizi miqdorida yillik daromad to‘lanadi va imtiyozli tarzda navbatsiz kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- shartnoma “Qishloqqurilishinvest” injiniring kompaniyasi kaliti bilan topshirish sharti asosida tuziladi;
- ajratiladigan 6 sotix yer uchastkasi umrbod meros qilib bepul beriladi.



Manba: <http://www.xmind.net/m/2hHt/>

Agar qarz oluvchining ipoteka krediti va kredit bo‘yicha foizlarni to‘lash uchun mablag‘lari yetishmasa, har oydagi to‘lovlarda ipoteka krediti yuzasidan birgalikda javob beradigan eri (xotini) hamda uning yaqin qarindoshlari (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari) qatnashishiga ham ruxsat berilgan.

Bunday imtiyozlar istiqbolda qishloqlarimizning chiroy ochib, gullab-yashnashiga va qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga keng imkoniyatlar ochib berishi shubhasiz.

Bugungi kunda “Qishloqqurilishinvest” injiniring kompaniyasi tomonidan qurilayotgan zamonaviy va shinam uy-joylarning qiymati reja-hajm ko‘rsatkichlari yaxshilanib bormoqda. Masalan, 2009-yilda 4 xonali zamonaviy uy-joyning umumiy maydoni 133,3, turar-joy maydoni 62,6 m<sup>2</sup>ni tashkil etib, umumiy qiymati 64,0 million so‘mga va 1 m<sup>2</sup> narxi 590,9 ming so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa,

2010-yilda uy-joyning umumiy maydoni 153,5 (farqi 20,2 m<sup>2</sup>), turar-joy maydoni esa 78,8 m<sup>2</sup>ni (farqi 16,2 m<sup>2</sup>) tashkil etib, umumiy qiymati 76,1 million so'mni va 1 m<sup>2</sup> narxi 495,4 ming so'mni (farqi – 70,4 ming so'm) tashkil etdi.

Zamonaviy uy-joylar va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish uchun eng so'nggi fan-texnika yutuqlari hamda texnologiyalarga tayanadigan mustahkam moddiy-texnikaviy bazaga ega qurilish tashkilotlari talab etiladi. Qishloq aholisiga qurilishni kompleks tarzda tashkillashtirish maqsadida bank tomonidan "Qishloq qurilish invest" ixtisoslashtirilgan shu'ba injiniring kompaniyasi tashkil etilgan.

Davlatimizning amaliy sa'y-harakatlari bilan ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari va pudratchi tashkilotlarni arzon qurilish materiallari bilan ta'minlovchi 127 ta maxsus firma do'koni tashkil etildi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturiga asosan 120 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- yiliga 282 million dona g'isht ishlab chiqaradigan 59 ta g'isht zavodi;
- sement ishlab chiqaradigan 2 ta mini zavod;
- yiliga 2 million kv.m gipsakarton ishlab chiqaradigan 4 ta zavod;
- yiliga 100 ming kv.m metall va polimer cherepitsa ishlab chiqaradigan 7 ta zavod;
- quruq qurilish qorishmalari ishlab chiqaruvchi 5 ta sex;
- gazobeton va ko'pikbeton ishlab chiqaruvchi 8 ta sex qurilishi shular jumlasidandir.

Respublikada qishloq qurilishi uchun zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 225 ta yangi korxonalar ishga tushirildi va ushbu korxonalarda 6525 ta yangi ish o'rni tashkil etildi.

Yuqorida keltirilgan keng qamrovli tadbirlar natijasida har bir uy-joyning tannarxini 8-10 million so'mga kamaytirilishiga erishiladi. Bu esa qishloq aholisini arzon, shinam va barcha qulayliklarga ega zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Boshqa manbalar hisobidan mablag' bilan ta'minlash va kreditlash**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari (shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostida beriladigan kreditlar) hisobiga mablag' bilan ta'minlash tomonlarning kelushuviga ko'ra kreditlashning amaldagi qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobiga mablag' bilan ta'minlash tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq va pudrat shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Aralash investitsiyalash obyektlari qurilishini mablag' bilan ta'minlash va kreditlash obyektlar qurilishining barcha davri mobaynidan budjet mablag'larini, boshqa markazlashtirilgan kapital qo'llanmalarni va o'z mablag'larini xarajat qilish nisbatiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Mablag' bilan ta'minlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirib chiqadilar va ular qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lganda qurilishni mablag' bilan ta'minlash hisob-

varaqlarini ochadilar. Qurilishni hisob-kitob varaqalaridan mablag' bilan ta'minlashga yo'l qo'yilmaydi.

Banklar buyurtmachilar, pudrat tashkilotlari va qurilishning boshqa qatnashchilari o'rtasida bajarilgan ishlar, yetkazib berilgan moddiy texnika resurslari va xizmatlar uchun hisob-kitoblarini, shuningdek, boshqa hisob-kitoblarni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Qurilishning barcha davrida tuzilgan kontrakt (pudrat shartnomasi) buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Buyurtmachi bilan pudrat tashkiloti o'rtasidagi hisob-kitoblar kontrakt (pudrat shartnomasi)da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

To'lov hujjatlarini va ularga ilova qilingan rasshifrovkalarini tekshirish, shuningdek, to'lov bank tomonidan uch kun ichida amalga oshiriladi. Asoslanmagan to'lov hujjatlari taqdim etilgan va ularga tuzatish kiritish zarurati paydo bo'lgan taqdirda to'lov barcha tuzatishlar kiritilgandan keyin va bankka tuzatilgan hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi.

Investitsiya jarayonning boshqa qatnashchilari tomonidan tuzilgan shartnoma (kontrakt)lar ular o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

Buyurtmachilar pudrat tashkilotlarining bajargan ishlari va boshqa hujjatlari uchun ularning hisob varaqlariga to'g'ridan to'g'ri haq to'laydilar. To'lov shakli pul hujjatlariga muvofiq pudrat shartnomalarida belgilanadi.

Butlovchi tashkilotlar yoki mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan yig'ma konstruksiyalar, buyumlar va materiallar uchun hisob-kitoblar shartnomada nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

### **8.3. Xorijiy banklar kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish**

#### **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)**

ETTB kreditlari aniq maqsadlarga berilib, ular: chet el uskuna va texnologiyalarini sotib olishga, xizmat ko'rsatish sohasiga va ishchi kapital sarf-xarajatlarini qisman qoplashga, masalan, subloyihalarni moliyalashtirish uchun beriladi. Misol uchun: 1993-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan – ETTB va 1999-yil 1-dekabrda O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat qurilish banki bilan – ETTB o'rtasida kredit Bitimi imzolangandan keyin xorijiy kredit liniyalarini O'zbekistonda kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga jalb etish boshlandi. Bu bitimga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafilligi asosida jami 60 mln. AQSh dollarlik kredit ajratildi. Bu kredit liniyasi 13 yilga berilgan bo'lib, undan datlabki 3 yili imtiyozli hisoblanadi, 3 ta transh bo'yicha berildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat, Milliy banki foizi transh bo'yicha 21 ta loyihani moliyalashtirdi. ETTB birinchi kredit liniyasining tez va muvaffaqiyatli o'zlashtirilganligi va O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining ishonchliligi va yuqori obro'ga ega ekanligini inobatga olib, 1996-yil dekabr oyida yuqoridagi programma bo'yicha II-kredit liniyasini ochish masalasi ko'rildi va bu masala o'rganib chiqilib ma'qullandi. Bu kredit liniyasi 120 mln. AQSh doll. ni tashkil etib, undan 60 mln. AQSh doll. O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolatisiz



beriladigan bo'ldi (TIF MB kafolati ostida).

ETTB kredit liniyasini olishning asosiy shartlaridan biri bu loyihaning eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilganligidir. Kreditlashtirish muddati 7 yilgacha bo'lib, undan 2 yili imtiyozlidir. Beriladigan kreditning minimal miqdori 100.000 AQSh dollaridan kam bo'lmagan va maksimal miqdori 5 mln. AQSh doll. gacha bo'lib, lekin loyiha dastlabki qiymatining 75 %idan ko'p miqdorda kredit berilmaydi (Hozirgi vaqtda kreditning minimal qiymati 50.000 AQSh dollarigacha tushirilgan). Bundan tashqari tadbirkor loyihani amalga oshirishi uchun kerak bo'ladigan shaxsiy kapital, bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonidan oldin aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarning qiymati loyihaning dastlabki qiymatining 25 % idan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishi kerak. Olinayotgan kreditning garov ta'minoti (uchinchi shaxslar yoki hukumat kafolati, sug'urta polislari, asosiy vositalar, bino, inshootlar baholash qiymatining 70 % miqdorida, uskunalar esa baholash qiymatining 60-70 % miqdorida ta'minlanganlik garovi sifatida olinadi). So'ralayotgan kredit summasining kamida 120 % summasini tashkil etishi kerak. Taqdim etilayotgan kredit uchun foiz stavkasi MYUOK (yoki N18011, R1VOK)dan kam bo'lmagan plyus kredit liniyasi ochilgan respublikamiz banklarining komissiyalari haqlari kiradi.

<b>Xalqaro banklar:</b>	<b>Investitsiyalar berish yo'nalishlari:</b>
<b>Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)</b>	1993-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan – ETTB va 1999-yil 1-dekabrda O'zbekiston aksiyadorlik tijorat Sanoat qurilish banki bilan – ETTB o'rtasida kredit bitimi imzolanganidan keyin xorijiy kredit liniyalarini
	chet el uskuna va texnologiyalarini sotib olishga, xizmat ko'rsatish sohasiga va ishchi kapital sarf-xarajatlarini qisman qoplashga
<b>Osiyo taraqqiyot banki (OTB)</b>	O'zbekiston Osiyo taraqqiyot bankiga 1995-yilning avgustida a'zo bo'lib kirdi.
	1996-yilning 17-dekabrda OTBning Direktorlar Kengashi O'zbekistonga 50 mln. AQSh doll. miqdorida kredit liniyasini 13 yil muddatga, dastlabki 3 yilini imtiyozli shartda ochishga qaror qildi. Bugungi kunda bu kredit liniyasi to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, o'nlab kichik va xususiy biznes loyihalari moliyalashtirildi.

Bank, O'zbekistonda kiritgan umumiy sarmoyalar hajmi 2005-yil iyun oxiriga ko'ra 584 million yevroni tashkil etgan bo'lib, bu mablag'lar turli faoliyat sohalarida qo'llanildi. Bank sarmoyalarining katta qismi moliya muassalari (29 foiz), tabiiy resurslar va energetika (29 foiz) va infratuzilma (27 foiz) sektorlariga ajratilgan. Bank sarmoyalarining asosiy qismi kredit sifatida (94 foiz), yana 5 foizi aksiyador sifatida moliyalashtirish va 1 foizi kafolatlar sifatida ajratilgan. So'nggi strategiya qo'llash davrida ETTB umumiy hajmi 66,2 million yevroga teng o'nta dasturni imzoladi. Dasturlarning asosiy qismi xususiy sektorga yo'naltirilgan bo'lib, mahalliy va xorijiy investorlarga kreditlar ajratish orqali amalga oshadi.

O'zbekiston bo'yicha so'nggi investitsiya dasturida (VO 8/112 U03-1, 14-mart, 2003-y.) markaziy masalalar quyidagilarni tashkil etgan: xususiy investitsiyalar va

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; moliya muassasalarini kuchaytirish va infratuzilma islohotini qo'llab-quvvatlash.

**Strategiyada markaziy masalalar quyidagilarni tashkil etgan: (I) xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, xususan, kichik va xususiy biznes, H.T.I va xususiylashtirish; (II) mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun tashqi infratuzilmani rivojlantirish; (III) aholining hayotiga ijobiy ta'sir etuvchi shahar va atrof-muhit infratuzilmasini rivojlantirish.**

Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash ETTB, xususiy sektorning iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lganligini va ish joylarini yaratishda maxsus rolini hisobga olgan holda, xususiy sektorni o'zining kichik va o'rta biznes kredit liniyasi orqali qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Ushbu yo'nalishda bank tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliya sektorini kuchaytirish borasida institutsional rivojlanishga yo'naltirilgan donor mablag'larini jalb qilgan.

"Ipoteka" ETTBning mikrokredit faoliyatiga qo'shilishi va "Hamkorbank" bilan hamkorlikning kengaytirilishi, bu moliya muassasalarining mikro va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarni yanada kengaytirdi, xususiy sektorning moliyalashtirilishini yaxshiladi va raqobatni oshirdi. Bundan tashqari a'zo banklar tarafidan savdoni rivojlantirish borasida harakatlarini, Savdoni rag'batlantirish dasturi orqali qo'llab-quvvatladi va xususiy sektorning yanada rivojlanishi uchun Qo'shma-moliyalashtirish dasturi imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati o'rganib chiqilmoqda.


Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ETTB ishtiroki bilan umumiy qiymati 1,4 mlrd. AQSh dollariga teng investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu loyihalarni moliyalashtirishda ETTBning ulushi 723,8 mln. AQSh dollariga teng. Shu bilan birga qiymati 320 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 8 ta investitsiya loyihasi ko'rib chiqilmoqda.

### **Osiyo taraqqiyot banki (OTB)**

**O'zbekiston Osiyo taraqqiyot bankiga 1995-yilning avgustida a'zo bo'lib kirdi. Respublikamizning bu bankka a'zo bo'lishi iqtisodiy o'zgarish jarayonni ma'lum darajada tezlashtiradi hamda tadbirkorlik va biznesning turli xil formalarini rivojlanishiga ko'maklashadi.**

1996-yilning 17-dekabrida OTBning Direktorlar kengashi O'zbekistonga 50 mln. AQSh doll. miqdorida kredit liniyasini 13 yil muddatga, dastlabki 3 yilini imtiyozli shartda ochishga qaror qildi. Bugungi kunda bu kredit liniyasi to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, o'nlab kichik va xususiy biznes loyihalari moliyalashtirildi.

OTB haqida qisqacha ma'lumot. Bu bank 1966-yil dekabr oyida o'z faoliyatini boshladi. Uning shtab kvartirasi Filippinning Manila shahrida joylashgan. Bank Osiyo regionidagi 36 ta davlat va bu regiondan tashqaridagi yana 16 ta davlat tomonidan tashkil etilgan. Bugungi kunda bu bank aholisi zich joylashgan hamda aholi soni tez o'sayotgan davlatlarga ko'maklashayotgan banklardan biriga aylandi.



Manba: <http://bukvi.ru/ekonomika/investicii/ponyatie-i-tipy-innovacionnogo-povedeniya-organizacii.html>

OTB, asosan, o'z kreditlarini texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishchi kapital xarajatlarini qisman qoplashga, qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan subloyihalarni moliyalashtirishga beriladi. Bu kredit liniyasining qarzi oluvchisi bo'lib, respublikamizda, asosan, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki hisoblanadi. Subqarzi oluvchi bo'lib, xususiy, kichik va o'rta korxonalar bo'lishi mumkin. (Aralash kapitalga ega bo'lgan korxonalar bo'lishi mumkin, lekin bunda, boshqaruv xususiy sektor qo'lida bo'lishi kerak). Kredit olish uchun loyiha eksportbop yoki import o'rmini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishi va valyutada o'zini qoplashi kerak.

Kredit kichik biznes loyihalariga uzog'i bilan 7 yil muddatga, shundan 3 yili imtiyozli shartda beriladi. Berilayotgan kreditning maksimal summasi 5 mln. AQSh doll. ni tashkil etadi. Lekin bu summa loyihaning dastlabki qiymatining – 75 %ini qoplashi kerak. Uskunalar va texnologiyalarning ta'minotchisi OTB ning a'zosi bo'lishi kerak (56 ta davlat, bularga: Osiyo davlatlari, AQSh, Kanada, Yevropa davlatlari, Avstraliya va Turkiya davlatlari kiradi. Bu bankka a'zo bo'lmagan davlatlar qatoriga Yaqin Sharq, MDH davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekistonni qo'shmagan holda) va boshqa davlatlar kiradi.

Osiyo taraqqiyot banki kredit olishi uchun qarzi oluvchi loyiha qiymatining kamida 25 %iga o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Qarzi oluvchi ta'minot sifatida – bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayondan oldingi aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak. Garov ta'minoti sharti olinayotgan kredit summasi 120 %dan kam bo'lmasligi kerak.

Taqdim etilayotgan kredit uchun foiz stavkasi quyidagicha bo'ladi:

OTB foiz stavkasi + O'zbekiston Respublikasi TIFMB marjasi + Tijorat banklari marjasi Milliy bank marjasi subloyihalarni baholash qiymatidan kelib chiqqan holda (kreditlashtirish jarayon, risk darajasi) kredit summasining 0,5 %-3 % gacha tashkil etadi. Kreditni boshqarganlik uchun komission haq – kredit summasining yillik 0,15 % miqdorida (so'mda) to'lanadi. Asosiy qarzni qaytarish har 6 oyda amalga oshiriladi.

Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonda ko'plab loyihalarni moliyalashtirish uchun reja tuzgan. Bunga ko'ra, bu loyihalar 2006-yildan 2010-yilgacha amalga oshirilishi

ko'zda tutilgan. Bu loyihalarga: sog'liqni saqlash, ta'lim sohasi, nogironlarga beg'araz yordam, shaharlarda kanalizatsiyani yaxshilash, toza suv yetkazib berish va boshqalar kiradi. 2006-yildan 2008-yilgacha 14 ta shunga o'xshash loyihalarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan. 1996-yildan beri Osiyo taraqqiyot banki 19 ta loyiha bo'yicha 21 ta qarz bergan. Bu qarzning umumiy summasi 914,7 million dollarni tashkil etdi.

Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonga iqtisodiy rivojlanish 2005-2007-yillar uchun 300 million AQSh dollar kredit berishini ma'lum qildi. Qarorgohi Manilada joylashgan bankning ma'lumotiga ko'ra, har yili va'da qilingan kreditning 100 million AQSh dollari ajratiladi va kredit uch yil davomida beriladi. Uning 70 foizi bankka ko'ra, qishloq joylardagi taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi. Qolgan qismi esa xususiy sektorni rivojlantirish, transport va ta'lim sohaslarini yaxshilash uchun sarf qilinadi.

### Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV)

KfV iqtisodiyotning turli sohasidagi (qishloq xo'jaligidan tashqari) loyihalarga – texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun kredit beradi.

Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki hisoblanadi, subqarz oluvchi bo'lib esa – xususiy, kichik biznes korxonalari hisoblanadi (aralash kapitalga ega bo'lgan korxonalar bo'lishi mumkin, lekin boshqaruv xususiy sektor qo'lida bo'lishi kerak).

Loyiha eksportga mo'ljallangan, import o'mini bosadigan va valyutada o'zini qoplaydigan bo'lishi kerak. Kreditlashtirish jarayoni 1 yildan 5 yilgacha bo'lishi mumkin. Bu kredit liniyasida imtiyozli davr – 1,5 yil hisoblanadi. Beriladigan kredit maksimal summasi 2,5 million yevroni tashkil etadi, lekin loyiha dastlabki qiymatining 75 %idan ko'p bo'lmagan miqdorda beriladi. Bu kreditni olish uchun subqarz oluvchi – loyiha dastlabki qiymatining kamida 25 % o'z mablag'iga ega bo'lishi kerak. Qarz bo'yicha garov ta'minoti olinayotgan kreditning 120 %idan kam bo'lmasligi kerak.




Illustration 5.1

Manba: <http://bukvi.ru/ekonomika/investicii/ponyatie-i-tipy-innovacionnogo-povedeniya-organizacii.html>

Berilayotgan kredit uchun foiz stavkasi quyidagicha hisoblanadi: EIJIVOK + KfV marjasi (1,5 %) + TIFMB marjasi + Tijorat banklari marjasi EIJIVOK – EIJIO depozitlari bo'yicha banklararo foiz stavkasi va u Yevropa banklararo bozorida aniqlanadi. Kreditni boshqarish uchun komission haq kredit



summasining yillik 0,15 % miqdorida olinadi (so'mda). Qarz bo'yicha asosiy to'lovlar har 6 oyda to'lab turiladi.

Bu o'rinda Prezidentimizning: "...ko'pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho'zib yuborilmoqda. Ichki bozorimizning ko'plab tovarlarga bo'lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti",- deb ta'kidlaganlari bejiz emas

35

Biz yuqorida ko'rib o'tgan 3 ta bank kredit liniyasi bo'yicha loyihalarni tanlab olishda, shu kredit liniyasiga xizmat ko'rsatayotgan bank asosan quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

- loyiha bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotning eksportga mo'ljallanganligiga;

- loyiha import o'rmini bosadigan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilganligiga;

- loyihaning valyutada o'zini qoplashiga.

Bundan tashqari har bir moliyaviy tashkilotlarning kredit liniyalari bo'yicha shu kredit liniyalariga xizmat ko'rsatadigan bank bilan tuzilgan kredit bitimi va unda ko'rsatilgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda loyihalar tanlab olinadi va kreditlanadi.

### Islom taraqqiyot banki

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamiz banklarining jahon moliya sistemasiga qo'shilish jarayonini yanada tezlashtirish zarur bo'ladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun xalqaro moliya institutlari bilan muloqotni rivojlantirish zarur.

<b>Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV).</b>	iqtisodiyotning turli sohalaridagi (qishloq xo'jaligidan tashqari) loyihalarga – texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun kredit beradi.
	kredit liniyasida imtiyozli davr 1,5 yil hisoblanadi. Beriladigan kredit maksimal summasi 2,5 million YEVRoni tashkil etadi, lekin loyiha dastlabki qiymatining 75 % idan ko'p bo'lmagan miqdorda beriladi. Bu kreditni olish uchun subqarz oluvchi loyiha dastlabki qiymatining kamida 25 % o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Qarz bo'yicha garov ta'minoti olinayotgan kreditning 120 %idan kam bo'lmasligi kerak.
<b>Islom taraqqiyot banki</b>	Islom taraqqiyot bankini tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya, Musulmon mamlakatlari moliya vazirlari tomonidan 1973-yil dekabr oyida imzolangan edi. Bank esa o'z faoliyatini 1975-yil oktabr oyida boshladi.
	Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, irrigatsiya sistemalarini qurish va rekonstruksiya qilish, sotsial va iqtisodiy infrastrukturani yaxshilashga qaratilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgandir.

Respublikamiz korxonalari o'z mahsulotlarini musulmon mamlakatlariga eksport qilish va rivojlangan musulmon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarimizni

<sup>35</sup>Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017.14.01>.

rivojlantirish uchun Islom taraqqiyot banki bilan munosabatlarni o'rnatishni taqozo etadi.

Islom taraqqiyot banki – davlatlararo kredit tashkiloti bo'lib, uning a'zolari musulmon mamlakatlari hisoblanadi. Bu Fors ko'rfazidagi davlatlarning neft orqasidan topgan daromadlari hisobiga tashkil topgan birinchi yirik moliya institutlaridan hisoblanadi.

Islom taraqqiyot bankini tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya Musulmon mamlakatlari moliya vazirlari tomonidan 1973-yil dekabr oyida imzolangan edi. Bank esa o'z faoliyatini 1975-yil oktabr oyida boshladi. Bankning asosiy maqsadi – islom qonunlari asosida musulmon mamlakatlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish hisoblanadi.

Islom taraqqiyot bankining boshqa moliya kredit institutlaridan farqi **kreditlashda foiz olmasligidadir.**

**Bank kreditlashda olinadigan foiz o'rniga korxonada oladigan foydadan ulush sifatida oladi, ya'ni korxonada olingan foydani bank bilan bo'lishib olishadi.**

Islom taraqqiyot banki investitsion loyihalarni moliyalashtirishda juda ko'p usullardan foydalanadi: jumladan, texnik yordam, lizing, kredit, kapitalda ishtiroki, moliyalashtirish, foydani bo'lishdagi ishtiroki va boshqalar.

Islom taraqqiyot bankining jami bank amaliyotlarining uchdan bir qismi uzoq muddatli kreditlar bo'lib, bular qishloq xo'jaligini rivojlantirish, irrigatsiya sistemalarini qurish va rekonstruksiya qilish, sotsial va iqtisodiy infrastrukturani yaxshilashga qaratilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgandir.

Islom taraqqiyot banki investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlar berib, yuqorida aytganimizdek, bu kreditlardan foydalanganligi uchun foiz olinmaydi. Kreditni qaytarish muddati 25 yilgacha bo'lishi mumkin. Bank ma'muriy xarajatlarni qoplashi uchun 2,5 foiz miqdorida komissiya haqi oladi. Imtiyozli kreditlash davri 7 yilgacha bo'ladi.

Islom taraqqiyoti bankining ustav kapitali 6 mlrd. islom dinari miqdorida bo'lib, quyidagi davlatlar asosiy aksiya egalari hisoblanadi.

Hozirgi kunda Islom taraqqiyot bankiga 55 davlat a'zo bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bankka uning 28-yillik yalpi majlisida 2003-yilda 2-sentabrda a'zo bo'lgan.

bookbeon.com

## Corporate eLibrary

See our Business Solutions for employee learning

Click here

Management Time Management

Productivity Goal Setting Motivation

Download free eBooks at bookbeon.com

Click on the ad to read more

Manba: <http://bukvi.ru/ekonomika/investicii/ponyatie-i-tipy-innovacionnogo-povedeniya-organizacii.html>

Islom taraqqiyot banki tomonidan O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasiga vositalar sotib olishga 293 ming AQSh dollarilik grant, Imom Al-Buxoriy memorial kompleksini ta'mirlash uchun 255 ming AQSh dollari ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar to'liq o'zlashtirilgan.

Bundan tashqari Mir-Arab madrasasini, Toshkent shahridagi gospitalni ta'mirlash uchun, maktablarda arab tilini o'qitish uchun O'zbekiston Musulmonlar idorasi bilan bank o'rtasida 1,4 million AQSh dollarilik grant ham imzolangan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlari investitsiya loyihalarini moliyalashda, banklar o'rtasida aloqalarni yanada rivojlantirishlari zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o'rtasidagi kelishilgan 2005-2007-yillar davomida amal qiladigan Investitsiya hamkorlik dasturi doirasida, umumiy hajmi 400 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazlari zamonaviy texnikalari bilan ta'minlashda Islom taraqqiyot bankining yordami katta bo'lmoqda.

#### **8.4. Korxonalar moliyaviy rejasining mohiyati va ahamiyati. Zararsizlik tahlili. Korxonaning kapitalga bo'lgan ehtiyoji, uning manbalari va moliyaviy tahlili**

Moliyaviy reja ishlab chiqarishni tashkil etish – marketing reja kabi biznes rejaning asosiy bo'limlaridan biridir. U ishlab chiqarish va biznes uchun zarur bo'ladigan imkoniyatli investorlarni aniqlaydi va shu bilan bir qatorda biznes rejani iqtisodiy jihatdan bajarilishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Biznes reja tuzishdan avval rahbar korxonaning foydali ekanligiga to'la baho berishi kerak. Bu baho birinchi navbatda imkoniyatli investorlar uchun ham zarur. Biznes foydalimi? Qancha mablag' zarur bo'ladi, biznesni boshlash va qisqa muddatli moliyaviy ehtiyojni qondirishda qay yo'l bilan pul olinishi mumkin? Yuqoridagi muammolarning barchasi biznes rejaning moliyaviy reja bo'limida hal etiladi.

**Biznes reja bajarilishini baholashda moliyaviy axborotlarning uch manbai mavjud:**

- 1) yaqin uch yilda kutilayotgan realizatsiya va xarajatlar hajmi;
- 2) yaqin uch yil ichida pul oqimlari(mavjud mablag'lar harakati tahlili);
- 3) joriy yil balansi va yaqin uch yil ichida kutilayotgan balans holatlari.

Moliyaviy hisobot va prognozlar korxonaning o'tgan faoliyati va kelgusi tashkil etish rejalarini qisqacha tasvirlaydi.

Har bir moliyaviy hujjatlar biznes rejada tekst shaklida keltiriladi, ular biznes rejaga va uning ilovalariga mos kelishi kerak. Moliyaviy hisobotlar tegishli hujjat va tushuntirish xatlari bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishning kutilayotgan hajmi va o'sha davrga mos xarajatlar uch yilga umumlashtirilgan bo'lishi kerak, birinchi yilning ko'rsatkichlari oylarga bo'lib ko'rsatilishi shart. Bunda mahsulot tannarxi, umumiy va ma'muriy xarajatlar hisoblanishi zarur. So'ngra belgilangan soliqlar tartibi va stavkalari asosida

korxonaning soliqdan so'nggi sof foydasi aniqlanishi shart. Kutilayotgan mahsulotlarni sotish hajmi va xarajatlar summasini birinchi o'n ikki oyga va keyingi yillarga aniqlashda bozor haqidagi ma'lumotlarga tayanish kerak. Moliyaviy sohadagi axborotning ikkinchi asosiy tomoni, bu 2-3 yil ichidagi pul oqimlarini oldindan bilish uchun boshlang'ich naqd pul mablag'lariga kutilgan debitorlik qarz summasi va boshqa tushumlarni, jumladan, oylar bo'yicha yil davomida barcha to'lovlar aniqlanishi shart. To'lovlar yilning har xil muddatlarida amalga oshirilar ekan, naqd pulga bo'lgan ehtiyoj oylar bo'yicha aniqlanishi zarur, ayniqsa, birinchi yilda mahsulotni sotish bir tekisda amalga oshmaydi, mijozlar o'z vaqtida mahsulotlar qiymatini to'lay olmasliklari mumkin, shuning uchun doimiy xarajatlarni qoplash maqsadida, ya'ni ish haqi, xizmat safari xarajatlari kabi to'lovlarni to'lash uchun qisqa muddatli qarz olishni ham ko'zda tutish kerak.

Biznes rejaning moliyaviy reja bo'limidagi ma'lumot (axborot)larning oxirgi asosiy elementi – kutilayotgan balanslar hisoblanadi. Ular korxonaning ma'lum bir davrdagi moliyaviy holatini ko'rsatadi.

Balanslar korxonada aktivlari, majburiyatlari, investorlar (investitsiya egalari) va ayrim sheriklar haqida, shu jumladan, taqsimlanmaydigan foyda va zararlar to'g'risida umumlashgan ma'lumot beradi. Imtiyozli investorga barcha ma'lumotlar ko'rsatilishi shart, chunki uning asosida biznes rejaning boshqa bo'limlari tuziladi.

Biznes rejaning moliya bo'limiga quyidagi moliyaviy reja va hisobotlar kiritilishi shart:

- korxonaning o'tgan davrdagi holati bo'yicha moliyaviy ma'lumotnoma;
- oxirgi uch yil bo'yicha foyda yoki zarar hisobotlari;
- korxonaning oxirgi uch yildagi balanslari;
- kelgusi uch yilda kutilayotgan foyda yoki zarar hisoboti (oylar va choraklar bo'yicha);
- kelgusi uch yil bo'yicha kutilayotgan mavjud mablag'lar hisoboti;
- korxonaning oxirgi uch yildagi balanslari;
- zararsizlik nuqtasi tahlili;
- o'tgan va kutilayotgan moliyaviy koeffitsiyentlar (ushbu tarmoq o'rtacha ko'rsatkichiga taqqoslagan holda);
- moliyaviy hisobotlarni oldindan belgilashda foydalanilgan hujjatlar;
- barcha oldindan hisoblangan hisobot shakllari bo'yicha ilova va hisoblar;
- moliyaviy rejaga asoslangan buxgalteriya hisobi shakli;
- auditor xulosasi.

### **Zararsizlik tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tadbirkor faoliyatining bosh maqsadi – samarali (foydali) harakat qilish hisoblanadi. Shuning uchun ham, tadbirkor asosiy e'tiborni birinchi navbatda yuqori daromad va uning yuksalishiga qaratmog'i lozim. Shu maqsadda zararsizlik tahlil etiladi. Tahlilda quyidagi tushunchalarga alohida ahamiyat beriladi:

- zararsizlik tahlili usuli;
- doimiy, o'zgaruvchan va aralash xarajatlar;
- zararsizlik tahlilining grafik usuli;



- zararsizlik nuqtasi va uning mohiyati;
- yalpi foyda;
- boshqaruv usuli;
- zararsizlik zonasi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesni boshqaruvchilar, tadbirkorlar zararsizlikni tahlil etish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Bularga:

- biznesni rejalashtirish;
- maqsadli foyda tahlili;
- ishlab chiqarishda optimal texnologiyani tanlash va hokazo.

Zararsizlikni tahlil etish orqali har bir menejer (boshqaruvchi) biznesda ishbilarmonlik sohasidagi o'zgarishlarni baholay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biznesga kirish strategiyasini tanlashda korxonada foydaliligi yetakchi o'rin tutadi. Shunday ekan, menejerlar o'zgarishlar ta'sirini baholashga muhtoj bo'ladi. Bu vaqtda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratmog'imiz lozim:

- ishlab chiqarilayotgan (yoki ishlab chiqarish ko'zda tutilayotgan) mahsulotga bo'lgan bozor talabi;
- mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan zaruriy xarajatlar;
- ishlab chiqarish xarajatlarning tuzilishi va tarkibi;
- ishlab chiqarish texnologiyasining yangilanishi (o'zgarishi)ni korxonada samaradorligiga (foydaliligiga) ta'siri.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday biznesni yoki tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Ularga:

- a) qanday xajmda mahsulot ishlab chiqarish zarurligi;
- b) tovar bahosini qanday belgilash kerakligi;
- v) o'zgaruvchi xarajatlar darajasi qanday bo'lishi lozimligi;
- g) arzon qo'l mehnatini yoki ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashning tanlanishi;
- d) mahsulot sotishni 20 %ga ortishi korxonada foydaliligiga qanday ta'sir etishi;
- j) ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni qay darajaga ko'targanimizda ish foyda bera boshlashi va hokazo.

Ushbu muammolarni har tomonlama chuqur o'rganish tadbirkorga faoliyat yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilishiga olib kelibgina qolmay, bozorda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va o'z o'rniga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Shuning uchun ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosi zararsizlikni tahlil etish hisoblanadi.


**Zararsizlik tahlili** – korxonada mahsulotning bahosi, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchi xarajat, doimiy xarajat va foydalilikni o'rganuvchi usuldir.

**Zararsizlik tahlilining eng asosiy tomoni bu xarajatlarni ikki guruhga bo'lib o'rganishdir:**

1. Doimiy xarajatlar.
2. O'zgaruvchan xarajatlar.

O'zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish xajmi ortishi va kamayishiga qarab ortib yoki kamayib boradi.


Grafik ko'rinishida uni quyidagicha tasvirlanadi:



Bularga xomashyo va materiallar, ish haqi, texnik xizmat ko'rsatish, mukofotlar va boshqa o'zgaruvchan xarajatlar kiradi.

Doimiy xarajatlar bu mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatlardir.

Doimiy xarajatlar grafik ko'rinishida quyidagicha tasvirlanadi:





Bu xarajatlarga ijara to'lovi, doimiy maoshlar, yillik reklama xarajatlari, kommunal xizmat to'lovlari, sug'urta summasi va boshqalar kiradi.

Yuqoridagi xarajatlarning o'zgarishi korxonalar (firma)ni moliyaviy holatini o'zgarishiga olib keladi.

**Zararsizlik nuqtasi** – mahsulot sotishdan tushgan tushumni, uni ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan xarajatlarga teng bo'lishi yoki foyda summasiga tengligidir.

Korxonalar umumiy xarajatlarni mahsulot ishlab chiqarish va sotishga bog'liqligi quyidagi ko'rinishni oladi:



Har birlik tushum hisobiga mahsulot ishlab chiqarishning ortishida bir xil summaga o'zgaruvchan xarajatlar ortadi. Bundan tashqari doimiy miqdor ham ortadi.

Har bir mahsulot birligida sotish bahosi bilan o'zgaruvchan xarajatlar orasidagi farq o'zgarmas miqdor bo'lishi kerak. Bu farq yalpi foyda deb yuritiladi.

**Misol:**

Mahsulot bahosi – 50 so'm

O'zgaruvchan xarajatlar hissasi – 28 so'm

Doimiy xarajatlar – 11000 so'm

Bitta mahsulot hisobiga yalpi foyda –  $50 - 28 = 22$  so'm

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – 3000 dona

Yalpi foydaning umumiy hajmi –  $22 \times 3000 = 66000$  so'm


Mahsulot sotishdan tushgan tushum –  $50 \times 3000 = 150000$  so'm

O'zgaruvchan xarajatlar chegirilib tashlanadi –  $28 \times 3000 = 84000$  so'm

Yalpi foyda – 66000 so'm.

$$\text{Yalpi foyda} = \text{doimiy xarajatlar} + \text{foyda}$$

Yalpi foydadan (66000 so'm) doimiy xarajatlarni (11000 so'm) ayirib tashlasak, 5000 so'm foyda qoladi.



Zararsizlikni ta'minlash uchun yalpi foyda miqdori doimiy xarajatlarni qoplashga teng bo'lishi lozim.

**Misol:**

Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar – 30 so'm


Realizatsiya (sotish) bahosi – 36 so'm

Doimiy xarajatlar – 110000 so'm

Bitta mahsulot foydasi  $(36-30)=6$  so'm

Zararsizlik nuqtasi =  $110000 : 6 = 18333,3$

Zararsizlik nuqtasi xususiyatlari – har qanday zararsizlik nuqtasidan yuqori qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot foyda beradi. Zararsizlik nuqtasi doimiy hisoblanmaydi, u sotish bahosi o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.



**Fig. 3.1. Map of Indifference Curves for a Risk-Averse Investor**

Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

Zararsizlik tahlili mahsulot sotish hajmini baholashda qo'llanishi mumkin, chunki u firmani maqsadli foyda olishini ta'minlaydi.

**Tushum = foyda + o'zgaruvchan xarajatlar + doimiy xarajatlar.**

**Tushum – o'zgaruvchan xarajatlar = foyda + doimiy xarajatlar.**

Talab etilayotgan yalpi foyda miqdori maqsadli foydani ta'minlash va doimiy xarajatlarni qoplashga yetarli bo'lishi kerak.

**Mahsulot sotishning zaruriy hajmi:**

**Foyda (maqsadli) + doimiy xarajatlar**

$N = \frac{\text{Foyda (maqsadli) + doimiy xarajatlar}}{\text{Mahsulot birligiga yalpi foyda}}$

**Mahsulot birligiga yalpi foyda**

**Misol:**

Mahsulot bahosi – 30 so'm

O'zgaruvchan xarajatlar – 10 so'm

Doimiy xarajatlar – 60000 so'm

Korxonaga – 50000 so'm foyda olishi uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmi qanday bo'lishini quyidagicha aniqlaymiz:

**Yagona yalpi foyda 20 so'm (30-10)**

$$N = \frac{50000 + 60000}{20} = \frac{110000}{20} = 5500 \text{ dona}$$

**Korxonaning kapitalga bo'lgan ehtiyoji, uning manbalari va moliyaviy tahlili. Loyihani moliyaviy samaradorligini foyda balansi yordamida aniqlash usuli**

Biznes rejaning ushbu bo'limida tadbirkorlar o'z korxonalarining huquqiy shaklini (mulkchilik shakli bo'yicha korxonaga turi) va kapital bilan ta'minlanish sharoitini aniqlaydilar. Ushbu bo'lim qisqa va aniq tayyorlanishi lozim. Biznes strukturasi aniqlash – uning eng yaxshi shakliga nisbatan ham, unda kapital manbalarining ishtirokiga nisbatan ham mutaxassislar fikriga tayanishni talab



etadigan sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun chetdan mutaxassislarni konsultant sifatida taklif etishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

1. Tadbirkor yuqori malakali, halol, ishonchli huquqshunos va buxgalterlarni topishi hamda ularni majburiyatlar, soliqlar va boshqa masalalarni hal etishga jalb etishi lozim.

Ba'zi hollarda tadbirkor ilojsiz sharoitga tushib qoladi: bir tomondan, mutaxassislarni taklif qilishga mablag'larning yetishmasligi, ikkinchi tomondan esa firmaning muvaffaqiyati uchun ularning yordami zarur ekanligini his etadi. Lekin bular tadbirkorni to'xtata olmasligi kerak, chunki ko'pchilik mutaxassislar ular bilan ishlashga tayyorlar. Shu sababli ular o'z xizmat haqlari (gonorarlari) summasini pasaytirishga va hattoki korxonada ulushga ega bo'lish hisobidan ham ishlashga rozi bo'ladilar. Tadbirkorlar bunday sharoitda hech ikkilanmay bunday mutaxassislar bilan muzokoraga kirishishlari lozim.

2. Hamkorlik borasida va gonarar miqdori bo'yicha shartnoma tuzishda tadbirkorlar juda e'tiborli bo'lishlari lozim. Masalan, tadbirkor firmani 20 %ni 2 mln. so'mga sotishni ta'kidlab turib, shu summani konsultatsiyalar uchun to'lovlarni yuqori chegarasi deb tushunishi mumkin. Konsultant esa buni boshqacha, ya'ni korxonaga og'ir sharoitga tushib qolsa, korxonaning 20 %ni 2 mln. so'mga olishi mumkin deb tushunadi va u to'lov borasida tortishadi.

Firmalarning kapitalga bo'lgan ehtiyojini aniq belgilash, odatda, tadqiqotlar va ziyraklikni o'zaro moslashtirishga asoslanadi, shuningdek, kapitalning zaruriy miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi kelgusi hodisalar ham prognozning omad darajasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu bo'limdagi va moliyaviy rejadagi ko'rsatkichlar o'zaro mos kelishi lozim. Ushbu shart, ayniqsa, balansda ko'rsatiladigan ma'lumotlarga tegishli bo'ladi. Chunki balansda kapital mablag'larning va uning ishlatish yo'nalishlari aniqlangach, ularni ko'zda tutilgan manbalarini ko'rsatish kerak. Bunda birinchi qoida shundan iboratki, barcha yo'nalishlar va barcha manbalar bo'yicha olingan kapital hajmi summasi o'zaro mos kelishi lozim.

Ikkinchi qoida shuni ko'zda tutadiki, biznes rejada muzokara predmetiga aylanuvchi hech narsa bo'lmasligi kerak. Tadbirkor kapital manbalarini umumiy tarzda ifodalashi mumkin. Tadbirkor potensial manbalarni diqqat bilan o'rganishi lozim. Qandaydir venchur kapital fondi boshlang'ich faoliyat bosqichida bo'lgan firma o'z mablag'larini jalb etishga rozi bo'lmasligi, qaysi bir bank ssuda berishdan oldin aksiyalar ulushini talab etishi mumkin. Potensial moliyalashtirish manbai bilan aloqa o'rnatishda quyidagi maslahatlarga amal qilish foydadan xoli bo'lmaydi:

- agar iloji bo'lsa tavsifnomalar yig'ish;
- biznes rejani turli xil kapital manbalariga ommaviy tarzda jo'natish o'rniga ishonchli manbalarni tanlab murojaat qilish;
- biznes strukturasi birdan ortiq moliyalashtirish manbai ishtirokini ko'zda tutsa, barcha manbalarga bir vaqtda biznes rejani jo'natish orqali uni o'rganishni tezlatish mumkin;

- talabga javob bermaydigan moliyalashtirish tashkilotini tanlash va belgilash yetarli emas. Tadbirkor unda zaruriy shaxsni topishga harakat qilishi kerak. Kapitalni

topish birmuncha vaqt talab etadigan murakkab jarayondir. Bu tadbirkor uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. Demak, ishning muvaffaqiyati uchun samarali harakat qilish lozim.

Korxonaning huquqiy shaklini tanlashda tadbirkor korxonaga qanday turda bo'lishini hal qilishi kerak. Bunda mavjud mablag'lar, shuningdek, jalb etilishi lozim bo'lgan mablag'lar manbalari ko'rsatiladi. Tadbirkor potensial kapital ta'minotlariga juda keng variantlarni, ya'ni aksiyalar, qarz majburiyatlari yoki konvertatsiyalangan qarz kabi gibriddan foydalanishni taklif etishi mumkin.

Korxonaga huquqiy shaklining nisbatan keng tarqalgan shakllariga quyidagilar kiradi:

1. **Tezkor ssuda.** Ssuda – asosiy qarz va foiz to'lovlarini ma'lum belgilangan davr mobaynida to'lash sharti bilan qarz olish turidir. Bunda foiz stavkasi aniq belgilanadi yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

2. **Kreditli liniya** – kompaniyaning bozor qiymatidagi aylanma kapitalini moliyalashtirish borasidagi kelishuv.

Oddiy aksiyalarning ikki turi mavjud: "ovozga ega aksiyalar" – aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqiga egalar. "Ovozga ega bo'lmagan aksiyalar", bunda aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega emaslar.

#### **A. Korxonaning moliyaviy tahlili**

Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni moliyaviy tahlilga uchta moliyaviy hisobotni tayyorlash, tahlil etish va prognoz qilish kiradi:


- daromadlar (foyda va zararlar) hisoboti;
- pul mablag'lari tushumlari va chiqimlari hisoboti;
- balans hisoboti.

Bu hisobotlar loyihaning butun amalda bo'ladigan davriga yoki hech bo'lmaganda uni ekspluatatsiya qilishning dastlabki bir necha yiliga tuziladi.

Ko'rsatilgan moliyaviy hisobotlarni prognoz qilish ularning barcha komponentlarini chuqur tahlil qilishni, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning umumiy qabul qilingan qoidalarini bilishni talab etadi. Shu tufayli bu ishni tajribali buxgalter auditorlarga yoki moliyaviy tahlilchiga topshirish kerak.

Foyda va zararlar hisoboti korxonaning ma'lum davrdagi (chorak, yil) ishlab chiqarish faoliyatidan olgan daromadlarini shu davrdagi qilingan va daromad olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Bu hisobot joriy xo'jalik faoliyati samaradorligini, loyihaning o'z kapitalini oshirish rezervlarini baholash uchun zarur. Bu shaklning yana bir funksiyasi turli soliq to'lovlari va dividendlar miqdorini aniqlashdan iborat.

#### **Korxonaning moliyaviy hisob tizimi ma'lumotlari:**



**Bu hisobotlar quyidagilarga taqdim qilinadi:**

#### **1. Ichki guruh:**

- ta'sischilar;

- boshqaruvchilar;
- ichki auditorlar.

## 2. Tashqi guruh:

- investorlar;
- kasaba uyushmalari;
- soliq inspeksiyasi;
- kreditorlar;
- jamoat tashkilotlari;
- tashqi auditorlar.

Quyida ushbu hisobotlarning xalqaro standartlarga mos keluvchi namunalarini keltiramiz (raqamlar shartli):

(mln.so'mda)

<b>Balans 31-dekabr 2016-yil</b>	
<b>Vositalar</b>	
<b>Aylanma vositalar</b>	
Pul vositalari	1449
Bozordagi qimmatbaho qog'ozlar	246
<b>Debitor hisoblari (sof)</b>	<b>9944</b>
Tovar material vositalari	10623
Puli to'langan xarajatlar	389
<b>Jami aylanma mablag'lar</b>	<b>22651</b>
<b>Asosiy vositalar</b>	
Bino, inshoot, asbob-uskunalar	26946
Jami amortizatsiya yig'indisi	-13534
Bino, inshoot, asbob-uskunalar (sof)	13412
Investitsiya	1110
Patent va savdo belgisi	403
Gud vil	663
<b>Jami vositalar</b>	<b>38239</b>
<b>Kapital va majburiyatlar</b>	
<b>qisqa muddatli majburiyatlar</b>	
Kreditorlar hisoblari	5602
Bankka ssuda to'lash	1000
Jami majburiyatlar	876
Kutilayotgan soliq to'lovlari	1541
Uzoq muddatli qarzning joriy qismi	500
<b>qisqa muddatli majburiyatlarning jami</b>	<b>9519</b>
<b>Uzoq muddatli majburiyatlar</b>	
Uzoq muddatli qarzni qodig'i	2000
Foyda solig'ini kechiktirilgan qismi	824
<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>12343</b>
<b>Kapital</b>	
Oddiy aksiyalar	1000
Boshqa to'langan hissadorlik kapitali	11256
Jami to'langan hissadorlik kapitali	12256
Taqsimlanmagan foyda	13640
Jami kapital	25896
<b>Jami majburiyatlar va kapital</b>	<b>38239</b>

**Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini  
baholashda korxonalar vazifasi:**

<b>birinchisi</b>	kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtayi nazaridan eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;
<b>ikkinchisi</b>	mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

**Foyda hisoboti**

<b>Tovarlarni sotishdagi tushum</b>	2200000
Sotilgan tovarlarning tannarxi	1300000
Umumiy foyda	900000
Boshqaruv va sotish xarajatlari	420000
Amortizatsiya xarajatlari	150000
Soliq va kredit to'lovlaridan oldingi foyda	330000
Kredit qarz foizlari to'lovlari	90000
Soliq to'lashdan oldingi foyda	240000
Soliq to'lovi	80000
Sof foyda	160000
Imtiyozli aksiyalar dividendlari	10000
Taqsimlanmagan foyda	150000
Muomaladagi aksiyalar soni	120000
Har dona aksiyaga foyda	1,25

Yuqoridagi moliyaviy hisobotlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy salomatligi haqida xulosa qilinadi. Moliyaviy tahlilning birinchi bosqichi ana shu hisobotlardan kelib chiqadi.

Pul mablag'lar tushumi va xarajat hisoboti hisobot davrida pul mablag'larini boshqarishni xarakterlaydi va hisobot yilida tashkilotning pul tushumlari va chiqimlarini hisoblash uchun xizmat qiladi. Ba'zida bu hisobot likvidlilikning harakati hisoboti, pul mablag'lari harakati hisoboti deb ham yuritiladi.

Bunday hisobotning tayyorlanish zarurati shu bilan izohlanadiki, foyda va zararlar hisobotida pul mablag'larining shu davridagi harakati to'liq aks ettirilmaydi.

Balans hisoboti boshqa hisobotlardan farqli ravishda korxonaning ma'lum bir davr uchun emas, balki aniq sanadagi holatini aks ettiradi.

Balans hisoboti yoki an'anaviy buxgalteriya hisoboti ma'lum sanada korxonada ixtiyorida nimalar borligi va uning manbalarini ko'rsatib boradi.

Loyiha amaliyotida umumlashtirilgan ko'rinishdagi balansdan foydalaniladi.

Ko'rsatib o'tilgan hisobot shakllaridan foydalangan holda zarur moliyaviy koeffitsiyentlar hisoblanadi va yillar bo'yicha bu koeffitsiyentlar o'zgarishi tahlil qilinib muammo va rezervlar aniqlanadi (ushbu masalalar "Korxonaning iqtisodiy holatini sog'lomlashtirish usullari" bobida keng ko'rib chiqiladi. Qarang).



### Pul mablag'lari harakati hisoboti

	Rejalashtirish intervali tartib raqami			
	1	2	....	p
1. O'z kapitalining ko'payishi				
2. Qarzdorlikning ko'payishi				
3. Joriy passivlarning ko'payishi				
4. Sotishdan olingan tushum				
5. Boshqa daromadlar				
Jami tushum				
1. Doimiy aktivlarning ko'payishi				
2. Joriy aktivlarning ko'payishi				
3. Operatsion xarajatlar				
4. Kreditlar uchun to'lovlar				
5. Soliqlar				
6. Dividendlar				
Jami chiqimlar				
Pul mablag'lari balansi				
Pul mablag'lari balansi o'sib borish tartibida				

#### B. Loyihaning moliyaviy samaradorligini foyda balansi yordamida aniqlash usuli

Loyihani birinchi hisobda hisob-kitoblar bilan samaradorligini hisoblashda sodda foyda hisoboti modelidan foydalanishimiz mumkin.

Foyda hisoboti modelidan foydalanib loyihani oddiy usulda samaradorligini aniqlash.

Ko'rsatkichlar	Xalqaro standart bo'yicha (umumiy ko'rsatkichga nisbatan foizda)	Mahalliy standart bo'yicha (umumiy ko'rsatkichga nisbatan foizda)
1. Tovarni sotilishidan tushum	100	60
2. Sotilgan tovarlar tannarxi	40	40
3. Umumiy foyda (3=1-2)	60	20
4. Boshqaruv xarajatlari		
5. Marketing xarajatlari		
6. Boshqa xarajatlar	15	15
7. Soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda (7=3-4-5-6)	45	5

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, loyihaning foydalilik darajasi soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda ko'rsatkichida ko'rinadi. Ko'p hollarda tijorat banklari loyihaning samaradorlik darajasini hamda kreditni qaytarib berish quvvatini aniqlashda bu ko'rsatkichni 30 %dan yuqori bo'lishini xohlaydi. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, kreditni qaytarish koeffitsiyenti yuqori deb tushuniladi. Shu bilan birgalikda umumiy foyda ko'rsatkichining koeffitsiyenti ham 50 %dan yuqori bo'lsa maqsadga muvofiq deb tushiniladi.

O'zbekistondagi tijorat banklari xaridorlar tomonidan loyihaning kamida 25 %ini mijozlar tomonidan qoplanishini talab etadi. Agarda mijozlar 30-35 va undan

ko'p foizda loyihani moliyalashtirsa, unda loyihalar tijorat banklari tomonidan yanada yengilroq moliyalashtirilishi mumkin.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ushbu loyihada xalqaro standart bo'yicha kutilayotgan sof foyda 60 %ni soliq va kredit to'lashdan oldingi foyda 45 %ni tashkil etadi. Demak, bu loyihani birinchi sodda usul bilan tahlil qilganimizda, unga ijobiy baho berishimiz mumkin.

Jadvaldan yana quyidagi xulosaga kelish mumkin, loyihadagi soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda 45 %ni tashkil etgani uchun korxonaga umumiy tushumning 45 %gacha miqdorida investitsiya olishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar korxonaning umumiy tushumlari 1.0 mln. AQSh dollari miqdorida kutilayotgan bo'lsa, korxonaga maksimum 450 ming AQSh dollari miqdorida kredit berishi mumkin. Bunda tijorat bankining kreditlash koeffitsiyenti umumiy foydaga nisbatan 1:0,5 qilib belgilangan.

Shuni aytish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda bu koeffitsiyent 1:1, 1:3, 1:4 va hokazo qilib belgilangan. Amaliyotda kredit olish, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham oson emas, shuning uchun G'arb mamlakatlarida shunday muhit mavjud: investitsiyani olish, investitsiya kerak bo'lmagan kompaniyalar uchun oson, chunki ularning aktivlari va sof foydasi yuqori banklar uchun esa ularning kafolati yetarli, ammo ularning kreditga zarurati yo'q.

Shu sababli kichik biznes korxonalarini uchun tuzilgan loyihalar yuqori miqdorda qo'shilgan qiymat yaratsa, ularning investitsiya olish imkoniyatlari ko'payadi.

### **Xulosa**

Iqtisodiyot o'tkazilayotgan islohotlar, qabul qilingan qonun hujjatlari iqtisodiyotda tijorat banklarining o'rini yanada oshirish bilan birga ularga katta vazifalarni yuklaydi, shuning bilan birga kapital qo'yilmalarni uzoq muddatli kreditlash jarayoni va munosabatlarining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab, ularning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Eng asosiysi esa yaratilgan huquqiy sharoitlar va imkoniyatlardan to'la foydalangan holda iqtisodiyotning yuksalishiga imkon beruvchi kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirish va ularni kreditlashni yanada rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Shunga ko'ra, amaldagi kapital qo'yilmalarni uzoq muddatli kreditlashga doir mavjud qonun hujjatlarini yanada takomillashtirib borish va yaratilgan huquqiy asosni kapital qo'yilmalarni kreditlash mexanizmining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan holda mustahkamlab borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy holatini mustahkamlanishi ko'chmas mulk aylanma hajmini oshishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida ko'chmas mulk bozorini rivojlantirdi. Ko'chmas mulkning garov sifatida muqobil xususiyatlari bo'lmish: zarurligi, uzoq vaqt saqlanishi, takrorlanmasligi, xilma-xilligi kreditlash jarayonida keng foydalanishni taqozo qiladi. Ushbu xususiyatlar uni bozor iqtisodiyoti sharoitida ipoteka sifatida foydalanishga imkon yaratadi.

Ipoteka garov sifatida majburiyatni ta'minlash xususiyatiga ega bo'lib, bank amaliyotida kredit risklarini kamaytiruvchi instrument sifatida keng taraqqiy etgan.

Hozirgi paytda ko'chmas mulk aylanmasini huquqiy tartibga solishga imkon yaratuvchi ipotekani huquqiy doirasini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Ipotekaning huquqiy tarzda tartibga solinishi asosini respublikada qabul qilingan "Garov" to'g'risidagi qonun tashkil qiladi. Undagi taalluqli moddalarga binoan ipoteka mulkiy munosabatda kochmas mulk shakli majburiyatining ta'minoti sifatida foydalanilganda namoyon bo'ladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishning chet el tajribasi xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xorijiy banklar kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning qanday ahamiyati bor?
3. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki orqali investitsiya loyihalarini qanday moliyalashtiriladi?
4. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish haqida nimalar bilasiz?
5. Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV) orqali investitsiya loyihalarini qanday moliyalashtiriladi?
6. Islom taraqqiyot banki haqida nimalar bilasiz va uning O'zbekiston Respublikasi bilan aloqalari?
7. Jahon talablariga javob bera oladigan sug'urtalash tizimini yaratish uchun qanday ishlar qilinishi kerak?
8. Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'grisida"gi qonuni. –T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" [.http://kun.uz/news/2017/14/01/](http://kun.uz/news/2017/14/01/).
7. Karimov.I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish

hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

2. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

3. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. -124-b.

4. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ. 1999. -411 с.



## 9-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

**9.1. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullarining umumiy tavsifi. Moliyaviy operatsiyalar turlari.**

**9.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini diskontlashgan baholash asosida tahlil qilish usuli. Kapitalni diskontlash davrida qoplanish darajasini hisoblash (DPP).**

**9.3. Investitsiya loyihalarini sof keltirilgan qiymat hisobi (NPV). Investitsiyalarning rentabellik indeksini (PI) va ichki rentabellik me'yorini hisoblash (IRR).**

**9.4. Investitsiya loyihalari samaradorligini hisobot baholashga asoslangan tahlil qilish usuli. Investitsiya rentabelligini hisobot me'yori asosida hisoblash (ARR).**

***Tayanch iboralar:** statistik usul, dinamik usul, firma boyligi, sof diskontlash, sof keltirilgan qiymat, investitsiya foydasining ichki normasi, investitsiya rentabelligi, ichki daromadlilik, pul tushumlari, firmaning pul chiqimlari, daromadning me'yoriy koeffitsiyenti, tanlash, likvidlik, inflyatsiya, valyuta, bozor risklari*

.....

### **9.1. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullarining umumiy tavsifi. Moliyaviy operatsiyalar turlari**

**Samaradorlik** – umuman olganda, muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U sarflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

**Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:**

**birinchisi** – kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadlilik, nuqtayi nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;


**ikkinchisi** – mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini

yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo.).

**Birinchi vazifaning yechimi** mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobilik asosida tanlagandan so'ng birlamchi – ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

**Bugungi kunda ichki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha:**

- tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolatgarov jamg'armalari tizimini shakllantirish;



- aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);


- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan, kichik biznes obyektlariga yo'naltirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

- investitsion loyihalar sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish, investitsiyaviy loyihalashtirish, loyihalarni tahlil qilish hamda investitsiya samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi.

## Investitsiya tahlili usullarining klassifikatsiyasi:



Manba: Muallif ishlanmasi.

Korxonada investitsiya strategiyasini aniqlash – kelajakda korxonalarining asosiy faoliyatini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash, shu jumladan, o‘z mablag‘lari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplash miqdorini aniqlash. Korxonada aktivlari hajmini va rentabelligini bashorat qilish.

Pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga quyma yoki qimmatbaho qog‘ozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tomonidan beriladigan foizdan ko‘proq daromad keltirsagina foydaliroq bo‘ladi. Bu investorlar uchun **birinchi qoida** bo‘lib hisoblanadi.

Investorlarning **ikkinchi qoidasi** – investitsiya rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, investitsiya samaradorligi hisoblanganda yuqorida keltirilgan qoidalarda keltirilgan ko‘rsatkichlarning solishtirma tahlili ahamiyatlidir.

Investitsiya loyihasini baholashda xarajatlarning va daromadlarning har xil davrda solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega.

Chunki xarajatlarning ma‘lum davrda ishlatiladi, daromad esa nafaqat ma‘lum davrdan keyin, u, asosan, xarajatlarning amalga oshirilgandan keyin ham kela boshlaydi. Shu sababli davriy pul qiymati degan tushuncha ishlatiladi. Ushbu ko‘rsatkich – oldin olingan 1 so‘m, keyin olingan 1 so‘mdan qimmatroq turishini anglatadi.

### Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar vazifasi:

<b>birinchisi</b>	kapital qo‘yilmalarning qoplash muddati va daromadliligi nuqtayi nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;
<b>ikkinchisi</b>	mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo.)

Shu sababli iqtisodiy va moliyaviy tahlilda soʻmning joriy va kelajakdagi qiymati hisoblanib, tahlil qilinadi. Bunday hisob-kitoblar diskontlashtirish deb yuritiladi. Investitsiya loyihalarini diskontlashtirish asosida baholashni keyingi boʻlimda koʻrib chiqamiz.

#### Moliyaviy operatsiyalar turi:

<b>Investorlar uchun birinchi qoida:</b>	pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga quyma yoki qimmatbaho qogʻozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tomonidan beriladigan foizdan koʻproq daromad keltirsagina foydaliroq boʻladi
<b>Ikkinchi qoida:</b>	investitsiya rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori boʻlishi kerak

### 9.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini diskontlashgan baholash asosida tahlil qilish usuli. Kapitalni diskontlash davrida qoplanish darajasini hisoblash (DPP)

Investitsiya loyihasining samaradorligini hisoblash – investitsiyadan keladigan samara koʻrsatkichlarini aniqlashni anglatadi.

Investitsiya loyihasining asosi – kapital qoʻyilmalarga boʻlgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Shu sababli investitsiya loyihasi samaradorligi kapital qoʻyilmalar samaradorligi orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning oʻziga xos oʻrni boʻlib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} = K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu yerda:

**K** – asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qoʻyilmalar hajmi;

$F_{r1}$  – rejalashtirilayotgan davrning soʻnggi yilidagi foyda;

$F_{r0}$  – bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning soʻnggi yili).

Kapital qoʻyilmalarning samaradorlik koeffitsiyenti – qoplanish muddatiga teskari boʻlgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:<sup>36</sup>

$$E = (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtayi nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samaradorligini taʼminlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali boʻladi.

Jamiyat miqyosida kapital qoʻyilmalar samaradorligi koeffitsiyenti ( $K_s$ ) milliy daromadning oʻsish miqdorini (DMD) kapital qoʻyilmalar summasiga ( $K_k$ ) nisbatidan aniqlanadi. Yaʼni:

$$K_s = \Delta MD : K_k$$

Korxonada investitsiya samaradorligi (kapital qoʻyilma) koeffitsiyenti ( $K_k.s$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_k.s = M_{k-t} : K \quad \text{yoki} \quad F : K$$

<sup>36</sup> Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. С. 215-303.



Bu yerda:  $M_k$  – yillik ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

$T$  – yillik ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

$F$  – yillik foyda miqdori;

$K$  – asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmi.

Investitsiya samaradorligini aniqlashda uning o'zini qoplash muddati, xavf darajasi, inflyatsiyaning oshish tempi, kelajakda soliqlar miqdori o'zgarishi kabilar hisobga olinishi shart. Chunki investitsiyani qulay va samarali sohaga qo'yish investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon amaliyotidan ma'lumki, pulni banklarda saqlash qulay hisoblanadi, chunki omonatchi undan foiz oladi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p hollarda yangi korxonalar, sexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir hududda, yer maydonida, balki o'z vaqtida amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

**Sof diskontlangan daromad (SDD-DPP Discounted Payback Period)** – butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:<sup>37</sup>

$$SDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu yerda:

$N_t$  – hisob-kitoblarning  $t$ -qadamida erishiluvchi natijalar;

$X_t$  – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

$T$  – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

$E$  – diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Iqtisodiy va moliyaviy tahlilda so'mning joriy va kelajakdagi qiymati hisoblanib, tahlil qilinadi. Bunday hisob-kitoblar **diskontirlashtirish**, deb yuritiladi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish, ularni **diskontlash koeffitsiyenti** ( $d_t$ )ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu yerda:

$t$  – natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash

<sup>37</sup> Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. С. 215-303.

davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

$E$  – diskont normasi, boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsiyenti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsiyenti ( $d_t$ ) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu yerda:

$E_k$  –  $k$ -yildagi diskont normasi;

$t$  – hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

**Masalan:** bank foizi 10 % bo'lgan holda 20 yildan keyingi 1 so'mning joriy qiymati  $= 1:(1+0.10)^{20} = 1:1.10^{20} = 1:6.7 = 0.15$  so'mni tashkil qiladi.

Shunday qilib, diskontlashtirish yilma-yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar oqimlarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarning joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlatiladi.

### 9.3. Investitsiya loyihalarining sof keltirilgan qiymat hisobi (NPV).

#### Investitsiyalarning rentabellik indeksini (PI) va ichki rentabellik me'yorini hisoblash (IRR)

Investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash va ularning baholash usullari quyidagilardan iborat:

##### 1. Sof keltirilgan qiymat hisobi (NPV-Net Present Value)

Bu usul asosida kompaniya egalari tomonidan aniqlanadigan firmaning qiymatliligini oshirish yotadi. Uni miqdoriy baholashda bozor qiymati olinadi. Bu usul prognoz qilingan davr ichida diskontlashtirilgan sof pul tushumlarining umumiy summasini dastlabki investitsiya miqdori (IC) bilan solishtirishga asoslangan. Pul mablag'larining kirimi vaqt bo'yicha taqsimlangan bo'lsa ham, u  $r$  koeffitsiyenti yordamida diskontlanadi. Bu koeffitsiyentni investorlar investitsiya qilingan kapital hisobiga qaytarishi mumkin bo'lgan har yilgi foizdan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Masalan, (IC) investitsiya yillik daromadi  $P_1, P_2, \dots, P_n$  miqdorlarida bo'lgan  $n$  yilga amalga oshiriladi. Diskontlashtirilgan daromadlarning (Present Value – PV) umumiy jamlangan miqdori va sof keltirilgan samara quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$PV = \sum_k \frac{P_k}{(1+r)^k};$$

Sof keltirilgan effekt (NPV) pul oqimlarining diskontlashtirilgan elementlarini loyihaning kapital bahosi bo'yicha umumiy yig'indisi orqali aniqlanadi.

Agar,

$NPV > 0$ , bo'lsa, loyihani qabul qilish mumkin;

$NPV < 0$ , bo'lsa, loyihani qabul qilish kerak emas;

$NPV = 0$ , bo'lsa, loyiha foydali ham, zararli ham emas.

NPV quyidagicha aniqlanadi:

$$NPV = \sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - IC$$

Shuni ta'kidlash joizki,  $NPV$  ko'rsatkichi ko'rilayotgan loyihani qabul qilish sharoitida kompaniyaning iqtisodiy potensialini o'zgarishining prognoz bahosini ko'rsatadi. Bir necha loyihalarning  $NPV$  ko'rsatkichlarini umumiyashtirgan holatda ham ko'rishimiz mumkin. Bu boshqa kriteriyalarga nisbatan ahamiyatli xususiyatga ega va investitsion portfelining optimalligini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega.

S va L loyihalarini baholashda faqat  $CF_0$  salbiy.

$NPV_L = 409$  dol.

NPV kriteriyasi logikasi bizga ma'lum bo'ldi. Chunki pullik NPV loyiha orqali qilinayotgan pul oqimlari: 1) loyihaga jalb qilingan kapitalni qoplash uchun; 2) ushbu kapital uchun qaytimni ta'minlash uchun to'liq yetarli.

Investitsiya foydasining ichki normasi (ichki daromadlilik, ichki qoplanish) deganda, loyihaning  $NVP$  ko'rsatkichi nolga teng bo'lganda  $r$  diskontlashtirish koeffitsiyenti miqdori tushuniladi:

$$NVP = f(r) = 0 \text{ bo'lganda } IRR = r;$$

**2. Investsiyalarning rentabellik indeksi (PI-Profitability Indexes, PI).** Bu ko'rsatkich loyihaga sarflangan mablag'ning qaytimliligini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich diskontlashtirilgan hamda diskontlashtirilmagan pul mablag'larini aniqlash imkonini beradi.

Bu kriteriya loyihalarni baholashda qollaniladigan xarajatlar birligiga rentabellik yoki daromad indeksini aniqlaydigan usul hisoblanadi:

$$PI = \frac{PV(\text{foyda})}{PV(\text{xarajat})} = \frac{\sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t}}{IC},$$

Bunda:

$CF_t$  – kutilayotgan pul oqimlarining, yoki daromadlarning kirimi;

$IC$  – dastlabki qilingan investitsiyalar qiymati.

Bundan ko'rinib turibdiki, agar:

$PI > 1$ , bo'lsa, loyihani qabul qilish mumkin;

$PI < 1$ , bo'lsa, loyihani qabul qilish kerak emas;

$PI = 1$ , bo'lsa, loyihani foydali ham, zararli ham emas.

Rentabellik indeksining sof keltirilgan effektdan ( $NVP$ ) farqi shundan iboratki, bu nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. U – bir birlik xarajatga to'g'ri keladigan daromadlar darajasini, jalb qilish samaradorligini ko'rsatadi, ya'ni bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, loyihaga investitsiya qilingan har bir AQSh dollarining qaytarilishi yuqori bo'ladi.  $NVP$  ko'rsatkichlari bir xil bo'lgan bir necha loyihalarning ichidan birini tanlashda  $PI$  kriteriyasi juda qulay hisoblanadi (aniqrog'i, agar ikki loyihaning  $NVP$  ko'rsatkichlari bir xil bo'lsa va har xil miqdordagi investitsiyalarni talab qiladigan bo'lsa, eng yuqori samarani qaysi biri ta'minlay oladiganligini aniqlash mumkin) yoki investitsiya portfelini tiklashda jami  $NVP$  miqdorini maksimallashtirish

maqsadida juda qulay hisoblanadi.

### 3. Ichki daromadlilik normasi (IDN-Internal Rate of Return-IRR)

Jalb qilingan investitsiya loyihasi bo'yicha kutilayotgan tushumlarning keltirilgan qiymatini tenglashtiradigan diskont stavkasi orqali aniqlanadi:

Boshqacha qilib aytganda, tenglamada agar  $IC=CF_0$  bo'lsa, IRR quyidagicha bo'ladi:

$$\sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - IC = 0$$

**IRR loyihada kutilayotgan daromadlilikini xarakterlaydi.** Agar IRR loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilayotgan kapital bahosidan oshib ketsa, kompaniyaning aksionerlari tomonidan kapitalni foydalanish uchun hisob-kitoblardan so'ng oshiqchalik kelib chiqadi. IRR kapital bahosidan yuqori bo'lgan loyihani qabul qilish aksionerlarning daromadini oshiradi. Ikkinchi tomondan, IRR kapital bahosidan kam bo'lsa, loyihani amalga oshirish aksionerlar uchun zararli bo'ladi. Masalan, agar loyiha to'lig'icha tijorat banki ssudali hisobiga moliyalashtiriladigan bo'lsa, unda IRR ko'rsatkichi bankning foiz stavkasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi chegarasini ko'rsatadi, undan oshgan qismi loyihaning zararliligini ko'rsatadi.

Bu borada ta'kidlash joizki "...xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ishlar qanday ahvolda ekani tanqidiy tahlilni talab etadi. Bunday investitsiyalarning ulushi 30 foizga tushib qolgan"<sup>38</sup>.

Shunday qilib, IRR kriteriyasi investitsiya loyihalarini baholash uchun katta ahamiyatga ega.

Mazkur ko'rsatkichning o'ziga xos xususiyati shundjan iboratki, IRR investitsion resurslarning kelgusidagi qiymati bilan investitsiyalardan olinadigan daromadlarni solishtirish imkoniyatini beradi. Masalan, bankdan 10000 AQSh doll. mablag' jalb qilingan bo'lsa, bu mablag' bo'yicha yillik 15 % to'lovlar to'lansa, IRR ko'rsatkichi 15 %dan past bo'lmasligi kerak.

**NPV** – ko'rsatkichi investitsiya xarajatlarining amortizatsiyasini qoplash samaradorligini baholaydi;

**IRR** – ko'rsatkichi esa sarflangan investitsiya mablag'lari bo'yicha amortizatsiya va foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi.

**4) Investitsiyalarning qoplanish muddati ( $T_1$  – PP-Payback Pyeriod)** – investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati.

Ushbu usul – oddiy usullardan biri bo'lib, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi, ammo vaqtinchalik pul tushumlarini tartibga solish jarayonini ko'zda tutmaydi.

Investitsiyalarning qoplanish muddati boshlang'ich xarajatlarni to'liq qaytishi

<sup>38</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.



uchun zarur bo'lgan muddatlarni (yil) hisoblash imkonini beradi.

U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_u = \frac{I_c}{II_m}$$

Bu yerda:

$I_c$  – sof investitsiyalar;

$II_m$  – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Shunday qilib, diskontlashtirish yilma-yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar oqimlarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarning joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlatiladi.

#### **9.4. Investitsiya loyihalari samaradorligini hisobot baholashga asoslangan tahlil qilish usuli. Investitsiya rentabelligini hisobot me'yori asosida hisoblash (ARR)**

**Investitsiyalar** – aksariyat hollarda uzoq muddatga mo'ljallangan xarajatlardir. Shuning uchun ularning bir necha yillar davomidagi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Bunda inflyatsiya darajasi hisobga olinadi.

Investitsiyalarni tahlil qilish, ularning samaradorligi darajasini aniqlash bir qancha iqtisodiy konsessiyalarga tayanib amalga oshiriladi.

##### **1. Investitsiyalarning firma boyligini oshirishdagi roli.**

Har qanday firma investitsiya qilar ekan, avvalo, o'z boyligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad firmaning foydani ko'paytirish kabi ko'pincha asosiy deb qaraladigan boshqa bir maqsadidan ancha kengroqdir. Chunki firmaning asosiy maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat deyilganda, foyda va rentabellik darajasini darhol ko'paytirishni emas, balki bozordagi o'z sektorini kengaytirish yoki nomoddiy aktivlarini oshirishga qaratilgan tijorat strategiyalarini tushunish qiyin bo'lar edi. Demak, firma boyligini oshirish investitsiyalashga undovchi anchagina universal bo'lgan sababdir.

Firma boyligi o'z ichiga firma o'z kapitalining bozor qiymatini (**O'KB**) hamda firma majburiyatlarining bozor (**MB**) qiymatini oladi. Ya'ni:

$$\text{Firma boyligi} = \text{O'KB} + \text{MB}$$

**Firma boyligi** – firma egalari (ular yagona xo'jayin, minglab aksiyadorlardan biri bo'lsinlar) ixtiyorida bo'lgan (yoki ular xohlasalar va o'z mulklarini sotsalar, pul ko'rinishida olishlari mumkin bo'lgan) real boylikdir. Shu narsa ravshanki, firmaning real boyligi uning kapitali (yuqori likvidli aktivlar ko'rinishida turgan kapitalni istisno qilgan holda) qanchalik ko'pligi bilan emas, balki bu kapital tovar va xizmatlar bozorida firmaga qanday holatni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. Shu sababga ko'ra, investitsiyalar firmalarning raqobatbardoshligini yaxshilasa va ular

kapitalining daromadlilikini oshirsa, ularning boyligi ko'payadi hamda egalari yanada boyiydi. Aks holda, investitsiyalar firma balansi passivlarini ko'paytirgani holda uning raqobatbardoshligini oshirmasa, firmaning rentabelligi pasayib ketishi, buning oqibatida esa uning boyligi kamayishi mumkin.

Aytilganlardan xulosa shuki, investitsiyalar, shu jumladan, real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashning asosiy mezon bo'lib, ularning firma boyligiga qanday ta'sir etishi hisoblanadi.

## 2. Pul tushumlari haqida tushuncha.

Pul tushumlari (pul obyekt oqimlarining, cash flow) iqtisodiy adabiyotlarimizda yaqindan buyon qo'llanilayotgan atama bo'lib, firma tijorat faoliyati natijasida olingan sof tushumlarni, ya'ni pul kirimlari va chiqimlari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

<u>Pul tushumlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</u>	<u>Firmaning pul chiqimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</u>
<p><b>1. Asosiy faoliyat bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• naqd pul evaziga sotishdan olingan pul tushumi;</li> <li>• pul o'tkazish yo'li bilan sotishdan olingan pul tushumlari.</li> </ul>	<p><b>1. Asosiy faoliyat bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xomashyo va materiallar uchun to'lovlar;</li> <li>• ish haqi to'lovlari;</li> <li>• soliq to'lovlari;</li> <li>• sug'urta to'lovlari.</li> </ul>
<p><b>2. Investitsiyalar bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan daromadlar;</li> <li>• shu'ba korxonalar va xorijdan tushumlar;</li> <li>• aktivlarni sotishdan keladigan tushumlar.</li> </ul>	<p><b>2. Investitsiyalar bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy kapitalni sotib olishga;</li> <li>• asosiy kapitalni montaj qilishga.</li> </ul>
<p><b>3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushumlar;</li> <li>• qarzlarni.</li> </ul>	<p><b>3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• foizlar va dividendlar to'lashga;</li> <li>• ssudalar va obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni so'ndirishga.</li> </ul>

Manba: Muallif ishlanmasi.

Pul tushumlari va chiqimlari o'rtasidagi farq, ya'ni sof pul tushumlari firma boyligi oshishini ta'minlovchi sof pul qoldig'idir. Ammo firma faoliyatining yakuniy natijasini baholashda buxgalter yondashuvi bilan moliyachi yoki iqtisodchi yondashuvi o'rtasida farq bor.

Buxgalter yondashuviga ko'ra firma faoliyatining yakuniy natijasini soliqlar to'lagandan keyin firma ixtiyorida qolgan sof daromad tashkil etadi. Moliyachi va iqtisodchi yondashuviga ko'ra yakuniy natijaga nafaqat firma ixtiyorida qolgan sof daromad, balki foydalanilishi me'yoriy hujjatlar bilan cheklab qo'yilgan, ammo pirovardida firmaning umumiy boyligiga qo'shib, uni ko'paytiradigan pul mablag'lari ham kiradi. Bunday mablag'larga amortizatsiya ajratmalari hamda hisoblangan, ammo to'lanmagan soliqlar kiradi.

**Amortizatsiya** – o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, asosiy kapitalning ma‘naviy va jismoniy eskirishini qoplash uchun mablag‘ jamg‘arishni ta‘minlaydigan maqsadli ajratmadir. Bu ajratmalar miqdori uch omilga bog‘liq:

- asosiy kapital tarkibiga kirgan uskunaning balans qiymatiga;
- uskunaning xizmat muddatiga;
- uskuna uchun belgilangan amortizatsiyani hisoblash uslubiga.

Amortizatsiya ajratmalari maqsadli pul jamg‘armasini tashkil etish manbai bo‘lgani holda, shuningdek, firma foydasidan boshqa xarajatlar singari ayirib tashlansa-da, firma mulki bo‘lib qolaveradi. Firma asosiy kapitalni yangilashga kirishganda amortizatsiya jamg‘armasidan sof foyda kabi foydalaniladi. Shu nuqtayi nazardan amortizatsiya jamg‘armasini shakllantirish firmaning investitsiya zaxirasini jamg‘arishni anglatadi.

Shu sababli hisoblangan amortizatsiyani firma tijorat faoliyatining yakuniy natijasiga, ya‘ni (sof) pul tushumlariga kiritish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobining Amerika standartlari GAAP (Generally Accepted Accounting Principles) atamalaridan foydalansak, pul tushumlarini aniqlash tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$PT = MRT - (JX - A) - FT - S_{to'l}$$

Bu yerda:

**PT** – pul tushumlari;

**MRT** – mahsulot realizatsiyasidan tushum;

**JX** – jami xarajatlar;

**A** – amortizatsiya;

**FT** – foiz to‘lovlari;

**S to‘l** – to‘langan soliqlar.

Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan nisbatan har zamon firmaning boyligi kelajakda bo‘ladigan barcha pul tushumlarining hozirgi qiymatiga teng. Investitsiyalar maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun barcha pul tushumlari va chiqimlari to‘g‘ri baholanib, ular firma boyligini qanchaga ko‘paytirishi aniqlab olinadi. Olingan natija esa yakuniy qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Investitsion xarakterdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining asosida kutilayotgan investitsiya hajmi va kelajakdagi pul tushumlarini baholash va solishtirish yotadi. Kriteriyalarni foydalanish asosida tahlil qilishda talab qilinadigan investitsiya miqdorini kutilayotgan daromadlar bilan solishtirish zarur. Solishtirilayotgan ko‘rsatkichlar vaqtning har xil davrlariga to‘g‘ri kelsa ham bunda asosiy muammo ularni taqqoslash hisoblanadi.

**Kapital qo‘yilmalar budjetini tuzishni yoki loyihalarni baholash jarayonida kritik momentlar quyidagilar hisoblanadi:**

a) mahsulotning sotilish hajmini unga bo‘lgan talab imkoniyatlarini hisobga olgan holda prognoz qilish (loyihaning asosiy qismi qo‘shimcha mahsulot chiqarish bilan bog‘liq bo‘lsa ham);

b) pul mablag‘larining oqib kelishini har bir yil bo‘yicha baholash;

v) zarur bo‘lgan moliyalashtirish manbalarini baholash;

g) kapital narxining ahamiyatliligini va diskontlashtirish koeffitsiyenti sifatida

foydalaniladigan kapital narxini baholash (kapital narxi-moliyalashtirishning u yoki bu manbalarini foydalanish hisobiga xarajatlarning nisbiy darajasi tushiniladi).

**Kapital qo'yilmalar budjetini tuzish jarayonida tahlil qilinayotgan investitsion loyihalar ma'lum bir mantiqqa ega bo'ladi:**

- har bir investitsion loyihalar elementlari pul mablag'larining sof chiqimi yoki kirimi hisoblangan pul oqimlari bilan bog'lanishi kerak. Bunda:  $k$  – yildagi pul mablag'larining sof chiqib ketish joriy pul xarajatlarining loyiha bo'yicha joriy mablag'larning tushumidan oshishi tushuniladi (teskari holatda sof kirim tushuniladi); ayrim holatlarda tahlilda pul oqimlari foydalanilmasdan loyihadagi prognoz qilingan yillik sof foyda miqdorining ketma-ketligi foydalaniladi;

- tahlillar faqat yillar bo'yicha amalga oshirilmasdan, balki bir xil bazaviy davrlar bo'yicha ham (oy, chorak, yil, besh yillik va b.) yuritilishi mumkin, faqat bunda pul oqimlari elementlari miqdorlarining, foiz stavkalari bilan mazkur davrlar muddatlarining bir-biriga bog'liqligini unutmaslik kerak;

- ketma-ket yillar mobainida investitsiya qilinadigan bo'lsa ham avvalgi birinchi yildagi loyiha bilan amalga oshirilgan pul mablag'larining kirimi, ya'ni investitsiyalar hajmi yil oxirida amalga oshirilishi ehtimoldan xoli emas;

- pul mablag'larining kirimi (chiqimi) ko'proq navbatdagi yil oxiriga to'g'ri keladi (bu mantiq tushunarli, chunki daromad – o'sib boruvchi jami bilan hisobot davrining oxiriga to'g'ri keladi);

- diskontlashtirilgan bahoga asoslangan metodlar yordamida loyihalarni baholash uchun qo'llaniladigan diskontlashtirish koeffitsiyentlari investitsiya loyihalariga belgilangan davrlari muddatiga mos kelishi kerak (masalan, yillik stavka davr muddati bir yilga moslashtirilib olinadi).

**Kapital qo'yilmalar budjeti deganda,** asosida bir necha investitsiyalardan birini tanlash tahlili yotgan investitsiyalarni asosiy vositalarga jalb qilish sxemasi tushuniladi.

Investitsion qarorlarni qabul qilish effekti bir necha yilni qamrab olishi mumkin. Masalan, uskunalarni sotib olish kelajakda mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'ladi, u yoki bu uskunani sotib olish to'g'risidagi qaror qabul qilish kelgusi 10 yil ichidagi prognozlarni hisob-kitob qilishni talab qiladi.

Uskunalarni sotib olishni prognoz qilishda yo'l qo'yilgan xatolar oqibati og'ir ahvolga olib kelishi mumkin. Yirik investitsiyalar katta oqlanmagan xarajatlarni talab qiladi. Agar yetarli darajadagi investitsiya amalga oshirilmasa, quyidagi ikki muammoning kelib chiqishiga olib keladi. Birinchidan, kompaniyaning uskunasi yetarlicha zamonaviy bo'lmasligi mumkin va uning ishlab chiqarishini raqobat sharoitida ta'minlay olmaydi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishni ta'minlaydigan yetarlicha quvvatga ega bo'lmasligi mumkin va kompaniya bozorda o'z o'rini raqobatchilariga bo'shatib berishi mumkin.

Kompaniya oldindan o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlarini prognoz qilib, ushbu muammolarni yechishi mumkin. Agar kompaniya talabning o'sishini prognoz qilsa va kutilayotgan talab darajasiga mos o'z ishlab chiqarishini kengaytirs va prognoz noto'g'ri bo'lgan bo'lsa, kompaniya oshiqcha quvvatga ega bo'ladi va juda yuqori xarajatlarga ega bo'ladi. Bu kompaniyaning zararga ishlashiga va sinishiga



ham olib kelishi mumkin.

Kompaniya uchun ishlab chiqarish quvvatini oshirish, odatda, yirik xarajatlar bilan bog'liq va katta pul mablag'ini sarflashdan avval yaxshi tuzilgan rejaga ega bo'lishi kerak, chunki bo'sh turgan moliyaviy resurslar hamma vaqt yirik hajmda bo'lavermaydi, shuning uchun kompaniya kapital qo'yilmalar budjetini shakllantirishi zarur.

**Davlat investitsiyalari samaradorligini oshirish.** Investitsion faollikni rag'batlantirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish ustuvorligini hisobga olgan holda davlat investitsiyalari xususiy investitsiyalarining o'sishida katalizatoriga aylanishi, asosan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Davlat investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- xususiy sektor hisobiga amalga oshirish mumkin bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish, davlat budjetidan moliyalashtirilmaydi;

- davlat investitsiya loyihalarini tanlashda xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarga xizmat qiluvchi infratuzilmani rivojlantirishdagi cheklanishlar va torligini bartaraf qilish zarurati, uning samaradorligini baholashdagi muhim mezonidan biriga aylanadi;

- infratuzilma va boshqa loyihalarni amalga oshirishda, davlat-xususiy hamkorlikni rag'batlantirish uchun QF (qurilish-foydalanish) va QFB (qurilish-foydalanish-berish) turidagi shartnomalar amaliyotga tatbiq etiladi;

- davlat sanoatning bazaviy tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni O'zbekiston Respublikasi Rekonstruksiya va taraqqiyot fondi bilan birgalikda moliyalashtiradi;

- tasdiqlangan o'rta muddatli konsessiyaga muvofiq zamonaviy va xavfsiz avtomobil yo'llarini qurish, Yo'l fondi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi hamda mamlakatning ishlab chiqarish va tranzit salohiyatining sezilarli oshishini ta'minlaydi;

- mamlakat mintaqalarini sug'orish uchun suv bilan barqaror ta'minlash loyihalarini budjetdan moliyalashtirish, shuningdek, hukumat kafolati ostida jalb etilgan xorijiy banklar va xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari hisobidan ham moliyalashtirish amalga oshiriladi;

- sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish davlat budjeti va budjetdan tashqari Maktab fondi, shuningdek, hukumat kafolati ostida jalb etilgan xorijiy banklar va xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

**Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish.** Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni tezlashtirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish sur'atini kuchaytirishga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishda eng muhim sharoit – qulay tadbirkorlik muhitini ta'minlashdan tashqari bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi:

- texnologik asbob-uskunalar, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar kiritishni yengillatish orqali yangi innovatsion loyihalar yaratish tahdidlarini pasaytirish;

- ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik munosabatlarini o'rnatishni rag'batlantirish;
- innovatsion investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan venchur fondlari va investitsiya kompaniyalarini yaratish va ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashish;
- intellektual mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash, intellektual mulk huquqini to'g'ri aks ettirish uchun buxgalteriya hisobini takomillashtirish va uning qiymatidan innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliyalashtirishda foydalanish;
- korxonalar foydasini qayta investitsiyalash uchun soliq rag'batlarini yaratish va shu kabilar.

### **Investitsiya rentabeliigini hisobot me'yori asosida hisoblash (Accounting Rate of Return-ARR)**

Investitsiya rentabelligini hisobot me'yori asosida hisoblashda loyihani o'rtacha amalga oshirish davridagi sof buxgalteriya foydasi loyhadagi o'rtacha investitsiya miqdori (asosiy va aylanma mablag'lar xarajatlari) bilan taqqoslanadi.

**Daromadning buxgalteriya (rentabeliigini) hisobot me'yoriy koeffitsiyenti (ARR)** pul oqimlariga emas, balki sof foyda ko'rsatkichiga asoslanadi. Chunki u quyidagi xususiyatlarga ega: **birinchidan**, daromad korsatkichlarini diskontlashtirishni talab etmaydi, **ikkinchidan**, daromad sof foyda PN ko'rsatkichi orqali (budjetga to'lovlardan so'nggi foyda) xarakterlanadi. Uni hisoblash usuli quyidagicha: kutilayotgan o'rtacha yillik sof foydaning ARR o'rtacha yillik investitsiya hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

Agar S va L loyihalariga jalb qilish ularning ishlatilishi muddati mobaynida to'lig'igacha to'g'ri chiziqli usul bilan amortizatsiyalansa, yillik amortizatsiya xarajatlari 10000 AQSh doll.: 4 = 2500 AQSh dol.ga teng bo'ladi. Bu summa sof foydani aniqlash uchun yillar bo'yicha pul tushumlaridan ayirish kerak. Shunday qilib:

S loyihasi bo'yicha o'rtacha yillik foyda = pul mablag'larining o'rtacha yillik tushumi – o'rtacha yillik amortizatsiya = 13500/4-2500=875 doll.

O'rtacha yillik investitsiya dastlabki investitsiya va qoldiq qiymatining yarim summasiga teng bo'ladi:

$$(10000 \text{ dol.} + 0 \text{ dol.}) : 2 = 5000 \text{ dol.}$$

$$ARR_S = \frac{875 \text{ doll.}}{5000 \text{ doll.}} = 0,175 \text{ yoki } 17\%$$

L loyihasi bo'yicha o'rtacha yillik sof foyda L= 13300/4-2500 = 825 dol.

$$ARR_L = \frac{825 \text{ doll.}}{5000 \text{ doll.}} = 0,165 \text{ yoki } 16\%$$

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_n = \frac{M_n}{K} \times 100$$

**Bu yerda:**

$D_n$  – investitsiyalar daromadi, % da;

$M_n$  – soliqlar to‘langandan so‘ng qolgan foyda, so‘m;

$K$  – investitsiyalar (boshlang‘ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

\* ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo‘lgan talab qanday;

\* kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;

\* raqobatchilik faoliyati qanday;

\* qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;

\* yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi holatida*, ya‘ni mablag‘larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi qo‘shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{(\text{YAM}_1 - \text{YAM}_0)}{I_n}$$

Bu yerda:

$E$  – investitsiyalar samaradorligi;

$\text{YAM}_0, \text{YAM}_1$  – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo‘shimcha investitsiyalarda;

$I_k$  – qo‘shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so‘miga tannarxning pasayishi:

$$\varepsilon = \frac{Q(TN_0 - TN_1)}{I_n}$$

Bu yerda:

$TN_0, TN_1$  - mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda birlamchi va qo‘shimcha investitsiyalarda;

$Q$  – qo‘shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o‘lchov birligi.

v) investitsiyalarning har bir so‘miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$\varepsilon = \frac{Q(M_0 - M_1)}{I_n}$$

Bu yerda:

$M_0, M_1$  – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo‘shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so‘ng.

g) investitsiyalarning har bir so‘miga foydani oshirish:

$$\varepsilon = \frac{Q(\Phi_1 - \Phi_0)}{I_n}$$

Bu yerda:

$F_0, F_1$  – mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi foyda, mos ravishda qo‘shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so‘ng.

**Moliyaviy investsiyalar tahlili.** Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda

muayyan korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va ayniqsa kengaytirish qo'shimcha mablag' topish maqsadida chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarsiz amalga oshishi qiyin.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatbaho qog'ozlar sotib olish quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- kapitalni aniqlash;
- qo'shimcha fond olish;
- qimmatbaho qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish.

Tom ma'noda bozor iqtisodiyoti to'la shakllanib bo'lmagan mamlakatlarda qimmatbaho qog'ozlar ularga xos bo'lmagan boshqa maqsadlarda ham sotib olinishi mumkin. Bunday maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qimmatbaho qog'ozlar sotib olish yo'li bilan mulkiy huquqlarga ega bo'lish, defitsit mahsulotlar va xizmatlarga ega bo'lish;
- muomala shartlariga ko'ra naqd pul o'rmini bosa oladigan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish;
- bozorni o'rganish uchun;
- mulk ta'sir darajasini kengaytirish va uni qayta taqsimlash;
- nobarqaror bozor sharoitida qimmatbaho qog'ozlar kurslari o'zgarishlari asosida chayqovchilik qilish va hokazo.

### **Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish rejasini ishlab chiqish tartibi:**

korxonaning umumiy holati tavsifi
moliyaviy sog'lomlashtirish rejasining qisqacha ma'lumotlari
korxonaning moliyaviy holati tahlili
to'lov qobiliyatini tiklash va xo'jalik faoliyatini samarali olib borish bo'yicha tadbirlarni nazarda tutish
bozor va raqobat
marketing sohasidagi faoliyatni olib borish
ishlab chiqarish rejasini moliyaviy reja

Qimmatbaho qog'ozlarning likvidlik masalasi bozor iqtisodiyoti shakllanib kelayotgan davlatlarda fond bozorini rivojlantirish bilan bog'liq o'ta muhim masalalar jumlasiga kiradi. Likvidlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, bunday qimmatbaho qog'ozlarning kursi shuncha mustahkam va yuqori bo'ladi. Demak, korxonalar qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishda birinchi navbatda ularning shu jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatbaho qog'ozlarning undan ortiq turi bo'lib, ularning ayrim turlari, o'z navbatida, turli shartlar asosida muomalaga chiqarilgan har xil shakllarga bo'linishi mumkin. Quyidagilar qimmatbaho qog'ozlarning asosiy turlari bo'lib hisoblanadi: aksiya, veksel, fyuchers, xususiylashtirish cheki, obligatsiya, davlat xazina majburiyatlari, opsiya, varrant, banklarning jamg'arish va depozit sertifikatlari, konosament, mulkiy varaqa (masalan, uy-joy olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz).

Qimmatbaho qog'ozlar va ularning ishonchliligi haqida gap ketganda, xalqaro



amaliyotda maxsus reyting agentliklari va tashkilotlari qimmatbaho qog'ozlarni chuqur tahlil asosida guruhlarga bo'lishadi. Masalan, qimmatbaho qog'ozlarni, "oliy sifatli", "yuqori sifatli", "o'rtadan yuqori sifatli", "o'rta sifatli" va hokazo. guruhlarga bo'lish mumkin.

Qimmatbaho qog'ozning investitsion sifati uning likvidlilik darajasi hamda o'rtacha bozor fondidan kam bo'lmagan darajada foiz keltirish qobiliyati va kurs qiymati barqaror bo'lgan sharoitda risk holati kabi omillarni baholash belgilanadi.

Ma'lumki, qimmatbaho qog'oz riski qancha past bo'lsa, uning likvidlilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin risk darajasi past bo'lgan qimmatbaho qog'ozning daromad keltirish qobiliyati ham aksariyat hollarda yuqori bo'lmastligi mumkin.

Bu o'rinda qimmatbaho qog'ozlar keng tarqalgan G'apb davlatlari bilan o'tish davrida yashayotgan davlatlar amaliyoti o'rtasida o'zaro mos kelmaslik holatlari ham mavjud. Masalan: G'arbda aholi turli qimmatbaho qog'ozlar investitsion sifatlarini yaxshi biladi. Investorlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, qimmatbaho qog'ozning qaysi turini sotib olishni hal etish uchun ularning investitsion sifatlarini chuqur o'rganishga yetarli axborot topa olishadi. Axborot o'zining haqqoniyligi, ishonchliligi va to'laligi bilan ajralib turadi. Qimmatbaho qog'ozning investitsion sifatleri haqida noto'g'ri moliyaviy axborot bergan yuridik yoki jismoniy shaxs fond bozorida tezda o'z obro'sini to'kib qo'yishi va natijada sinishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan davlatlarda qimmatbaho qog'ozlarning investitsion sifatlarini aniqlash hozircha tor doiradagi mutaxassislarning ishi bo'lib qolmoqda. Qimmatbaho qog'ozlarning potensial investorlari bo'lishi mumkin bo'lgan aholining keng qatlamlari fond bozori sarhadlariga asta-sekin kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda qimmatbaho qog'ozlar portfeli bilan bog'liq risklar nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi. Quyida qimmatbaho qog'ozlar portfeli bilan bog'liq risklarning asosiy turlari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

**Kapital risk** – qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilgan barcha mablag'lar uchun umumiy risk bo'lib, u zarar ko'rmasdan kapitalni qaytarib ololmaslik holati bilan belgilanadi. Fondlar bozorida yirik tanazullar ro'y bergan paytda (masalan, 1998-yilda Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya, Indoneziya, Malayziya va hokazo. davlatlarda) kapital risk ro'yobga chiqadi.

Qonunchilikda o'zgarishlar ro'y berishi bilan bog'liq risk natijasida qimmatbaho qog'ozlar chiqarish qayta ro'yxatga olinishi, bekor qilinishi, uning shartlari tubdan o'zgarishi mumkin. Natijada emitent va investor qo'shimcha xarajatlar qilishi va moddiy yo'qotishlarga duchor bo'lishi mumkin.

Vaqt bilan bog'liq risk 2-qimmatbaho qog'ozni sotib olish yoki sotish uchun noqulay vaqt tanlangan holatlarda yuz beradi. Qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olishga mavsumiy (agrar, savdo firmalari qimmatbaho qog'ozlari) yoki qayta ishlab chiqarish davrlarining ta'siri o'ta aniq seziladi.




Fig.3.4. Portfolio risk and the level of diversification

Manba: [https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%](https://www.google.com/imgres?imgurl=http%3A%2F%2Fmaybe-invest.ru%2Fwp-content%2F)

**Tanlash riski** – qimmatbaho qog‘ozlarning serdaromad va ishonchli turlarini tanlay olmaslik holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Qimmatbaho qog‘ozlar investitsion sifatlarini to‘g‘ri baholay olmagan vaziyatlarda tanlash riski ro‘y beradi.

**Likvidlilik riski** – qimmatbaho qog‘ozning investitsion sifatini baholashning o‘zgarishi sharoitida uni sotishdan ko‘rilgan zarar bilan o‘lchanadi.

**Inflyatsion risk** – yuqori inflyatsiya sur‘atlari investorning qimmatbaho qog‘ozlardan oladigan daromadlari tezroq qadrsizlanish riskidir. Jahon amaliyotida inflyatsion riskni pasaytirishning juda ko‘p usullari bo‘lishiga qaramasdan inflyatsiyaning yuqori darajadali qimmatbaho qog‘ozlar bozorini buzib yuborishi allaqachon aniqlangan.

**Valyuta riski** – valyuta kurslari o‘zgarishi natijasida valyuta qimmatbaho qog‘ozlariga qilingan qo‘yilmalar bilan bog‘liq bo‘lgan riskdir.

**Bozor riski** – bozor umumiy faoliyatining pasayishi sababli qimmatbaho qog‘ozlar narxining pasayishi natijasida investorlarning zarar ko‘rishi.

**Qaytarib olish riski** – qaytarib olish huquqiga ega bo‘lgan obligatsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar darajasidan oshganligi sababli emitentning shu obligatsiyani qaytarib olishi natijasida investorlarning zarar ko‘rish riski.

Qimmatbaho qog‘ozlar portfelini boshqarish bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab operatsiyalardan iborat bo‘lib, ularning qay biri qachon va qaysi shartlar bilan ishlashi, portfelni kim boshqarishi bilan belgilanadi. Qimmatbaho qog‘ozlar portfeli uning egasi yoki egasining topshirishiga ko‘ra alohida shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin.

Biz quyida portfelni uning egasi tomonidan boshqarilish jarayonida sodir bo‘ladigan operatsiyalarining asosiylari bilan tanishtirib o‘tamiz. Portfelni uning egasi topshirig‘i bo‘yicha boshqa shaxs boshqarganda ham shu operatsiyalarning aksariyati bajariladi. Boshqarishning ikkala usuli mazmunan bir-biridan keskin farq qilmaydi. Ularning farqi operatsiyalarni amalga oshirish shaklida bo‘ladi. Ya‘ni portfel egasi hamma vaqt o‘z nomidan ish ko‘radi, ikkinchi usulda esa alohida shaxs uning topshirig‘i bo‘yicha boshqaruv operatsiyalarini bajaradi.

Bu operatsiya fond bozori konyunkturasini o‘rganish va prognoz qilish, qonunchilik haqida ma‘lumot yig‘ish, qimmatbaho qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar bo‘yicha uslubiy va me‘yoriy hujjatlar tayyorlash, kasbiy tayyorlash,

portfel umumiy strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, portfelni boshqarishni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlarni baholash, dividend siyosatini yaratish va amalga oshirish kabi o'ta muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ko'rinib turibdiki, qimmatbaho qog'ozlar portfelini boshqarishni tashkil etish jarayonida bu operatsiya o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qimmatbaho qog'ozlar bozorini tahlil qilish yuqoridagilar bilan chegaralanib qolmaydi. Portfel holatini u o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish, risklar va likvidlik darajasini baholash, xususiylashtirish jarayonini tayyorlash va amalga oshirish kabi xatti-harakatlar ham portfelni boshqarish operatsiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

1. Qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish asosida investitsiya qilish. Bu operatsiyani amalga oshirish uchun oldindan maxsus fondlar yoki alohida schyotlarda pul mablag'lari asta-sekin jamg'arilib boriladi.

2. Qimmatbaho qog'ozlarni tayyorlash, muomalaga chiqarish va birlamchi tarqatishni tashkil etish.

3. Qimmatbaho qog'ozlarni bevosita sotish bilan bog'liq xatti-harakatlar.

4. Qimmatbaho qog'ozlar egasi almashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ayrim hodisalar (masalan, almashuv, sovg'a qilish, merosga berish va hokazo.).

5. Qimmatbaho qog'ozlar bozorini tahlil qilish.

6. Qimmatbaho qog'ozlarni zarur hollarda garov sifatida ishlatish.

7. Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.

8. Qimmatbaho qog'ozlarni qarzga berish yoki qarzga olish.

9. Qimmatbaho qog'ozlarni sug'urta qilish.

10. Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha ehtimol tutilgan zararlarni qoplash maqsadida zaxira tashkil qilish va ishlatish.

11. Buzilgan, yo'qolgan qimmatbaho qog'ozlarni almashtirish.

12. Qimmatbaho qog'ozlarning operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish.

13. Qimmatbaho qog'ozlarning bir turini boshqa bir turiga almashtirish.

14. Qimmatbaho qog'ozlar portfelini boshqarish bilan bog'liq mahkamaviy ishlarni bajarish.

Qimmatbaho qog'ozlar portfelini boshqarish uning egasi tomonidan amalga oshirilganda korxonada bu ish bilan shug'ullanadigan maxsus fond (yoki investitsiya) bo'limi (boshqarmasi) yoki qimmatbaho qog'ozlarni boshqarish bo'limi (boshqarmasi) tashkil etiladi.

Qimmatbaho qog'ozlar portfelining egasi mazkur jarayonni boshqarishni o'zi xohlamasa, bu ishni fond bozorida maxsus tashkil etilgan ixtisoslashgan tashkilotlarga shartnoma bilan topshirishi mumkin.

Korxonalar sotib olgan qimmatbaho qog'ozlarni va ulardan foydalanishni tahlil qilishda quyidagi jihatlarni ham ko'rib o'tadilar. Qimmatbaho qog'ozlar uzoq va qisqa muddatga qo'yilganligi, reja bo'yicha yoki rejada belgilanmaganligi, reja bo'yicha qaytimi hamda haqiqatdagi qaytimi, bozor bahosining o'sishi yoki



kamayishi, ulardan foydalanishning muqobil yo'nalishlari ularning har birining alohida turi bo'yicha solishtirib chiqiladi.

**Moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi bo'yicha baholash, ko'rib chiqish va qaror qabul qilib, uni chiqarish tartibi:**

- korxonadan talab qilingan hujjatlarni qo'mita yoki uni territorial boshqarmasiga taqdim etiladi;
- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi va korxonada ishini kelajakdagi ko'rsatkichlarini ekspertizasini o'tkazadilar;
- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi, xarajatlarni oqlash muddati va ishlab chiqarishni ustuvorligini hisobga olgan holda moliyaviy yordamni qaytarish qoidasi va muddatini aniqlab olishadi;
- o'z navbatida sanatsiya tadbirlarini moliyalashtirishni amalga oshirish uchun qo'mita bilan uch taraflama shartnomalar tuzgan bank muassasasi, investitsion kompaniya va fondlar qatnashishlari mumkin.

Bu bilan moliyaviy qo'yimalardan qay darajada foydalanish holatini yillar bo'yicha ham o'rganish mumkin. U holda qimmatbaho qog'ozlarning har bir yildagi qiymati (narxi oshishi yoki pasayishi ko'rsatilgan holda) keltirilgan foizlari hamda ularning farqlari o'rganib chiqilib, muqobil variantlar bilan taqqoslanadi.

Albatta, moliyaviy qo'yimalardan keladigan foizlarni hisoblashda u bo'yicha ishlab chiqilgan davlat soliq siyosatini ham ko'rib chiqish zarur. Chunki soliqlar olinadigan foyda summasini kamaytiradi.

Fikrimizcha, uzoq muddatli moliyaviy qo'yimalarga mablag'larni bo'sh turgan pul mablag'lari yoki yetarli imkoniyatda foydalanilmayotgan asosiy va aylanma fondlari qo'yilsa, korxonada uchun samaraliroq bo'ladi.

### **Xulosa**

Investitsiyalar davlat va korxonalarining asosiy fondlarni zamonaviylashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ishlab chiqarish potensialini mustahkamlash yo'li faoliyatidagi muhim vositadir.

Investitsiyalar qoidaga ko'ra, amaliyotda mamlakat miqyosida davlat tomonidan, mikroiqtisodiyotda esa korxonalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xo'jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriluvchi investitsion siyosat asosida moddiylashtiriladi.

Investitsiyalashning to'g'ri tanlangan taktika va strategiyasi korxonalariga ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va bozor talablariga javob beruvchi ko'rinishga olib kelishga imkon beradi.

Korxonaning investitsion siyosati investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiyalashning eng samarali variantlarini tanlash bilan bog'liq bo'ladi.

Minimum xarajatlardan va maksimum natijalar - investitsiyalar va investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda uslubiy asos hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. "Investitsiyalar" va "kapital qo'yimalar" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni



tavsiflab bering.

2. Investitsion jarayonlarni qaysi asosiy bosqichlar tavsiflaydi?
3. Investitsiyalar tarkibi va strukturasi nima va ularning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri qanday?
4. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning qaysi usullari sizga ma'lum?
5. Investitsiyalarning eng samarali variantini tanlashda qaysi usuldan foydalanish maqsadga muvofiq?
6. Investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan qaysilarini bilasiz?
7. Investitsiyalarning qoplanish muddati nima va u qanday aniqlanadi?
8. Respublikada amalga oshirilayotgan eng mashhur investitsion loyihalarni aytib bera olasizmi?

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.
8. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi gazetasi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).
9. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009.-432 с.
10. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. -124-b.
11. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ.1999. -411 с.

## 10-bob. KICHIK BIZNES KORXONALARINING IQTISODIY HOLATINI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISH USULLARI

10.1. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish mazmuni va tartibi. Korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash usuli.

10.2. O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti.

10.3. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti. Asosiy fondlarni eskirish (iznos) koeffitsiyenti. Foydalilikka erishishni aniqlash (sharti).

10.4. Kichik biznes korxonalarining iqtisodiy faoliyatini moliyaviy koeffitsiyentlar yordamida tahlili.


*Tayanch iboralar: bankrot, inqiroz, moliyaviy sog'lomlashtirish, debitorlik va kreditorlik qarzlari, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, aylanma aktivlar, nomoddiy aktivlar, gudvill, amortizatsiya.*

### 10.1. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish mazmuni va tartibi.

#### Korxonani to'lov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash usuli

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2010-yil 27-yanvar) ma'ruzasida Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash masalalari alohida o'rin egallaganligini ta'kidlab o'tdi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni

rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

**Korxonani parokandalik holatidan chiqarish** – sanatsiya tadbirlarini o'tkazish asosida olib boriladi. Korxonada sanatsiya tadbirlari bo'yicha xarajat mulk egasi yoki boshqa manfaatdor shaxs, tashkilot tomonidan va hisobidan amalga oshiriladi. Ular moliyaviy yordam tariqasida o'tkaziladi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash faqat mablag' olinganidan so'ng korxonada kelajakda samarali ishlab ketish sharti bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlari korxonada moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi mavjudligi, unda konkret rivojlanishi yoki joriy faoliyat bo'yicha dasturiy tadbirlar ko'zda tutilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Respublikamizda korxonalarni iqtisodiy nochorligi bo'yicha ishlarini olib boruvchi qo'mita korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish rejasini ishlab chiqishda quyidagilarni ko'rib chiqishni tavsiya etgan:

**Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish rejasini  
ishlab chiqish tartibi:**

- korxonani umumiy holati tavsifi
- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasining qisqacha ma'lumotlari
- korxonada moliyaviy holatining tahlili
- to'lov qobiliyatini tiklash va xo'jalik faoliyatini samarali yuritish bo'yicha tadbirlarni nazarda tutish
- bozor va raqobat
- marketing sohasidagi faoliyatni yuritish
- ishlab chiqarish rejasi
- moliyaviy reja

Qayd eitish lozimki, O'zbekiston Respublikasini O'zR xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi o'z navbatida davlat vakili sifatida moliyaviy qo'llab-quvvatlashda qatnashadi.

**Moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi bo'yicha baholash, ko'rib chiqish va qaror qabul qilib, uni chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

- korxonadan talab qilingan hujjatlarni qo'mita yoki uning territorial boshqarmasiga taqdim etiladi. Ular me'yoriy tizim va qoidalar asosida korxonada nochorligi darajasi va moliyaviy yordam olib bo'lgandan keyin real imkoniyatlarini baholaydilar;

- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi va korxonada ishini kejakdagi ko'rsatkichlarini ekspertizasini o'tkazadilar;

- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi, xarajatlarni oqlash muddati va ishlab chiqarishni ustivorligini hisobga olgan holda moliyaviy yordamni qaytarish qoidasi va muddatini aniqlab olishadi;

- o'z navbatida sanatsiya tadbirlarini moliyalashtirishni amalga oshirish uchun qo'mita bilan uch taraflama shartnomalar tuzgan bank muassasasi, investitsion kompaniya va fondlar qatnashishlari mumkin;

- yuqoridagi tadbirlar uchun moliyaviy mablag'lar reja-grafik asosida moliyalash tadbirlari uchun ishlatiladi va undan ilgari moliyaviy sog'lomlashtirish rejasiga ko'ra tasdiqlanishi lozim.

**Moliyaviy qo'llab-quvatlash masalasi bo'yicha baholash, ko'rib chiqish va qaror qabul qilib, uni chiqarish tartibi:**

- korxonadan talab qilingan hujjatlarni qo'mita yoki uni territorial boshqarmasiga taqdim etiladi;
- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi va korxonaning kelajakdagi ko'rsatkichlarining ekspertizasini o'tkazadilar;
- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi, xarajatlarni oqlash muddati va ishlab chiqarishni ustivorligini hisobga olgan holda moliyaviy yordamni qaytarish qoidasi va muddatini aniqlab olishadi;
- o'z navbatida sanatsiya tadbirlarini moliyalashtirishni amalga oshirish uchun qo'mita bilan uch taraflama shartnomalar tuzgan bank muassasasi, investitsion kompaniya va fondlar qatnashishlari mumkin.

**Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish rejasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi nazarda tutiladi:**

- marketing strategiyasi, o'sish strategiyasi, tarqatish kanallari tasviri, kommunikatsiyalardan foydalanish darajasi, sotuvlarni amalga oshirish strategiyasi, (har bir kanal bo'yicha mahsulot sotuvining hajmi);

- mahsulot va xizmatlar tasviri, mahsulotning hayotiy davri, tadqiqot va natijalarni izohlash nazarda tutiladi.

**"Ishlab chiqarish rejasi bo'limi"da esa quyidagilarni tasvirlash maqsadga muvofiq:**

- korxonaning ishlab chiqarish dasturini izohlash (assortiment va haqiqatdagi shakllarida);

- rejalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotuv hajmi ;

- asosiy fondlar va ularga bo'lgan talablar;

- ishlab chiqarish dasturi asosida resurslarga bo'lgan talablar;

- personal va ish haqi fondiga bo'lgan talablar;

- xarajatlar smetasi;

- qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan talab;

- korxonani moliyaviy qo'llab-quvatlash faqatgina moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi mavjudligi va konkret tadbirlar belgilangan taqdirda amalga oshiriladi.

**Korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash usuli**

Bu ko'rsatkich nafaqat debitorlik qarzlarni o'z vaqtida to'langanlik bilan belgilanadi, balki tayyor mahsulotlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moddiy mablag'larni ham o'z vaqtida samarali sotishni ifodalaydi. Bu quyidagicha hisoblanadi:




$$K_{tq} = \frac{A_{aktiv.} - K_{dq}}{M_2 - D_{umk}}, \text{ bu yerda:}$$

$A_{aktiv.}$  – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zapaslari, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va b.);

$M_2$  – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzar (zayomlar), qisqa muddatli kreditorlik qarzlari, budjetdan va boshqa kreditorlik qarzlari);

$K_{dq}$  – kechiktirilgan debitorlik qarzlari (60 kundan ortiq);

$D_{umk}$  – uzoq muddatli qarzar (zayomlar) va kreditlar.



Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

Agar  $K_{tq}$  ko'rsatkichi hisobot oyi oxirida 2 dan past bo'lsa, unda korxonada bu ko'rsatkich bo'yicha nafaqat debitorlik qarzlarni to'lovi bo'yicha, balki o'z mahsulotini sotish va boshqa moddiy mablag'larini sotishga qodir emasligini ifodalaydi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar xarakteristikasi	Hisoblash formulasi	Barqarorlik holatini baholash kriteriyasi
1.	To'lov qobiliyati ko'rsatkichi - $K_{tq}$	To'lov imkoniyatlarining pastligini ifodalaydi	$K_{tq} = \frac{A_2 - K_{dq}}{M_2 - D_{umk}}$	$K_{tq} > 2$

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi 4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Farmonda Respublika Komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarini tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan to'g'ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko'zda tutilgan.<sup>39</sup>

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi 4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

- 1) bankrot korxonani kreditlik qarzi tarkibining 70 % va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonani tijorat banklari balansiga berish;
- 2) bankrot korxonani auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;
- 3) bankrot korxonani tanlov savdolari orqali tijorat banklariga "nol" qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Ushbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarini tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

### 10.2. O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarini saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Bunday korxonalarini bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

**O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti**, bu ko'rsatkich korxonani o'z mablag'lari hisobidan qisqa muddatli qarzdorlikni (zayomni) qoplanish darajasini ifodalaydi. Ya'ni:

$$K_{um} = \frac{M_1}{M_2 - D_{umk}}, \text{ bu yerda:}$$

$M_2$  – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari (zayomlar), qisqa muddatli kreditlik qarzlari, budjetdan va boshqa kreditlik qarzlari);

$M_1$  – o'z mablag'larining manbalari (Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqismlanmagan daromad (foyda) va b.);

$D_{umk}$  – uzoq muddatli qarzlari (zaemlar) va kreditlar.

Agar hisobot oyi oxirida o'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti 2 dan past bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham korxonani (firmani) to'lov qobiliyatiga ega emasligidan dalolat beradi.

1.	O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti- $K_{um}$	O'z mablag'lari hisobidan qisqa muddatli qarzlari manbalarini ta'minlash darajasini ifodalaydi	$K_{um} = \frac{M_1}{M_2 - D_{umk}}$	$K_{um} > 2$
----	---	--	--------------------------------------	--------------

### Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti

Bozor iqtisodiyoti kapital mulkka mo'ljallanayotgan investitsiyalar hajmi tegishli moliya aktivlarining daromadlilikiga bog'liq bo'ladi. Daromad me'yori orqali esa ana shu aktivlarning bahosi investitsiyalarga bo'lgan talab va taklifga qarab belgilanadi. Davlat pul va kredit siyosati orqali investitsiyaga bo'lgan talab va


taklifning nisbati hamda uning tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, bu siyosat turli moliya aktivlaridan olinadigan daromad hajmiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. U investitsiya tovarlari bozorida investorlar xatti-harakatining bosh yo'nalishini, shunga bog'liq holda investitsiyalar tarkibiy tuzilishini belgilaydi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, faqat mablag' olinganidan so'ng korxonada kelajakda samarali ishlab ketish sharti bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlari korxonada moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi mavjudligi, unda konkret rivojlanishi yoki joriy faoliyat bo'yicha dasturiy tadbirlar ko'zda tutilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi bo'yicha baholash, ko'rib chiqish va qaror qabul qilib, uni chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- korxonadan talab qilingan hujjatlar qo'mita yoki uni territorial boshqarmasiga taqdim etiladi. Ular me'yoriy tizim va qoidalar asosida korxonaning nochorligi darajasi va moliyaviy yordam olib borib bo'lganidan keyin real imkoniyatlarini baholaydilar;

- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi va korxonaning ishini kelajakdagi ko'rsatkichlari ekspertizasini o'tkazadilar;



- moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi, xarajatlarni oqlash muddati va ishlab chiqarish ustuvorligini hisobga olgan holda moliyaviy yordamni qaytarish qoidasi va muddatini aniqlab olishadi;

- o'z navbatida sanatsiya tadbirlarini moliyalashtirishni amalga oshirish uchun qo'mita bilan uch taraflama shartnomalar tuzgan bank muassasi, investitsion kompaniya va fondlar qatnashishlari mumkin.

**Amaliyotda korxonaning moliyaviy barqarorligining hisob-kitobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi – korxonaning (firma) moliyaviy barqarorligining pasayishi (o'sishi), kelgusi davrlarda moliyaviy tahdidlarning o'sishi yoki kamayishi va korxonaning o'z majburiyatlarini bartaraf etish kafolatligini ifodalaydi. Koeffitsiyentning kamayishi korxonaning (firma) barqarorligining pasayishini, kelgusida moliyaviy tahdidlarni oshishini ko'rsatib, o'z navbatida kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajara ololmaslikdan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$K_{mb} = \frac{M_1}{BJ(A_b + P_b)}, \text{ bu yerda}$$

$M_1$  – o'z mablag'larining manbalari (Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqismlanmagan daromad (foyda) va b.);

$BJ(A_b + P_b)$  – balansning aktiv va passiv bo'limlarining jami.

Agar moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti hisobot yil oxirida 0,5 dan past

bo'lsa, unda ushbu ko'rsatkich bo'yicha korxonada (firma) barqaror emasligini ko'rsatadi.

1.	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti – $K_{mb}$	Moliyaviy barqarorlikning pasayishi (o'sishi)ni ifodalaydi	$K_{mb} = \frac{M_1}{BJ(A_b + P_b)}$	$K_{mb} > 0,5$
----	---	--	--------------------------------------	----------------

Og'ir moliyaviy ahvolda bo'lgan korxonada amaliy faollik, rentabellik va mavjud aktivlar unumdorligining past ko'rsatkichlari kuzatiladi, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining zarar ko'rishi korxonada bankrotlik xatari oldida turganligidan dalolat beradi. Biroq bu zarar ko'rib ishlayotgan har bir korxonada bankrot bo'ladi degan ma'noni bildirmaydi.

**Korxonaning moliyaviy sog'lomlashtirish rejasida quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:**

- marketing strategiyasi, o'sish strategiyasi; tarqatish kanallari tasviri, kommunikatsiyalardan foydalanish darajasi, sotuvlarni amalga oshirish strategiyasi (har bir kanal bo'yicha sotuvning hajmi);

- mahsulot va xizmatlar tasviri, mahsulot hayotiy davri, tadqiqot va natijalarni izohlash nazarda tutiladi.

Zarar ko'rib ishlash vaqtinchalik bo'lishi mumkin, korxonada rahbariyati va menejerlari ijobiy qarorga kelib, uni bunday holatdan chiqishi ehtimoldan xoli emas. Boshqa tomondan, yuqori rentabellik bankrot bo'lish xataridan xalos etmaydi, chunki korxonada foyda olganidan keyin ham hisob-kitob varag'ida erkin mablag'ga ega bo'lmay, kreditorlar bilan hisob-kitob qila olmaydi, uzish muddati cho'zib yuborilgan kreditorlik qarzining mavjudligi bankrotlikning asosiy alomatidir.

### 10.3. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.

#### Asosiy fondlarni eskirish (iznos) koeffitsiyenti. Foydalilikka erishishni aniqlash (sharti)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz tartibda faol ishlashi qaror qabul qilish jarayoniga bog'liq. Qaror qabul qilish mexanizmini ishlab chiqarish korxonalarida to'g'ri tashkil etilganligi esa uni ma'lumotlar bilan ta'minlovchi tizimning axborotlari ishonchliligi va o'z vaqtida yetkazib berilishi bilan tavsiflanadi. Bu tizimning ajralmas qismlaridan biri korxonalarni tashxislash jarayonidir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida korxonalarda, aynan shu tizimni kamchiliklardan xoli faoliyat yuritishi korxonaning muvaffaqiyatli biznes kaliti va uni yo'lga qo'yish muhim ekanligi davr talabiga aylandi. Keyingi vaqtlarda bozorning va umuman iqtisodiyotning tezkorlik bilan o'zgarishi jarayonida korxonalar ham shu tezlikda ildamlilik bilan harakat qilishlari, aks holda esa qarorlarning kech qabul qilinishi natijasida ishlab chiqilgan mahsulotning raqobatbardoshligining pasayib ketishi ayni haqiqatdir<sup>40</sup>.

Bankrotlikni tahlil qilish (tashxis qo'yish)da rentabellik, amaliy faollik va

<sup>40</sup> Kambarov J.X. "Korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmini tashkil etish" fanidan ma'ruzalar matni. 2012-yil, 104-b.



aktivlar unumliligini ham tekshirish kerak. Faqat korxonada faoliyatini to'liq tekshirishgina uning iqtisodiy holati to'g'risida to'liq tasavvur berishi, yaqin va uzoq kelajakda jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yashirin noxush jarayonlarni bilish imkonini beradi.

**Korxonada faoliyati barqarorligini hisoblashning keyingi usuli o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.**

**O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti** – korxonada (firma)ning moliyaviy barqarorligi uchun zarur o'z aylanma mablag'larining mavjudligi yoki korxonada mulkdorlari va kreditorlari o'zaro manfaatlari munosabatini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkich quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$K_{o'amt} = \frac{M_1 - A_{um}}{A_{ayLakt}}, \text{ bu yerda:}$$

$M_1$  – o'z mablag'larining manbalari (Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan daromad (foyda) va b.);

$A_{um}$  – uzoq muddatli aktivlar (asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, kapital mablag'lar va b.)

$A_{ayLakt}$  – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa aylanma aktivlar).

**Nomoddiy aktivlarga** – patentlar, avtorlik huquqlari, savdo markalari va tovar belgilari, litsenziyalar, imtiyozlar, tashkiliy xarajatlar, gudvill, tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar uchun xarajatlar va boshqalar.


**Gudvill** – kompaniya tomonidan ma'lum bir korxonani sotib olish davridagi qiymati hisoblandi.

**Gudvill bahosi** – sotib olish qiymati (korxonaning to'liq qiymati) va aktivlar summasidan majburiyatlarini olib tashlangan qiymatidir.

Ushbu kasming surati – korxonada o'z mablag'larining qancha qismi (summasi) aylanma mablag'larga yo'naltirilganligini, mahraji esa barcha aylanma mablag'larning miqdorini ifodalaydi.

1.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti – $K_{tq}$	O'z manbalari hisobidan aylanma mablag'larni ta'minlanishini ifodalaydi	$K_{tq} = \frac{M_1 - A_{um}}{A_2}$	$K_{tq} > 0,1$
----	--	---	-------------------------------------	----------------

Bu ko'rsatkichning minimal qiymati 0,1 dan kam bo'lsa, agar undan ham kam bo'lsa, u holda ushbu ko'rsatkich bo'yicha korxonada (firma) barqaror emasligini ifodalaydi.



Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

### Asosiy fondlarni eskirish (iznos) koeffitsiyenti.

#### Foydalilikka erishishni aniqlash (sharti)

Asosiy aylanma fondlarni yangilanish koeffitsiyenti – yil (davr) davomida firmaning mavjud asosiy vositalaridan, jumladan, moddiy aktivlar, moddiy bo‘lmagan aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy mablag‘lardan foydalanish (jismoniy va ma‘naviy eskirishi) darajasini ifodalaydi. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

#### Hisoblangan amortizatsiya

$$AF_{yang.} = \frac{\text{Hisoblangan amortizatsiya}}{\text{Asosiy fondlarning boshlang‘ich qiymati}}$$

Bu ko‘rsatkich 0,5 dan kichik bo‘lmasligi kerak, aks holda asosiy fondlarning yangilanishi maqsadga muvofiq bo‘lmay, bu keyinchalik ishlab chiqarish darajasiga, mahsulot sifatiga, mehnat unumdorligining pasayishi kabi ko‘rsatkichlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, firma moliyaviy holatiga jiddiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Hisoblangan amortizatsiya quyidagi asosiy fond ko‘rsatkichlaridan tarkib topadi:

- AFning boshlang‘ich qiymati;
- qo‘shilgan amortizatsiya (to‘plangan mablag‘ning eskirishi);
- qoldiq yoki balans qiymati (bosh.qiymat – qo‘shilgan amort.);
- asosiy fondlarni chiqarib tashlanadigan (likvidatsion) qiymati, ya‘ni chiqarib tashlashdan keyingi baholangan yangi qiymat;
- ma‘lum muddatlar davomida taqsimlangan hisobdan chiqarilgan qiymat bu – boshlang‘ich va chiqarib tashlanadigan qiymatlar o‘rtasidagi farq.

Hisoblangan amortizatsiya ikki usulda aniqlanadi: to‘g‘ri chiziqli va tezkor amortizatsiya deyiladi.

To‘g‘ri chiziqli amortizatsiya (amortizatsiya normasi) – ma‘lum muddatlar davomida maqsadli foydalanilgan asosiy fondlarni ma‘lum ulushlarda hisobdan chiqarish (spisaniya) qilish darajasi tushuniladi.

1.	Asosiy aylanma fondlarni yangilanish koeffitsiyenti – $A_{yang}$	Yil (davr) davomida firmaning mavjud asosiy vositalaridan, jumladan, moddiy aktivlar, moddiy bo‘lmagan aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy mablag‘lardan foydalanish (jismoniy va ma‘naviy eskirishi) darajasini ifodalaydi	Hisob.amort. $A_{yang.} = \frac{\text{Hisob.amort.}}{\text{AF bosh.qiymati}}$	$A_{yang} > 0,5$
----	---	---	--	------------------

**Misol:**

1. Afning boshlang'ich qiymati – 120,0 mln. so'm.
2. Afning hisobdan chiqarib tashlanadigan qiymati – 10,0 mln. so'm.
3. Foydalanish muddati – 5 yil.



Misolimizdagi amortizatsiyalangan qiymat 110,0 mln. so'mni (120,0-10,0) tashkil etadi. Har yili hisobdan chiqarib tashlanadigan qiymat miqdori 22,0 mln.s.ni (110,0/5) tashkil etadi. Yoki yillik amortizatsiya normasi 20-22 %ni tashkil etadi.

**Tezkor amortizatsiya** har yilda chiqarib tashlanadigan amortizatsiya koeffitsiyentlari orqali hisoblanadi. Misolimizdagi 5 yillik amortizatsiya  $1+2+3+4+5=15$  ga teng. Bundan chiqarib tashlash (spisat) koeffitsiyenti  $5/15=0,33$  ga teng.

**Yuqoridagi misolimizdagi norma koeffitsiyentlari 5 yilda quyidagiga teng:**

Yillar	Koeffitsiyentlar	Amortizatsiya kattaligi
1	0,333	36,67
2	0,267	29,33
3	0,200	22,00
4	0,133	14,67
5	0,067	7,33
<b>Jami amortizatsiya</b>		<b>110,0</b>

**Hisob-kitoblar tartibi:**

1. $1+2+3+4+5=15$	$5:15=0,333$	$(0,333 \times 110):100=36,67$
2. $(5-1)=4$	$4:15=0,267$	$(0,267 \times 110):100=29,33$
3. $(5-2)=3$	$3:15=0,200$	$(0,200 \times 110):100=22,00$
4. $(5-3)=2$	$2:15=0,133$	$(0,133 \times 110):100=14,67$
5. $(5-4)=1$	$1:15=0,067$	$(0,067 \times 110):100=7,33$

**Asosiy fondlarni eskirish (iznos) koeffitsiyenti:**

**Asosiy fondlarni eskirishi = eskirish normasi x (boshlang'ich qiymat – qo'shilgan qiymat (to'plangan mablag' eskirishi)).**

Korxonaning to'lov qobiliyatiga ega yoki to'lov qobiliyatiga ega emasligini aniqlashning bir necha formulalar yordamida hisoblash yo'llari mavjud. 1-jadval orqali korxonalarining iqtisodiy moliyaviy barqarorlik holatini baholash tizimini ko'rishimiz mumkin.

Korxonalar (firma) faoliyatining barqarorligi to'g'risidagi yakuniy xulosa: qachonki barqarorlik holatini baholash kriteriya ko'rsatkichlarining umumiy yig'indisi 4,66 dan kam bo'lsa, korxonalar (firma) barqaror holatda emas deb baholanadi. Hisob-kitolar yakuniy natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

**Korxonalarning iqtisodiy moliyaviy barqarorlik holatini  
baholashning yakuniy natijalari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>Ko'rsatkichlar xarakteristikasi</b>	<b>Hisoblash formulasi</b>	<b>Barqarorlik holatini baholash mezonlari</b>
1	To'lov qobiliyati ko'effitsiyenti – $K_{tq}$	To'lov imkoniyatlari pastligini ifodalaydi	$K_{tq} = A_{aktiv} - K_{dq} / M_2 - D_{ymk}$	$K_{tq} < 2$
2	O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik ko'effitsiyenti – $K_{ym}$	O'z mablag'lari hisobidan qisqa muddatli qarzlarni manbalarini ta'minlash darajasini ifodalaydi	$K_{ym} = M_1 / M_2 - D_{ymk}$	$K_{ym} < 2$
3	Moliyaviy barqarorlik ko'effitsiyenti – $K_{mb}$	Moliyaviy barqarorlikning pasayishi (o'sishi)ni ifodalaydi	$K_{mb} = M_1 / BJ (A_b + P_b)$	$K_{mb} < 0,5$
4	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash ko'effitsiyenti – $K_{ta}$	O'z manbalari hisobidan aylanma mablag'larni ta'minlanishini ifodalaydi	$K_{ta} = M_1 - A_{ym} / A_2$	$K < 0,1$
5	Asosiy aylanma fondlarni yangilanish ko'effitsiyenti – $A_{yang}$	Yil (davr) davomida firmaning mavjud asosiy vositalaridan, jumladan, moddiy aktivlar, moddiy bo'lmagan aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy mablag'lardan foydalanish (jismoniy va ma'naviy eskirishi) darajasini ifodalaydi	$A_{yang} = \text{Hisob.amort} / \text{AF bosh . qiymati}$	$A_{yang} < 0,5$

Manba: Muallif ishlanmasi.


Korxonada bankrotlik sabablarini aniqlamay turib, u bilan kurashish besamar hisoblanadi. Ko'plab iqtisodchilar korxonada miqyosidagi inqirozlarning sababi marketing sohasidagi kamchiliklardan paydo bo'lishini ta'kidlaganlar. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor faoliyati o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvining buzilishi yoki uzilishlar, yoki bu darajadagi muammolarni paydo bo'lishiga olib keladi. Bu muammolar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni turib qolishi, aylanma mablag'larning aylanuvchanligining pasayishi, pul oqimining yetarli emasligi kabilarda hosil bo'ladi. Natijada korxonaga inqiroz xavfi boshlanadi<sup>41</sup>.

Inqirozga olib keluvchi sabablarni korxonada ta'sir doirasidaligiga qarab tashqi va ichki turlarga ham bo'lish mumkin. Ichki sabablar korxonaning qaror qabul qilish qamrovi bilan o'lchansa, tashqi sabablar korxonada ta'sir doirasidan tashqarida bo'lib

<sup>41</sup> Бабушкина Е.А. Антикризисное управление: конспект лекций. //Е.А.Бабушкина, О.Ю.Бирюкова, Л.С.Верещагина. – М.: Эскмо, 2008. -1596 с.



ularni boshqarib bo'lmaydi. Bundan tashqari inqirozning boshqa sabablari ham borki, ular faqatgina ishlab chiqarish bilan bog'liq emas. Ular ham majburiyatlarni vaqtida bajarilishiga to'sqinlik qiladi va barcha sabab to'lov layoqatini pasayishi va oqibatda inqirozni vujudga keltiradi.




**2-rasm. Korxonani inqirozga olib keluvchi ichki va tashqi sabablar**

Manba: Jarkovskaya Elena Pavlovna. Antikrizisnoe upravleniya: Uchebnik – 4-e izd., – M.: Omega, 2007. -365 c.

Inqirozning vujudga kelish sabablarini 1-chizma yordamida kuzatish mumkin. Chizmada ko'rinib turibdiki, korxonalarni inqirozga olib keluvchi sabablar shaxslarning ta'siriga bog'liq holda obyektiv va subyektiv turlariga bo'linadi. Obyektiv sabablar ko'proq tabiiy holatda yuz beradigan inqirozlarni shakllantiradi. Masalan, korxonadan ishlab chiqilgan mahsulot urfdan qolishi, texnologiya zamon talabiga javob bermasligi va hokazo. Subyektiv sabablar insonning ta'siri natijasida ataylab yoki sun'iy ravishda inqirozni uyushtirish tushuniladi.

Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi o'z ichiga moliyaviy holat, xo'jalik faoliyatining samaradorligi va to'lov qobiliyatini tiklash bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi, bozor va raqobat haqida ma'lumotlar, marketing faoliyatlari bo'yicha tadbirlar ishlab chiqarish va moliyaviy reja bo'limlarini tasvirlashni nazarda tutadi.



Manba: <https://www.dreamstime.com/stock-illustration-logistic-infographic-icons-freight-service-set-world-map-vector-illustration-image41887658>

Korxonalar (firmalar) sogʻlomlashtirish koʻrsatkichlarining oʻziga xosligi va xususiyatlari hamda shu koʻrsatkichlar asosida korxonalar biznes-rejasiga oʻzlashtirishlar kiritish imkonini nazarda tutiladi.

Davlat tomonidan korxonalarni inqirozdan saqlash va sogʻlomlashtirish ishlari bankrotlik institutiga asoslanadi.

**Bankrotlik instituti** – xoʻjalik yurituvchi subyektlar oʻrtasidagi munosabatlar amaliyoti va huquqiy tartibga solish tizimida nisbatan yangi institut boʻlib, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning oʻrni va rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maʼnoda bankrotlik institutini toʻlaqonli oʻrganish va tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Oʻtgan davr mobaynida yurtimizda bankrotlik institutini chuqurroq oʻrganish maqsadida chet ellik mutaxassislar va olimlar bilan yaqindan hamkorlik oʻrnatilib, ularning bu boradagi tajribasi va amaliyoti oʻrganildi. Buning amaliy natijasi oʻlaroq, qisqa davr ichida bankrotlik instituti boʻyicha oʻzimizga xos tajriba maktabini yaratdik desak, mubolagʻa boʻlmaydi. 2007-yilda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi hamkorligida “Bankrotlik toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining qonuniga sharh tayyorlandi. Bu amaliy hamkorlik Respublikamiz Bankrotlik institutining nazariy-amaliy sohadagi muammolarini hal boʻlishiga va takomillashishiga sabab boʻldi.

Toʻlovga qodir boʻlmagan xoʻjalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish Oʻzbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm yordamida samarasiz boʻlgan mulkdorlarni almashtirish, korxonalarni tugatish, ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadigan va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlarining barqarorligini taʼminlash hamda ish bilan bandlikni kafolatlash maqsadi nazarda tutilgan.

Bankrotlik instituti, asosan, ikki xil yoʻl bilan iqtisodiyotga taʼsir qiladi va uni sogʻlomlashtiradi. Bularga: birinchidan, toʻlovga qodir boʻlmagan qarzdorlarning tijorat faoliyatini tugatish; ikkinchidan esa iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolgan xoʻjalik yurituvchi subyektlarga oʻz faoliyatini qayta tashkil qilish va toʻlov qobiliyatini tiklashga imkoniyat berish. Bunda Respublikamizning Bankrotlik instituti ham qarzdor, ham kreditor manfaatini himoya qilishini koʻzlaganligini koʻrishimiz mumkin.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiya, texnik-texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

1. Bankrot korxonada kreditorlik qarzi tarkibining 70 % va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, y holda korxonani tijorat banklari balansiga berish.

2. Bankrot korxonaning auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish.

3. Bankrot korxonani tanlov savdolar orqali tijorat banklariga "nol" qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Ushbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarini tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi PF-4010-sonli "Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan. Jumladan, ushbu farmoyishga ko'ra bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurutuvchi subyektlar:

➤ qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi;

➤ yil davomida foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mulk solig'i va yer soliqlarni to'lashdan ozod qilindi;

➤ boshqaruv kompaniyalariga berilganda foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindi.

Shuningdek, meyoriy hujjatlar orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Jumladan:

➤ banklar korxonaning negizida ustav jamg'armasi 100 %gacha bo'lgan yangi korxonada tashkil etish;

➤ bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan, hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

➤ bankrot korxonada uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

➤ bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va hokazo<sup>42</sup>.

Davlat tomonidan iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklari balansiga sotib yoki berib sog'lomlashtirish, shuningdek, imtiyozli kreditlar ajratish orqali moliyaviy yordam ko'rsatish jarayonlari yaxshi yo'lga qo'yilganligi amalda o'z isbotini ko'rsatmoqda.

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi farmoni, 2008-y.

#### 10.4. Kichik biznes korxonalarining iqtisodiy faoliyatini moliyaviy koeffitsiyentlar yordamida tahlili

Moliyaviy hisobotni tahlil qilishda keng foydalaniladigan usul – moliyaviy koeffitsiyentlar asosida amalga oshiriladi. O‘zining soddaligi va tezda hisoblanishi mumkinligidan kelib chiqqan holda ommaviy hisoblanadi. Moliyaviy koeffitsiyentlarning mazmuni shundan iboratki, hisobot ko‘rsatkichlari asosida aniqlangan moliyaviy koeffitsiyentlar tarmoq yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy koeffitsiyentlari bilan solishtiriladi. Moliyaviy koeffitsiyentlar xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining nozik joylarini ko‘rsatib beradi. Shuni aytish lozimki, moliyaviy koeffitsiyentlarning hisob-kitobida qandaydir yagona moliyaviy koeffitsiyentlar tizimi qo‘llanilmaydi. Shunga qaramay, turli axborotnomalarda e‘lon qilinayotgan moliyaviy koeffitsiyentlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) likvidlik koeffitsiyentlari;
- 2) ishchanlik faolligi koeffitsiyentlari;
- 3) moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari;
- 4) rentabellik koeffitsiyentlari.

**Likvidlilik koeffitsiyentlari** – kompaniyaning qarzlari bo‘yicha o‘z joriy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini o‘lchaydi. Likvidlikning o‘lchovlaridan biri bu aylanma (ishchi) kapital, ya‘ni joriy aktivlar va joriy majburiyatlar o‘rtasidagi ayirmadir.

**1. Joriy likvidlik koeffitsiyenti (current ratio)** keng tarqalgan va ko‘p foydalaniladigan koeffitsiyent hisoblanadi. Joriy likvidlik koeffitsiyent 2:1 nisbatda bo‘lsa, yetarli deb hisoblanadi. Bu har bir so‘mlik majburiyatga 2 so‘mlik joriy aktiv to‘g‘ri keladi deganidir.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti =	Joriy aktivlar (sh.№1 satr. 390)	12698900	= 0,23
	Joriy majburiyatlar (sh.№1 satr. 600)	5544200	

Joriy likvidlik koeffitsiyenti “NEW WAY CONSULTING” MCHJda 0,23 ga teng. Bu belgilangan me‘yordan ko‘ra kam.

**2. Tez likvidlik koeffitsiyenti (acied-test ratio)** oldingi koeffitsiyentga qo‘shimcha ravishda hisoblanadi. Tez likvidlik koeffitsiyenti joriy majburiyatga nisbatan ortiq bo‘lsa, yetarli deb hisoblanadi. Yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan korxonada tez likvid aktivlar joriy majburiyatlariga nisbat ko‘p ekanligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tez kividlilik koeffitsiyenti =	Tez likvid aktivlar (sh.№1 carp.390-satr. 140- satr.190- satr. 200)	3231400	= 0,58
	Joriy majburiyatlar (sh.№1 satr. 600)	5544200	

Tez likvidlik koeffitsiyenti “NEW WAY CONSULTING” MCHJda 0,58 ga teng. Bu belgilangan me‘yordan ko‘ra kam.

**3. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti** to‘lov qobiliyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu koeffitsiyent qisqa muddatli qarzlarning qaysi qismi birdan qaytarilishi lozimligini ko‘rsatib beradi.



Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti =	Pul mablag'lari (sh.№1 satr. 320)	=	806100	= 0,15
	Joriy majburiyatlar (sh.№1 satr. 600)		5544200	

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti "NEW WAY CONSULTING" MCHJda 0,15 ga teng. Bu har bir so'mlik joriy majburiyatlarga 0,15 so'm pul mablag'i to'g'ri kelishini ko'rsatib beradi.

**Ishchanlik faolligi koeffitsiyentlari** – aktivlar aylanuvchanligi kompaniya ish faoliyati samaradorlik darajasining oddiy o'lchovlaridan biridir. Biznesni moliyalashtirishi uchun debitorlik qarzlari pul mablag'iga aylantirilishi, TMZlar esa sotilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga debitorlik qarzlari va TMZni boshqarishning samaradorlik darajasini o'lchash uchun koeffitsiyentlar ishlab chiqilgan.

**4. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (receivable turnover (RT) ratio)** bu koeffitsiyent yil davomida necha marta debitorlik qarzlari olinganligini ko'rsatadi.

Debitor Debitorlik qarz- = larining aylanish koeffitsiyenti	Sof tushum (sh.№2 satr. 010)	30561000	= 15 marta
	O'rtacha debitorlik qarzlari (sh.№1 satr. 210 3.ust + 4.ust) : 2	(1655800+2425300) : 2	

Joriy yil yakuni bo'yicha "NEW WAY CONSULTING" MCHJda 15 martaga teng. Bu koeffitsiyent yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlab olish uchun **debitorlik qarzlarning aylanish muddatlari kunlarda (receivable turnover in days (RTD))** hisoblanishi lozim. Bir yildagi kunlar debitorlik qarzlarning aylanma koeffitsiyentiga bo'lib, qarzlarning aylanish o'rtacha muddatlarini kunlarda hisoblashimiz mumkin:

Debitorlik qarzlarning aylanish muddati=	365 kun	365 kun	= 24 kun
	Debitorlik qarzlarning aylanma koeffitsiyenti	15 marta	

O'tgan yilda debitorlik qarzlarning aylanish muddatlari kunlarda "NEW WAY CONSULTING" MCHJda 24 kunga teng bo'lib, jamiyat uchun mahsulot, ish yoki xizmatlarni sotish sanasidan debitorlik qarzlarni undirib olish uchun 24 kun kerak bo'lgan.

**5. TMZ aylanuvchanlik koeffitsiyenti (inventory turnover (IT) ratio).** Korxonada TMZ miqdori qancha bo'lishi kerak? Bu narsa juda ko'p omillar birikmasiga bog'liq, shu jumladan, korxonaning faoliyat ko'rsatayotgan sohasi va yil mavsumi ham. TMZ qoldig'ining yetarliligini o'lchash usullaridan biri – TMZ aylanuvchanligini aniqlash uchun uni yil davomidagi sotish bilan solishtirish hisoblanadi.

Tovar zaxiralarini = boshqarish	Sotilgan tovarlarning tannarxi (sh.№2 satr. 020)	2200000	=1,44 marta
	O'rtacha debitorlik qarzlari (sh.№1 satr. 140 3.ust + 4.ust) : 2	1531800	

Joriy yil yakuni bo'yicha "NEW WAY CONSULTING" MCHJda

1,44 martaga teng. TMZni tahlil qilishning yana bir usuli – mahsulotning sotuvgacha TMZda bo‘lishning o‘rtacha davomiyligini hisoblashdir:

TMZ larning aylanish muddati=	365 kun	365 kun	= 253,4 kun
	TMZ ni o‘rtacha davomiylig koeffitsiyenti	1,44 marta	

O‘tgan joriy yilda TMZlarning aylanish muddatlari kunlarda “NEW WAY CONSULTING” MCHJda 253,4 kunga teng bo‘lib, jamiyat TMZlarni sotishgacha o‘rtacha 253,4 kun davomida saqlagan. Bu TMZlarni sotishga qadar pul mablag‘lari TMZlar bilan 253,4 kun davomida bog‘lanib qolganligidan dalolat beradi. Debitorlik qarzlarning aylanish muddati (24 kun)ni ham hisobga olsak, TMZlarni sotib olish, TMZlarni sotish va pul mablag‘lari olish muddati undan ham uzoqroq hisoblanadi, o‘rtacha 277,4 kun.

Illustration 7.4	
\$18.00	
-\$6.00	
\$12.00	
$\$12/\$18=0.6667$ or 66.67%	
Therefore:	
$\frac{\$12,000(\text{FC})}{0.6667(\text{CM})} = \$18,000(\text{Rounded})$	
Check:	
$\$18,000/\$18(\text{SP}) = 1,000$ units	
As you can see, all these numbers match, regardless of how you approach them	

Manba: <http://maybe-invest.ru/wp-content/uploads/2014/02/analiz-investitsionnoy-deyatelnosti-banka.jpg>

**6. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti (total asset turnover).** Aktivlarning aylanuvchanligi kompaniya uchun sotish orqali moliya mablag‘ining boshlang‘ich manbai bo‘lgan mijozlar va kompaniyani boshqarishda foydalaniladigan resurslar (aktivlar) o‘rtasidagi munosabatni xarakterlaydi.

Aktivlarning aylanuvchanlik = koeffitsiyenti	Sof tushum (sh.№2 satr. 010)	30561000	= 1,22
	Jami aktivlar (sh.№1 satr. 400)	25001700	

Bu koeffitsiyent orqali jami aktivlarning har bir so‘miga sotish natijasida necha so‘m ishlab olganligi aniqlanadi. “NEW WAY CONSULTING” MCHJda jami aktivlarning har bir so‘miga sotish natijasida 1,22 so‘m ishlab topgan. Aktivlarning aylanuvchanligi qancha yuqori bo‘lsa, mijozlardan kelib tushadigan summalar ham yuqori bo‘ladi.

**Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari** – kompaniya egalari va kreditorlar o‘rtasidagi tavakkalchilikning qanday taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, aktivlar qarz hisobiga yoki korxonaning o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilgan bo‘lishi mumkin.

**7. Qarzdorlikning xususiy kapitalga nisbat koeffitsiyenti yoki moliyaviy leveredj (Debt-to-Equity ratio)** korxonalarining moliyaviy barqarorlik (kapital bilan

ta'minlanganlik) va korxonaga kapitalga asoslangan holda qarzlarning hajmi darajasini ko'rsatib beradi. Bu nisbat qarzlarning mablag'larni olish va aksiyalarni chiqarish orqali aralash moliyalashtirish yo'lini ko'rsatib beradi.

Qarzdorlikning xususiy kapitalga nisbat koeffitsiyenti =	Majburiyatlar summasi (sh.№1 satr. 770)	19471000	= 3,52
	Xususiy kapital (sh.№1 satr. 480)	5530800	

“NEW WAY CONSULTING” MCHJda xususiy kapitalning har bir so'miga 3,52 so'm joriy majburiyat to'g'ri keladi. Bu nisbat 1:1 dan yuqori, korxonaga yuqori moliyaviy leveredjga ega jamiyat uchun yana qarzlarni olish juda qiyin hisoblanadi.

**8. Majburiyatlar summasining aktivlarga nisbat koeffitsiyenti (Debt-to-total asset ratio)** kreditorlarga taqdim qilingan aktivlar summasini aniqlashga hamda leveredj darajasi (miqdori)ni o'lchab beradi.

Majburiyatlar summasining aktivlarga nisbat koeffitsiyenti =	Majburiyatlar summasi (sh.№1 satr. 770)	19470900	= 0,78
	Jami aktivlar (sh.№1 satr. 400)	25001700	

O'tgan 2015-yilda “NEW WAY CONSULTING” MCHJda 0,79 ga teng. Shunday qilib, “NEW WAY CONSULTING” MCHJda 78 % aktivlari qarzlarga olingan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Jamiyat esa yaxshi leveredjga ega hisoblanadi.

**Rentabellik koeffitsiyentlari** – kompaniya yildan yilga o'z faoliyatini foydalilik nuqtayi nazaridan qanday tashkil qilganligini ko'rsatadi.

**9. Yalpi rentabellik koeffitsiyenti (gross profit margin)** korxonaning yalpi foydasi va sof tushumning nisbatini ko'rsatib beradi. U korxonaga faoliyatining joriy samaradorligini va narx siyosatini asoslanganligini ko'rsatib beradi.

Yalpi rentabellik koeffitsiyenti =	Yalpi foyda (sh.№2 satr. 030)	28361000	= 0,93
	Sof tushum (sh.№2 satr. 010)	30561000	

“NEW WAY CONSULTING” MCHJda 2015-yil yakuni bo'yicha 0,93 yoki 93 %ga teng. 2011-yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 86 %ni tashkil qilgan. Yalpi rentabellik koeffitsiyentining o'sishi ishlab chiqarish tannarxining samarali pasayishini yoki o'tgan yilga nisbatan to'g'ri narx siyosatining olib borilganligini ko'rsatib bermoqda.

**10. Sof marja yoki rentabellik koeffitsiyenti (net profit margin)** joriy yilda korxonaning faoliyati qanchalik samarali bo'lganligini ko'rsatib beradi.

Sof marja yoki rentabellik koeffitsiyenti =	Sof foyda (sh.№2 satr. 270)	10425000	= 0,34
	Sof tushum (sh.№2 satr. 010)	30561000	

Joriy yilda "NEW WAY CONSULTING" MCHJda har bir so'mlik sotilgan mahsulot bo'yicha 0,34 so'm yoki 34 % miqdorida foyda olgan. O'tgan yilda esa bu ko'rsatkich 0,27 so'm yoki 27 %ni tashkil qilgan.

**11. Aktivlarning daromadlilik koeffitsiyenti (return on assets (ROA)) aktivlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik koeffitsiyenti (rate of return on investment (ROI))** sof foyda bilan korxonada tasarrufida bo'lgan aktivlarning umumiy miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aktivlarning daromadlilik koeffitsiyenti (ROA) =	Sof foyda (sh.№2 satr. 270)	10425000	= 0,42
	Barcha aktivlar (sh.№1 satr. 400)	25001700	

Joriy yilda "NEW WAY CONSULTING" MCHJda har bir so'mlik aktivlarga 0,42 so'm miqdorida sof foyda olgan.

**12. Kapitalning daromadlilik koeffitsiyenti (return on Equity (ROE))** pul mablag'i qanday ishlayotganligini ko'rsatib beradi. Investorlar tomonidan aksiyalarning qiymatini baholashda eng ko'p ishlatiladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Investorlar bozor qiymatidan kelib chiqqan holda investitsiya qilish yoki biroz kutish lozimligi to'g'risida o'z qarorlarini qabul qilishi lozim bo'ladi.

Kapitalning daromadlilik koeffitsiyenti (ROE) =	Sof foyda (sh.№2 satr. 270)	10425000	= 1,88
	Xususiy kapitali (sh.№1 satr. 480)	5530800	

Joriy yil yakuni bo'yicha "NEW WAY CONSULTING" MCHJ har bir so'mlik xususiy kapital bo'yicha 1,88 so'm miqdorida sof foyda ishlab topgan.

### Xulosa

Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi o'z ichiga moliyaviy holat, xo'jalik faoliyatining samaradorligi va to'lov qobiliyatini tiklash bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi, bozor va raqobat haqida ma'lumotlar, marketing faoliyatlari bo'yicha tadbirlar ishlab chiqarish va moliyaviy reja bo'limlarini tasvirlashni nazarda tutadi. Korxonada (firma) sog'lomlashtirish ko'rsatkichlarining o'ziga xosligi va xususiyatlari hamda shu ko'rsatkichlar asosida korxonada biznes-rejasiga o'zgartirishlar kiritish imkonini nazarda tutish kerak.

To'lovga qodir bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm yordamida samarasiz bo'lgan mulkdorlarni almashtirish, korxonalarni tugatish, ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadigan va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlarining barqarorligini ta'minlash hamda ish bilan bandlikni kafolatlash maqsadi nazarda tutilgan.

Davlat tomonidan korxonalarni inqirozdan saqlash va sog'lomlashtirish ishlari bankrotlik institutiga asoslanadi.



### **Nazorat savollari**

1. Qanday holatlarda korxonani moliyaviy holatini sog'lomlashtirish rejasi tuziladi?
2. Bunday reja o'z ichiga qanday bo'limlarini kiritishni nazarda tutadi?
3. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish rejasini tuzishda qanday bosqichlarni o'tish lozim?
4. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish rejasini xosligi va afzalliklari nimada?
5. Bu rejani xo'jalik faoliyati uchun tuziladigan rejadan farqlari va xususiyatlari nimada?

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.
7. Karimov. I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).
8. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ. 1999. -411 с.
9. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.
10. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -275 с.
11. Rashidov O.Y., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2011. -124 b.
12. Чиненова М.В. Инвестиции. – М.: КНОРУС, 2008. -365 с.

## **11-bob. INVESTITSIYALAR ASOSIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISH LOYIHALARI TAHLILI**

**11.1. Mahalliyashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari va taqdim etiladigan hujjatlar.**

**11.2. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflar kiritish va ularni ko'rib chiqish tartibi, baholash mezonlari va talablar.**

**11.3. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi va loyihaning marketing strategiyasi. Mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalariga beriladigan imtiyozlar.**

**11.4. Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish monitoring tartibi.**

**11.5. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining kasanachilik asosida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish yo'llari va omillari.**

*Tayanch iboralar: sanoat kooperatsiyasi, raqobatbardosh, mahalliyashtirish, butlovchi buyumlar, loyihaning marketing strategiyasi, mahalliyashtirish darajasi, monitoring, kasanachilik.*

.....

### **11.1. Mahalliyashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari va taqdim etiladigan hujjatlar**

Import o'rmini bosadigan va raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligini o'stirish maqsadida respublikada sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishning Mahalliyashtirish dasturiga asos solindi.

**Mahalliyashtirish dasturi** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-fevraldagi "2014-2016-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2120-son qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 28-29-son, 235-modda) muvofiq amalga oshiriladi.

#### **Dasturning maqsadi:**

- import o'rmini bosadigan va raqobatbardoshli zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va aholi bandligini o'stirish;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar,

investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi tomonidan respublika kompaniyalari, uyushmalari va korxonalari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2014-2016-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini ishlab chiqishdir.

#### Dasturning maqsadi:

- import o'rini bosadigan va raqobatbardoshli zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va aholi bandligini o'stirish;	- mutasaddi vazirliklar, muassasa va tashkilotlar tomonidan sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini ishlab chiqishdan iborat.
---	--

Ta'kidlangan mutasaddi vazirlik va idoralar sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahalliyashtiradigan ishlab chiqarishlarni va sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish yuzasidan respublikada olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish;

- Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishini, asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarning o'zlashtirilishini hamda importni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda nazorat qilish;

- Mahalliyashtirish dasturining belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga erishishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;


- kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan yirik sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish masalalari tezkorlik bilan hal qilinishini ta'minlash;

- butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarning ilgari import qilib kelingan turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida mavjud imkoniyatlar va quvvatlarini aniqlash;

- mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

“Islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliyashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatbardoshligini so'zsiz oshirish”<sup>43</sup>.

<sup>43</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017.14.01>.



Manba: [http://www.cfin.ru/management/strategy/plan/competitive\\_strategy.shtml](http://www.cfin.ru/management/strategy/plan/competitive_strategy.shtml)

### **Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari:**

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- import qilinadigan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlar hajmini qisqartirish;
- import bo'yicha keltiriladigan mahsulotlarga valyuta xarajatlarini kamaytirish va maqbullashtirish;
- sanoatning turli tarmoqlari qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xomashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;
- yangi ishchi o'rinlarini yaratish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini va mamlakatimiz korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish.

### **Mahalliyashtirish dasturini tuzish:**

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tashabbus ko'rsatgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini;
- import qilinadigan mahsulotlarning hajmi, tarkibi va turlarini chuqur tahlil qilish, tashqi bozorlar konyunkturasini, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan kontraktlar va shartnomalarni tizimli o'rganish asosida ishlab chiqilgan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining takliflari asosida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan joylashtiriladigan tayyor mahsulotlar, xizmatlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini;



- monopoliyashtirish darajasi va raqobat muhiti rivojlanishini, tovarlar (xizmatlar) o'zaro bir-birining o'rmini bosishi va narx omilini hisobga olgan holda tovarlar (xizmatlar) bilan ichki bozorning to'ldirilganligini baholashdan kelib chiqib Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining takliflari asosida tuziladigan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini o'zlashtirish loyihalarini kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### **Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari va taqdim etiladigan hujjatlar**

#### **Dasturga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari:**

● loyiha Mahalliyashtirish dasturining maqsad va vazifalariga muvofiq bo'lishi lozim;

● loyihani amalga oshirish imkoniyati (tashabbuskor ushbu loyihani amalga oshira oladimi yoki yo'qmi);

● ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotga bozorda talab bormi;

● mahalliyashtirish talab etiladigan darajasiga erishish imkoniyatlari;

● loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi;

● tashabbuskorda marketing konsepsiyasining mavjudligi;

● ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish, shu jumladan, eksport qilish istiqboli;

● loyiha moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobiga amalga oshirilgan hollarda iqtisodiy samaradorlikning kelishuvi;

● loyiha moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobiga amalga oshirilgan yoki tijorat banklarining kreditlari jalb etilgan hollarda loyihaning iqtisodiy asoslanganligi, moliyalashtirishning taklif etilayotgan sxemasi maqbulligi, tavakkalchiliklarni baholash va kreditning qaytarilishi.

Mahalliyashtirish dasturiga kiritish (yoki o'zgartirish) bo'yicha takliflar vakolatli organlar tomonidan ariza beruvchi (loyiha tashabbuskori) quyidagi hujjatlarni rasman taqdim etgandan keyin baholanadi:

<p>Mahalliyashtirish dasturiga kiritish taklif etilayotgan loyihalar uchun – Mahalliyashtirish dasturi nizomidagi ilovaga muvofiq shakl bo'yicha tuzilgan pasporti hamda oxirgi ikki yil uchun yillik balans</p>	<p>Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarning ayrim parametrlariga tuzatish kiritish uchun - loyihaning aniqlashtirilgan pasporti (faqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hollari bundan mustasno), ayrim parametrlarga tuzatish kiritish zarurligini asoslaydigan qaydnoma, tahliliy va jadval materiallari bilan birgalikda</p>	<p>Mahalliyashtirish dasturidan chiqarib tashlash taklif etilayotgan loyihalar uchun - loyihani Mahalliyashtirish dasturidan chiqarib tashlash zarurligi asoslangan qaydnoma, tahliliy va jadval materiallari bilan birgalikda taqdim etiladi</p>
--	--	---

**Mahalliyashtirish loyihasining pasporti**  
**I. Korxonaga bo'yicha asosiy ma'lumotlar**

Korxonaning nomi	
Mulkchilik shakli	
Yirik/kichik korxonaga	
Yuqori tashkilotning nomi	
Korxonaning manzili, telefoni, faksi, e-mail	
Rahbariyat: F.I.O.	
Bosh buxgalter: F.I.O.	
Korxonaga tashkil etilgan yil	
Korxonaning hozirgi vaqtdagi faoliyati yo'nalishi	
Umumiy maydoniga	
Shu jumladan, binolar va inshootlar maydoniga	
Ishlab chiqarish infratuzilmasi*	

\*) Mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasi, asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish maydoni, uning asbob-uskunalarni joylashtirishga tayyorgarligini tavsiflash.

**II. Ustav kapitalini shakllantirish**

E'lon qilingani		ming so'm		
Shakllantirilgani		ming so'm		
T/r	Muassislar va aksiyadorlar ro'yxati	Ulush summasi, (ming so'm)	UFdagi hissa (%)	Ulush xarakteri

Loyiha tashabbuskorlari taqdim etilayotgan axborotlarning, shu jumladan, loyihaning pasportida ko'rsatilgan axborotlarning ishonchligi uchun javobgar bo'lib hisoblanadi.

Loyihalar tashabbuskoridan loyiha pasportida nazarda tutilmagan qo'shimcha axborot taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**11.2. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflar kiritish va ularni ko'rib chiqish tartibi, baholash mezonlari va talablar**

Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflar kiritish Davlat va xo'jalik organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Mahalliyashtirish loyihalari tashabbuskori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar Mahalliyashtirish dasturiga tuzatish kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig'ma axborot-tahlil departamentiga kiritadilar.

Yig'ma departament loyiha maqsadidan, uni moliyalashtirish manbalaridan va taklif etilayotgan tuzatishning mohiyatidan kelib chiqqan holda, kelib tushgan materiallarni bir hafta muddatda ko'rib chiqish uchun quyidagi tegishli vakolatli organlarga yuboradi:

**a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga:**

- loyihaning Mahalliyashtirish dasturi maqsadlari va vazifalariga muvofiqligini;
- loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini;
- mahalliyashtirishning taklif etilayotgan darajasiga erishish imkoniyatlarini;
- loyihalarni chiqarib tashlash yoki loyihalarning parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligini aniqlash yuzasidan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash uchun kiritiladi;

- loyihaning mahalliyashtirish dasturi maqsadlari va vazifalariga muvofiqligini;	- loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini;	- mahalliyashtirishning taklif etilayotgan darajasiga erishish imkoniyatlarini;	- loyihalarni chiqarib tashlash yoki loyihalarning parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligini aniqlash yuzasidan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash uchun kiritiladi.
--	---	---	--

**b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga:**

- taklif etilayotgan marketing konsepsiyasi, shu jumladan, mahalliyashtiriladigan mahsulotni sotish istiqbollari;
- import qilinadigan texnologik asbob-uskunalarning texnologiya darajasi hamda xomashyo, materiallar va xizmatlar narxlarining cheklangan parametrlari;
- loyihalarni chiqarib tashlash yoki loyihalarning parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi asosida loyihani amalga oshirishning samaradorligi va imkoniyatlarini baholash uchun taqdim etiladi;

- taklif etilayotgan marketing konsepsiyasi, shu jumladan, mahalliyashtiriladigan mahsulotni sotish istiqbollari;	- import qilinadigan texnologik asbob-uskunalarning texnologiya darajasi hamda xomashyo, materiallar va xizmatlar narxlarining cheklangan parametrlari;	- loyihalarni chiqarib tashlash yoki loyihalarning parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi asosida loyihani amalga oshirishning samaradorligi va imkoniyatlarini baholash uchun taqdim etiladi.
---	---	--

**v) Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga – raqobat muhitini, ishlab chiqariladigan mahsulotga talabning mavjudligini, bozorning yetarlicha ta'minlanganligini va narxlar shakllanishini baholash uchun beriladi;**

- raqobat muhitini;	- ishlab chiqariladigan mahsulotga talabning mavjudligini;	- bozorning yetarlicha ta'minlanganligini;	- narxlar shakllanishini baholash uchun beriladi.
---------------------	--	--	---

**g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga loyiha moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari yoki hukumat kafolati ostidagi kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan hollarda – iqtisodiy samaradorlikni kelishish uchun taqdim etiladi.**

- loyiha moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari;	- hukumat kafolati ostidagi kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan hollarda – iqtisodiy samaradorlikni kelishish uchun taqdim etiladi.
---	---

Takliflarni baholash va VMning Yig'ma departamentga asoslangan xulosani taqdim etish yuqorida ko'rsatib o'tilgan vakolatli organlar tomonidan **ikki hafta muddatda** amalga oshiriladi. Vakolatli organ aynan ana shu muddatda loyiha tashabbuskoriga o'z xulosasi nusxasini yuboradi.

Ko'rsatib o'tilgan muddat mobaynida vakolatli ekspertiza organlari loyihalarning tashabbuskorlari bilan birgalikda taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadilar, iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lmagan loyihalarning hujjatlarida noaniqliklar aniqlangan taqdirda ularni puxta ishlashda ariza beruvchiga yordam beradilar.

Loyihaning qayta ishlangan pasportini ko'rib chiqishda vakolatli organlar tomonidan ilgari yuborilgan xulosada ko'rsatilmagan yangi mulohazalar bildirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Loyihaning qayta ishlangan pasporti mulohazalar va takliflar hisobga olingan holda ushbu Mahalliyashtirish dastur nizomida nazarda tutilgan tartibda qayta ishlangan loyiha pasporti varianti tashabbuskor tomonidan taqdim etilgandan keyin **bir hafta muddatda ko'rib chiqiladi.**

Yig'ma departament bir hafta muddatda vakolatli organlardan tushgan ijobiy xulosalarni umumlashtiradi va ularni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyaga kiritadi.

Bir yoki undan ortiq vakolatli ekspertiza organlarining salbiy xulosasi mavjud bo'lganda yig'ma departament tegishli xulosani ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyaga kiritadi.

Maxsus komissiya Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari ishtirokida zaruratga ko'ra **yil choragida kamida bir marta o'tkaziladigan** o'z majlislarida tushgan takliflar (xulosalar)ni ko'rib chiqadi hamda Mahalliyashtirish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida bayonnoma qabul qiladi.

Maxsus komissiya majlisi komissiya a'zolarining **kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda o'tkaziladi.**

Maxsus komissiya qarorlari majlisda hozir bo'lgan maxsus komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda maxsus komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Maxsus komissiyaning qarorlari maxsus komissiya raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Mahalliyashtirish dasturiga tuzatish kiritish zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bir hafta muddatda belgilangan tartibda maxsus komissiyaning bayonnomai asosida Mahalliyashtirish dasturiga tuzatish kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorining loyihasini kiritadi.



## Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflar kiritishning maqsadga muvofiqligini baholash mezonlari va talablari


Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar – Mahalliyashtirish loyihalari tashabbuskorlari loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan shakl bo'yicha maxsus komissiya kotibiyatiga kiritadi.

Maxsus komissiya kotibiyati loyihaning maqsadidan, uni moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqqan holda tushgan takliflarni ko'rib chiqish uchun ikki kun muddatga vakolatli organlarga yuboradi.

**Takliflar bir vaqtning o'zida quyidagi vakolatli organlar:**

**a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan:**

- loyihaning Mahalliyashtirish dasturi maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi;
- loyihani amalga oshirish imkoniyati;
- mahalliyashtirishning taklif etilayotgan darajasiga erishish imkoniyati;
- loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi;



Manba: <https://www.mql5.com/ru/articles/2930>

**b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan:**

- marketingning taklif etilayotgan konsepsiyasi, shu jumladan, mahalliyashtiriladigan mahsulotni sotish istiqbollari;
- mahalliyashtiriladigan mahsulotni tashqi bozorda sotish narxlari parametrlari (loyiha tashabbuskori tomonidan mahsulotni eksport qilish nazarda tutilgan taqdirda);
- shunga o'xshash mahsulot importini tahlil qilish (TIF TN kodi bo'yicha 10 belgi darajasida);
- loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi asosida loyihani amalga oshirish samaradorligi va imkoniyati baholanadi;

**v) O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan – raqobat muhitini, monopoliya qilib olish darajasini, tovarlarning o'zaro bir-birining o'mini bosishini hisobga olgan holda**

bozorni to'ldirish va narx belgilash baholanadi;

Vakolatli organlar loyiha tashabbuskorlarining takliflarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha asoslangan xulosalarni hujjatlar tushgan paytdan boshlab **10 kundan** kech bo'lmagan muddatda maxsus komissiya kotibiyatiga yuboradi.

<p>- Iqtisodiyot vazirligining xulosasiga ko'ra mamlakat sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvorliklariga muvofiqi;</p>	<p>- mahalliy lashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quvvatlar va xomashyo resurslari mavjudligi;</p>	<p>- mahalliy lashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilgan holda ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 12 oy mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'yicha mahalliy lashtirish darajasining kamida 30 foizga yetishi;</p>	<p>- mahalliy lashtiriladigan mahsulotning sotish narxi ana shunday import qilinadigan mahsulot narxidan yuqori bo'lmaganda loyihaning iqtisodiy o'zini qoplashi (O'zbekistongacha bo'lgan transport sarf-xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olingan holda);</p>	<p>- mahalliy lashtiriladigan mahsulotga nisbatan xalqaro standartlar bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 18 oy mobaynida sifatning boshqarish tizimi joriy etilishi.</p>
---	--	--	--	--

**Loyiha parametrlarining quyidagi majburiy mezonlar asosida Mahalliy lashtirish dasturi maqsadlari va vazifalariga muvofiqi loyihani Mahalliy lashtirish dasturiga kiritish imkoniyati to'g'risida taklif kiritish uchun asos hisoblanadi:**

a) Iqtisodiyot vazirligining xulosasiga ko'ra mamlakat sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvorliklariga muvofiqi;

b) mahalliy lashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quvvatlar va xomashyo resurslari mavjudligi;

v) mahalliy lashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilgan holda ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab **12 oy mobaynida** ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'yicha mahalliy lashtirish darajasining kamida **30 foizga yetishi**;

g) TIF TN kodi bo'yicha pirovard mahsulot tovar pozitsiyasi boshlang'ich xomashyoga taqqoslaganda kamida birinchi 4 belgilardan biri darajasi o'zgarishining ta'minlanishi;

d) mahalliy lashtiriladigan mahsulotning sotish narxi ana shunday import qilinadigan mahsulot narxidan yuqori bo'lmaganda loyihaning iqtisodiy o'zini qoplashi (O'zbekistongacha bo'lgan transport sarf-xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olingan holda);

e) Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining xulosasiga ko'ra mahalliy lashtiriladigan mahsulotga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talabning mavjudligi;

j) mahalliy lashtiriladigan mahsulotga nisbatan xalqaro standartlar bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 18 oy mobaynida sifatni boshqarish tizimi joriy etilishi.

### III. Mahalliyashtirilayotgan mahsulot to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar

Mahsulotning nomi	
TIF TN kodi, 10 belgi darajasida	
DS, TSH, O'zDst va boshqalar	
Texnik parametrlar, Dsga muvofiq, TSH va boshqalar	
Ishlab chiqarishning yillik o'rtacha quvvati (fizik hajmlarda)	

### IV. Ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish tavsifi

Texnologik jarayon
Texnologik parametrlar, asbob-uskunalarini yetkazib beruvchilar va ishlab chiqaruvchilar

Ta'kidlab o'tilgan mezonlarga to'liq muvofiq bo'lmagan istiqbolli loyihalar mavjud bo'lganda bunday loyihalarni kiritishning maqsadga muvofiqligi masalasi Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining xulosalariga ko'ra ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyaga kiritiladi.

Mahalliyashtirish dasturiga mamlakatimiz bozori yetarlicha ta'minlangan, sog'lom raqobat muhiti yaratilgan yoki ishlab chiqarish hajmi ichki bozor ehtiyojlarini qoplaydigan shunday mahsulotlarni (texnik tavsiflari va iste'mol xususiyatlariga ko'ra) ishlab chiqaradigan boshqa mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha loyihalar kiritilmaydi.

Quyidagilar loyihalarni Mahalliyashtirish dasturidan chiqarib tashlash, shu jumladan, loyiha tashabbuskorlari takliflariga ko'ra chiqarib tashlash to'g'risida vakolatli organlar tomonidan xulosa chiqarish uchun asos hisoblanadi:

- korxonaning tugatilishi yoki fors-major vaziyatlar;
- mahsulotning sifati va narxiga ko'ra raqobatbardoshli emasligi tufayli mahsulotning ushbu turiga ichki bozorda talabning yo'qligi;
- Mahalliyashtirish dasturi prognoz parametrlarining bajarilmasligi (yil yakunlariga ko'ra 30 foizdan kam);
- soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo'shaydigan mablag'larning tegishli maqsadda ishlatilmasligi, shuningdek, texnologik asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar va materiallarning asossiz ravishda import qilinishi aniqlangan hollar.

Puxta ishlangan hujjatlar loyiha tashabbuskorlari tomonidan vakolatli organlarga taqdim etiladi. Hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish va tegishli xulosalarni maxsus komissiya kotibiyatiga taqdim etish vakolatli organlar tomonidan ilgari bildirilgan fikr-mulohazalar loyiha tashabbuskorlari tomonidan bartaraf etish sharti bilan bir hafta muddatda amalga oshiriladi.

Puxta ishlangan loyihani ko'rib chiqishda vakolatli organlar tomonidan yangi fikr-mulohazalar bildirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Maxsus komissiya kotibiyati ikki hafta muddatda vakolatli organlarning tushgan ijobiy xulosalarini umumlashtiradi va maxsus komissiya bayonnomasi loyihasini, zaruriyat bo'lganda, hukumat qarori loyihasini tayyorlaydi, belgilangan tartibda uning kelishilishini ta'minlaydi va Vazirlar Mahkamasi kiritadi.

Bir yoki bir nechta vakolatli organning salbiy xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish to'g'risidagi qaror maxsus komissiya

majlisida tegishli xulosalar asosida qabul qilinadi.

Loyiha Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilganda loyihani amalga oshirayotgan korxonalar loyiha Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilgan kundan boshlab qonun hujjatlarida belgilangan tegishli soliq va bojxona imtiyozlaridan mahrum bo'ladi.

### **11.3. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi va loyihaning marketing strategiyasi. Mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalar beriladigan imtiyozlar**

Loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi.

**Loyihaning marketing strategiyasi** – mahsulotni sotish bo'yicha aniq marketing strategiyasini, mahsulotning potensial iste'molchilari bilan oldindan ahdlashuvlarning mavjudligini, shunga o'xshash buyumlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilardan raqobatli ustunliklar mavjudligini, ichki va tashqi bozorlar (eksport mavjud bo'lgan taqdirda) ehtiyoji hajmini tavsiflash.

**O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan:**

- marketingning taklif etilayotgan konsepsiyasi, shu jumladan, mahalliyashtiriladigan mahsulotni sotish istiqbollari;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotni tashqi bozorda sotish narxlari parametrlari (loyiha tashabbuskori tomonidan mahsulotni eksport qilish nazarda tutilgan taqdirda);

- shunga o'xshash mahsulot importini tahlil qilish (TIF TN kodi bo'yicha 10 belgi darajasida);

- loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi asosida loyihani amalga oshirish samaradorligi va imkoniyati baholanadi;

- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan – raqobat muhitini, monopoliya qilib olish darajasini, tovarlarning o'zaro bir-birining o'rnini bosishini hisobga olgan holda bozorni to'ldirish va narx belgilash baholanadi. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$UI = (1 - I/S) \times 100\%, \text{ shu bilan birga: } 0 = I = S$$

bunda: UI - mahsulotni Mahalliyashtirish darajasi;

I – import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning so'mlarda ifodalangan valyuta qiymati (bojxona yig'imi va to'lovlari bilan), so'mda;

S – mahsulot birligida ishlab chiqarish tannarxi (mahalliy ta'minotchilardan xarid qilingan import xomashyo, mahalliy xomashyoga kiritilmaydi).

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan (loyihani moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari yoki hukumat kafolati ostidagi kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan taqdirda) – loyihaning iqtisodiy samaradorligi baholanadi.



Zarurat bo'lganda Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda Iqtisodiyot vazirligida vakolatli organlar mutaxassislaridan iborat vaqtinchalik ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin.

**Mahsulotning shartli birligi hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari, foizlarda**

Mahsulot turi (TIF TN kodi)	Birinchi yil	Ikkinchi yil*	Uchinchi yil*	To'rtinchi yil*

Mahalliy yetkazib beruvchilardan sotib olinadigan import xomashyo mahalliy xomashyo bo'lmasligi kerak.

Marketing ishlanmalari yakunlari bo'yicha quyidagi "Raqobatchilar va ularning bozordagi ulushi" jadvali to'ldiriladi.

**VII. Mahsulotlarning turlari va yillik ishlab chiqarish hajmi**

Mahalliy lashtirila yotgan mahsulot ning nomi	O'l chov birli gi	Mah sulot birli gini so tish narxi	Yillik ishlab chiqarish hajmi, 100 % quvvatda		Ishlab chiqarishning birinchi yilidagi ishlab chiqarish hajmi		Ishlab chiqarish ning ikkinchi yilidagi ishlab chiqarish hajmi		Ishlab chiqarishning uchinchi yilidagi ishlab chiqarish hajmi	
			miq dori	Sum masi (mln. so'm)	miq dori	Sum masi (mln. so'm)	miq dori	Sum masi (mln. so'm)	miqdori	Sum masi (mln. so'm)
shu jumladan eksport uchun										

Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz erkin muomalaga chiqarish rejimiga o'tkazish bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining belgilangan tartibda beriladigan xulosasi asosida taqdim etiladi.

Bunda chetdan olib kelinadigan ehtiyot qismlarga (chetdan olib kelinadigan texnologik asbob-uskunalar qiymatida hisobga olinmaydigan), soliq solinadigan aylanma, shu jumladan, nol darajali stavka bo'yicha aylanma uchun ishlatiladigan komponentlarga hisoblab yozilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi tayyor mahsulot bo'yicha budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida kamaytiriladi (hisobga olinadi).

**VIII. Qo'shimcha ma'lumotlar**

Valyutaning pasport to'ldirilgan sanadagi kursi		
Potensial iste'molchilar va mahalliy lashtirilayotgan mahsulotning qo'llanish sohalari		

### IX. Raqobatchilar va ularning bozordagi ulushi

T/r	Raqobatchilar nomi	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning nomi	O'lchov birligi	Mahsulot birligi narxi (ming so'm)	Sotishning yillik hajmi	
					miqdori	summasi (mln. so'm)

Agar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan faqat mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanilmasa, imtiyoz realizatsiya qilishdan olingan sof tushumda mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'idan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) bilan tasdiqlangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllarining yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobining ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida taqdim etiladi.

Masalan, agar asosiy ishlab chiqarish fondlarining qoldiq qiymati korxonaga bo'yicha jami 1500 mln. so'mni, realizatsiya qilishdan olingan sof tushumda mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'i 25 foizni tashkil etsa, soliq solinmaydigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati 375 mln. so'mni ( $1500 \times 25/100$ ) tashkil etadi.

### X. Loyihaning moliyaviy prognozi loyiha bo'yicha xarajatlar (ishlab chiqarishning loyihadagi quvvati bo'yicha)

#### Shartli – o'zgaruvchan xarajatlar

T/r	Nomi	O'lchov birligi	Narxi (ming so'm)	Bojxona to'lovlari (QQS stavkalari (%), bojlar (%), aksiz (%)) hisobga olingan narxi (ming so'm)	Yillik ehtiyoj	Bojxona to'lovlari hisobga olingan yillik xarajatlar (ming so'm)
<b>Materiallar va xomashyo, shu jumladan:</b>						
1.	Import materiallar va xomashyo					
1.1.						
2.	Mahalliy materiallar va xomashyo					
2.1.						
<b>Butlovchi buyumlar (mavjud bo'lganda), shu jumladan:</b>						
3.	Import butlovchi buyumlar					
3.1.						
4.	Mahalliy butlovchi buyumlar					
4.1.						
5.	<b>Kommunal xizmatlar xarajatlari</b>					
5.1.						
6.	<b>Boshqa xarajatlar</b>					

**Shartli – doimiy xarajatlar  
(MHTFdanda tashqari)**

<b>T/r</b>	<b>Nomi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Narxi (ming so'm)</b>	<b>Yillik ehtiyoj</b>	<b>Yillik xarajatlar</b>
<b>1.</b>	<b>Boshqaruv xarajatlari</b>				
1.1.					
1.2.					
<b>2.</b>	<b>Ishlab chiqarish xarajatlari</b>				
2.1.					
2.2.					
<b>3.</b>	<b>Marketing xarajatlari</b>				
<b>4.</b>	<b>Boshqa xarajatlar</b>				

Imtiyozni qo'llagan holda olib kelingan import tovarlarini maqsadga ko'ra foydalanmaslik holatlari soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) vaqtida aniqlanganda davlat soliq xizmati organlari aniqlangan holatlar to'g'risida hujjatlar tuzadi va uch ish kuni mobaynida ularni tegishli davlat bojxona xizmati organlariga yuboradi. Maqsadga ko'ra foydalanilmagan import tovarlariga to'g'ri keladigan bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar summasi jarima sanksiyalarini, shu jumladan, penyani hisoblagan holda, yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 1463, 2005-yil 2-aprel) nazarda tutilgan tartibda budjetga undiriladi.

**Mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalar  
beriladigan imtiyozlar**

**Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar quyidagi imtiyozlarga ega:**

- chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ular uchun ehtiyot qismlar, shuningdek, mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda texnologik jarayonda foydalaniladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish yig'implaridan tashqari), import boji, QQS, aksiz to'lovlaridan;

- Mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha daromad (foyda) solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

**Ta'kidlab o'tilgan tartibda nazarda tutilgan imtiyozlar berilishi munosabati bilan:**

- bo'shab qoladigan mablag'lar korxonalar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga;

- sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, korxonalarining muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga;

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishga (ITTKI), shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishga yo'naltiriladi.

Mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadni foyda solig'idan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (xarajatlar) bo'yicha alohida-alohida hisob yuritib belgilangan tartibda tavsiya etishadi:

### **XI. Mahsulotning aylanishi hisobi (kunlar hisobida)**

Ombordagi xomashyo zaxiralari	
Tayyor mahsulot zaxiralari	
Xomashyo va butlovchi buyumlar uchun to'lov	
Kommunal xizmatlar uchun to'lov	

Foyda solig'i hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 3-4-son, 15-modda) bilan tasdiqlangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq solish xususiyatlarini hisobga olib, yagona soliq to'lovi bo'yicha nazarda tutilgan imtiyoz mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga qo'llanadi.

Aytib o'tilgan imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi.

Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) bilan tasdiqlangan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi.

Mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini mol-mulk solig'idan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha soliq solish bazasining alohida-alohida hisobini yuritishadi.

### **XII. Xomashyo va butlovchi buyumlarni yetkazib beruvchilar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar**

T/r	Xomashyo va butlovchi buyumlar nomi, TIF TN kodi, 9 belgi darajasida	Texnik parametrlar DS, TSH va shu kabilarga muvofiq	Xomashyo va butlovchi buyumlarni yetkazib beruvchilar	Yetkazib berish hajmlari	Yetkazib berish muddatlari	Kontraktat siyaning mavjudligi
1.						
2.						



Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun chetdan olib kelingan, biroq normativ muddatlarda o'rnatilmagan asosiy fondlar uchun qo'llanilmaydi. Bunday mol-mulk bo'yicha soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 52 (I)-son) muvofiq hisoblanadi va to'lanadi.

#### 11.4. Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish monitoring tartibi

Mahalliyashtirish dasturini tuzish jarayonda samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash va uni amalga oshirishning sifatli monitoringini tashkil etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan:

Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar quyidagi imtiyozlarga ega:	- chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ularning bir qismlar, import boji, QQS, aksiz to'lovlaridan;
	- Mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha daromad (foyda) solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);
	- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

#### a) loyihalarning tashabbuskorlari – vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari va korxonalar:

- tashabbus ko'rsatilayotgan mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlaydilar hamda Mahalliyashtirish loyihalarini Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun hujjatlarni belgilangan tartibda maxsus komissiya kotibiyatiga taqdim etadilar;

- Xalqaro sanoat yarmarkasida va Kooperatsiya birjasida sanoat kooperatsiyasi doirasida yarmarka va birjada tuziladigan shartnomalar (kontraktlar) asosida ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilayotgan yangidan o'zlashtirilgan va o'zlashtirish nazarda tutilayotgan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar yangi turlarining taqdimotini o'tkazadilar;

- ishlab chiqariladigan mahsulotning mamlakatimizdagi potensial xaridorlarini va xorijiy xaridorlarni hamkorlikka jalb qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda talab qilingan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etishga buyurtmachilarni faollik bilan izlaydilar, hamkorlikni rivojlantirish shartlarini muhokama qiladilar va shartnoma bilan rasmiylashtirish bo'yicha ular bilan muzokaralar tashkil etadilar va olib boradilar;

- Mahalliyashtirish dasturlarini samarali va o'z vaqtida amalga oshiradilar hamda belgilangan parametrlarga erishadilar;

#### b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

- import kontraktlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqadi, yuritadi va shu asosda respublika tarmoqlari hamda korxonalar bo'yicha import qilinadigan mahsulotlar (xizmatlar) tarkibi va turlarini chuqur tahlil qiladi;

- import qilinadigan mahsulotlar tarkibi va turlarini chuqur tahlil qilish, tashqi bozorlar konyunkturasini tizimli o'rganish asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi

buyumlar va materiallarning yo'nalishlari va aniq ro'yxatlari bo'yicha ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga doir takliflarni, shu jumladan, eksportga yetkazib berishni kengaytirish uchun ishlab chiqadi, keyinchalik ushbu takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi;

- ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, o'z ishlab chiqarish imkoniyatlarini tovarlarni import qiluvchilarga hamda potensial xaridor va buyurtmachilarga namoyish qilish, shuningdek, tegishli kontraktlar tuzilishiga ko'maklashish uchun mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratish uchun samarali maydon sifatida Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi ishini tashkil etadi;




Рисунок 2 Пример деловой карты рынков для вывода на рынок нового продукта (фрагмент)

Manba: <https://www.google.com/imgres>

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishning borishi ustidan tizimli monitoring har oyda olib borilib, bu haqda Vazirlar Mahkamasiga axborot berib boriladi.

“Loyihalarni ekspertiza qilish va tenderlarni o'tkazish byurokratlashtirib ketgani eng asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini ekspertiza qilish agentligi tashkil etilganidan keyin ham sezilarli o'zgarish va natijalar yo'q.

Birgina misol keltiraman. Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida atigi 18 ta loyihani amalga oshirishga 55 million AQSh dollari yoki har bir loyihaga o'rtacha 3 million AQSh dollaridan xorijiy investitsiya jalb etilgan”<sup>44</sup>.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi:

<sup>44</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

- sanoat kooperatsiyasi aloqalarini chuqurlashtirish hamda mahalliy xomashyoni qayta ishlashga va zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni kengaytirish tadbirlari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini;

- mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etilayotgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar ro'yxati to'g'risida muntazam axborot berib borilishini ta'minlab boradilar.

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi:**

- sanoat kooperatsiyasi aloqalarini chuqurlashtirish hamda mahalliy xomashyoni qayta ishlashga va zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni Mahalliyashtirishni kengaytirish tadbirlari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini;	- mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etilayotgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar ro'yxati to'g'risida muntazam axborot berib borilishini ta'minlab boradilar.
--	---

Tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan har bir loyiha bo'yicha loyihani amalga oshirishning tarmoq jadvali ishlab chiqiladi. Jadvalda loyiha orqali Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishiladigan aniq belgilangan muddatlarda quyidagi belgilangan parametrlarga erishish nazarda tutiladi:

### XIII. Mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi\*

T/r	Nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi (ming so'm)	Summasi	Tannarxdagi ulushi
1.	Materiallar, shu jumladan:					
2.	Import materiallar					
3.	Mahalliy materiallar					
4.	Butlovchi buyumlar, shu jumladan:					
4.1.	Import butlovchi buyumlar					
4.2.	Mahalliy butlovchi buyumlar					
5.	Boshqa xarajatlar					
	Ishlab chiqarish tannarxi					
6.	Mahsulot birligi hisobiga jami					
7.	Mahsulot birligini sotish narxi					

**XIV. Mehnatga haq to'lash xarajatlari\*\***

T/r	Xodimlar nomi	Xodimlar soni	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	Jami bir oyda (ming so'm)	Jami bir yilda (ming so'm)
1.	Ma'muriyat				
2.	Ishlab chiqarish xodimlari				

**XV. Loyihaning qiymati va moliyalashtirish manbalari\*\*\***

T/r	Loyihaning qiymati, shu jumladan	O'lchov birligi	Qiymati	Moliyalashtirish manbalari		
				O'z mablag'la ri	Budjet mablag'la ri	Qarz mablag'la ri
1.	Qat'iy belgilangan aktivlar					
1.1.	Mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish uchun qurilish-montaj ishlari (mavjud bo'lganda)					
1.2.	Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladigan bino va inshootlar					
1.3.	Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, shu jumladan:					
1.3.1	mavjud bo'lgani					
1.3.2	sotib olinadigani					
2.	Aylanma kapital					
3.	Moliyaviy xarajatlar					
4.	Boshqa xarajatlar					
	<b>Jami:</b>					

**XVI. Loyiha va investitsiyalarni (kapital xarajatlarni) amalga oshirishning kalendar jadvali\***

T/r	Loyihani amalga oshirish bosqichlari	oylar bo'yicha (yil)					
		01	02	03	04	05	06

\*) Ishlab chiqarish ilgariidan faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, uning ishga tushirilgan yili ko'rsatilsin.

**XVII. Soliq solish**

T/r	Soliqlarning nomi	Soliq stavkasi	Hisoblash bazasi	Davriyligi
1.	Umumdavlat soliqlari			
2.	Mahalliy soliqlar			



**Korxonalar rahbari:** F.I.O. **Imzo** **SANA**  
**Korxonaning bosh buxgalteri:** F.I.O. **Imzo** **SANA**

Iqtisodiyot vazirligi tarmoq jadvali asosida Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishning, shu jumladan Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarda belgilangan parametrlarga erishishning tizimli monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlaydi va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Mahalliyashtirish dasturi loyihalarining tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar, shuningdek, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida tuzilgan shartnomalar (eksport-import kontraktlari) bajarilishi monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlaydi va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish hamda Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida tuzilgan shartnomalarni bajarish monitoringini olib borishda aniqlangan muammolar va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, barcha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

#### **11.5. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining kasanachik asosida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish yo'llari va omillari**

Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko'p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu, o'z navbatida, yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb etish, oila budjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba'zi bir xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish orqali yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-yanvarda "Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish

asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3706 farmoni (O'zR Prezidentining 17.06.2009-y. PF-4116-sonli va 28.12.2010-y. PF-4261-sonli farmonlari asosida o'zgartirilgan tahririda) qabul qilindi.

**Mazkur farmonga asosan quyidagilar kasanachilikni rivojlantirishning asosiy vazifalari deb belgilangan:**

- mehnat qonunchiligini takomillashtirish, kasanachilar ijtimoiy himoyasi va mehnati muhofazasini ta'minlashni inobatga olgan holda aholini uy mehnati faoliyatiga keng jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish;

- sanoat korxonalarini bilan ularning buyurtmalari asosida uyda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkonini beradigan tikuvchilik, attorlik, ipakchilik, qayta ishlash, mebel, elektron sanoatida, shuningdek, telekommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kasanachilik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish;

- korxonalarining buyurtmalari asosida uyda ishlayotgan fuqarolarga buyurtmachilar tomonidan xomashyo, materiallar va yarim fabrikatlarni yetkazib berish hamda buyurtma asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishni kafolatlashda barqaror sharoitlar yaratish.

**Kasanachi** – 16 yoshdagi va undan katta yoshdagi jismoniy shaxs.

Basharti kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzilishi zarurligini taqozo etsa, 18 yoshga to'lgan shaxslar kasanachilikni amalga oshirishga qo'yiladilar.

Ish beruvchi – kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachi uchun ishlab chiqarish binosini belgilaydigan, uni asbob-uskunalar, jihozlar, materiallar, butlovchi buyumlar, xomashyo va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan, bajarilgan ishni qabul qilib oladigan va unga haq to'laydigan yuridik shaxs.


**Kasanachilik asosida fuqaro quyidagi belgilab berilgan tartibi asosida faoliyat yuritadi:**

- korxonalarining buyurtmalari uyda ishlayotgan fuqarolar (kasanachilar) tomonidan mehnat shartnomasi asosida bajariladi;

- korxonalar bilan mehnat shartnomasi tuzgan kasanachilar band aholi toifasiga kiradi va ularga mehnat daftarchasi beriladi, pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlashda ishlagan vaqti mehnat stajiga qo'shiladi;

- kasanachilik mehnati amalga oshirilayotgan turar-joylarni yashash uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab etilmaydi;

- mehnat shartnomasida ishlarni bajarish uchun zarur uskunalar yetkazib berish va ularga texnik xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish, asboblarni, jihozlarni, materiallarni va yarimfabrikatlar bilan ta'minlash, kasanachilarni majburiy tarzda texnika xavfsizligiga o'qitish hamda buyurtmachi talab qilgan sifat standartlari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashib ketish, bajarilgan ish uchun hisob-kitob qilish bo'yicha korxonalarining kasanachilar oldidagi kafolat va majburiyatlari ko'zda tutiladi.



Manba: <https://www.dreamstime.com/stock-illustration-logistic-infographic-icons-freight-service-set-world-map-vector-illustration-image41887658>

Korxonalarga mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga korxonalar buyurtmasi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish uchun asbob-uskuna, jihozlar va inventarlarni tekin yoki ijara sharti bilan berish, jumladan, lizing (moliyaviy ijara) asosida taqdim etish huquqi berilsin.

Maxsus texnika xavfsizligiga amal qilishni taqozo etadigan uy sharoitida nazorat qilish imkoni bo'lmagan, kuchli tok bilan ishlaydigan, katta energiya talab qiladigan, texnik jihatdan murakkab bo'lgan uskunalarni, shuningdek, xavfli kimyoviy birikmalarni kasanachilarga berish, ijara va lizing asosida taqdim etish hamda ulardan uy sharoitida foydalanish taqiqlanadi.

Kasanachilik mehnati qishloq joylarda ayollar uchun, shuningdek, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasida ko'rsatilgan fuqarolar toifalari uchun ustuvor tartibda tashkil etiladi.

Kasanachilar tomonidan ishlarni bajarish kasanachi oilasining a'zolari ishtirokida (yordamida) ish beruvchining rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin. Bunda kasanachi unga yordam beradigan oila a'zolari tomonidan bajariladigan ishlar sifati uchun ish beruvchi oldida javob beradi.

**O'z navbatida kasanachi tadbirkor tomonidan ko'rsatilayotgan ishlar va xizmatlar bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilangan:**

- korxonadan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachilarga korxonadan buyurtmasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun tekin foydalanishga berilgan asbob-uskuna, jihozlar va inventarlar ulardan foydalanish davrida mulk solig'idan ozod etiladi;

- kasanachilar buyurtmachi-korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasiga to'liq amal qilgan taqdirda, uy sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni qo'shimcha sertifikatlash va standartlash talab etilmaydi. Bunda uyda ishlab chiqarilgan mahsulot sifati bo'yicha belgilangan standartlarga rioya qilish bo'yicha mas'uliyat, u sanoat korxonalariga qaytarilganda kasanachilar zimmasiga, oxirgi iste'molchiga sotishda esa sanoat korxonasi zimmasiga yuklanadi;

- mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan korxonalarga kasanachilar tomonidan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning qaytarilishi ulgurji savdo

hisoblanmaydi va litsenziyalanmaydi;

- kasanachilar faoliyati buyurtmachi-korxonona qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirilgandagina, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin.

Ish beruvchining (ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi korxonasi) buyurtmasi bo'yicha kasanachi tomonidan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun namunaviy mehnat shartnomasi quyidagi 1-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi:

**Ish beruvchining buyurtmasi bo'yicha kasanachi  
tomonidan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun  
NAMUNAVIY MEHNAT SHARTNOMASI**

\_\_\_\_\_ shahar (tuman, qishloq) 20\_\_ y. " \_\_\_\_\_ "  
\_\_\_\_\_ korxonasi  
(nomi)

nomidan ish ko'ruvchi \_\_\_\_\_ asosida faoliyat  
(ustav, nizom)

ko'rsatuvchi, keyingi o'rinlarda "Ish beruvchi" deb yuritiladigan \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ bir tomondan va keyingi  
(lavozimi, F.I.O.)

o'rinlarda "Kasanachi" deb yuritiladigan O'zbekiston Respublikasi  
fuqarosi

\_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)

ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzishdi:

**1. Mehnat shartnomasi predmeti**

1.1. Ushbu shartnomada belgilangan shartlarda oldindan belgilangan to'lov uchun tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) yuzasidan ish beruvchi uchun quyidagi ishlarni uyda bajarish: \_\_\_\_\_

1.2. Kasanachi \_\_\_\_\_  
(mehnat funksiyasi: mutaxassisligi, malakasi)

sifatida ishga qabul qilinadi.

1.3. Shartnoma turi \_\_\_\_\_  
(belgilanmagan muddatga, besh yildan ko'p bo'lmagan

\_\_\_\_\_ muayyan muddatga, ma'lum bir ishni bajarish vaqtiga)

1.4. Kasanachining ish joyi: \_\_\_\_\_

1.5. Kasanachi 20\_\_ y. " \_\_\_\_\_ " dan ishga tushishi shart.

1.6. Mehnatga haq to'lash:

a) kasanachiga mehnat haqi ish beruvchining buyurtmasini bajarish jadvaliga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmiga bog'liq



holda ishbay tarzda belgilanadi.

Ish beruvchi buyurtmasini bajarish jadvali kasanachi bilan kelishgan holda belgilanadi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi;

b) ish beruvchi huquqlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida quyidagi qo'shimcha ish haqlarini belgilaydi (ustama, mukofot, rag'batlantirish va boshqa to'lovlar):

---

(qo'shimcha ish haqi, ustama, mukofot va boshqa to'lovlar nomi va miqdori)

Kasanachi mehnatiga haq to'lash kasanachi tomonidan mehnat normalari va mehnat majburiyatlari bajarilgan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan past bo'lishi mumkin emas va biron-bir eng yuqori ish haqi miqdori bilan chegaralanmaydi.

## 2. Tomonlarning majburiyatlari

### 2.1. Kasanachi quyidagilarga majbur:

2.1.1. Ishlarning quyidagi turlarini bajarish: \_\_\_\_\_

---

(ishning asosiy tavsifi va ularni bajarishga qo'yiladigan talablar ko'rsatiladi)

**Shuningdek, kasanachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:**

- ish beruvchi tomonidan o'ziga berilgan mol-mulk (asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar)ning saqlanishini ta'minlash;
- ish beruvchi tomonidan talab qilinadigan sifat standartlariga asosan mahsulotlarni ish beruvchiga topshirishga jadvalga muvofiq o'z vaqtida tayyorlash;
- o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan (elektr energiyasi, suv, gaz va hokazolar bo'lmaganda) buyurtmani bajarish va mahsulotlarni topshirish imkoniyati bo'lmaganda, bu to'g'rida muddati kelgunga qadar \_\_\_ kundan kechikmasdan ish beruvchini xabardor qilish;
- materiallar, asbob-uskunalar, jihozlar buzilishi, shuningdek, belgilangan normativlar doirasida hamda tegishli dalolatnomaga asosan to'liq yoki qisman yaroqsiz bo'lgan mahsulotlar bilan bog'liq zararni ish beruvchiga qoplash;
- mehnat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun iste'mol qilinadigan kommunal xizmatlar haqini qat'iy ravishda o'lchov asboblari ko'rsatkichlari bo'yicha aholi uchun qo'llaniladigan tariflarga muvofiq to'lash;
- mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilish;
- mehnat tashkil qilingan xonaga xatlov o'tkazish davrida ish beruvchining va ish beruvchini hujjatli tekshirish o'tkazilayotganda soliq xizmati organlarining vakillari kirishiga ruxsat berish;
- ish beruvchining unga berilgan texnologiyasining maxfiyligiga rioya qilish;
- boshqa ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalarini imzolash uchun ish

beruvchining yozma roziligini olish;

- mehnat to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

**Ish beruvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**

- ushbu mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq kasanachiga ish (buyurtma) berish;

- kasanachini topshirish dalolatnomasiga muvofiq buyurtmani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik jihatdan xavfsiz asbob-uskunalar, jihozlar, inventar bilan ta'minlash;

- belgilangan jadvalga asosan buyurtmani bajarish uchun kasanachini tegishli sifatdagi xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash va ularni yetkazib berish;

- kasanachi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar jadvalga muvofiq olib ketilishini ta'minlash;

- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) bo'yicha kasanachining mehnat haqini o'z vaqtida to'lash;

- kasanachining buyurtmanomasi bo'yicha buyurtmani bajarish uchun unga berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventarni ta'mirlash, shuningdek, zarur ehtiyot qismlar bilan ta'minlash;

- ish beruvchining buyurtmasini bajarish uchun kasanachining asbob-uskunalari, jihozlari va inventaridan foydalanilgan taqdirda, ijara shartnomasiga muvofiq (ijara to'lovi ish beruvchi tomonidan naqd pul bilan amalga oshiriladi) uning xarajatlarini qoplash;

- ish beruvchining buyurtmasini bajarish bilan bog'liq foydalanilgan energiya, suv, aloqa uchun kasanachining xarajatlarini qoplash (kompensatsiya qilish);

- kasanachiga mehnat xavfsizligi qoidalari va berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventardan foydalanish to'g'risida yo'riqnomalar berish;

- buyurtma bo'yicha ishlarni bajarishda zarur bo'lgan shaxsiy himoyalash vositalari bilan kasanachini bepul ta'minlash;

- kasanachining mehnat daftarchasiga belgilangan tartibda yozuvlarni qayd etish, uni saqlash va ishdan bo'shatilgan kunda kasanachiga berish;

- mehnat shartnomasi amal qilish davrida kasanachining ijtimoiy sug'urtasini amalga oshirish;

- kasanachining jamg'arib boriladigan shaxsiy pensiya hisob raqamini ochish va unga badallarni o'z vaqtida to'lash;

- kasanachiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi hollarida, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, bola tug'ilganda va dafn etish uchun) nafaqalarni to'lash;

- mehnat to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

### **Kasanachining ish tartibi**

Kasanachi ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlaydi, u bajargan barcha ishlarga bir hissa miqdorda haq to'lanadi va unga ish vaqtidan tashqari ishlaganlik, dam olish va bayram kunlarida, shuningdek, tungi vaqtda ishlaganlik uchun

mehnatga haq to'lash shartlari qo'llanmaydi.

Kasanachiga ish haqi saqlangan holda \_\_\_ kundan iborat ta'til beriladi.

Kasanachiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda qo'shimcha ta'til beriladi.

Ta'tilni pul kompensatsiyasi bilan almashtirishga ruxsat etilmaydi, berilgan ta'tildan foydalanmagan kasanachini ishdan bo'shatish hollari bundan mustasno.

### **Tomonlarning javobgarligi**

Kasanachi ushbu shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan, mehnat to'g'risidagi qonunlar buzilgan, shuningdek, moddiy zarar yetkazgan taqdirda, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy va moddiy javobgar bo'ladi.

Agar buyurtma berilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda uzilishlar kasanachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (elektr energiyasining o'chirilishi, gazning yo'qligi yoki past bosimdaligi va hokazolar) sodir bo'lgan bo'lsa, (bu to'g'rida kasanachi buyurtma berilgan mahsulotlarni topshirish muddatlari kelgunga qadar, agar buning imkoni bo'lmasa, mumkin qadar qisqa muddatda ish beruvchini xabardor qilishga majbur) kasanachiga nisbatan jarima sanksiyalari qo'llanilmaydi.

Shartnomada belgilangan muddatlar va hajmlarda xomashyo, materiallarni yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni olib ketishda uzilishlar bo'lgan hollarda, bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida hisob-kitob qilinmaganda, shuningdek, ushbu shartnoma bajarilmasligining boshqa barcha hollarida ish beruvchi amaldagi qonun hujjatlariga asosan moddiy va boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

### **Kasanachining mehnatiga haq to'lash shartlari**

Kasanachilar ishiga, qoidaga ko'ra, ishbay haq to'lanadi. Haq to'lash amalda bajarilgan ishlar uchun yoki sifati bo'yicha belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarilgani uchun amalga oshiriladi.

Unumdorlik normalari va ishbay narxlar tomonlarning kelishuviga ko'ra, tegishli ishlar uchun mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normal ish vaqti hisobidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ishbay haq to'lanadigan aniq ish uchun kasanachining ish haqi miqdori ish beruvchining o'z ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash shartlari singari bo'lishi kerak.

Kasanachining ish haqi, uning tomonidan mehnat normalari va mehnat majburiyatlari bajarilgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas va biron-bir eng yuqori miqdor bilan cheklanmaydi.

Kasanachining mehnatiga haq yoki har bir tugallangan ish topshirig'i, ishlar hajmi topshirilganda yoki mehnat qonunchiligida belgilangan muntazam vaqt oraliq'ida to'lanishi kerak. Mehnat shartnomasida kasanachi mehnatiga avans tarzida haq to'lash nazarda tutilishi mumkin.

Agar kasanachi o'z mehnatini amalga oshiradigan joyda ish haqiga tuman koeffitsiyenti belgilangan bo'lsa, kasanachi mehnatiga haq to'lash ushbu koeffitsiyentni hisobga olgan holda amalga oshirishi kerak.

Kasanachi ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlaydi, uning bajargan barcha

ishi uchun bir hissa miqdorda haq to‘lanadi va unga ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik, shuningdek, tungi vaqtda ishlaganlik uchun mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etilmaydi.

### 6. Kasanachilar mehnatidan foydalanadigan ish beruvchilarga beriladigan imtiyozlar va ularning qo‘llanishini soliq organlari tomonidan nazorat qilish


Ish beruvchining buyurtmasi yuzasidan tuzilgan shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish uchun kasanachiga tekin foydalanish uchun korxonadan berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar foydalanish davrida mulk solig‘i to‘lovidan ozod qilinadi.

Ushbu imtiyozni qo‘llash ustidan nazoratni amalga oshirish uchun korxonadan (ish beruvchi) soliq organlariga hisobotlar taqdim etishda kasanachiga berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlarning qoldiq qiymatini, ularning ro‘yxatini ko‘rsatishi shart.

Tovarlar ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun kasanachilarga buyurtmalar bergan korxonalar kasanachilar mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan 2006-yil 1-fevraldan boshlab besh yilga ozod qilinadi.

Shu bilan birga, ish beruvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni amalga oshiradi (O‘zR VM 24.03.2010-y. 52-son qarori tahriridagi xatboshi).

Ish beruvchi tomonidan kasanachilar mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasining alohida hisobi yuritiladi va yagona ijtimoiy to‘lov hisob-kitoblari bilan birga davlat soliq xizmatiga tegishli ma‘lumotnoma taqdim etiladi.



Manba: [http://www.cfin.ru/finanalysis/invrisk/inv\\_risk-04.gif](http://www.cfin.ru/finanalysis/invrisk/inv_risk-04.gif)

### Mehnat shartnomasini to‘xtatish

Ushbu mehnat shartnomasini to‘xtatish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:  
Tomonlarning kelishuvi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 99-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasining kasanachi tashabbusi bilan bekor qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasida nazarda tutilgan



asoslarga ko'ra mehnat shartnomasining ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishi.

Mehnat shartnomasining to'xtatilishi tomonlarni shartnoma bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Mehnat shartnomasi shartlari tomonlar uchun majburiy yuridik kuchga ega. Mehnat shartnomasiga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar ikki tomonlama yozma kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi.

Mehnat shartnomasini bajarish chog'ida tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Uyda ishlarni bajarish tartibining jiddiy yoki bir necha marta buzilishi qayd etilgan taqdirda, mansabdor shaxslar ishlarini to'xtatish bo'yicha choralar ko'rishi, shu jumladan, bu to'g'risida ish beruvchini xabardor qilgan holda, uyga ish berishni taqiqlashi mumkin.

Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi, uning bir nusxasi ish beruvchida, ikkinchi nusxasi kasanachida saqlanadi.

### **Xulosa**

Respublika mahalliyashtirish dasturining asosiy maqsadi – import o'rmini bosadigan va raqobatbardoshli zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligini o'stirish maqsadida Respublikada sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishdan iborat.

Mahalliyashtirish dasturining asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-fevraldagi "2014-2016-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2120-son qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori bo'lib, unga 2016-yillargacha bo'lgan davrda yilma-yil tegishli ravishda o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilib boriladi.

Dasturning bajarilishida mas'ul bo'lib – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi tomonidan respublika kompaniyalari, uyushmalari va korxonalar bilan birgalikda amalga oshirilib boriladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning asosiy maqsad va mezonlari nimalardan iborat?
2. Respublika Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish tartibini izohlab bering.
3. Respublika Mahalliyashtirish dasturini bajarish bo'yicha mas'ul korxonalar va

tashkilotlarni ko'rsatib bering.

4. Mahalliyashtirish dasturining samaradorligini ifodalovchi mezon, ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?

5. Respublika Mahalliyashtirish dasturi monitoringi qanday tartibda amalga oshiriladi?

6. Kasanachilik nimani anglatadi? Uning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).

2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarini himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-y. 30-aprel (yangi tahriri).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ulami barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli "Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458-sonli qarori.

7. Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-fevraldagi "2014-2016-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2120-son qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori.

9. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

10. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: // Xalq so'zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

12. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. -432 с.

13. Rashidov O.Y, Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: Sharq, 2011. 124-b.

## **12-bob. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATININIG TUTGAN O'RNI, MOHIYATI VA AHAMIYATI**

**12.1. Kichik (biznes) korxonalarida innovatsiya faoliyatini qo'llash zarurligi, bosqichlari va turlari.**

**12.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiya sharoitida innovatsiyani qo'llashning xorij tajribalari.**

**12.3. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida kichik biznes korxonalarining innovatsion-texnologik jarayoni holati.**

**12.4. Iqtisodiyotning tarmoqlar tizimida innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishning zamonaviy strategiyalari.**

**12.5. Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari.**

.....  
*Tayanch iboralar: innovatsiya, statik foyda, antimonopol siyosat, subsidiyalar (grantlar), patent, litsenziya, venchur korxonalar, investitsiya, markazlashgan va markazlashmagan innovatsiyalar, innovatsion strategiya, diversifikatsiya, innovatsiyalarga imtiyozlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.*

### **12.1. Kichik (biznes) korxonalarida innovatsiya faoliyatini qo'llash zarurligi, bosqichlari va turlari**

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda yangi texnikani iqtisodiyotning turli tarmoqlariga keng ko'lamda joriy etilmoqda. Bu borada talaygina ishlar amalga oshirildi. Shu sababli kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida innovatsion tizimini tashkil etish va rivojlantirish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniq baholay olish, kichik korxonalar innovatsion menejment tizimining boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqasini ta'minlash, kichik korxonalar innovatsion loyihalarni tuzish va boshqa shu kabilarni o'rganishda kichik biznesda innovatsion faoliyat fanining ahamiyati katta.

O'zbekiston 90-yillarga qadar tabiiy resurslarga boy mamlakatlar qatoriga kiritilib, ushbu mamlakat hududi mustaqillikka qadar xomashyo bazasiga aylantirilgan edi. Ma'lumki, biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarini tashkil etish yo'lida oxirgi yillarda biz ko'pgina tajribalarga ega bo'lmoqdamiz<sup>45</sup>. Barcha sohalarda eski texnologiyalar asosidagi ishlab chiqarish mavjud bo'lgan.

Ammo eskirgan asbob-uskuna va texnologiyalardan foydalangan holda, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, mahsulot birligini moddiy va mehnat resurslari sarfi miqdorini kamaytirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha raqobatbardoshligini

<sup>45</sup>Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012. 6-bet.


ta'minlashga erishish mumkin emas edi. Innovatsiyalarni joriy etish haqidagi mulohazalar umuman bo'lmagan edi.

Innovatsiya iborasi inglizcha "innovation" so'zidan olinib, yangi ilmiy texnik yutuqni ifodalab, yangi mahsulotni amalda qo'llanilish jarayoniga aytiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu jarayonni tashkilotdagi muhitga muvofiqlashtirish, uning samarasini oshirish va respublikamizdagi sotsial-iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalanishga ta'sirini ko'rib o'tilgan<sup>46</sup>. Asosiy e'tiborni bo'lajak menejerlarni yuqori raqobat sharoitida eng oqilona variantlarni tanlash, foydalilik darajasini ta'minlash va korxonada faoliyatini jadallashtirish masalalariga qaratilgan.

Ilmiy izlanishning hozirgi davrda bizning respublikamizda iqtisodiyot rivojlanish holati va barcha tarmoqlardagi strukturaviy o'zgarishlarga mos ravishda olib borilishi iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarni muvofiqlashtirishga olib kelmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangilik kiritish jarayoni bo'yicha ko'p muammolar paydo bo'lmoqda va ularni o'z vaqtida hal etish, kerakli kadr, moddiy texnika bazasi, tashkiliy va uslubiy tadbirlarni talab etadi.

Bozor iqtisodiyotida turli xil mulk shaklida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining muammolari innovatsion jarayonlarni qo'llashda yuzaga kelishi mumkin. Kichik biznes korxonalarida o'z faoliyatlarida innovatsiyalarni qo'llashdagi muammolarni hal etishga yo'naltirsalar-da, ma'lum holatlarda qiyin sharoitga tushib qolish ehtimoli ko'p uchraydi. Chunki innovatsiyalarni qo'llash har qanday korxonada amalga oshirib bo'lmaydi.

Shuning uchun innovatsiyalarning amalga oshirilishini ayrim korxonalar faoliyatidagina kuzatish mumkin. Masalan, korxonalar yangilik joriy etish jarayonida, xorijdan investitsiyalar jalb etish va raqobatdosh mahsulot chiqarish borasida hal etilmagan masalalar va vazifalarga duchor bo'lib, ularning yechimini topishga intiladilar.



Manba: <http://innovation-village.com/nigerian-companies-pay-lip-service-innovation/>

**Biroq shunday kichik biznes korxonalarida borki, ularda:**

- eski texnika va texnologiyasini yangilanish jarayoni sust olib borilishi;
- mahsulot sifati va ekologiya talablari xalqaro standartlariga mos kelmasligi va boshqalar;
- innovatsiyani qo'llashda katta mablag'lar talab etilishi;
- korxonalarda innovatsiyalarni qo'llash orqali yangicha raqobatga, raqobatlashuv tendensiyalarida o'zgarishlar yuzaga keladi.

<sup>46</sup>Raximova D., Xudoyberdiev Z., Eshonxo'jaev D. Menejment. – T.: Akademiya, 2003. 94-95-betlar.



Mukammal raqobat jamiyat uchun juda kuchli stimuly bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini minimumlashtirishga va ish haqini uning me'yoriy unumdorligiga maksimal yaqinlashtiradi.

Innovatsiyalarni qo'llashdan olingan foyda esa korxonada faolligini yanada oshirishga olib keladi. Bu foydani Y. Shumpeter (1883-1950) statik foyda deb atadi<sup>47</sup>. Bunda iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishni yangi darajaga olib chiqishga qodir emas. Yangi daraja innovatsiya bilan bog'liq, u esa ortiqcha xarajatlarni talab qiladi.

Novatorlik raqobatning yangi tipini shakllantiradi. Bu holat yangi tovar, yangi texnologiya, umuman biror xil yangilikka, ustunlikka ega bo'lganda sodir bo'ladi. Novator boshqa korxonalar yashashiga xalaqit bera boshlaydi. Chunki novatorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan raqib boshqalardan oldinga ketib qoladi va o'z sohasida monopolistga aylanishi mumkin. Buni Shumpeter "yaratuvchi buzg'unlik" deb aytgan.

**Korxonada innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishi quyidagi bosqichlarda sodir bo'ladi:**

**1-bosqich. Yuzaga kelgan g'oyalarni tizimlash:** Bu bosqichda yangi g'oyalarni amalda qo'llash va imkoniyatlari aniqlanadi. Bunda bir necha muqobilliklar yuzaga kelishi tabiiy. Ulardan eng maqbul varianti tanlanadi. Yangi mahsulotning korxonada imidjiga va rivojlanish strategiyasiga muvofiq kelishi aniqlanadi. Shu tarzda bo'lajak buyum patentini belgilashga o'tiladi.

**2-bosqich. Aniqlangan g'oyalarni tanlash va yangi mahsulot g'oyalarini ishlab chiqarish zarurligi.** Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- bozorda texnologik o'zgarishlar haqida axborot to'plash;
- mahsulot ishlab chiqarish va o'zlashtirish munosabatlarida firmaning salohiyatli imkoniyatlari haqida axborot to'plash;
- tavakkalchilik darajasi va me'yorlarini belgilash.

**3-bosqich. Yangi mahsulotning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish, marketing dasturlarini ishlab chiqish.** Marketing yangi mahsulotni yuzaga kelishi uchun yordam beradigan soha hisoblanadi. Bu bosqichda e'tiborli jihatlar quyidagicha:

- g'oya aniq loyiha ko'rinishiga o'tganda mahsulotni texnik jihatdan ishlab ko'rish:

- mahsulotning texnik-iqtisodiy tavsifini aniqlash, uning iste'mol xususiyatlari va sifatini baholash;

- savdo hajmi va bozorning potensial (yashirin) talabini baholash;

- yangi mahsulot yaratish va o'zlashtirishdagi xarajatlarni (investitsiyalarni) aniqlash;

- yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur resurslarning mavjudligi: mashina va texnologik inshootlar, xomashyo va materiallar, personal kadrlar, moliyaviy manbalar;

- yangi mahsulot ishlab chiqarish muddatlari va u bilan bozorga kirish;

<sup>47</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982.

- yangi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi (foydaliligi)ni baholash va tahlil etish, mahsulot bo'yicha marketing dasturlarini ishlab chiqarish.

**4-bosqich. Yangi mahsulot yaratish.** Ko'rinib turibdiki, yangi mahsulot yaratish bosqichigacha 3 ta bosqich amalga oshiriladi. Bu ham korxonada innovatsiyani qo'llashdagi qiyinchiliklarning naqadar murakkabligini ko'rsatib turibdi. Yangi mahsulot yaratish bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi:

- korxonada bo'limlari bo'yicha majburiyatlarni taqsimlash bilan yangi mahsulotni rivojlantirishning aniq dasturini ishlab chiqish;

- namuna yaratish va texnik tadqiqot o'tkazish (ekologik tozaligini, xavfsizligini va hokazolarni tekshirish);

- tovarning nomlanishini, uning tovar belgisini, rasmiylashtirishni, o'ramini (upakovkasini) va markirovkasini belgilash.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 4-bosqichning o'zida yangicha yondashuvlarni amalga oshirish taqozo etiladi.

**5-bosqich. Bozorda test o'tkazish:**

- cheklangan bozorda uch oy mobaynida narx va boshqa tijorat muhitlari (narxlardan chegirmalar taqdim etish, kreditlar va boshqalar) bo'yicha o'tkazish;

- tarqatishning (sotishning) maqbul kanallarini tanlash;

- reklama uslublari va vositalarini tanlash;

- texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

**6-bosqich. Mahsulotni sotish bo'yicha marketing dasturi asosida yangi buyumni ishlab chiqarishga joriy etish haqida qaror qabul qilish (ommaviy, ko'p nusxada).** Bu bosqichda mahsulot yaratish jarayoni boshlanib, ishlab chiqarish amalga oshiriladi:

- yangilikni tijoriy asoslash: savdo hajmi, mahsulot rentabelligi, talab va ehtiyojlarni qondirish darajasi, sotish uslubi va kanallari;

- tovarlarni sotishda tajribaning mavjudligi: bozordagi mashhurlik va korxonada shuhrati, xaridor va iste'molchilar bilan turg'un aloqalar;

- korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari: mavjud quvvatlardan foydalanish, resurslar va malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik;

- moliyaviy imkoniyatlar: ommaviy ishlab chiqarishda investitsiyalarning umumiy yig'indisi va savdo, moliyaviy manbalar, hisobot davrida kutilishi mumkin bo'lgan (foydalilik yoki zarar ko'rish) natijalar;

- me'yoriy ko'rsatkichlarga – standartlarga davlat me'yorlariga muvofiqlashtirish;

- yangiliklarni mahsulotlar innovatsiyasi ko'pchilikni qiziqtirganligi uchun ham yashab qolish imkoniyatlari ko'proq. Innovatsiya qiluvchining vazifasi ham innovatsiyani odamlarning amaliy faoliyatiga aylantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan innovatsiya qiluvchilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z ixtirosini (g'oyani) amalga oshirish bilan bog'liq to'siqlarni yengib o'tgan ixtirochi;

- vositachilar (maslahatchilar) – tadbirkorlik tuzilmalari yoki jamoat fikrini innovatsiyalardan foydalanishga yo'naltiruvchilar;

- o'z ixtirolarini (g'oyani) qonuniy asosda sotib olib, ularni amaliyotga tatbiq etadigan tadbirkorlar;

- davlat va jamiyat hayotining ma'lum yo'nalishida foydalanish uchun ixtiroga (g'oya) ijtimoiy ahamiyat beradigan davlat va jamoat arboblari.



**Shuni alohida qayd etish kerakki, kichik biznes korxonalarining fan-texnika yondashuvi asosidagi boshqaruvda juz'iy muammolar yuzaga kelgan. Bu muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- aniq bozorlarning doimiy o'zgaruvchanligi;
- bozor muhitida ishlab chiqarishning tez va to'g'ri moslashuvdagi qiyinchiliklar;
- bozor o'zgarishlariga ko'ra joriy va o'rta muddatli rejalarga tegishli tuzatishlar kiritishdagi qiyinchiliklar;
- o'zgarib qolgan rejalarga bog'liq holda xarajatlarni minimallashtirishdagi qiyinchiliklar.

Boshqaruvida yoki innovatsiyalarni qo'llashdagi bu kabi muammolar marketing izlanishida kamchiliklar borligi bilan izohlanadi. Chunki marketing barcha yangiliklarni amalga oshirish yoki amalga oshirish mumkin emasligi to'g'risidagi xulosani beradigan soha bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, bozorni o'rganishdagi vaziyatlarda xato qilmaslikka harakat qilish kerak. Agar xatolar yuzaga kelib qolsa, u holda ularni minimallashtirish imkoniyatlarini ishga solish talab etiladi. Shuning uchun ilmiy sohada tadqiqotlarni olib borishda o'ta yuqori darajadagi puxtalik talab etiladi.

**Odatda fan-texnika boshqaruvini tashkil etish 3 ta muhim yo'nalish bo'yicha ishlab chiqiladi:**


- yangi tovarlar ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish;
- sanoatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni texnik jihatdan tezda yangilashga yo'naltirish;
- aniq eskirgan, biroq alohida bozorlarda o'z talabiga ega bo'lgan, an'anaviy tovarlar ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish.

Ammo aksariyat korxonalar bunday yondashuvlar asosida ishlashda qiyinchiliklar sezadilar. Masalan, ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohalaridagi kichik biznes korxonalarida ham xuddi shunday muammolar bor. Chunki ilmiy izlanish uchun ham qobiliyatli kadrlar va mutaxassislar zarur bo'ladi. Agar korxonada bunday kadrlar kam bo'lib yoki bo'lmasa, u holda innovatsiyalarni qo'llash darajasi umuman pasayib ketadi. Shuning uchun, korxonada rahbariyati yangi xodimlarni ishga qabul qilishda yangi kadrlarning ilmiy salohiyati va qobiliyatiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir.

**“Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror**

**bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir”<sup>48</sup>.**

Kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyatining infratuzilmasini quyidagi 1-rasmdan ko'rishimiz mumkin:



**1-rasm. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatining infratuzilmasi**

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Kichik biznes korxonalarida fan-texnika taraqqiyotiga bo'igan munosabat ikki asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi.**

**Birinchisi** – mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish, o'zlashtirish va ishlab chiqarilayotgan buyumlarning texnik-iqtisodiy xarakteristikalarini yaxshilashdir.

**Ikkinchisi** – ilg'or texnologik jarayonlarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish, intensivlashtirish, avtomatlashtirish, ximiyalashtirish, gazlashtirish, davriy jarayonlarni uzluksiz jarayonlar bilan almashtirish, toza va

<sup>48</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". <http://kun.uz/news/2017.14.01>.



konsentrlangan mahsulot ishlab chiqarish va hokazo.

Bu ikki yo'nalishning uzviy qo'shib olib borilishi va bir-biriga ta'sirigina korxonada ham, butun xalq xo'jaligida ham ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishni ta'minlaydi.

**Hozirgi sharoitda kichik biznes korxonalarida fan-texnika boshqaruvi quyidagi asoslangan masalalarni hal etishni taqozo etadi:**

**Birinchi**dan, umuman yangi mahsulot ishlab chiqarish (vazifasi bo'yicha bozorda bu mahsulotga o'xshagan mahsulot yo'q). Bunday yondashuvni amalga oshirish iste'molchiga faol ta'sir etadi. Biroq bunday yondashuv ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish sohasida juda katta xarajatlarni talab etadi. E'tiborli tomoni shundaki, umuman, yangi tovar ishlab chiqarishda raqobat tovarni loyihalash bosqichlaridayoq boshlanadi. Sanoat ishlab chiqarish kichik biznes korxonalarida korxonalar likvidlilik darajasini oshiradigan chora-tadbirlarni ko'rib borish zarur.

**Ikkinchi**dan, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish (bozorda bunday mahsulotga o'xshashlari bor bo'lgan mahsulot). Bunday mahsulotlar bozorda tijorat jihatdan tezda ustunlikka erishadilar. Korxonalar NIOKR, ya'ni (ITTLI-ilmiy tadqiqot va tajribaviy loyihalash ishlari) uchun yirik xarajatlarni amalga oshirmasada, yangi mahsulot bilan bozorga tez kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bozor to'yinguncha o'z ulushiga ega bo'lib boradi. Bunday siyosatning o'ziga xos tomoni shundaki, yangi mahsulotni yanada boshqacha turlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan izlashlar olib boriladi.

Biroq buning uchun muayyan darajadagi innovatsion harakatlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu harakatlar, albatta, yana moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

**Uchinchi**dan, sanoatni mahsulot ishlab chiqarishga texnik jihatdan yangilashga yo'naltirish. Kichik biznes korxonalarida fan-texnika boshqaruvining bunday yo'nalishda olib borilishi mahsulotning yangi modernizatsiyalashgan va o'zgarishlar kiritilgan – takomillashgan ko'rinishda ishlab chiqarishni talab etadi. Yangi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida firmalar raqobati avj oladi.

**To'rtinchi**dan, an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish, asosan, eskirgan, biroq o'ziga xos talabga ega bo'lgan an'anaviy texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni taqozo etadi. Mahsulotlar ma'naviy eskirgan bo'lsa-da, o'zining hayotiy davrining uzaytirilishi hisobiga bozorda muayyan talabga ega bo'ladi.

Fikrimizcha, kichik biznes korxonalarida joriy etilgan innovatsiyalar mavjud muvozanatni buzadi va iqtisodiyotni yangi muvozanat sari rivojlanishga undaydi.

Bu jamiyat rivojini ta'minlovchi har kunlik va har daqiqada sodir etiladigan me'yoriy jarayondir.

Jamiyat hayotining turli yo'nalishlarini boshqarishda yo'l qo'yiladigan xatolar yoki siyosiy voqealar, shuningdek, ayrim falokatlar natijasida yuzaga keladigan inqirozlar innovatsiyalarning yuzaga kelishiga turtki berishi mumkin.

## **12.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiya sharoitida innovatsiyani qo'llashning xorij tajribalari**

Hozirgi paytda jahon hamjamiyatining rivojlangan mamlakatlarida an'anaviy ilmiy texnika taraqqiyotida innovatsion, ilmiy texnologik tartibga jadal o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Ayniqsa, diversifikatsiya sharoitida bunday jarayon ko'lami yanada kengayib borishi tabiiy. Innovatsion tartibning avvalgisidan farqi shundaki, fanning shakllanishi va davlat tomonidan moliyalashtirish tizimidan texnologik va ilmiy innovatsiyalar barcha turlarini davlat tomonidan rag'batlantirishga o'tish kuzatilmoqda.

Hozirda AQShda va xususan, G'arbiy Yevropada, eng avvalo Fransiya, Germaniyada fan-texnika siyosatining innovatsion siyosatga aylanishi ro'y bermoqda.

**Uning asosiy vazifasi** – ilmiy va texnologik innovatsiyalar, eng avvalo, kichik va o'rta korxonalar uchun, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli dasturlar sohasida tezkor diversifikatsiya uchun eng qulay sharoitlar yaratishdir. Fanni moliyalash bo'yicha AQSh jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yangiliklarni joriy etish jarayonlari juda tez amalga oshirilib ularning raqobatchilari ham topiladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda diversifikatsiya sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari va muhandislik tadqiqotlari (ITIMT)ni moliyalashdagi davlatning roli ancha faol bo'lib, faqat davlat tashkilotlari tomonidagina amalga oshirilmaydi. Buning uchun xususiy korxonalar ham o'z hissalarini qo'shib boradilar. Hozirgi vaqtda AQShda federal hukumat ulushi (moliyalash manbai sifatida) **barcha xarajatlar salmog'ining 50 foizini** tashkil etadi.

Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Germaniyada **40 foiz atrofida**, Fransiyada **57 foiz**, Yaponiyada **28 foizga** to'g'ri keladi. Ilmiy tadqiqot ishlari va muhandislik tadqiqotlari (ITIMT) sohasining davlat tomonidan bunday e'tibor bilan qo'llab-quvvatlanishi qonuniy bo'lib, bir qator dalillar bilan izohlanadi.

Jahon mamlakatlarida shunday bozorlar borki, unda tabiiy monopolist paydo bo'lishi mumkin. Kichik firmalar bo'lsa ham, unga raqib bo'la olmaydi, raqobat sharoitini yaratib bo'lmaydi. Masalan, ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini chegaralangan yerdagina yetishtirib bo'ladi. Bu holatda davlat ularni tartibga solib turish, o'z nazoratida ushlab maqsadga muvofiqdir.

Diversifikatsiyalash sharoitlarida davlatning o'zi esa monopoliya yaratmagani ma'qul, qolgan monopoliyalarga qarshi qonun yo'li bilan juda ehtiyotkorona kurashishi kerak.

**Antimonopol siyosat** – raqobatni himoya qilish va monopoliyalar paydo bo'lishi hamda monopol huquqdan foydalanishga qarshi to'siqlar yaratish yo'li bilan raqobatni kuchaytirish siyosatidir.

**Antimonopol siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:**

1. Ishlab chiqarish hajmini cheklash: biror bir korporatsiya u yoki bu tovar ishlab chiqarishning 40-50 %ini nazorat qilishga haqqi yo'q.

2. Yirik huquqiy shaxslarga (odatda, mamlakatdagi 1000 ta yirik korporatsiyaga) o'z qo'llarida boshqa korxonalarining ma'lum, katta hissasini ushlab taqiqlanadi.

3. Antikartel qonunchilik, ya'ni bahoni oshirish uchun har xil kelishuvlarni taqiqlash.

Rivojlangan mamlakatlar ancha kuchli antimonopol siyosatga ega. Buning tarixi esa 1890-yilda qabul qilingan AQShdagi Sherman qonuniga borib taqaladi. Sherman qonunida tarmoq bozorlarini qo'lga olgan trestlarni tugatish va uning o'rniga markazlashmagan, raqobat asosida faoliyat qiluvchi, erkin korxonalarni tashkil etish nazarda tutilgan edi.

1914-yilda qabul qilingan Kleyton aktida va savdo kommissiyasi haqidagi Federal qonunda mayda tadbirkorlarni himoya qilishga asosiy diqqat-e'tibor qaratilgan. Shu masala yanada diqqat bilan Robinson – Petman qonunida (1936-yil ) takomillashtirildi.

Kleyton qonuniga Seller – Kefauer tuzatishlarida (1950-yil) korporatsiyalarning qo'shilishi va yutilib ketishi haqidagi aniqliklar kiritildi. 80-yillarga kelib, AQSh va boshqa g'arbiy davlatlarda kichik biznes innovatsion mexanizmining eng muhim komponenti, uzoq muddatga iqtisodiyotning gullab yashnashiga olib keluvchi investitsiya obyekti, deb tan olindi.

**Diversifikatsiya sharoitida ilmiy tadqiqot konstruktorlik ishlari davlat tomonidan turli shakllarda qo'llab-quvvatlanishi mumkin, jumladan:**

- ilmiy tadqiqotlar uchun bevosita budjet mablag'larini ajratish (davlat tashkilotlari orqali moliyalash, shartnomalar tuzish, subsidiyalar ajratish). Ayni holatda davlat yirik xarajatlar talab qilinadigan va ko'plab tavakkalchilikka ega bo'lgan fanning yetakchi yo'nalishlaridagi ko'p kapitalli tadqiqotlarni moliyalashni o'z bo'yniga oladi.

**Ilmiy tadqiqotlarni (ITIMT) bilvosita moliyalashning turli usullari:** xususiy kompaniyalar, innovatsiya jarayonini rag'batlantirish, shuningdek, ular investitsiyasini yangi asbob-uskunalar olish uchun kengaytirish maqsadlarida soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish.

Davlat ayni vaqtda kichik tadqiqot biznesi uchun shart-sharoit yaratishga ko'maklashadi, davlat tomonidan fan-texnika taraqqiyotini bevosita moliyalash xususida to'laroq to'xtalib o'tamiz.

**Rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarni amalda qo'llash uchun subsidiyalar (grantlar) beriladi, subsidiyalarning o'ziga xosligini quyidagicha belgilash mumkin:**

- ular kichik ijrochilarning asosiy ish joyida oylik ish haqidan va unga bog'liq bo'lmagan holda beriladi;

- subsidiyalar qaytarib berilmaydi;

- subsidiya olgan olim yoki ilmiy jamoa, olgan mablag'larni mustaqil sarflaydi.


**AQSh davlat innovatsiya siyosatining obyekti, asosan, xususiy biznesdir.** Davlatning bu boradagi siyosati mavjud ilmiy-texnik yutuqlardan xo'jalikda foydalanishga, ilmiy-texnik majmuada ichki aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat innovatsiya siyosatining usul va vositalari ancha keng. Bunga u yoki bu ma'noda biznesning innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi turli xil davlat tadbirlari kiradi. Amerikalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, eng samarali tashkiliy shakllardan biri universitet – sanoat va tadqiqot markazlari sanaladi.

Davlat ishtirokida tashkil etiladigan bunday markazlar doirasida juda keng ko‘lamdagi ilmiy-texnik masalalarni hal etish imkoni mavjud. Sanoat korxonalari va universitetlarning hamkorlikdagi tadqiqotlariga oid yirik dasturlar davlatning maqsadli ilmiy jihatdan ishtirokchilar faoliyatining boshqa korporatsiya mexanizmini nazarda tutadi.

O‘zbekistonda AQSh davlat innovatsiya siyosatining ma‘lum bir tomonini qo‘llash mumkinki, bunda davlat moliyaviy mablag‘larining umumlashishini va sanoat moddiy texnika bazasini malakali oliy o‘quv yurtlari kadrlari bilan ta‘minlashi rag‘batlantirilishi lozim. Uzoq istiqbolga mo‘ljallangan tavakkal ilmiy texnika loyihalariga mablag‘ ajratishga sanoat korxonalarini qiziqtirish uchun davlat dastlabki xarajatlarni o‘z bo‘yniga olib qolmasdan, ishtirokchi firmalarga kashfiyot va ixtirolardan foydalanishda bepul litsenziyalar ham berishi kerak bo‘ladi.

AQShdagi eng yirik kompaniyalarda ishlab chiqarish hajmi ko‘pincha eng maqbul me‘yordan oshadi, aynan shu narsa ilmiy texnika sohasi rivojlanishida monopoliyani to‘xtatadi, kichik firmalar faoliyatining muvaffaqiyati ham shunda. O‘zbekistonda yirik firmalar ko‘makchisi sifatida ishlaydigan kichik firmalarni tashkil etish uchun shart-sharoitlar mavjud, ularni amaldagi holatini faollashtirish zarur.



Manba: <http://uchebnik-online.com/17/00.html>

Ma‘lumki, Yaponiya ham innovatsiyalarni juda keng qo‘llaydigan davlatlar qatoriga kiradi. Yaponiyada innovatsiya siyosatini amalga oshirishning o‘zgacha mexanizmi mavjud, ya‘ni Yaponiya hukumatining dasturiy hujjatlarida bayon etilgan ilmiy texnika yangiliklari yaratilishida strategik tadqiqotlar yetakchilari, yo‘lboshchilari guruhi o‘qitilishini ta‘minlashga qaratilgan. Ayni paytda, innovatsiya siyosatini qayta ko‘rish zaruriyatidan kelib chiqqan holda, shu mamlakatning boshqalardan afzal bo‘lgan o‘z texnika va texnologiyasini ishlab chiqish hamda tatbiq etish patent, litsenziya savdosiga nisbatan talabchanlikni oshirish orqali rag‘batlantiriladi.

Yaponiyada ishlab chiqilgan mazkur siyosat amalga oshirilishining o‘ziga xos tomoni shundaki, kompaniyalarning loyihalarga (ko‘pincha davlat tomonidan moliyalanadigan) jalb etish mexanizmi yaxshi ishlaydi. Davlatning bu jarayondagi roli xususiy sektorda, jamoa, sanoat, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishda ko‘rinadi. U birinchi galda yirik korporatsiyalar bilan hamkorlik qilishga intiladi.

Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, demak, O‘zbekistonda shakllanayotgan innovatsiya sohasi jiddiy texnologiyalarni amalga oshirish assotsiativ shaklda ilmiy tekshirish tashkilotlari va korxonalari imkoniyatlarini vaqtinchalik yoki doimiy tarzda birlashtirishni talab etadi. Albatta, bunda bosh loyihani amalga oshirish



uchun davlat buyurtma berish orqali ko'maklashmog'i kerak.

**Sanoati rivojlangan ilg'or mamlakatlar innovatsiya siyosatining zamonaviy davlat strategiyasiga xos bo'lgan bir qator umumiy xususiyatlarini sanab o'tish mumkin:**

- ilmiy tadqiqotlarning davlat tomonidan moliyalanishi;
- soliq va ammortizatsiya siyosatiga mos holda rivojlangan kontrakt tizimi yordamida biznesga ilmiy tadqiqotlar uchun ta'sir o'tkazish;
- universitetlar va davlat ilmiy markazlarida umummilliy ahamiyatga ega ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish;
- ta'lim tizimini moliyalash va tashkiliy takomillashtirish, ayniqsa, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ilmiy-texnik ma'lumotlarni tarqatish tizimini yanada rivojlantirish.

**Fransiyada ilmiy texnikani rivojlantirish afzalliklarini ishlab chiqish vazifalari uch yo'nalishida olib boriladi. Birinchi darajadagi ishlar, asosan, ilmiy tadqiqotlar ilmiy markaz (CNRS)<sup>49</sup> tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur markaz ilmiy tadqiqotlarni, jumladan, ijtimoiy va inson haqidagi fanlar bo'yicha tadqiqotlarni moliyalash borasidagi milliy agentlik sanaladi, u asosan, fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi.**

Hozirgi vaqtda jahonda, ayniqsa venchur innovatsion tadbirkorligi taraqqiy etgan. **Venchur – inglizcha “venture” – “tavakkalchilik tashabbusi”** so'zidan olingan bo'lib, tadbirkorligi innovatsiya tavakkalchilik loyihalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan, aksariyat hollarda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir. Venchur biznes mohiyat jihatidan muayyan mablag'ning yangi, hali hech kimga ma'lum bo'lmagan va o'zini oqlashga mavhum, ya'ni tavakkalchilik loyihasiga kiritishdir.

Venchur biznesi, odatda, ixtirolar, nou-xaularni ishlab chiqarishga joriy qilishni ta'minlash orqali foyda olish maqsadida olimlar, ixtirochilar, muhandislar, boshqa mutaxassislar va investorlar tomonidan tashkil etiladi. Bu kichik biznes subyektlarining dastlabki kapitali ana shu ta'sischilar mablag'i hisobidan shakllantiriladi. Ammo aksariyat hollarda bu mablag' loyihani amalga oshirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun kichik venchur biznesi ta'sischilari innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda tavakkalchilik katta bo'lgan, kapital ajratishga tayyor moliya muassasalariga murojaat qiladi.

**Venchur loyihasini amalga oshirish bir necha bosqichlardan iborat:**

- biznes g'oyasi (seed stage) – bosqichda g'oyalar bozoridagi konyunktura, taklif etilayotgan innovatsion mahsulotlar (xizmatlar), ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil etiladi;
- tanlab olingan loyihani amalga oshirish uchun kichik venchur biznesi subyektini tashkil qilish (start-up-stage); kichik venchur biznesi subyektining rivojlanishi (expansion stage) – subyekt ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirilishi, xodimlar sonining ortishi;
- kichik venchur biznes subyektlarining tugatilishi (liquidite stage) – fond birjasida ushbu subyekt aksiyalari qiymatining ortishi (aksiyalarni sotishdan foyda

<sup>49</sup>SNRS – Fransiyada faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy markaz nomi, abreviaturada berilgan.

olish imkoniyatlari).

Yevropa Ittifoqida venchur biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun mablag'larning 50,0 %dan ortig'i tijorat banklari va pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, sanoat va moliya korporatsiyalari tomonidan ajratiladi. Bu mintaqaviy hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda har yillik investitsiya hajmi 14,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadigan 500 taga yaqin bevosita va venchur investitsiya fondlari faoliyat ko'rsatadi<sup>50</sup>.




Diagram 5.1

Manba: Appendix B: Sample Business Plan. Medical Office, Inc. Business Plan to Invest in Medical Office, Inc

Kichik venchur biznesi loyahasini moliyalashtirish moliya muassasalari (kompaniyalari) tomonidan ushbu biznes subyekti aksiyalarini xarid qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday moliyalashtirish kredit ajratish yo'li bilan moliyalashtirishdan farqli ravishda aksiyadorlik moliyalashtirish deb aytiladi.

Hozirgi vaqtlar venchur loyahasini "biznes-malaklar" ham moliyalashtirmoqda. Ushbu atama XX asrning 50-60-yillarida AQShda paydo bo'lgan. Dastavval "biznes-malaklar" deb, teatr spektakllarini sahnalashtirishni beg'araz moliyalashtiradigan homiylarni atashadi. Bugungi kunda "biznes malaklar" – venchur loyihalarini beg'araz emas, balki tavakkalchilik qilib katta foyda olishni ko'zlaydigan investorlardir.

**Venchur biznesini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagilar talab etiladi:**

- uzoq muddatli davlat investitsiya siyosati va venchur biznesini moliyalashtirishning aniq dasturi;
- venchur biznesini yaratish va samaradorligini ta'minlashning asosi hisoblangan inson kapitaliga salmoqli investitsiyalar;
- yuqori malakali venchur menejerlari;
- taraqqiy etgan ta'lim tizimi;
- ixtirolar, innovatsiyalar, nou-xaular yaratishga qodir bo'lgan ilmiy va intellektual salohiyat;
- venchur biznesida raqobat muhiti.

Venchur biznesini rivojlantirish asosida joriy etiladigan yuqori texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga tezroq yaqinlashtirish imkonini beradi. Masalan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan Yangi Zelandiya aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi bo'yicha jahondagi mamlakatlar ro'yxatining quyi qismidan joy olgan. Janubiy Koreya esa, asosan, innovatsion venchur biznesini jadal rivojlantirish hisobiga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlar qatorida o'rin olgan.

<sup>50</sup> Войтов И.В., Авищик В.М., Грышанович А.В., Толочко И.К. Инновационная деятельность и венчурный бизнес. Научно-методическое пособие. Минск. ГУ «БелиСА». 2011. С. 33.

Buni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

**Jahonda venchur biznesini rivojlantirishda yetakchi davlatlar**

Mamlakatlar	Venchur portfeli miqdori, mlrd. AQSh dol.	Venchur portfeli o'sishining o'rtacha sur'atlari, %	Yillik o'rtacha venchur investitsiyalari, YAIMga nisbatan ulushi, %	Yuqori texnologiyalarga investitsiyalar, jami investitsiyalarga nisbatan, %	Quyi texnologiyalarga investitsiyalar, jami investitsiyalarga nisbatan, %
AQSh	192,2	29,0	2,13	85,0	15,0
Buyuk Britaniya	33,1	17,0	2,36	23,0	77,0
Fransiya	19,8	20,0	1,13	44,0	56,0
Germaniya	15,2	20,0	0,56	37,0	63,0
Yaponiya	11,4	26,0	0,20	36,0	64,0
Janubiy Koreya	7,3	24,0	1,18	41,0	59,0

Manba: TERMS Exchange Economy Macroekomic indicators.Production//http//forexaw.com

**Kichik innovatsion firmalar faoliyatining samaradorligi quyidagi omillar bilan bilan izohlanadi:**

- ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishda ixtisoslashtirishning chuqurlashtirilishi, bu kichik biznes subyektlarining yirik korporatsiyalarga nisbatan nisbatan raqobatbardoshligini oshiradi;

- yirik biznes uchun istiqbolli hisoblanmagan va tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish;

- noyob innovatsiyalarni ishlab chiqish va tez joriy etishga qodirlik;

- innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarini (ishlab chiqish, joriy etish, yangi ilm-fan sig'imi katta bo'lgan mahsulotni sotish) bir shaxs rahbarligida mujassamlashtirish. Bu innovatsion faoliyati pirovard natijasiga erishishni tezlashtiradi<sup>51</sup>.

Mazkur tavakkalchilik tadbirkorligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, kichik venchur biznesiga mablag'lar qaytarib berilmaslik shari bilan, foizsiz beriladi. Kredit ajratilishida, odatda, garov ham talab qilinmaydi. Kichik venchur biznesi ixtiyoriga berilgan resurslar loyihani amalga oshirilishi davomida qaytarib olinmaydi. Bu mablag'larning qaytarilishi va foydaning tegishli ulushiga ega bo'lish kichik venchur biznesi tomonidan loyiha amalga oshirilgach, uning qimmatli qog'ozlari moliya bozori-fond birjasiga chiqarilib, baholangandan so'ng sodir bo'ladi.

fan-texnika va innovatsiya rivojlanishining ustunliklarini bashorat qilish hamda belgilash bo'yicha ishlar esa Fransiyadagi yirik xususiy sanoat va davlat korxonalarini tomonidan amalga oshiriladi. Bu borada birqator muammolar mavjud bo'lsa-da, Fransiya yirik bashorat qilish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha katta tajribaga ega. Xususan, atom va molekulyar fizika, qattiq jismlar fizikasi rivojlanishi

<sup>51</sup> Брилина Г.И. Инновационные возможности Российского малого бизнеса. //Вестник Московского Университета. 2014, № 1. С. 86.

bo'yicha bashoratlar qilingan.


Yuqorida sanab o'tilgan sanoati rivojlangan mamlakatlardagi davlat innovatsiya sohasi strategiyasining umumiy tomonlarini u yoki bu darajada O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin. Bu o'rinda, albatta, ilgari to'plangan tajriba, an'ana va hukumatning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

### 12.3. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida kichik biznes korxonalarining innovatsion-texnologik jarayoni holati

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida respublikada Investitsiya-innovatsiya milliy dasturi yagona maqsadga yo'naltirilgan holda, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur Dasturda yaqin yillarga mo'ljallangan ustuvor va strategik ahamiyatga ega loyihalar belgilangan bo'lib, Dastur iqtisodiyotning yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, tog'-konchilik, kimyo, yengil sanoat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash sohasi kabi deyarli barcha sohalarini qamrab olgan.

Dasturni amalga oshirishda respublika hukumati huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi Muammolar bo'yicha kengashi, fan-texnika markazlari, viloyatlar qoshidagi fan va texnika xalqaro markazlari hamda ilg'or texnologiyalar markazlari ishtirok etib bormoqdalar. Xalqaro markazlarda amaliy (ishlab chiqarish tuzilmalarida tayyorlangan) va innovatsion (fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohasidagi) vazifa hamda muammolar shakllantirilib, konsalting va axborot xizmatlari ko'rsatiladi.

Kichik biznesning innovatsion faoliyati ilm-fan sig'imi katta bo'lgan iqtisodiyot sohalarida amalga oshirilishi nazarda tutiladi (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes innovatsion faoliyatining ilm-fan sig'imi katta bo'lgan iqtisodiy sohalar

Manba: Muallif ishlanmasi.



Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, ushbu sohalarga, odatda, sanoatning to'rt tarmog'i: aerokosmik sanoati, kompyuterlar ishlab chiqarish, idora buyumlari ishlab chiqarish va kommunikatsiyaning elektron vositalarini ishlab chiqarish kiritiladi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida esa ilm-fan sig'imi katta hisoblanadiganlar: aloqaning zamonaviy tarmoqlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, biznes xizmatlari bo'lib hisoblanadi (dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, maslahat, marketing va boshqa xizmatlar).

Shu bilan birga bu sohada hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ko'p. Jumladan, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

**Dastur asosidagi loyihalarning jadallik bilan amalga oshirilishida muhim omil quyidagilar hisoblanadi:**

Innovatsion ishlanmalar va ularni joriy qilish uchun o'z resurslarini taklif qiluvchi moliyaviy va investitsiya institutlari bozori tashkil etilishini rag'batlantirish;

Yirik korxonalarining kichik biznes subyektlari innovatsion loyihalarini hissador tashkilot sifatida ulushli moliyalashtirishdan oladigan manfaatdorligini oshirish;

ishlab chiqarishda innovatsiya va nanotexnologiyalarni qo'llash

muqobil energiya turlaridan foydalanish, ayniqsa quyosh energiyasidan foydalanish

farmakologiya va farmatsevtika sohasi salohiyatidan foydalanish;

ishlab chiqarishda biotexnologiyalarni qo'llash

kam suv talab qiladigan texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish

qishloq xo'jaligi ekinlari yangi serhosil navlarini, mahsuldor chorva mollari turlarini yaratish

sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlash va h.k.

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyat markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan turda moliyalashtiriladi.**

**Birinchi usulda pul mablag'lari, davlat budjeti, ilmiy-texnik rivojlanish davlat dasturiga kiritilgan loyihalarni maqsadli moliyalashtirish amalga oshiriladi:**

- tanlov ishlarini bajarish bo'yicha jamg'armalar;
- muayyan loyiha uchun ajratilgan va qaytarilishi kutilmaydigan grantlar hamda subsidiyalar;

- hokimiyatlar va boshqaruv organlari maxsus buyurtmalarini moliyalashtirish;
- davlat banklarining kreditlari hisobidan taqdim etiladi.

**Moliyalashtirishning markazlashtirilmagan usuli** korxonalarining xususiy mablag‘lari, xorijiy investorlar, xususiy shaxslar, maxsus moliya yoki xayriya jamg‘armalari hamda kredit mablag‘laridan foydalanishga asoslangan. Masalan, AQShda sanoat kompaniyalari va banklari universitetlar, kollejlari, federal hukumat idoralari hamda mahalliy boshqaruv organlari, sohalar va ularning uyushmalari, xususiy shaxslar ilmiy jamg‘armalarini tashkil qilishda faol qatnashadilar.

O‘zbekistonning Davlat investitsiya siyosati birinchi navbatda iqtisodiyotda tuzilmaviy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar investitsiya faoliyatini jadallashtirish hamda chet el investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish, shuningdek, investitsiya loyihalari tanlovi asosida ijtimoiy masalalarni hal etishga yo‘naltirilgandir.

Bozor xo‘jaligiga mos bo‘lgan soliq tizimiga o‘tish innovatsiya tuzilmasining moliyaviy jihatdan ta‘minlanishi yaxshilanishiga ko‘maklashadi. Mazkur tizimning mohiyati belgilanayotgan soliq miqdori mahsulotning yangi yaratilgan qiymati miqdori, olingan foyda hamda mavjud bo‘lgan mulk qiymatiga bevosita bog‘liqligidan iborat. Shuni ta‘kidlash joizki, amaldagi soliq tizimi kichik korxonalar, jumladan, innovatsiya korxonalarini faoliyat yuritish sharoitlarini hisobga olmaydi. Innovatsiya korxonalarini, boshqa xususiy korxonalar kabi foyda solig‘ini to‘lash paytida soliqqa tortiladigan foyda miqdorini aniqlashda imtiyozga egadirlar.

Jumladan, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tashkil qilish, texnikaviy jihozlash uchun yo‘naltirilgan foydani chegirish huquqi taqdim etilgan. Ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan mahsulot hamda qurilish materiallarini yetkazib beradigan ba‘zi bir korxonalar olgan foydasi ushbu korxonalar ro‘yxatga olingan kundan boshlab, dastlabki ikki yil mobaynida soliqqa tortilmaydi.

Mazkur imtiyoz tugatilgan yoki davlat tasarrufidan chiqarilgan yoki sanatsiya natijasida qayta tuzilgan innovatsiya korxonalarini, ularning filiallari hamda tuzilmaviy bo‘linmalariga tegishli emas.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, innovatsiya korxonalarini uchun respublikada qabul qilingan hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida amal qilayotgan barcha imtiyozlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarni bajarayotgan innovatsiya korxonalarini tadqiqot ishlari uchun ilmiy-texnik asbob-uskunalar sotib olgan yilning o‘zidayoq, **50 foizli amortizatsiya** huquqiga, qolgan asosiy mablag‘lar hisobidan esa jadallashgan amortizatsiya huquqiga ega bo‘lishlari lozim.

Sanoat sohasi uchun innovatsiyalarni joriy etadigan korxonalariga litsenziyalar va “nou-xau”larni sotish jarayonda soliqqa tortish vaqtida chegirmalar taqdim etilishi, ishlab chiqarishni kengaytirishni amalga oshiradigan korxonalariga esa soliqqa tortiladigan mablag‘lar hisobidan yangi asbob-uskunalar qiymatini chiqarib tashlash huquqi berilishi lozim.

Oqilona investitsiya siyosatini yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo‘yishning o‘ziga xos afzalliklari yaratiladi. Ko‘pchilik salohiyatli investorlar uchun qimmatli qog‘ozlar aylanish sohasining qonunchilik

bazasini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar, xususi kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan qarz kafolatlari eng jozibador bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni mahalliy va xalqaro bozorlarda tarqatilishi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda "DAV-INSOM" investitsiya firmasi tashkil qilingan. Ushbu firma qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish yuzasidan davlat vakili hisoblanadi.

Salohiyatli sarmoyadorlar erkin pul mablag'larini jalb etishda eng muhim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aksiyalar likvidligi, firmaning reklama-axborot faoliyati, valyuta maydonchasida sotuvga qo'yilgan aksiyalar harakatining tahlili va aksiyalar paketini chet el investorlariga sotish Fond bozori holatining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion biznes bo'yicha faoliyat yuritadigan tadbirkorlar va investorlarning daromadi, investitsiya korxonalarini aktivlarining bozor qiymati o'sishiga belgilangan soliq stavkasiga, ya'ni fond bozorida sotiladigan qimmatli qog'ozlarning sotuv qiymatiga o'rnatiladigan soliq stavkasiga bog'liqdir. Soliq stavkasi innovatsiya korxonalarini moliyalashtirish tavakkalchiligi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun ham qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda dividendlardan, qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan undiriladigan soliq, shuningdek, tarkibiga qimmatli qog'ozlar qiymati kiritilgan korxonalar mulkidan olinadigan soliq kabi undiriladigan turli xil soliqlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Soliq solishning bu kabi amaliyoti natijasida ishbilarmonlik faolligi pasayadi, ya'ni innovatsion korxonalar tashkil topish sur'atlari qisqaradi, oqibatda hozirgi kunda korxonalarining faoliyat yuritish imkoniyatlari kamayib boradi.

Soliq yukining pasayishi innovatsion tadbirkorlikka hamda iqtisodiyotning xususi sektoriga investitsiyalar jalb qilishda ikkilamchi kapital (qimmatli qog'ozlar bozori)ning ahamiyatini oshiradi.

**Shunday qilib, innovatsiya va investitsiya siyosatining asosiy vazifalari:**

- iqtisodiy faoliyatda barqarorlikning ta'minlanishi (soliqlar, foiz stavkalari, amortizatsiya me'yorlari);

- ustuvor sohalarida salohiyatli, istiqbolga ega korxonalarini qo'llab-quvvatlash hamda ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarish sohalariga jalb qilishdan iborat bo'lishi zarur.

AQSh va Buyuk Britaniya mamlakatlari tajribasidan ravshan bo'ladiki, qulay innovatsion tadbirkorlikni tashkil qilish uchun imtiyozli aksiyadorlik opsiyonini qonun asosida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu opsiyonga ko'ra, innovatsion korxonalarining ma'lum bir qismini emissiyadan bir necha yil o'tganidan so'ng, opsiyon berilgan paytdagi nominal qiymatga teng bo'lgan narx asosida sotib olish huquqi taqdim etiladi. Natijada yuqori malakali xodimlar va menejerlar uchun innovatsiya korxonalaridagi mehnat jozibadorligi oshadi, chunki kichik korxonalar yirik korporatsiyalar kabi yuqori ish haqini belgilay olmaydilar, biroq ularda kelgusi foydadan daromad olish imkoniyati mavjud.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari korxonalarining texnik-iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish va kelajakda ushbu



korxonalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Biroq ayrim yirik sanoat korxonalarida texnologik jihatdan ma'naviy eskirgan asbob-uskunalar salmog'i yuqoriligicha qolmoqda.

Prezidentimiz ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek: "...shu bilan birga, bu borada xomashyo import qilish 1,3 barobar ko'paygan. Yirik va hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish muddatlari doimo barbod qilinmoqda ..."<sup>52</sup>.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 15 martdagi 72-sonli "Yirik korxonalar va ishlab chiqarishlarda texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq tashkil etilgan ishchi guruhlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining zamonaviy talablarga muvofiqligini xatlovdan o'tkazish va uning asosida foydalanishdan bosqichma-bosqich chiqarilishi kerak bo'lgan eskirgan va energiyani ko'p talab qiladigan texnologik asbob-uskunalar, ma'naviy eskirgan texnologiyalarning aniq ro'yxatini aniqlash;

- foydalanadigan texnologik asbob-uskunalarining normativ-texnik hujjatlarini tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasini hisobga olgan holda zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati bo'yicha o'rganish;

- tarmoq ishchi guruhlariga ekspertiza o'tkazish va eng maqbul qarorlar ishlab chiqish uchun korxonalar va xo'jalik birlashmalari mablag'lari hisobiga ixtisoslashtirilgan loyiha institutlari, injiniring va konsalting kompaniyalari, asbob-uskunalar, texnologiyalar, jihozlar va vositalar ishlab chiqaruvchi zavodlarning mutaxassislari va ekspertlarini jalb etish.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning jahon tajribasi tahlili ko'rsatishicha, mamlakatni modernizatsiyalash uchun dastlab mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan, sanoatning hozirgi holatini chuqur va konkret baholash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "... iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi"<sup>53</sup>.

O'zbekiston Respublikasining jahon mehnat taqsimotidagi roli va o'zni yuksalib borishini ta'minlaydigan energetika, neft-gaz-kimyoy, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika kabi ustuvor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

<sup>52</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. <http://kun.uz/news/2017.14.01>.

<sup>53</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O'zbekiston, 2010. 43-b.



Ushbu maqsadlar uchun yangi obyektlar qurilishi uchun 354 ta qiymati 32457,8 mln. AQSh doll. ekvivalentidagi mablag'lar sarf etish ko'zda tutilmoqda. Mazkur ustuvor yo'nalishlarni quyidagi 2-jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin:

2-jadval

**2015-2019-yillar ishlab chiqarishni Modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari dasturiga kiritilgan investitsion loyihalar tarkibi bo'yicha yig'ma ma'lumot (million dollar ekvivalenti hisobida)**

Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari nomlari	Jami		Shu jamladan:			
			Takror boshlanadigan va ishlanadigan loyihalar		Xorijiy investorlar va kreditlarni jalb etiladigan istiqbolli loyihalar	
			Loyiha soni	Loyiha qiymati	Loyiha soni	Loyiha qiymati
<b>Jami</b>	<b>876</b>	<b>41045,1</b>	<b>741</b>	<b>19876,2</b>	<b>135</b>	<b>21168,9</b>
Shu jumladan:						
<b>Yangi qurilish</b>	<b>354</b>	<b>32457,8</b>	<b>266</b>	<b>13746,9</b>	<b>88</b>	<b>18711,0</b>
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	522	8587,3	475	6129,3	47	2458,0
<b>Geologiya, TEK, kimyo, neftkimyo va metallurgiya majmuasi (kompleksi)</b>	<b>175</b>	<b>37391,6</b>	<b>127</b>	<b>17066,5</b>	<b>48</b>	<b>20325,1</b>
Yangi qurilish	89	30418,2	55	12299,2	34	18119,1
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	86	6973,4	72	4767,4	14	2206,0
<b>Mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati va mahsulotlarni standartlashtirish majmuasi</b>	<b>79</b>	<b>914,6</b>	<b>46</b>	<b>662,7</b>	<b>33</b>	<b>252,0</b>
Yangi qurilish	2	51,1	2	51,1	-	-
Modernizatsiya va rekonstruksiya qilish	77	863,5	44	611,6	33	252,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

Bu yo'nalishda sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va ilg'or innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o'sib borishini, eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning real sektorlar tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida xorijiy

investitsiyalar va kreditlar hisobidan 22 959,8 million AQSh dollari ekvivalentida mablag'larini jalb etish ko'zda tutilmoqda:

3-jadval

**2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni Modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini manbalari bo'yicha moliyalashtirish ma'lumotlari (million dollar ekvivalentida)**

Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari nomlari	Jami		Shu jumladan:			
	Loyihalar solni	Loyihalar qiymati	O'z mablag'lari	RRRQ Fondi mablag'lari	Tijorat banklari kreditlari	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar
<b>Jami</b>	<b>876</b>	<b>41 045,1</b>	<b>7 692,3</b>	<b>7 095,5</b>	<b>3 297,5</b>	<b>22 959,8</b>
<b>Ulushi jami summada:</b>		<b>100</b>	<b>18,7</b>	<b>17,3</b>	<b>8,0</b>	<b>55,9</b>
<b>Geologiya, TEK, kimyo, neftkimyo va metallurgiya majmuasi (kompleksi)</b>	<b>175</b>	<b>37 391,6</b>	<b>6 229,4</b>	<b>7 095,5</b>	<b>2 081,6</b>	<b>21 985,2</b>
“O'zbekneftgaz” MXK	54	18 650,9	2 512,9	1 636,2	448,1	14 053,6
“O'zbekenergo” DAK	33	8 904,9	1 291,9	2 607,0	-	5 006,0
“O'zbekugol” AB	2	107,5	-	-	107,5	-
“O'ztkimyosanoat” DAK	26	4 785,4	615,4	1 506,2	187,8	2 476,0
Navoiy GMK	25	1 503,6	1 303,6	200,0	-	-
Geologiya DK	1	149,5	-	-	-	149,5
Almaliq TKMK	17	2 456,8	372,6	880,0	1 204,2	-
“O'zmetkombinat” AB	8	820,8	126,9	266,0	127,9	300,0
“O'zKTJM” AB	6	10,1	4,1	-	6,0	-
Toshkent LITSM zavodi	3	2,1	2,1	-	-	-
<b>Mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati va mahsulotlarni standartlashtirish majmuasi</b>	<b>79</b>	<b>914,6</b>	<b>309,2</b>	<b>-</b>	<b>392,0</b>	<b>213,4</b>
“O'zavtosanoat” AK	15	381,5	135,9	-	245,3	0,3
“O'zeltexsanoat” AK	39	268,5	103,8	-	73,5	91,2
“O'zanroprommashxolding” XK	6	144,4	61,0	-	73,2	10,1
Toshkent mexanika zavodi” AB	19	120,2	8,5	-	-	11,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida” PF-4707-sonli farmoni asosida tayyorlangan.

**Iqtisodiyotni rivjlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining oldida turgan pirovard maqsadli vazifalar quyidagilardan iborat:**

- mamlakat iqtisodiyotini miqdor jihatdan keskin o'stirish, ishlab

chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmini oshirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar assortimenti va sifatini bozor talablariga moslashtirish;

- iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish uchun mehnat unumdorligini oshirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning tannarxini past bo'lishini ta'minlash;

- ishlab chiqarishda samarali tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- mehnat, material va energiyani tejashni ta'minlaydigan, mavjud imkoniyatlarni maksimal (to'liq) ishga solish;

- xorijiy investitsiyalarni jadb etgan va qo'shma korxonalarini tashkil etishga ustuvorlik bergan holda dunyo bozorida barqaror va o'sib boruvchi talabga ega mahsulotlar (tovarlar) turlarini o'zlashtirish;

- ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash;

- mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish, nobudgarchiliklar va unumsiz sarf-xarajatlarni bartaraf etish hisobiga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini muttasil oshirib borish;

- sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatdoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda tatbiq etishdan iborat.

**O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini tadbirkorlikning ustuvor yo'nalishiga aylantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:**

- uzoq muddatga (10 yil) hamda yaqin 2-3 yilga mo'ljallangan davlat innovatsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan innovatsiya tuzilmasini rivojlantirish dasturini yaratish. Ushbu dasturda davlat organlari va ilmiy birlashmalarning (O'zR Fanlar Akademiyasi, sohalar bo'yicha ilmiy-texnik va muhandislik jamiyatlari va boshqalar) vazifalari aniq ishlab chiqilishi lozim;

- innovatsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazishning samarali tizimini tashkil qilish. Bu tizimda loyihalarga qo'yiladigan talablar: bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, qaytarilmaslik, mualliflar bilan muloqot, ekspertlarning javobgarligi, ularni rag'batlantirish muddati cho'zilganligi va boshqalar;

- mualliflik huquqiga rioya qilish. fan-texnika va innovatsion firmalar faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratish. Mazkur firmalarda asosiy texnik yechimlarning mualliflari bilan bir vaqtda korxonaga egalari ham hal qiluvchi rol

o'ynaydi;

- innovatsiya tashkilotlari sektoriga moliyaviy qo'yilmalar va real investitsiyalar uyg'unlashuvini ta'minlaydigan innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishning venchur tizimini tashkil qilish;

- innovatsiya loyihalari haqida ma'lumotga ega bo'lgan kuchli axborot tizimini tashkil qilish;

- qonunchilik me'yoriy bazasini, soliq solish, hisoblash tartibi va undirilishini soddalashtirish hamda innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish jihatlarini takomillashtirish;

- innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishning nodavlat tizimini rag'batlantirish;

- qaytarilish asosidagi loyihalar moliyalashtirilishini rivojlantirish, texnoparklar shaklidagi ilmiy tashkilotlar tuzilmasini shakllantirish;

- lizingni rivojlantirish;

- yirik loyihalarga birgalikda sarmoyalar qo'yish uchun moliyaviy uyushmalar faoliyatini rivojlantirish (banklar uyushmasi);

- investitsiya, kredit va sug'urta moliya institutlarini rivojlantirish;

- fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining ikkilamchi bozorini rivojlantirish;

- qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish yo'li bilan ustuvor innovatsion loyihalar hamda O'zbekiston hududlariga chet el investitsiyalari oqimini davlat tomonidan tartibga solinishini takomillashtirish;

- depozitlar va qo'yilmalarga foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan korxonalar va aholining bo'sh pul mablag'larini investitsiya maqsadlariga jalb qilish;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o'zgartirish, xomashyo jarayonidan tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, O'zbekistonning jahon xo'jaligi aloqalariga integratsiyalashuvini jadallashtirish vazifalariga muvofiq ilmiy-tadqiqotlar, ishlanmalar va innovatsiya loyihalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakatimizda investitsiya-innovatsiya milliy maqsadli tizimini yaratishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda strategik ahamiyatga ega tarmoq korxonalarida ma'naviy eskirgan texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va ko'lamlarini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash masalasini yanada dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Istiqbolda iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va bu yo'nalishda maxsus dasturlarni tayyorlashni taqozo etadi.



#### **12.4. Iqtisodiyotning tarmoqlar tizimida innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishning zamonaviy strategiyalari**

O'zbekistondagi amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida ishlab chiqarish korxonalarining real mulk egalari vujudga kelmoqda, biroq korxonalarda innovatsiya jarayonlarini tadqiq etish yoki tadqiq etilganlardan keng ko'lamda foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Respublikamizda barcha sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini va eksport potensialini kuchaytirishda innovatsiyalardan foydalanishni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, bu masalalarning yechimini topishda mazkur jarayonni amalga oshirishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish o'ta muhim o'rinni egallaydi.

Jumladan, kichik biznes sanoat korxonalarida investitsiya-innovatsiya bo'limlarini tashkil etish hamda uning faoliyatini rivojlantirish uchun barcha qulayliklarni yaratish katta iqtisodiy samara beradi. Bu bo'limning faoliyatini rivojlantirishda quyidagi qulayliklarning yaratilishi zarurligini taqozo etadi:

- korxonalarda yuqori malakali ilmiy-texnik kadrlarni, ya'ni mutaxassislikka doir yangiliklarni yarata olish, uni o'zlashtirish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega mutaxassislarni tanlov asosida jalb etish;

- jalb etilgan kadrlarga ularni qoniqtiradigan darajada moddiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish;

- jismoniy yoki yuridik shaxslar, oliy o'quv yurtlari, ilmiy tekshirish institutlari, xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiyalarni rivojlantirishda hamkorlikni yo'lga qo'yishni kuchaytirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Ushbu amalga oshiriladigan faoliyat respublikamizning iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatlarining quyidagi iqtisodiy mexanizmlarini ishga soladi:

- korxonalaridagi mavjud texnologiyalarni yuqori modernizatsiya qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi;

- real sektorlardagi investitsiya oqimlarini samarali o'zlashtiriladi;

- ishlab chiqarish korxonalarini yuqori darajada iqtisodiy rivojlanadi;

- sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijasida tabiiy muhitga ko'rsatayotgan zararining oldi olinadi yoki kamaytiriladi;

- mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlarining import ulushini kamaytirish barobarida eksport ulushini ko'paytiradi.

Jumladan, korxonaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligining kafolati uning faoliyatini samarali innovatsion strategik yo'nalishlarda olib borish hisoblanadi. Innovatsion faoliyat bo'yicha optimal strategiyani tanlash ushbu faoliyatni samarali boshqaruvining tarkibiy qismi bo'lib, ishlab chiqarishda ko'zlangan daromad ulushini ko'paytiradi.

Innovatsiya strategiyasi samaraligini tanlash tadqiqotlarni olib borish, yangi mahsulotlarni yaratish kabi faoliyat turlari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu strategiya asosida strategik rejalashtirish, avvalo, resurslarni oqilona taqsimlash va undan samarali foydalanish, ya'ni korxonalar resurslarini tashkil etuvchi moliyaviy mablag'lar, ishchi kuchlar va texnologiyalardan samarali foydalanishni rejalashtirishdan iborat. Bundan tashqari korxonalar yangi tarmoqlarni barpo etishda inqirozga yuz tutgan

korxonalarni sotib olish orqali samarali “portfeliga” ega bo‘ladi yoki iste‘molga yaroqsiz mahsulotlarni qayta ishlash orqali yangi iste‘molchilarni jalb etadi va hatto yangi bozorlarni egallash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, innovatsiya strategiyasi asosi bo‘yicha korxonalar faoliyatini tashqi muhitdagi har qanday o‘zgarishlarga moslashuvchan rejalarni tuzish va amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda rejada ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida ish o‘rinlarini yaratish, iste‘molga zarur bo‘lgan mahsulot hajmini ko‘paytirish, aholini daromadini oshirish va korxonaning iqtisodiy salohiyati yuksaladi.

4-jadval


**O‘zbekiston Respublikasining fan-texnologiyalar va innovatsiya salohiyatining asosiy indikatorlari**

№	Innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2014-y.
1.	Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalari soni	152	169	171	183	222	222
2.	Tajriba-konstruktorlik tashkilotlari soni	9	11	13	14	19	19
3.	Innovatsion markazlar soni	5	5	6	7	9	13
4.	Innovatsiya fan-texnika dasturlari soni	185	197	179	194	171	243

Manba: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari: statistik to‘plam. – T.: O‘zbekiston, 2011. 119-b.

**Innovatsion strategiya nazariy va empirik (amaliy) tadqiqotlar olib borishning muhim yo‘nalishi bo‘lib, uni amalga oshirishda qabul qilgan qarorlar yangiliklardan foydalanish darajasi bo‘yicha strategik va moliyaviy samaradorligi o‘sib boradi. Shuning uchun rahbariyat yangiliklarni qabul qilishiga ijobiy munosabatda bo‘lsa, uni joriy etish ehtimoli yuqori bo‘ladi va belgilangan strategik maqsadga erishiladi.**

Strategik maqsadga erishishda avval maqsad aniq va to‘g‘ri ifodalanishi, tashqi omillarning (mavjud imkoniyatlar, xavf-xatar, raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlari) tahlillarini aniq olib borish, shundan so‘ng innovatsiya strategiyasini tanlash zarur. Hozirgi vaqtda zamonaviy innovatsiya strategiyalardan, ya‘ni yuqori samaraga ega bo‘lgan hujumkor, mudofaa, immitatsion (o‘xshash) strategiyalardan foydalanish korxonalar uchun zarurdir (3-rasm).



**3-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirishdagi zamonaviy strategiyalar**

Mahba: Muallif ishlanmasi.

**Hujumkor strategiyada** tadbirkor innovatsion mahsulotlarni birinchilardan bo'lib o'zlashtiradi va bozorga olib chiqadi. Shu orqali tadbirkor o'z faoliyatining raqobatbardoshligini oshiradi va o'zi uchun ko'p daromad olishiga imkoniyat yaratadi.

Chunki hujumkor strategiya asosida mahsulotlarni o'zlashtirilishida uning raqobatchisi bo'lmaydi. Bu yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar yangicha yondashuvlar asosida ommalashmagan ishlab chiqarish bilan ko'proq shug'ullanadilar. Bu esa ularni birinchilar qatorida bo'lishni ta'minlaydigan muhitni keltirib chiqaradi. Hujumkor strategiya asosida boshqa ishlab chiqaruvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatish mumkin.


Shuning uchun innovatsiyalarni korxonada qo'llashdan avval "SWOT" tahlillarini o'tkazib borish yo'lga qo'yiladi.

**Mudofaa strategiyasida** ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarini amalga oshirishdagi bosh vazifasi "xarajat-natija" nisbatlarini jadallashtirish hisoblanadi, ya'ni olib boriladigan innovatsion faoliyatning natijalarini iste'molchilari avvaldan ma'lum bo'lishi kerak. Bunday strategiyalar raqobatchilar bilan hisoblashib yoki ularning ham xatti-harakatlarini inobatga olib amalga oshiriladi. Biroq barcha faoliyatlar korxonalar manfaatiga bo'ysundirilgan bo'ladi.

**Immitatsion strategiyadan** yangiliklardan foydalanish bo'yicha faol bo'lgan korxonalar tomonidan qo'llaniladi. Bunday strategiya texnologik va bozor pozitsiyasi kuchli bo'lgan kichik innovatsiya firmalari tomonidan olib chiqilgan yangiliklarning asosiy iste'mol xususiyatini belgilaydi. Iste'molga qarab yangiliklarni amalga oshirib borish yo'lga qo'yiladi.

Strategik turlarni korxonalar o'z faoliyatidagi maqsad turini, iqtisodiy potensialini

va moliyaviy mablag'larini, tashqi omillarni to'la qilingan tahlillari asosida tanlash zarur.



Manba: Muallif ishlanmasi.

Texnika taraqqiyotining asosiy vazifasi ijtimoiy mehnatni har tomonlama tejash va ishlab chiqarishning yuqori sur'atlar bilan o'sishini ta'minlashdan iborat.

Kichik biznes korxonalarida innovatsiyalarni qo'llashda uch asosiy bosqich hisobga olinadi:

**Birinchi bosqich**, ilmiy tadqiqot bo'lib, bunda ilmiy g'oyalarni shakllanishiga doir ishlar amalga oshiriladi. Ma'lum bir texnologik jarayonni yangilash nuqtayi nazardagi yangicha yondashuvlar sinovdan o'tkaziladi. Sinov muddatida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Tadqiqotlar natijalarida aniq ko'rsatkichlarda namoyon bo'lib, ilmiy xulosalarga kelinadi. Ilmiy xulosalar asosida mavjud jarayonlarni yangilashdagi yondashuvlar ijobiy yoki salbiy natijalar berishi qayd etiladi. Shunday xulosalarga qarab, muayyan yangilikni amaliyotga joriy etish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

**Ikkinchi bosqich**, loyiha-texnika jihatdan ishlab chiqish. Bu bosqichda texnologik chizmalar, loyihalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari ko'tariladi. Agar mavjud mahsulotni takomillashtirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar har tomonlama o'rganiladi. Loyihalashtirish jarayonda yuzaga kelgan muammolar tahlil etilib bartaraf etib boriladi. Buning natijasida kelgusida yaratilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish haqida yanada aniqroq tasavvur hosil bo'ladi.

**Uchinchi bosqich**, ishlab chiqarishda o'zlashtirish. Bu bosqich bevosita ko'pchilikning mehnatini talab etadigan bosqich hisoblanadi. Ishlab chiqarishda xomashyodan ratsional foydalanish kerak. Bugungi kundagi ishlab chiqarish jarayonda texnikadan foydalanmaslik mumkin emas. Chunki ishlab chiqarish jarayonlarida sifat ko'rsatkichlarining ustuvor bo'lishi yangi texnika yoki texnologiyalarni qo'llanilishi bilan belgilanmoqda.

Mamlakatda ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi



**PQ-916-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi.**

Mazkur qarorga asosan o'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarishlari uchun qator imtiyozlar belgilab berildi. Shu bilan birga har yili Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Amalga oshirilgan tahlillar mamlakatda innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish milliy ichki mahsulot hajmini taxminan 50-60 %ga oshirish imkonini berishidan dalolat beradi<sup>54</sup>.

O'zbekistonda bugungi kunda davlat fan-texnikaviy dasturlarida ko'zda tutilgan innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda 200 tadan ko'proq ilmiy tadqiqot muassasalari ishtirok etmoqda. Birgina O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida 26 ta ilmiy tadqiqot instituti innovatsion faoliyatining 70 ta yo'nalishi bo'yicha ish olib bormoqda. Ular kon-metallurgiya sanoati, neft-kimyo, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi kabi sohalarni qamrab ogan<sup>55</sup>.

Respublika miqyosida 2014-yilda o'tkazilgan VII Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasida qariyb 14,1 mlrd. so'mlik 320 ta innovatsiya g'oyalari, texnologiyalar va loyihalarini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha shartnoma imzolangan<sup>56</sup>.

Bu ijobiy natijalar Kanel universiteti, INSEAD biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan 2007-yildan e'tiboran e'lon qilinib kelinayotgan "Global innovatsionniy indeks-2014" reytingida o'z ifodasini topdi. Mamlakatimiz innovatsion faoliyatni amalga oshirish sharoitlari (inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, ichki bozorning va biznesning rivojlanishi) va erishilgan amaliy natijalar (texnologiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, kredit faoliyati natijalari) bo'yicha 2013-yildagiga nisbatan 5 pog'ona yuqoriga ko'tarilgan<sup>57</sup>.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda biznes bilan hamkorlikda hamda universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari huzurida qator kichik innovatsion korxonalar faoliyat olib bormoqda. Ammo ular ko'p sonli-mamlakatda atiga 51 ta mikrofirm va kichik korxonalar innovatsiyalarini amalga oshirish bilan shug'ullanayotganligi qayd etilgan<sup>58</sup>.

Buning o'z obyektiv va subyektiv sabablari mavjuddir. Innovatsion faoliyatni, shu jumladan venchur biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha qo'mita huzurida Innovatsion fan-texnikaviy faoliyatni moliyalashtirish fondi tashkil

<sup>54</sup> Курпаяниди К.И. Инновационная составляющая предпринимательской среды-как катализатор экономического роста. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2011, 1-son //http://www.iqtisodiyot/uz.


<sup>55</sup> Инновации в Узбекистане и что изобретают у нас. //Портал научно-технической информации Академии Наук Республики Узбекистан. //http://uz.in.

<sup>56</sup> Инновации и предпринимательство. //http://www.innovbusiness./secion.

<sup>57</sup> Глобальный инновационный бизнес 2014//http://www.wpo.int/pressroom/ru/articles/201.

<sup>58</sup> Халилов У. Развитие малого инновационного предпринимательства один из факторов повышения конкурентоспособности экономики//http://www.biznes-duly.uz.

etilgan. Ushbu fond tomonidan innovatsion loyihalar tanlov asosida saralanib, ularni davlat, shuningdek, manfaatdor tomonlarning mablag‘lari hisobiga amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Lekin ushbu mexanizm kichik innovatsion korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish uchun u qadar mukammal emas.



Manba: <http://www.bestreferat.ru/referat-126025.html>

**Ekspertlarning fikricha, bu quyidagilar bilan izohlanadi:**

- birinchidan, tanlov topshiriqlari yirik, asosan, davlat korxonalarining muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan va bu yo‘nalishda kichik biznes subyektlarining ishtirok etishini nazarda tutmaydi;
- ikkinchidan, ajratilayotgan mablag‘lar chegaralangan va yirik innovatsion loyihalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yetarli emas;
- uchinchidan, budjetdan tashqari jalb etilayotgan mablag‘lar uchun soliq va boshqa imtiyozlar ko‘zda tutilmagan.

O‘z navbatida kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatiga yetarlicha baho berilmaydi.

**Ta’kidlash joizki, mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:**

- birinchidan, xususiy sektorning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi lozim (bu yuqorida qayd qilingandek, yangi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topib, mustahkamlab qo‘yilishi lozim);
- ikkinchidan, ishbilarmon muhitni (sertifikatsiyalashni, standartlashni, eksport-import operatsiyalarini yanada soddalashtirish) takomillashtirish lozim;
- uchinchidan, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini (innovatsiya sohalaridagi kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash fondini tashkil etish, qo‘shimcha soliq imtiyozlarini berish, budjet mablag‘lari hisobiga moliyaviy lizingni joriy etish va hokazolar) joriy etish;
- to‘rtinchidan, innovatsion infratuzilmalarni (texnoparklar, biznes inkubatorlari, innovatsion-texnikaviy markazlarni) rivojlantirish va hokazo.

Bizning mamlakatda bugungi kunda korxonalarda innovatsiyalarni qo‘llash darajasini oshirish talab etiladi. Buning uchun davlat siyosatida innovatsiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ustuvorlik qilmoqda. Buning uchun uning motivatsiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda. Eng muhimi mamlakatimizda huquqiy,

iqtisodiy va tashkiliy baza tobora takomillashib bormoqda. Shuning uchun korxonalarda innovatsion faoliyat motivatsiyasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ammo ba'zi korxonalarda hamon innovatsion faoliyat motivatsiyasining muammolari haqida so'z yuritish mumkin, aniqrog'i ayrim korxonalarni innovatsiyalarni qo'llash jarayonlari juda sust.

Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni kengaytirish unumli ish joylarini tashkil etish vazifasi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalarning raqobatdoshligini ta'minlash, "nou-xau" namunalarni yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir"<sup>59</sup>.

Mutaxassis-iqtisodchilarning hisoblab chiqishlaricha, mamlakat yalpi ichki mahsulot hamining 4,0-6,0 %ga o'sishi aholining ish bilan bandlik darajasini 2,7 %ga ko'paytirish imkonini beradi. Kichik biznesni rivojlantirishda shu darajada o'sish esa ish bilan bandlikni 7,9 foizga oshiradi<sup>60</sup>.

Mamlakatda tijorat banklari tomonidan bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun qo'shimcha investitsiya kiritish, ularda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish mexanizmining yo'lga qo'yilganligi unumli ish o'rinlari yaratishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda unumli ish o'rinlarini yaratish salmoqli mablag' talab etadi. Mutaxassis-ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, bitta innovatsion ish o'rnini yaratish uchun o'rtacha 4,0-4,5 ming AQSh dollari sarf qilinadi<sup>61</sup>.

Hozirgi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida innovatsiyalardan foydalanish va uni ishlab chiqarishga tatbiq etish va u asosida tovarlar ishlab chiqarib, bozorda raqobatbardoshlikni oshirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika taraqqiyoti – texnologiya, mehnat vositalari va qurollarining har tomonlama takomillashuvidan hamda ishlab chiqarishni ilg'or tajribaga asoslangan holda zamonaviy fan va texnika yutuqlarini qo'llash orqali tashkil etishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiyotining oldida juda muhim strategik masalalardan biri – bu korxonalarda innovatsiyalarni qo'llashdagi salohiyatni oshirishdir. Bu masala texnologik krizisdan chiqish va ishlab chiqarishning past industrial texnologik usulining shakllanishining tugunli yo'nalishlarida uzilishlar paydo bo'lishdan saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion strategiyalarini to'g'ri va oqilona tanlash korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, shu bilan birga eksport potensialini ko'taradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

<sup>59</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. <http://kun.uz/news/2017.14.01>.

<sup>60</sup> Карпухин Д.И. Достижение достойного труда при создании и модернизации рабочих мест. – М.: ИЭ РАН. 2014. С. 41.

<sup>61</sup> Как стимулировать создание новых рабочих мест. //http://finan.fm

## **12.5. Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari**

Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash iqtisodiyotni diversifikatsiya jarayonlarida juda zarur. Ilmiy ishlab chiqarish korxonalarini yangi texnologiyani tatbiq etgan holda yangi, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar asosini tashkil qiladi. Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi esa ko'p jihatdan ushbu korxonalar faoliyatini muayyan baholanishini ta'minlaydigan uslubiy va metodologik moslamalar qo'llanilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan, ishlab chiqarish korxonalarining moliya-xo'jalik, innovatsiya va investitsiya faoliyatini tahlil qilish va baholash, bundan to'g'ri va foydali xulosalar chiqarish, muammoning yechimini topish to'g'risidagi masalalar rivojlangan mamlakatlar, xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kichik korxonalarining moliyaviy faoliyati tahlili uchun maxsus standart koeffitsiyentlar ishlatiladi. Buning uchun shu sohaning kuchli mutaxassisi bo'lish shart emas, eng muhimi, bu ma'lumotlardan to'g'ri va samarali foydalanishni bilish zarur.

Moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning nisbatini ishlatish (koeffitsiyentlar) uslubi yaxshi natijalar berishi mumkin. Koeffitsiyentlar tizimi korxonaning moliyaviy holati va ishlab chiqarish faoliyati natijalaridagi o'zgarishlarni ko'rsatadi, ularning o'zgarish tarkibini va noaniqliklar, tavakkalchiliklar keltirib chiqaradigan salbiy omillarni ko'ra bilishga yordam beradi.

Korxonaning faoliyati va uning tahlili juda ko'p subyektlar: kreditorlar, davlat boshqaruv organlari va raqobatdagi firma mutaxassislari uchun zarur. Ammo ular o'z maqsadlaridan kelib chiqib, faoliyatni baholashda har xil nuqtayi nazardan yondashadilar.

Ularni ko'proq korxonaning nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlari, balki uning moddiylashmagan, intellektual mulklari, ilmiy salohiyati, innovatsion va investitsion aktivligi ko'rsatkichlari ham qiziqtiradi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashga yo'naltirilgan usullari ularning mulk va faoliyat yuritish shakli hamda boshqa shunga o'xshash omillariga qarab har xil bo'ladi.

Korxonalar faoliyatining kreditorlar, ssuda beruvchi firmalar tomonidan baholanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Kreditor yoki ssuda beruvchi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan korxonani mablag' bilan ta'minlab, o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Shuning uchun kreditor uzoq yillarga qarz berayotganda korxonaning faoliyatida kutilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni, tavakkalchiliklarni diqqat bilan tahlil qiladi. Bunday baholash kreditorni qanchalik himoyalanganligini va korxonani qarz kapitaliga qanchalik bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Yuqoridagi me'yoriy koeffitsiyentlar tizimi korxonaning rahbariyatining ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan qarorlariga asos bo'ladigan tahlillar uchun ishlatiladi. Moliyaviy hisobot korxonaning faoliyatini baholashdagi asosiy hujjat hisoblanadi. Odatda, tajribali auditorlar o'z ishini faqat moliyaviy hisobotni o'rganishdan



boshlaydi, ularning korxonaning ilmiy-texnik salohiyati yoki intellektual mulklari qiziqitirmaydi.

Tahlillardan shu narsa ko'rinib turibdiki, bozor sharoitida korxonalarining yaxshi faoliyat ko'rsatishining asosiy omili innovatsiya bo'lsa ham, tahlil jarayonlarida e'tibor faqat quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlargagina qaratilmoqda:

- moliyaviy koeffitsiyentlar to'plami;
- moliyaviy ko'rsatkichlar;
- korxonaning o'z kapitalidan foydasi;
- moddiy aktivlarning bozor va balansli qiymatlari nisbati;
- o'z-o'zini qoplash koeffitsiyenti.

Shu munosabat bilan hozirgi kuchli raqobat sharoitida ilmiy ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini, ayniqsa, innovatsiya faoliyatini tahlil qilishning yangi, samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etish muhim hisoblanadi.

***Diversifikatsiya sharoitida korxonada innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi juda muhim ahamiyatga ega.*** Ilmiy faoliyat davlat siyosatining an'anaviy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Gap shundaki, maqsadi foyda olish bo'lgan ilmiy g'oyalarni bevosita to'g'ridan to'g'ri xo'jalik faoliyatiga qo'llash mumkin emas. Shu sababli kichik biznes korxonalari va xususiy tadbirkorlar tadqiqotlarni moliyaviy ta'minlashda ehtiyotkor bo'ladilar, vaholanki, ularning natijalaridan manfaatdordirlar.

Hozirgi zamon sharoitida biznesni innovatsion jarayonning muhim resurslaridan biri bo'lgan ilmiy g'oyalar va bilimlar bilan ta'minlash funksiyasini o'z tarkibiga oladi. Xuddi shuning uchun ham yetakchi davlatlarning rasmiy hujjatlarida ilmiy-texnik taraqqiyot yagona zanjir sifatida ko'riladi: ilmiy g'oyalar va ishlab chiqilgan ishlanmalar – innovatsion biznesni keng ko'lamli rivojlanishini ta'minlaydi.

MDHning boshqa davlatlari kabi bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni amalga oshirayotgan O'zbekistonimiz uchun ham ilm va texnika doirasini davlat tomonidan boshqarishning oqilona shakllarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Chunki fan-texnika taraqqiyoti (FTT) iqtisodiy o'sishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.


Jahon yetakchi davlatlari ilmiy va innovatsion siyosatining maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakat iqtisodiyotining o'sishida ilm va texnika ulushini oshirish;
- moddiy ishlab chiqarishda progressiv o'zgarishlarni ta'minlash;
- jahon bozorida milliy mahsulotimizning raqobatbardoshligini oshirish;
- mamlakat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash;
- ekologik muhitni yaxshilash;
- mavjud ilmiy maktablarni saqlash va rivojlantirish.


Davlat o'z siyosatining maqsadlarini aniqlash bilan bir vaqtda prinsiplar va bu siyosatni amalga oshirish mexanizmini ham ishlab chiqadi. Bu prinsiplar mamlakatda shakllangan xo'jalik tizimi va davlat institutlarining iqtisodiy faoliyatiga ta'sirining chuqurligiga bog'liqdir.

Ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining shakllangan mexanizmi 4-rasmda keltirilgan.

**A. Ilmiy faoliyatning davlat tomonidan quvvatlanish ko'rinishlari**



**B. Innovatsion faoliyatning davlat tomonidan quvvatlanishi ko'rinishlari**



**4-rasm. Ilmiy (A) va innovatsion (B) faoliyatning davlat tomonidan quvvatlanish ko'rinishlari**

Manba: Muallif ishlanmasi.

**Ilmiy va innovatsion faoliyatda davlat siyosatining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:**

- ilmiy va ilmiy-texnik ijodning erkinligi;
- intellektual mulkning huquqiy hisoblanishi;
- ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat va ta'lim integratsiyasi;
- ilm va texnika sohasida raqobatni quvvatlash;
- ilmiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida resurslarni konsentratsiyalash;
- ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatda ishbilarmonlikni rag'batlantirish.

**Jahon amaliyotida qo'llab-quvvatlash darajasi va shakllari bo'yicha quyidagi ko'rinishlar mavjud bo'ladi:**

- faol aralashgan davlat strategiyasi;
- nomarkazlashgan;
- aralash.

**Respublikamizda xorijiy sarmoyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

**Birinchidan,** tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yurgizish.

**Ikkinchidan,** respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish.

**Uchinchidan,** respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, xalq xo'jaligining zamonaviy tarkibini vujudga keltirishda ko'maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan eshiklarni ochib qo'yish siyosatini izchillik bilan o'tkazish.

**To'rtinchidan,** mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishlarda jamlash.

**Respublikada xorijiy imtiyozlarning keng tizimini vujudga keltirgan xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimida:**

- ishlab chiqarish hajmida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti kamida **30 foizni** tashkil etadigan korxonalariga, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan **ikki barobar kamroq to'lash** huquqini berish;

- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar **to'lashdan 5 yil muddatga ozod etish;**


- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni **ruxsatnomasiz bemaolol chetga olib ketish;**

- O'zbekiston hududida qo'shma korxonalarining va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarining ustav fondiga hissa qo'shish uchun mol-mulkni chetdan **boj to'lovlarsiz olib kirish;**

- jismoniy va yuridik shaxslarning, jumladan, ajnabiylarning davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida, shu jumladan, ko'chmas mulkning keng miqyosda sotilishida bemalol ishtirok etishlarini ta'minlash;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish ko'zda tutilgan.



Manba: <http://refdb.ru/look/1453722-pall.html>

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida innovatsiya va fan-texnika sohasidagi siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:**

- ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etish;
- innovatsiya va fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarni yuzaga chiqarish.

Davlatning iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va sanoat korxonalarini texnologik jihatdan qayta qurollantirishning asosiy instrumentlari – davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishdir.

**Mazkur dasturning maqsadlari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:**

1. Natijalari o'rta muddatli sharoitlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi, ilmiy va texnologik innovatsiyalarni davlat tomonidan tashkillashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

2. Fan-texnika tadqiqotlari – amaliy-texnik tadqiqotlar texnologiyalar – raqobatbardosh mahsulotni sanoat ishlab chiqarish siklining uzluksizligini ta'minlash.

3. Dastur doirasida ishlab chiqilgan va o'zlashtiriladigan, progressiv, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga hamkorlik qilish.

4. Ilmiy innovatsiya va sanoat sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish.

**Davlatning fan-texnika taraqqiyotini boshqarish sohasidagi tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:**

- davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlari;
- belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funksiyalari;
- boshqaruv funksiyalarini to'liq amalga oshirishda tartibga solish obyekt va axborot beradigan axborot tizimi;



- davlat boshqaruv organlarining qo'llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari.

**Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo'ladi, balki:**

- davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o'rtasida budjet va budjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali fan-texnika yangiliklarini davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri qo'llab-quvvatlash;

- innovatsion jarayonlarning subyektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etish (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga, ham ularni u yoki bu darajada qo'llab-quvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);

- iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy-texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o'rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanishini prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta'minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta'minlashdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishda soliq imtiyozlari muhim rol o'ynaydi. Ular kichik biznes korxonalarini faoliyatining davlat xohlagan yo'nalishlarini, shu jumladan, ilmiy-texnik taraqqiyotni, eksport va innovatsion biznesning faoliyat yo'nalishi rag'batlantirishga qaratilgan bo'ladi.

**Soliq imtiyozlarining asosiysi sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:**


- yangi asbob-uskuna va kapital qurilishga ajratilgan kapital qo'yilmalar miqdorida foydadan chegirmalar;

- ilmiy tadqiq uchun sarflangan xarajatlar hajmini soliqqa tortiladigan daromadlardan chegirish;

- ilmiy tadqiqotlar uchun ishlatiladigan ayrim turdagi asbob-uskunalar xarajatlarini joriy xarajatlar sifatida yuritish;

- foyda fondidan soliqqa tortilmaydigan maxsus fondning shakllantirilishi;

- foydani pasaytirilgan tarzda soliqqa tortish.



Manba: [tp://innovation-village.com/nigerian-companies-pay-lip-service-innovation/](http://innovation-village.com/nigerian-companies-pay-lip-service-innovation/)

Alohida qayd etish kerakki, Yevropa mamlakatlarida innovatsion faollikni

oshirish maqsadida davlat kadrlar tayyorlashni tez-tez rag'batlantirib turadi. Masalan, Fransiyada kadrlar tayyorlashga xarajatlarning 25 foiziga oshishi ularni soliqdan ozod etadi. Ishsizlik sur'atlari katta hududlarda bunday xarajatlar, umuman, soliqdan ozod etiladi.

Agar mavjud instrumentlar harakat yo'nalishi, tartibga solish obyektining muhim muammolarini yechishga qaratilgan bo'lsa, unda u ideal hisoblanadi. Ammo bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar davrida hech qanday siyosat takomillashgan bo'la olmaydi va iqtisodiyotning erkinlashuvi shartlarini inobatga olgan holda davlatning strategik va joriy maqsadlari ko'pchilik holatlarda bir-biriga, qarama-qarshi va doimiy o'zgaruvchan bo'ladi. O'z navbatida fan-texnika taraqqiyotini qo'llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi instrumentlarning shakllanishi zaruriy rag'batlantiruvchi siyosatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va fan-texnika taraqqiyotining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi amalga oshirilayotgan bugungi kunda, fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishning moliyaviy dastaklaridan samarali foydalanish, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi.

### Xulosa

O'zbekiston nafaqat xomashyo, balki tayyor mahsulotlar yetishtiradigan davlatlar qatoridan joy olgan. Respublikada amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari zamonaviy texnikalarni qo'llash imkoniyatlarining yaxshilanib borayotganligi, innovatsiyani keng tarzda qo'llanilayotganligidan dalolat beradi.

Innovatsiyani qo'llash maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratildi. Shunday ekan, iqtisodiyotning kichik biznes sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatlarni kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda yangi texnika iqtisodiyotning turli tarmoqlariga keng ko'lamda joriy etilmoqda. Bu borada talaygina ishlar amalga oshirildi. Ammo biz qo'lga kiritgan yutuqlarimizga emas, balki yuzaga kelayotgan muammolarimizni hal etishga tomon siljib boruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirib, milliy iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga sharoit yaratish yo'lini tanladik. Shu bois innovatsiyani qo'llash masalalarida salmoqli natijalarga erishib bo'ldik, degan xulosaga kela olmaymiz.

Bugungi kunda kichik biznes korxonalarini faoliyatida innovatsiyani qo'llashdagi muammolar quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- aniq bozorlarning doimiy o'zgaruvchanligi;
- bozor muhitiga ishlab chiqarishning tez va to'g'ri moslashuvdagi qiyinchiliklar;
- bozor o'zgarishlariga ko'ra joriy va o'rta muddatli rejalarga tegishli

tuzatishlar kiritishdagi qiyinchiliklar;

- o'zgarib qolgan rejalarga bog'liq holda xarajatlarni minimallashtirishdagi qiyinchiliklar.

Bundan tashqari ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ancha sust darajada tashkil etilgan. Innovatsiyalarni qo'llash esa aynan ilmiy yo'nalishdagi kadrlarga bog'liq.

**Shu sababli innovatsiyalarni qo'llashda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:**

- marketing sohasidagi izlanishlarni zamonaviy tamoyillarga moslashtirish va uni amalga oshirish;

- innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda bozor muhitiga mos o'zgaruvchan vaziyatlarni va favqulodda ro'y berishi mumkin bo'lgan jarayonlarni avvaldan o'rganish choralarini topish;

- kichik biznes korxonalarida malakali va ilmiy kadrlarni ko'paytirish;

- biznes rejalarni tuzishda puxta yondashuvlarga asoslanish;

- kichik biznes va yirik korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va kengaytirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ishlarni davom ettirish.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Innovatsiya so'zining ma'nosi nimani anglatadi, uning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

2. Innovatsion faoliyatda statik foyda deganda nima tushuniladi?

3. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bosqichlarining mohiyati va ahamiyatini izohlab bering.

4. Innovatsion faoliyatning infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?

5. Innovatsion faoliyatning xorij tajribalarini izohlab bering.

6. Venchur biznesi deganda nimani tushunasiz?

7. Kichik biznesda innovatsion faoliyatning asosiy omillari, moliyalashtirish tartibini izohlab bering.

8. Innovatsion jarayonlarning zamonaviy strategiyalarini ifodalab va izohlab bering.

9. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ko'rsatib bering.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'grisida"gi qonuni. – T.: 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

2. "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 15-dekabrdagi “2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi № PQ-1442-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari: statistik to‘plam. – T.: O‘zbekiston, 2011. -119 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlashning dasturiy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-4707-sonli farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

8. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

9. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. 43-b.

11. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2012. -261 bet.

12. Войтов И.В., Анищик В.М., Гришанович А.В., Толочко И.К. Инновационная деятельность и венчурный бизнес. Научно методическое пособие. Минск. ГУ «БелИСА». 2011. С. 263.

13. Брилина Г.И. Инновационные возможности Российского малого бизнеса //Вестник Московского Университета. 2014, № 1, с. 212.

14. Карпухин Д.И. Достижение достойного труда при создании и модернизации рабочих мест. – М.: ИЭ РАН, 2014. -289 с.

15. Халилов У. Развитие малого инновационного предпринимательства один из факторов повышения конкурентоспособности экономики. //http://www.biznes-duly.uz.

16. Инновации в Узбекистане и что изобретают у нас. /Портал научно-технической информации Академии Наук Республики Узбекистан. //http://uz.in.

17. Инновации и предпринимательство. //http://www.innovbusiness/secion.

18. Глобальный инновационный бизнес – 2014. //http://www.wpo.int/pressroom/ru/articles/201.

19. SNRS – Fransiyada faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy markazi sayti.



## 13-bob. INVESTITSIYA TAVAKKALCHILIGI VA ULARNI PASAYTIRISH YO‘LLARI

13.1. Investitsiya faoliyatida tavakkalchilik va uning xususiyatlari.

13.2. Iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida investitsiya loyihalarining tahlili.

13.3. Investitsiya loyihalari tahdidlarining asosiy turlari tavsifi.

13.4. Investitsiya loyihalari tavakkalchiligini (risk) hisoblash usullari va ularni pasaytirish yo‘llari.

*Tayanch iboralar: tavakkalchilik, investitsiya loyihasi tavakkalchiligi, diskont, fors-major tavakkalchiligi, sug‘urtalanadigan va sug‘urtalanmaydigan tavakkalchiliklar, boshqaruv, sotish, moliya, kredit, valyuta tavakkalchiliklari, qayta moliyalashtirish, siyosiy, iqtisodiy, ma‘muriy, huquqiy va regional tavakkalchiliklar, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxira darajasi, sezgirlik, sug‘urtalash.*

.....

### 13.1. Investitsiya faoliyatida tavakkalchilik va uning xususiyatlari

**Tavakkalchilik** grekcha *ridsicon*, *ridsa* so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘qotish, *skala* degan ma‘noni anglatadi – bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda, daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo‘lib qolish ehtimolidir.

**Tavakkalchilik**, boshqacha qilib aytganda, kutilishi mumkin bo‘lgan xatar – investitsiyadan mo‘ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo‘lgan noaniqlikdir. Shu bilan birga potensial investor tomonidan qo‘yilgan pul mablag‘larini yo‘qotish mumkinligi hamdir.

**Tavakkalchilik** tushunchasiga juda ham yaqin bo‘lgan noaniqlik tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u tavakkalchilikning aniq turlarini tasniflash uchun “tavakkalchilik” atamasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Noaniqlik deganda, investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma‘lumotlarni to‘la yoki aniq emasligi tushuniladi. Masalan, inflyatsiya, texnika va texnologiyalardagi o‘zgarishlar haqidagi loyiha quvvati, obyektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, xarajat va natijalarning noto‘g‘ri hisob-kitobi kabi ma‘lumotlarning to‘la yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik kelib chiqadi. Bundan tashqari noaniqlik deganda, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatga yetarlicha baho bermaslik va boshqa shu kabilar tushuniladi. Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog‘liq ko‘ngilsiz holatlar va oqibatlar noaniqligi tavakkalchilik tushunchasi bilan izohlanadi.

**Xulosa qilib aytganda, tavakkalchilik – oqibatning yaxshi bo‘lishiga umid bog‘lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat deb, ta‘rif berish mumkin.**

**Tavakkalchilik bilan noaniqlikning farqi shundaki, natijalar ehtimolligi joriy davr ma‘lumotlari asosida baholanayotgan vaqtda tavakkalchilik e‘tiborga olinadi. Noaniqlik esa bunday ehtimollik o‘tgan va kelasi davr ma‘lumotlari yetishmasligi yoki to‘la emasligi sababli subyektiv aniqlangan vaqtda e‘tiborga olinadi. Har qanday**

holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyatsiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish, sotish va boshqalar) kelajakning ma'lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo'lishi mumkin. Chunki o'tgan davr ma'lumotlari asosida faqat noma'lum kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'tgan rivojlanish tendensiyasini aniqlash mumkin.


O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish ma'lum darajada uch guruh omillarga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish ma'lum darajada uch guruh omillarga bog'liqligi:

Birinchi omil:	Ikkinchi omil:	Uchinchi omil:
investitsiya quvvatining mavjudligiga	mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egaligi	investitsiya tavakkalchiligi
tabiiy, mehnat zaxiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi	umumiqtisodiy, bozor, me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlanish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar	xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turishi

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Misol uchun, yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Bozor iqtisodiyotida bo'lgan ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun investitsiya tavakkalchiliklari tavakkalchiliklarning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.



Manba: <http://www.softportal.com/software-3025-investitsionnij-analiz.html>

Mamlakatdagi investitsiya faoliyati iqtisodiyotning ustuvor sohalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan belgilanmoqda. Investitsiya loyihalarini kelajakka tegishli bo'lganligi sababli ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator

kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlariga ega bo'lgan hollarda, qaror tavakkalchilik yoki noaniqliklarga ega deb hisoblanadi.

1-jadval

**O'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlar uchun investitsiya tavakkalchiliklari turlarini baholash**

Tahdidlar turlari	O'tish iqtisodida bo'lgan mamlakatlar		
	Sharqiy Yevropa mamlakatlari	Boltingbo'yi mamlakatlari	MDH mamlakatlari
Qonunchilik tavakkalchiligi			
Qonunchilik asoslari nomukammalligi	*	*	**
Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi doimiy o'zgarishlar	*	*	***
Hujjatlarni talqin etishdagi ko'p ma'nolilik	*	*	**
Ijtimoiy tavakkalchilik			
Ishsizlik darajasi	**	*	***
Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari	***	**	*
Aholi real daromadlari dinamikasi	*	*	***
Har bir band kishiga nisbatan ish haqi bo'yicha o'rtacha yillik qarzdorlik darajasi	*	*	***
Siyosiy tavakkalchilik			
Aholining davlat siyosatiga ishonchi	**	*	*
Ichki va tashqi xavfsizlik	**	*	**
Kriminal tavakkalchilik			
Mulkni o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar soni	*	*	**
Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar soni	*	*	***
Iqtisodiy tavakkalchilik			
Davlat budjeti tanqisligi holati	*	*	**
Yillik inflyatsiya darajasi	**	**	***
YAIM o'sishi	*	**	***
To'lov balansi holati	*	*	**
Sanoat ishlab chiqarish dinamikasi	*	*	**
Zarar bilan ishlayotgan korxonalar ulushi va bankrot bo'lgan korxonalar soni	*	*	***
Asosiy fondlarning eskirishi	*	*	**
Korxonalar debitorlik-kreditorlik qarzlarning aylanma mablag'larga nisbati	*	*	***
Ekologik tavakkalchilik			
Ekologik noqulay hududlar mavjudligi	*	*	***
Zararli chiqindilarni chiqarib tashlash natijasida atrof-muhitning zararlanishi	**	*	***
Radiaktiv fon o'rtacha darajasi	*	*	**

Izoh: \* – eng kam tahdid, \*\* – o'rtacha tahdid, \*\*\* – yuqori tahdid.

Manba: ETTB va Jahon banki tahliliy materiallaridan foydalanilgan holda baholandi.

**Iqtisodiy kategoriya sifatida tavakkalchilik** – bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki bo‘lmaydigan hodisa. Agar bu hodisa bo‘lsa, ijobiy (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (xarajatlar, zarar, yo‘qotish) natija bo‘lishi yoki hech qanday natija bo‘lmasligi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalar tavakkalchilik darajasini baholashni, uning miqdorini aniqlashni va uni kamaytirish chora-tadbirlarini qo‘llashni talab qiladi.

Tavakkalchilikni ma‘lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo‘qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo‘shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

### 13.2. Iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida investitsiya loyihalarining tahlili

**Loyiha tavakkalchiligi** – investitsiya loyihasini amalga oshirishga xalaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan tavakkalchiliklarning yig‘indisidir.

#### Investitsion rivojlanishga quyidagilar ta‘sir ko‘rsatadi:

Investitsion rivojlanishga quyidagilar ta‘sir ko‘rsatadi:	siyosiy, ijtimoiy, savdo va ishga aloqador muhitdagi ko‘pgina o‘zgarishlar;
	texnika-texnologiyadagi, mehnat unumdorligi va baholardagi o‘zgarishlar;
	atrof-muhit holati;
	amaldagi soliqqa tortish, huquq bo‘yicha va boshqalar bo‘yicha muammolar ta‘sir ko‘rsatadi

Bularning barchasi loyihalarda aniq tavakkalchilikning mavjudligini – loyihani muvaffaqiyatsizlikka uchrash xatarini yoki foyda o‘rniga zarar olishi mumkinligini oldindan aniqlab beradi.

Mamlakat iqtisodiyotiga o‘z sarmoyasini kiritayotgan investorning fikricha, shu mamlakatdagi holat, vaziyat – investitsiya muhiti deb ataladi. Investitsiya muhiti bir qator tavakkalchilik omillarini o‘z ichiga oladi. Bu omillar rivojlanish istiqbollari, ichki va tashqi shart-sharoitlar va vaziyat ta‘siri ostida vujudga keladi. Ko‘p hollarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holat va uning rivojlanish istiqbollariga qarab ijtimoiy-siyosiy, ichki va tashqi tavakkalchiliklar taxmin qilinadi.

#### Investitsiya loyihasi tahdidlari tasnifining turli tizimlari

<b>Birinchi</b>	loyiha faoliyatining bosqichlari va fazalari bo‘yicha tasniflash: investitsiyalash oldi, investitsiyalash, ishlab chiqarish fazasidagi risklar
<b>Ikkinchi</b>	loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun risk tahdidlariga ta‘sir etishning imkoniyatlarini mezonlari bo‘yicha tasniflash
<b>Uchinchi</b>	riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tasniflash

**Tavakkalchilik omili** yoki oddiygina qilib aytganda – tavakkalchilik loyihaning samaradorligini baholashga ta‘sir etuvchi muhim element hisoblanadi. Investitsiya loyihasida tavakkalchilik kiritilgan sarmoya haqiqiy qaytimini kutilayotganga nisbatan kamaytirishini hisobga olib, uni hisoblash uchun ko‘p



hollarda foiz stavkasiga o'zgartirishlar kiritiladi. Bu foiz stavkalari tavakkalchiliksiz qo'yilmalar bo'yicha, masalan, bank depozitlari yoki qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilikni xarakterlaydi.

Korxonalar (firmalar, aksiyadorlar, investorlar) tavakkalchilik loyihasiga pul mablag'larini yo'naltirganda, kapital qiymatini oshirish yo'li bilan tavakkalchilikni hisobga oladilar, ya'ni tavakkalchilikka tuzatish kiritilgan diskont stavkasini qabul qiladilar. Shu yo'l bilan diskont stavkasi vaqtinchalik afzalliklarni va tavakkalchilikni hisobga oladi. Bu usul oddiy bo'lishi bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega. Chunki tavakkalchilikni ham, vaqtinchalik afzallikni ham hisobga olishda bir xil usul qo'llaniladi. Bundan tashqari sof daromad olish bilan bog'liq noaniqlikning yanada yuqori darajasini aks ettiruvchi oddiy diskont stavkasi-E va qo'shimcha doimiy koeffitsiyentni-K jamlash yo'li bilan tavakkalchilikka tuzatish kiritish, so'nggi ikki yil davomida bir xil tavakkalchilikka ega bo'lgan ikki loyiha bo'yicha bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Faraz qilamiz, investitsiyalar bir xil miqdorda daromad  $D_1$  va  $D_2$  keltiradi va so'nggi ikki yil davomida aniq tavakkalchilik darajasida bo'lgan.

Diskontlash yo'li bilan  $D_1$  daromadning ahamiyati  $(1+E+K)$  stavka bo'yicha topiladi,  $D_2$  bo'lsa,  $(1+E+K)^2$  stavka bo'yicha topiladi, ya'ni  $D_1$  ning mohiyati quyidagi usulda aniqlanadi.

$$D_1/(1+E+K) \text{ orqali, } D_2 - D_2/(1+E+K)^{62}.$$

Bunda,  $D_2 > D_1$  bo'lganligi sababli, bu usul investitsiyalarni, shu bilan birga ulardan olinadigan daromadlarni bir xil tavakkalchilikka ega deb qaramaydi.

**2. Оценка (анализ) рисков**

Оценка (анализ) рисков - это качественная или количественная оценка вероятности возникновения того или иного рискованного события и оценка последствий такого события на достижение целей проекта.

Этап оценки рисков направлен на определение тех рисков, на которые следует обратить особое внимание, т.е. не все риски равнозначны.

**РИСКИ**

- Оценить вероятность возникновения ранее определенного риска
- Оценить уровень последствий того или иного риска
- Рассчитать неумовительность рискованного события, основываясь из его

Оценке рисков снижает вероятность возникновения или неопределенности в наступлении события

Vaqtning turli davrlarida kelib tushgan, lekin pul mablag'lari oqimiga kiruvchi bir xil tavakkalchilik bilan bog'liq diskontning bir stavkasini qo'llash bir xil miqdorda daromad olishga imkon bermaydi. Bundan tashqari tavakkalchilik uchun qo'shiladigan qo'shimchani miqdori, odatda, intuitiv, ya'ni kerak bo'lgan nazariy asossiz o'rnatiladi.

Manba: <http://www.softportal.com/software-3025-investitsionnij-analiz.html>

Foiz stavkasiga tavakkalchilikning qo'shimchasini kiritish keng tarqalgan, lekin bu usul tavakkalchilikni hisoblashning yagona usuli emas. Bu masalani boshqacha yechish usuli - investitsion loyiha tashqi omillari va parametrlarining o'zgarishiga nisbatan shu loyiha ta'sirchanligi, sezgirligi va barqarorligining tahlilidir. Tashqi omillarga: inflyatsiyaning kelgusidagi darajasi; foydalanilayotgan xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya hamda boshqa resurslar bahosini va

<sup>62</sup> Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. - М.: ЮНИТИ, 1999. С. 231-256.

ularga bo'lgan talabning o'zgarishi; ssuda foizlari stavkasining, soliqlarning o'zgarishi va boshqalar kiradi.

“Eng muhim dasturlar, loyiha va vazifalar bo'yicha qabul qilingan ayrim qarorlar yoki, umuman, real moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanmagan yoki qoldiq prinsipi bo'yicha moliyalashtiriladi”<sup>63</sup>.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashda, agar investitsiyani amalga oshirishning turli sharoitlarida xarajatlar va natijalar har xil bo'lsa, tavakkalchilik va noaniqlik omillari hisobga olinadi.

Amaliyotda esa tavakkalchiliklarning bo'linishi, ularning tasnifi loyiha rejasi va shartnoma hujjatlarini tayyorlash jarayonida amalga oshirilishi lozim. Tavakkalchilikning turlari va xatarlarini bilgan holda ularga ta'sir o'tkazish mumkin, ya'ni ularni boshqarish, tavakkalchilikning loyiha samaradorligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini pasaytirish mumkin.

**Investitsiya loyihasi tavakkalchiliklari tasnifining turli tizimlari mavjud.**

**Birinchi**dan, loyiha faoliyatining bosqichlari va fazalari bo'yicha tasniflash: investitsiyalash oldi, investitsiyalash va ishlab chiqarish fazasidagi tavakkalchiliklar.

**Ikkinchi**dan, loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun tavakkalchilik tahdidlariga ta'sir etishning imkoniyatlarini mezonlar bo'yicha tasniflash. Shu nuqtayi nazar bo'yicha tavakkalchilikni: **ichki va tashqi tavakkalchiliklarga ajratish mumkin.**

**Tashqi tavakkalchiliklarga:** siyosiy va fors-major tavakkalchiliklari kiradi.

**Fors-major tavakkalchiligi** – loyiha faoliyatiga tegishli bo'lmagan tashqi tavakkalchiliklardan biri bo'lib, unga yer silkinishi, yong'inlar, suv toshqini, bo'ronlar va boshqa tabiiy hodisalar kiradi. Fors-majorga ayrim ijtimoiy-siyosiy, tabiiy hodisalar ham kiradi: ish tashlashlar, inqiloblar, qo'zg'olonlar va boshqalar. Shunday yo'l bilan mamlakat tavakkalchiligining bir qismi fors-major tavakkalchiligi sifatida namoyon bo'ladi.

**Tashqi tavakkalchiliklar** loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida mavjud.

**Uchinchi**dan, tavakkalchilikdan himoyalash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tasniflash:

1. Sug'urtalanadigan tavakkalchiliklar.
2. Sug'urtalanmaydigan tavakkalchiliklar.

**Sug'urtalanadigan tavakkalchiliklar** o'z navbatida: a) kafolat; b) sug'urta; v) zaxira fondi hisobiga qoplanadigan tavakkalchiliklarga bo'linadi.

Bundan tashqari loyiha faoliyatining haqiqiy amaliyotiga asoslangan, eng ko'p uchraydigan tavakkalchiliklar ham bo'lib, ularga loyiha ishtirokchilari e'tibor bersalar ham hech bir guruhlash mezonni doirasiga kirmaydigan tavakkalchiliklar ham mavjud. Ular:

- iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o'zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog'liq tavakkalchiliklar;

<sup>63</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. <http://kun.uz/news/2017.14.01>.

- tashqi iqtisodiy tavakkalchiliklar – savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish, chegaralarning bekor qilishi va shu kabi ehtimolliklar tavakkalchiligi;
- siyosiy holatning noaniqligi, hududdagi yoki mamlakatdagi noma’qul ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar tavakkalchiligi;
- texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma’lumotlarning to’liq emasligi yoki noaniqligi;
- bozor konyunkturasining, ya’ni aniq davrdagi iqtisodiyotning joriy holatini xarakterlovchi belgilar, masalan, baho, valyuta kurslari, yalpi ichki mahsulot va boshqalarning o’zgarib turishi;
- tabiiy iqlim sharoitlarining, tabiiy ofatlar ehtimolining o’zgarib turishi;
- ishlab chiqarish texnik tavakkalchiliklari – asbob-uskunalarining buzilishi va to’xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi brak va boshqalar.

#### Investitsion loyihalarining tavakkalchilik mezonlari:

Tavakkalchilik mezonlari	Xususiyati
tashqi iqtisodiy risklar	savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish, chegaralarning bekor qilinishi va shu kabi ehtimolliklar riski;
siyosiy holatning noaniqligi	hududdagi yoki mamlakatdagi noma’qul ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar riski;
ishlab chiqarish texnik risklari	asbob-uskunalarining buzilishi va to’xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi brak va boshqalar;
iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o’zgarib turishi	investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog’liq risklar

Loyiha ishtirokchilarining o’zlarini tutishlari, qiziqishlari, maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro’si haqidagi ma’lumotlarning to’liq emasligi, noaniqligi.

#### 13.3. Investitsiya loyihalarini tahdidlarining asosiy turlari tavsifi

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va loyihaning ayrim turlari bo’yicha tavakkalchiliklar bo’lishi mumkin. Masalan, konchilik va neft-gaz qazib chiqarish sanoatida geologik tavakkalchilikka, ya’ni zaxiralarni to’g’ri baholash tavakkalchiligiga alohida e’tibor beriladi. Kimyo sanoati, kon qazib olish, qora va rangli metallurgiya loyihalarida ekologik tavakkalchilikka katta e’tibor beriladi.

**Yuqorida keltirilgan tasniflashlarga asoslangan holda loyiha faoliyatidagi tavakkalchiliklarni quyidagi guruhini keltirish mumkin:**

1. Loyiha ishtirokchilari tavakkalchiligi.
2. Loyiha smeta qiymatining oshish tavakkalchiligi.
3. Qurilishni o’z vaqtida tugatmaslik tavakkalchiligi.
4. Ish va obyekt sifatining pastligi tavakkalchiligi.
5. Konstruksion va texnik tavakkalchiliklar.
6. Ishlab chiqarish tavakkalchiligi.
7. Boshqaruv tavakkalchiligi.

8. Sotish tavakkalchiligi.
9. Moliyaviy tavakkalchilik.
10. Mamlakat tavakkalchiligi.
11. Ma'muriy tavakkalchilik.
12. Huquqiy tavakkalchilik.
13. Fors-major tavakkalchilik.
14. Regional tavakkalchilik.
15. Tarmoqlar tavakkalchiligi.

**Loyiha ishtirokchilari tavakkalchiligi** – ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik tavakkalchiligi. Birgina loyiha ishtirokchisining o'z majburiyatlarini bajarmasligi, boshqa ishtirokchilarning o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi, natijada loyiha barbod bo'lishi mumkin.

**Loyiha ishtirokchilari tavakkalchiligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:** ishtirokchilarning vijdotsizligi; ularning professionallik darajasi, moliyaviy holatining barqaror emasligi; ishtirokchilarning turli tavakkalchiliklardan yetarlicha sug'urtalanmaganligi va boshqa loyiha faoliyatining bir qator tavakkalchiliklari loyiha ishtirokchilarining tavakkalchiligidan kelib chiqadi. Masalan, loyiha smeta qiymatining oshishi tavakkalchiligi qurilish tashkilotining vijdotsizligi natijasida ro'y berishi mumkin. Ish sifatining pastligi tavakkalchiligi, ko'p hollarda, tanlangan pudratchi va boshqa ishtirokchilarning yetarli tajribaga ega emasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Loyiha smeta qiymatining oshish tavakkalchiligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: loyihalash jarayondagi xatolar, pudratchining resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay olmasligi, loyihani amalga oshirish shartlarining o'zgarishi.

Qurilishni o'z vaqtida tugallamaslik tavakkalchiligiga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: loyihalashdagi xatolar; pudratchi majburiyatining bajarilmasligi; tashqi shart-sharoitlarning o'zgarishi. Ishni tugatishning cho'zilib ketishi natijasida qo'shimcha xarajatlar kelib chiqadi: kredit bo'yicha qo'shimcha foizlarni hisoblash, narxlarning inflyatsiya natijasida o'sishi oqibatida ish va material qiymatining oshishi. Bundan tashqari bu tavakkalchilik natijasida kelgusidagi obyektga xomashyo yetkazib beruvchilar va kelgusidagi loyiha mahsuloti iste'molchilari bilan shartnomaviy munosabatlar to'xtashi mumkin.

Ish va obyekt sifatining pastligi tavakkalchiligi pudratchilar majburiyatining buzilishi, loyihalashtirishdagi xatolar va boshqalar natijasida kelib chiqishi mumkin. Obyekt sifatining pastligi natijasida loyiha bo'yicha qo'shimcha investitsion xarajatlar qilinishi kerak bo'ladi. Bu xarajatlar kamchiliklarni tuzatishga sarflanishi mumkin. Agar kamchilik saqlanib qoladigan bo'lsa, loyiha mahsulotini ishlab chiqarishga qo'shimcha xarajatlar qilish kerak bo'ladi.

**Konstruksion va texnologik tavakkalchilik.** **Konstruksion tavakkalchilik** – investitsiya fazasidayoq loyihaning texnik amalga oshmaslik tavakkalchiligi. Loyiha hujjatlarini ishlab chiquvchilarning xatolari hujjatlarni ishlab chiqishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni yetarli yoki aniq emasligi natijasida ro'y berishi mumkin. **Texnologik tavakkalchilik** – ishlab chiqarish texnologiyalarining sanoat darajasida



qo'llanilmasligi natijasida ma'lum texnik-iqtisodiy parametrlardan obyekt ekspluatatsiyasidagi cheklanishlar tavakkalchiligi. Bunga ekspluatatsiya xarajatlarining oshishi, brak foizlarining kattaligi, ekologik normativlarga mos kelmaslik kabilar ta'sir etadi.

**Ishlab chiqarish tavakkalchiligi** – ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarni yuzaga kelish tavakkalchiligidir. Bu ishlab chiqarish davomiyligining buzilishida, obyektning loyihaviy quvvatga erishmasligida, soxta foizlarining yuqoriligida, qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarida va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish tavakkalchiligining bir turi bu yuqorida aytib o'tilgan texnologik tavakkalchilikdir. Kamchiliklar iqtisodiy tartib sababli – ta'minotdagi uzilishlar, o'sha joydagi resurs zaxiralarining yetishmasligi, xomashyo sifatining pastligi, transport masalalari va boshqalar sababli kelib chiqadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori darajasi xarajatlarni xato hisoblash, xomashyo va boshqa resurslar miqdori va sifatiga ma'lum talablarning aniq emasligi natijasida bo'ladi.

**Boshqaruv tavakkalchiligi** – ishlab chiqarish tavakkalchiligining bir turi bo'lib, boshqaruv shaxsining tajriba va malakasining yetarli darajada emasligi natijasida ro'y beradi. Ayrim hollarda boshqaruv tavakkalchiligi deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog'liq tavakkalchiliklar tushuniladi.

**Sotish tavakkalchiligi** – loyiha mahsuloti sotish hajmining va shu mahsulot bahosining kamayish tavakkalchiligidir. Sotish tavakkalchiligi bozor konyunkturasining o'zgarishi, marketing yoki baho tavakkalchiligi deb ham ataladi. Mos kelmaydigan konyunktura faqat loyiha rentabelligini kamaytirib qolmay, balki uning butunlay barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat aniq bir vaqtdagi sotishdan kelgan tushum ishlab chiqarish xarajatlarini va kredit bo'yicha qarzlarni qoplashga yetmagan hollarda yuz beradi. Sotish tavakkalchiligi, ayniqsa, bahosini taxmin qilish ancha qiyin bo'lgan yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarda yuqori bo'ladi.

**Moliya tavakkalchiligi** – tavakkalchilikning loyiha faoliyatidagi asosiy turlari: a) kredit tavakkalchiligi; b) valyuta tavakkalchiligi; v) foiz stavkasini o'zgarish tavakkalchiligi; g) qayta moliyalashtirish tavakkalchiligi.

**Kredit tavakkalchiligi** – loyihani amalga oshirayotgan tashkilotning kreditor bankka kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini to'liq yoki umuman to'lay olmaslik tavakkalchiligi. Bu tavakkalchilik, asosan, loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning tavakkalchiligidir.

**Valyuta tavakkalchiligi** – tavakkalchilik loyiha mahsuloti mahalliy bozorda sotilganda va hokimiyat mahsulotni milliy valyutada sotilishini talab qilayotgan paytda yuqori bo'ladi. Bu tavakkalchilik loyiha mahsulotini sotishdan olinadigan valyuta bilan kredit valyutasi bir xil bo'lmagan hollarda yuzaga keladi.

**Foiz stavkasining o'zgarish tavakkalchiligi** – tavakkalchilik kredit resurslari o'zgaruvchan stavkada qo'llanilganda ro'y beradi. Bunday resurslarni jalb qilishda loyihada qo'llanilgan kapital qiymatining oshishi va mahsulot rentabelligining kamayish xavflari mavjud bo'ladi.

**Qayta moliyalashtirish tavakkalchiligi** butunlay boshqaruvchi bank, ya'ni moliyalashtirishni tashkil qiluvchi bank zimmasida bo'ladi.

**Mamlakat tavakkalchiligi** – tashqi loyiha tavakkalchiliklariga tegishli bo'lib, uning mazmuni shundaki, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va davlatning siyosati loyiha faoliyati uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratishi va hatto loyihani barbod qilishi ham mumkin. Mamlakat tavakkalchiligining omillari: markaziy va mahalliy hokimiyatlarning harakati, urushlar, ish tashlashlar, inqiloblar, terrorchilik harakatlari va boshqalar bo'lib, bular asosiy loyiha ishtirokchilari ta'siri doirasidan tashqarida bo'ladi.

Davlatning siyosati bilan bog'liq mamlakat tavakkalchiliklarini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Siyosiy.
2. Iqtisodiy.

**Siyosiy mamlakat tavakkalchiligi** – hukumatning chet el investorlari va kreditorlari ishtirokidagi loyiha faoliyatini to'xtatish yoki cheklashga qaratilgan harakati bilan bog'liq. Bularga foydani boshqa mamlakatga olib o'tishdagi taqiqlashlar va cheklashlar, chet el kapitali uchun avval yaratilgan imtiyozlardan mahrum qilish, konsessiya va litsenziyalarni qaytarib olish va boshqalar kiradi.

**Iqtisodiy mamlakat tavakkalchiligi** – davlatning loyihani amalga oshirilishi sharoitida qo'llaydigan soliq, valyuta, bojxona va boshqa iqtisodiy shart-sharoitlarni o'zgartirishi bilan bog'liq o'zgarishlar xorijiy kapitalni cheklash bilan bevosita bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.



Manba: <http://www.iimagineservicedesign.com/strategy-leadership/>

**Ma'muriy tavakkalchiliklar** – loyiha kompaniyalari va loyiha faoliyatining boshqa ishtirokchilarini davlat nazorat va tartibga solish boshqarmalaridan turli litsenziyalar, ruxsatlarni olishi bilan bog'liq. Litsenziya, ruxsatlar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida talab qilinishi mumkin: loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, tenderlar o'tkazish, mashina va asbob-uskunalarni yetkazib berish, qurilish, dastlabki ishlar va obyektning ishga tushirilishida talab qilinadi. Litsenziya, ruxsatlarning soni ayrim loyihalar bo'yicha juda ko'p bo'lishi mumkin: loyiha faoliyatining u yoki bu turi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy resurslarni va valyutani chetga olib chiqish huquqini beruvchi litsenziyalar, ruxsatlar bo'ladi.

**Huquqiy tavakkalchilik** – tavakkalchilik qaysidir darajada mamlakat, ma'muriy va boshqaruv tavakkalchiliklari bilan bog'liq. Avvalo, bu tavakkalchilik kreditning kafolat bermaslik va boshqa kredit bilan ta'minlashlar ehtimoli bilan bog'liq noaniqlik va ishonchsizligida namoyon bo'ladi. Bunday noaniqlik va ishonchsizlik sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: qonunlar mazmunining va xalqaro huquq normalarining mukammal emasligi, huquqiy hujjatlar sifatining pastligi, sud-arbitraj mexanizmidagi kamchiliklar va boshqalar. Ayrim huquqiy tavakkalchiliklar loyiha ishtirokchilari nazoratidan tashqarida bo'lib, ular mamlakat va siyosiy tavakkalchiliklarga yaqin. Bundan boshqa huquqiy tavakkalchiliklarni milliy qonunchilikni, xalqaro investitsion huquqlarni yaxshi biluvchi, shartnoma, kelishuvlar va boshqa loyihaning huquqiy hujjatlarida ishtirok etuvchi malakali huquqshunos maslahatchini jalb qilish bilan yechish mumkin.

**Regional tavakkalchilik** – bir yoki ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududlar farovonligining shu mahsulotlar narxining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik. Mamlakatda hokimiyat krizisi vujudga kelgan paytda regional tavakkalchiliklar alohida regionlarning siyosiy va iqtisodiy separatizmiga bog'liq holda vujudga kelishi mumkin.

**Tarmoqlar tavakkalchiligi** – iqtisodiyotda tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tavakkalchilik. Shunga ko'ra barcha tarmoqlarni guruhlariga ajratish mumkin:

- a) davriy tebranishlarga ta'sirchan tarmoqlar;
- b) davriy tebranishlarga kamroq ta'sirchan tarmoqlar;

Bundan tashqari tarmoqlarni "o'lib borayotgan"; "barqaror ishlayotgan"; "tezda o'sib borayotgan" yosh tarmoqlarga ham bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, loyiha faoliyati tavakkalchiliklarining alohida turlari bir-birini qoplovchi "umumiy doira"ga ega. Masalan, ishlab chiqarish tavakkalchiliklari: boshqaruv, ekologik, ta'minot va boshqalarga bo'linadi. Bir qator muhim tavakkalchiliklar aniq loyihalarga nisbatan o'z muhimligini yo'qotadi. Masalan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida loyihani amalga oshirishda mamlakat tavakkalchiligini hisobga olish uchinchi ish sifatida qaraladi, davlatga elektr energiya yetkazib berishda uzoq muddatli shartnoma mavjud bo'lgan holda elektrostansiya qurish loyihani amalga oshirishda sotish tavakkalchiligi nolga teng deb qaraladi.

Yuqorida keltirilgan tavakkalchiliklarning tasnifi shartli ravishda bo'lib, har bir loyiha uchun ahamiyatli tavakkalchiliklarni aniqlash nuqtasiga yo'naltirish sifatida qaraladi. Bunday tavakkalchiliklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tarmoqqa tegishliligi, masshtablari, tanlangan texnologiya, loyihani amalga oshirayotgan mamlakat va boshqa loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

#### **13.4. Investitsiya loyihalari tavakkalchiligini (risk) hisoblash usullari va ularni pasaytirish yo'llari**

Tavakkalchiliklarni tahlil qilishda ularni kamaytirishni xomcho't qilishning turli usullaridan foydalanish juda foydali. Uni hisoblashning eng oddiy usuli – zararsiz mahsulot ishlab chiqarish miqdori (nuqtasi) hisoblash bo'lib, u yo'l qo'yish

mumkin bo'lgan eng oz ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmidir<sup>1</sup>. Ma'lumki, zararsiz nuqta loyihasi foyda ham, zarar ham keltirmaydi. Zararsiz nuqtani tahlil qilish marketing vazifalarini hal qilishning g'oyatda kuchli vositasi hisoblanadi. Bunday tahlil yordamida zararsiz nuqtani aniqlash, optimal ishlab chiqarish rejalarini tuzish, eng samarali texnologiyalarni tanlab olish mumkin.

Zararsiz nuqta quyidagicha hisoblanadi<sup>2</sup>:

$$\text{Zararsiz nuqta} = \frac{\text{Doimiy (umumiy) xarajatlar (mahsulot birligida)}}{\text{Mahsulotning narxi} - \text{O'zgaruvchan xarajatlar (mahsulot birligida)}} \quad (2.1)$$

Misol: Doimiy (umumiy) xarajatlar – 124 ming so'm, O'zgaruvchan xarajatlar – 170 ming so'm, Mahsulotning narxi – 200 ming so'm.

Bundan:  $124 : (200 - 170) = 4,13$  ming dona zararsizlik nuqtasi.

Zararsizlik nuqtasi tahlilidan foydalanib, tavakkalchilik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan xavfsizlik zaxirasi darajasini hisoblab topish mumkin. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: 1

$$\text{Xavfsizlik zaxira darajasi} = \frac{\text{Kutilayotgan savdo hajmi} - \text{Zararsiz nuqtaga to'g'ri keladigan savdo hajmi}}{\text{Kutilayotgan savdo hajmi}} \times 100 \quad (2.2)$$

Xavfsizlik zaxirasi qiymati qanchalik kichik bo'lsa, zarar ko'rish doirasiga tushib qolish xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. Tavakkalchiliklarni tahlil qilish kompaniya mutaxassislariga tavakkalchilik va noaniqlikni kamaytirishga imkon beradi. Xususan, loyiha bo'yicha zararsiz nuqta tahlili bilan bog'liq hisob-kitoblarni (xizmat ko'rsatishdan tushgan daromad xarajatlariga teng) biz "Baraka" lizing kompaniyasi misolida amalga oshirdik.

Masalan, taklif qilinayotgan lizing loyihasining quyidagi ma'lumotlariga ko'ra biz zararsiz nuqtasini topdik:

savdo hajmi (S) – 344200 ming so'm;

o'zgaruvchan xarajatlar (VC) – 166853 ming so'm;

doimiy xarajatlar (PC) – 124064 ming so'm;

yalpi foyda hajmi (CM) – 197015 ming so'm.

Zararsizlik nuqtasidagi savdo hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$S = \frac{PC \cdot S}{a} = \frac{PC \cdot S}{S - VC} \quad (2.3.)$$

bu yerda: a – yalpi foydaning savdo hajmiga nisbatining doimiy koeffitsiyenti.

$$S = \frac{124064 \cdot 344200}{344200 - 166853} = 240786,87 \text{ ming so'm}$$

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг. – М.: Экономика, 2000. -194 с.

<sup>2</sup> O'sha joyda 195-b.



Zararsiz nuqtasidagi xarajatlar qiymati kritik hajmga to'g'ri keladigan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi sifatida aniqlandi. O'zgaruvchan xarajatlarning qiymatini esa kritik savdo hajmining masalada berilgan o'zgaruvchan xarajatlarning savdo hajmiga nisbatiga ko'paytmasi sifatida aniqlaymiz.

Natijada quyidagi holat hosil bo'ladi:

$$VC = PC + S \cdot \frac{VC}{S} \quad (2.4)$$

$$VC = 124064 + 240786,87 \cdot \frac{166853}{3442008} = 240786,87 \text{ ming so'm}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, zararsiz nuqtadagi xarajatlarning qiymati 240786,87 ming so'mni tashkil qiladi, bu esa zararsizlik shartlariga va foydaning yo'qligiga to'liq javob beradi, chunki ularning hajmi pul shaklida ifodalangan kritik savdo hajmiga tengdir. U xizmatlar hajmini kritik miqdordan pasaytirish, narx va xarajatlar o'zgarmagan holda, kompaniyaning zarar ko'rib ishlashini ko'rsatadi.

Xarajatlarning kritik qiymati esa zararsiz nuqtasida – 240786,87 ming so'mdan oshsa va narx o'zgarmasa, korxonaga yana zarar ko'radi.

Olingan ma'lumotlar asosida xavfsizlik zaxirasining darajasini (2.2) formuladan aniqlaymiz. U kutilayotgan savdo hajmining zararsiz nuqtasidan qanchalik yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Agar savdo hajmining kutilayotgan miqdori – 344200 ming so'mga, zararsiz nuqtasi – 240786 ming so'mga teng bo'lsa, u holda xavfsizlik zaxirasi darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{344200 - 240786}{344200} \cdot 100\% = 30\% \text{ (sotilgan xizmatlar soniga nisbatan)}$$

**Xavfsizlik zaxirasi darajasi agar xizmatlar hajmi 30 foizdan kamaysa, korxonaga zarar ko'ra boshlashini ifodalaydi.**

Ushbu zararsiz nuqtani tahlil qilish quyidagilarni aniqlashga imkon berdi: xarajatlar qoplanishini va foyda olinishini ta'minlaydigan zarur xizmatlar hajmini; kompaniya foydasining sotish narxi o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bog'liqligini; kompaniyaning barqarorlik holatini belgilovchi, foyda nolga teng bo'lgan, savdo hajmi esa doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarnigina qoplaydigan chegaralarni (tavakkalchiliklarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan darajasini) nazardan qochirmaslikka yordam berdi. Shu sababli har bir lizing kompaniyasi o'z mablag'larini lizing bitimiga qo'yishdan avval har bir tavakkalchilik turi bo'yicha ko'rilishi ehtimol bo'lgan maksimal zarar hajmini aniqlashi, ularni sarflanayotgan mablag'lar hajmi bilan taqqoslab, o'zining moliyaviy zaxiralari bilan solishtirib ko'rib, bu zarar kompaniyani bankrotlikka ehtimollarini topishi lozim.

#### **Investitsiya loyihalar tavakkalchiligini pasaytirish yo'liari**

Investitsiya tavakkalchiliklarini pasaytirishda ko'proq sug'urtalashdan foydalaniladi. Sug'urta himoyasiga olishning uchta turi farqlanadi.

##### **1. O'z-o'zini sug'urtalash.**

Bu usulda xo'jalikdagi har qanday sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar, korxonalaridagi maxsus jamg'armalar tomonidan qoplanadi. O'z-o'zini sug'urtalash

maxsus fondlarga ajratiladigan ajratmalar summasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni ko'rilgan zararlar miqdori ko'p bo'lsa, ajratma summasini oshishiga olib keladi va shu jihatdan bu mablag'lar chegaralangandir. Korxonaning aylanma mablag'laridan bir qismi maxsus fondlarga jamg'ariladi va aylanma mablag'lar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**O'z-o'zini sug'urtalash ikkita asosiy sababga ko'ra zarur bo'ladi:**

- korxonani sug'urtaviy himoyalashning boshqa usullarini qo'llash mumkin bo'lmaganda;

- yoki shunday tavakkalchiliklar turlari borki, ularni, albatta, kompensatsiya qilish zarur.

## **2. Sug'urtalash.**

Sug'urta iqtisodiy faoliyatning muhim turi sifatida, sug'urtalanuvchilar mulkiy qiziqishlarida ko'riladigan zararlar bo'yicha tavakkalchiliklarni taqsimlanishi bilan bog'liq va bevosita maxsus ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (sug'urtalovchilar) tomonidan sug'urta badallarini bir joyga to'plovchi, sug'urta zaxiralarini tashkil qilish va sug'urtalanuvchilarning ko'rgan zararlarini qoplashni amalga oshirishni ifodalaydi.

Bu holatda sug'urtalanuvchilar o'rtasida tavakkalchiliklarni taqsimlash asosiy jarayon bo'lib, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar bo'yicha potensial tavakkalchiliklar sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanadi, ya'ni ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash har bir sug'urtalanuvchilar zimmasiga tushadi. Bu munosabatlarda asosiy o'rinni sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta badallari egallaydi. Ammo bu sug'urta badallarining yetishmovchiligi yuzasidan ko'riladigan zararlarni sug'urtalovchi qoplamaydi degani emas. Ana shu holat sug'urta faoliyatida tadbirkorlik tavakkalchiligini keltirib chiqaradi, ya'ni sug'urtalovchi qurilishi mumkin bo'lgan zararlar yuzasidan oldindan sug'urta qoplamasini o'z mablag'lari hisobidan ham to'lashni ko'zda tutadi.

Sug'urta usuli, albatta, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan tavakkalchiliklarni ehtimoliyligi baholanganda va sug'urtalovchi tomonidan zararlarni qoplash bo'yicha aniq moliyaviy kafolatlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi.


**Investitsiya loyihasi tavakkalchiligini baholash usullari orasida eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilar:**

1. Loyihaning sezgirlik tahlili.
2. "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash.
3. Barqarorlikni tekshirish.

**Sezgirlik tahlili** loyihaning o'xshash parametrlaridan biri o'zgarganda, loyiha samaradorligi qay darajada o'zgarishiga miqdoriy baho berishda qo'llaniladi. Sezgirlik tahlilini investitsiya loyihalari natijalariga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni taqqoslash tahlili uchun o'tkazish tavsiya etiladi. Bu omillar bilan bog'liq vazifalarni yechishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi. Avvalo, sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi. Keyin ma'lum oraliqlarda omillardan biri o'zgartirilib, sof joriy qiymat hisoblab chiqiladi, ushbu yo'l har bir omil uchun takrorlanadi. Bundan so'ng hamma hisoblar jadvalga joylashtiriladi, har bir omil o'zgarishiga nisbatan loyihaning sezgirlik darajasi

solishtiriladi va loyihaning muvaffaqiyatiga eng ko'p darajada ta'sir etuvchilari aniqlanadi. Sezgirlik tahlili yordamida hisoblar uchun zarur bo'lgan turli xil o'zgaruvchilar berilganda, naqd foyda yoki investitsiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash mumkin. Turli xil o'zgaruvchilarga – ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi, investitsiya davri davomiyligi, kredit foizi, xomashyo va yonilg'i qiymati, soliqlar miqdori va boshqalar misol bo'ladi.

“Zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum – uni ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxonada zararlarni qoplashi mumkin, pul kirimi xarajatlarga teng bo'lsa, korxonada ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. “Zararsizlik” tahlili loyiha quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi miqdorini topish maqsadida qo'llaniladi. Ishlab chiqarish hajmi past bo'lsa, korxonada zararga ishlayotgan bo'ladi. Bu tahlil loyihani baholashda turli narx va qiymatni hisobga olishga bir qator zararsizlik nuqtalarini hisoblashga imkon beradi.



Manba: <https://encrypted-tbn3.gstatic.com/>

**Barqarorlikni tekshirish usuli** yordamida investitsiya ishtirokchilari uchun eng xatarli variantlarda investitsiya loyihasini rivojlantirish rejasini ishlab chiqishni oldindan ko'rib chiqish mumkin. Har bir rejada har bir ishtirokchining rejalashtirilayotgan daromadi, yo'qotishlari, samaradorligi e'tiborga olinadi. Agar barcha ko'rib o'tilgan holatlarda ishtirokchilar qiziqishlari kuzatilsa, kutilayotgan ko'ngilsiz oqibatlar mavjud zaxira va rezervlar hisobiga cheklatilsa yoki sug'urta to'lovlari bilan qoplansa, loyiha barqaror va samarali deb hisoblanadi. Loyihaning barqarorlik darajasi uni amalga oshirish sharoitlarining ehtimolli o'zgarishlarga nisbatan ishlab chiqarish, narx va mahsulotning eng yuqori darajadagi qiymati orqali ifodalanishi mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan tavakkalchilikni boshqarish bosqichlari va tavakkalchilikni baholash usullari yordamida tavakkalchilik sababli bo'ladigan yo'qotishlarni pasaytirish, ular bilan bog'liq ko'ngilsiz oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif qilish mumkin.

**3. Umumdavlat resurslari hisobidan markazlashgan holda ajratmalarni**

### **amalga oshirish orqali.**

Bu resurslar hisobidan katta hajmdagi ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha favqulodda zararlar qoplanadi.

Bojxona bojlarining qo'llanilishi bir tomondan, ichki iste'mol darajasining pasayishiga, ikkinchi tomondan esa milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga olib keladi.

**Himoya qilish darajasi** – himoya barcha mahsulot va tovarlarga turlicha bo'ladi. Buni quyidagi misol orqali ko'rib chiqishimiz mumkin.

Faraz qilaylik, erkin bozor sharoitida ichki bozorda kostyumning narxi – 150 AQSh dollari, shundan, 100 AQSh dollari – matoning narxi, 50 AQSh dollari – qo'shimcha ustama narx. Davlat import qilinayotgan kostyum uchun 20 % bojxona boji belgilagan bo'lsin. Kostyum – 30 AQSh dollariga oshadi va 180 AQSh dollarini tashkil etadi. Bunda ichki tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qo'shimcha narx – 50 dan 80 AQSh dollariga oshadi. Natijada daromad o'sadi va keyinchalik mahalliy ishlab chiqarish ushbu tarzda kostyum ishlab chiqarish borasida rag'batlantirib boriladi. Qo'shimcha qiymat solig'i (narx) xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun oldingidek o'zgarmay qolaveradi.

**Ichki bozorni himoya qilish** – proteksiya darjasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F = (D_1 - D) / D \times 100\%$$

Bu yerda:

**D** – erkin savdo sharoitida ichki qo'shimcha qiymat;

**D<sub>1</sub>** – import boji qo'llanilgandan keyingi qo'shimcha qiymat.

Bizning misolimizda:

$$F = (180-150) / 50 \times 100\% = 60\% \text{ ni tashkil etadi.}$$

Shuningdek, hukumat matoga ikkinchi marotaba inflyatsiya natijasida boj stavkasini kiritsa, deylik 10 %ga, mato narxini o'sish hisobiga ichki ishlab chiqarish qo'shimcha narxi endi 70 AQSh dollarini, himoyaning darajasi esa mos ravishda pasayib, 40 %ni tashkil etadi.

Har bir mamlakat jahon savdosida qatnashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, u o'z ichki bozoriga mahsulotlar kirib kelishini tartibga solishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda davlat o'z ichki bozorini tarif yoki notarif usullar (jadval) bilan himoya qilish choralarini ko'radi va shu bilan birga qaysi usul ko'proq foyda keltirishi e'tiborga olinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari esa majburiy taqiqlash yoki ruxsat berish xususiyatlarga ega bo'lib, xalqaro ayriboshlashda ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini qat'iy tartibga solib turadi. Bular iqtisodiy, ma'muriy va me'yoriy usullarning yaxlitligidan iboratdir.



**Davlat tomonidai xalqaro savdoni tartibga solishning  
usul va dastaklari**

Usullar	Savdo siyosati dastaklari	Ustun darajada nimani tartibga soladi	
		Eksport	Import
<b>TARIF</b>	Bojxona tarifi		+
	Tarif kvotasi		+
<b>NOTARIF</b>			
	miqdoriy		+
		Litsenziyalash	+
	Ixtiyoriy cheklovlar	+	
yashirin	Davlat xaridlari		+
	Mahalliy tarkiblarni saqlash talabi		+
	Texnik to'rsiqlar		+
	Soliq va yig'imlar		+
moliyaviy	Subsidiyalar	+	
	Kreditlash	+	
	Demping	+	

Manba: «Жамият бошқарув». Журнал. № 1, 2003, 2015.

**1. Iqtisodiy usullar** – tashqi savdoda litsenziyalash, kvotalash, bojxona bojlari (mavsumiy, maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion va h.k) eksportni ixtiyoriy chegaralash, pasaytirilgan eksport bahosi, eng kam import baholari, eksport subsidiyalari, jarimalar va hokazo. Kapital bozorida esa moliya operatsiyalari uchun litsenziyalar, korxonalar ustav fondida xorijiy kapital ulushining mumkin bo'lgan chegarasi, xorijdan valyuta olib kelish va xorijga valyuta olib chiqish miqdorini belgilashlar.

**2. Ma'muriy usul** – tashqi savdoda, mahsulotlar bayonnomasi, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish, boshqa rasmiyatchiliklari kiradi. Kapital migratsiyasida esa investorlar kapital qo'yishi, kredit berish va sug'urta shartlari, chet ellik investorlar uchun tegishli sohalarini aniqlash, qo'shma va chet ellik korxonalarni boshqarishda milliy xodimlarni ishtirok etish shartlari tartibga solinadi.

**3. Me'yoriy-huquqiy usul** – mahsulotlar sifati, ekologik tozaligi tovarlarni o'rash va markirovkalashga bildirilgan talablar, me'yor va texnik andozalar, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish jarayoniga qo'yiladigan talab va standartlar kabilarni belgilashni bildiradi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik

yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlar alohida o'ringa ega bo'lib, ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

### **Xulosa**

**Tavakkalchilik** – kutilishi mumkin bo'lgan xatar investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan noumidsizlikdir. Shu bilan birga potensial investor tomonidan qo'yilgan pul mablag'larini yo'qotish mumkinligi hamdir.

Bozor iqtisodiyotida bo'lgan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun investitsiya tavakkalchiliklari tavakkalchiliklarning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Loyiha tavakkalchiligi bu investitsiya loyihasini amalga oshirishga xalaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan tavakkalchiliklarning yig'indisidir.

Korxonalar (firmalar, aksiyadorlar, investorlar) tavakkalchilikli loyihaga pul mablag'larini yo'naltirganda, kapital qiymatini oshirish yo'li bilan tavakkalchilikni hisobga oladilar, ya'ni tavakkalchilikka tuzatish kiritilgan diskont stavkasini qabul qiladilar.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashda, agar investitsiyani amalga oshirishning turli sharoitlarida xarajatlar va natijalar har xil bo'lsa, tavakkalchilik va noaniqlik omillari hisobga olinadi. Amaliyotda esa tavakkalchiliklarning bo'linishi, ularning tasnifi, loyiha rejasi va shartnoma hujjatlarini tayyorlash jarayonida amalga oshirilishi lozim. Tavakkalchilikning turlari va xatarlarini bilgan holda ularga ta'sir o'tkazish mumkin, ya'ni ularni boshqarish, tavakkalchilikning loyiha samaradorligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini pasaytirish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tavakkalchilik tushunchasi deganda nimani tushunasiz? Investitsiya loyihasi tavakkalchiligi nimani anglatadi?
2. O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarning tavakkalchilik omillarini ifodalab bering.
3. Investitsiya loyihalariga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering.
4. Investitsiyalar faoliyatida diskont stavkasi nimani anglatadi?
5. Fors-major tavakkalchiligi, sug'urtalanadigan va sug'urtalanmaydigan tavakkalchiliklar nimani anglatadi?
6. Moliya, kredit, valyuta tavakkalchiliklari tushunchalarini izohlab bering.
7. Zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxira darajasi tushunchalarini izohlab bering.
8. Investitsiya tavakkalchiliklarini pasaytirish yo'llarini tushuntirib bering.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'grisida"gi qonuni. – T., 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

2. “Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 1998-yil 30-aprel (yangi tahriri).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>.

7. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

8. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ, 1999. -411 с.

9. Горемыкин В.А. Лизинг. – М.: Экономика, 2000. -375 с.

10. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -275 с.

11. Rashidov O.Y., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T: Sharq, 2011. -124b.

## GLOSSARIY

**Auksion (kim oshdi savdosi)** – xaridorlarga navbatma-navbat ko'rsatilib, eng yuqori baho bergan xaridorga sotildi deb, hisoblanadigan mol yoki buyumlarning ayrim guruhlarini sotish usuli. Bunda sotuvchi ko'rishga qo'yilgan molning sifati uchun javobgar emas.

Xalqaro auksionlar, odatda, tijorat tashkilotlari bo'lib, bino yoki xonalar, mashina uskuna va malakali xodimlarga ega. Ko'pincha bu yirik aksiyadorlar kompaniyasi bo'lib, ular molning ma'lum turi bilan savdo-sotiq qilishda tanho hukmronlik qiladilar.

**Auksion qoidalari** – maxsus axborot materiallarida bayon etiladigan qoidalar. Mazkur qoidalarga muvofiq mollar auksionga qo'yiladi, mollar auksionda sotiladi, shartnomalar rasmiylashtiriladi va xarid qilingan mollar olinadi.

**Auksion mollari** – auksionlar orqali sotiladigan mollar. Xalqaro auksionlar mollarning ayrim turlarini, asosan, hayvonot va o'simlik mahsulotlarini sotishga ixtisoslashadi.

Mollar bir xil sifati bo'yicha partiyalar (lotlar)ga saralanadi. Sifati bo'yicha o'xshash lotlar yirikroq partiyalar-stringlarga guruhlanadi. Har bir lot va stringdan unga xos namunalari tanlab olinadi, ushbu namunalarga nashr etiladigan auksion kataloglarida ko'rsatiladigan nomerlar beriladi. Bo'lajak xaridorlar auksion boshlanishidan oldin o'zlarini qiziqtirgan lot va stringlar nomerlarini belgilab qo'yadilar. Auksion savdosi paytida sotishga qo'yilgan lot va stringlarning nomeri e'lon qilinadi.

**Bozor infrastrukturasini** – bozorda xizmatlar va mollarning erkin harakatini ta'minlovchi muassasa va tashkilotlar (banklar, birjalar, yarmarkalar, sug'urta kompaniyalari, konsultatsiya va axborot-marketing firmalari va hokazolar) sistemasi.

**Bozor muvozanati** – talab va taklifning iqtisodiy qonunlarga teng nisbati, mollar va xizmatlarga talab hajmi va strukturasi hamda taklif etiladigan mollar va xizmatlar o'rtasidagi muvofiqlik.

**Barqarorlik** – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o'ziga xos muayyan holati.

**Bevosita investitsiya** – kapital qo'yilmalarning investor tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsion obyektlarga yo'naltirilishi nazarda tutiladi.

**Biznes** – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

**Bilvosita investitsiya** – vositachi moliyaviy tashkilotlar orqali investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning qo'yilishi tarzida ifodalanadi.

**Bozor konyunkturasini** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi muvaqqat iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish sur'ati; tovar zaxiralari harakati; narxlarning o'sishi va boshqalar.

**Budjet defitsiti** – budjet xarajatlarning budjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchilik.



**Global moliyaviy-iqtisodiy bozor** – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarning yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

**Davlat budjeti** – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

**Davlat investitsiyasi** – davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat fondlari hamda davlat korxonalari tomonidan kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.

**Daromadning ichki me'yori** – investitsiyadan keladigan pul oqimini, uning kelajakdagi qiymatini, diskont stavkasi bilan belgilangan investitsiya mablag'larining hozirgi qiymatiga mos aniq bir investitsiya loyihasining daromadlilik darajasini ifoda etadi.

**Daromad solig'i** – fuqarolarning bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

**Valyuta birjasi** – chet el valyutasini olish-sotishni amalga oshirib, ehtiyoj va taklifning haqiqiy nisbati asosida valyutalar kursini shakllantiruvchi (valyutani kotirovkalovchi) muassasa.

**Valyutani kotirovkalash** – mavjud qonuniy normalar va shart-sharoitga muvofiq chet el valyutalarning kursini (qiymatini) belgilash.

**Valyuta kursi (qiymati)** – turli mamlakatning ikkita pul birliklarini almashtirish nisbati bolib, bu nisbat pul birliklarining xarid qobiliyati (mol va xizmatlarning ma'lum miqdoriga almashish imkoniyati) va bir qator boshqa tashqi iqtisodiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi.

**Venchur korxonalar** – iqtisodiyotning fan sohasi tarmoqlaridagi ilmiy tadqiqotlar, muhandislik ishlanmalari, yangiliklar yaratish va ularni tatbiq etish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan kichik korxonalar.

**Devalvatsiya** – milliy valyutaning rasmiy kursini qonuniy tartibda chet el valyutalari yoki xalqaro hisob birliklariga nisbatan pasaytirish. Bozor uchun kurash kuchaygan sharoitda devalvatsiya eksportini rag'batlantirish va importni qisqartirish va shu yo'l bilan to'lov muvozanatini yaxshilash uchun qo'laniladi.

**Demonopolizatsiyalash** – bitta mahsulot ishlab chiqaruvchi davlat yoki boshqa monopoliyaning iste'molchilarga qo'ygan shartlarini bartaraf etish. Mol ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tarmoqlashtirish, yirik korxonalarni bo'lib, ulardan mustaqil korxonalar ajratib olish va ular orasida mayda xususiy, oilaviy, kooperativ firmalar yaratish yo'li bilan mol ishlab chiqaruvchilar o'rtasida chinakam raqobat o'rnatish.

**Depozit** – moliya-kredit, bojxona, sud yoki ma'muriy muassasalarga saqlashga berilgan mablag'lar yoki qimmatbaho qog'ozlar.

**Deflyatsiya** – hukumat tomonidan inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish maqsadida ortiqcha pullarning bir qismini sun'iy ravishda muomaladan chiqarish. Qimmatbaho davlat qog'ozlari sotishni ko'paytirish, soliqlarni oshirish, hisobli bank stavkalarini oshirish va boshqa maxsus tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

**Diversifikatsiya** – ishlab chiqarishning bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'p turlarini bir vaqtda rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan buyumlar assortimentini kengaytirish (1); marketing strategiyasining bir turi bo'lib firma ishlab chiqaradigan asosiy mahsulot bilan bog'liq bo'lmagan yangi mahsulotlar bozorida firmaning

faoliyat doirasini kengaytirishga qaratilgan .

**Diskont siyosati** – valyuta siyosatining qarz uchun foiz hisobida to‘lanadigan haqni o‘zgartirish yo‘li bilan valyuta kursini, kapital harakati va to‘lov balansini rostdashga qaratilgan shakli.

**Inventarizatsiya** – korxonalar, firmalar, tashkilotlarda naqd mulk va tovarlarni ro‘yxatdan o‘tkazish; natura holiday boyliklarning mavjudligi yoki holatini, mablag‘larni muntazam tekshirib turish, shuningdek, ularning moddiy boyliklarini hisobga olish qaydnomalariga muvofiqligini aniqlash maqsadlarida davriy qayta hisobga olish.

**Investitsion jozibadorlik** – investitsiya obyektlarini tasniflash va baholash, reyting orqali taqqoslashni amalga oshirish, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va darajasidagi xo‘jalik hamda investitsiya jarayonlarini qiyoslash orqali tahlil qilish.

**Investitsion kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo‘lgan vositalar hamda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

**Investitsiya loyihasi** – ma‘lum harakatlarni amalga oshiruvchi, ya‘ni kelgusida foyda olish maqsadida kapital qo‘yilishiga asoslangan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlari tizimi.

**Investitsiya loyihasi dasturi** – O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga binoan ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda, kapital qo‘yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga muvofiqligini asoslovchi va investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy faoliyat dasturi.

**Investitsiya muhiti** – korxonalar, tarmoqlar, hududda investitsiyaviy jozibadorlikni ta‘minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarning obyektiv jamlamasi.

**Investitsiya siyosati** – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo‘lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning samarali yo‘llarini tiklashni nazarda tutadi.

**Investitsiyaviy hamkorlik** – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabi natijalarni maqsad qilgan.

**Investitsiya** – iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziya va samara beradigan boshqa har qanday boylik turlari.

**Investitsiya dasturi** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

**Investitsiya kompleksi** – investitsiya faoliyatini ta‘minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

**Investitsiya faoliyati** – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

**Investitsiya faoliyati ishtirokchilari** – buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug‘urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy maslahat firmalari, o‘z mamlakatidagi qonunchilikka ko‘ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

**Investorlar** – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo‘ladi. Investorlar kreditor va xaridor rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishi mumkin. Odatda, investorlar kapital qo‘yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydi, shartnoma shartlarini ishlab chiqadi va investitsiya aktining boshqa subyektlari bilan – kontraktchi, hukumat organlari, yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste‘molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

**Inqirozga qarshi choralar dasturi** – O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012-yillarga mo‘ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo‘lib, mazkur dasturda talabni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlovchi chora-tadbirlar majmui o‘z aksini topgan.

**Innovatsion texnologiyalar** – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llanadigan usul va vositalar majmui bo‘lib, o‘z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi faoliyat turlarini oladi.

**Innovatsiya jarayoni** – yangi g‘oyani rivojlantirishdan toki uning mahsulot turiga aylanishi va iste‘molchi tomonidan iste‘mol qilinishigacha bo‘lgan jarayon. Yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud: yangilikni yaratish, uni o‘zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

**Inflyatsiya** – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi.

**Inflyatsiya darajasi** – ma‘lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatdan tashkil topgan iste‘mol savati bo‘yicha narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

**Infratuzilma** – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta‘minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo‘llar, aloqa, transport, maorif, sog‘liqni saqlash.

**Ipoteka** – bankning garov xat, ko‘chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

**Ipoteka krediti** – joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida beriladi.

**Inflyatsiya** – pulning o‘z qiymatini yo‘qotishi. Bu, avvalo, mol va xizmat narxlarining o‘shishi bilan ifodalanadi. Inflyatsiya bir qancha sabablar tufayli yuz beradi, ulardan eng muhimlari: davlat budjetining tangligi, uni qoplash uchun qimmatli davlat qog‘ozlari yoki sodda qilib aytganda, qog‘oz pullar chiqariladi; inson mehnati iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishini ko‘paytirishga olib kelmaydigan, ishlab chiqarishga tegishli bo‘lmagan xarajatlar (ayniqsa, harbiy xarajatlar) darajasining yuqoriligi; mol tanqisligi; u ehtiyojning taklifdan ajralishi va shu asosda narxlarning oshishiga sabab bo‘ladi; bir qator ishlab chiqaruvchilarning yakka hokimlik vaziyatini egallashi ularga o‘z mahsulotining bahosini uning iste‘mol sifatlarini tegishlicha oshirmasdan ko‘tarish yoki, asosan, qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; ish haqi o‘shishining mehnat unumdorligi o‘shidan ancha farqlanadi.

**Iqtisodiy nochor korxonalar** – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to‘lash bo‘yicha talablarini qondirish, shuningdek, budjet va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to‘lovlarni ta‘minlashga layoqatsiz bo‘lgan korxonalar.

**Ichki investitsiya** – mamlakat ichida turli shakldagi kapitallar qo‘yilishini ifoda etadi.

**Kooperatsiya aloqalari** – turli soha va ishlab chiqarish tarmoqlarida ma‘lum mahsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish.

Korxonalariga preferensiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalarini olib kirishda boj to‘lovlari va boshqa jarayonlar bo‘yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

**Korxonalarini texnik qayta qurollantirish** – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiya qilish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarini yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi tashkil etilishini yaxshilash yo‘li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**Korxonaning innovatsiya salohiyati** – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsiya salohiyatining ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me‘yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

**Kredit** – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

**Kutilayotgan inflyatsiya darajasi** – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma‘lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyatsiya darajasi.



**Kvota** – 1) umumiy ishlab chiqarish va sotishda ishtirokchilarning har biri uchun kartel bitim chegarasida belgilanadigan ulush; 2) hissali to'lov qiymati yoki solingan soliqning ma'lum birligidan olinadigan soliq miqdori; 3) import kvota-proteksionistik maqsadda chetdan mol sotib olish miqdorini cheklash (kontingentlash) usullaridan biri. U ma'lum xorijiy ishlab chiqaruvchilarga oldindan kelishilgan davr ichida ma'lum molni yetkazib berishda uning eng katta hajmini (qiymati va o'zining holati bo'yicha) belgilaydi; 4) mahsulotning har xil turlari bo'yicha xalq xo'jaligi, ayrim tarmoqlar va ishlab chiqarish manfaati uchun chetga mol chiqarish yoki chetdan mol olishning ahamiyatini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkich.

**Kliring** – o'zaro talabnomalar va majburiyatlar hisobiga asoslangan mol, qimmatbaho qog'oz va xizmatlarga pulsiz hisob-kitob qilish sistemasi.

**Konsalting** – korxonalar, firmalar, tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi iqtisodiy sohadagi masalalarni keng doirada ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xaridorlarga maslahat berish bo'yicha faoliyat. Konsalting firmalari bozor (mollar, xizmatlar, litsenziyalar, nou-xau va hokazo), jahon mol bozori narxlarini tadqiq etish va prognozlash bo'yicha, uy savdosida siyosiy sharoitlar va boshqalarni baholash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

**Kontrakt narxi** – mol olib-sotish bo'yicha bitimda, shu jumladan, tashqi savdo-sotiqda belgilanadigan narx. Kontrakt narxlari haqiqiy shartnoma narxidir, shuning uchun, ular narxlar haqida ancha aniq axborot beradi. Shu sababdan ham ular, odatda, tijorat siri hamdir.

Kontrakt shartiga ko'ra unda belgilangan narxlar qat'iy bo'lishi mumkin, ya'ni shartnomani imzolash vaqtida belgilangan darajada bo'ladi, keyinchalik narxlar tomonlar shartnomada kelishgan muddatlarda va kelishilgan ma'lum manbalar asosida qat'iylashtiriladi, o'zgaruvchan narxlar deb, shartnomaga amal qilish davri mobaynida tomonlar o'zaro o'zgarish formulasiga muvofiq ravishda o'zgaradigan narxlarga aytiladi.

**Lizing** – mol-mulkni ijaraga berish maqsadida sotib olgan qarz beruvchidan ijaraga olish. Lizingning ikki: operativ (qisqa muddatli) va moliyaviy (uzoq muddatli) turi mavjud. Moliyaviy lizing uzoq muddat foydalaniladigan mollarni qarzga berish shaklidir (mol-mulkni qarz berish).

**Litsenziya** – xo'jalik faoliyatining ba'zi turlarini, shu jumladan, tashqi savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun vakolatlari davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma.

**Marja** – birja byulletenida ko'rsatilgan kurs va xaridor tomonidan taklif etilayotgan narx o'rtasidagi farq.

**Moliyaviy "ko'piklar"** – real qiymatga ega bo'lmagan pul va obligatsiyalar hajmining ko'payishi.

**Moliyaviy investitsiya** – daromad olish maqsadida investitsiyalarni turli qimmatli qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, banklarning depozit sertifikatlari va boshqalar) qo'yilishi nazarda tutiladi.

**Moliyaviy institutlar** – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

**Moliyaviy manbalar** – iqtisodiyotning turli darajasida chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag‘larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarining manbalari, davlat budjeti mablag‘lari, qarzga olingan mablag‘lar, xorijiy investorlarning mablag‘lari va boshqa ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

**Nou-xau** – ishlab chiqarish va kasb amaliyotida qo‘llaniladigan va patent bilan himoyalangan, tijorat ahamiyatiga ega bo‘lgan texnik, texnologik, tijorat va boshqa bilimlar majmui. Nou-xau o‘z ichiga tijorat sirlari, patentlanmagan texnologik jarayonlar va keng jamoatchilikka ma‘lum bo‘lmagan ishlab chiqarish va savdo xarakteriga ega bolgan axborotlarni olishi mumkin.

**Opsion** – litsenziya bitimining bir shakli, unda litsenziya sotib oluvchiga ixtiro yoki “nou-xau”ning texnik hujjatlari bilan tanishish huquqi beriladi, hujjatlar bilan tanishib chiqqach, u litsenziya sotib olish maqsadga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi haqida qaror qabul qiladi.

**Oferta** – ma‘lum shaxsga bitimning barcha zaruriy shartlari ko‘rsatilgan holda uni tuzish haqida qilinadigan rasmiy taklif.

**“Ofset” bitimlari** – savdo-sotiq shakllaridan biri bo‘lib, bunda mol va xizmatlar bilan almashinish bilan bir qatorda ko‘rsatilgan turli xizmat va imtiyozlarni pul bilan qoplash imkonini bersh ko‘zda tutiladi.

**Real investitsiya** – asosiy vositalarni vujudga keltirish, tovar moddiy boyliklari zaxirasini oshirishga qo‘yiladigan kapital, ya‘ni korxonalarini bunyod etish hamda ularning bir maromda ishlashini ta‘minlash uchun yetarli miqdorda xomashyo zaxiralarini barpo etishga yo‘naltirilishi.

**Reinvestitsiyalar**– investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

**Rekonstruksiya** (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani, ma‘naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o‘rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

**Rentabellik** – korxonaning faoliyatining foydalilik darajasi. Uning uch xil ko‘rsatkichi mavjud: korxonaning aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko‘rsatkichlarning balansdagi (sof) foyda ko‘rsatkichi korxonaning aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar va xususiy kapital miqdori hamda sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

**Reeksport** – ilgari chetdan keltirilgan va qayta ishlov berilmagan molni chetga sotish. Ko‘p hollarda mollarni chetdan sotib olish va uni mamlakatga kiritmasdan va chetda qayta ishlov bermasdan yana sotishdan ham reeksport deyishadi.

**Royalti** – litsenziya bitimida ko‘rsatilgan narsadan foydalanish huquqi uchun sotuvchi (litsenziar)ga vaqti-vaqti bilan pul o‘tkazib turish. Amalda royyalti qat‘iy miqdorda belgilanib, litsenziya oluvchi tomonidan litsenziya bitimiga amal qilish muddati davomida kelishilgan vaqt oralqlarida to‘lab boriladi. Litsenziya bitimlarida

royyalti miqdori litsenziya mahsulotining sof sotish qiymati, uning tannarxi yalpi foydadan foizlarda yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot birilgi hisobidan belgilanadi.

**Savdo preferensiyasi** – savdo-siyosiy rejimda bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga o‘zaro asosda yoki bir tomonlama tartibda beriladigan imtiyozlar. Bojxona rejimi, miqdoriy cheklashlar, valyuta hisob-kitoblari, qarz berish, sug‘urta qilish, standartizatsiya kabi savdo va iqtisodiy tartibga solishning barcha sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Preferensiyalar ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar, bojxona va iqtisodiy ittifoqlar, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish asosida beriladi.

**Stagnatsiya** – iqtisodiyotning ishlab chiqarish, savdo va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlaridagi turg‘unlik holati.

**Stagflyatsiya** – iqtisodiyotning inflyatsiya tendensiyalari rivojlangan davrdagi turg‘unlik holati.

**Subvensiya** – davlat tomonidan hukumatning mahalliy organlar yoki xo‘jalikning ayrim tarmoqlariga ma‘lum bir maqsadni ko‘zlab beriladigan moliyaviy yordamning bir turi. Inqirozga yuz tutgan bank va korxonalarni sog‘lomlashtirish vositasi sifatida yoki agressiv maqsadlarda – harbiy sanoat va u bilan bog‘liq tarmoqlarni rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladi.

**Tantema** – sanoat, savdo, bank korxonalarining sof foydasidan ularning idora a‘zolari, direktorlar va yuqori mansabli xizmatchilarga va boshqalarga rentabellik darajasini normativda belgilangandan oshirganliklari uchun to‘lanadigan qo‘shimcha mukofot.

**Transfert** – egasining nomi yozilgan qimmatbaho qog‘ozlarni bir kishi nomidan boshqa kishiga o‘tkazish.

**Tratta** – qarz beruvchining qarzdorga ma‘lum summani uchinchi shaxsga to‘lashi haqidagi yozma buyrug‘i.

**Faktoring** – qarzdor qarzini hisobdagi summani darhol qoplash yoki qarzni imkoniyatga qarab to‘lab borish yo‘li bilan inkassa qilish usuli. Bu majburiyatlarni sotib olishda mijozga majburiyat summasidan 80-90 % avans berib, qarzni to‘liq to‘langandan so‘ng yakuniy hisob-kitob qilish yo‘li bilan haq vositachilik tariqasida mukofotlanadi.

**Fyuchers bitimi** – mol yoki fond birjasidagi bitimlarning bir turi. Fyucherslik bitimi mol yoki aksiya uchun pul summasini bitim tuzilgandan keyin unda belgilangan narxlarda to‘lashni ko‘zda tutadi. Fyuchers bitimining asosiy maqsadi bitim muddatining tugash vaqtiga kelib, narxlar yoki aksiyalar kursida sodir bo‘ladigan farqni undirib olishdir.

**Xayring** – molga egalik huquqini ijaraga bermasdan chetdan keltiriladigan mollar uchun o‘rtacha muddatli davrga beriladigan qarzning bir shakli.

**Xedjirlash** – Fyuchers bitimlari tuzishda narx yoki foydani sug‘urta qilish shakllaridan biri. Xedjirlashda bitim qatnashchilari o‘zlarini bitim muddati davomida narxlar o‘zgarishi natijasida ko‘riladigan zarardan himoyalash imkoniga ega bo‘ladilar.

**Xolding** – o‘z kapitalidan boshqa kompaniyalar aksiyalarining kontrol paketlarini ular ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida sotib olish uchun foydalanadigan aksionerlar kompaniyasi.

**Chakana franziya** – ishlab chiqaruvchi bilan ulgurji yoki servis tashkiloti va turli korxonalar o'rtasidagi shartnoma bitimi bo'lib, tashkilot va korxonalarga hammaga yaxshi ma'lum marka ostida va muayyan qoidalar to'plamiga muvofiq holda xo'jalik faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi.

**Cherter** – 1) kema egasi va yollovchi o'rtasidagi butun kemani yoki uning bir qismini ma'lum muddatga ijaraga berish haqida tuzilgan shartnoma; 2) davlat tomonidan beriladigan va moliya kredit faoliyati shug'ullanish huquqini beradigan hujjat.

**Emissiya** – muomalaga bank va hukumat qog'ozlarini, qog'oz pullar va qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish.

**Erkin almashinadigan valyuta** – hamma tur operatsiyalar bo'yicha barcha darajadagi jismoniy va huquqiy shaxslar tomonidan boshqa milliy valyutalar va xalqaro to'lov vositalariga erkin, hech qanday cheklashsiz almashinadigan pul birligi.

**Erkin iqtisodiy zonalar** – chet ellik va milliy korxonalar uchun juda imtiyozli iqtisodiy sharoitlar mavjud cheklangan hududlar. Bunday zonalar tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, regional va ilmiy-texnik muammolarni hal qilish uchun tuziladi.

Xo'jalik yuritish uchun alohida imtiyozli sharoit erkin iqtisodiy zonalarini regional va strukturaviy siyosat kabi iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish va rag'batlantirish shakllariga yaqinlashtiradi. Lekin erkin iqtisodiy zonalarda tashqi iqtisodiy omillardan, avvalo, chetga mol chiqarish va chetdan mol keltirish hamda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda murosasozlik qilish va chet ellik korxonalarga turli imtiyozlar yaratish kabilardan ancha faolroq foydalaniladi.

**Diversifikatsiyalangan konsernlar** – Xolding kompaniyalari zamonaviy KMK tepasida turadi, ularning ko'pchiligi, ya'ni iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sektorlari korxonalarining birlashuvini ifodalaydi.

**Gibrid strategiya** – raqobatli strategiya va hamkorlik strategiyasining, ayrim hollarda esa uning tarmoqdagi pozitsiyalarini optimallashtirish maqsadida o'z kuchlariga tayanish strategiyasining uyg'unlashuvini ifodalaydi.

**Valyuta kursi tahdidi** – valyuta kursining tebranishi tufayli rejadagi ko'rsatkichga nisbatan foydani yo'qotish yoki to'liq olmaslik ehtimolidir.

**Xedjlash** – uning yordamida kelajakda kompaniyaning pul tushumlari beqarorligi bartaraf qilinadigan yoki kamaytiriladigan har qanday jarayondir.

**Yevrovalyuta** – xorijiy banklardagi hisob raqamlariga o'tkazilgan va ular tomonidan bu valyuta emitenti bo'lgan mamlakatni istisno qilganda barcha mamlakatlarda operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan milliy valyutadir. Masalan, *Credit Agricole Mutuel* (Fransiya) hisob raqamlarida joylashtirilgan AQSh dollari yevrodollar hisoblanadi.

**Jahon valyuta tizimi** – mamlakatlar valyuta munosabatlarining tarixan shakllangan, hukumatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan shaklidir.



**“Investitsion tahlil” fanini o‘rganish bo‘yicha**  
**test topshiriqlari:**

**1. Mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 2016-yilda necha foizga o‘ydi?**

- 7,8 foizga;
- 14 foizga;
- 22,5 foizga;
- 1,7 martaga.

**2. 2016-yilda jami investitsiyalar qancha miqdorni tashkil etdi?**

- 16 milliard 600 million dollari;
- 22 trln. so‘mni;
- 6,2 mlrd. yevroni;
- 85 mln. rublni.

**3. Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning nechta xorijiy investorlari faoliyat yuritmoqda?**

- 4 mingdan ortig‘i;
- 195 mingta;
- 852 taga yaqin;
- 112 ta.

**4. 2016-yilda qancha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashkil etildi?**

- 32 mingtani;
- 82 mingtani;
- 1100 tani;
- 465 mingtani.

**5. 2016-yilda kichik biznes subyektlarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushi necha foizni tashkil etdi?**

- 56,9 foizni;
- 72 foizni;
- 45,2 foizni;
- 95 foizni.

**6. Investitsion muhit:**

- ma‘lum bir regionga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi;

- iqtisodiyotning aniq tarmog‘iga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini ifodalaydi;

- iqtisodiyotning rivojlanmagan tarmog‘iga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini ifodalaydi;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarning aniq kapital qo‘yilmalarini ifodalaydi.

**8. Investitsiyalar qaratilgan soha va obyektlar bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:**

- kapital, innovatsiya, ijtimoiy;

- ijtimoiy, iqtisodiy, innovatsion;
- ma'naviy, ma'rifiy, moliyaviy;
- iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy.

**9. Investitsiya subyektlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:**

- davlatga qarashli, korporativ, xususiy, shaxsiy;
- tadbirkorlarga, biznesmenlarga qarashli investitsiyalar;
- davlatga qarashli, xorijiy investorlarga qarashli;
- xorijiy, korporativ, xususiy, shaxsiy.

**10. Moliya investitsiyalar deb:**

- qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya) sotib olishga va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo'yilmalar tushuniladi;
- mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsentziya va nou-xou berish, avtorlik huquqi va boshqalar tushuniladi;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarning aniq kapital qo'yimlarini ifodalash tushuniladi;
- ijtimoiy sohalarga kiritiladigan moliyaviy kapital mablag'lar tushuniladi.

**11. Intellektual investitsiyalar:**

- mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou-xou berish, avtorlik huquqi va boshqalar;
- aksiya, obligatsiya sotib olishga va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo'yilmalar;
- iqtisodiyotning aniq tarmog'iga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligi;
- ta'lim tizimiga kiritiladigan moliyaviy va kapital mablag'lar.

**12. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda qanday tahlil usuli qo'llaniladi?**

- moliyaviy tahlil;
- buxgalteriya hisoboti;
- statistik tahlil;
- dinamik tahlil.

**13. Kapital qo'yimlarning samaradorligini baholashda, asosan, nimalarga e'tibor beriladi?**

- iqtisodiy, ijtimoiy, marketing jihatlari, pul oqimi tahlili, balans tahlili, amortizatsiya hisobi va boshqalar;
- inflyatsiya sharoitidagi real va nominal qiymatlarni baholash;
- investorlar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalarning moliyaviy mablag'larini jamlash;
- korxonalarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish.

**14. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining asosiy maqsadi nimadan iborat?**

- real sektorning tayanch tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, samarali tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiya siyosatini moliyaviy ta'minlash;

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari korxonalarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- telekommunikatsiya infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirishni moliyalashtirish;
- noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha loyihalarini moliyalashtirish.

**15. Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari nimalardan iborat?**

- investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari, qo'yilmalarni baholash va loyiha qaytimi, hayotiylik davri, risk, noaniqliklar;
- kutilayotgan foyda yoki daromad har xil baholanishi va farq qilishi;
- istiqbolli milliy davlat dasturlari va loyihalarini moliyalashtirish;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini baholash.

**16. Investitsiyalash so'zining mazmunini izohlang:**

- moliyaviy, iqtisodiy resurslardan kelgusida foyda olish, uni yaratish va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddatga iqtisodiy resurslarni qo'yishdir.
- loyihaning hayotiylik davri va uni gorizont rejalashtirish;
- investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari; qo'yilmalarni baholash va loyiha qaytimi;
- ishlab chiqarish aktivlariga qo'yilgan asosiy va sof aylanma kapitalga aylantirish.

**17. Investitsion loyihaning statistik usuldagi tahlili qaysi davr (muddat) ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi?**

- 1 yil, yarim yil, 3 oydagi ko'rsatkichlar;
- 3 yil, 7 oydagi ko'rsatkichlar;
- 5 yil, yarim yil, 9 oydagi ko'rsatkichlar;
- 1 yil, choraklar.

**18. Investitsion loyihaning dinamik usuldagi tahlili qaysi davr (muddat) ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi?**

- ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi yillar davomida;
- 5 yil, yarim yil, 9 oydagi ko'rsatkichlar;
- 1 yil, choraklar;
- 5, 7 yil va 10 yilgacha muddatlarni.

**19. Moliyaviy tahlilda absolyut narx qanday miqdorni ifodalaydi?**

- bir mahsulot qiymatini absolyut pul miqdorini;
- bir mahsulot qiymatini kilogramm (tonna)dagi miqdorini;
- bir mahsulot qiymatini nisbiy narxlar orqali;
- bir mahsulot miqdorini santimetr, metr, kilometr hisobida.

**20. Moliyaviy tahlilda nisbiy narx qanday miqdorni ifodalaydi?**

- uning qiymati orqali ko'rsatib beradi;
- bir mahsulot qiymatining kilogramm (tonna)dagi miqdorini;
- moliyaviy, iqtisodiy resurslarni kelgusida foyda olishni;
- inflyatsiya darajasini ko'rsatib beradi.

**21. Loyihaning iqtisodiy hayotiy davrini aniqlashda qaysi ko'rsatkichlar qo'llaniladi?**

- talab, bino va uskunalardan foydalanish, xomashyoni saqlash va yetkazib berishning davomiyligi; muqobil investitsiyalash imkoniyatlari;

- bino va uskunalardan foydalanishning davomiyligi, boshqaruvdagi chegaralanishlar;

- xomashyoni saqlash va yetkazib berishning davomiyligi, texnik yuksalish darajalari;

- muqobil investitsiyalash imkoniyatlari, moliyaviy, iqtisodiy resurslarning kelgusida foyda olishi.

## **22. Investitsion loyihalarni baholashning qanday usullari mavjud?**

- statistik, dinamik usullari;

- iqtisodiy, buxgalteriya usullari;

- moliyaviy, statistik usullari;

- iqtisodiy, ijtimoiy usullari.

## **23. Moliyaviy tahlilda qaysi narxlar ishlatiladi?**

- bozor narxlar;

- davlat narxlar;

- o'zaro kelishilgan narxlar;

- INKOTERMS narxlar.

## **24. Emitent:**

- qimmatli qog'ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to'lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar;

- davlat tomonidan investitsiyalar kiritish;

- xorijiy investitsiyalar tomonidan valyuta mablag'lar kiritish;

- xususiy tadbirkorlar mablag'lari.

## **25. Pudratchilar:**

- yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar;

- davlat buyurtmalari asosida tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar;

- yuridik shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar;

- jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar.

## **26. Reinvestitsiyalar:**

- investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritish;

- o'z kapitalini investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

- qimmatli qog'ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to'lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar;

- pul va boshqa moliyaviy mablag'lar (kreditlar, paylar, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar).

## **27. Investitsiya faoliyati obyektlari qanday turkumlarga bo'linadi?**

- moliyaviy va real investitsiyalar obyektlari;

- davlat va boshqa mulk egalari;



- davlat va boshqa aksioner-banklariga qo'yiladigan maqsadli jamg'armalar;
- fan-texnika mahsulotlari, kashfiyot, ixtirolar, izlanishlar, ta'minot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

### **28. Investitsiya resurslari:**

- investitsion faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko'rinishdagi mablag'lar;
- pul va boshqa moliyaviy mablag'lar (kreditlar, paylar, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar);
- pul va boshqa moliyaviy mablag'lar (kreditlar, paylar, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar);
- yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi.

### **29. Yalpi investitsiya:**

- ma'lum davr ichida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni vujudga keltirish uchun sarflanadigan investitsion kapitalning umumiy hajmi;
- barcha markazlashgan investitsiya kapital mablag'lar hajmi;
- barcha markazlashmagan investitsiya kapital mablag'lar hajmi;
- regionlarni rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan kapital mablag'lar.

### **30. Investitsion loyiha:**

- barpo etilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan obyektlar, texnologik jarayonlar va ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar majmuasi;
- moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni yaratish bilan bog'liq tadbirlar;
- investitsion mablag'larni jalb qilish bo'yicha boshqaruv qarorlari bajarilishini o'z ichiga oladigan maqsadli tizim;
- davlat tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ko'zda tutilayotgan tadbirlar.

### **31. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etishning ichki sabablarini ko'rsating.**

- investitsiya muhitidan foydalanish, boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish, mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish, ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish, xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish;
- mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish, ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish;
- zamonaviy va eng qulay tartibga erishish, sog'lom va samarali raqobat muhiti, xodimlar malakasini oshirish;
- siyosiy keskinlikning yumshashi, mahalliy hokimiyatning talablari.

### **32. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etishning tashqi sabablarini ko'rsating.**

- jahon bozoriga chiqish; sog'lom va samarali raqobat muhiti; siyosiy keskinlikning yumshashi; mahalliy hokimiyatning talablari.
- mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
- boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish;
- mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish, siyosiy keskinlikning

yumshashi.

**33. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladigan ko'rsatkich belgilangan:**

- 72 foizdan ziyodi yoki 2,2 mlrd. dollari;
- 95 foizdan ziyodi yoki 12 mlrd. dollari;
- 125 foizdan ziyodi yoki 105 mlrd. dollari;
- 72 foizdan ziyodi yoki 120 trln. so'mi.

**34. "O'zinfoinvest" agentligi qanday yo'nalishlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etadi?**

- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, korxonalarining aksiyalar paketini xorijiy investorlarga taklif etish, kimoshdi savdolari orqali;
- davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati loyihalari, hududiy investitsiya dasturi loyihalari;
- kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;
- korxonalarining aksiyalar paketini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.

**35. "O'zinfoinvest" agentligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tartibini ko'rsating.**

- davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati va hududiy investitsiya dasturi loyihalari, davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish yig'ma ro'yxati, grant mablag'lari;
- kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;
- davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish yig'ma ro'yxati;
- korxonalarining aksiyalar paketini xorijiy investorlarga taklif etish, kimoshdi savdolari orqali.

**36. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini ko'rsating.**

- 100 foizli bo'lgan xorijiy korxonalar, qo'shma korxonalar, konsessiya va lizing shartnomalari tuzish, tenderlar e'lon qilish, erkin iqtisodiy hududlar;
- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish, birgalikda ulush qo'shish orqali qo'shma korxonalarini tashkil etish;
- konsessiya va lizing shartnomalari tuzish, tenderlar e'lon qilish;
- kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.

**37. Mamlakatimizda nechta qo'shma va xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyat ko'rsatadi?**

- 4500 dan ortiq;
- 1200 dan ortiq;
- 8561 ta;
- 125610 ta.

**38. Mamlakatimizda nechta xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyat ko'rsatadi?**

- 1000 ga yaqin;
- 2500 ta;

- 4760 ta;

- 562 ta.

**39. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablari:**

- ichki, tashqi va strategik sabablar;

- davlatni moliyaviy faoliyatini tiklash bilan bog'liq sabablar;

- ichki bozorni himoya qilish bilan bog'liq tadbirlar;

- import salohiyatini oshirish bilan bog'liq tadbirlar.

**40. Xorijiy investitsiyalarning ahamiyati bo'lib:**

- eksportga mo'ljallangan import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarish, kichik biznesni rivojlantirish va aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq tadbirlar;

- neft-gaz salohiyatini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlardir;

- qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar.

**41. Investitsion muhit:**

- iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy shart-sharoitlar;

- iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy sharoitlar;

- iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar;

- moddiy-ma'naviy va siyosiy muhitdir.

**42. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?**

- 24.12.1998-y.;

- 25.05.2001-y.;

- 15.12.2006-y.;

- 13.07.2014-y.

**43. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?**

- 30.04.1998-y.;

- 29.02.2003-y.;

- 16.08.2012-y.;

- 09.04.1999-y.

**44. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan?**

- 11.04.2005-y.;

- 15.09.2003-y.;

- 23.07.2008-y.;

- 03.10.2013-y.

**45. Xorijiy investorlarga axborot bilan qo'llab-quvvatlash hamda har taraflama ko'maklashish maqsadida qaysi mutasaddi muassasa tashkil etilan?**

- "O'zinfoinvest" agentligi;

- O'zR Moliya vazirligi;

- O'zR Milliy Banki;

- TIAISV.

**46. Investitsiya sharoitni yaxshilashning eng progressiv yo'li bo'lib qaysi**

**biri hisoblanadi?**

- litsenziyalar importi bo'lib;
- FOB, FAS va SIF shartnomalari;
- eksprot va import shartnomalari;
- INKOTYERMS shartnomalari.

**47. Xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning usullari quyidagilar:**

- moliyaviy va nomoliyaviy;
- moddiy va ma'naviy;
- soliq va huquqni himoya qilish organlari;
- moliyaviy va ijtimoiy.

**48. Erkin iqtisodiy hudud:**

- ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir;
- barcha xorijiy investorlarning erkin darajada faoliyat ko'rsatayotgan hududlardir;
- xorijiy investorlarning mamlakatning istalgan hududlarida erkin faoliyat olib borishi cheklanmagan hududlar;
- sanoati rivojlangan, ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan hudud.

**49. O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxonalar:**

- xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorga tegishli bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalaridir;
- xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining kamida 50 % xorijiy investorga tegishli bo'lgan korxonalaridir;
- xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining 100 % xorijiy investorga tegishli bo'lgan korxonalaridir;
- xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining kamida 50 % xorijiy investorga tegishli bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalaridir.

**50. Investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy usuli:**

- jadallashtirilgan amortizatsiya, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, qarzlar berish, kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- infrastruktura bilan ta'minlash, texnik yordam ko'rsatish;
- kapitalni olib chiqishdagi to'siqlarni yo'qotish.

**51. Investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning nomoliyaviy usuli:**

- yer uchastkalari ajratish, zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash, texnik yordam ko'rsatish;
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.
- kreditlar, moliyaviy mablag'lar ajratish, turar-joylar bilan ta'minlash.



**52. Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini rag'batlantirish qanday amalga oshiriladi?**

- kapital eksport-importini milliy va xalqaro darajada;
- milliy valyutalarni eksport salohiyatini oshirish;
- paxta xomashyosini eksport qilish;
- ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorning amal qilishi.

**53. Xorijiy davlatlarda (AQSh, Yevropa davlatlarida) xorijiy investitsiyalarni tartibga solishni aniqlang.**

- federal, mahalliy (shtatlar, okruglar, shaharlar);
- qonuniy va BMT ko'rsatmalari;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida;
- retsident mamlakatning milliy qonunchiligi asosida.

**54. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim mexanizmlarini (vositalari) aniqlang.**

- xorijdagi vakolatxonalar;
- soliq va bojxona tashkilotlari;
- Moliya va Markaziy bank;
- Iqtisodiyot vazirligi, TIASV orqali.

**55. Investitsiya loyihalarining asosiy mezonlari:**

- ularning samaradorligi, ayrim tarmoqlarni va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulotlarni eksportga yo'naltirilganlik, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;

- ularning moliyaviy samaradorligi, mahsulotlarni eksportga yo'naltirilganlik;

- ayrim tarmoqlarni va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari;

- mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulotlarni eksportga yo'naltirilganlik, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

**56. Investitsiya dasturida loyihani baholash qiymati:**

- qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari;

- davlat tomonidan belgilab berilgan manbalar qiymati, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari;

- qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj;

- korxonalarining o'z mablag'larini yillar bo'yicha hisob-kitoblar asosida belgilab olgan manbalari va istiqboldagi reja mablag'lari yig'indisi.

**57. Investitsiya dasturini tasdiqlash bo'yicha mas'ul davlat muassasasini ko'rsating.**

- O'zR Vazirlar Mahkamasi;
- O'zR Iqtisodiyot Vazirligi;
- O'zR Moliya Vazirligi;
- O'zR Markaziy banki.

**58. Investitsiya dasturning aniq ro'yxatiga qanday manbalar asosida amalga oshiriladigan loyihalar kiritiladi?**

- markazlashtirilgan manbalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobida;

- hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobida;

- markazlashtirilgan manbalar, xorijiy investorlar manbalari asosida shakllantirilayotgan loyihalar;

- markazlashtirilmagan manbalar va tadbirkorlik subyektlari manbalari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar.

**59. Investitsiya loyihalari nechta bosqichda tanlab olinadi?**

- 2 ta;

- 3 ta;

- 5 ta;

- 10 ta.

**60. Korxonalar mablag'lari Investitsiya dasturining qaysi manbalarida ko'rsatiladi?**

- markazlashmagan;

- markazlashgan;

- markazlashgan va markazlashmagan;

- ko'rsatilmaydi.

**61. Investitsiya dasturini shakllantirish va tasdiqlash tartibi nechta bosqichda amalga oshiriladi?**

- 9 ta;

- 5 ta;

- 3 ta;

- 12 ta.

**62. "Qishloq qurilish bank" AKBning qishloq joylarida uy-joylarini qurish uchun imtiyozli kreditlari Investitsiya dasturining qaysi manbalarida ko'rsatiladi?**

- markazlashmagan;

- markazlashgan;

- davlat moliyaviy manbalardan;

- Markaziy bankda.

**63. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida) Investitsiya dasturining qaysi manbalarida ko'rsatiladi?**

- markazlashmagan;

- markazlashgan;

- davlat moliyaviy manbalardan;

- O'zR Milliy bankida.

**64. Davlat budjeti mablag'lari Investitsiya dasturining qaysi mablag'larida ko'rsatiladi:**

- markazlashgan;

- markazlashmagan;

- davlat moliyaviy manbalardan;

- O'zR Milliy bankida.

**65. Loyiha oldi hujjatlari deganda nimani tushunasiz?**

- qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, uning hayotiylikini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi;
- ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni ifodalovchi hujjat;
- qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar;
- asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismdan iborat hujjat.

**66. Loyiha hujjatlariga nimalar kiradi?**

- ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar;
- loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, uning hayotiylikini asoslab beruvchi hujjatlar;
- huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari;
- moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari, bank ma'lumotlari va statistik ma'lumotlar.

**67. Ishchi loyiha deganda nimani tushunasiz?**

- cheklangan qiymat va ish hujjatlariga ega bo'lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismdan iborat hujjat;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismdan iborat hujjat;
- maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlar;
- davlat, huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari.

**68. Investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish bosqichlarini ko'rsating.**

- g'oyani shakllantirish, imkoniyatlarni tadqiq etish, texnik-iqtisodiy asoslash, hujjatlarini tayyorlash, qurilish-montaj ishlari, monitoringini olib borish;
- qurilish-montaj ishlari, hujjatlarini tayyorlash, monitoringini olib borish;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan hujjatlarni tayyorlash;
- ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni asoslovchi hujjatlarni tayyorlash.

**69. "Investitsiya loyihasi" tushunchasining ma'nosi nimani anglatadi?**

- iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksi;
- ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni hal etishga yo'naltirilgan tadbirlar.
- yo'naltirilgan maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlarini bayon etuvchi qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.

- ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni ifodalovchi tadbirlar.

**70. Investitsiya loyihasi riskini baholash usullarini ko'rsating.**

- "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash, barqarorlikni tekshirish;

- barqarorlikni tekshirish;
- "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash;
- loyihaning barqarorligi.

**71. Loyiha ishtirokchilari risk omillari qaysilar?**

- ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik;
- tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilishning qisqargani;
- investorlar uchun soliq, bojxona imtiyozlarining asossizligi;
- faoliyat nazoratining qisqarishi.

**72. Loyiha tavakkalchiligi deganda nimani tushunasiz?**

- bu investitsiya loyihasini amalga oshirishga xalaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisidir;
- ijtimoiy to'lovlarga ajratilayotgan mablag'larning o'sishi;
- global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hukm surayotgani;
- davlat budjeti tanqisligi.

**73. Qanday investitsiya loyihalari davlat ekspertizasidan o'tishi lozim?**

- davlat tashkilotlari buyurtmasi bo'yicha tayyorlangan investiya loyihalari;
- budjet moliyalashtirishiga ega investitsion loyihalar;
- moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shaklidan, qat'iy nazar, barcha investitsion loyihalar;
- maktab qurish uchun yo'naltirilgan loyihalar.

**74. Kichik biznes subyektlari investitsiya loyihalarini sug'urtalashda qaysi muassasa tomonidan sug'urtalanadi?**

- "Madad" sug'urta kompaniyasi tomonidan;
- "Agrasanoat" sug'urta kompaniyasi, "Madad" sug'urta kompaniyasi tomonidan;
- davlat tomonidan, "Agrasanoat" sug'urta kompaniyasi tomonidan;
- "Delta", "Madad" sug'urta kompaniyalari tomonidan.

**75. Investitsion loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot moliyaviy tahliliga qaysi moliyaviy hisobotni tayyorlash kiradi?**

- balans hisoboti;
- yuqorida keltirilgan hisobotlarning barchasi;
- daromadlar (foyda va zararlar) hisoboti;
- pul mablag'lari tushumlari va chiqimlari hisoboti.

**76. Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash:**

- texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishda eng samarali texnik hujjat;

- variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlash imkonini beruvchi hujjat;

- texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda



moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat;

- texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni yakuniy hisob-kitoblar asosida asoslovchi hujjat.

**77. Texnik-iqtisodiy asoslash:**

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, investitsiya loyihasini amalga oshirishning xorijiy investor va tijorat banklari tomonidan qurilish obyektlarini moliyalashtirishni belgilovchi hujjat;

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi hujjat;

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning xorijiy investor va tijorat banklari tomonidan qurilish obyektlarini moliyalashtirishni belgilovchi hujjat;

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning davlat tomonidan qurilish obyektlarini moliyalashtirishni belgilovchi hujjat.

**78. Davlat investitsiya dasturi necha yilga shakllantiriladi?**

- 3 yilga;

- 7 yilga;

- 5 yilga;

- 1 yilga.

**79. Investitsiya loyihalarining tanlov savdolari qanday tartibda belgilanadi?**

- tender savdolari orqali;

- buyurtmachi va pudratchilarning o'zaro shartnomalari asosida;

- davlat tomonidan belgilangan tartibda;

- davlat va tijorat banklarining tavsiyalari asosida.

**80. Davlat investitsiya dasturiga kiritish uchun asos bo'ladigan hujjat:**

- dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTI), biznes reja;

- dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTI);

- texnik iqtisodiy asoslash (TIA);

- biznes reja.

**81. Uzoq muddatli investitsion loyihalar:**

- muddati 3-7 yilgacha;

- muddati 5 yildan ortiq;

- muddati 7-15 yilgacha,

- muddati 10 yildan ortiq;

**82. Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlarining vazifalari nimalardan iborat?**

- davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, respublikada investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtiruvchi institutlar;

- respublikada investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtiruvchi institutlar;

- xalqaro o'zaro kelishilgan davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan institutlar;

- hamdo'stlik mamlakatlari bilan o'zaro kelishilgan bitimlar asosida tashkil

etilgan tashkilot.

**83. Investitsiya loyihasi amal qilish sohasi va darajasiga ko'ra necha yilgacha bo'lishi mumkin?**

- 40-50 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin;
- 10-15 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin;
- 25 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin;
- 17 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin.

**84. Texnik iqtisodiy asoslanish (TIA) vakolatli ekspertiza organlarini ko'rsating:**

- Iqtisodiyot vazirligi, TIAISV, "Davarxitekt qurilish" qo'mitasi, Moliya vazirligi va Vakolatli bank;

- Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi va Vakolatli bank;

- Iqtisodiyot vazirligi, TIAISV, "Davarxitekt qurilish" qo'mitasi;

- "Davarxitekt qurilish" qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy bank.

**85. Texnik iqtisodiy asoslash kimlar tomonidan ishlab chiqilishi mumkin?**

- loyihachi va buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan loyihachilar tomonidan;

- "Davarxitekt qurilish" qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi;

- litsenziyasi bo'lgan loyihachilar tomonidan;

- "Davarxitekt qurilish" qo'mitasi va Moliya vazirligi.

**86. Real investitsiyalar:**

- faoliyat yuritayotgan korxonalarni texnik qayta qurollantirish, ta'mirlash va yangi korxonalarni barpo etishga yo'naltirilgan qo'yilmalar;

- korxonalarni ta'mirlash va yangi barpo etishga yo'naltirilgan qo'yilmalar;

- davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar;

- kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar.

**87. Investitsiya loyihalarini moliyalash manbalarini ko'rsating.**

- jismoniy va yuridik shaxslarning o'z moliyaviy va qarzga olgan mablag'lari, budjetning moliyaviy mablag'lari;

- davlat tomonidan loyihalarni moliyalash maqsadida budjetdan yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar;

- xorijiy davlatlar tomonidan loyihalarni moliyalash maqsadida yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar;

- markaziy bank tomonidan loyihalarni moliyalash maqsadida budjetdan yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar.

**88. Korxonaning o'z-o'zini moliyalash koeffitsiyenti muqobil darajasini ko'rsating.**

- 51 foizdan kam bo'lmasligi kerak;

- 35 foizdan kam bo'lmasligi kerak;

- 12-17 foizdan kam bo'lmasligi kerak;

- 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

**89. Qisqa muddatli kreditlarni aniqlang.**

- 1 yilgacha;
- 1-3 yilgacha;
- 5 yilgacha;
- 3-6 oygacha.

**90. O'rta muddatli kreditlarni aniqlang.**

- 1-5 yilgacha;
- 5-7 yilgacha;
- 3 yilgacha;
- 10 yilgacha.

**91. Uzoq muddatli kreditlarni aniqlang.**

- 5 yildan ortiq;
- 10 yildan ortiq;
- 3-5 yil;
- 20 yildan ortiq.

**92. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish nimani anglatadi?**

- loyiha bo'yicha asosiy vositalarni sotib olishni, tashkil etishni yoki qurilishni moliyalashtirishdir;

- xorijiy investitsiyali korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyalashtirishdan iborat;

- kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyalashtirishdan iborat;

- qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida uy-joylarni qurish uchun yo'naltirilgan mablag'lar.

**93. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy bosqichlarini ko'rsating.**

- loyihaning texnik, iqtisodiy va moliyaviy tahlili;
- loyiha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari hisoblanadi;
- moliyaviy balanslar asosida daromad va xarajatlarini aniqlash;
- hisobot yilida korxonaning moliyaviy risklarni baholash bo'lib hisoblanadi.

**94. Loyihaviy tahlilning obyekti bo'lib:**

- loyihaviy hujjatlar (loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi) hisoblanadi;
- loyihaning iqtisodiy, moliyaviy samaradorligini belgilash;
- loyiha bo'yicha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari hisoblanadi;
- moliyaviy risklarni baholash bo'lib hisoblanadi.

**95. Loyihalarni parallel (hamkorlikda) moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?**

- bir qancha kredit muassasalari investitsiya loyihasini amaliyotga tatbiq etishi uchun qarz mablag'lari ajratadi;

- davlat tomonidan investitsiya loyihasining amaliyotga tatbiq etishi uchun budjet mablag'lari ajratadi;

- kichik biznes subyektlarini rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- milliy bank tomonidan soha va tarmoqlarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar.

**96. Loyihaviy moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning qaysi tarmoq va sektorlarida ishtirok etish mumkin?**

- telekommunikatsiya, transport, foydali qazilmalarni qazish, energetika, qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda;

- foydali qazilmalarni qazish, energetika, qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda;

- kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hamda qayta ishlovchi tarmoqlar;

- davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy sohalardan iborat.

**97. Loyihalarni konsessiya shartnomasiga asosan moliyalashtirish nimadan iborat?**

- konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida (20, 30 va undan ortiq yillarga) barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, so'ng obyekt davlatga topshiriladi;

- konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, so'ng obyekt tadbirkorga topshiriladi;

- konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, so'ng obyekt xizmat ko'rsatuvchi bankka topshiriladi;

- konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, so'ng obyekt kimoshdi savdosiga (birjaga) topshiriladi.

**98. Uzoq muddatli kreditni olish uchun qarz oluvchi bankka o'zining to'lovga layoqatliligini tavsiflovchi qanday hujjatlarni taqdim qiladi?**

- buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risida hisobot, loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi;

- loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi;

- foyda va zararlar to'g'risida hisobot;

- shartnoma shartlarini bajarganligi uchun foyda va zararlar to'g'risida hisobot.

**99. Bank uzoq muddatli kreditni qaytarish davriyligini va muddatlarini belgilashda nimalarga e'tibor beradi?**

- qilingan xarajatlarning qarz oluvchining sof foydasi hisobiga qoplanishiga, korxonaning to'lovga layoqatliligiga, kredit riski darajasiga;

- o'zaro shartnoma shartlarini bajarganligi uchun foyda va zararlar to'g'risida hisobotga;

- kichik biznes subyektlarini rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha kredit riski darajasiga;

- davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy mablag'larning miqdori va foizlar stavkasiga.

**100. Lizing obyektlariga quyidagilar kiradi:**

- ko'char mulk;

- ko'chmas mulk, davlat mulki, shaxsiy mulk;

- bin-inshootlar, kompyuterlar, shaxsiy mashina;

- stanoklar, asbob-uskunalar, maishiy kommunal binolari.

**101. Lizing subyektiga quyidagilar kiradi:**



- lizing beruvchilar, mulkni yetkazib beruvchilar va lizing oluvchilar;
- moliya kredit muassasalari, savdo-ta'minot tashkilotlari;
- korxonaning shu'ba bo'limlari va bo'linmalari, tadbirkorlar;
- ixtisoslashgan lizing kompaniyasi, davlat muassasalari va iste'molchilar.

**102. Lizing operatsiyalari necha tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi?**

- 3 taraflama: (sotuvchi-lizing, beruvchi-lizing, oluvchi);
- 1 taraflama: (sotuvchi tomonidan o'zi amalga oshiradi);
- 4 taraflama: (sotuvchi-lizing, beruvchi-lizing, oluvchi-yurist);
- 2 taraflama: (sotuvchi-lizing, beruvchi).

**103. Lizing xizmati bo'yicha belgilangan imtiyozlar:**

- qo'shilgan qiymat solig'idan, mulk solig'idan ozod qilingan;
- yalpi daromad solig'idan;
- mol-mulk, foyda solig'idan;
- texnika vositalarini amortizatsiya qilishdan.

**104. Lizing qulayliklari:**

- moliyalashtirishning uzoq muddatliliigi, soliq bo'yicha imtiyozlar, garovdan xalos bo'lish;

- soliq bo'yicha imtiyozlar, garovdan xalos bo'lish, qisqa muddatliliigi;
- garovdan xalos bo'lish, komission yig'implarning pastligi;
- lizing oluvchiga talablarning chegaralanmaganligi.

**105. Moliyaviy lizing turlariga quyidagilar kiradi:**

- ko'chmas mulk, qaytuvchi lizing, bo'linma va guruhli (aksionerlik) lizing;
- bino-inshootlar, bank moliyaviy muassasalar mablag'lari;
- tadbirkorlik subyektining ko'chmas mulki;
- lizing oluvchi va lizing beruvchining mol-mulki.

**106. Tezkor lizing:**

- shartnoma muddati mulkning xizmat qilish muddati kamligidan iborat;
- lizing operatsiyalarini qisqa muddatlarda bajarilishini ifodalaydi;
- lizing operatsiyalari bo'yicha to'lovlarning tez bajarilishi;
- mol-mulkni yoki vositalarni tezkor qaytarilishi.

**107. Forfeyting:**

- tijorat kreditini bank kreditiga aylantirishning formasi hisoblanadi;
- mol-mulkni o'zaro kelishilgan narxda sotish;
- uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish;
- qarz bo'lib qolganda bankdan yana qarz olish.

**108. Lizing bo'yicha amortizatsiya:**

- lizing obyektini qiymatining qaytimi;
- lizing qoldiq qiymati kirimi;
- obyektini qayta tiklash miqdori;
- obyektini to'liq qayta tiklash.

**109. Lizing funksiyalari:**

- moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish;
- ishlab chiqarish, oldi-sotdi;

- moliyaviy, ijaraga berish;
- sug'urta, ijaraga berish.

**110. O'zR "Lizing to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?**

- 1999-yil 14-aprelda;
- 2005-yil 7-yanvarda;
- 2011-yil 23-mayda;
- 1997-yil 16-avgustda.

**111. O'zR Prezidentining "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan?**

- 2004-yil 08-yanvarda;
- 2012-yil 15-martda;
- 1997-yil 07-iyulda;
- 2006-yil 12-fevralda.

**112. Operativ lizing deganda nimani tushunasiz?**

- lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasi asosida lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin;
- lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasi asosida lizing obyektini tezkor muddatda sotiladi;
- lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasi asosida lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchini o'ziga qoladi;
- lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasi asosida lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi ta'minlovchi bankka o'tishi mumkin.

**113. Lizing obyektidan garov sifatida foydalanish mumkinmi?**

- lizing beruvchi lizing oluvchining oldindan roziligini olmay turib, lizing obyektidan garov sifatida foydalanish huquqiga ega emas;
- lizing beruvchi lizing oluvchiga lizing obyektidan garov sifatida foydalanishi mumkin;
- lizing beruvchi lizing oluvchiga lizing obyektidan davlat kafolati ostida foydalanishi mumkin;
- lizing beruvchi lizing oluvchiga lizing obyektidan xizmat ko'rsatuvchi bank ko'rsatmasiga asosan foydalanishga berish mumkin.

**114. Lizing shartnomasi asosida berilgan texnologik jihozlar qanday imtiyozlarga ega?**

- qo'shimcha qiymat solig'idan, bojxona to'lovlari va mulk solig'idan ozod qilinadi;
- bojxona to'lovlari va mulk solig'idan ozod qilinadi;
- daromad solig'idan, qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilinadi;
- daromad solig'idan, qo'shimcha qiymat solig'idan, ish haqi to'lovlaridan ozod qilinadi.

**115. Asosiy lizing turlarini ko'rsating.**

- moliyaviy va tezkor lizing;
- moliyaviy, bevosita, bilvosita lizing;
- qaytuvchi lizing, tezkor lizing, eksport lizingi;
- bo'linma lizing, import lizingi.

### **116. Moliyaviy lizing qanday turlarga bo'linadi?**

- ko'chmas mulk, qaytuvchi, bo'linma va guruhli (aksionerlik) lizing;
- qaytuvchi, bo'linma va tezkor lizing;
- import, eksport lizingi;
- bilvosita va guruhli (aksionerlik) lizing.

### **117. Bevosita lizing:**

- lizing beruvchi sifatida o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi va mulkni ishlab chiqaruvchi korxonalar ishtirok etadi;
- lizing beruvchi sifatida o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bank ishtirok etadi;
- lizing beruvchi sifatida o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi va davlat korxonalari ishtirok etadi;
- kichik biznes tadbirkorlari va va lizing xizmati ko'rsatuvchi bank ishtirok etadi.

### **118. Bilvosita lizing:**

- mulkni vositachi orqali lizingga berishni ko'zda tutadi, ya'ni uch tomonlama klassik bitim imzolanadi yoki ishtirokchilar soni 4-7 kishi bo'lgan ko'p tomonlama bitim tuziladi;
- lizing beruvchi sifatida o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bank ishtirok etadi;
- lizing beruvchi va lizing oluvchiga lizing obyektidan xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasi ishtirok etadi;
- lizing beruvchi sifatida o'z mulkini mustaqil ravishda lizingga beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bank ishtirok etadi.

### **119. Xalqaro lizing:**

- import lizingi, eksport lizingi, tranzit lizing (bitimning uchala ishtirokchisi ham turli xil mamlakatlarda bo'ladi);
- import lizingi, tranzit lizing (bitimning ikkala ishtirokchisi ham turli xil mamlakatlarda bo'ladi);
- tranzit lizing (bitimning barcha ishtirokchilari turli xil mamlakatlarda bo'ladi);
- import lizingi (bitimning barcha ishtirokchilari lizing beruvchi mamlakatlarda bo'ladi).

### **120. Bo'linma lizing:**

- qo'shimcha mablag'larni jalb qiluvchi bir necha kredit tashkilotlari yirik lizing loyihalarini moliyalashtirish uchun birlashtirish;
- davlat va tadbirkorlarni lizing asosida yirik loyihalarni amalga oshirishdagi bitim;
- yirik loyihalarni amalga oshirishda yirik xorijiy banklarning birlashishidan iborat;
- davlat ahamiyatiga ega bo'lgan loyihalarni bajarishda sug'urta kompaniyalarining birlashishi.

### **121. Guruhli (aksiyadorlik) lizing:**

- lizing kompaniyasi mulkni ishlab chiqaruvchi firmalarning lizing kompaniyalari yoki banklar bilan kooperatsiyasidan iborat;
- davlat va markaziy bank tomonidan lizing tariqasida o'zaro birlashuvidan iborat;
- lizing sifatida sug'urta kompaniyalari va xorijiy kompaniyalarning kooperatsiyasi;
- milliy va markaziy banklarning lizing sifatida ijtimoiy loyihalarni bajarishda birlashuvidir.

#### **122. "Sof" lizing:**

- lizingga olinuvchi mulkka xizmat ko'rsatishni lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi, bunda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar lizing to'lovlariga kiritilmaydi;
- davlat va markaziy bank tomonidan lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi;
- bir necha kredit tashkilotlarining yirik lizing loyihalarini moliyalashtirishda markaziy bank barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi;
- davlat va tadbirkorlarni lizing asosida yirik loyihalarni amalga oshirishdagi barcha xarajatlarni davlat o'z zimmasiga oladi.

#### **123. Kompensatsion lizing:**

- foydalanilayotgan asbob-uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yetkazib berish yoki boshqa turda xizmat ko'rsatishni ko'zda tutadi;
- foydalanilayotgan asbob-uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish;
- mahsulotlarini sotish va kerakli mahsulotlarni sotib olish;
- mahsulotlarni xorijga sotish va valyuta tushumlarini tushirish.

#### **124. Lizingdan olinuvchi o'rtacha foyda normasi hisob-kitoblari qaysi formula asosida aniqlanadi?**

- lizingda foyda normasi, yillik yalpi daromad, lizing beruvchiga to'lanuvchi foizlar miqdori ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi;
- yillik yalpi daromad, barcha tushumlardan tushgan sof daromad;
- lizingda foyda normasi, yillik yalpi daromad;
- lizing beruvchiga to'lanuvchi foizlar miqdori ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

#### **125. Lizing to'lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?**

- lizing obyektining balans qiymati, to'liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya chegirmalari normasi, lizing muddati (yillarda);
- to'liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya chegirmalari normasi, lizing muddati (yillarda);
- yillik yalpi daromad, barcha tushumlardan tushgan sof daromad;
- lizing obyektining balans qiymati, yillik yalpi daromad.

#### **126. Kapital qo'yilmalar deganda nimani tushunasiz?**

- yangi obyektlarni qurish, amaldagilarni ta'mirlash, texnik qayta jihozlash va kengaytirish, texnik jihozlar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi;



- yangi obyektlarni qurish, texnik jihozlar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi;

- yangi texnologiyalar, transport vositalari sotib olish uchun bog'liq xarajatlar yig'indisi;

- asbob-uskuna, instrumentlar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi tushuniladi.

127. Kapital qo'yilmalar investitsiyaning tarkibiy qismi bo'lib:

- to'g'ridan to'g'ri asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan qismini;

- yangi texnologiyalar, transport vositalari sotib olishni;

- asbob-uskuna, transport vositalari va instrumentlar sotib olishni;

- texnik qayta jihozlash va kengaytirish, texnik jihozlar sotib olishni tashkil etadi.

128. Kredit mablag'lari hisobidan obyektlarni ko'rish, qayta tiklash va texnik qayta qurollantirish maqsadida moliyalashtirish tartibini ko'rsating.

- loyihalar texnik-iqtisodiy asosi va loyiha-smetaviy hujjatlari, yig'ma smeta-moliyaviy hisob-kitoblari, pudrat shartnomlari, mas'ul muassasalar ekspertiza xulosalari;

- qurilishning butun davri uchun bajariladigan ishlarga haq to'lash shakllarini ko'rsatib o'tgan holda tuzilgan pudrat shartnomlari;

- tegishli tartibda tasdiqlangan loyihalar texnik-iqtisodiy asosi va loyiha-smetaviy hujjatlari;

- yillar bo'yicha taqsimlangan qurilishning adresli dasturi, qurilish qiymatining yig'ma smetaviy-moliyaviy hisob-kitoblari.

129. Uzoq muddatli kreditlar monitoringi ishlarini tashkil etishdan maqsad nimada?

- berilgan qarzlarning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi;

- qurilayotgan obyektlar bo'yicha bajariladigan ishlarni tekshirish va boshqalar;

- loyihalar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirishni tahlil qilish;

- qarzni haqiqatda o'zlashtirish muddatlarini loyihalar texnik-iqtisodiy asosi, qarzni o'zlashtirish grafigi bilan solishtirish.

130. Qarz oluvchi tomonidan mablag'larni qaytara olmaslik riskidan sug'urtalanish polislarini berishga qaysi tashkilotlar mutasaddi?

- "Kafolat", "Agrosug'urta", "Madad", "O'zbekinvest" sug'urta tashkilotlari;

- "Kafolat", "Madad" sug'urta tashkilotlari, "O'zbeklizing" kompaniyasi;

- "Agrosug'urta", "O'zbekinvest" sug'urta tashkilotlari, Markaziy bank;

- Moliya vazirligi, Milliy bank, "O'zbekinvest" sug'urta tashkiloti.

131. Ipoteka kreditining boshqa bank xizmatlaridan farq qiluvchi xususiyatlari nimada?

- ipoteka krediti va ipoteka ssudalari;

- garov evaziga beriladigan ssuda;

- qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatlar;

- uy-joy qurish, bino va ofislar sotib olish imkoniyati.

132. Yakka tartibda uy-joy qurishga uzoq muddatli kreditning imtiyozli davri va krediti muddati qancha?

- kredit 6 oylik imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga beriladi;
- kredit 3 oylik imtiyozli davr bilan 1,5 yil muddatga beriladi;
- kredit 12 oylik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga beriladi;
- kredit 12 oylik imtiyozli davr bilan 20 yil muddatga beriladi.

133. Yakka tartibda uy-joy qurishga uzoq muddatli kreditning eng kam oylik ish haqining necha baravari miqdorida belgilangan?

- eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha;
- eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha;
- eng kam oylik ish haqining 1500 baravarigacha;
- eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha.

134. Kredit uchun foiz stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (6 foiz) 50 foizi miqdorida belgilangan;

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (12 foiz) 25 foizi miqdorida belgilangan;

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (18 foiz) 50 foizi miqdorida belgilangan;

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (14 foiz) 30 foizi miqdorida belgilangan.

135. Quriladigan uy-joy qiymatining kamida necha foizi miqdorida boshlang'ich badal to'lanadi?

- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan;

- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 30 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan;

- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 45 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan;

- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 35 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan.

136. Yakka tartibda namunaviy uy-joylarni qurib berish uchun mas'ul tashkilot (korxonani) aniqlang:

- "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasi;
- "O'zanoat qurilish bank" OAJ;
- "Qishloq qurilish bank" OATB;
- "Qishloqqurilishloyiha" MChJ.

137. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (ETTB) asosiy maqsadi nimadan iborat?

- xorijiy uskuna va texnologiyalarni sotib olish, xizmat ko'rsatish sohasi va ishchi kapital sarf-xarajatlarini qisman qoplash;

- xorijdan xomashyo, turli iste'mol mollari, mashina va traktorlar olib kelish;

- mamlakatda import mahsulotlarining salohiyatini oshirish, eksport ulushini

kamaytirish;

- mamlakatga valyuta olib kelish, davlat tomonidan kredit liniyalarini oshirishdan iborat.

138. Osiyo taraqqiyot bankining asosiy maqsadi nimadan iborat?

- iqtisodiy o'zgarish jarayonini ma'lum darajada tezlashtirish hamda tadbirkorlik va biznesning rivojlanishiga ko'maklashish;

- uskuna va texnologiyalarini sotib olishga, xizmat ko'rsatish sohasiga va ishchi kapital sarf-xarajatlarini qisman qoplash;

- xorijdan xomashyo, turli iste'mol mollari, mashina va traktorlar olib kelish;

- qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish.

139. Islom taraqqiyoti bankining boshqa moliya kredit institutlaridan farqini ko'rsating.

- kreditlashdan foiz olmasligi, uning o'rniga korxonaga olingan foydani bank bilan ulush sifatida bo'lishib olishadi;

- musulmon mamlakatlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish hisoblanadi;

- qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish;

- mamlakatda import mahsulotlari salohiyatini oshirish, eksport ulushini kamaytirish.

140. Zararsizlik nuqtasining xususiyatlari nimada?

- zararsizlik nuqtasidan yuqori qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot foyda beradi, u sotish bahosi o'zgarishi bilan o'zgarib boradi;

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini baholashda qo'llaniladi, u firmani maqsadli foyda olishini ta'minlaydi;

- mahsulot ishlab chiqarish o'sishini, xarajatlar miqdori ko'payishini bildiradi;

- uskuna va texnologiyalarni sotib olishga, ishchi kapital sarf-xarajatlarni qisman qoplash.

141. Korxonaning moliyaviy tahlilida qaysi ko'rsatkichlar asosiy hisoblanadi?

- daromadlar (foйда va zararlar) hisoboti, pul mablag'lari tushum va chiqimlari hisoboti, balans hisoboti;

- daromadlar (foйда va zararlar) hisoboti, bozordagi qimmatbaho qog'ozlar;

- balans hisoboti, tovar material vositalari, pul vositalari va puli to'langan xarajatlar;

- kreditor hisoblari, taqsimlanmagan foyda, foyda solig'ining kechiktirilgan qismi.

142. Zararsizlik nuqtasini aniqlashga nima yordam beradi?

- domiy xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlarga teng bo'lganda;

- doimiy xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlarga teng bo'lgandagi mahsulot hajmi;

- korxonaga foyda olgan vaqtdagi mahsulot hajmi;

- xarajatlar tushum bilan qoplangandagi mahsulot hajmi.

143. Zararsizlik tahlilida xarajatlarning asosiy ikki guruhini ayting.

- doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar;
- xomashyo va ish haqi xarajatlari;
- ishlab chiqarish xarajatlari va ish haqi;
- boshqaruv xarajatlari va ishlab chiqarish xarajatlari.

144. Past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va past likvidli obyektlarni "nol" qiymatda berish yo'li bilan xususiyashtirish mezonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- korxonaning ish faoliyatining to'xtatilishi, surunkali zarar ko'rib ishlashi, past rentabelligi (5% yuqori bo'lmagan), iqtisodiy nochorligi va to'lovga qobiliyatli emasligi;

- obyektning ommaviy savdoga qo'yishda sotish narxi pasaytirilishi hisobga olingan holda taklif etilayotgan sotish narxiga investorlardan talab yo'qligi;

- korxonaning respublika uchun strategik ahamiyatga ega emasligi;

- korxonaning respublika uchun strategik ahamiyatga ega emasligi, korxonaning ish faoliyatining to'xtatilishi.

145. Investitsiyalar samaradorligi deganda nimani tushunasiz?

- foyda massasining (F) investitsiya xarajatlari (IX) bo'lgan nisbati;

- mahsulotlar hajmining (Mq) investitsiya xarajatlari (IX) bo'lgan nisbati;

- mahsulotlar hajmining (Mq) kapital mablag'larga nisbati tushuniladi;

- investitsiya xarajatlari (IX) foyda massasiga (F) bo'lgan nisbati.

146. Korxonaning bankrotligi qanday aniqlanadi?

- moliyaviy koeffitsiyentlar tizimi bilan;

- korxonada mavjud pul mablag'lari va yuqori likvidlikka ega bo'lgan aktivlar yo'qligi bilan;

- qarzlarning mavjudligi bilan;

- kadrlar qo'nimsizligi va ishlab chiqarish pasayishi orqali.

147. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar qanday vazifalarni hal qilishni ko'zda tutadi?

- kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadlilikini oshirish, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish;

- ishlab chiqarishda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar xarajatlari kamaytirish;

- qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish;

- qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish.

148. Investitsiya loyihalarini baholash usullarini ko'rsating.

- statistik va dinamik usullar;

- buxgalteriya va matematik usullar;

- absolyut va nisbiy usullar;

- buxgalteriya va matematik usul.

149. Statistik usullar asosida baholash mezonlarini aniqlang.

- qoplanish muddati va foyda me'yorining hisobi;

- ichki daromadlilik normasi va qoplanish muddati;



- amaldagi sof qiymat va buxgalteriya balansi;
- foyda me'yoring hisobi, diskontlashgan qoplanish muddati.

150. Dinamik usullar asosida baholash mezonlarini aniqlang.

- amaldagi sof qiymat va buxgalteriya balansi, ichki daromadlilik normasi va qoplanish muddati, dikontlashgan qoplanish muddati, rentabellik (daromad) indeksi;
- buxgalteriya balansi, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish, dikontlashgan qoplanish muddati;
- korxonalar aktivlari hajmi, ichki daromadlilik normasi va rentabelligini bashorat qilish;
- o'z mablag'lari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplanish miqdorini aniqlash.

151. Investitsiya loyihasining asosi:

- kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat;
- investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat;
- budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat;
- mahalliy va budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni bildiradi.

152. Investitsiyalarning qoplanish muddati qanday aniqlanadi?

- asosiy ishlab chiqarishga kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) hajmini (K), bazis va reja davri foydalarining farqiga nisbati ( $Fr_1 - Fr_0$ ) kabi aniqlanadi;
- loyihadan keladigan yillik o'rtacha pul oqimlarining jami investitsiyalar miqdoriga nisbati bilan;
- loyihadan keladigan jami pul oqimlarining sof investitsiyalar miqdoriga nisbati bilan;
- sof investitsiyalar miqdorining loyihadan keladigan jami pul oqimlariga nisbati bilan.

153. Korxonalar miqyosida investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti ( $Kk.s$ ) qanday hisoblanadi?

- yillik foyda miqdorining asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmiga nisbati;
- yalpi ishlab chiqarish daromadining kapital qo'yilmalar hajmiga nisbati;
- korxonalar rentabelligining jami ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati;
- mahsulotlarni sotish xarajatlarining yalpi ishlab chiqarish daromadlariga nisbati.

154. Sof keltirilgan qiymat hisobi (NPV-Net Present Value) nimani bildiradi?

- investitsiya xarajatlarining amortizatsiyasini qoplash samaradorligini baholaydi;
- kompaniya egalari tomonidan aniqlanadigan firmaning daromadlilikini oshirish yotadi;
- foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi;
- amortizatsiya va foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi.

155. Ichki daromadlilik nomasi (IDN-Internal Rate of Return – IRR) qanday aniqlanadi?

- sarflangan investitsiya mablag'lari bo'yicha amortizatsiya va foiz to'lovlari

bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi;

- bankning foiz stavkasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi chegarasini ko'rsatadi;

- investitsiya xarajatlarining amortizatsiyasini qoplash samaradorligini baholaydi;

- foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi.

156. Investitsiya rentabelligini hisobot me'yori asosida hisoblash (Accounting Rate of Return – ARR) qanday aniqlanadi?

- loyihani amalga oshirish davridagi kutilayotgan o'rtacha yillik sof foydaning ARR o'rtacha yillik investitsiya hajmiga nisbati orqali aniqlanadi;

- o'rtacha amalga oshirish davridagi sof buxgalteriya foydasi loyihadagi o'rtacha investitsiya miqdori;

- bank foiz stavkasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi chegarasi bilan aniqlanadi;

- sof foyda ko'rsatkichi orqali (budjetga to'lovlardan so'nggi foyda) xarakterlanadi.

157. Investitsiyalarning birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- soliqlar to'langandan so'ng, qolgan foydani (F) investitsiyalar (boshlang'ich) qiymatiga nisbatida;

- foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi;

- amortizatsiya va foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadni baholaydi;

- mahsulotlarni sotish xarajatlarini yalpi ishlab chiqarish daromadlariga nisbati.

158. Investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot qanday aniqlanadi?

- yalpi mahsulot mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalar (YaM1, YaMo) farqining qo'shimcha investitsiyalar miqdoriga (Ik) nisbatida;

- amortizatsiya va foiz to'lovlari bo'yicha investitsiyadan kutiladigan daromadning farqida;

- o'rtacha amalga oshirish davridagi sof buxgalteriya foydasi loyihadagi o'rtacha investitsiya miqdorida;

- kompaniya egalari tomonidan aniqlanadigan firmaning daromadlilikini oshirishda.

159. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?

- kapitalni aniqlash, qo'shimcha fond olish, qimmatbaho qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish;

- qimmatbaho qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish;

- qo'shimcha mablag' topish maqsadida qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish;

- naqd pul o'rmini bosa oladigan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish.

160. Likvidlilik riski qanday o'lchanadi?

- qimmatbaho qog'ozning investitsion sifatini baholashning o'zgarishi sharoitida uni sotishdan ko'rilgan zarar bilan o'lchanadi;

- qimmatbaho qog'ozlar investitsion sifatlarini to'g'ri baholay olmagan vaziyatlarda tanlash riski;

- valyuta kurslari o'zgarishi natijasida valyuta qimmatbaho qog'ozlariga qilingan qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan riski;

- bozor umumiy faoliyatining pasayishi sababli qimmatbaho qog'ozlar narxining pasayishidir.

161. Investitsiyalardan keladigan sof daromad stavkasi nima?

- kiritilgan investitsiyaning umumiy xarajatlarga nisbati;

- sof daromadning sarflangan kapitalga nisbatan foiz stavkasi;

- sof foydaning xarajatlarga nisbati;

- investitsiyadan xarajatlar ayirmasi.

162. Investitsiya mablag'lar aylanish samaradorligini qanday xarakterlaydi?

- 1 so'mlik asosiy fondlarga to'g'ri keladigan realizatsiya qilingan mahsulot miqdori;

- ishlab chiqarish fondlari aylanishining o'rtacha davomiyligi;

- ma'lum bir davrda aylanma mablag'larning aylanish soni;

- mablag'lar aylanishidan olinadigan foyda bilan.

163. Mahsulot sotishdan tushgan tushumni uni ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan xarajatlarga teng bo'lishi yoki foyda summasining nolga tengligi:

- zararsizlik nuqtasi deyiladi;

- foydasizlik nuqtasi deyiladi;

- daromadsizlik nuqtasi deyiladi;

- qoplash nuqtasi deyiladi.

164. Aksiya foydaliligi bu:

- sof foydaning muomaladagi aksiya miqdoriga nisbati;

- sof foydaning aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati;

- yalpi foydaning mahsulot sotishdan tushgan tushumga nisbati;

- yalpi foydaning tovar mahsuloti tannarxiga nisbati;

165. Amortizatsiya deganda nimani tushunasiz?

- asosiy vositalarning eskirishi;

- asosiy vositalar va aylanma mablag'larning eskirishi;

- yangi texnika va texnologiyalarning yangilanishi;

- kapital qo'yilmalarning hajmi.

166. O'z-o'zini moliyalash koeffitsiyenti nimani ifodalaydi?

- jami investitsiyalarning korxonaga o'z mablag'iga nisbatida;

- korxonaga investitsiyalarining korxonaga o'z mablag'iga nisbatida;

- tijorat banklari kredit mablag'larining jami investitsiyaga nisbatida;

- mablag'larga nisbatan korxonaga o'z mablag'larining tijorat banklari va korxonaga investitsiya kredit mablag'lariga nisbatida.

167. Sof diskontlangan daromad (SDD-DPP Discounted Payback Perio):

- hisob-kitoblarning vaqt muddati, diskont normasi, hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar;

- butun hisobot davri uchun joriy samaralar yiqindisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori;

- hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar, xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar, hisob-kitoblarning vaqt muddati, diskont normasi;
- hisob-kitoblarning vaqt muddati, diskont normasi.

168. Korxonaning parokandalik holatidan chiqarish deganda nimani tushunasiz?

- sanatsiya tadbirlarini o'tkazish asosida olib boriladi;
- birjada sotish orqali amalga oshiriladi;
- davlat tomonidan moliyaviy mablag'lar ajratish orqali;
- O'zR xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan sotish.

169. Respublikamizda korxonalarining iqtisodiy nochorligi bo'yicha ishlarni olib boruvchi tashkilotni aniqlang.

- O'zR xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi;
- Moliya vazirligi;
- Iqtisodiyot vazirligi;
- Milliy bank va Markaziy bank.

170. Korxonaning to'lov qobiliyati nimani bildiradi?

- debitorlik qarzlarning o'z vaqtida to'langanligi, tayyor mahsulotlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moddiy mablag'larni ham o'z vaqtida samarali sotishni ifodalaydi;
- debitorlik qarzlarni o'z vaqtida to'langanligi, tayyor mahsulotlarni o'z vaqtida samarali sotishni ifodalaydi;
- tayyor mahsulotlar, rejalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotuv hajmini;
- ishlab chiqarish dasturi asosida resurslarga bo'lgan talablar, qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan talab.

171. Korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyenti nechadan past bo'lmasligi kerak?

- 2 dan past bo'lmasligi kerak ( $Ktq > 2$ );
- 4 dan past bo'lmasligi kerak ( $Ktq > 4$ );
- 3 dan past bo'lmasligi kerak ( $Ktq > 3$ );
- 1 dan past bo'lmasligi kerak ( $Ktq > 1$ ).

172. O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik ko'rsatkichi nimani bildiradi?

- korxonaning o'z mablag'lari hisobidan qisqa muddatli qarzdorlikning (zayomning) qoplanish darajasini;
- qisqa muddatli kreditorlik qarzlari, budjetdan va boshqa kreditorlik qarzlarni;
- o'z mablag'larining manbalari (ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan daromad (foyda)ni;
- uzoq muddatli qarzlarni (zayomlar) va kreditlarni.

173. O'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti nechadan past bo'lsa muvofiq bo'lmaydi?

- 2 dan past bo'lmasligi kerak ( $Ko'.m. m. > 2$ );



- 6 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.m. m. > 6$ );
- 3 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.m. m. > 3$ );
- 4 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.m. m. > 4$ ).

174. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?

- korxonalar rentabelligining o'sishi – kredit va investitsiya mablag'lari samaradorligini ifodalaydi;

- korxonalar daromadlarining xarajatlarga nisbatan o'sishini, o'z majburiyatlarini bartaraf etish kafolatligini ifodalaydi;

- korxonalar daromadlarining xarajatlariga nisbatan o'sishini, o'z majburiyatlarini bartaraf etish kafolatligini ifodalaydi;

- korxonalar (firmaning moliyaviy barqarorligining pasayishi (o'sishi)ni, kelgusi davrlarda moliyaviy tahdidlarning o'sishi yoki kamayishini va korxonalar o'z majburiyatlarini bartaraf etish kafolatligini ifodalaydi;

- korxonalar rentabelligining o'sishi, kredit va investitsiya mablag'larining samaradorligini ifodalaydi.

175. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentining muvofiqlik koeffitsiyenti nechadan past bo'lmashligi kerak?

- 0,5 dan past bo'lmashligi kerak ( $Km.m. > 0,5$ );
- 1 dan past bo'lmashligi kerak ( $Km.m. > 1$ );
- 10 dan past bo'lmashligi kerak ( $Km.m. > 10$ );
- 8 dan past bo'lmashligi kerak ( $Km.m. > 8$ ).

176. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti nimani bildiradi?

- zarur o'z aylanma mablag'larining mavjudligi yoki korxonalar mulkdorlari va kreditorlari o'zaro manfaatlari munosabatini ifodalaydi;

- o'z mablag'larining manbalari (Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan daromad (foyda) va boshqalar;

- uzoq muddatli aktivlar (asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, kapital mablag'lar va b.);

- ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa aylanma aktivlarni.

177. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti nechadan past bo'lmashligi kerak?

- 0,1 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.a.m.t. > 0,1$ );
- 1 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.a.m.t. > 1$ );
- 3 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.a.m.t. > 3$ );
- 2 dan past bo'lmashligi kerak ( $Ko'.a.m.t. > 2$ ).

178. Korxonaning aylanma mablag'lari tartibiga quyidagilar kiritiladi:

- aylanma mablag'lar va muomala fondi;

- tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot;

- ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelajakdagi xarajatlar muomala fondi;

- pul mablag'lari.

179. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyentini nima xarakterlaydi?

- ma'lum bir davrda aylanma mablag'larning aylanish soni;
- ishlab chiqarish fondlari aylanishining o'rtacha davomiyligi;
- 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladigan realizatsiya qilingan mahsulot miqdori;

- mablag'larning aylanishidan olinadigan foyda.

180. Asosiy aylanma fondlarning yangilanishi deganda nima tushuniladi?

- moddiy va nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy mablag'lardan foydalanish (jismoniy va ma'naviy eskirishi) darajasini ifodalaydi;

- uzoq muddatli moliyaviy mablag'lardan foydalanish (jismoniy va ma'naviy eskirishi) darajasini ifodalaydi;

- ishlab chiqarish darajasiga, mahsulot sifatiga, mehnat unumdorligining pasayishi;

- asosiy fondlarning chiqarib tashlanadigan (likvidatsion) qiymatini ifodalaydi.

181. Asosiy aylanma fondlarni yangilanish koeffitsiyenti nechadan kam bo'lmasligi kerak?

- 0,5 dan (Ayang. > 0,5);

- 0,9 dan (Ayang. > 0,9);

- 0,1 dan (Ayang. > 0,1);

- 1,5 dan (Ayang. > 1,5).

182. Amortizatsiya ajratmalari qaysi omilga bog'liq holda hisoblanadi?

- asosiy kapital tarkibiga kirgan uskunaning balans qiymatiga, uskunaning xizmat muddatiga;

- uskunaning xizmat muddatiga;

- uskuna uchun belgilangan amortizatsiyani hisoblash uslubiga;

- asosiy kapital tarkibiga kirgan uskunaning balans qiymatiga.

183. Tezkor amortizatsiya deganda nimani tushunasiz?

- har yilda o'rtacha chiqarib tashlanadigan (spisaniya) amortizatsiya qiymati;

- qo'shilgan amortizatsiya (nakoplenniy iznos);

- chiqarib tashlashdan keyingi baholangan yangi qiymat;

- moliyaviy mablag'lardan foydalanish (jismoniy va ma'naviy eskirishi) darajasini.

184. To'g'ri chiziqli amortizatsiya (amortizatsiya normasi) nimani anglatadi?

- ma'lum muddatlar davomida foydalanilgan asosiy fondlarni ma'lum ulushlarda hisobdan chiqarish (spisat) darajasi tushuniladi;

- qoldiq yoki balans qiymati (boshlang'ich qiymat qo'shilgan amortizatsiya);

- chiqarib tashlashdan keyingi baholangan yangi qiymat;

- qo'shilgan amortizatsiya (nakoplenniy iznos) qiymati.

185. Korxonalar (firmlar) faoliyatining barqarorligini baholash yakuniy mezonini nechadan past bo'lmasligi kerak?

- 4,66 dan (Kb.m. > 4,66);

- 6,15 dan (Kb.m. > 6,15);

- 5,2 dan (Kb.m. > 5,2);

- 2,66 dan (Kb.m. > 2,66).

186. Rentabelliklik ko'rsatkichlari:

- sof foyda bilan korxonaning aktivlarining nisbati;
- debitorlik qarzlari aylanuvchanligi;
- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- yalpi foydaning sotishdan olingan tushumidan aktivlarini chegirib tashlangan qismiga nisbati.

187. Korxonaning aylanma fondlari:

- ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashib, o'zining to'liq qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxiga o'tkazib yuboradigan ishlab chiqarish vositalarining bir qismi;
- ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga o'tkazib boradigan mehnat buyumlari;
- asosiy va yordamchi materiallar, korxonada ishlab chiqarilgan yarim fabrikatlar, butlovchi buyumlar;
- ishlab chiqarish jarayonida bir yil ishtirok etadigan mehnat buyumlari.

188. Nomoddiy aktivlarga nimalar kiradi?

- patentlar, avtorlik huquqlari, savdo markalari va tovar belgilari, litsenziyalar, imtiyozlar, tashkiliy xarajatlar, gudvill, tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar uchun xarajatlar va boshqalar;
- ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar;
- asosiy va aylanma mablag'lar, patentlar, avtorlik huquqlari, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va boshqalar;
- pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa aylanma aktivlar.

189. Gudvill deganda nimani tushunasiz?

- kompaniya tomonidan ma'lum bir korxonani sotib olish davridagi qiymati hisoblandi, sotib olish qiymati;
- korxonani sanatsiya davridagi sotib olish davridagi qoldiq summasi;
- sotib olish qiymati (korxonani to'liq qiymati) va aktivlar summasidan majburiyatlarini olib tashlangan qiymati;
- kompaniya tomonidan ma'lum bir korxonani sotib olish davridagi qiymati hisoblandi.

190. Mahalliyashtirish sanoat korxonalarini o'rtasida nimani muvofiqlashtiradi?

- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishni;
- ishlab chiqarish va sanoat korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishni;
- sanoat korxonalarini o'rtasidagi integratsiya jarayonlarni;
- sanoat korxonalarini o'rtasidagi do'stona jarayonlarni.

191. Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishida nimalar o'zlashtiriladi?

- asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarning o'zlashtirilishi;
- importni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni;
- eksportni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni;

- eksport va importni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni.

192. Mahalliyashtirish asosida davlatning qaysi sohalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan?

- importbop mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish;
- eksportni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlar;
- eksport va importni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlar;
- mamlakat investitsiya salohiyatini oshirish.

193. Mahalliyashtirish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirishda ichki iste'mol bozoridagi qanday holat e'tiborga olinadi?

- ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotga bozorda talab borligi;
- mahalliyashtirish talab etiladigan darajasiga erishish imkoniyatlari;
- loyihani amalga oshirish imkoniyati;
- eksport va import mahsulotlarining oshishi.

194. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish taklif etilayotgan loyihalar uchun oxirgi necha yillik balans ma'lumotlari taqdim etiladi?

- oxirgi 2 yil uchun yillik balans;
- oxirgi 5 yil uchun yillik balans;
- oxirgi 1 yil uchun yillik balans;
- oxirgi 3 yil uchun yillik balans.

195. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi qanday hisoblab chiqariladi?

-  $(1 - I/S) \times 100 \%$  (I – import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning so'mlarda ifodalangan valyuta qiymati; S – mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi) kabi;

-  $(I/S) \times 100 \%$  (I – import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning so'mlarda ifodalangan valyuta qiymati; S – mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi) kabi;

-  $(F/IX) \times 100 \%$  (F – mahsulot ishlab chiqarishdan tushgan foyda, IX – ishlab chiqarish xarajatlari) kabi;

- 1 so'mlik mahsulot hajmiga to'g'ri kelgan foyda (daromad) miqdoriga nisbatan aniqlanadi.

196. Loyihaning marketing strategiyasi qaysi javobda to'g'ri?

- mahsulotni sotish, mahsulotning potensial iste'molchilari, ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilardan raqobatli ustunliklar mavjudligi;

- ichki va tashqi bozorlar (eksport mavjud bo'lgan taqdirda) ehtiyoji hajmini tavsiflash;

- raqobatchilar va ularning bozordagi ulushi bilan;

- mahsulotning potensial iste'molchilari bilan oldindan ahdlashuvlarning mavjudligi bilan.

197. Mahalliyashtirish dasturi bo'yicha chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ular uchun ehtiyot qismlar qanday imtiyozlarga ega?

- import boji, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsiz to'lovlaridan ozod;
- daromad solig'idan, import boji to'lovlaridan ozod;
- yagona soliq to'lovlaridan, ijtimoiy sohalarda to'lovlardan ozod;
- pensiya fondiga, aktsiz to'lovlaridan ozod.



198. Mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qanday imtiyozlarga ega?

- daromad (foyda) solig'i, yagona soliq to'lovidan ozod;
- yo'l-transport to'lovlaridan, mulk solig'idan ozod;
- elektr energiya, kommunal xizmatlari va aktsiz to'lovlaridan ozod;
- avtomobil yo'l to'lovlari, ijtimoiy sohalarda to'lovlardan ozod.

199. Mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha qanday imtiyozlarga ega?

- mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi;
- kommunal xizmatlari va aktsiz to'lovlaridan ozod;
- daromad solig'idan, import boji to'lovlaridan ozod;
- yagona soliq to'lovidan va mulk solig'idan ozod.

200. Mahalliyashtirish dasturidan chiqarib tashlash uchun qaysi holatlar asos bo'lib hisoblanadi?

- Mahalliyashtirish dasturi prognoz parametrlarining 30 foizdan kam bo'lganligi;
- transport sarf-xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olinmagan holda;
- Mahalliyashtirish dasturi prognoz parametrlarining 20 foizdan kam bo'lganligi;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarni import qilinadigan mahsulot narxidan yuqori bo'lganda.

201. Mahalliyashtirish dasturining kichik biznes (tadbirkorlik) subyektlarini rivojlantirishdagi o'rni nimada?

- kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini bilan yirik sanoat korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishda;
- ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida mavjud imkoniyatlar va quvvatlarni aniqlashda;
- asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarning o'zlashtirilishida;
- importni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda nazorat qilishda.

202. Mahalliyashtirish dasturiga korxonalarining bir turdagi mahsulotini kiritish muddati qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga;
- 1 yil muddatga;
- 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga;
- 4 yildan ko'p bo'lmagan muddatga.

203. Mahalliyashtirish dasturining mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan yakuniy ko'rib chiqish muddatlari necha kun etib belgilangan?

- 10 kun muddatda;
- 1 oy muddatda;
- 15 kun muddatda;
- 22 kun muddatda.

204. Mahalliyashtirish dasturiga loyihalarni kiritish qaysi qarorga asosan amalga oshiriladi?

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-maydagi Pq-879-sonli qarorida belgilangan tartibga asosan;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-iyuldagi 154-sonli qarorida belgilangan tartibga asosan;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 2-apreldagi 94-sonli qarorida belgilangan tartibga asosan;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 23-martdagi Pq-1306-sonli qarorida belgilangan tartibga asosan.

205. Mahalliyashtirish deganda nimani tushunasiz?

- import o'rini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish;

- tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligini o'stirish;

- sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish;

- investorlar xomashyolarini jalb etish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish.

206. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish qaysi tashkilotlarning xulosalari asosida amalga oshiriladi?

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi.

207. Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish monitoring tartibi:

- Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi;

- Moliya vazirligi, Respublika Milliy banki va Davlat bojxona qo'mitasi;

- Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi;

- Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi.

208. Investitsiyalarning tavakkalchilik omili deganda nimani tushunasiz?

- xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshiligi;

- umumiy iqtisodiy, bozor, me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlanishidan iborat;

- ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar;

- ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar.

209. O'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlar uchun investitsiya risklari turlarini baholash turlarini ko'rsating.

- me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi doimiy o'zgarishlar, ishsizlik darajasi, aholi real daromadlari dinamikasi, siyosiy risk, yillik inflyatsiya darajasi, YaIM o'sishi;

- davlat budjeti tanqisligi holati, aholining davlat siyosatiga ishonchi, asosiy fondlarning eskirishi;

- zarar bilan ishlayotgan korxonalar ulushi va bankrot bo'lgan korxonalar soni, radiaktiv asosining o'rtacha darajasi;

- ekologik noqulay hududlar mavjudligi, sanoat ishlab chiqarish dinamikasi, mulkni o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar soni.

210. Tavakkalchilikdan himoyalash imkoniyatlarini aniqlang.

- sug'urtalanadigan va sug'urtalanmaydigan risklar;

- investitsiyalash fazasidagi, ishlab chiq'arish fazasidagi risklar;

- ssuda foizlari stavkasining, soliqlarning o'zgarishi;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadni xarakterlaydigan risklar.

211. Tashqi tavakkalchiliklarga nimalar kiradi?

- siyosiy va fors-major tavakkalchiliklar;

- zaxira fondi, fors-major risklari;

- ssuda foizlari stavkasi, soliqlarning o'zgarishi;

- yong'in, suv toshqini, qurg'oqchilik.

212. Sug'urtalanadigan tavakkalchiliklarga nimalar kiradi?

- kafolat, sug'urta, zaxira fondi;

- zaxira fondi, fors-major risklari;

- savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish;

- yangi texnika-texnologiya parametrlari.

213. Fors-major tavakkalchiligi:

- loyiha faoliyatiga tegishli bo'lmagan ayrim ijtimoiy-siyosiy va tabiiy hodisalar kiradi;

- tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy resurslarni va valyutani chetga olib chiqish;

- qonunlar mazmuining va xalqaro huquq normalarining mukammal emasligi;

- huquqiy hujjatlar sifatining pastligi, sud-arbitraj mexanizmidagi kamchiliklar.

214. Loyiha ishtirokchilari riski:

- ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik;

- ishlab chiqarish texnik risklari – asbob-uskunalarining buzilishi va to'xtab qolishi;

- moliyaviy holati va ishdagi obro'si haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi, noaniqligi;

- tabiiy iqlim sharoitlarining, tabiiy ofatlar ehtimolining o'zgarib turishi.

215. Ishlab chiqarish tavakkalchiligi – bu:

- ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarning yuzaga kelishi;

- xomashyo sifatining pastligi, transport masalalari;

- ta'minotdagi uzilishlar, joylardagi resurs zaxiralarining yetishmasligi;

- loyihalashdagi xatolar, pudratchi majburiyatining bajarilmasligi.

216. Boshqaruv tavakkalchiligi – bu:

- boshqaruv shaxsining tajriba va malakasini yetarli darajada emasligi;
- ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori darajasi xarajatlarni xato hisoblash;
- xomashyo va boshqa resurslar miqdori va sifatiga ma'lum talablarning aniq emasligi;

- resurslar miqdori va sifatiga ma'lum talablarning aniq emasligi.

217. Sotish tavakkalchiligi – bu:

- loyiha mahsuloti sotish hajmining va shu mahsulot bahosining kamayishi;
- kredit bo'yicha qarzlarni qoplashga yetmagan hollarda yuz beradi;
- menejment darajasining pastligi va xatolari;
- mahsulot bahosining kamayishi.

218. Valyuta tavakkalchiligi – bu:

- loyiha mahsulotini sotishdan olinadigan valyuta bilan kredit valyutasi bir xil bo'lmagan hollarda yuzaga keladi;

- loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning riskidir;
- kredit resurslari o'zgaruvchan stavkada qo'llanilganda ro'y beradi;
- kapital qiymatining oshishi va mahsulot rentabelligining kamayish xavflari.

219. Ishlab chiqarish tavakkalchiligi qanday omillarga bog'liq?

- boshqaruv, ekologik, ta'minot va boshqalar;
- loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, tenderlar o'tkazish;
- mashina va asbob-uskunalarni yetkazib berish, qurilish;
- markaziy va mahalliy hokimiyatlarning harakati.

220. Investitsiya loyihalarning zararsiz mahsulot ishlab chiqarish miqdori (nuqtasi):

- yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng oz ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmidir;

- optimal ishlab chiqarish rejalarini tuzish;
- eng samarali texnologiyalarni tanlab olish;
- eng ko'p foyda olish.

221. Investitsiya loyihalarning zararsiz mahsulot ishlab chiqarish miqdori (nuqtasi) qaysi formula asosida hisoblanadi?

- Mahsulot birligida doimiy xarajatlar/(bir mahsulot bahosi – mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajat) kabi;

- (Bir mahsulot bahosi – mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajat)/Mahsulot birligida doimiy xarajatlar kabi;

- (Doimiy (umumiy) xarajatlar – o'zgaruvchan xarajatlar) kabi;

- (Yalpi daromad – ishlab chiqarish xarajatlari) kabi.

222. Korxonaning xavfsizlik zaxirasi darajasi necha foizdan kam bo'lsa, zarar ko'ra boshlashini ifodalaydi?

- 30 foizdan kamaysa;
- 15 foizdan kamaysa;
- 45 foizdan kamaysa;
- 60 foizdan kamaysa.



223. Investitsiya loyihalari tavakkallchiligini pasaytirishda (himoyalani shda) qanday usuldan foydalaniladi?

- sug'urtalash;
- kredit olish;
- davlatdan qarz olish;
- xorijiy mablag'lardan.

224. Investitsiya loyihalari tavakkallchiligini pasaytirishda (himoyalani shda) qanday usullar mavjud?

- o'z-o'zini sug'urtalash, sug'urtalash va markazlashgan holda ajratmalarni amalga oshirish;

- umumdavlat resurslari hisobidan markazlashgan holda ajratmalarni amalga oshirish;

- xorijiy davlatlar orqali olinadigan to'g'ridan to'g'ri kredit mablag'lari hisobidan;

- korxon va aholi pul mablag'lari hisobidan.

225. Investitsiya loyihasi tavakkalchiligini baholash usullari orasida eng ko'p qo'llaniladiganlarini belgilang.

- loyihaning sezgirlik tahlili, "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash, barqarorlikni tekshirish;

- sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar;

- naqd foyda yoki investitsiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash;

- ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi, kredit foizi va boshqalar.

226. Ichki bozorni himoya qilish (F) – proteksiya darajasi qaysi formula bilan hisoblanadi?

- erkin savdo sharoitida ichki qo'shimcha qiymat (D) va import boji qo'llanilgandan keyingi qo'shimcha qiymat (D1) o'rtasidagi munosabat ifodalanadi, ya'ni  $(F = (D1 - D) / D \times 100\%)$ .

- kutilayotgan ko'ngilsiz oqibatlar mavjud zaxira va rezervlar hisobiga cheklatilsa yoki sug'urta to'lovlari bilan qoplanishi bilan;

- erkin savdo sharoitida ichki qo'shimcha qiymat (D) va import boji qo'llanilgandan keyingi qo'shimcha qiymat (D1) o'rtasidagi munosabat ifodalanadi, ya'ni  $(F = (D1 / D) \times 100\%)$ .

- sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi.

227. Davlat o'z ichki bozorini qanday usullar bilan himoya qilish choralarini ko'radi?

- tarif yoki notarif usullar;
- bojxona tariflari orqali;
- soliq yuklarini kuchaytirish orqali;
- import mahsulotlarini taqiqlash orqali.

# **“INVESTITSION TAHLIL” FANINI O‘RGANISH BO‘YICHA KEYS-STADILAR VA MASALALAR**

## **KEYS-STADI TOPSHIRIQLARI**

### **1. “AQSh ko‘chmas mulkiga xorijiy kapitalning kiritilishi”**

Boshqa davlatlarga nisbatan xorijiy investorlar uchun cheklashlar AQShda birmuncha ozdir. Xorijiy kapital nazorati faqat ba‘zi bir tarmoqlarda, jumladan, transport va kommunikatsiya tizimida taqiqlangan. Bu esa ushbu tarmoqlarning keng omma uchun juda muhimligi hamda krizis davrida muhim tovarlarni tashishning murakkabligi bilan izohlanadi. O‘tmishda faqat bir martagina xorijiy mulkka e‘tibor kuchayib, bu XIX asrning boshiga to‘g‘ri kelgan edi. Bu paytda chet elliklarning qishloq xo‘jalik yerlarini sotib olishlariga cheklashlar kiritilgan edi. Lekin bu – to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni taqiqlash o‘sha paytdan keyin qo‘llanilmadi degani emas. Misol uchun, 1987-yilda AQSh Savdo Vazirligi va Mudofaa Vazirligiga “Ferchayld Semikondaktor” (Fairchild Semi-conductor) firmasini sotib olmoqchi bo‘layotgan Yaponiyaning “Fudzitsu” (Fujitsu) korporatsiyasi tomonidan milliy xavfsizlikka tahdid solayotgani to‘g‘risida ko‘plab shikoyat va arizalar kelib tushishi natijasida bu savdoga ruxsat berilmadi. 1989-yilda AQSh tomonidan milliy xavfsizlikka tahdid solish ehtimoli mavjud bo‘lgan Amerika kompaniyalarining chet elliklarga sotishni taqiqlash to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. AQSh doimo investitsiyalarni joylashtirish uchun ishonchli hisoblangan. Faqat Ikkinchi jahon urushi davrida dushman davlatlarning mulki hamda Tehrondagi amerikaliklarni garovda ushlab turilgan paytda eron mablag‘larigina konfiskatsiya qilingan. Bir necha yil oldin esa Liviya va Quvayt aktivlari muzlatib qo‘yildi, lekin ekspropriatsiya qilingani yo‘q (shuningdek, mustaqillik uchun kurash inglizlarning 13 ta yirik mulkini musodara qilish bilan tugadi). 100 yildan ortiq vaqt davomida AQSh hududida urush harakatlari bo‘lmagan. Siyosiy tartibsizliklar tufayli mulkiy yo‘qotishlar esa juda kam bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar faqat AQShdangina kelib tushgan. Amerikalik kompaniyalar dollarning barqarorligi hamda ko‘plab davlat hukumatlarining xayrixohligidan foydalanib, ularning hududida filiallar ochib, mustahkam pozitsiyalarga ega bo‘ldilar va keyinchalik jadal iqtisodiy o‘sishga erishdilar. Xorijiy firmalar u paytda AQSh iqtisodiyotiga xuddi shunday investitsiyalar oqimini kiritish uchun mablag‘ga ega emasdilar. 60-yillarning oxirida AQSh Savdo Vazirligi investorlarni jalb qiluvchi bir nechta byuro tashkil qilgan bo‘lsa, ba‘zi shtatlar xorijiy firmalarni sanoatga ko‘maklashish dasturi doirasidagi korxonalar ro‘yxatiga kiritdilar. AQSh iqtisodiyotiga kirib kelayotgan to‘gridan to‘g‘ri investitsiyalar oqimi kuchaygan bo‘lsa-da, bundan keng ommaning xabari bo‘lmagan. Buning sabablaridan biri investitsiya kiritish uchun Amerika hukumatidan ruxsat olish shart emasligi bo‘lgan. Shuningdek, chet elliklarning investitsiya kiritishlari faktini biror joyda qayd qilish ham talab etilmagan. Ko‘plab investorlar ishlab chiqarishni kengaytirishga loqaydlik bilan qarab, AQSh hududida yashirincha faoliyat ko‘rsatardilar.

AQShga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarning tanqidga uchrashini boshqa davlatlarning xorijiy investitsiyalarni nazorat qilishda qattiqqo‘llik qilayotganiga

javob tarzida qabul qilish mumkin bo'lgan. Bunday holda ko'pincha quyidagi savol yuzaga keladi: "Nimaga endi biz ularga nisbatan yumshoq bulishimiz kerak ekan?" Bank ishi, oziq-ovqat sanoati, kompyuter va yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish, neft va ko'mir qazib chiqarish kabi milliy manfaatlar uchun muhim bo'lgan iqtisodiyot sektorlari e'tiborni ko'proq o'zlariga qaratishni talab qilmoqda. Shuningdek, ko'chmas mulk, ayniqsa, qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli bo'lgan yerni ham shu qatorga kiritish mumkin.

Xorijiy mulkning ulushi qancha? Ma'lumotlarga nisbatan, chet elliklar AQShdagi ko'chmas mulkning taxminan 1 foiz qismiga egalik qiladilar. Qishloq xo'jaligi Vazirligining bergan ma'lumotlarida esa chet elliklar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 0,5 foiz qismiga egalik qilishi ko'rsatilgan. Ularning katta qismi qog'oz ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, masalan, Angliyaning "Bauoter" (Bowater) va Kanadaning "Ebitibi" (Abitibi) kompaniyalari tomonidan sotib olingan. Xorijiy investorlar faollik ko'rsatgan Mayami, Gonolulu, Los-Anjeles shaharlarida turar-joy hamda ma'muriy binolarning chet elliklar tomonidan sotib olinishi mahalliy aholi noroziligining ortishiga sabab bo'ldi. Diktatura rejimi hukmronlik qilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda odamlar pul va qimmatbaho buyumlarni saqlashga qo'rqishlari tufayli u yerdan kapitalning oqib kelishi kuchaydi. Federal cheklashlar bo'lmasa-da, 50 ta shtatning 20 tasi ko'chmas mulkning chet elliklar qo'lga o'tishiga turli cheklashlar kiritildi. Faqat uchta shtatgina (Ayova, Missuri va Minnesota) chet elliklarning qishloq xo'jalik yerlarini sotib olishlaridan avval tekshirishdan o'tish tartibini joriy qildi. Bu holat 70-yillarning oxirida chet elliklarning yer narxini oshirib yubormasliklari uchun amalga oshirilgan edi. Aslida esa 80-yillarda narxlar barqaror bo'lgan. 1989-yilda Yapon investitsiyalari 11 foizga, ma'muriy binolarni sotib olish esa 60 foizga qisqardi. 90-yillarda esa amerikalik yer egalari, ko'chmas mulk bilan shug'ullanuvchi brokerlar, investitsion bankirlarning o'zlari chet ellik xaridorlarni qidira boshladilar.

#### **Savollar:**

1. Mamlakatda ko'chmas mulkni chet elliklar tomonidan sotib olinishining cheklanishi AQSh manfaatlariga javob beradimi?
2. Agar cheklashlar kiritilsa, nimani cheklash kerak (yer turi, xaridorning millati, yerdan foydalanish, maydonning hajmi)?
3. Ko'chmas mulkdan tashqarida biror narsaga chet elliklar egalik qilishini cheklash kerakmi?
4. AQSh iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar kirib kelishi yoki uning taqiqlanish natijalari qanday bo'lishi mumkin?

## **2. "Tekstil" ochiq aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasining moliyaviy-iqtisodiy holatini tiklash to'g'risida keys-stadi**

### **Ma'lumot:**

"Tekstil" korxonasi – 2003-yilda ishga tushgan. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2002-yil 15-yanvarda davlat registratsiyasidan o'tgan va 2005-yil 7-oktyabrda Adliya vazirligidan qayta registratsiyadan o'tgan.

2007-yil 12-yanvarda Toshkent viloyati xo'jalik sudi "Tekstil" OAJ QKga

nisbatan tashqi boshqaruv protsedurasi kiritishni ma'qul deb topdi. Tashqi boshqaruvchi etib, Ilxom Imomnazarov tayinlandi.

“Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonun normalari talablariga muvofiq kreditorlarning umumiy majlisi o‘tkazilib, unda korxonani bankrotlik holatidan chiqarish uchun tashqi boshqaruv rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

*Jami mulk qiymati:* 35886043,9 mln. so‘m.

*Nizom jamg‘armasi:* 1221406 AQSh dollari.

*Faoliyat turi:* tekstil mahsulotlar ishlab chiqarish.

*Aksiyadorlari:*

- “Demir Metal Gida” (Turkiya) – 80,87 %;

- IP Demir – 12,11 %;

- Rejep Shirin – 1,6 %;

- yo‘l qurilish mashinalarini ta‘mirlash – 5,41 %.

*Ishlovchilar soni:* 445 nafar, jumladan ma‘muriy xodimlar – 41 nafar.

*Jami yer maydoni:* 5,8 ga, shundan i/ch – 3,9 ga.

*Korxonada quyidagi ishlab chiqarish sexlari mavjud:* to‘quv sexi, bo‘yoq sexi, tikuv sexi, bichuv sexi, qadoqlash sexi.

<i>Kreditorlik qarzlari</i> – 5129,7 mln. so‘m shu jumladan	<i>Aylanma mablag‘lar</i> – 1046,1 mln. so‘m shu jumladan
budjetdan – 10,0 mln. so‘m	ishlab chiqarish zahiralari – 451,6 mln. so‘m
nobudjet fondlardan – 0.0	tugallanmagan ishlab chiqarish – 296,6 mln. so‘m
ish haqidan – 70,6 mln. so‘m	tayyor mahsulotlar – 237,6 mln. so‘m
ta‘minotchilardan – 745,9 mln. so‘m	debitor qarzlari – 2959,8 mln. so‘m
qisqa muddatli bank kreditlari – 324,7 mln. so‘m	pul vositalari – 60,3 mln. so‘m

*Moliyaviy holati (2009.01.01.):*

- ishlab chiqarish hajmi – 2393,5 mln. so‘m;

- yuklangan mahsulotlar hajmi – 2078,7 mln. so‘m (QQS tashqari);

- sof tushum – 343,4 mln. so‘m.

*Bank kreditlari:*

- “Ravnaq” bank – 190 ming AQSh dollari (242658,5 ming so‘m);

- “O‘zR tashqi iqtisodiy milliy” bank – 2269,2 ming AQSh dollari (189150,9 ming so‘m).

Tashqi boshqaruv rejasiga binoan korxonani bankrotlik holatidan olib chiqish uchun birinchi yili 7,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo‘lib, 2,2 mlrd. so‘m foyda olinishi ko‘zda tutilgan edi. Biroq tashqi boshqaruvning 1-yilida haqiqatda 2,4 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib sotilgan va 0,8 mlrd. so‘m foyda olingan.

Tashqi boshqaruv davrida kredit bo‘yicha banklarga quyidagi mablag‘lar to‘langan:

- Islom taraqqiyot banki – 60 ming AQSh dollari;

- Ravnaq banki – 10 ming AQSh dollari;



- "O'zR tashqi iqtisodiy milliy" bank – 600 mln. so'm.

Hozirgi vaqtda aylanma mablag'lar yetarli miqdorda bo'lmaganligi va yigiruv sexi ishga o'z vaqtida tushirilmaganligi sababli moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajara olmagan.

**Vazifa:**

1. Tashqi boshqaruv rejasi bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajara olmaganlik sabablar (omillar)ini aniqlang.

2. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tiklash (sog'lomlashtirish) uchun o'z takliflaringizni ishlab chiqing.

**3. "Sarakimyo" OAJning moliyaviy-iqtisodiy holatini rivojlantirish bo'yicha keys-stadi**

**Umumiy ma'lumot:**

"Sarakimyo" korxonasi 1954-yilda ishga tushirilgan bo'lib, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan va 2005-yil 14-noyabrda ochiq turdagi aksionerlik jamiyatiga o'zgartirilgan. "Arm" korxonasi 1944-yilda tashkil topgan bo'lib, dubil ekstrakt, charm va tikuv mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

*Jami mulk qiymati:* 24182,1 mln. so'm.

*Nizom jamg'armasi:* 1526,0 mln. so'm.

*Asosiy aksiyadorlari:*

- O'z kimyosanoat DAK – 51 %;
- Davlat mulk qo'mitasi – 49 % (sotishgacha bo'lgan davrda);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan to'liq sotish uchun savdoga qo'yilgan (№PP-672, 2007-yil 20-iyul).

*Ishchilar soni:* 764 nafar, shundan ma'muriy xodimlar 79 nafar.

*Jami yer maydoni:* 114,78 ga, shundan i/ch – 54,0 ga.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish:

Korxonada ekstraksiya va mineral o'g'itlar sexlari mavjud. Loyiha quvvati yiliga 100 ming tonna nitrofos ishlab chiqarishni tashkil etadi. 2008-yilning 1-yarmida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish 35,8 foizni tashkil etdi, ya'ni 18509 t.

<i>Jami majburiyatlari – 19067,9 mln. so'm</i> (12161,3 mln. so'm 2014.01.10. gacha uzaytirilgan) shu jumladan	<i>Aylanma mablag'lar – 8481,0 mln. so'm</i> shu jumladan
budjetdan – 1010,0 mln. so'm (668,3 mln. so'm uzaytirilgan)	tayyor mahsulotlar – 4422,5 mln. so'm
nobudjet fondlardan – 942,7 mln. so'm (341,7 mln. so'm uzaytirilgan)	debitor qarzlar – 2020,9 mln. so'm
ish haqidan – 360,8 mln. so'm	ishlab chiqarish zaxirasi – 1741,8 mln. so'm
ta'minotchi va bog'liq tashkilotlardan 6390 mln. so'm (Navoiy TMK – 3071 mln. so'm, Olmaliq TMK – 365,9 mln. so'm)	tugallanmagan ishlab chiqarish – 304,2 mln. so'm
	kelajakdagi xarajatlar – 60,3 mln. so'm

Korxonada past rentabelli hisoblanadi. 2008-yil 1-iyulda sof foyda 37,2 mln. soʻmni tashkil etdi. Undan oldingi yili shu vaqtdagi sof foyda 1,02 mln. soʻm boʻlgan.

Korxonaning miqdori 12,1 mlrd. soʻm boʻlgan qarzi “Debitor va kreditor qarzlarni qisqartirish respublika komissiyasi” tomonidan xomashyo, energetika resurslari va Oʻz kimyosanoat DAK tarmoqlararo toʻlovlarni toʻlash 2014-yil 1-oktabrgacha uzaytirilgan. *Kredit boʻyicha maʼlumot:*

- uzoq muddatli bank kreditlari boʻyicha 699,6 mln. soʻm qarzi mavjud (toʻlash muddati 2014-yilgacha);

- qisqa muddatli bank krediti boʻyicha 447,9 mln. soʻm qarzi mavjud (kreditor Uzsanoatqurilish banki).

Hozirgi vaqtda aylanma mablagʻlar yetarli miqdorda emas. Texnologik uskunalarning yemirilishi tufayli qoniqarsiz holatga kelib qolgan, ular tez-tez ishdan chiqib boshlagan va butlovchi qismlarning yoʻqligi uchun ularni tiklash imkoniyati boʻlmagan. Natijada ishlab chiqarishning toʻxtab qolish holatlariga olib kelingan.

#### **Vazifa:**

1. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qiling va bunday holatga tushib qolish sabablarini aniqlang.

2. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tiklash (sogʻlomlashtirish) uchun qanday chora-tadbirlar qoʻllash mumkin?

#### **4. “Astra” firmasining xorijiy bozorga kirish muammolari**

##### **Umumiy maʼlumot:**

“Astra” firmasi vannaxonalari va suv uzatish (vodoprovod) tizimi uchun esa kranlar, dush qurilmalari va turli jihozlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Firma oʻz mahsulotlarini kommunal-maishiy tarmoqlari, uy xoʻjaliklariga va turli korxonalariga taklif qiladi. Firma mahsulotlarining 52 foizini ichki bozorda sotadi. Firma mahsulotlarining tashqi bozordagi ulushlari quyidagicha: Qozogʻistonda – 12 foiz, Qirgʻizistonda – 8 foiz, Tojikistonda – 5 foizni tashkil etadi.

Firmaning yillik umumiy savdo aylanmasi 1,26 mlrd. soʻmdan koʻp. Yuqorida koʻrsatilgan tashqi bozorlar boʻyicha bu koʻrsatkich esa 0,6 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

Firma oʻz mahsulotlarining hajmi, rangi, koʻrinishi, materiali (plastik yoki metall) boʻyicha bozorga moslashishi hisobiga oʻz mavqeyini mustahkamlashga imkoniyat beradi.

Yaqinda “Astra” firmasi Rossiya bozoriga chiqish uchun marketing tadqiqoti oʻtkazishga buyurtma berdi. Mazkur tadqiqot natijalari firmani Rossiya bozoriga kirish mumkinligini koʻrsatdi va kirish uchun bir yil muddat belgilandi.

#### **Vazifa:**

1. Kompaniyaning Rossiya bozoriga kirish yoʻllarini koʻrsatib bering.

2. Xorijiy bozorga kirish bilan bogʻliq boʻlgan barcha imkoniyatlar qiyinchiliklarini aniqlang.

3. Rossiya bozoriga kirish usullarini tanlang va uni asoslab bering.

4. Mahsulotlarning harakat tizimi va taqsimlanishi bo'yicha tavsiya bering.

**5. "Ip yigiruv tikuv" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumot**

"Ip yigiruv tikuv" AJ 1994-yilda tashkil topgan bo'lib, u paxtani qayta ishlash bo'yicha ixtisoslashgan.

Faoliyat turi: kalavali ip ishlab chiqarish.

*Jami mulk qiymati:* 1103,3 mln. so'm.

*Nizom jamg'armasi:* 49,3 mln. so'm.

*Asosiy aksiyadorlari:*

- davlat ulushi – 51 %;
- mehnat jamoasi – 47,1 %;
- "O'zagromashservis" – 1,9 %.

*Ishchilar soni:* 120 nafar, shundan ma'muriy xodimlar – 14.

*Amalda:* 11 kishi ishlab turibdi.

*Jami yer maydoni:* 2,56 ga, shundan i/ch – 2 ga.

*Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish:* korxonada bir yilga yaqin ishlamay turib qolgan, asosiy sabab – xomashyo mavjud emasligi.

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Yillik quvvati	Haqiqatda ishlab chiqarilgan	
			2013-yilda	2014-yilning 9-oyida
Kalavali ip	tonna	777	112	-

**Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2013-yilda 650,6 mln. so'mni tashkil etgan.**

*Moliyaviy holati:* korxonaning 2013-yilda mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi – 447,9 mln. so'mni tashkil etgan, sof foyda – 1,8 mln. so'm. 2007-yil 9-oyidagi natija – 256.4 mln. so'mni tashkil etgan va sof foyda – 0.5 mln. so'm.

*Korxonaning jami majburiyatlari:* 2007.01.10. holatiga ko'ra – 952.9 mln. so'mni tashkil etgan.

*Joriy kreditorlik qarzlari:* 942.8 mln. so'm, shu jumladan – 315.0 mln. so'm qarzning to'lov muddati kechiktirilgan.

- budjet to'lovlari – 4 2.7 mln.so'm (2.5 mln. so'm penya);
- budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar – 24.5 mln. so'm (jumladan – 4.7 mln. so'm penya);

- ish haqi to'lash bo'yicha – 4.5 mln. so'm;

- postavkachilarga – 878.6 mln. so'm (asosan, "O'zpaxtasanoat");

- boshqalar – 2.8 mln. so'm.

*Aylanma mablag'lar (aktivlar):* 2014.01.10. holatiga ko'ra – 956.5 mln. so'mni tashkil etdi. Shundan:

- ishlab chiqarish zaxiralari – 80.6 mln. so'm;

- tayyor mahsulot – 77.1 mln. so'm;

- debitor qarzlari – 793.5 mln. so'm ("Uzpaxtasanoat" ass.)

**Vazifa:**

1. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qiling va bunday holatga

tushib qolish sabablarini aniqlang.

2. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tiklash (sog'lomlashtirish) uchun qanday chora-tadbirlar qo'llash mumkin?

**6. "Nafosat" ochiq aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumot**

"Nafosat" OAJ "O'zbekiston yengilsanoat" DAK tizimiga kiradi.

**Faoliyat turi:** chinni mahsulotlarni ishlab chiqarish.

**Jami mulk qiymati:** 3,3 mlrd. so'm.

**Nizom jamg'armasi:** 53,91 mlrd. so'm.

**Asosiy aksiyadorlari:**

- "O'zbekengil sanoat" DAK – 25 %;
- "Alimuxamedov" xususiy korxonasi – 25,4 %;
- "Grand kapital" kompaniyasi – 10 %;
- mehnat jamoasi – 7,57 %;
- yuridik shaxslar – 5,17 %;
- jismoniy shaxslar – 14,12 %.

<b>Kreditorlik qarzlari – 3399,2 mln.so'm</b> shu jumladan	<b>Aylanma mablag'lar – 2503,6 mln. so'm.</b> shu jumladan
budjetdan – 1711,0 mln. so'm	debitor qarzlari – 785,5 mln. so'm
nobudjet fondlardan – 1021,3 mln. so'm	ishlab chiqarish zahiralari – 719,2 mln. so'm
ish haqidan – 214,4 mln. so'm	tugallanmagan ishlab chiqarish – 93,3 mln. so'm
olingan avans – 364,0 mln. so'm	tayyor mahsulotlar – 520,2 mln. so'm
boshqalar – 88,5 mln. so'm	boshqa mahsulotlar – 6,8 mln. so'm
<b>Qisqa muddatli bank kreditlari – 324,7 mln. so'm</b>	kelajakdagi xarajatlar – 364,0 mln. so'm
	boshqa aktivlar – 14,6 mln. so'm

**Korxonaning jami majburiyatlari:** 3418,4 mln. so'm tashkil etilgan, shu jumladan:

- uzoq muddatli majburiyatlari – 19,2 mln. so'm.

**Ishlovchilar soni:** 2014.30.12. – 761 kishi, shundan ma'muriy xodimlar – 90 kishi;

**Jami yer maydoni:** 6,4 ga, shundan i/ch – 4,7 ga.

**Xo'jalik sudining 2007-yil 2-iyul №10/5730 raqamli qarori bilan "Nafis" bankrot deb e'lon qilingan va hukumat komissiyasining bayonnomasiga ko'ra bankrotlik protsedurasi ishlab chiqarishni to'xtatmagan holda amalga oshiriladi.**

**Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi: 39 %.**

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Yillik quvvati	Haqiqatda ishlab chiqarilgan			
			2013-yil 1-chorak	%	2014-yil 1-yarim yil	%
Chinni mahsulotlari	mln. so'm	2000	0	0	775,3	38,7
	ming dona	7400	0		2535,7	



**Moliyaviy holati: korxonada iqtisodiy nochor.**

2013-yil – 1 yarim yilda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum – 495,8 mln. so‘mni, zarar – 18,8 mln. so‘mni tashkil etgan. 2014-yilning 1-chorakida gaz ta‘minotining yomonlashganligi sababli mahsulot ishlab chiqarilmagan. 1 yarim yilda hajmi 775,3 so‘mlik, 2535783 dona mahsulot ishlab chiqarilgan. Bundan 595,9 mln. so‘mlik mahsulot sotilgan.

**Boshqa ma‘lumotlar:** korxonada balansida sotsial va kommunal infratuzilmalar (yotoqxona, tugatilmagan turar uy-joy, dam olish zonasi) mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bayonnomasi (2008.12.02. № 02/25-65) topshirig‘iga ko‘ra “Nafis” OAJ mulki tender savdosida investitsion majburiyat qabul qilinish sharti bilan sotish ko‘zda tutilgan. Ushbu topshiriqni bajarish uchun Davlat tender komissiyasiga barcha hujjatlar taqdim etilgan. Korxonada mulkining qiymati 4,9 mlrd. so‘mga baholangan.

Hozirgi vaqtda sotuv bozori (xaridorlar) yo‘qotilgan va aylanma kapital yetarli miqdorda bo‘lmaganligi sababli ishlab chiqarish qisman to‘xtatilgan.

**Vazifa:**

1. “Nafis” OAJ moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qiling va bunday holatga tushib qolish sabablarini aniqlang.
2. Korxonada sotuv bozorining (xaridorlar) yo‘qotilish sabablarini aniqlang.
3. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tiklash (sog‘lomlashtirish) mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

## **MASALALAR BO'YICHA TOPSHIRIQLAR:**

### **1-masala**

Korxonaga joriy yil davomida 450 mln. so'm. investitsiya jalb qilindi. Investitsiya mablag'larini qoplash uchun 5 yil muddatda 15 % bank kreditlari belgilangan.

Bu ma'lumotdan foydalangan holda investitsiyaning qoplanish muddatini, diskont stavkasini maqsadga muvofiqligini aniqlang.

### **2-masala**

Korxonona (firma)ning marketing tadqiqoti natijasida ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida joriy yilda import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning so'mlarda ifodalangan valyuta qiymati (I) – 2563 ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shu davrda mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi – 1785 ming AQSh dollarini tashkil etdi (S).

Korxonona mahsulotini Mahalliyashtirish darajasini (UI) toping.

### **3-masala**

Korxonona oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishi uchun korxonaga qo'shimcha investitsiya mablag'larini jalb etish loyihasi ishlab chiqildi. 2014-yilda korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi – 2568 ming so'mni tashkil etgan. O'z navbatida mahalliyashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi – 1768 ming so'mni tashkil etgan.

a) mahalliyashtirish darajasini aniqlang;

b) Mahalliyashtirish dasturiga kiritish mumkin yoki mumkin emaslik kriteriyasini izohlang.

### **4-masala**

"Bolalar Xolding kompaniyasi" XK ishlab chiqarish salohiyatini oshirish maqsadida investitsiya loyihalari asosida import orqali olib kelingan mahsulotlarga bojxona poshlinasi qo'llanilgandan keyingi qo'shimcha qiymat ( $D_1$ ) miqdori – 185.3 ming AQSh dollarini tashkil etdi, o'z navbatida mamlakat ichki qo'shimcha qiymat (D) miqdori – 162.3 ming AQSh dollarini tashkil etgan.

Kompaniyaning ichki bozorni himoya qilish – proteksiya darjasini aniqlang.

### **5-masala**

Joriy yilda korxonaning qisqa muddatli qarzlari (zayomlar), qisqa muddatli kreditorlik qarzlari, budjetdan va boshqa kreditorlik qarzlari ( $M_2$ ) – 653.1 mln. so'mni, o'z mablag'larining manbalari ( $M_1$ ) – 1256 ming so'mni, uzoq muddatli qarzlari (zayomlar) va kreditlar ( $D_{umk}$ ) – 123 mln. so'mni tashkil etgan.

Korxonaning o'z mablag'lari va qarzdorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik ( $K_{um}$ ) darajasini aniqlang.

### 6-masala

Korxonada tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun korxonaga qo'shimcha investitsiya mablag'larini jalb etish loyihasi quyidagilarga asosan ishlab chiqildi.

Jami investitsiya loyihasi:

- so'mda – 650 mln. so'm;
- valyutada – 200 ming AQSh dollari.

Ushbu mablag'lar quyidagi maqsadlar uchun mo'ljallangan:

1. Bino inshootlar – 300 mln. so'm.
2. Texnik-texnologiya – 50 mln. so'm.
3. Xomashyo va materiallar – 15 mln. so'm.
4. Nou-xau, personalni tayyorlash va boshqa xarajatlar – 15 mln. so'm.
5. Amortizatsiya ajratmasi o'rtacha yillik darajasi – 7 %.

Korxonada ishlab chiqarish tizimini qayta texnik ta'mirlashni tashkil etish maqsadida reja yilida 250 mln. so'm mablag' ajratishni rejalashtirgan.

Ushbu maqsadlar uchun ketadigan quyidagi sarf-xarajatlarni aniqlang:

1. Texnologik asbob-uskunalar uchun xarajatlar miqdorini.
2. Yangi bino, inshootlarni qurish xarajatlarini.
3. Uzlaksiz ishlab chiqarishni tashkil etish miqdorini.

### 7-masala

Korxonada kelgusidagi moliyaviy tahdidlarining o'sishini yoki kamayishini, o'z majburiyatlarini bartaraf etish maqsadida hisobot yilida o'z moliyaviy barqarorligini hisob-kitob qilib chiqdi. Hisob-kitoblar uchun quyidagi ma'lumotlar asos qilib olindi:

1. Ustav kapitali, qo'shilgan kapital miqdori – 1210,3 mln. so'm.
2. Korxonaning taqsimlanmagan daromadi (foydasi) – 823,4 mln. so'm.
3. Korxonada balansining passivlari (uzoq muddatli kreditlar, majburiyatlar) – 36301,7 mln. so'm.

**Mazkur ma'lumotlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagilarni aniqlash lozim:**

1. Korxonaning o'z mablag'larining jami miqdorini.
2. Korxonada balanslar bo'yicha mavjud mablag'lar miqdorini.
3. Korxonaning moliyaviy barqarorlik holatini.

Izoh: Korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasi 0,5 ko'rsatkichdan kam bo'lsa, korxonada bu ko'rsatkich bo'yicha barqaror emas.

### 8-masala

Hisobot yili davomida "O'zbekiyengilsanoat" DAK bo'yicha o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1. Kompaniyaning o'z aylanma mablag'lari miqdori – 29057,1 mln. so'm.
2. Uzoq muddatli aktivlar (asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, kapital mablag'lar) miqdori – 52311,3 mln. so'm.
3. Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar miqdori – 42311,8 mln. so'm.
4. Pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalar – 21109,2 mln. so'm.

5. Kompaniyaning hisobot yilidagi gudvill bo'yicha aktivlari – 19362 mln. so'm.

**Hisobot davrida korxonaning ushbu ma'lumotlari asosida quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash lozim:**

1. Kompaniyaning hisobot yilidagi aylanma aktivlar miqdorini.
2. Uzoq muddatli aktivlar miqdorini.
3. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash darajasini.

Izoh: Agar kompaniya o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanishi 0,1 ko'rsatkichdan past bo'lsa, unda kompaniya ushbu ko'rsatkich bo'yicha barqaror emas.

### 9-masala

Korxonaning joriy yilda asosiy fondlarining holati va uni yangilash uchun loyiha mablag'larini aniqlash zarurati tug'ildi. Shu sababli ularni mavjud holatidan kelib chiqqan holda amortizatsiya koeffitsiyentlarini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

1. Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati – 120,0 mln. so'm.
2. Asosiy fondlarning hisobdan chiqarib tashlanadigan qiymati – 10,0 mln. so'm.
3. Foydalanish muddati – 5 yil.

Izoh: Misolimizdagi amortizatsiyalangan qiymat 110,0 mln. so'mni (120,0-10,0) tashkil etadi. Har yili o'rtacha chiqarib tashlanadigan (spisat) qiymat miqdori 22,0 mln. so'mni (110,0/5) tashkil etadi. Yoki yillik amortizatsiya normasi 20-22 %ni tashkil etadi.

**Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash lozim:**

- A. Korxonaning 5 yillik tezkor amortizatsiya koeffitsiyentlarini.
- B. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyentlarini aniqlash lozim.

### 10-masala

Korxonada ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish maqsadida yangi tovarlarni yaratish, innovatsiya holatini rivojlantirish uchun reja yiliga 350 mln. so'm mablag' ajratishni rejalashtirgan.

Ushbu maqsadlar uchun ketadigan quyidagi sarf-xarajatlarni aniqlang:

1. Texnologik asbob-uskunalar uchun xarajatlar miqdorini.
2. Uzluksiz ishlab chiqarishni ta'minlashni yo'lga qo'yish xarajatlarini.
3. Sotishni tashkil etish uchun xarajatlar miqdorini.

Iste'mol bozorini qandolat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifi quyidagi manbalar orqali shakllangan:

Taklif		Talab	
Ko'rsatkichlar	mln. so'm	Ko'rsatkichlar	mln. so'm
1. Qandolat mahsulotlari resurslari	608	1. Ichki iste'mol bozori ehtiyoji	560
2. Yil boshidagi tovar zaxirasi	32	2. O'rtacha 1 yilda hisoblangan 1 kishiga bo'lgan me'yor, kg	3.6



3. Eksport	12.5	3. Import	158.6
4. Yil oxiridagi tovar zaxirasi	12	5. Mahsulotning o'rtacha 1 kg narxi, so'm	6500

**Topish kerak:**

1. Iste'mol bozor sig'imi.
2. Qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirilishining optimal iste'mol miqdori.

**Ma'lumot uchun quyidagi ko'rsatkichlar keltirilgan:**

1. Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar – 60 so'm.
2. Realizatsiya (sotish) bahosi – 80 so'm.
3. Doimiy xarajatlar – 1100 so'm.
4. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib quyidagilarni aniqlang:
  - a) bitta mahsulot foydasi;
  - b) zararsizlik nuqtasi.

**11-masala**

Korxonaga (firma)ning joriy yildagi ko'rsatkichlar tahlili natijalarida quyidagilar aniqlandi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – 2506 dona.
2. Mahsulot birligidagi bahosi – 8500 so'm.
3. Mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajatlar miqdori – 2560 so'm.

**Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:**

1. Mahsulot sotishdan tushgan tushum.
2. Jami o'zgaruvchan xarajatlar miqdori.
3. Sof foyda.

**12-masala**

Tovarni sotish bo'yicha kutilayotgan hajmi yilning oylari bo'yicha quyidagicha:

Oy	Sotuv, birlik
1	1000
2	1300
3	1500
4	1600
5	1800
6	1900
7	2000
8	2100
9	2700
10	3200
11	4100
12	5300

Mahsulot birligi narxi 1-chorakda 2000 so'm, 2-chorakda 2500 so'm, 3-chorakda 2750 so'm va to'rtinchi chorakda 3400 so'm bo'lishi kutilmoqda. Mahsulotni sotish bo'yicha yillik natija qanday bo'ladi?

### 13-masala

“AVS” kompaniyasi eksportlari bozordagi vaziyatga bog‘liq holda quyidagicha foyda ko‘rsatkichlarini aniqladi (mln. so‘m):

Kompaniya strategiyasi	Vaziyatga bog‘liq holda foyda		
	1-vaziyat	2-vaziyat	3-vaziyat
1. Sovutgich	48	67	52
2. Muzlatgich	89	24	46
3. Konditsioner	72	49	76

Agar ekspertlar barcha tovarlarga bo‘lgan talab o‘sib, uning strukturasi o‘zgarib qolishiga qat‘iy ishonadigan bo‘lsalar, qaysi strategiyani tanlashlari kerak bo‘ladi? Nima sababdan? Agar risk mavjud bo‘lsa, ekspertlar: 1-vaziyatni – 40 %, 2-vaziyatni – 35 %, 3-vaziyatni – 25 %ga baholaydigan bo‘lsalar, bu holda qaysi strategiyani tanlagan ma‘qul? Aytaylik, tovarni sotish sharoitlari noqulay bo‘lsin. Siz qaysi strategiyani taklif qilgan bo‘lardingiz?

### 14-masala

Korxonaga kelgusidagi moliyaviy tahdidlarning o‘shishi yoki kamayishini, o‘z majburiyatlarini bartaraf etish maqsadida, hisobot yilida o‘z moliyaviy barqarorligini hisob-kitob qilib chiqdi. Hisob-kitoblar uchun quyidagi ma‘lumotlar asos qilib olindi:

1. Ustav kapitali, qo‘shilgan kapital miqdori – 1210,3 mln. so‘m.
2. Korxonaning taqsimlanmagan daromadi (foydasini) – 823,4 mln. so‘m.
3. Korxonaga balansining passivlari (uzoq muddatli kreditlar, majburiyatlar) – 36301,7 mln. so‘m.

**Mazkur ma‘lumotlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagilarni aniqlash lozim:**

1. Korxonaning o‘z mablag‘larining jami miqdorini.
2. Korxonaning balanslar bo‘yicha mavjud mablag‘lar miqdorini.
3. Korxonaning moliyaviy barqarorlik holatini.

Izoh: Korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasi 0,5 ko‘rsatkichdan kam bo‘lsa, korxonaga bu ko‘rsatkich bo‘yicha barqaror emas.

### 15-masala

Korxonaga (firma)ning mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish holatidan kelib chiqib, kelgusidagi zararsizlikni ta‘minlash (nuqtasini) holatini aniqlang.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – 3000 dona.

Mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar – 30 so‘m.

Mahsulot birligida realizatsiya (sotish) bahosi – 36 so‘m.

Doimiy xarajatlar – 110000 so‘m.

Ushbu ko‘rsatkichlardan foydalanib, korxonaga (firma)ning biznes-rejasidagi quyidagi ko‘rsatkichlarni toping:

1. Yalpi foydani.
2. Zararsizlik nuqtasini (miqdorini).

Izoh: Zararsizlikni ta‘minlash uchun yalpi foyda miqdori doimiy xarajatlarni qoplashga teng bo‘lishi lozim.

### 16-masala

Korxonada (firma)ning marketing tadqiqoti natijasida ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida joriy yildagi ko'rsatkichlar tahlili natijalaridan quyidagilar aniqlandi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, jami – 3000 dona.
2. Mahsulot birligidagi bahosi – 50 so'm.
3. Mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajatlar miqdori – 28 so'm.
4. Doimiy xarajatlar – 11000 so'm.

Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:

1. Bitta mahsulot hisobiga yalpi foydani.
2. Yalpi foydaning umumiy hajmini.
3. Mahsulot sotishdan tushgan tushum.
4. Sof foydani.

### 17-masala

Kelgusida korxonani kengaytirish maqsadida qo'shimcha investitsiya mablag'larini kiritish ko'zda tutilgan. Korxonada o'z mablag'larining maqsadga muvofiqlik kriteriyasi quyidagi ma'lumotlarda berilgan:

1. Korxonada aylanma aktivlarining yil oxiridagi qiymati – 67556 mln. so'm ( $R_1$ ).

2. Joriy yil boshidagi qiymati – 59.430 mln. so'm ( $R_0$ ).

3. Davr davomidagi turli to'lovlar miqdori (dividendlar, foiz to'lovlari) – 12 % (D).

**Ushbu ma'lumotlardan foydalanib quyidagilarni aniqlash lozim:**

1. Korxonaning o'z aylanma mablag'ini.
2. Joriy yil davomidagi turli to'lovlar hajmini.
3. Investitsiyalashtirishning maqsadga muvofiqlik kriteriyasini?

“Baraka” lizing kompaniyasi hisob-kitoblari bo'yicha taklif qilinayotgan lizing loyihasining quyidagi ma'lumotlariga ega:

- savdo hajmi (S) – 456 ming so'm;
- o'zgaruvchan xarajatlar (VC) – 203 ming so'm;
- doimiy xarajatlar (PC) – 165 ming so'm;
- yalpi foyda hajmi (CM) – 183 ming so'm.

“Baraka” lizing kompaniyasining xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zararsizlik nuqtasini toping.

### 18-masala

Iste'mol bozorini qandolat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifi quyidagi manbalar orqali shakllangan:

Taklif		Talab	
Ko'rsatkichlar	mln. so'm	Ko'rsatkichlar	mln. so'm
1. Qandolat mahsulotlari resurslari	608	1. Ichki iste'mol bozori ehtiyoji	560
2. Yil boshidagi tovar zaxirasi	32	2. O'rtacha 1yilda hisoblangan	3.6

		1 kishiga bo'lgan me'yor, kg	
3. Eksport	12.5	3. Import	158.6
4. Yil oxiridagi tovar zaxirasi	12	4. Mahsulotning o'rtacha 1 kg. narxi, so'm	6500

**Hisoblash kerak:**

1. Iste'mol bozor sig'imi.
2. Qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirilishining optimal iste'mol miqdorini.



**“INVESTITSION TAHLIL” KURSINI O‘RGANISH BO‘YICHA TAVSIYA  
ETILAYOTGAN ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLAR**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
INVESTITSIYA FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA**

Toshkent sh., 1998-yil 24-dekabr, 719-I-son

*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 10-modda; 2004-y.,  
1-2-son, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 41-son,  
405-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda)*

**1-modda. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari**

Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi, chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

**2-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar;

investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui;

investor – o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

investitsiya faoliyati ishtirokchisi – investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta‘minlovchi investitsiya faoliyati subyekti;

reinvestitsiyalar – investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

**3-modda. Mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra investitsiyalarning turlari**

Investitsiyalar mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo‘linadi.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne‘matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

**4-modda. Investitsiyalarni amalga oshirish shakllari**

Investorlar investitsiyalarni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish.

Investorlar investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin.

Investitsiyalar birlamchi yoki takroran qo'shiladigan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiyalar sifatidagi darajasining o'zgarishiga olib kelmaydi.

### **5-modda. Investitsiya resurslari**

Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;

intellektual mulk obyektlari, shu jumladan texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmui, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau;

yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar.

### **6-modda. Investitsiya faoliyati obyektlari**

Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish obyektlari investitsiya faoliyatining obyektlaridir.

Barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

### **7-modda. Investitsiya faoliyatining subyektlari**

Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo'lishlari mumkin:

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;

xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

### **8-modda. Investorning huquqlari**

Mulk shakllaridan va faoliyat turidan qat'i nazar investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda teng huquqlarga egadirlar.

Investitsiyalanishi ushbu qonun yoki boshqa qonunlar bilan cheklangan yoki taqiqlangan obyektlardan tashqari har qanday obyektga investitsiyalar kiritish investorning mutlaq huquqi hisoblanadi va qonun bilan qo'riqlanadi.

*Lex.UZ sharhi*

*Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunining 8-moddasiga muvofiq Ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi o'ttiz foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarning ommaviy axborot vositalarini tashkil etishiga yo'l qo'yilmaydi.*

Investor investitsiyalash maqsadi, yo'nalishi, turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov (tender) savdosini o'tkazish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq investor investitsiya obyektlariga va ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish, shuningdek, reinvestitsiya qilish huquqiga ega.

Qonun hujjatlarida belgilangan mulk huquqini qo'lga kiritishni keltirib chiqarmaydigan obyektlarga investitsiya kiritish investorning keyinchalik bu obyektlarga egalik qilish, ularni operativ boshqarish yoki ulardan foydalanishdan olinadigan foyda (daromadlar)da ishtirok etish huquqini istisno etmaydi.

Investorning qaroriga binoan investitsiya obyektlariga va ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlarni berish paytida taraflarning o'zaro munosabatlari ular tuzadigan shartnomalar asosida tartibga solinadi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor o'ziga zarur bo'lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslardan o'zaro kelishuv asosida belgilanadigan narx va shartlarda, hajmi va nomenklaturasini cheklamagan tarzda olishga haqli.

Investor qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **9-modda. Investorning majburiyatlari**

Investor:

investitsiya loyihalarida sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishi;  
monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;  
solliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi;

*Keyingi tahrirga qarang.*

shartnoma bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli investitsiya faoliyati ishtirokchisiga yetkazilgan zararni qoplashi;

mahalliy davlat hokimiyat organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yiladigan talablarini bajarishi shart.

Investorning zimmasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **10-modda. Investitsiya faoliyati ishtirokchisining huquqlari**

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli:

tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo'lish;

investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish;

agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor oldidagi o'z majburiyatini bajarishga boshqa shaxslarni jalb etish;

agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investitsiya faoliyati obyektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejamni mustaqil ravishda tasarruf etish.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa

huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **11-modda. Investitsiya faoliyati ishtirokchisining majburiyatlari**

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi:

qonun hujjatlarida belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga rioya etishi;

shartnomalarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishi;

shartnomani bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli investorga yetkazilgan zararni qoplashi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yilgan talablarini bajarish shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda litsenziya olishi shart.

*Lex.UZ sharhi*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-maydagi 222-II-son qarori bilan amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati belgilangan.*

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi zimmasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **12-modda. Investitsiya faoliyati subyektlarining o'zaro munosabatlari**

Shartnoma tuzish, sheriklar va kafillarni tanlash, majburiyatlarni belgilash, shuningdek, investitsiya faoliyati subyektlari o'zaro munosabatlarining boshqa shartlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

### **13-modda. Investitsiya faoliyatida narx belgilash**

Investitsiya faoliyati jarayonida mahsulot (ishlar, xizmatlar) bahosi qoida tariqasida, tanlov (tender) savdosi natijalariga ko'ra, kelishilgan narxlarda belgilanadi.

Investitsiya faoliyati subyekti bozorda monopol holatni egallagan hollarda narxlarni davlatning vakolatli organi qonunlarga muvofiq tartibga soladi.

*Lex.UZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi 239-sonli "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga qarang.*

### **14-modda. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish**

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;

soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;

normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;

monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;

kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;

yer va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;

investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi.



### **15-modda. Markazlashtirilgan investitsiyalar**

Davlat investitsiya faoliyati doirasida:

davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar mablag'i hisobidan to'g'ridan to'g'ri moliyalash yo'li bilan amalga oshiriladigan investitsiya;

O'zbekiston Respublikasi Hukumat kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya – markazlashtirilgan investitsiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni boshqarish davlat investitsiyalari maqsadlari uchun obyektlarni, investitsiyalash shart-sharoitlarini belgilashdan va ular bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etishdan iborat.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni boshqarish mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

### **16-modda. Markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish**

Markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar davlat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan ilmiy-texnik va kompleks davlat dasturlari hamda ana shu investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlovchi texnik-iqtisodiy asoslar negizida qabul qilinadi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan aniq maqsadga mo'ljallangan kompleks davlat dasturlarining loyihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat budjetidan moliyalanadigan investitsiyalarning hajmlarini tasdiqlaydi.

### **17-modda. Markazlashtirilgan investitsiyalarni joylashtirish**

Markazlashtirilgan investitsiyalarni joylashtirish qoida tariqasida, davlat kontrakti asosida amalga oshiriladi.

Davlat kontrakti investitsiya faoliyati ishtirokchisini — bajaruvchini tanlov (tender) asosida saralab olish orqali tuziladi. Bunda mazkur bajaruvchi uchun qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar belgilab qo'yilishi mumkin.

### **18-modda. O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish ishtirokchilariga soliqqa oid va boshqa imtiyozlar beriladi. Har bir alohida investitsiya loyihasi bo'yicha yoki, umuman, O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bo'yicha beriladigan imtiyozlarning aniq ro'yxati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

*Lex.UZ sharhi*

*Batafsil ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 155-moddasi va 282-moddasi ikkinchi qismining 18-bandiga qarang.*

### **19-modda. Investitsiya loyihalari ekspertizasi**

Budjet mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga, shuningdek, chet el investitsiyalarini O'zbekiston Respublikasining Hukumati kafolati ostida jalb etilgan holda moliyalanadigan investitsiya loyihalari ekspertizadan o'tkazilishi shart. Ekspertizani o'tkazish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Boshqa manbalar hisobiga moliyalanadigan investitsiya loyihalari sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar bajarilishiga doir qismida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishi lozim.

*Lex.UZ sharhi*

*Batafsil ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-son qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi nizomga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-fevraldagi PF-1924-son "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997- yil 28-oktabrdagi PF-1875-son "Kapital qurilishni tashkil etishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Banklarning kredit resurslari hisobidan moliyalanadigan kichik tadbirkorlik investitsiya loyihalari tijorat banki tomonidan mazkur investitsiya loyihasini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida ekspertiza qilinishi lozim.

*(19-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari shu shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda ekspertiza qilinishi lozim.

#### **20-modda. Investitsiya fondlari**

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida tegishli investitsiya fondlari tashkil etilishi mumkin.

*Lex.UZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentabrda 410-son "Investitsiya va xususiyashtirish investitsiya fondlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga qarang.*

#### **21-modda. Investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari**

Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Agar davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular vakolatlari bo'lgan va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq choralarni ko'rishlari mumkin. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan investitsiya faoliyati subyektlarining boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki faoliyatini cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Ushbu moddaning qoidalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga muvofiq belgilanadigan, O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'lgan qonun hujjatlarini qabul qilish, ularga qo'shimchalar kiritish yoki ularni bekor qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### **22-modda. Investitsiyalarni himoya qilish**

Davlat investitsiyalar himoya qilinishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi.

Investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi, tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiya hollari va boshqa favqulodda xususiyatga ega bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Investitsiyalarni rekvizitsiya qilish to'g'risidagi qaror:

ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan hollardan kelib chiquvchi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar yoki boshqa aktivlarning eng kam miqdori cheklanadigan; kamsitilmaydigan asosda va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan;

*Lex.UZ sharhi*

*O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 203-moddasiga qarang.*

yetkazilgan zararga monand ravishda kompensatsiya to'lanadigan rekvizitsiya bo'yicha talablarga rioya etilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Davlat ko'rsatib o'tilgan kompensatsiya to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilishiga kafil bo'ladi.

Investor Investitsiyalarni rekvizitsiya qilish to'g'risidagi qaror yuzasidan sud tartibida nizolashishga haqli.

Investitsiyalar sug'urta qilinishi mumkin, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa sug'urta qilinishi shart.

### **23-modda. Mablag'lardan foydalanish kafolatlari**

Investitsiya faoliyati subyektining investitsiya faoliyati natijasida olingan foydasi (daromadi) soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langach, uning xohishiga ko'ra reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin.

*Keyingi tahrirga qarang.*

Investitsiya faoliyati subyekti olgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, uning maqsadli bank omonatlari, shuningdek, olingan mol-mulk olib qo'yilgan (rekvizitsiya qilingan) hollarda ular qiymati yoki ijara to'lovlari qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi (kompensatsiya to'lanadi).

Investitsiya faoliyati subyektining hisobvaraqlaridan foydalanishni cheklab qo'yish yoki mablag'lami majburan olib qo'yish qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

### **24-modda. Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari**

Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari hukumat tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimi yaratilishini, loyihalar amalga oshirilishining davlat monitoringi yuritilishini va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va ularni himoya qilish choralari investitsiya faoliyati subyektlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan beriladi.

### **25-modda. Ochiq axborotdan erkin foydalana olish**

Investitsiya faoliyati subyektlarining manfaatlariga muayyan tarzda daxldor umummajburiy tusdagi qonun hujjatlaridan ular erkin foydalana olishlari lozim.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari investitsiya faoliyati subyektlarining so'rovlariga ko'ra ularni qiziqtirgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda berishlari shart.

*Lex.UZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuniga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga qarang.*

### **26-modda. Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish**

Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish investoming, davlatning vakolatli organi yoki sudning qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qaror: investor qonunda belgilangan tartibda bankrot deb e'lon qilingan yoki topilgan;

*Lex.UZ sharhi*

*Batafsil ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuniga qarang.*

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan;

investitsiya faoliyati jarayonida qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan hollarda qabul qilinishi mumkin»;

*(26-modda ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrdagi O'RQ-59-sonli qonuni tahririda – O'R QHT, 2006-y., 41-son, 405-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tadbirkorlik subyekti faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatishga olib keladigan investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda investitsiya faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno) yoki tugatish sud tartibida amalga oshiriladi.

*(26-modda O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrdagi O'RQ-59-sonli qonuni asosida uchinchi qism bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2006-y., 41-son, 405-modda)*

Investitsiya faoliyati subyektiga ushbu modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida ko'rsatilgan hollarda yetkazilgan zararni qoplash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### **27-modda. Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, investitsiya faoliyatining subyekti yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

*Lex.UZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobiga ("Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar") qarang.*

### **28-modda. Nizolarni hal etish**

Investitsiyalar bilan bog'liq nizolar (investitsiyaga oid nizolar) sud tomonidan hal etiladi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I.KARIMOV**

### **O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni**

**(O'zR qonuni 30.04.1998-y. N 609-I**

**(O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri))**

Mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan:

O'zR 20.08.1999-y. 832-I-son qonuni,

O'zR 07.04.2008-y. O'RQ-143-son qonuni,

O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni,

O'zR 25.12.2012-y. O'RQ-343-son qonuni,

O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni.

1-modda. Qonunning maqsadi va vazifalari.

2-modda. Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlari.

3-modda. Chet el investitsiyalari.

4-modda. Chet ellik investorlar.

5-modda. Chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari.

6-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar.

7-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining shu'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari.

8-modda. Korxonalarining xo'jalik birlashmalari.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim.



- 10-modda. Chet ellik investorlarning huquqlari.
- 11-modda. Chet ellik investorlarning majburiyatlari.
- 12-modda. Chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyati.
- 13-modda. Konsessiya shartnomalari.
- 14-modda. Chet ellik xodimlarni jalb etish.
- 15-modda. Yurish erkinligi.
- 16-modda. Chet el investitsiyalarini sug'urta qilish.
- 17-modda. Majburiyatlarni ta'minlash.
- 18-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish.
- 19-modda. Chet el investitsiyalari bo'yicha davlat majburiyatlari.
- 20-modda. Chet el investitsiyalarini jalb etishni amalga oshiruvchi organlarning vazifalari.
- 21-modda. Chet ellik investorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat organlarining vakolatlari.
- 22-modda. O'zaro zid qoidalar.

### **1-modda. Qonunning maqsad va vazifalari**

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari amalga oshirilishining huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi.

Ushbu qonunning asosiy vazifalari:

chet el investitsiyalari kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish va uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga ko'maklashishdan;  
chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy xorijiy texnologiyalarni va boshqaruv tajribasini jalb etish hamda ulardan oqilona foydalanishdan iborat.

### **2-modda. Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun, chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni, boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

*Shuningdek qarang: "NORMA" AQT Qomunchilik klassifikatorining "O'zR Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida" papkasidagi "Investitsiyalar" kichik papkasining "Xorijiy investitsiyalar" kichik papkasi*

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **3-modda. Chet el investitsiyalari**

(O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi modda matni)

(Oldingi tahririga qarang)

Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shiladigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Chet ellik investorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalaridan olingan hamda O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnikaviy yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar reinvestitsiyalar deb e'tirof etiladi.

### **4-modda. Chet ellik investorlar**

O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;  
davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;  
chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;  
chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

### **5-modda. Chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari**

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;

mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish; (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

konsessiyalar, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish;

savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar-joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek, yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish; (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq yer qa'ri uchastkalarida konlarni aniqlash, qidirish hamda foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olish orqali. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan xatboshi)

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin.

Chet el investitsiyalari birlamchi yoki takroran amalga oshirilayotgan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi.

### **6-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar**

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

*Qarang: Prezident\*ning 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-son farmoni bilan tasdiqlangan "Chet el investorlar hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun o'rnatilgan asosiy kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar ro'yxati". (hujjat rus tilida keltirilgan)*

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qatnashchilaridan biri ushbu qonun 4-moddasining ikkinchi, uchinchi yoki to'rtinchi xatboshilarida ko'rsatilgan chet ellik investor bo'lishi shart.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uni ta'sis etish yo'li bilan yoki ilgari chet el

investitsiyalari ishtirokisiz ta'xis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan, xususiylashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonada davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

*Qarang: VM 2003-yil 20-avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida"gi nizom*

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatiga olish, shuningdek, zarur ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tegishli davlat organi tomonidan "bir darcha" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

#### **7-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining shu'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonada O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya etgan holda O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan shu'ba korxonalar, filiallar, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan vakolatxonalar va boshqa alohida bo'linmalar tashkil etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining shu'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa alohida bo'linmalari tashkil etilishi mumkin.

#### **8-modda. Korxonalarining xo'jalik birlashmalari**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, konsorsiumlar va boshqa xo'jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to'la huquqli a'zo sifatida kirishi mumkin.

#### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim**

Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog'ida ularning barcha huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi.

*Qarang: "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi; VM 2005-yil 2-avgustdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan kafolatlarni qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom*

Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga nisbatan noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Chet el investitsiyalarining huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga nisbatan noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlarini himoya etish maqsadida iqtisodiyot va faoliyatning muayyan sohalarida chet el investitsiyalari uchun cheklashlar yoki taqiq nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari

va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

### **10-modda. Chet ellik investorlarning huquqlari**

Chet ellik investor xalqaro huquq prinsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;  
investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliksiz repatriatsiya qilish), (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang);

O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlari tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan, qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investorlar – jismoniy shaxslar, chet ellik investorlar – yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda o'z ulushlari (hissalari, aksiyalari) mavjud bo'lgan butun davrda tegishli ko'p martalik vizalar olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelish va unda qolish huquqiga ega. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq ikkinchi qismi uchinchi qism deb hisoblansin.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

### **11-modda. Chet ellik investorlarning majburiyatlari**

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirganda:

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya etishlari;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashlari; (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi xatboshi)

investitsiyalash munosabati bilan o'z zimmlariga olgan shartnoma majburiyatlari bo'yicha



javob berishlari;

investitsiya loyihalarida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan sanitariya-gigiyena, ekologiyaga oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishlari;

o'z raqobatchilariga nisbatan qo'shimcha imtiyozlar va afzalliklar olish maqsadida investitsiya faoliyati bo'yicha sheriklariga yoki davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga bevosita va (yoki) bilvosita noqonuniy ta'sir o'tkazishning har qanday shakllaridan o'zlarini tiyishlari shart.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga rioya etmaganligi uchun umumiy asoslarda javobgar bo'ladi hamda o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan o'zining mol-mulki bilan javob beradi.

### **12-modda. Chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyati**

Chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyati, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, ularning shu'ba korxonalari, filiallari va boshqa tuzilmalarini, shuningdek, xo'jalik uyushmalari va birlashmalarini tashkil etish, sotish, qayta tashkil etish yoki tugatish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining fondlarini shakllantirish, ijara shartnomalari va boshqa shartnomalarni tuzish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi. (O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan, chet ellik investorning pul shaklidagi hissasi kamida besh million AQSh dollaridan iborat bo'lgan korxonalar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari o'zgargan taqdirda, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida ular davlat ro'yxatiga olingan sanada amal qilib turgan, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga doir normalar hamda qoidalarni qo'llashga haqlidir. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq uchinchi-o'n to'rtinchi qismlari to'rtinchi-o'n beshinchi qismlar deb hisoblansin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining chet el valyutasidagi barcha xarajatlari ularning o'z valyuta tushumlari hisobiga, shuningdek, chet el valyutasini olishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa manbalari hisobiga ta'minlanishi lozim. Ularning valyutada o'zini o'zi qoplashi tuziladigan konsorsiumlar, birlashmalar va boshqa tashkiliy tuzilmalar doirasida ham ta'minlanishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya etgan holda eksport-import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O'zlari ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni litsenziyasiz import qilishga haqli. Eksportga chiqariladigan o'zining ishlab chiqargan mahsulotini va korxonalar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun import qilinadigan mahsulotni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*Qarang: VM 2011-yil 16-maydagi 136-son qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni aniqlash tartibi to'g'risida"gi nizom*

Ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan

e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulk boj undirishdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi. Chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan bojxona boji undirilmaydi. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

*Qarang: "Boj tarifi to'g'risida"gi qonunining 33-moddasi birinchi qismining o'n uchinchi xatboshisi, o'n to'rtinchi xatboshisi*

Chet ellik investorlariga hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga tegishli, ularning investitsiyalari sifatida qo'shiladigan ixtirolarni patentlash va sanoat namunalari joriy etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*Qarang: "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri); AV tomonidan 2004-yil 22-martda 1329-son bilan davlat ro'yxatiga olingan DPning 2004-yil 2-fevraldagi 9-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ixtiroga O'zbekiston Respublikasining patenti berilishi uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (hujjat rus tilida keltirilgan); AV tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-son bilan davlat ro'yxatiga olingan DPning 2004-yil 21-apreldagi 22-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasining patenti berilishi uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (hujjat rus tilida keltirilgan)*

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar korxonalar fondlari ro'yxatini, ularni vujudga keltirish va ulardan foydalanish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar xodimlarining pensiya ta'minoti O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. (O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalari sotib olishlari mumkin.

Imoratlar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi boshqaga o'tayotganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda shu obyektlar bilan birgalikda yer uchastkasidan foydalanish huquqi ham o'tadi.

Chet ellik investorlarga mol-mulkni ijaraga berib qo'yish ijaraga beruvchi tomonidan shartnomalar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitobni va hisobotni amalga oshiradilar. Ular buxgalteriya daftarlari va yozuvlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, shuningdek, o'z xohishlariga ko'ra, erkin ayirboshlanadigan valyutada yuritadilar.

### **13-modda. Konsessiya shartnomalari**

Chet ellik investorlarga tabiiy resurslarni qidirish, qazib olish va ulardan foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini yuritish uchun konsessiyalar berish chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzadigan konsessiya shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Konsessiyalarga, agar ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lsa va tuziladigan konsessiya shartnomalarining maqsadlariga javob bersa, faoliyatning barcha sohalari va turlarida yo'l qo'yiladi.

*Qarang: "Konsessiyalar to'g'risida"gi qonun*

### **14-modda. Chet ellik xodimlarni jalb etish**

Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqiga ega. Bunday shaxslar mehnat shartnomasi amal qilishining butun davrida tegishli ko'p martalik vizalar olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelish va unda qolish huquqiga ega. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

Chet ellik xodimlar mehnatiga haq to'lash, ularga ta'tillar berish, ularni pensiya bilan ta'minlash masalalari ularning har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida hal etilishi lozim. Bunday xodimlar ish haqi va qonuniy yo'l bilan olgan o'zga daromadlarini boshqa davlatlarga, qonunda belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin, biron-bir cheklovsiz o'tkazishlari mumkin. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism)

Chet ellik investor, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar chet ellik xodim doimiy yashaydigan mamlakatdagi tegishli fondlarga shu xodim uchun pensiya ta'minoti to'lovlarini o'tkazadi. (O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

### **15-modda. Yurish erkinligi**

Investitsiya faoliyati bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet ellik investorlar, ularning vakillari va chet ellik xodimlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin yurish huquqiga egadirlar.

Basharti, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida erkin yurishga cheklovlar belgilangan bo'lsa, faqat milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zlab muayyan cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

### **16-modda. Chet el investitsiyalarini sug'urta qilish**

Investitsiyalar va chet ellik investorlarning tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Chet ellik investorlar mamlakatning o'z investorlari bilan teng ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy faoliyat ko'rsatayotgan har qanday sug'urta himoyasi huquqidan foydalanadilar. Chet el investitsiyalarini siyosiy va boshqa xavflardan sug'urta qilish xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning eksport kredit agentliklari, boshqa sug'urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Chet el investitsiyalarini sug'urta qilishni amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi. Davlat sug'urta tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Chet el investitsiyalarini sug'urta qilish siyosiy va boshqa xavflardan, shu jumladan:

mulkning ekspropriatsiya qilinishini, shuningdek, mulkning olib qo'yilishi yoki boshqa shaxsga o'tkazilishiga, mulk yoki u orqali olinadigan daromadlar ustidan nazorat qilish imkoniyati yo'qotilishiga olib keluvchi har qanday qonun chiqarishga oid yoki ma'muriy choralarni;

chet el valyutasini mamlakatdan tashqariga o'tkazishga cheklovlar joriy etilishini;

qonun hujjatlariga investorlarning ayrim guruhlariga nisbatan kamsitish tusidagi o'zgartishlar kiritilishini;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining investorlarning shartnomaviy munosabatlariga aralashuvini;

urushlar, fuqarolarning g'alayonlari yoki boshqa shu kabi hodisalarni;

chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari bilan bog'liq o'zga turdagi siyosiy hamda boshqa xavflarni o'z ichiga oluvchi xavflardan sug'urta himoyasi va kafolatlarni ta'minlaydi.

### **17-modda. Majburiyatlarni ta'minlash**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning mol-mulki va mulkiy huquqlaridan korxonalar zimmasidagi barcha turdagi majburiyatlarini ta'minlash, shu jumladan, zayom mablag'larini jalb qilish kafolati sifatida foydalanishi mumkin. Uning savdo va xizmat ko'rsatish



sohasi obyektlariga, shuningdek, joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda uy-joy binolariga bo'lgan mulk huquqi, binolar, inshootlar, uskunalarga bo'lgan mulkiy huquqlari hamda boshqa ashyoviy huquqlaridan majburiyatlarning ta'mini sifatida foydalanilishi mumkin.

Chet ellik investor o'zidagi mulk huquqiga tegishli barcha mol-mulki va mulkiy huquqlaridan, ularning qayerda joylashganligidan qat'i nazar, o'z majburiyatlarining ta'mini sifatida foydalanishi mumkin.

#### **18-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran bir yil ichida o'z ustav fondini ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirmagan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, belgilangan tartibda tugatiladi. Shu bilan birga o'z ustav fondini belgilangan muddatda ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantira olmagan korxonani uni amalda shakllantirib ulgurgan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan o'z bo'lmagan darajada kamaytirishi yoki o'zi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga aylantirilishi mumkin. (O'zR 20.08.1999-y. 832-I-son qonuni tahriridagi qism)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani tugatilganida uning aktivlariga belgilangan tartibda soliq solinadi. Aktivlarning qolgan qismi, bosharti ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani qatnashchilari o'rtasida ularning korxonani mol-mulkiy ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Chet ellik investor chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonadan chiqib ketgan yoki bu korxonani tugatilgan taqdirda, korxonani mol-mulkiy o'z ulushi pul yoki bozor bahosiga muvofiq ravishda tovar shaklida qaytarilishi huquqini oladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani qayta tashkil etilgan yoki tugatilganda mehnat shartnomalari bekor bo'lgan xodimlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi qonun hujjatlariga muvofiq kafolatlanadi.

#### **19-modda. Chet el investitsiyalari bo'yicha davlat majburiyatlari**

Davlat, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari chet el investorlari bilan tuzilgan tegishli shartnomalarda o'z zimmasiga olgan, vakolatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar imzolagan majburiyatlar bo'yichagina javob beradilar.

Davlat chet el investitsiyalarini jalb etayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, bunday majburiyatlar qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan kafolatlangan hollar bundan mustasno.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, banklar tomonidan chet ellik investorlarning va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar belgilash taqiqlanadi. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

#### **20-modda. Chet el investitsiyalarini jalb etishni amalga oshiruvchi organlarning vazifalari**

Chet el investitsiyalarini jalb etish, ro'yobga chiqarish va himoya qilish maqsadida hukumat tomonidan vakolat berilgan organ, davlat boshqaruvining boshqa organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, hukumatga qarashli bo'lmagan manfaatdor tashkilotlar:

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining imkoniyatlari va shart-sharoitlari to'g'risida axborot tayyorlaydilar hamda tarqatadilar;

potensial investorlarga faoliyatning yuridik, iqtisodiy va boshqa jihatlari bo'yicha



maslahatlar beradilar hamda yuzaga keluvchi masalalarni hal etishda zarur yordam ko'rsatadilar;  
chet ellik investorlar faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadilar;  
chet el investitsiyalari masalalari bo'yicha xalqaro munosabatlarda o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radilar;  
chet el investitsiyalarini jalb etish, ro'yobga chiqarish va himoya qilishga qaratilgan boshqa vazifalarni bajaradilar.

### **21-modda. Chet ellik investorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat organlarining vakolatlari**

Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi ustidan nazoratni soliq organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati vakolat bergan boshqa davlat organlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Nazorat qiluvchi organ nazorat vazifalarini amalga oshirishda tijorat siri saqlanishini ta'minlashi shart. Tijorat sirini oshkor qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan ta'qib qilinadi.

### **22-modda. O'zaro zid qoidalar**

Mazkur qonunning qoidalari bilan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o'rtasida biron-bir nomuvofiqlik bo'lgan holda, chet ellik investorlar uchun birmuncha qulay bo'lgan qoidalar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I.KARIMOV**

### **O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni**

(30.04.1998-y. №-611-i sonli, qonun O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonunidagi yangi tahririda)

Mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan:

O'zR 12.12.2003-y. 568-II-son qonuni,  
O'zR 16.09.2005-y. O'RQ-6-son qonuni,  
O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni,  
O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni.

1-modda. Qonunning maqsadi va vazifalari.

2-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlari.

3-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari.

4-modda. Chet ellik investorlarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari.

5-modda. Davlat mulkiga aylantirishdan kafolatlar. Rekvizitsiyalami amalga oshirish shartlari.

6-modda. Mablag'lardan foydalanish kafolatlari.

7-modda. Mablag'larni o'tkazish kafolatlari.

8-modda. Investitsiya faoliyati to'xtatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari.

9-modda. Ochiq axborotdan erkin foydalana olish.

10-modda. Nizolarni hal qilish.

11-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

12-modda. O'zaro zid qoidalar.

13-modda. Qonunning ilgari amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan qo'llanishi.

### **1-modda. Qonunning maqsadi va vazifalari**

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralari belgilaydi.

Ushbu qonunning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish bo'yicha kompleks choralarni shakllantirish;

chet ellik investorlar va chet el investitsiyalarining ayrim toifalari uchun qo'shimcha kafolatlar berish shart-sharoitlarini va ularni himoya qilish choralari belgilash.

### **2-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining**

#### **kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlarini berish va ularni himoya qilish choralari amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar ushbu qonun, chet el investitsiyalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **3-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari**

Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining amalga oshirilishi ta'minlanishini hisobga olgan holda fuqaroligi, yashash joyi, diniy e'tiqodi, iqtisodiy faoliyati qayerda amalga oshirilayotganligiga, shuningdek, investorlar yoki investitsiyalarning qaysi mamlakatga mansubligiga qarab chet ellik investorlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun hujjatlari, shu jumladan idoraviy normativ hujjatlar, agar ularning ijrosi chet ellik investorga yoki chet el investitsiyalariga zarar yetkazsa, ular orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Chet ellik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir. (O'zR 16.09.2005-y. O'RQ-6-son qonuni tahriridagi qism)

Quyidagilarni nazarda tutgan holda qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yangi qonun hujjatlarini qabul qilish investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirish hisoblanadi:

chet ellik investorga to'lanadigan dividendlar tarzida olinadigan daromadlar bo'yicha foyda solig'i miqdorining (stavkasining) ko'paytirilishi; (O'zR 31.12.2008-y. O'RQ-197-son qonuni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang);

chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga o'tkaziladigan daromadini (foydasini) o'z mamlakatiga qaytarish tartib-taomilini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablarning joriy etilishi, bundan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, chet ellik investor – jismoniy shaxs sodir etgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning hal qiluv qaroriga muvofiq mablag'larni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda vakolatli davlat organi tomonidan chet ellik investorning mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash sharoitida o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turish hollari mustasno;

investitsiyalashni amalga oshirish hajmlariga nisbatan miqdoriy cheklashlarning va

investitsiyalar miqdori bo'yicha boshqa qo'shimcha talablarning, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda chet el investitsiyalarining eng kam miqdorini ko'paytirish tarzida joriy etilishi;

chet ellik investorning korxonalar ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulush bilan ishtirok etishi bo'yicha cheklashlarning joriy etilishi;

chet ellik investorlarning – jismoniy shaxslarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasida qo'shimcha tartib-taomillarning, shuningdek, chet el investitsiyalarini amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablarning joriy etilishi (O'zR 16.09.2005-y. O'RQ-6-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism);

Ushbu moddaning to'rtinchi va beshinchi qismlari qoidalarini qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi (O'zR 16.09.2005-y. O'RQ-6-son qonuniga muvofiq kiritilgan qism).

O'zR 16.09.2005-y. O'RQ-6-son qonuniga muvofiq beshinchi-sakkizinchi qismlari yettinchi-o'ninchi qismlar deb hisoblansin.

Chet el investitsiyalari, avvalo xususiy investitsiyalar bo'yicha barcha shartnomalar, ular bajarilishining qat'iy kafolatlarini ta'minlash borasida, O'zbekiston Respublikasi Hukumati vakolat bergan tegishli organlarning nazorati ostida turadi.

Davlat boshqaruvi organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Davlat boshqaruvi organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari o'zlarining qonuniy vakolatlaridan foydalanish paytida chet ellik investor qonun hujjatlarini buzganligini aniqlasalar, ular faqat vakolatlari bo'lgan hamda muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq choralarnigina ko'rishlari mumkin. Davlat boshqaruvi organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan chet ellik investorning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki faoliyatini cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Ushbu modda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga muvofiq belgilanadigan, O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'lgan qonun hujjatlarini qabul qilish, ularga qo'shimchalar kiritish yoki ularni bekor qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### **4-modda. Chet ellik investorlarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari**

Chet ellik investorlarni himoya qilishning umumiy kafolatlari va choralari bilan bir qatorda qonun hujjatlarida qo'shimcha, shu jumladan, sheriklar tomonidan chet ellik investorlar oldidagi o'z majburiyatlarining so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi kafolatlar va ularni himoya qilish choralari nazarda tutilishi mumkin.

Chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari har bir muayyan holda, ya'ni:

barqaror iqtisodiy o'sishni, mamlakat iqtisodiyotida ilg'or tuzilmaviy o'zgarishlar ro'y berishini ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritilayotganda;

yuqori zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga va yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga investitsiyalar kiritilayotganda; (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq kiritilgan xatboshi)

O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuniga muvofiq uchinchi va to'rtinchi xatboshilari to'rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin:

respublikaning eksport imkoniyati mustahkamlanishi va kengayishini, respublika jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvini ta'minlovchi ustuvor loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda;

amalga oshirilishi xomashyo va materiallarni qayta ishlashga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan kichik tadbirkorlik sohasidagi loyihalarga investitsiyalar kiritilayotganda berilishi mumkin. (O'zR 12.12.2003-y.

568-II-son qonuni tahriridagi xatboshi);

chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolat berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimi yaratilishini, loyihalar ro'yobga chiqarilishining davlat monitoringi amalga oshirilishini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ta'minlashni hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism);

chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida berilib, ularda, xususan, chet el investitsiyalarini kiritish, ulardan foydalanish va ularning o'mi qoplanishini ta'minlash shartlari hamda tartibi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Hukumati va chet ellik investor o'rtasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tuziladigan investitsiya shartnomalarini, ularda chet ellik investorning investitsiya majburiyatlarini mustahkamlagan holda, tasdiqlash nazarda tutiladi. (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni tahriridagi qism) (Oldingi tahririga qarang)

### **5-modda. Davlat mulkiga aylantirishdan kafolatlar.**

#### **Rekvizitsiyalarni amalga oshirish shartlari.**

O'zbekiston Respublikasidagi chet el investitsiyalari va chet ellik investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi.

Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi, tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar, epizootiya hollari bundan mustasno.

Rekvizitsiya to'g'risidagi qaror:

ko'rsatilgan hollardan kelib chiquvchi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar yoki boshqa aktivlarning eng kam miqdori cheklanadigan;

kamsitilmaydigan asosda va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan;

yetkazilgan zararga monand ravishda tovon to'lanadigan rekvizitsiya bo'yicha, talablarga rioya etilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Davlat ko'rsatib o'tilgan tovon to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilishiga kafil bo'ladi.

Chet ellik investor sud va hakamlar tartibida quyidagilar bo'yicha, xususan:

rekvizitsiyani amalga oshirish uchun qo'llanayotgan maqsadning qonuniyligi;

rekvizitsiya miqdori;

rekvizitsiya qilinadigan investitsiyalar va boshqa aktivlar bahosi;

to'lanishi kerak bo'lgan tovon to'lovlarning mosligi;

rekvizitsiyani amalga oshirish paytida davlat boshqaruv organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari rioya qilgan tartib yuzasidan bahslashishga haqli.

### **6-modda. Mablag'lardan foydalanish kafolatlari**

Chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasida olgan daromadlari chet ellik investorning xohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, undan tashqarida har qanday valyutada, har qanday bankda hisobvaraqlar ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;

chet el valyutasida ssudalar olish va uni qaytarish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishni cheklash yoxud mablag'larni majburiy olish davlat boshqaruvi organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

### **7-modda. Mablag'larni o'tkazish kafolatlari**



Chet ellik investorlarga chet el valyutasidagi pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasiga va undan tashqariga, ular soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lash sharti bilan biron-bir cheklashsiz erkin o'tkazish kafolatlanadi. Bunday o'tkazishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

chet el investitsiyalarini saqlab turish yoxud ko'paytirish uchun boshlang'ich va qo'shimcha summalarni;

investitsiyalarni amalga oshirishdan tushgan daromadlarni;

yetkazilgan zararni qoplash uchun tovon sifatida ushbu qonunga muvofiq olingan mablag'larni;

shartnomalarni ijro etish tartibida amalga oshirilgan to'lovlarni;

chet el investitsiyalarining hammasini yoki bir qismini sotishdan kelgan tushumni;

nizoni hal qilish, shu jumladan, sud yoki hakamlikning har qanday hal qiluv qarori tufayli vujudga keluvchi to'lovlarni;

xodimlarga to'lanadigan ish haqini va boshqa to'lovlarni;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalardan olingan mablag'larni.

Xalqaro huquq normalariga muvofiq, davlat chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, chet ellik investor jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning hal qiluv qaroriga muvofiq mablag'larni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda chet ellik investorning mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash sharoitida o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishi mumkin.

#### **8-modda. Investitsiya faoliyati to'xtatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari**

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatish huquqiga ega. Chet ellik investor investitsiya faoliyatini to'xtatganidan keyin investitsiya faoliyatini to'xtatish natijasida olingan o'z aktivlarini, chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi yoxud boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda, pul yoxud natura shaklida o'z mamlakatiga erkin qaytarish huquqiga ega.

#### **9-modda. Ochiq axborotdan erkin foydalana olish**

Chet ellik investorlar o'zlarining manfaatlariga biron-bir tarzda daxl qiluvchi qonun hujjatlari, shu jumladan idoraviy normativ hujjatlar, shuningdek, sudning hal qiluv qarorlaridan erkin foydalana olishlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa bunday hujjatlar e'lon qilinishi shart.

Davlat boshqaruvi organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari chet ellik investorlarning so'rovlariga ko'ra ularni qiziqtirgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda berishlari shart.

#### **10-modda. Nizolarni hal qilish**

Chet el investitsiyalari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq nizo (investitsiyaga oid nizo), taraflar kelishuviga ko'ra, ular o'rtasidagi maslahatlashuvlar orqali hal etilishi mumkin. Agar taraflar kelishilgan hal qiluvga erisha olmasalar, bunday nizo O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sudi tomonidan yoxud hakamlik vositasida investitsiyaga oid nizolarni hal etishga doir O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalarning (bitimlar va konvensiyalarning) qoidalari va tartibotiga muvofiq hal etilishi lozim.

Investitsiyaga oid nizoga jalb etilgan taraflar o'zaro kelishuvga ko'ra bunday nizoni ko'rib chiquvchi organi, shuningdek, investitsiyaga oid nizo bo'yicha hakamlik sudlovini amalga oshiruvchi mamlakatni aniqlashlari mumkin.

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyati bilan

bog'liq bo'lmagan nizolari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi, shartnomada nizolarni hal qilishning xalqaro huquq normalariga muvofiq o'zga tartibi nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

**11-modda. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, chet ellik investor yetkazilgan zarar uchun sud tartibida shunga monand tovon olish huquqiga ega.

Davlat boshqaruvi organlari davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik investorlarning huquqlarini kamsituvchi normativ hujjatlar qabul qilingan taqdirda, shuningdek, ular chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashgan hollarda yetkazilgan zarar shu organlar tomonidan sud tartibida qoplanadi.

Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan davlat boshqaruvi organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlarining mansabdor shaxslari belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

**12-modda. O'zaro zid qoidalar**

Mazkur qonunning qoidalari bilan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o'rtasida biron-bir nomuvofiqlik bo'lgan holda, chet ellik investorlar uchun birmuncha qulay bo'lgan qoidalar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

**13-modda. Qonunning ilgari amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan qo'llanishi**

Mazkur qonun kuchga kiringunga qadar O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan chet el investitsiyalariga nisbatan, mazkur qonunning chet ellik investorga ko'proq qulaylik yaratib beradigan qismigina qo'llaniladi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I.KARIMOV**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori**

Toshkent sh., 2008-yil 15-iyul, PQ-916-son

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 29-30-son, 280-modda; 2010-y., 1-2-son, 2-modda; 2011-y., 36-son, 366-modda; 2012-y., 8-9-son, 78-modda)*

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar yaratish, fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta'minlash maqsadida, shuningdek, ilmiy tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o'rnatishda innovatsion g'oyalar va loyihalar Respublika yarmarkasining ahamiyatini hisobga olgan holda:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi har yili o'tkaziladi.

Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasining har yili o'tkazilishini tashkil qilish Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi zimmlariga yuklansin.

2. O'rta muddatli istiqbolda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksi 1-ilovaga\* muvofiq tasdiqlansin.

\* 1-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

3. Tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hamda Innovatsion g'oyalar,

texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasini yuqori darajada o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirib borish uchun 2-ilovaga\* muvofiq tarkibda Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tuzilsin.

Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh (Sh.M.Mirziyoyev), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, xo'jalik birlashmalari mazkur qaror bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleksida nazarda tutilgan tadbirlarning belgilangan muddatlarda so'zsiz bajarilishini ta'minlasin.

\* 2-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

4. Amaliy ilmiy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarishga keng tatbiq etilishini ta'minlash uchun vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kompaniyalar va boshqa xo'jalik birlashmalari quyidagilarni:

xo'jalik yurituvchi subyektlarning amortizatsion ajratmalari va sof foydasi, shuningdek, buyurtmachilarning maqsadli tushumlari shakllantirish manbalaridan iborat bo'lgan modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armalarini;

tarmoq va korxonani innovatsion rivojlantirishga javobgar bo'lgan tarkibiy bo'linmalar, zarur hollarda esa – loyiha-konstruktorlik byurolarini tashkil etishda xo'jalik boshqaruvi organlari hamda korxonalarga ko'maklashsin.

5. Quyidagilar tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni innovatsion rivojlantirish tarkibiy bo'linmalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning xalqaro va mahalliy ishlanmalarini o'rganish, shu asosda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning har yilgi va o'rta muddatli dasturlarini shakllantirish;

mahalliy amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga buyurtmalar jamlamasini shakllantirish, shuningdek, ularni joylashtirish;

amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini korxonalar faoliyatiga amaliyotiga tatbiq etish.

Mazkur tarkibiy tuzilmalar faoliyatiga tatbiq etilgan loyihalar va ishlanmalar soni, shuningdek, ulardan olingan iqtisodiy samaraga qarab baho berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda Xo'jalik boshqaruvi organlari va korxonalarning modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasi to'g'risidagi nizomni belgilangan tartibda ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Belgilansinki, modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasiga yo'naltiriladigan mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni, innovatsion loyihalarni, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini hamda ularni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni moliyalashtirishda foydalaniladi.

8. 2013-yilning 1 yanvarigacha bo'lgan davrda o'quv va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan amaliy ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish qismida daromad solig'i, yagona soliq to'lovi, qo'shilgan qiymat solig'i va davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar (yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari) to'lashdan ozod etilsin.

9. Ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta jihozlash va to'liq jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida olib kelinadigan uskunalar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2009-2012-yillar mobaynida davlat fan-texnikaviy dasturlari doirasida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borayotgan ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining ilmiy, texnologik va laboratoriya uskunalarini modernizatsiya qilishga mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi 2009-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan muddatda ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining ilmiy, texnologik va laboratoriya uskunalari modernizatsiya qilishga xalqaro moliya institutlarining maqsadli grant mablag'larini jalb etish masalalarini ishlab chiqsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I.KARIMOV**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining**

**“Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni sertifikatlash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 20-21-son, 200-modda)*

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”, “Boj tarifi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalariga beriladigan qo'shimcha rag'batlantirish omillari va imtiyozlar to'g'risida” 1996-yil 30-noyabrdagi PF-1652-son farmonini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2005-yil 26-iyuldagi PQ-136-son qarorini, Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 1998-yil 31-martdagi 137-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, xorijiy investorlar va korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni sertifikatlash tartibini takomillashtirish hamda qonun hujjatlari normalarining bir xil qo'llanilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari E.M.G'aniev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.MIRZIYOYEV**  
Toshkent sh., 2011-yil 16-may, 136-son



## **VAZIRLAR MAHKAMASINING 2011-YIL 16-MAYDAGI 136-SONLI QARORIGA ILOVA**

### **Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni aniqlash tartibi to'g'risida NIZOM**

#### **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizom xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni aniqlash tartibini belgilaydi.

2. O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikatning yo'qligi ariza beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan umumiy tartibda amalga oshiriladigan olib kelishni cheklashga asos hisoblanmaydi.

#### **II. Asosiy tushunchalar**

Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ariza beruvchi** – o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan mol-mulkka sertifikat olish uchun murojaat qilgan xorijiy investor yoki xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga;

**xorijiy investor** – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududiga investitsiyalarni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekt;

**xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga** – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga javob beradigan korxonaga;

**o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikat** (keyingi o'rinlarda sertifikat deb ataladi) – mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishning texnologik jarayonida foydalanish uchun olib kelinayotgan mol-mulkning ishlatilishini tasdiqlaydigan hujjat;

**o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulk** (keyingi o'rinlarda mol-mulk deb ataladi) – mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishning bevosita texnologik jarayonida foydalanish uchun ariza beruvchi tomonidan olib kelinadigan moddiy boyliklar va ashyolar jami;

**tovarga ilova qilinadigan hujjat** (invoys va transport yuk xati) – yukni jo'natuvchi yoki yetkazib beruvchi tomonidan yuklangan yoki tashiladigan tovar bilan birgalikda yuboriladigan, tovarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinganligi holatini tasdiqlaydigan hujjatlar;

**ishlab chiqarish** – moddiy va/yoki boshqa boyliklar – mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni yaratish jarayoni;

**texnologik jarayon** – mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun izchil bajariladigan operatsiyalar jami;

**vakolatli organ** – "O'zbekekspertiza" OAJ va uning hududiy bo'linmalari;

**ekspert** – zimmasiga ishlab chiqarish ekspertizasini o'tkazish, ekspertiza dalolatnomasini yoki ekspert xulosasini rasmiylashtirish va sertifikat tayyorlash funksiyalari yuklangan vakolatli organning vakili;

**ishlab chiqarishni ekspertizadan o'tkazish** – ushbu nizomda nazarda tutilgan tartibda ariza beruvchining ishlab chiqarishini ekspert tartibida tekshirish.

#### **III. O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni Aniqlash tartibi**

1. Sertifikat vakolatli organ tomonidan quyidagi talablarga rioya qilingan holda beriladi: mol-mulkdan bevosita ishlab chiqarish jarayonida foydalanish;

ariza beruvchining ishlab chiqarish maydonida (shu jumladan ijaraga olingan maydonda) uning xodimlari tomonidan ishlab chiqarishning asosiy texnologik jarayonlari amalga oshirilishi;

o'zining (shu jumladan ijaraga olingan) asosiy va aylanma mablag'laridan, shu jumladan jalb etilgan moliyaviy resurslardan foydalanish.

2. Agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilar ishlab chiqarishning texnologik jarayoniga tegishli bo'lmaydi:

mol-mulkni maydalash;

mol-mulkni navlarga ajratish;

mol-mulkni qayta o'rash;

qadoqlash yoki o'rash;

mol-mulkni aralashtirish;

yuqorida ko'rsatib o'tilgan operatsiyalarning ikkitasini yoki undan ortig'ini birga qo'shib olib borish.

#### **IV. Sertifikat olish uchun ariza berish**

1. Sertifikat olish uchun ariza beruvchi ishlab chiqarish amalga oshiriladigan joy bo'yicha vakolatli organga ushbu nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha yozma ariza beradi.

2. Arizaga rahbarning yoxud ishlab chiqarish uchun mas'ul shaxsning imzosi va ariza beruvchining muhri bilan tasdiqlangan quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ariza beruvchining ta'sis hujjatlari nusxalari, ular bir yilda bir marta, shuningdek, ularga har bir o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda taqdim etiladi;

ariza beruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, ushbu guvohnoma bir yilda bir marta taqdim etiladi (ariza beruvchi qayta tashkil etilgan taqdirda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi yangi guvohnoma nusxasi taqdim etiladi);

ariza beruvchining rahbari va ishlab chiqarish uchun mas'ul shaxs tomonidan tasdiqlangan (xorijiy investor tomonidan ariza berilganda – ariza beruvchi yoki uning ishonchli shaxsi tomonidan tasdiqlangan) o'zining yoki ijaraga olingan mavjud binolar va asbob-uskunalar (mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarish quvvati ko'rsatilgan holda), shuningdek, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mehnat resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar;

ariza beruvchining rahbari va ishlab chiqarish uchun mas'ul shaxs tomonidan tasdiqlangan (xorijiy investor tomonidan ariza berilganda — ariza beruvchi yoki uning ishonchli shaxsi tomonidan tasdiqlangan) ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga sarf normasi (xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar hamda komponentlar va hokazolar import qilingan taqdirda), shuningdek, 12 oy uchun mol-mulkka bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi;

ariza beruvchining rahbari va ishlab chiqarish uchun mas'ul shaxs tomonidan tasdiqlangan (xorijiy investor tomonidan ariza berilganda – ariza beruvchi yoki uning ishonchli shaxsi tomonidan tasdiqlangan) ishlab chiqarishning texnologik jarayoni tavsifi;

vakolatli organlarda belgilangan tartibda hisobga qo'yilgan import kontrakt nusxasi yoki uning asosida mol-mulk yetkazib beriladigan boshqa hujjat;

mol-mulk O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinganligi to'g'risida davlat bojxona xizmati organlari belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar nusxalari.

Xorijiy investor tomonidan ariza berilganda ushbu bandning ikkinchi va uchinchi xatboshida ko'rsatilgan hujjatlar o'miga xorijiy investor uning asosida faoliyatni amalga oshiradigan hujjat (ta'sis shartnomasi yoki oddiy shirkat to'g'risidagi shartnoma yoxud xorijiy investorming O'zbekiston Respublikasidagi faoliyati shaklidan dalolat beruvchi boshqa hujjat) taqdim etiladi.

Ariza beruvchi tomonidan texnologik asbob-uskunalar va ularga ehtiyot qismlar olib kelingan taqdirda, shuningdek, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun mol-mulk olib kelingan taqdirda ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga sarf normasi o'miga olib kelinadigan mol-mulkning zarurligi asoslangan, shuningdek, olib kelinadigan texnologik asbob-uskunalar va ularga ehtiyot qismlar, shuningdek, ularning vazifasi, o'rnatiladigan joyi yoki almashtirilishi tavsiflangan xat taqdim etiladi.

3. Sertifikat olish uchun taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchligi uchun ariza beruvchi javob beradi.

4. To'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

5. Sertifikat olish uchun berilgan ariza tushgan kunidan boshlab 5 ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi. Ariza beruvchidan qo'shimcha ma'lumotlar olish zarur bo'lganda arizalarni ko'rib chiqish muddati 10 ish kunigacha uzaytiriladi.

6. Ariza beruvchi ariza berilgandan keyin 3 ish kuni mobaynida ekspertning ekspertiza o'tkazish uchun ishlab chiqarish amalga oshiriladigan joyga kirishini ta'minlashga majburdir.

## V. Sertifikat berish

1. Ekspert taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va hujjatlarda yetarli zarur ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, olib kelinadigan mol-mulkdan ishlab chiqarishning texnologik jarayonida foydalanish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash uchun ishlab chiqarish joyining o'zida ariza beruvchining ishlab chiqarishini ekspertizadan o'tkazadi, ushbu nizomning 7-bandiga muvofiq taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqib olib kelinadigan mol-mulkdan foydalanishning taxminiy muddatini aniqlaydi.

2. Ishlab chiqarish ekspertizasining natijalari ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lgan taqdirda ekspert tomonidan ushbu nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha ekspertiza dalolatnomasi tuziladi.

3. Quyidagi hollarda:

ushbu nizomning 7-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan birortasida sertifikat olish uchun zarur ma'lumot yo'q bo'lganda;

taqdim etilgan hujjatlarda buzilgan ma'lumotlar mavjudligi aniqlanganda;

ariza beruvchining ishlab chiqarishini ekspertizadan o'tkazish uchun ekspertning ishlab chiqarish amalga oshiriladigan joyga qo'yilishi ta'minlanmaganda;

ushbu nizomning 4-bandi talablariga rioya qilinmaganda;

ushbu nizomning 5-bandida nazarda tutilgan hollarda sertifikat berishning rad etilishi yuzasidan, ushbu nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha rad etish sabablari ko'rsatilgan holda ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi.

Boshqa asoslar bo'yicha sertifikat berishning rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Hujjatlarni takroriy ko'rib chiqishda vakolatli organ tomonidan ekspert xulosasida ilgari bayon qilinmagan yangi mulohazalar taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunda agar oldingi mulohazalar ishlab chiqarish joyiga chiqmasdan ko'rsatilgan bo'lsa, yangi mulohazalar taqdim etilishiga yo'l qo'yiladi.

Rad etilganda ekspert rad etish sabablarini bartaraf etish uchun ariza beruvchiga 20 kun muddat bergan holda ekspert xulosasini rasmiylashtiradi. Ushbu holatda hujjatlar ariza beruvchi tomonidan ko'rsatilgan muddat mobaynida takroran taqdim etilgan taqdirda ariza ko'rib chiqilganligi uchun to'lov undirilmaydi.

5. Ekspertiza dalolatnomasi asosida vakolatli organ tomonidan ushbu nizomga 4-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha ikki nusxada sertifikat beriladi.

6. Sertifikat invoysga muvofiq tuzilgan kontrakt doirasida respublika hududiga olib kelingan mol-mulk hajmiga (soniga) rasmiylashtiriladi. Sertifikat mol-mulk O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan o'tgan kundan boshlab 12 oydan kechikmay berilishi mumkin.

7. Sertifikat 12 oydan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Sertifikatning amal qilish muddatini ariza beruvchining asoslangan yozma murojaati asosida muddati tamom bo'lguniga qadar uzaytirishga yo'l qo'yiladi. Vakolatli organ ariza beruvchining murojaatini ko'rib chiqib, 5 ish kuni mobaynida ariza beruvchiga sertifikatning amal qilish muddatini, biroq 12 oydan ortiq bo'lmagan muddatini ko'rsatgan holda xat yuboradi.

8. Sertifikat yo'qolgan yoki buzilgan taqdirda ariza beruvchining murojaatiga ko'ra vakolatli organ tomonidan 5 ish kuni mobaynida ikki nusxada sertifikatning dublikati beriladi (sertifikatning tartib raqamidan keyin "dublikat" so'zi yoziladi). Sertifikatning dublikati vakolatli organ tomonidan faqat yo'qolgan yoki buzilgan sertifikatning amal qilish muddatiga rasmiylashtirilishi mumkin.

## **VI. Sertifikatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**

1. Ilgari berilgan sertifikatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun ariza beruvchi vakolatli organga sabablarini ko'rsatgan holda yozma asoslangan murojaatni taqdim etadi.

Kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tekshirish zarur bo'lganda ariza beruvchining ishlab chiqarishi qo'shimcha ravishda ekspertizadan o'tkaziladi.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda vakolatli organ 5 ish kuni mobaynida ushbu nizomga 5-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha ikki nusxada sertifikatga o'zgartirish yoki qo'shimchani rasmiylashtiradi.

## **VII. O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni sertifikatlash bo'yicha xarajatlar va xizmatlarga haq to'lash**

1. Ekspertizani o'tkazish va sertifikatni rasmiylashtirish xarajatlarini ariza beruvchi to'laydi.

2. Sertifikat berishga ariza ko'rib chiqilganligi uchun ariza beruvchi tomonidan vakolatli organga murojaat qilingan sanada O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida to'lov to'lanadi. Dublikat, shu jumladan ilgari berilgan sertifikatga qo'shimcha ekspertiza o'tkazilishi natijasi bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar rasmiylashtirilganligi uchun ko'rsatib o'tilgan summaning 10 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

Ekspert xulosasi rasmiylashtirilgan holda sertifikat berish rad etilgan taqdirda ariza beruvchi tomonidan to'langan to'lov qaytarilmaydi.

## **VIII. Yakunlovchi qoidalar**

1. O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkning sifati uchun ariza beruvchi javob beradi.

2. Ekspertiza to'g'ri o'tkazilganligi va sertifikat berilganligi uchun ekspert va sertifikatni imzolaydigan vakolatli organning mansabdor shaxsi javob beradi.

3. Vakolatli organ ushbu nizomning 6-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha beriladigan sertifikatlar reestrini yuritadi. Reestrlar har yarim yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga yuboriladi.

4. Davlat bojxona xizmatining bojxona organlari o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona to'lovlari to'lamasdan mol-mulk olib kelgan xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar reestrini hamda berilgan imtiyozlarning hisobini yuritadi.

O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelingan mol-mulk erkin muomalaga chiqarilgandan keyin davlat bojxona xizmatining hududiy organlari hisobot davridan keyingi oyni 10-kunigacha har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga (ariza beruvchining tegishlilik bo'yicha) o'z ehtiyojlari uchun olib kelingan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari ma'lumot olingan sanadan boshlab uch kun muddatda ma'lumotlarni ariza beruvchining tegishlilik bo'yicha tuman davlat soliq inspeksiyalariga yuboradi.

Sertifikat olgan ariza beruvchi har olti oyda tuman davlat soliq inspeksiyasiga (tegishlilik bo'yicha) ushbu nizomning 7-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun import qilinadigan mol-mulkdan foydalanish to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etadi.

Ko'rsatib o'tilgan deklaratsiya taqdim etilmagan yoki imtiyozlar qo'llangan holda o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelingan mol-mulkdan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda davlat soliq xizmati organi aniqlangan holatlar to'g'risida hujjatlar tuzadi va uch ish kuni mobaynida ushbu hujjatlarni davlat soliq xizmatining tegishli hududiy organlariga yuboradi. O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelingan va boshqa maqsadlarda foydalanilgan (qayta sotish, barter bo'yicha ayirboshlash va hokazo) mol-mulkka bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda penya hisoblangan holda davlat budjetiga undiriladi.

5. Vakolatli organ 15-yanvargacha bir yilda bir marta yoki imzolar o'zgargan taqdirda 10 kun muddatda Davlat bojxona qo'mitasiga sertifikatni imzolash vakolati berilgan mansabdor



shaxslar imzolari namunalarini va sertifikatni tasdiqlashda foydalaniladigan muhrlar izlari namunalarini taqdim etadi.

6. Vakolatli organning ekspert xulosasi yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB CHIQRISH EHTYOJLARI UCHUN OLIB  
KELINAYOTGAN MOL-MULKNI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA  
1-ilova**

\_\_\_\_\_ (vakolatli organ rabbanga)

**Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab  
chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikat olish uchun  
ARIZA**

(ariza beruvchining nomi)

Pochta manzili, KTUT, STIR, XXTUT kodi \_\_\_\_\_

Ishlab chiqarish joylashgan joy \_\_\_\_\_

telefoni \_\_\_\_\_ telefaksi \_\_\_\_\_

Hisob raqamlari, bank bo'limlarining nomi \_\_\_\_\_

MFO \_\_\_\_\_

O'z ishlab chiqarish ehtiyojlarimiz uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikat berishingizni  
so'rayman

Mol-mulkning nomi \_\_\_\_\_

Hajmi/soni \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ kontrakt \_\_\_\_\_ inyoys bo'yicha tushgan \_\_\_\_\_

Amal qilish muddatiga \_\_\_\_\_

Vakolatli organ bilan shartnoma № \_\_\_\_\_ sanasi \_\_\_\_\_

**Rabbar**

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

**Bosh buxgalter**

(M.O'.)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

Ilova: (arizaga ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati, ekspertiza uchun to'lov to'g'risidagi hujjatning nusxasi).

Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom talablari bilan tanishildi.

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB CHIQRISH EHTIYOJLARI UCHUN OLIB  
KELINAYOTGAN MOL-MULKNI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA**

**2-ilova**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
"O'ZBEKEKSPERTIZA" OCHIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI  
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
ОТКРЫТОЕ АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО «УЗБЕКЭКСПЕРТИЗА»**

---

**EKSPERTIZA DALOLATNOMASI**

20 \_\_\_\_-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_, \_\_\_\_-son

- I. Ekspertiza so'rovchi: \_\_\_\_\_
- II. Ekspert: \_\_\_\_\_
- III. Ekspertizaning asosi: \_\_\_\_\_  
1. Topshiriqnoma № \_\_\_\_\_  
2. Buyurtmanoma № \_\_\_\_\_
- IV. Ekspertizaning vazifasi: \_\_\_\_\_
- 
- V. Ekspertiza (tekshirish) natijalari \_\_\_\_\_  
Ekspertiza so'rovchining vakili \_\_\_\_\_  
Ekspert \_\_\_\_\_

M. O'.

Muhsiz haqiqiy emas.

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O‘Z ISHLAB  
CHIQRISH EHTIYOJLARI UCHUN OLIB KELINAYOTGAN MOL-MULKNI  
ANIQLASH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMGA**

3-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
”O‘ZBEKEKSPERTIZA” OCHIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI  
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
ОТКРЫТОЕ АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО «УЗБЕКЭКСПЕРТИЗА»**

---

**EKSPERT XULOSASI**

20\_\_-yil “\_\_” \_\_\_\_\_, \_\_-son

- I. Ekspertiza so‘rovchi: \_\_\_\_\_
- II. Ekspert: \_\_\_\_\_
- III. Ekspertizaning asosi: \_\_\_\_\_  
1. Topshiriqnoma № \_\_\_\_\_  
2. Buyurtmanoma № \_\_\_\_\_
- IV. Ekspertizaning vazifasi: \_\_\_\_\_

- 
- V. Ekspertiza (tekshirish) natijalari \_\_\_\_\_  
Ekspert \_\_\_\_\_  
Organning vakolatli shaxsi \_\_\_\_\_

M. O‘.  
Muhrsiz haqiqiy emas.



**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB  
CHIQRISH EHTIYOJLARI UCHUN OLIB KELINAYOTGAN MOL-MULKNI  
ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA**

**4-ilova**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
"O'ZBEKEKSPERTIZA"  
OCHIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI  
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
ОТКРЫТОЕ АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО  
«УЗБЕКЭКСПЕРТИЗА»**

**O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka son-\_\_\_\_\_**

**SERTIFIKAT**

1. Ekspert \_\_\_\_\_
2. Ariza beruvchi \_\_\_\_\_
3. Korxonaning ro'yxatdan o'tkazilgan raqami \_\_\_\_\_
4. Ishlab chiqarish joylashgan joy \_\_\_\_\_

5. Sertifikatlanayotgan mahsulotning nomi \_\_\_\_\_
6. Sertifikatlanayotgan mahsulotning hajmi/soni \_\_\_\_\_

7. Kontrakt \_\_\_\_\_

Ushbu sertifikat bilan quyidagi mol-mulkning o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotganligi tasdiqlanadi:

Sertifikat haqiqiydir \_\_\_\_\_

Sertifikat bergan organning vakolatli shaxsi

M. O'.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

Sertifikat berilgan sana

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB CHIQRISH EHTYOJLARI UCHUN OLIB  
KELINAYOTGAN MOL-MULKNI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA  
5-ilova**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
"O'ZBEKEKSPERTIZA" OCHIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI  
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
ОТКРЫТОЕ АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО  
«УЗБЕКЭКСПЕРТИЗА»**

---

**O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka  
\_\_\_\_-son SERTIFIKATGA \_\_\_\_-son O'ZGARTIRISH (QO'SHIMCHA)**

Sertifikatga o'zgartirish (qo'shimcha)lar haqiqiydir \_\_\_\_\_

**Sertifikat bergan organning vakolatli shaxsi**

M. O'. \_\_\_\_\_  
(mzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

**O'zgartirish (qo'shimcha)lar berilgan sana**

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB CHIQRISH EHTIYOJLARI UCHUN OLIB  
KELINAYOTGAN MOL-MULKNI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA  
6-ilova**

**Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab  
chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka berilgan sertifikatlar  
REESTRI**

<b>T/r</b>	<b>Sertifikatning tartib raqami, sanasi va amal qilish muddati</b>	<b>Ariza beruvchining nomi</b>	<b>Pochta manzili</b>	<b>OKPO kodi</b>	<b>Import qilinayotgan mol- mulkning nomi</b>	<b>Mol-mulkni yetkazib berishga asos bo'lgan kontrakt yoki boshqa hujjatning tartib raqami, sanasi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Soni</b>
------------	--	--	---------------------------	----------------------	---	--	----------------------------	-------------

**XORIJIY INVESTORLAR VA XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI  
KORXONALAR TOMONIDAN O'Z ISHLAB CHIQRISH EHTYOJLARI UCHUN OLIB  
KELINAYOTGAN MOL-MULKNI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA  
7-ilova**

\_\_\_\_\_  
(soliq inspeksiyasi rahbari)

**Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab  
chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkdan foydalanish to'g'risida  
20 \_\_\_\_-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_dagi**

**DEKLARATSIYA**

1. Ariza beruvchining nomi \_\_\_\_\_

2. Korxonasi \_\_\_\_\_

3. Olingan sertifikatning tartib raqami va sanasi \_\_\_\_\_

4. Sertifikatlanayotgan mahsulotning nomi \_\_\_\_\_

5. Sertifikatlanayotgan mahsulotning soni \_\_\_\_\_

Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkdan aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni bajarish yuzasidan 20 yil " \_\_\_\_ "dagi \_\_\_\_-son kontrakt bo'yicha olingan sertifikat asosida yuk hujjatlariga muvofiq \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(transport yuk hujjatlari, invoyslar)

tushdi.

20 y. " \_\_\_\_ "dagi holatiga ko'ra \_\_\_\_\_ foydalanildi.

Sertifikatlangan mahsulotning qoldig'i \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

	M.O'.
<b>Bosh buxgalter</b>	
_____ (imzo)	_____ (F.I.O.)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING "TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETILISHINI RAG'BATLANTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA"GI FARMONI**

*(//Xalq so'zi, 11.04.2012-y., 70 (5490)-son.)*

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko'proq korxonalar tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq, asosan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, respublika qonunchiligi tomonidan 1-ilovaga\* muvofiq xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun keng ko'lamdagi kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi yaratilgan.

2. Belgilab qo'yilsinki, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar.

3. Shunday tartib o'ratilsinki, unga muvofiq qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

4. Belgilansinki, to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

**300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;**

**3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;**

**10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.**

2. Ushbu farmonning 1-bandida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo'llanilishi belgilab qo'yilsin:

mazkur korxonalarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

*(2-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 167-modda)*

**xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;**

**korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni tashkil etishi lozim;**

*(2-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 167-modda)*

*(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli farmoniga asosan chiqarilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 167-modda)*

**xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;**

**mazkur imtiyozlarning qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.**

*(2-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 167-modda)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012-yilning II choragidan boshlab:

2-ilovaga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan;

Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalariga tatbiq etilsin.

5. Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar o'rnatilishi qat'iy qat'iy taqiqlansin va bu hol qonunga xilof deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy investorlarning, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquq va kafolatlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari so'zsiz rioya etishlari ustidan qattiq nazorat o'rnatilsin hamda qonunchilik buzilishining oldini olish va aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rsin.

6. Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender (tanlov) savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasiga (R.S.Azimov) xorijiy investorlarning buyurtmanomalari bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansida bo'lgan past likvidli obyektlarni aniq investitsiya majburiyati ostida investor bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan tanlov o'tkazmasdan "nol" xarid qiymati bo'yicha sotish huquqi berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining buyurtmanomalari bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashayotgan xorijiy kompaniyalarning mansabdor shaxslari va mutaxassislariga 12 oy muddat bilan kirish vizalari hamda ko'p martalik vizalar rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bankni jalb etgan holda xorijiy investorlarga o'zlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun Davlat budjeti va uning ijrosi, pul-kredit siyosati, tashqi savdo hamda boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlardan tizimli asosda belgilangan tartibda keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar,

investitsiyalar va savdo vazirligi bilan birgalikda xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun berilgan kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklarga doir qonun hujjatlarining amalda ro'yobga chiqarilishi yuzasidan tizimli monitoring o'matsin hamda berilayotgan imtiyozlar va afzalliklarga vazirliklar, idoralar va boshqa ijrochilar tomonidan rioya etilmasligi holatlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga har chorakda axborot kiritib borsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son farmoniga 2-ilovaga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.KARIMOV**

Toshkent sh., 2012-yil 10-aprel, PF-4434-son

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING ISTIQBOLLI  
INVESTITSIYA TAKLIFLARINI KELISHISH MEXANIZMINI HAMDA XORIJIY  
INVESTITSIYALAR VA KREDITLARNI JALB ETISH  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI  
QARORI**

2014-yil 4-avgust, 215-son

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 32-son, 403-modda; 2015-y., 26-son, 338-modda)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son farmonini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, loyiha tashabbuskorlari bo‘lgan vazirliklar va idoralarga, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga potensial xorijiy investorlar va kreditorlarni qidirib topishda ko‘maklashish yo‘li bilan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonining samaradorligini va tezkorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

**1. Belgilab qo‘yilsinki:**

2014-yil 1-oktabrdan boshlab tashabbuskorlar tomonidan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va loyihalar pasportlarini davlat boshqaruvi vakolatli organlarida kelishish elektron shaklda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining “Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi” tizimi orqali amalga oshiriladi;

loyiha tashabbuskorlari bo‘lgan vazirliklar va idoralar, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya takliflari va loyihalar pasportlarini sifatli to‘ldirish, ularning to‘liqligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarori talablariga muvofiqligi uchun shaxsan javob beradilar.

2. Loyiha tashabbuskorlarining hamda davlat boshqaruvi vakolatli organlarining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va istiqbolli loyihalar pasportlarini Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimi orqali kelishish jarayoni doirasidagi o‘zaro hamkorligi sxemasi ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda Investitsiya takliflarini va istiqbolli loyihalar pasportlarini kiritish va ularni “Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi” tizimida kelishish tartibi to‘g‘risidagi nizomni ikki oy muddatda ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

4. Loyiha tashabbuskorlari bo‘lgan vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar:

har yili Davlat investitsiya dasturi va hududiy investitsiya dasturlari tegishli ravishda tasdiqlangandan keyin 30 kun mobaynida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish talab qilinadigan investitsiya takliflari va loyihalar pasportlari ishlab chiqilishini va Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimiga kiritilishini;

muntazam ravishda investitsiya takliflari va loyihalar pasportlari parametrlari yangilanishini, keyinchalik ularning Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimida davlat boshqaruvi vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda kelishilishini ta’minlasinlar.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Axborot



texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda tizimli asosda:

*(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 27-iyundagi 171-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2015-y., 26-son, 338-modda)*

loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar ishtirokida Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimidan foydalanishning ustunliklari to'g'risida tushuntirish ishlarining olib borilishini;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarori talablarini so'zsiz bajarish uchun Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimini, uni O'zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari yagona portali bilan integratsiyalashtirgan holda elektron tarzda to'ldirish mexanizmining amalda qo'llanilishi, zarur darajada faoliyat ko'rsatishi va takomillashtirilishi yuzasidan monitoring olib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri**

**SH. Mirziyoyev**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA IQLIMI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI  
YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR  
TO'G'RISIDA" GI FARMONI**  
(2014-yil 7-aprel, PF-4609-son)

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 15-son, 163-modda, 50-son,  
589-modda)*

Qayd etib o'tilsinki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, jahon amaliyotida umumqabul qilingan biznesni yuritish sharoitlarini baholash mezonlari tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimizning xalqaro reytingini yanada oshirishni ta'minlash bo'yicha keng chora-tadbirlar kompleksi qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, kredit olish, xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish, biznesni tugatish jarayonlari sezilarli darajada soddalashtirildi va arzonlashtirildi. Mulkni ro'yxatdan o'tkazish, yer uchastkalarini ajratish, qurilishga ruxsatnomalar berish, elektr tarmoqlariga ulanishda "bir darcha" tamoyillarini ommaviy joriy etish bo'yicha ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitining hozirgi holati va biznesni yuritish sharoitlari hali-hamon erkin bozor iqtisodiyoti talablari va tamoyillariga, umumqabul qilingan xalqaro normalarga to'liq hajmda javob bermayapti. Avvalgidek tadbirkorlik faoliyatini haddan ortiqcha tartibga solish holatlari mavjud, davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning kontaktsiz shakllarini samarali joriy etish imkoniyatlari to'liq hajmda ishlatilmayapti. Biznesni yuritish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar joylarda yetarli darajada amaliyotga joriy etilmayapti.

Ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, maksimal darajada qulay investitsiya iqlimini yaratish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oydinligini oshirish, shu asosda tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini tubdan yaxshilash, yangi ish joylarini barpo etish va iqtisodiyotning xususiy sektorida aholi bandligini oshirish maqsadida:

1. 2014-2015-yillarda investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish, samaradorligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda — chora-tadbirlar dasturi) 1-ilovaga\* muvofiq tasdiqlansin.

\* 1-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'matsih, shu jumladan ularni amalda joriy etishning natijadorligi to'g'risida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida muntazam so'rovlar o'tkazish yo'li orqali nazoratni ta'minlasin;

ikki hafta muddatda litsenziya va ruxsatnoma xarakteriga ega hujjatlarni olish tartibotlaridan o'tish tartibini tubdan qisqartirish, soddalashtirish va arzonlashtirish bo'yicha aniq takliflarni kiritsin.

3. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bir oy muddatda o'zlarining rasmiy veb-saytlarida tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlar masalalarini tartibga soluvchi axborotlarni joylashtirsinlar va keyinchalik ularni doimiy ravishda yangilab borsinlar, bunda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilsin:

ular tomonidan qabul qilingan idoraviy me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarni majburiy ravishda joylashtirib borish (tarqatilishi chegaralangan hujjatlar va tijorat siri bayon etilgan hujjatlar bundan mustasno);

tadbirkorlik subyektlariga ruxsatnoma xarakteriga ega hujjatlarni, litsenziyalar, sertifikatlar va boshqalarni rasmiylashtirish va berishning tartibi va muddatlari;

tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatishning muddatlari va narxi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalari,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari rahbarlari zimmasiga belgilangan talablarga muvofiq, ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan axborotning to‘liqligi va haqqoniyliги yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi, Adliya vazirligi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar va mahalliy hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytlarini yuritishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalari bo‘yicha qo‘yiladigan talablarga rioya etilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatilsin.

#### 4. Belgilab qo‘yilsinki:

2014-yilning 1-iyunidan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me‘yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralari qo‘llash taqiqlanadi;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuridik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga kiritiladi.

5. Soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘laydigan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur‘atlarini va rentabelligini ta‘minlovchi kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliq tekshiruvidan o‘tkazishga qo‘llanilgan moratoriy 2017-yilning 1-yanvarigacha bo‘lgan muddatgacha uzaytirilsin (yuridik shaxslarni tugatishdagi, qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar doirasidagi, shuningdek, budget va markazlashtirilgan mablag‘lar va resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq rejadan tashqari tekshiruvlar bundan mustasno).

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, xo‘jalik boshqaruvi organlarining 2014-yilning 1-iyulidan boshlab sanoatning ko‘p mehnat talab qiladigan ayrim tarmoqlari bo‘yicha kichik korxonalar ishchilarining cheklangan o‘rtacha yillik sonini oshirish to‘g‘risidagi taklifi 2-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qo‘shimcha takliflarni kiritgan holda iqtisodiyotning ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda qo‘shimcha ish o‘rinlarini tashkil etish yuzasidan tizimli monitoring o‘rnatilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga ularning hisobvaraqlaridan soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda banklar xizmatlari uchun to‘lovlar undirish amaliyotini bekor qilsinlar.

#### 8. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq, moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaslik va ularni ko‘rsatilgan manzilda yo‘qligi holatlarida ularning tijorat banklaridagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish davlat soliq xizmati organlari tomonidan faqat sudning tegishli qarori asosida amalga oshiriladi;

yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (chakana savdo tashkilotlaridan tashqari) davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab, 6 oy davomida, agar mazkur muddatda ular o‘z ehtiyojlari uchun obyektlar qurgan taqdirda, qurib bitkazilgan obyektни qabul qilish hujjati tasdiqlangan sanadan boshlab 6 oy o‘tgungacha, biroq ularning davlat ro‘yxatidan o‘tganidan so‘ng bir yildan ko‘p bo‘lmagan davrda yagona soliq to‘lovi va yagona ijtimoiy to‘lovlarni ushbu to‘lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda to‘laydilar;

*(8-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil*

*9-dekabrda PF-4677-sonli farmoni tahririda – O‘R QHT, 2014-y., 50-son, 589-modda)*

2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, kichik tadbirkorlik subyektlari statistika hisobotlarini yilda bir marotaba taqdim etadilar, bunda statistika organlari har chorakda faoliyatning tegishli yo‘nalishlari va sohalari bo‘yicha tanlanma asosdagi o‘rganishlarni o‘tkazib boradilar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartishlar kiritilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy bank boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.KARIMOV**  
2014-yil 7-aprel, PF-4609-son



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2014-YIL 7-APRELDAGI  
PF-4609-SONLI FARMONIGA**

**2-ilova**

**2014-yilning 1-iyulidan boshlab kichik korxonalarda xodimlarning cheklangan soni yiliga  
o'rta hisobda amaldagidan ikki baravarga oshiriladigan tarmoqlar  
RO'YXATI**

<b>T.r.</b>	<b>Tarmoqlar nomi</b>	<b>Kichik korxonlardagi xodimlarning o'rtacha yillik cheklangan soni (nafar)</b>
1.	Qurilish materiallari sanoati	200
2.	Yengil sanoat	200
3.	Oziq-ovqat sanoati	200

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2014-YIL 7-APRELDAGI  
PF-4609-SONLI FARMONIGA**

**3-ilova**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim  
farmon va qarorlariga kiritiladigan o‘zgartishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini tashkil etishni va ularning faoliyatini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 1996-yil 31-maydagi PF-1467-sonli farmonida:

- a) 2-bandidagi “ilovaga muvofiq” so‘zlari chiqarib tashlansin;
- b) ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-sonli farmonining 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Belgilab qo‘yilsinki, 2014-yilning 1-iyulidan quyidagilar kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga kiritiladi:

yakka tadbirkorlar;

ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda yigirma nafardan, xizmat ko‘rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sohasida – o‘n nafardan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – besh nafardan oshmaydigan ishchi xodimlarga ega bo‘lgan mikrofirmalar;

quyidagi sohalarda yiliga o‘rta hisobda ish bilan band bo‘lgan:

yengil, oziq-ovqat hamda qurilish materiallari sanoatida – ikki yuz nafardan;

metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik hamda mebel sanoatida – yuz nafardan;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish va boshqa ishlab chiqarish – sanoat sohasida – ellik nafardan;

ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohasida – yigirma besh nafardan oshmaydigan xodimga ega bo‘lgan kichik korxonalar”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-dekabrda PQ-1236-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini tuzish jarayonida davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bandi quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish ishlab chiqarish quvvatlari doirasida Maxsus Idoralararo komissiya va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilmagan holda loyihalar tashabbuskorlari tomonidan amalga oshiriladi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-sonli farmoni 1-bandining uchinchi xatboshidagi “2014-yilning 1-aprelegacha” so‘zlari “2017-yilning 1-yanvarigacha” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “1999-yilda xorijiy investorlar ishtirokida kapital qurilishni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” 1998-yil 31-dekabrda 548-sonli qarorida:

- a) 1-bandidagi (1-ilova) so‘zlari chiqarib tashlansin;
- b) 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-maydagi 195-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., №5, 25-modda) bilan tasdiqlangan Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xo‘jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasi hisobidan kredit berish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 23-bandidagi “tijorat banklarining bo‘linmalari va o‘z tarkibida bo‘linmalari bo‘lmagan tijorat banklari uchun,

shuningdek, xususiy banklar uchun – 10 ish kuni, banklarning viloyat bo‘linmalari uchun – 15 ish kuni va bosh (respublika) banklari uchun – 20 ish kuni” so‘zlari “uch ish kuni” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-avgustdagi 178-sonli qarori bilan tasdiqlangan meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar sotib olish uchun fermer xo‘jaliklariga va kichik biznesning boshqa subyektlariga imtiyozli kreditlar berish va lizing xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 14-bandidagi “10 ish kuni” so‘zlari “uch ish kuni” so‘zlari bilan almashtirilsin.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI BUYUMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISHNI CHUQURLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA”GI QARORI**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 49-son, 522-modda; 2010-y., 17-son, 130-modda; 2011-y., 7-8-son, 56-modda; 2012-y., 8-9-son, 78-modda)*

Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda bozor prinsiplari va mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish, birja va yarmarka savdolarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishdagi rolini oshirish, shuningdek, mahalliy xomashyo hamda sanoat kooperatsiyasi negizida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida:

1. Shunday tartib belgilansinki, unga muvofiq tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini shakllantirish va amalga oshirishda:

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi import qilinayotgan mahsulotlar hajmlari va turlarini, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan kontraktlar va shartnomalarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, tashqi bozorlar konyunkturasini tizimli o‘rganish asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yo‘nalishlari hamda aniq ro‘yxatlari bo‘yicha ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi hamda ularni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining takliflari asosida respublika tarmoqlari va mintaqalari bo‘yicha mamlakatimiz korxonalarida mahalliyashtirilayotgan mahsulotlar (xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish yuzasidan buyurtmalarni joylashtirishni amalga oshiradi, Mahalliyashtirish dasturini shakllantiradi, ularning amalga oshirilishi yuzasidan tizimli monitoringni ta‘minlaydi;

Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish ishlarini umumiy muvofiqlashtirishni Hukumat qarori bilan tashkil etiladigan Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha maxsus idoralararo komissiya bajaradi.

2. Quyidagilar:

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini tuzish jarayonida davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi markaziy apparatining boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 141 nafardan iborat bo‘lgan yangilangan tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha maxsus idoralararo komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazma kompaniyasi ochiq aksiyadorlik jamiyati huzuridagi Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasining Ijro etuvchi organi O‘zbekiston

Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi Direksiyasiga aylantirilsin.

Ilgari ijro etuvchi organga Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha yuklangan funksiyalar bilan birga quyidagilar Direksiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

har yili O'zbekistonda o'tkaziladigan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasini ularning ishida qatnashadigan mamlakatimiz korxonalarini hamda ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni, shu jumladan mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarni, jumladan xorijiy foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan axborot resurslari orqali keng reklama qilishni tashkil etish;

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasiga potensial xorijiy subyektlarni jalb etishni kengaytirish ishlarini tizimli asosda olib borish;

birja va yarmarkalarda xorijiy sheriklar bilan eksport-import bitishuvlarini kengaytirish, mahsulotlar eksporti bo'yicha ikki tomonlama hukumatlararo bitimlardan asta-sekin chekinish yo'li bilan mamlakatimiz tovarlari va xizmatlarini eksport qilishning bozor prinsiplari va mexanizmlarini kuchaytirish tadbirlarini amalga oshirish, birja va yarmarka savdolari maydonlarida tuziladigan eksport kontraktlarini rasmiylashtirishda ko'maklashish;

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan kontraktlar va shartnomalarni tahlil qilish hamda tegishli loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish, ularni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning, shu jumladan mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarning yagona axborot bazasini shakllantirish va doimiy ravishda yangilab borish, O'zbekiston sanoat korxonalarini mahsulotlarining har yili yangilab boriladigan katalogini elektron va qog'ozli formatda nashr etish.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi Direksiyasining xodimlarning cheklangan soni (xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) 15 nafardan iborat bo'lgan tashkiliy tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi Direksiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni o'n kun muddatda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritin;

2010-yil 1-sentabrgacha bo'lgan muddatda "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazma kompaniyasi ochiq aksiyadorlik jamiyatining ikkita pavilonini rekonstruksiya qilsin, umumiy ko'rgazma maydonini 14,5 ming kvadrat metrgacha yetkazsin.

5. Belgilab qo'yilsinki, beg'araz texnik ko'makni (grantlarni) jalb etishga doir har bir loyiha bo'yicha mukofotlarning aniq miqdorlari va mukofotlanadigan mansabdor shaxslarning ro'yxati tegishli tuzilmalar taqdimiga ko'ra Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan birgalikda aniqlashtiriladi va tasdiqlanadi.

6. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish agentligi – "O'zinfoinvest"ni tashkil etish to'g'risida" 2007-yil 6-fevraldagi PQ-578-son qarori 4-bandining uchinchi xatboshi va qarorga 2-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 11-apreldagi 67-son qarori 3-bandining birinchi xatboshi va qarorga 1-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasiga grantli beg'araz texnik ko'makni jalb etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 20-oktabrdagi 275-son qarori 2-bandining to'rtinchi xatboshi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturi to'g'risida" 2009-yil 27-yanvardagi PQ-1048-son qarorining 2-bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.



7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda Vazirlar Mahkamasiga qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiquvchi o'zgartirishlar va qo'shimchalar yuzasidan takliflar kiritsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari E.M.G'aniev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.KARIMOV**

Toshkent sh., 2009-yil 1-dekabr, PQ-1236-son

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING 2009-YIL 1-DEKABRDAGI PQ-1236-SONLI QARORIGA**

**1-ILOVA**

**SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI BUYUMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINI TUZISH JARAYONIDA DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI VA LOYIHALAR TASHABBUSKORLARINING O'ZARO HAMKORLIK QILISH TARTIBI TO'G'RISIDA NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizom Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini (keyingi o'rinlarda Mahalliyashtirish dasturi deb yuritiladi) tuzish, tasdiqlash va amalga oshirilishini nazorat qilish tartibini, shuningdek, ushbu jarayonda uning asosiy qatnashchilari – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, boshqa vazirliklar va idoralar, Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari, xo'jalik birlashmalari va Mahalliyashtirish loyihalari tashabbuskorlari bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmini belgilaydi.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-apreldagi PF-4215-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2010- y., 17-son, 130-modda)*

2. Mahalliyashtirish dasturini tuzish unga:

xo'jalik yurituvchi subyektlar tashabbus ko'rsatgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini;

import qilinadigan mahsulotlarning hajmi, tarkibi va turlarini chuqur tahlil qilish, tashqi bozorlar konyunkturasini, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan kontraktlar va shartnomalarni tizimli o'rganish asosida ishlab chiqilgan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining takliflari asosida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan joylashtiriladigan tayyor mahsulotlar, xizmatlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini;

monopoliyalashtirish darajasini va raqobat muhiti rivojlanishini, tovarlar (xizmatlar)ning o'zaro bir-birining o'rmini bosishi va narx omilini hisobga olgan holda tovarlar (xizmatlar) bilan ichki bozorning to'ldirilganligini baholashdan kelib chiqib Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining takliflari asosida tuziladigan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini o'zlashtirish loyihalarini kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda vakolatli organlar deb yuritiladi) xulosalari asosida amalga oshiriladi.

*(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-apreldagi PF-4215-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2010- y., 17-son, 130-modda)*

4. Mahalliyashtirish dasturini tuzish va amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish uchun Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha maxsus idoralararo komissiya (keyingi o'rinlarda maxsus komissiya deb yuritiladi) tashkil etiladi. Maxsus komissiyaning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Maxsus komissiyaning ishchi organi hisoblanadi. Uning xodimlaridan kotib boshchilik qiladigan Maxsus komissiya Kotibiyati tuziladi.

5. Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini tasdiqlash belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

6. Mahalliyashtirish dasturiga yangi loyihalarni kiritish, shuningdek, tasdiqlangan

**Mahalliyashtirish dasturiga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qaror:**

Mahalliyashtirish dasturi loyihalari parametrlariga tuzatishlar kiritish yuzasidan – Maxsus komissiya tomonidan, Mahalliyashtirishning belgilangan darajasini pasaytirish bundan mustasno;

Maxsus komissiyaning takliflari bo'yicha Mahalliyashtirish loyihalari parametrlari va ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan – Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

## **II. Mahalliyashtirish dasturini tuzish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining asosiy funksiyalari va vakolatlari**

1. Mahalliyashtirish dasturini tuzish jarayonida samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash va uni amalga oshirishning sifatli monitoringini tashkil etish maqsadida:

a) loyihalarning tashabbuskorlari – vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari va korxonalar:

tashabbus ko'rsatilayotgan mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlaydilar hamda mahalliyashtirish loyihalarini Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun hujjatlarni belgilangan tartibda Maxsus komissiya Kotibiyatiga taqdim etadilar;

Xalqaro sanoat yarmarkasida va Kooperatsiya birjasida sanoat kooperatsiyasi doirasida yarmarka va birjada tuziladigan shartnomalar (kontraktlar) asosida ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilayotgan yangidan o'zlashtirilgan va o'zlashtirish nazarda tutilayotgan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar yangi turlarining taqdimotini o'tkazadilar;

ishlab chiqariladigan mahsulotning mamlakatimizdagi potensial xaridorlarini va xorijiy xaridorlarni hamkorlikka jalb qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda talab qilingan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etishga buyurtmachilarni faollik bilan izlaydilar, hamkorlikni rivojlantirish shartlarini muhokama qiladilar va shartnoma bilan rasmiylashtirish bo'yicha ular bilan muzokaralar tashkil etadilar va olib boradilar;

Mahalliyashtirish dasturlarini samarali va o'z vaqtida amalga oshiradilar va belgilangan parametrlarga erishadilar;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

import kontraktlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqadi va yuritadi hamda shu asosda respublika tarmoqlari va korxonalari bo'yicha import qilinadigan mahsulotlar (xizmatlar) tarkibi va turlarini chuqur tahlil qiladi;

import qilinadigan mahsulotlar tarkibi va turlarini chuqur tahlil qilish, tashqi bozorlar konyunkturasini tizimli o'rganish asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yo'nalishlari va aniq ro'yxatlari bo'yicha ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga doir takliflarni, shu jumladan eksportga yetkazib berishni kengaytirish uchun ishlab chiqadi, keyinchalik ushbu takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, o'z ishlab chiqarish imkoniyatlarini tovarlarni import qiluvchilarga hamda potensial xaridor va buyurtmachilarga namoyish qilish, shuningdek, tegishli kontraktlar tuzilishiga ko'maklashish uchun mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratish uchun samarali maydon sifatida Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi ishini tashkil etadi;

**Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan mahalliyashtiriladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar, mamlakatimiz xaridorlari va xorijiy xaridorlar, buyurtmachilar o'rtasidagi niyatlar to'g'risidagi kontraktlar va shartnomalarni tahlil qilish asosida tegishli loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yuzasidan takliflar tuzadi hamda ularni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi;**

xorijiy kompaniyalar va tashkilotlarning takliflari va salohiyatini o'rganish asosida importning o'rini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning eng ko'p talab qilinadigan turlarini o'zlashtirish bo'yicha xorijiy sheriklarni sanoat kooperatsiyasiga jalb etishga doir takliflarni ishlab chiqadi va Maxsus komissiya Kotibiyatiga kiritadi;

belgilangan holatlarda mahalliyashtirish loyihalarini baholash natijalari bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosalar beradi;

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan kontraktlar va niyatlar

shartnomalari ijrosi monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida yuzaga keladigan masalalarni tahlil qiladi va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

v) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi:

importning o'rmini bosadigan mahalliyashtiriladigan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining takliflarini respublikaning xo'jalik birlashmalari va korxonalari bilan birgalikda batafsil o'rganadi hamda importning o'rmini bosadigan mahalliyashtiriladigan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarishga buyurtmalarni joylashtirish, shu jumladan yangi korxonalar tashkil etish, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tashkil etish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi;

mamlakatimiz iqtisodiyotini kompleks va muvozanatli rivojlantirishni ta'minlashni, tabiiy, mineral-xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va mehnat salohiyatidan, shuningdek, tegishli infratuzilmadan samarali foydalanishni hisobga olgan holda mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarishni iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida va mintaqalarida joylashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

davlat va xo'jalik boshqaruviga tegishli organlari, sanoat korxonalari bilan birgalikda bir necha tashkilotlar va korxonalarni jalb etishni talab qiladigan mahalliyashtiriladigan mahsulotlarning yangi murakkabroq turlarini o'zlashtirish uchun uzellar va detallar ishlab chiqarishni joylashtirishning samarali sxemalarini, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish tadbirlarini ishlab chiqadi;

ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik jihatdan qayta taqsimlash, mahsulotlarning ishlab chiqariladigan turlari elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqadi va yuritadi hamda shu asosda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

belgilangan hollarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini baholash natijalari bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosalar beradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning buyurtmanomalarini, tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar ro'yxatlari bo'yicha Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining takliflari bo'yicha respublika korxonalarida joylashtirilgan buyurtmalarni ko'rib chiqish asosida Mahalliyashtirish dasturini tuzadi;

Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishning, shu jumladan Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalar bilan belgilangan parametrlarga erishishning tizimli monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlaydi hamda tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

g) O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi:

*(7-bandning «g» kichik bandi birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-apreldagi PF-4215-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 17-son, 130-modda)*

monopoliyalashtirish va raqobat muhitini rivojlantirish darajasini, tovarlar (xizmatlar)ning o'zaro o'rmini bosishini va narx omilini hisobga olgan holda bozorning tovarlar (xizmatlar) bilan to'ldirilganligini baholaydi hamda tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlarning aniq ro'yxati bilan birga tovarlar (xizmatlar)ni mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari tomonidan o'zlashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida Iqtisodiyot vazirligiga takliflar kiritadi;

belgilangan hollarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini baholash natijalari bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosa beradi;

d) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zlashtirishga tavsiya qilinayotgan mahsulotlar ro'yxatini texnologik qayta taqsimlash, asbob-uskunalar va respublika sanoat korxonalari salohiyatini, foydalanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish asosida yangi samarali texnologiyalarni va ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini, bir necha



tashkilotlar va korxonalarni jalb etishni talab qiladigan mahalliyashtiriladigan mahsulotlarning yangi murakkabroq turlarini o'zlashtirish uchun uzellar va detallar ishlab chiqarishni joylashtirishning oqilona va eng maqbul sxemasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

e) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi Iqtisodiyot vazirligiga mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarishni o'zlashtirishni tashkil etish uchun mavjud bo'sh ishlab chiqarish quvvatlari, binolar va inshootlarni, shu jumladan aniq investitsiya majburiyati ostida bepul berish taklif qilinadigan axborotni har chorakda taqdim etadi;

j) "O'zstandart" agentligi ishlab chiqariladigan mahsulotni sifati va dizayni bo'yicha zamonaviy talablar va standartlar darajasiga yetkazish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi va Maxsus komissiya Kotibiyatiga kiritadi;

z) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati ostidagi kredit mablag'lari hisobiga Mahalliyashtirish dasturiga kiritish taklif qilinayotgan loyihalar amalga oshirilgan taqdirda iqtisodiy samaradorlikni kelishish yuzasidan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini baholash natijalari bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosalar beradi;

i) Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish masalalari bo'yicha axborot-tahlil departamenti ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish sohasida Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari hamda barcha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtiradi.

### **III. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish tartibi**

1 Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar – mahalliyashtirish loyihalari tashabbuskorlari (keyingi o'rinlarda loyiha tashabbuskori deb yuritiladi) loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan shakl bo'yicha Maxsus komissiya Kotibiyatiga kiritadi.

2. Loyiha tashabbuskori taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

3. Loyiha tashabbuskoridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

4. Maxsus komissiya Kotibiyati loyihaning maqsadidan, uni moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqqan holda tushgan takliflarni ko'rib chiqish uchun **ikki kun** muddatda vakolatli organlarga yuboradi.

5. Takliflar bir vaqtning o'zida quyidagi vakolatli organlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan:

loyihaning Mahalliyashtirish dasturi maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi;

loyihani amalga oshirish imkoniyati;

mahalliyashtirishning taklif etilayotgan darajasiga erishish imkoniyati;

loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan:

marketingning taklif etilayotgan konsessiyasi, shu jumladan mahalliyashtiriladigan mahsulotni sotish istiqbollari;

mahalliyashtiriladigan mahsulotni tashqi bozorda sotish narxlari parametrlari (loyiha tashabbuskori tomonidan mahsulotni eksport qilish nazarda tutilgan taqdirda);

shunga o'xshash mahsulot importini tahlil qilish (TIF TN kodi bo'yicha 10 belgi darajasida);

loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki loyiha parametrlarini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi asosida loyihani amalga oshirish samaradorligi va imkoniyati baholanadi;

v) O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan – raqobat muhitini, monopoliya qilib olish darajasini, tovarlarning o'zaro bir-birining o'rmini bosishini hisobga olgan holda bozorni to'ldirish va narx belgilash baholanadi;

*(12-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-apreldagi PF-4215-sonli farmoni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 17-son, 130-modda)*

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan (loyiha moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari yoki Hukumat kafolati ostidagi kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan taqdirda) – loyihaning iqtisodiy samaradorligi baholanadi.

Zarurat bo'lganda Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda Iqtisodiyot vazirligida vakolatli organlar mutaxassislaridan iborat vaqtinchalik ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin.

6. Vakolatli organlar loyiha tashabbuskorlarining takliflarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha asoslangan xulosalarni hujjatlar tushgan paytdan boshlab o'n kundan kech bo'lmagan muddatda Maxsus komissiya Kotibiyatiga yuboradi.

Xulosaning nusxasi vakolatli organ tomonidan loyiha tashabbuskoriga yuboriladi.

7. Fikr-mulohazalar mavjud bo'lgan taqdirda hujjatlar vakolatli organlar tomonidan loyiha tashabbuskoriga puxta ishlash uchun qaytariladi.

Puxta ishlangan hujjatlar loyiha tashabbuskorlari tomonidan vakolatli organlarga taqdim etiladi. Hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish va tegishli xulosalarni Maxsus komissiya Kotibiyatiga taqdim etish vakolatli organlar tomonidan ilgari bildirilgan fikr-mulohazalar loyiha tashabbuskorlari tomonidan bartaraf etish sharti bilan bir hafta muddatda amalga oshiriladi.

Puxta ishlangan loyihani ko'rib chiqishda vakolatli organlar tomonidan yangi fikr-mulohazalar bildirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Maxsus komissiya Kotibiyati ikki hafta muddatda vakolatli organlarning tushgan ijobiy xulosalarini umumlashtiradi va maxsus Komissiya Bayonnomasi loyihasini, zarurat bo'lganda, Hukumat qarori loyihasini tayyorlaydi, belgilangan tartibda uning kelishilishini ta'minlaydi va Vazirlar Mahkamasi kiritadi.

Bir yoki bir nechta vakolatli organning salbiy xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda loyihani Mahalliyashtirish dasturiga kiritish to'g'risidagi qaror Maxsus komissiya majlisida tegishli xulosalar asosida qabul qilinadi.

#### **IV. Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish monitoringini olib borish**

1. Tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan har bir loyiha bo'yicha loyihani amalga oshirishning tarmoq jadvali ishlab chiqiladi. Jadvalda loyiha orqali Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishiladigan aniq belgilangan muddatlarda belgilangan parametrlarga erishish nazarda tutiladi.

2. Iqtisodiyot vazirligi tarmoq jadvali asosida Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishning, shu jumladan Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarda belgilangan parametrlarga erishishning tizimli monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlaydi va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

3. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Mahalliyashtirish dasturi loyihalarining tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar, shuningdek, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida tuzilgan shartnomalar (eksport-import kontraktlari) bajarilishi monitoringini olib boradi, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlaydi va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

4. Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish hamda Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida tuzilgan shartnomalarni bajarish monitoringini olib borishda aniqlangan muammolar va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, barcha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING “INVESTITSIYA  
LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH VA  
TASDIQLASH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA”GI  
QARORI**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 23-son, 238-modda; 2008-y.,  
20-21-son, 176-modda; 2009-y., 52-son, 574-modda; 2012-y., 8-9-son, 82-modda)*

Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishni boshlash uchun tayyorgarlik tartibotlarini jadallashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi bilan birgalikda bir oy muddatda o‘z idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi Idoralararo ekspertlar kengashi tomonidan yengil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2006-yil 1-dekabrda 247-son qaroriga 1-ilovada:

a) 10-bandning ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish investitsiya loyihalari uchun umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi”;

b) 16-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“16. Loyiha Ekspertlar kengashi tomonidan ma‘qullangandan keyin texnik-iqtisodiy asoslashni tasdiqlash investitsiya loyihalari uchun umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari R.S.Azimov va N.M.Xanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri SH. Mirziyoyev**  
Toshkent sh., 2007-yil 7-iyun, 110-son

**VAZIRLAR MAHKAMASINING 2007- YIL 7-IYUNDAGI 110-SONLI QARORIGA**

**1-ilova**

**INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, EKSPERTIZADAN  
O‘TKAZISH VA TASDIQLASH  
TARTIBI TO‘G‘RISIDA NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom:

a) markazlashtirilgan manbalar resurslari hisobiga amalga oshiriladigan (Davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari, ayrim tarmoqlar va korxonalarining Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan maxsus jamg‘armalari mablag‘lari, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida yoki nomidan jalb etiladigan xorijiy kreditlar, O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari) investitsiya loyihalari hujjatlarini;

b) ular yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari asosida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish nazarda tutilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

v) mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalar tomonidan markazlashtirilmagan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

*(1-bandning "g" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-bandning "d" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

e) moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, strategik foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashni nazarda tutuvchi, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizomning amal qilishi Hukumat qarorlari bilan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlashning alohida tartibi belgilangan investitsiya loyihalari hujjatlariga tatbiq etilmaydi.

3. Ushbu nizom maqsadlari uchun quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**investitsiya loyihasi (loyiha)** – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksi;

**loyihaoldi hujjatlari** – qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek, uning hayotiylikini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar yetkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek, moliyaviy takliflar va/yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi;

**loyiha hujjatlari** – ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi;

**dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (keyingi o'rinlarda DTIA yoki DTIH deb ataladi)** – variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat;

**yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (keyingi o'rinlarda TIA (TIH) deb ataladi)** – investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjati;

**ishchi loyiha** – cheklangan qiymat va ish hujjatlariga ega bo'lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismdan iborat hujjat;

**xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (keyingi o'rinlarda XMII deb ataladi)** – davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi/birgalikda moliyalashtiruvchi institutlar;

**xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o'rinlarda XHMT deb ataladi)** – O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi/birgalikda moliyalashtiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlari;

**boshqa tarmoqlar** – "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyati turlari klassifikatori"ga muvofiq davlat boshqaruvi toifasiga kiritilgan tarmoqlar;

**strategik foydali qazilmalar** – qimmatbaho, rangli va nodir yer metallari, uglevodorodlar, ko'mir, uran.



4. DTIA (DTIH)ni ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar tarkibi (keyingi o‘rinlarda topshiriq deb ataladi) ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq belgilanadi.

5. DTIA (DTIH)ni ishlab chiqish yuzasidan topshiriq loyiha tashabbuskori tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi hamda Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan holda tegishli vazirlik (idora) rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

## **II. Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish tartibi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. DTIA (DTIH) loyiha tashabbuskori yoki uning buyurtmasi bo‘yicha loyihalash tashkiloti yoki injiniring kompaniyasi tomonidan ishlanma yuzasidan topshiriq asosida ishlab chiqiladi.

Loyihaning DTIA (DTIH)ni ishlab chiquvchi, agar faoliyatning ushbu turini amalga oshirish uchun litsenziya olish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, tegishli sohada obyektlarni loyihalashtirish uchun litsenziyaga ega bo‘lishi kerak.

Loyihalashtirishning sifati uchun javobgarlik ishlab chiquvchiga yuklanadi.

*(6-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

2. Tasdiqlangan DTIA (DTIH) moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni, loyihaning cheklangan qiymatini belgilash, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, tanlov savdolari o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. TIA/TIH tasdiqlangan DTIA (DTIH), olingan moliyaviy takliflar yoki tuzilgan kredit va investitsiya shartnomalari, shuningdek, o‘tkazilgan tanlov savdolari natijalari asosida ishlab chiqiladi.

Ishchi hujjatlar tasdiqlangan TIA (TIH)ning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqiladi.

4. Loyihani amalga oshirish shartlariga bog‘liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

a) DTIA – moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari – TIA – ishchi hujjatlar;

b) DTIH – moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari – TIH – ishchi hujjatlar;

v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Hujjatlarni ishlab chiqish variantlari sxemasi ushbu nizomga 2-ilovada keltirilgan.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Faqat ushbu Nizomning 1-bandi “b” kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha loyihaning TIA (TIH)ni loyihaning DTIA (DTIH)ni ishlab chiqmasdan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yiladi.

*(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori asosida xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

5. Loyihani amalga oshirish variantlarini va investitsiya loyihasi hujjatlari tarkibini tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

a) TIANi (dastlabki va yakuniy) ishlab chiqqan holda – investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, ushbu bandning “b” va “v” kichik bandlarida nazarda tutilgan loyihalar bundan mustasno;

b) TIHni (dastlabki va yakuniy) ishlab chiqqan holda – “boshqa tarmoqlar” obyektlari va yakka tartibdagi loyihani ishlab chiqishda ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda;

v) ILni ishlab chiqqan holda – namunaviy va takroriy qo‘llanadigan loyihalarni qo‘llangan holda quriladigan “boshqa tarmoqlar” va ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha (ushbu bandning “b” kichik bandiga to‘g‘ri keladigan hollardan tashqari), shuningdek, aholi punktlarining bosh rejalarida nazarda tutilgan muhandislik kommunikatsiyalarini qurishda.

### **III. Investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. Investitsiya loyahasining DTIA (DTIH) ushbu nizomga 3-ilovaga binoan tarkibga muvofiq, zarurat bo'lganda, asosiy texnik va texnologik yechimlarni ishlab chiqishga loyihalash tashkilotlari va injiniring kompaniyalarini jalb etgan holda ishlab chiqiladi.

*(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

2. Investitsiya loyahasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan – DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning – Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor konyunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha – iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek, xomashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori konyunkturasini ta'minlash nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha – ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

*Oldingi tahrirga qarang.*

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing konsessiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori konyunkturasi, shuningdek, tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal spetsifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalar narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA (TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar;

*(12-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha – loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek, loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha – loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan – DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni budjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan obyektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar defitsitini budjet mablag'lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan budjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashkilot tomonidan beriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sanoatning bazaviy tarmoqlarida (elektr energetikasi, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va og'ir sanoatda) investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA (TIH) faqat "O'zog'irneftgazkimyoloyiha" instituti Ilmiy-texnik kengashining ijobiy xulosasidan keyin ushbu bandda ko'rsatilgan vakolatli organlarga ekspertiza qilish uchun kiritiladi.

*(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori asosida xatboshi bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

3. Loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga DTIA (DTIH)ni tegishli tushuntirish xatini, ko'rib chiqiladigan materiallarni, shuningdek, ushbu nizomning 12-bandida ko'rsatilgan vakolatli ekspertiza organlarining xulosalarini ilova qilgan holda ikki nusxada kiritadi.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamenti ushbu nizomga 4-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha loyihaning DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjatni uch kun muddatda tayyorlaydi hamda Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari kompleksi rahbari bilan ikki kun muddatda kelishish uchun Makroiqtisodiy rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari yig'ma axborot-tahlil departamentiga beradi.

*(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-fevraldagi 48-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 8-9-son, 82-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. DTIA (DTIH) Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlangan loyihaning DTIA (DTIH) har bir sahifasiga "20\_\_ y. \_\_\_\_ da \_\_\_\_-son bilan tasdiqlangan" degan yozuvli shtempel bilan majburiy belgi qo'yiladi. Tasdiqlangan DTIA (DTIH)ning bir nusxasi loyiha tashabbuskoriga beriladi, ikkinchi nusxasi esa Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil

departamentida qoladi, loyihaning TIA (TIH) tasdiqlanganda – Vazirlar Mahkamasining Umumiy bo‘limiga beriladi.

*(16-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

6. Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan xarajatlar turlari bo‘yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda:

a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;

b) pudratchilarni va loyiha bo‘yicha xarid qilinadigan texnologik – asbob-uskunalarni yetkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

#### **IV. Investitsiya loyihalarining TIA(TIH)ni ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlangan DTIA (DTIH), tanlov savdolari natijasida tanlab olingan texnologik va boshqa asbob-uskunalar bo‘yicha takliflar asosida, moliyalashtirishning ishlab chiqilgan manbalari va shartlarini hisobga olgan holda loyiha tashabbuskori tomonidan investitsiya loyihasining TIA (TIH) ushbu nizomga 5-ilovaga muvofiq tarkib bo‘yicha ishlab chiqiladi.

2. Loyihaning TIA (TIH)ni ekspertizadan o‘tkazish u taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va moliyalashtiruvchi bank, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan ayni bir vaqtda ushbu nizomning 12-bandida ko‘rsatilgan har qaysi vakolatli ekspertiza organlarining vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

3. Loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga TIA (TIH)ni kiritadi, unga:

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasining investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi qabul qilinadigan qarori loyihasini;

*(20-bandning ikkinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinishi zarurligini asoslaydigan ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan birgalikda tegishli tushuntirish xatini;

*(20-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori asosida uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

ushbu nizomga 6-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha investitsiya loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlarini;

kreditlarni to‘lashning prognoz jadvallarini (kreditlar markazlashtirilgan manbalardan jalb etilgan taqdirda);

ushbu nizomning 12-bandida ko‘rsatilgan vakolatli ekspertiza organlari xulosalarini ikki nusxada ilova qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. Loyiha tashabbuskori amalga oshirishda soliq va bojxona imtiyozlari yoki boshqa preferensiyalar berilishini, O‘zbekiston Respublikasi nomidan yoki kafolati ostida kreditlar, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari jalb etilishini nazarda tutadigan loyihalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan qarori loyihasini tayyorlaydi va belgilangan tartibda kiritadi.

*(21-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamenti Vazirlar Mahkamasining qabul qiladigan qarori loyihasini ko‘rib chiqadi va Vazirlar Mahkamasining ish tartibiga muvofiq



hujjatlarni tasdiqlash uchun kiritadi.

Loyihaning TIA (TIH)ning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari loyihani amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qabul qiladigan qaroriga ilova sifatida tasdiqlanadi.

*(22-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

6. Tasdiqlangan TIA (TIH)ning bir nusxasi loyiha tashabbuskoriga beriladi, ikkinchi nusxasi esa saqlash uchun Vazirlar Mahkamasining Umumiy bo'limida qoladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan investitsiya loyihasining TIA (TIH) har bir sahifasiga "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20\_\_ y. \_\_\_\_dagi \_\_\_\_-son \_\_\_\_ bilan tasdiqlangan" degan yozuvli shtempel bilan majburiy belgi qo'yiladi.

*(23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori asosida ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(V bo'lim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

## **VI. XMII va XHMT qarz mablag'larini jalb etgan holda amalga oshiriladigan loyihalarni tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi**

1. XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

2. Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII/XHMTning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lar miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.

Takliflarni ekspertizadan o'tkazish ushbu nizomning 12-bandi talablariga muvofiq har qaysi vakolatli ekspertiza organining o'z vakolatlari doirasida ayni bir vaqtda u taqdim qilingan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ekspertiza organlari xulosalari olingandan keyin loyiha tashabbuskorlari iltimosiga binoan, Makroiqtisodiy rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan so'rovnoma tayyorlaydi va uni XMII/XHMTga yuboradi.

*(27-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-fevraldagi 48-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2012-y., 8-9-son, 82-modda)*

XMII/XHMTning loyihani moliyalashtirish/birgalikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi.

3. Ikkinchi bosqichda loyiha tashabbuskori XMII/XHMTning baholash missiyasi hisoboti asosida TIANi ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun uni ushbu nizomning 12-bandida ko'rsatilgan vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

Ekspertiza organlari xulosalari olingandan keyin TIA ushbu nizomning IV bo'limiga muvofiq tasdiqlanadi.

TIA(TIH) tasdiqlangandan keyin O'zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o'rtasida qarz bitimi imzolanadi.

4. Qarz bitimi imzolangandan keyin uning doirasida tanlov (tender) savdolari o'tkazilishi nazarda tutiladigan loyiha tashabbuskori tender hujjatlarini ishlab chiqadi va tanlov (tender) savdolari budjetini belgilaydi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar,

investitsiyalar va savdo vazirligi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishib oladi.

**VII. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash xususiyatlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga/birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA(TIH) ushbu bo'limda bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda mazkur nizomga muvofiq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(31-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

2. DTIA (DTIH) tasdiqlangandan keyin loyiha tashabbuskori moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun DTIA (DTIH)ni Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga va qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga kiritadi.

3. Qayta moliyalashtiruvchi bank tasdiqlangan DTIA (DTIH) taqdim etilgan vaqtdan boshlab bir hafta muddatda iqtisodiy samaradorlik, pul oqimlari tahlili, loyihani amalga oshirish uchun tashabbuskorning moliyaviy jihatdan qodirligi, loyihaning tavakkalchiliklarini va hayotiyiligini baholash, taklif etilayotgan moliyalashtirish sxemasining maqbulligi va kredit berish imkoniyati yuzasidan xulosa taqdim etadi.

4. Qayta moliyalashtiruvchi bankning xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda DTIA (DTIH) taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda, Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi tashabbuskorga loyihani va Iqtisodiyot vazirligiga uning vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan ekspert xulosasini taqdim etadi.

5. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda Iqtisodiyot vazirligi loyihaning DTIA (DTIH)ni loyihani Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirgan (birgalikda moliyalashtirgan) holda amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqish uchun Jamg'arma boshqaruv kengashining navbatdagi majlisiga kiritadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

6. Loyihani moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) to'g'risidagi jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning qarori, loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) asosida investitsiya loyihasi TIA (TIH) ishlab chiqiladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) tavsiya qilinayotgan investitsiya loyihasining TIA (TIH) sanoatning bazaviy tarmoqlarida (elektr energetikasi, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va og'ir sanoatda)gi loyihalar bo'yicha "O'zog'irneftgazkimyoloyiha" instituti bilan kelishilishi kerak (investitsiya loyihasining TIA (TIH) ishlab chiquvchisi "O'zog'irneftgazkimyoloyiha" instituti hisoblangan hollar bundan mustasno).

*(36-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*

7. Vakolatli ekspertiza organlarining xulosalari mavjud bo'lgan taqdirda Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga/birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan loyihaning TIA(TIH) tashabbuskor tomonidan Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga kiritiladi.

Loyihaning TIA (TIH) qayta moliyalashtiruvchi bank tomonidan TIA (TIH) bo'yicha xulosalar berish bilan ayni bir vaqtda ma'qullangan taqdirda qayta moliyalashtiruvchi bank Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga kredit olish yuzasidan belgilangan shakl bo'yicha buyurtmanoma kiritadi.

8. TIA (TIH) kiritilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi loyiha tashabbuskoriga va Iqtisodiyot vazirligiga uning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha ekspert xulosasini taqdim etadi.

9. Iqtisodiyot vazirligi loyihaning TIA (TIH)ni Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirgan (birgalikda moliyalashtirgan) holda loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish uchun Jamg'arma boshqaruv kengashining navbatdagi majlisiga kiritadi.

10. Jamg'arma boshqaruv kengashining loyihani Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirgan (birgalikda moliyalashtirgan) holda amalga oshirish to'g'risidagi qarori asosida loyiha tashabbuskori loyihaning TIA(TIH)ni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

11. Vazirlar Mahkamasi loyihaning TIA (TIH) bo'yicha tasdiqlashga tayyorlangan materiallarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli masalalar bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati bilan kelishish uchun belgilangan tartibda kiritadi.

## **INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, EKSPERTIZADAN O'TKAZISH VA TASDIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA**

**2-ilova**

### **Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish sxemasi**

## **INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, EKSPERTIZADAN O'TKAZISH VA TASDIQLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA**

**3-ilova**

### **Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA)ning namunaviy tarkibi**

1. Loyihaning maqsadi.
2. Obyektning tavsifi – ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ishchi kuchlari mavjudligi, ijara qiymati, ishlab chiqarish binolari va yordamchi binolarni sotib olish yoki ularni yangidan qurish imkoniyati va boshqalar.
3. Shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda, korxonani (inshoot)ni joylashtirish tumani va punktini tanlashning asoslanishi.
4. Arxitektura-qurilish va hajmiy-rejalashtirishning prinsipial yechimlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.
5. Qurilish va ishlatishda zararli tashlanmalar va oqova suvlarning tavsifi va hajmi, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish tadbirlari.
6. Obyektning muhandislik jihatidan ta'minlash va jihozlash (suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, isitish, shamollatish va havo haroratini maqbullashtirish) bo'yicha prinsipial yechimlar.
7. Texnologiyaning tavsifi va texnologiya asbob-uskunalarini variantlarining asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, energetika va moddiy resurslar iste'moli va boshqalar).
8. Marketing tadqiqotlari natijalari, ular:
  - tashqi va ichki bozorlar konyunkturasini o'rganishga asoslangan tayyor mahsulotni ichki bozorda sotish, shuningdek, eksport qilish imkoniyatlarini;
  - potensial iste'molchilar tomonidan to'lashga qodir talab va raqobatchilar tomonidan taklif o'rganilganligini;
  - mahsulotning sifat va narx ko'rsatkichlari bo'yicha raqobatbardoshligini ta'minlash chora-tadbirlarining mavjudligini;
  - loyihaning, eng avvalo, arzon narxdagi, talab qilinadigan miqdor va sifatdagi mahalliy xomashyo va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini;
  - asbob-uskunalariga qo'yiladigan asosiy talablarni, tabiiy-iqlim, ishlab chiqarish omillari va boshqa omillarni hisobga olgan holda vatanimiz texnologiyalarini va xorijiy texnologiyalarni qiyoslash tahliliga asoslangan samarali ishlab chiqarish texnologiyasi, prinsipial texnik yechimlar tanlanganligini;
  - taklif etilayotgan ishlab chiqarishning maqbul hajmini;
  - loyihani amalga oshirish, shu jumladan uning investitsiya fazasi muddatlarini tasdiqlashi kerak.
9. Loyiha tashabbuskorining moliyaviy ahvoli va uning loyihani amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlari tahlili.
10. Loyiha tashabbuskorining texnik va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan loyihani amalga oshirishning dastlabki sxemasi, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan resurslarning mavjudligi va qiymati (shu jumladan EMVda).
11. Tanlangan variant asosida qurilishning cheklangan qiymati, shu jumladan injiniring kuzatuviga, DTIAni va loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, texnologiya asbob-uskunalariga, yer uchastkasi ajratishga, binolar va inshootlar qurilishiga xarajatlar, shuningdek, aylanma kapitalning jalb etiladigan kreditlar bo'yicha moliyaviy chiqimlar va boshqalarning EMV va milliy valyutadagi qiymati.
12. Xarajatlar bo'yicha moliyaviy resurslarga ehtiyojning hisob-kitoblar variantlari asosida, shu jumladan jalb qilinayotgan mablag'lar va ularning loyihani samarali amalga oshirishni



ta'minlash imkonini beradigan jalb qilish shartlarini aniqlash.

13. Loyiha tavakkalchiliklarining tahlili.

14. Naqd pul oqimlari diskontini hisobga olgan holda, barcha investitsiyalar bazasida hisoblab chiqilgan loyihaning EMVdagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligining, o'zini o'zi qoplash muddatining, nazarda tutilgan kreditlarni qaytarishning hisob-kitoblari.

### **Dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH)ning namunaviy tarkibi**

1. Loyihaning maqsadi.

2. Obyektning tavsifi – ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ishchi kuchlari mavjudligi, ijara qiymati, ishlab chiqarish binolari va yordamchi binolarni sotib olish yoki ularni yangidan qurish imkoniyati va boshqalar.

3. Shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda, korxonani joylashtirish tumanini va punktini tanlashning asoslanishi.

4. Arxitektura-qurilish va hajmiy-rejalashtirishning prinsipial yechimlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.

5. Qurish va ishlatishda zararli tashlanmalar va oqova suvlarning tavsifi va hajmi, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish tadbirlari.

6. Obyektning muhandislik jihatidan ta'minlash va jihozlash (suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, isitish, shamollatish va havo haroratini maqbullashtirish) bo'yicha prinsipial yechimlar.

7. Texnologiyaning tavsifi va texnologiya asbob-uskunalar variantlarining asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, energetika va moddiy resurslar iste'moli va boshqalar).

8. Loyiha tashabbuskorining texnik va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan loyihani amalga oshirishning dastlabki sxemasi, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan resurslarning mavjudligi va qiymati (shu jumladan EMVda).

9. Tanlangan variant asosida qurilishning cheklangan qiymati, shu jumladan injiniring kuzatuviga, DTIHni va loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, texnologiya asbob-uskunalariga, yer uchastkasi ajratishga, binolar va inshootlar qurilishiga xarajatlar, shuningdek aylanma kapitalning, mo'ljallanadigan jalb etiladigan kreditlar bo'yicha moliyaviy chiqimlar va boshqalarning EMV va milliy valyutadagi qiymati.

10. Xarajatlar bo'yicha moliyaviy resurslarga ehtiyojning hisob-kitoblar variantlari asosida, shu jumladan jalb qilinayotgan mablag'lar va ularning loyihani samarali amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradigan jalb qilish shartlarini aniqlash.

Izoh. Ishlab turgan va yangidan foydalanishga topshiriladigan ijtimoiy soha muassasalarini jihozlash uchun jalb qilinadigan xorijiy kreditlar hisobiga asbob-uskunalar xarid qilishda DTIA (DTIH) tuzilmaydi.

**4-ilova**

### **Investitsiya loyahasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi**

1. Loyihaning maqsadi (rezyume).

2. Loyihaning buyurtmachisi:

2.1. Rekvizitlar, maqomi, tarkibi;

2.2. Bozordagi ahvol, mavjud amaliy aloqalar va amaliy nufuz;

2.3. Mavjud va prognoz qilinayotgan salohiyat;

2.4. Iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar.

3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).

4. Marketing bozori va konsessiyasi:

4.1. Talab va taklif;

4.1.1. Bozor tuzilmasi va tavsifi. Mahsulot tavsifi, uning bozorda raqobatga bardoshlilik;

4.1.2. Tarmoqning mavjud salohiyati, raqobatchi korxonalar, tarmoqni rivojlantirish istiqbollari va muammolarini baholash, hududiy joylashtirish, mahsulot sifati;

4.1.3. Tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi roli, uning ustuvorliklari va maqsadlari;

4.1.4. Mavjud talab, uning o'sishini prognoz qiluvchi asosiy omillar va ko'rsatkichlar;

- 4.1.5. Import va uning kelgusidagi tendensiyalari, hajmi va narxlari.
- 4.2. Marketing konsessiyasi, sotish prognozi:
- 4.2.1. Bozorlarning joylashgan joyi, bozor segmentatsiyasi;
- 4.2.2. Mavjud potensial mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kutilayotgan raqobat;
- 4.2.3. Sotish dasturi, sotishni tashkil etish.
- 4.3. Foydalaniladigan savdo markalari va mahsulotning patent tozaligi.
- 4.4. Marketing xarajatlarini baholash.
5. Moddiy resurslar:
- 5.1. Xomashyo, materiallar, komponentlar tasnifi;
- 5.1.1. Xomashyo bazasining mavjudligi, xomashyoning qidirib topilgan zaxiralari;
- 5.1.2. Xomashyo sifatiga va uni tayyorlash usullariga qo'yiladigan talablar, mahalliy xomashyoning texnologiya talablariga muvofiqligi.
- 5.2. Loyiha bo'yicha ehtiyoj, materiallar va komponentlarning mavjudligi va ular bilan ta'minlash, ularning tasnifi, yetkazib berish dasturi.
- 5.3. Energiya resurslari bilan ta'minlash.
- 5.4. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.
6. Obyektning joylashgan joyi:
- 6.1. Tanlangan uchastkaning tavsifi;
- 6.1.1. Xomashyo bozorlaridan uzoqlik va tayyor mahsulotni sotish, transport kommunikatsiyalari;
- 6.1.2. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani baholash;
- 6.1.3. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish, afzallik va cheklashlar;
- 6.1.4. Ekologiya, atrof-muhitga ta'sir (umumiy axborot).
- 6.2. Asosiy pozitsiyalar bo'yicha uchastka tanlashni asoslash.
- 6.3. Bo'lim bo'yicha xarajatlarni baholash.
7. Loyihalashtirish va texnologiya:
- 7.1. Yillar bo'yicha o'zlashtirgan holda ishlab chiqarish quvvati.
- 7.2. Texnologiya va asbob-uskunalar:
- 7.2.1. Texnologiya va asbob-uskunalarini, texnologik jarayon sxemalarini tanlashni asoslash, afzalliklar va kamchiliklar, asbob-uskunalarining ishonchliligi va yetkazib beruvchining kafolati;
- 7.2.2. Texnologiyaning atrof-muhitga ta'siri;
- 7.2.3. Asbob-uskunalarini joylashtirish sxemasi:
- ishlab chiqarish asbob-uskunalarini;
  - yordamchi asbob-uskunalar;
  - servis asbob-uskunalarini;
  - ehtiyot qismlar, anjomlar.
- 7.2.4. „Nou-xau“ni berish shartlari, xodimlarni o'qitish;
- 7.2.5. Mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 9000 ISO seriyasi talablariga muvofiqligini ta'minlash tadbirlari hamda ularni amalga oshirish xarajatlari;
- 7.2.6. Mahalliyashtirish istiqbollari (respublika hududida butlovchi buyumlar va komponentlarni ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatlari).
- 7.3. Qurilish:
- 7.3.1. Vaziyatli reja;
- 7.3.2. Bosh reja sxemasi, binolar va korpuslarning joylashishi;
- 7.3.3. Prinsipial hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, ularning parametrlari, alohida talablar;
- 7.3.4. Uchastkani tayyorlash va o'zlashtirish;
- 7.3.5. Muhandislik kommunikatsiyalari;
- 7.3.6. Qurilish-montaj ishlarining pul ifodasidagi hajmi.

- 7.4. Tugallanmagan qurilishni hisobga olgan holda xarajatlarni baholash.
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo‘shimcha xarajatlar:
  - 8.1. Korxonaning tashkiliy tuzilmasi;
  - 8.2. Qo‘shimcha xarajatlar (umumzavod, ma‘muriy xarajatlar);
  - 8.3. Bo‘lim bo‘yicha xarajatlarni baholash.
9. Mehnat resurslari:
  - 9.1. Mehnat resurslariga ehtiyoj va ularning mavjudligi;
  - 9.2. Kadrlarga qo‘yiladigan talablar, ularni o‘qitish zarurati va o‘qitishni tashkil etish;
  - 9.3. Bo‘lim bo‘yicha xarajatlarni baholash.
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari:
  - 10.1. Loyihani amalga oshirish bosqichlari;
  - 10.2. Loyihani amalga oshirish jadvali;
  - 10.3. Loyihani amalga oshirish budjeti.
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash:
  - 11.1. To‘liq investitsiya xarajatlari;
  - 11.2. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari;
  - 11.3. Sotilgan mahsulotlarga to‘liq chiqimlar;
  - Oldingi tahrirga qarang.*
  - 11.4. Iqtisodiy samaradorlikni baholash;
  - 11.5. Qarzga olingan mablag‘larning (ulardan foydalanilgan taqdirda) qoplanishini va o‘z vaqtida qaytarilishini hisobga olgan holda moliyaviy samaradorlikni baholash, valyutaning qoplanishi;
  - 11.6. Loyihaning asosiy tavakkalchiliklarga sezgirligi;
  - 11.7. Sof joriy qiymat ko‘rsatkichlari va kapital qo‘yilmalar ichki qaytariluvchanligining iqtisodiy normasi;
  - 11.8. Moliyaviy natijalarning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini baholash.  
(11.4-11.5-bandlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori asosida 11.4 – 11.8-bandlar bilan almashtirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)
12. Xulosalar:
  - 12.1. Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari;
  - 12.2. Qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari;
  - 12.3. Noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari;
  - 12.4. Loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash.
13. “A” ilova:
 

“A” ilovada milliy va xorijiy valyuta xarajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar sxemalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak:

  - 13.1. Asosiy kapitalga investitsiyalar;
  - 13.2. Ishlab chiqarishdan oldingi xarajatlar;
  - 13.3. Sotilgan mahsulotlarga chiqimlar;
  - 13.4. Sof aylanma kapitalga ehtiyoj;
  - 13.5. Moliyalashtirish manbalari va rejasi;
  - 13.6. Qarzga olingan mablag‘lardan foydalanish va ularni qaytarish;
  - 13.7. Soliq solishning amaldagi tizimini va majburiy to‘lovlarni hisobga olgan holda mavjud mablag‘lar (aniq pullar) oqimi;
  - 13.8. Mavjud mablag‘larning diskontlangan oqimi;
  - 13.9. Diskont foyda;
  - 13.10. Foyda va zararlar prognozi;
  - 13.11. Prognoz qilinayotgan balans.
14. “B” ilova:
 

“B” ilovada tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak:

**14.1. Yuridik hujjatlar:**

**korxonada ustavi va ta'asis shartnomasi;**

ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi litsenziya, agar faoliyat turi maxsus litsenziyalar talab qilinadigan faoliyatning alohida turlari ro'yxatiga kirsas;

rahbarlar, asosiy menejerlar, direktorlar kengashi, korxonada aniq mulkdorlarining qisqacha biografik ma'lumotlari.

**14.2. Kontrakt hujjatlari:**

asbob-uskunalar yetkazib berish yoki obyektning foydalanishga tayyor holda topshirish yuzasidan kontrakt;

**qurilish pudrati va qurilishni moddiy ta'minlash shartnomasi;**

xomashyo, butlovchi buyumlar yetkazib berish va tayyor mahsulotlarni xarid qilish shartnomasi (mo'ljallar bayonnomasi);

loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa shartnomalar.

**14.3. Smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar:**

**qurilishning smeta hujjatlari;**

korxonada (qarz oluvchi, investorlar, kafillar, loyiha bo'yicha garantlar)ning oxirgi uch yil uchun soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan to'liq buxgalteriya (har choraklik) hisobotlari;

boshqa banklardagi hisob raqamlari, qarz mablag'lari va ularni qaytarish shartlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

xorijiy sheriklar (muassislar) to'g'risidagi ma'lumotlar – oxirgi ikki yil uchun xalqaro standartlar bo'yicha (taniqli auditorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlangan) yillik hisobot.

**14.4. Ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar:**

tanlangan texnologiya va texnologiya asbob-uskunalarini bo'yicha idoradan tashqari ekspertiza ("Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi), mustaqil konsalting tashkilotining xulosalari;

sotib olinadigan asbob-uskunalarining texnik pasportlari va ularni tanlov asosida tanlanishini tasdiqlovchi hujjatlar;

kadastr (garovga beriladigan yer hamda bino va inshootlar kadastri) va mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

asosiy ishlab chiqarish binolarining texnologiya asbob-uskunalarini joylashtirilgan holdagi sxemasi.

**14.5. Tayyor mahsulotni sotish va xomashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar.**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**15. Texnik-iqtisodiy hisoblashni ishlab chiqishda texnik-iqtisodiy asoslashlar tarkibidan quyidagi bandlar va kichik bandlar chiqarib tashlanishi kerak: 2.2, 2.3, 2.4, 4 (kichik bandlar bilan), 5.1 (kichik bandlar bilan), 5.2, 6.1.1, 6.1.2, 7.1, 7.2 (kichik bandlar bilan), 8 (kichik bandlar bilan), 11.3, 11.5, 11.8, 12.3, 13.2, 13.3, 13.4, 13.9, 13.10, 13.11, 14 ("B" ilova).**

*(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 21-maydagi 101-sonli qarori tahririda – O'R QHT, 2008-y., 20-21-son, 176-modda)*



**INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, EKSPERTIZADAN  
O'TKAZISH VA TASDIQLASH  
TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA**

**2-ilova**

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati**

1. Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordami yuklarini va texnik ko'maklashish mablag'larini hisobga olish va nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 15-noyabrdagi 251-son qarori 1-bandining ikkinchi xatboshi va qarorga 1-ilova (O'zbekiston Respublikasi QT, 2005-y., 11-son, 61-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining "2005-yil 15-noyabrdagi 251-son qarori bilan tasdiqlangan Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2006-yil 11-avgustdagi 170-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 8-son, 62-modda).

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi idoralararo ekspertlar kengashi tomonidan yengil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2006-yil 1-dekabrda 247-son qarorining 4-bandi va qarorga 2-ilova.

4. Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordami yuklarini va texnik ko'maklashish mablag'larini hisobga olish va nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 15-noyabrdagi 251-son qaroriga qo'shimchalar kiritish haqida. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kioto Bayonnomasining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006-yil 6-dekabrda PQ-525-son qarori) 2007-yil 3-yanvardagi 5-son qarori 1-bandining "a" kichik bandi (O'zbekiston Respublikasi QT, 2007-y., 1-son, 3-modda).

5. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" 2007-yil 12-martdagi PQ-601-son hamda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida" 2007-yil 22-martdagi PQ-607-son qarorlari) 2007-yil 11-maydagi 96-son qaroriga 1-ilovaning 10-bandi (O'zbekiston Respublikasi QT, 2007-y., 5-son, 26-modda).

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY ALOQALAR,  
INVESTITSİYALAR VA SAVDO VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA QO‘MITASINING  
“Tasdiqlangan mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar  
tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash  
haqida”gi qarori**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 20-son, 224-modda)*  
**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 17-mayda ro‘yxatdan  
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2365]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-iyuldagi “2011-2013-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1590-son qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-iyuldagi “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 154-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 28-29-son, 235-modda) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi **qaror qiladilar:**

1. Tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining 2008-yil 26-avgustdagi 90, 2008-32 va 01-02/8-51-son bilan tasdiqlangan “Tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1857, 2008-yil 19-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 39-son, 396-modda ) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab o‘n kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

**Moliya vaziri R.AZIMOV**

Toshkent sh., 2012-yil 18-aprel, 39-son

**Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri E.GANIEV**  
Toshkent sh., 2012-yil 18-aprel, EG-01/14-1414-son

**Iqtisodiyot vaziri G.SAIDOVA**

Toshkent sh., 2012-yil 18-aprel, 6-son

**Davlat soliq qo‘mitasi raisi B.PARPIEV**

Toshkent sh., 2012-yil 18-aprel, 2012-16-son

**Davlat bojxona qo‘mitasi raisi Z.DUSANOV**

Toshkent sh., 2012-yil 18-aprel, 01-02/8-6-son

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI, TASHQI IQTISODIY  
ALOQALAR, INVESTITSİYALAR VA SAVDO VAZIRLIGI, IQTISODIYOT VAZIRLIGI,  
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI VA DAVLAT BOJXONA QO'MITASINING 2012-YIL 18-  
APRELDAGI 39, EG-01/14-1414, 6, 2012-16 VA 01-02/8-6 - SON QARORIGA  
ILOVA**

**Tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar  
tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida  
NIZOM**

Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-iyuldagi "2011-2013-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1590-son qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-iyuldagi "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 28-29-son, 235-modda) muvofiq tasdiqlangan Mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash hamda ular tomonidan daromadlarni alohida-alohida hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom quyidagi korxonalarga tatbiq etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-iyuldagi PQ-1590-son qarorining 1 va 2-ilovalariga kiritilganlarga – 2014-yil 1-yanvargacha;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha Mahalliyashtirish dasturiga kiritilganlarga.

2. Mazkur nizomning 1-bandida ko'rsatilgan korxonalar quyidagilarni to'lashdan ozod etiladilar:

mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha **foyda solig'idani, vagona soliq to'lovidan** (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha **mol-mulk solig'idan**;

chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek, mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonda foydalaniladigan komponentlar (keyingi o'rinlarda import tovarlari deb yuritiladi) uchun **bojxona to'lovidan** (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalarga mazkur nizomning 2-bandi to'rtinchi xatboshisida ko'rsatilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan sanasidan boshlab, mazkur bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan imtiyozlar esa – agar qarorning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan oydan keyingi o'yning 1 sanasidan boshlab tatbiq etiladi.

4. Mazkur nizomda nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlari berilishi munosabati bilan bo'shab qoladigan mablag'lar korxonalar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, korxonalarining muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishga (ITTKI), shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishga yo'naltiriladi.

5. Mazkur nizomning 2-bandida ko'rsatilgan soliq va bojxona imtiyozlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1463, 2005-yil 2-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 14-son, 105-modda) bilan tartibga solinadi.

## **II bob. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar va ularni qo'llash**

1. Mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadni foyda solig'idan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (xarajatlar) bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari kerak.

2. Foyda solig'i hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 3-4-son, 15-modda) bilan tasdiqlangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi.

3. Yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq solish xususiyatlarini hisobga olib, yagona soliq to'lovi bo'yicha nazarda tutilgan imtiyoz mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga qo'llanadi. Aytib o'tilgan imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari kerak.

4. Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) bilan tasdiqlangan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi.

5. Mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini mol-mulk solig'idan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha soliq solish bazasining alohida-alohida hisobini yuritishlari kerak.

6. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun chetdan olib kelingan, biroq normativ muddatlarda o'rnatilmagan asosiy fondlar uchun qo'llanilmaydi. Bunday mol-mulk bo'yicha soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 52 (I)-son) muvofiq hisoblanadi va to'lanadi.

6. Mol-mulk solig'i hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) bilan tasdiqlangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi.

7. Agar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan faqat mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanilmasa, imtiyoz realizatsiya qilishdan olingan sof tushumda mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'idan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda 111, 2007-66-son qarori (ro'yxat raqami 1760, 2008-yil 21-yanvar) bilan tasdiqlangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllarining yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobining 5-ilovasida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida taqdim etiladi.

Masalan, agar asosiy ishlab chiqarish fondlarining qoldiq qiymati korxonalar bo'yicha jami 1500 mln. so'mni, realizatsiya qilishdan olingan sof tushumda mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'i 25 foizni tashkil etsa, soliq solinmaydigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati 375 mln. so'mni ( $1500 \times 25/100$ ) tashkil etadi.



### **III bob. Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar va ularni qo'llash**

1. Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz erkin muomalaga chiqarish rejimiga o'tkazish bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining belgilangan tartibda beriladigan xulosasi asosida taqdim etiladi.

Bunda chetdan olib kelinadigan ehtiyot qismlarga (chetdan olib kelinadigan texnologik asbob-uskunalar qiymatida hisobga olinmaydigan), soliq solinadigan aylanma, shu jumladan, nol darajali stavka bo'yicha aylanma uchun ishlatiladigan komponentlarga hisoblab yozilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi tayyor mahsulot bo'yicha budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida kamaytiriladi (hisobga olinadi).

2. Davlat bojxona xizmatining hududiy organlari bojxona to'lovlarini to'lamasdan chetdan tovar olib kelgan yuridik shaxslar reestrlari va taqdim etilgan imtiyozlar hisobini yuritadilar.

3. Davlat bojxona xizmatining hududiy organlari har chorakda, hisobot davridan keyingi oyning 10-kuniga qadar (yuridik shaxsning tegishliligi bo'yicha) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga yuridik shaxslar tomonidan bojxona to'lovlarini to'lamasdan chetdan olib kelinadigan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarishi tashkil etilmagan yoki ichki bozor ehtiyojining hajmi, sifati va texnik parametrlari bo'yicha qoniqtirmaydigan texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ular uchun ehtiyot qismlar, shuningdek, mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalanadigan komponentlar to'g'risidagi ma'lumotni mazkur nizomning ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etadilar. Davlat soliq boshqarmalari ma'lumot olingan sanadan e'tiboran uch kun ichida uni yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan joydagi tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga yuboradilar.

4. Davlat soliq xizmati organlariga yuboriladigan ma'lumotda quyidagilar majburiy tartibda ko'rsatiladi:

bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilingan yuridik shaxs – tovarlar import qiluvchisining nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

chet ellik tovar yetkazib beruvchining nomi, shartnoma raqami va uning bojxona organida shartnomani hisobga qo'yish chog'ida berilgan ro'yxat raqami;

import tovarlarining nomi, ularning miqdori va taqdim etilgan imtiyozlar summasi.

5. Imtiyozni qo'llagan holda olib kelingan import tovarlarini maqsadga ko'ra foydalanmaslik holatlari soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) vaqtida aniqlanganda davlat soliq xizmati organlari aniqlangan holatlar to'g'risida hujjatlar tuzadi va uch ish kuni mobaynida ularni tegishli davlat bojxona xizmati organlariga yuboradi. Maqsadga ko'ra foydalanilmagan import tovarlariga to'g'ri keladigan bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar summasi jarima sanksiyalarini, shu jumladan, penyani hisoblagan holda, yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 1463, 2005-yil 2-aprel) nazarda tutilgan tartibda budjetga undiriladi.

### **IV bob. Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash**

1. Loyiha Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilgan sanadan boshlab loyihani amalga oshiruvchi korxonalar mazkur nizomning 2-bandida ko'rsatilgan soliq va bojxona imtiyozlaridan mahrum etiladi.

2. Korxonalar tomonidan Mahalliyashtirish dasturining prognoz parametrlarini bajarilishi ustidan monitoring O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

3. Mahalliyashtirish dasturida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni ta'minlamagan va shu asosda Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilgan korxonalar:

a) mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun ilgari chetdan olib kirilgan tovarlarning (komponentlarning) qoldiq qismida bojxona to'lovlari bo'yicha budjet bilan qayta hisob-kitoblarni amalga oshirishlari shart. Qayta hisob-kitoblar jarima sanksiyalari qo'llanilmagan

holda amalga oshiriladi;

b) ushbu bandning "a" kichik bandida nazarda tutilgan tartibda qayta hisoblangan bojxona to'lovlari bo'yicha to'langan mablag'larni chegirgan holda 8840 "Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari" hisobvarag'ida (mahalliyashtiriladigan mahsulot qismida) aks ettiriladigan ishlatilmagan mablag'larning qoldig'ini Mahalliyashtirish dasturidan chiqarish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab uch kun mobaynida budjetga o'tkazib berishlari shart.

Mazkur mablag'lar o'z vaqtida o'tkazib berilmagan hollarda qonun hujjatlariga muvofiq penya hisoblanadi.

Ushbu bandning qoidalari imtiyoz davri tugagandan so'ng, ya'ni Mahalliyashtirish dasturida belgilangan muddatlar tugagandan so'ng foydalanilmagan mablag'lar qoldig'iga ham tatbiq etiladi.

4. Soliqlar va bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etish natijasida bo'shagan mablag'lar maqsadga muvofiq foydalanilmagan taqdirda, bu mablag'lar jarima sanksiyasini, shu jumladan, penyani hisoblangan holda, qonun hujjatlariga muvofiq budjetga to'liq undiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga qadar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va Iqtisodiyot vazirligiga soliq imtiyozlarining hajmi to'g'risida ma'lumotni korxonalar kesimida taqdim etadi.

6. Yil yakuni bo'yicha Mahalliyashtirish dasturida nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajarishni ta'minlamagan, biroq Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilmagan korxonalar bo'yicha mahalliyashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan komponentlar bo'yicha xulosa berish Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha idoralararo Maxsus komissiyaning qarori bo'yicha o'tgan yilda imtiyozlarni qo'llagan holda chetdan olib kelinadigan komponentlarning qoldig'ini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

#### **V bob. Yakuniy qoidalar**

1. Korxonalar taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlarini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda qonun hujjatlar va mazkur nizomga muvofiq o'z vaqtida to'lash va hisob-kitoblar taqdim etish uchun javobgar bo'ladilar.

2. Soliq va bojxona imtiyozlarining to'g'ri qo'llanishi ustidan nazorat davlat soliq va bojxona xizmati organlari tomonidan qonun hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

**TASDIQLANGAN MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI LOYIHALARI AMALGA  
OSHIRILAYOTGAN KORXONALAR  
TOMONIDAN SOLIQ VA BOJXONA IMTIYOZLARINI QO'LLASH TARTIBI  
TO'G'RISIDA NIZOMGA  
ILOVA**

\_\_\_\_\_ davlat soliq boshqarmasi

Chetdan olib kelinadigan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilishi tashkil etilmagan yoki ichki bozor ehtiyojining hajmi, sifati va texnik parametrlari bo'yicha qoniqtirmaydigan texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ular uchun ehtiyot qismlar, shuningdek, mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalanadigan komponentlar to'g'risidagi ma'lumot 20\_\_yil "\_\_\_" choragi uchun

T/ r	Oluvchi ning nomi	Oluvchi ning yuri dik manzili	Oluvchi ning STIRi	Chet ellik tovar yetkazib beruvchi ning nomi	Shartno maning raqami	Shartnomaning bojxona organida hisobga qo'yilgan ro'yxat raqami	Chetdan olib kelingan tovar			Imti yoz sum masi
							No mi	O'l chov birligi	Miqdo ri	
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.

\_\_\_\_\_ (sana)

O'zR DBQ \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ viloyat

boshqarmasining boshlig'i \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (imzo)

M.O'.

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING "ISTIQBOLLI  
INVESTITSIYA TAKLIFLARINI KELISHISH MEXANIZMINI HAMDA XORIJIY  
INVESTITSIYALAR VA KREDITLARNI JALB ETISH JARAYONINI  
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI QARORI**  
*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 32-son, 403-modda)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralarga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga potensial xorijiy investorlar va kreditorlarni qidirib topishda ko'maklashish yo'li bilan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonining samaradorligini va tezkorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilab qo'yilsinki:

2014-yil 1-oktabrdan boshlab tashabbuskorlar tomonidan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va loyihalar pasportlarini davlat boshqaruvi vakolatli organlarida kelishish elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi" tizimi orqali amalga oshiriladi;

loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya takliflari va loyihalar pasportlarini sifatli to'ldirish, ularning to'liqligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarori talablariga muvofiqlicha uchun shaxsan javob beradilar.

2. Loyiha tashabbuskorlarining hamda davlat boshqaruvi vakolatli organlarining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va istiqbolli loyihalar pasportlarini Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimi orqali kelishish jarayoni doirasidagi o'zaro hamkorligi sxemasi ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda Investitsiya takliflarini va istiqbolli loyihalar pasportlarini kiritish va ularni "Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi" tizimida kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni ikki oy muddatda ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

4. Loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar:

har yili Davlat investitsiya dasturi va hududiy investitsiya dasturlari tegishli ravishda tasdiqlangandan keyin 30 kun mobaynida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish talab qilinadigan investitsiya takliflari va loyihalar pasportlari ishlab chiqilishini va Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimiga kiritilishini;

muntazam ravishda investitsiya takliflari va loyihalar pasportlari parametrlari yangilanishini, keyinchalik ularning Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimida davlat boshqaruvi vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda kelishilishini ta'minlasinlar.

5. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat aloqa qo'mitasi bilan birgalikda tizimli asosda:

loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar ishtirokida investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimidan foydalanishning ustunliklari to'g'risida



tushuntirish ishlarining olib borilishini;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-son qarori talablarini so'zsiz bajarish uchun Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimini, uni O'zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari yagona portali bilan integratsiyalashtirgan holda elektron tarzda to'ldirish mexanizmining amalda qo'llanilishi, zarur darajada faoliyat ko'rsatishi va takomillashtirilishi yuzasidan monitoring olib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.MIRZIYOYEV**  
Toshkent sh., 2014-yil 4-avgust, 215-son

**VAZIRLAR MAHKAMASINING 2014-YIL 4-AVGUSTDAGI 215-SON QARORIGA  
ILOVA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING "2014-2016 -  
YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA DONOR MAMLAKATLAR, XALQARO  
VA XORIJIY HUKUMAT VA NOHUKUMAT TASHKILOTLARINING BEG'ARAZ  
TEXNIK KO'MAK MABLAG'LARINI (GRANTLARINI) JALB ETISH CHORA-  
TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI QARORI**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 29-son, 359-modda)*

2014-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasiga iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor loyihalarini amalga oshirish uchun donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlarining beg'araz texnik ko'mak mablag'larini (grantlarini) jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

2014- yil uchun oldindan kelishilgan hamda donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan ishlab chiqilayotgan beg'araz texnik ko'mak (grantlar) loyihalari ro'yxati 1-ilovaga\* muvofiq;

2014-2016-yillar uchun donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan ishlab chiqilayotgan beg'araz texnik ko'mak (grantlar) loyihalari ro'yxati 2-ilovaga\* muvofiq;

Donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirish va birgalikda moliyalashtirish uchun taklif etilayotgan beg'araz texnik ko'mak (grantlar)ning ustuvor loyihalari yig'ma ro'yxati 3-ilovaga\* muvofiq tasdiqlansin.

\*1-3-ilovalar rus tilidagi matnda berilgan.

2. Loyihalarning belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va har tomonlama ishlab chiqilishi, sifatli va samarali amalga oshirilishi, ularni amalga oshirishning boshlanishini ta'minlash uchun zarur tayyorgarlik tadbirlari olib borilishi, shuningdek, beg'araz texnik ko'mak mablag'laridan (grantlardan) qat'iy maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ushbu qarorga 1, 2 va 3-ilovalarga kiritilgan beg'araz texnik ko'mak (grantlar)ning boshqa oluvchilari rahbarlari zimmasiga yuklansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, xalqaro moliyaviy institutlardagi O'zbekiston Respublikasidan boshqaruvchilar idoralari manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

ushbu qarorning 1-ilovasiga kiritilgan loyihalar bo'yicha hujjatlarning uzil-kesil kelishilishi, ma'qullanishi va rasmiylashtirilishiga oid zarur tartib-qoidalar bajarilishini ta'minlasinlar;

ushbu qarorning 2-ilovasiga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq barcha masalalarni hal etish yuzasidan donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan ishlarni faollashtirsinlar;

ushbu qarorning 3-ilovasiga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun beg'araz texnik ko'mak mablag'larini (grantlarni) jalb etish masalalarini donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan puxta ishlab chiqsinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishgan holda, zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ushbu qaror bilan tasdiqlangan ro'yxatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasiga donor mamlakatlar, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlarining beg'araz texnik ko'mak mablag'larini (grantlarini) jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013-yil 29-martdagi 90-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.Mirziyoyev**  
Toshkent sh., 2014-yil 11-iyul, 190-son

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. 40-b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonuni. – T., 1998-yil 30-aprel (2010-2011-y. yangi tahriri) (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
3. “Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida”gi qonuni. – T., 1998-yil 30-aprel (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
4. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni. – T., 1998-yil 24-dekabr (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
5. O'zbekiston Respublikasi “Xususiy korxonalar to'g'risida”gi qonuni. 11-dekabr 2003-yil (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
6. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. – T., 1996-yil 16-may (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
7. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. 2000-yil 25-may (O'zR 20.01.2014-y. O'RQ-365-son qonuni, yangi tahriri).
8. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. 2012-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi va 23-martda Senat tomonidan ma'qullanib 26-aprel O'RQ-327-soni.
9. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. 2000-yil 25-may (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4707-sonli farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida”gi PQ-2458-sonli qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-aprelda “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4609-sonli farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2015-yil 15-may, PF-4725-sonli farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2011-yil 4-apreldagi PF-1068-sonli farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008-yil 19-noyabr, F-4010-sonli farmoni.

17. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi "Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2844-sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi "2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1957-son qarori.

19. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 07.02.2010-y. № PQ-1266.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009-yil 20-yanvar, PQ-1041-son.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009-yil 28-yanvar, PQ-1050-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009-yil 26-yanvar, PQ-1047-son.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2007-yil 21-maydagi PQ-640-sonli qarori.

26. "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-fevraldagi PF-4191-son farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010-yil 9-mart, 9-son.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni. //Xalq so'zi, 2005-yil 15-iyun.



28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida” farmoni. //Xalq so‘zi, 2005-y. 15-iyun.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me‘yoriy hujjatlari**

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevraldagi “2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to‘g‘risida qarori. //O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami, 1999-yil dekabr. 54-son. – T.: O‘zbekiston. Adliya vazirligi, 2000-yil. 15-20-b.

31. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM. 1999-yil 5-fevral. – T.: O‘zbekiston, 1999-yil. -92 b.

32. О мерах по дальнейшему развитию и модернизации предприятий текстильной промышленности и расширению производства отечественных продовольственных потребительских товаров на 2009-2011 годы: Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 августа 2009 года № 236. //Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2009. № 34. -372 с.

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 110-sonli qarori.

### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

34. Shavkat Mirziyoyev: “Islom Karimov – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muallifi”. <http://kun.uz/news/2016/12/07/>.

35. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. 34-b.

36. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi). //Xalq so‘zi, 2010-yil 13-noyabr (№ 220).

37. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011-y. -437 b.

38. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. – T.: //Xalq so‘zi, 2013-yil 20-yanvar.

39. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning

asosidir. //Xalq so'zi, 2013-y. 09-may. № 91 (5765).

40. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010-y. -83 b.

41. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.:O'zbekiston, 2009-y. -56 b.

42. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. //Xalq so'zi, 2006-yil 25-fevral.

43. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. – T.: O'zbekiston, 2005-yil. -136 b.

## V. Darsliklar

44. Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Yergashxodjaeva Sh.J., G'oyipnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: “Adib” nashriyoti, 2011-yil. -264 b.

45. Vahobov A. va boshqalar. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. – T.: Sharq, 2007-yil. 277-b.

46. Jumaev M.B., Majidov I.O'., Boltabayev M.R., Axmedov I.A. O'z biznesingizni yarating. O'quv-uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2012-yil. 215-b.

47. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S., Safarov B.J., Musayeva Sh. Marketingni boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007-yil. 160-b.

48. Андрианов А.Ю., Юлдашев С.В., Воробьев П.В. и др. -2-е изд., перераб. и доп. – М.: Инвестиции: учеб. ТК Велби, Издательство Проспект, 2008 г. -584 с.

49. Архипов И. Экономика. Учебник. – М.: ТК Велби, 2008 г. -263 с.

50. Самуэльсон П.Э., Нордхаус В.Д. Экономика, 18-е издание: Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс”, 2009 г. -1360 с.

51. Ахметзянов И.Р. Анализ инвестиций: методы отценки эффективности финансовых вложений. – М.: Эксмо, 2007 г. -272 с.

52. Ковалёв В.В. др. Инвестиции. Учебник. – М.: ТК Велби, издательство Проспект, 2005 г. -440 с.

53. Ветров В.В. Инвестиционный анализ: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009 г. -432 с.

54. Чиненова М.В. Инвестиции. – М.: КНОРУС, 2008 г. -365 с.

55. Лахметкина Н.И. Инвестиционная стратегия предприятия: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2008 г. -462 с.

56. Muratov P.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2011-y. -564 b.

57. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod – moliya, 2006-y. -380 bet.

58. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006 г. -1028 с.

59. Тархуна Ю.В. Конкуренция и конкурентные стратегии (в структурно-

логических схемах): учеб.-метод. пособ. – М.: Дело и сервис, 2008 г. -272 с.

60. Багиев Г.Л., Тарасович В.М., Анн Х. Маркетинг. учеб. – СПб.: Питер, 2008 г. -736 с.

61. Дэри Н. Принятие инвестиционных решений. //Пер. с англ. – М.: Юнити, 2007 г, -245 с.

62. Мэскон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер. с англ. – М.: Дело ЛТД, 2006 г. -465 с.

63. Эванс Ж., Бэрман Б. Маркетинг. Пер. с англ. – М.: Экономика, 2005 г. -214 с.

64. Самуэльсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. Экономика, 18-е изд.: Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д. Вильямс”, 2009-г. -1360 с.

65. Тархуна Ю.В. Конкуренция и конкурентные стратегии (в структурно-логических схемах): учеб. – М.: Дело и сервис, 2008 г. -272 с.

66. Багиев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг учеб. – СПб.: Питер, 2008 г. -736 с.

## VI. O‘quv qo‘llanmalar

67. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2010-y.

68. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar (№ 11/6194).

69. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010-y. -146 b.

70. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsessiyasi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2010-y.

71. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2010-y. -162 b.

72. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ: Учеб. пособие. – М.: Юнити, 2006-у. -411 с.

73. Ветров А.В. Международная практика дипломатического сопровождения торгово-инвестиционных проектов сделок: Учеб. пособ. – М.: Выш. шк., 2008. -356 с.

74. Xodiev B.Yu. va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. -267 b.

75. Mamatov B., Nosirov E., Xo'jamqulov D., Sharafxo'jaeva K. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. TMI. – T., 2007-y. -152 b.

76. Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2008. 254-b.

### **VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari**

77. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

78. Davlat statistika qo'mitasining yillik statistik ma'lumotlari.

79. Университеты Республики Узбекистан 2012-2014 г.г. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2012. -148 с

80. Промышленность Республики Узбекистан 2012-2014г.г. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2015. -156 с.

### **VIII. Internet saytlari**

72. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)

73. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

74. <http://www.cbu.uz>

75. [http://economics.uzreport.uz/news\\_r\\_115760.html](http://economics.uzreport.uz/news_r_115760.html).

76. [www.4P.com.ua/books/4](http://www.4P.com.ua/books/4). sitet.

77. [www.marketolog.ru](http://www.marketolog.ru)

78. [ww.E-executive.Ru](http://ww.E-executive.Ru)

79. “<http://www.imce.ru>”



## MUNDARIJA

		Bet
	KIRISH.....	3
1-bob.	“INVESTITSION TAHLIL” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI.....	4
1.1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidan kelib chiqqan holda fanning maqsadi va vazifasi.....	4
1.2.	Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davlat investitsiya siyosati. Investitsion muhit va investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari.....	8
1.3.	Investitsiyalarning klassifikatsiyalari va mazmuni. Investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi.....	19
1.4.	Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyaning makro va mikroiqtisodiyot darajasidagi funksiyalari.....	24
2-bob.	INVESTITSION FAOLIYATNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	30
2.1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martda “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlashning dasturiy chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4707-sonli farmoni asosida iqtisodiyotga ustuvor loyihalarni jalb etish omillari va yo‘llari....	30
2.2.	Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatining moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari.....	35
2.3.	Moliyaviy investitsiya va joriy holatlarni tahliliy asoslash.....	39
2.4.	Investitsiya faoliyati obyektlari va subyektlari.....	47
3-bob.	IQTISODIYOTDA XORIJIY INESTITSIYALARNING AHAMIYATI VA O‘RNI.....	57
3.1.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida investitsiya tahlilining roli va o‘rni. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.....	57
3.2.	Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning obyektiv zarurligi va roli. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar.....	66
3.3.	Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakllari.....	77
3.4.	Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishni tartibga solishning jahon tajribasi.....	86
4-bob.	RESPUBLIKA INVESTITSIYA DASTURINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI VA ASOSIY PRINSIPLARI.....	90
4.1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bo‘yicha: “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” Harakatlar strategiyasining mazmuni va mohiyati.....	90
4.2.	Investitsiya dasturining mazmuni, mohiyati va ahamiyati, asosiy tamoyillari (prinsiplari).....	102
4.3.	Investitsiya loyihalarini aniq Davlat dasturiga kiritish shartlari va titul ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi. Investitsiya dasturini shakllantirish muddatlari.....	108
4.4.	Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari. Dasturning amalga oshirilishi monitoringi.....	111
5-bob.	INVESTITSIYA LOYIHALARI HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH, TAHLIL QILISH, EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH VA TASDIQLASH TARTIBI.....	120
5.1.	Investitsiya loyihalari tushunchalari va mohiyati. Investitsiya loyihalar	

	hujjatlarini tayyorlash tartibi.....	120
5.2.	Investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi.....	128
5.3.	Investitsiya loyhasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi, asosiy bo'limlarining tavsifi.....	133
5.4.	Texnik-iqtisodiy asoslar marketing kompleksi tahlili.....	147
6-bob.	KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI.....	158
6.1.	Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining mohiyati va turkumlanishi.....	158
6.2.	Kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni safarbar etish tartibi.....	162
6.3.	Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, bosqichlari va turlari.....	167
6.4.	Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMI) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) qarz mablag'lari, O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ishtirokida hamda kichik biznes (tadbirkorlik)ni rivojlantirish uchun loyihalarni tanlab olish va xorijiy kreditlarni berish tartibi.....	172
7-bob.	INVESTITSIYA LOYIHALARINI LIZING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA USULLARI.....	181
7.1.	Lizing munosabatlarining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va lizing xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslari.....	181
7.2.	Lizing turlari va lizing bitimlari mexanizmi.....	197
7.3.	Lizing loyhasining iqtisodiy samaradorligini moliyaviy baholash usullari.....	202
7.4.	Lizing to'lovlari hajmini aniqlash usullari. Forfeiting – uning mazmuni va amalga oshirilish tartibi.....	205
8-bob.	INVESTITSIYA KAPITAL QO'YIMLARINI KREDITLASH VA MOLIYAVIY TAHLIL.....	216
8.1.	Loyihalarni uzoq muddatli qarzlar evaziga moliyalashtirish tartibi. Uzoq muddatli kreditlashtirish monitoringi.....	216
8.2.	Ipoteka kreditining mohiyati va mazmuni. Jahon bank xo'jaligida ipoteka kreditining bozor iqtisodiyotidagi xususiyatlari.....	223
8.3.	Xorijiy banklar kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ...	228
8.4.	Korxonalar moliyaviy rejasining mohiyati va ahamiyati. Zararsizlik tahlili. Korxonaning kapitalga bo'lgan ehtiyoji, uning manbalari va moliyaviy tahlili.....	235
9-bob.	INVESTITSIYA LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI.....	249
9.1.	Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullarining umumiy tavsifi. Moliyaviy operatsiyalar turlari.....	249
9.2.	Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini diskontlashgan baholash asosida tahlil qilish usuli. Kapitalni diskontlash davrida qoplanish darajasini hisoblash (DPP).....	252
9.3.	Investitsiya loyihalarini sof keltirilgan qiymat hisobi (NPV). Investitsiyalarning rentabellik indeksini (PI) va ichki rentabellik me'yorini hisoblash (IRR).....	254
9.4.	Investitsiya loyihalari samaradorligini hisobot baholashga asoslangan tahlil qilish usuli. Investitsiya rentabelligini hisobot me'yori asosida hisoblash (ARR)...	257
10-bob.	KICHIK BIZNES KORXONALARINING IQTISODIY HOLATINI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISH USULLARI.....	270
10.1.	Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish mazmuni va tartibi. Korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash usuli.....	270
10.2.	O'z mablag'lari va qarzidorlik (zayom) mablag'larining muvofiqlik koeffitsiyenti.	

	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti.....	274
10.3.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti. Asosiy fondlarni eskirish (iznos) koeffitsiyenti. Foydalilikka erishishni aniqlash (sharti).....	276
10.4.	Kichik biznes korxonalarining iqtisodiy faoliyatini moliyaviy koeffitsiyentlar yordamida tahlili.....	284
11-bob.	INVESTITSİYALAR ASOSIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISH LOYIHALARI TAHLILI.....	290
11.1.	Mahalliyashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari va taqdim etiladigan hujjatlar.....	290
11.2.	Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflar kiritish va ularni ko'rib chiqish tartibi, baholash mezonlari va talablar.....	294
11.3.	Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi va loyihaning marketing strategiyasi. Mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalariga beriladigan imtiyozlar.....	300
11.4.	Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish monitoring tartibi.....	305
11.5.	Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining kasanachilik asosida kooperatsion aloqalarini rivojlantirish yo'llari va omillari.....	309
12-bob.	IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSİYALASH SHAROITIDA KICHIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI, MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	319
12.1.	Kichik (biznes) korxonalarida innovatsiya faoliyatini qo'llash zarurligi, bosqichlari va turlari.....	319
12.2.	Iqtisodiyotni diversifikatsiya sharoitida innovatsiyani qo'llashning xorij tajribalari.....	326
12.3.	Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida kichik biznes korxonalarining innovatsion-texnologik jarayoni holati.....	332
12.4.	Iqtisodiyotning tarmoqlar tizimida innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishning zamonaviy strategiyalari.....	341
12.5.	Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari.....	348
13-bob.	INVESTITSIYA TAVAKKALCHILIGI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	357
13.1.	Investitsiya faoliyatida tavakkalchilik va uning xususiyatlari.....	357
13.2.	Iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida investitsiya loyihalarining tahlili.....	360
13.3.	Investitsiya loyihalari tahdidlarining asosiy turlari tavsifi.....	363
13.4.	Investitsiya loyihalari tavakkalchiligini (risk) hisoblash usullari va ularni pasaytirish yo'llari.....	367
	GLOSSARIY.....	376
	"Investitsion tahlil" fanini o'rganish bo'yicha test topshiriqlari.....	385
	"INVESTITSION TAHLIL" FANINI O'RGANISH BO'YICHA KEYS-STADILAR VA MASALALAR.....	422
	"INVESTITSION TAHLILI" KURSINI O'RGANISH BO'YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLAR.....	435
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	504
	MUNDARIJA.....	512

Rahmon Sayibovich Muratov,  
Abror Sobirjonovich Kucharov,  
Dilmurod Mirzaaxmedovich Rasulev

## INVESTITSION TAHLIL

*Darslik*

*Muharrir*  
*Gulyamova G.F.*

*Texnik muharrir*  
*Vaxabova M.M.*

*Musahhih*  
*Karshiyeva Sh.D.*

*Kompyuterda sahifalovchi*  
*Hojiakbarova M.S.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Bosishga ruxsat etildi 2017-y. 15.05.  
Shartli bosma tabog\_i 32,8 b.t. Bichimi 60x80 1/16. Adadi 50 nusxa. Buyurtma №171

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.  
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.